

R. Shamsutdinov  
X. Mo'minov



# O'ZBEKISTON TARIXI



63.3(50')ga 73  
Sh 22

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
«MEROS» ILMIIY-AMALIIY EKSPEDITSIYA XALQARO XAYRIYA JAMG'ARMASI

---

**R. Shamsutdinov, H. Mo'minov**

# O'ZBEKISTON TARIXI

*(Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari  
uchun o'quv qo'llanma)*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2013



UO‘K: 94(575.1)  
KBK 63.3(50‘)  
Sh – 22

### Mas’ul muharrir

**Sulaymon Inoyatov**, tarix fanlari doktori, professor

### Taqrizchilar:

- A. Zamonov** – O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiq-  
lashtiruvchi metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
- X. Qurbonov** – Navoiy pedagogika instituti «O‘zbekiston tarixi» kafedrasini mudiri,  
t.f.n.

**M – 22 Shamsutdinov R.**

O‘zbekiston tarixi: o‘quv qo‘llanma / Shamsutdinov R., Mo‘minov H.;  
mas’ul muharrir S. Inoyatov. – T.: «Sharq», 2013. – 672 b.

**Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi metodik markaz tomonidan nashrga tavsiya etilgan.**


Qo‘llanmada mustaqillik yillarida o‘zbek tarixshunosligi erishgan muvaffaqiyatlar, ilgari surilgan ilmiy-nazariy metodik tavsiyalar, ayniqsa, Prezident I.A. Karimovning Vatan tarixiga doir yangicha metodologik, konseptual fikr va g‘oyalari dasturilamal qilib olinib, O‘zbekiston tarixining qadimgi davridan bugungi kunga qadar davrining muhim va dolzarb masalalari yoritilgan. Mazkur qo‘llanma Siz aziz talaba-yoshlarni O‘zbekiston tarixining yorqin sahifalari bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining notarix fakultetlari talabalari uchun tayyorlangan bo‘lsa ham undan O‘zbekiston tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-26-109-9

UO‘K: 95(575.1)  
KBK 63.3(50‘)

ISBN 978-9943-26-109-9



© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2013.

## KIRISH

*O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora isbotini topgan*<sup>1</sup>.

*Islom KARIMOV*

Buyuk istiqlolimiz sharofati ila «biz tariximiz, madaniyatimizni o'zimiz va butun dunyo uchun ham qayta tiklayotgan» hozirgi o'tish bosqichida O'zbekiston tarixi fani va uning milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oya ruhida tadqiq etish va o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida O'zbekiston tarixi o'qitilmoqda. Bu fanni o'qitish va uni butun xalqlar ommasi ongiga va qalbiga singdirish borasida Prezident I.A. Karimov respublikaga birinchi rahbar bo'lib kelganidan boshlaboq g'amxo'rlik qilib kelmoqda: «**Biz o'z tariximizni yo'qqa chiqara olmaymiz. Bu tariximizda ham qahramonona, ham fojiali sahifalar ko'p bo'lgan. Axir, keksa avlodlarning, ota-bobolarimizning kurashi va mehnatini inkor etib bo'ladimi? Ular yarim feodal holiday qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamonaviy darajaga ko'tardilar. Bu aniq-ravshan dalilni hech kim rad qila olmaydi.**

Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko'pgina bosqichlarida qo'pol xatolar va buzilishlarga yo'l qo'yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo'ya olmaydi»<sup>2</sup>.

O'zbekiston tarixi fanini ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida va bosqichlarida o'qitish borasida davlat va hukumatning ko'plab qaror va farmonlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2012-yil 27-yanvardagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik ilmiy Kengashi va Markazi tashkil etildi. Kengash va Markaz O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratish, O'zbekiston tarixidan darslik, qo'llanmalar, xrestomatiyalar tuzish bo'yicha tashkiliy va ilmiy ishlarni boshlab yubordi, joylarda ilmiy seminarlar o'tkazdi.

<sup>1</sup> *Karimov I.A.* Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият. 2008. – Б. 4.

<sup>2</sup> *Karimov I.A.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 165.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabridagi 365-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlariga kiruvchi talabgorlar doktorlik dissertatsiyasini himoya qilguncha O'zbekistonning yangi tarixi bo'yicha imtihon topshirishlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchi hamda mustaqil izlanuvchi sifatida o'qish uchun kirayotgan shaxslar O'zbekiston tarixi bo'yicha kirish imtihonlari topshirishlari shart qilib qo'yildi. O'z-o'zidan ravshanki, endilikda O'zbekiston tarixi fanining umumiy, o'rta va oliy ta'lim hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimidagi o'rni va roli yanada ortadi. Shu bois bu fandan ta'lim beruvchi va tadqiqot ishlari olib borayotgan ilmiy-pedagogik xodimlarning mas'uliyati yanada kuchayadi, ularning ilmiy-pedagogik salohiyatiga, o'quv-metodik hamda zamonaviy axborot texnologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talab ham ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yil 18-yanvarda 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida mustaqillik yillarida respublikamizda xalq maorifi, oliy va o'rta maxsus ta'limida amalga oshirilgan ulug'vor ishlar umumlashtirilib berildi. «Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, – deb ko'rsatdi I. Karimov, – Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi «Innovatsiyalarning global indeksi» ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli, deb o'ylayman. Ma'ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston – shunga e'tibor beringlar – dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan»<sup>1</sup>.

Yurtboshimizning ma'ruzasida ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimi shakllanganligi va mustahkamlanganligi, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limning barcha bosqichlarida yuksak bilimli va malakali

---

<sup>1</sup> Халқ сўзи. 2013 йил 19 январь.

kasb tayyorgarligiga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilayotganligi alohida ta’kidlandi. Ma’ruzada shu yilning 1-yanvaridan boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimi joriy etiladigan bo‘ldi. Endilikda ilmiy kengashlar, nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash maskani, ayni vaqtda ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylanishi lozim bo‘lgan yetakchi oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etiladigan bo‘ldi. Milliy istiqlol o‘zbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Uning qo‘lga kiritilishi ulkan tarixiy g‘alabadir. Bu g‘alabani qadrlash, mustahkamlash, avaylab-asrash har bir yurt farzandining fuqarolik va milliy burchidir. Har qanday mamlakatning kuch-qudrati, uning mustaqilligi, davlat chegaralarining daxlsizligi o‘sha mamlakat fuqarolarining o‘z Vataniqa mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo‘lsa, jon fido qilishga ham tayyor bo‘lishdek yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lishliklariga bog‘liqdir. Ana shunday fazilatlarning xalqimizga, birinchi navbatda yosh va barkamol avlodlarda shakllantirishda O‘zbekiston tarixining o‘rni va imkoniyatlari cheksizdir.

Milliy tarixsiz milliy g‘oya va milliy mafkurani o‘zi bo‘lmaydi. Shunday ekan milliy tariximiz qanday kechgan bo‘lsa, shundayligicha yaratmasdan turib milliy g‘oyani ham, milliy mafkurani ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayni vaqtda Vatan tarixini bilish, o‘zlikni anglash hamdir. Millatni millat, xalqni xalq qilib tanitadigan ham milliy tarixdir. Ammo Yurtboshimiz ta’kidlaganidek istiqlolimizga kabi, tariximizga ham ichkaridan, tashqaridan tahdid solayotgan kuchlar yo‘q emas. Ularning kurash vositalaridan biri tariximizni soxtalashtirish, buzish ekaniga alohida e’tibor qaratib, hozirgi tahdidlardan biri «bu o‘zbek millatining tarixini soxtalashtirish, turli xil g‘ayriilmiy talqinlar, siyosiy shiorlar bilan bizni tariximizdan, sharafli o‘tmishimizdan judo qilishga urinish tarzida namoyon bo‘lmoqda. Xorijdagi ba’zi bir siyosiy arboblal va olimlarning da’volariga ko‘ra, alohida o‘zbek degan millat yo‘q emish, balki umumiy turkiy xalq bor emish. Shuning uchun o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, boshqird, uyg‘ur va hokazo tushunchalarga barham berish kerak emish»<sup>1</sup>. Bunday soxtalashtirishlarga I.Karimov munosib javob berib, har bir xalq kabi o‘zbek xalqining ham tarixi barqarorligini zo‘r kuch bilan qayta-qayta ta’kidlab, jumladan shunday deb aytgan: «**Biz, – jahon maydonida kuni kecha paydo bo‘lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz,**

<sup>1</sup> *Каримов И.А. Ўз келажакимизни ўз кўлимиз билан курмоқдамиз. «Туркистон» газетаси мухбирининг берган саволларига жавоблари // «Туркистон». 1999 йил 2 февраль.*

**xalqimiz ko'hna Xorazm zaminida «Avesto» paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi. O'zbek millati O'zbekxon tomonidan tarqagan emas, balki O'zbekxon o'zbek millati nomini o'ziga nom qilib olgan bo'lsa ajab emas»<sup>1</sup>.**

Ayni vaqtda I. Karimov o'zbekning qadim tarixiy ildizlari turkiy xalqlar bilan bir ekani, bu birlik til, din, urf-odat, qadriyatlar va madaniyatda namoyon bo'lganini e'tirof etib, turkiy xalqlar bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish tarafdorimiz, deb aytdi. **«Lekin, – deb ko'rsatdi Yurtboshi, – biz o'zimizni hamisha mustaqil millat, o'zbek xalqi sifatida his etib kelganmiz va bu bilan biz faxrlanamiz. Bunga tarixiy, ilmiy, madaniy asoslarimiz bor. Bugun dunyo hamjamiyati bizning buyuk tariximiz va muvaffaqiyatimizni e'tirof etib, bugungi kunda bizni shu nom bilan taniydi va hurmat qiladi»<sup>2</sup>.**

Ma'lumki, qadimgi rimliklar qayg'u, dard-alam yengilganlarnikidir, ularning g'am-g'ussada qolishini o'zi kifoya qilmaydi, ular qirg'in qilinadi yoki qulga aylantiriladi, deb bejiz aytmaganlar. Bu degani g'oliblar zafarli urushlar tarixini bitadilar, o'tmishni, xotirani ham egallab, hatto kelajakni ham o'z nazoratiga oladilar, qadimdan tarixni g'olib bo'lganlar yozganlar. Bundan O'zbekistonning uzoq va yaqin o'tmish tarixi mustasno emas. Avval Rossiya imperiyasi, so'ngra Sovet mustamlakasi bo'lgan O'zbekistonning ana shu ikki imperiya qo'l ostida yashagan davri tarixi hukmdorlar qo'lida qurol bo'lgan. Bu hukmdorlar faqat ishlab chiqarish vositalarinigina emas, balki butun hayot sohalarini – jumladan, xotira va tarixni konfiskatsiya, musodara qilganlar. Shu bois ham Prezident Islom Karimov Rossiya imperiyasi davrida ham, Sovet davrida ham mustamlakachilar buyurtmasi bilan yozilgan Vatanimiz tarixini e'tirof etmasliklarini bir necha bor ta'kidlaganlar. Sobiq sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya yurgizgan siyosatning natijasi sifatida O'zbekiston umumiy maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'qitish masalasiga umuman e'tibor berilmadi. Sovetlar hokimiyati yillarida mamlakatimizning haqiqiy, tom ma'nodagi tarixi xolisona yaratilmadi. Maktablar va o'quv yurtlarida o'qitilgan darslik va adabiyotlarda esa tariximiz soxtalashtirildi. Natijada, o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga putur yetdi, xalqning siyosiy ongi o'tmaslashdi, ijtimoiy-siyosiy voqealarga befarqlik, loqaydlik hissi kuchaydi. Chunki mustamlaka asoratiga solingan xalqlarni siyosiy qorong'ilik

<sup>1</sup> *Karimov I.A.* Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. «Туркистон» газетаси мухбирининг берган саволларига жавоблари // «Туркистон». 1999 йил 2 февраль.

<sup>2</sup> Ўша жойда.



va zulmatda saqlash yo'li bilangina ular ustidan hukmronlikni o'rnatish va saqlab qolish mumkin edi.

Rossiya imperiyasi va sobiq Sovet mustamlakachilari qariyb 130 yillik hukmronligi davomida yurtimiz xalqlari o'rtasida ruslashtirish siyosatini olib bordilar, xalqimizni tarixidan o'z ona tilidan, dinidan judo qilish yo'lini tutdilar, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat bayrog'i ostida milliy urf-odatlarimiz, axloq-odob va qadriyatlarimizga xuruj qildilar. O'zbekistonni Markazning xomashyo yetkazib beruvchi bazasiga aylantirdilar. Kommunistik partiya bunday siyosatni sobiq ittifoq hududidagi barcha respublikalarda va sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlarida yurgizgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin sobiq ittifoqning barcha respublikalariga, sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlariga Markazning buyrug'i yuborilib, unda turli mavzularda ko'rsatmalar belgilandi. Xususan, buyruqlardan birida quyidagicha edi: «Mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan rahbarlarning ommaviy chiqishlarida milliy bo'yoq berilishiga yo'l qo'yiladi, ammo u millatning o'sishiga, birlashuviga xizmat qilmasligi kerak. Boshlang'ich va o'rta maktablarda, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida o'ta e'tibor qozongan o'qituvchilar chetlashtirilishi lozim bo'ladi.

Ularning o'rniga biz tomondan belgilangan kishilarni qo'yish kerak. Tarix darklarida o'tmishdagi siyosatdonlardan kimlar Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishgani yoki xizmat qilishga urinishgani haqida gapirish mumkin emas, e'tiborni faqat podshohlar zulmi va ularga qarshi qaratilgan xalq kurashiga qaratmoq lozim bo'ladi».

Millat istiqboli uchun vaziyat shu darajada halokatli nuqtaga yetdiki, O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligiga erishgandan keyin, ya'ni o'z taqdirimizni o'zimiz hal qilish imkoniyatiga ega bo'lganimizdan so'ng ham O'zbekiston tarixini o'qitishga qarshi kurash yo'lini tutuvchilar ham bo'ldilar. Ular o'z «g'oyalari»ni asoslashga intilib, «O'zbekiston tarixini jahon xalqlari bilan birga qo'shib o'qitish kerak», «O'zbekiston tarixi – bu maktab fani», «Oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixining o'rniga O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy tarixini o'qitish lozim», «Jahon xalqlari tarixini o'qitishga o'tish darkor», «Oliy o'quv yurtlarida umuman O'zbekiston tarixini o'qitishga ehtiyoj yo'q» kabi fikrlarni o'rta tashladilar. Albatta, bu milliy g'oyasizlik, g'aflat va milliy vijdon inqirozining tub o'zagida o'z ona tarixidan bexabarlik yotadi. Bu esa qullik, tobelik va mustamlaka muteligining ayanchli ko'rinishidir. Darhaqiqat, qullik, tobelik va mustamlaka muteligi asorati g'oyalardan ozod bo'lish uchun milliy ongni, tafakkurni, milliy

viydonni shakllantirmoq kerak. Buning uchun ona-Vatanning haqiqiy, tom ma'nodagi tarixini yaratmoq lozim. Tarix bo'lib o'tgan barcha voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo'llanmasini belgilashga yordam beradi. Milliy o'zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda, shajaramiz ulug'ligi va pokligini bilishda, dono xalqimizning jahon xalqlari orasida tutgan o'rniga baho berishda, uning boy hayotiy tajribalaridan kengroq foydalanishda, xalqimizning oliyjanob, hurriyatparvar va erkparvar an'alarini izchil o'rganish va uni yanada boyitishda, xullas, barkamol, haqiqiy inson shaxsini yaratishda O'zbekiston tarixining o'zni benihoya kattadir. O'zbekiston tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnasha oladigan, idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, Vatanga, ona xalqiga cheksiz mehr-muhabbat his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqlol tafakkuri va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish qurolidir. Shu boisdan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston tarixini o'rganish, uni bolalar bog'chalaridan tortib to oliy o'quv yurtlariga qadar, endilikda esa Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida ham O'zbekiston tarixini o'qitish masalalariga shaxsan e'tibor berib, katta g'amxo'rlik qilmoqda.

Islom Karimov bir guruh tarixchilar, ziyolilar va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda shunday degan: **«O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi-yo'qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgaralar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo'lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir»<sup>1</sup>.**

Yurtboshimizning xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi sessiyasida «Xalq ishonchi – yuksak mas'uliyat» nutqidagi muhim metodologik, konseptual asoslardan biri bo'lib xizmat qiladigan mana bu fikri ham g'oyat qimmatlidir: **«Ona yurtimiz Turkistonga yov bostirib kelganda ham, inqilob davrida ham, «bosmachi» degan uydirmalar chiqqan paytda ham, so'nggi yillar davomida «o'zbek ishi», «paxta ishi» degan malomat va bo'htonlar avj olgan, desantchilar kelib xonadonlarimizni xonavayron qilgan vaqtlarda ham, Farg'ona fojiasi tufayli**

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўй. – Т.: Шарк, 1998. – 10-б.

xalqimiz boshiga yog‘ilgan balo-ofatlarning barchasining sababi va ildizini yurtimizda adolat mezoni buzilganidan ko‘rish kerak. O‘ylaymanki, qachonki shu ko‘z bilan tariximizning alamli sahifalariga to‘g‘ri baho-izoh bersak, ko‘p narsani joy-joyiga qo‘yishimiz mumkin. Shunday vazifani avvalambor olimlarimiz, tarixchilarimiz, adabiyotchilarimiz, el-yurtimizning haqiqiy vatanparvarlari o‘z zimmasiga olishi darkor»<sup>1</sup>. Ana shu metodologik ko‘rsatma va aniq vazifalardan, Yurtboshimizning qator farmon va qarorlaridan kelib chiqib respublikamiz olimlari, tarixchilari tomonidan uch jildlik «O‘zbekistonning yangi tarixi» kitobi yaratildi<sup>2</sup>. Shuningdek, O‘zbekistonning tarixi haqida bir qator katta-katta kitoblar, monografik tadqiqotlar, ilmiy-ommabop risolalar, hujjatlar va materiallar to‘plamlari yuzaga keldi. Ularda Vatanimizning ko‘p ming yillik tarixi, uning turli davrlari va bosqichlari xususida yangicha talqin etilgan asarlar yaratilmoqda. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma, darsliklar ham yaratildi<sup>3</sup>.

Yurtboshimizning, «**Tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va iltiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi**»<sup>4</sup>, deb aytgan fikrlari nihoyatda pur ma‘nodir. «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi Qarorida «**istiqlol yillarida boy tariximiz, bebaho merosimiz, din-u diyonatimiz, ko‘hna urf-odat va an‘analarimizning qayta tiklangani, istiqlo davri Vatanimiz uchun chinakam ma‘naviy tiklanish va yuksalish davri bo‘lganini ifoda etish**»ga alohida ahamiyat berish ta‘kidlandi<sup>5</sup>.

Bu kabi fikr-mulohazalar, metodologik, konseptual qarashlar, o‘zbek tarix-shunosligining mustaqillik yillarida qo‘lga kiritgan yutuqlari asos qilib olinib

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Биздан озод ва обод ватан қолсин. 2- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 349.

<sup>2</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ. 2000. – Б. 463; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ. 2000. – Б. 687; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ. 2000. – Б. 773.

<sup>3</sup> *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. Birinchi kitob. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. – Т.: Sharq 2010. – B. 511; *Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘.* Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. – Т.: Sharq. 2010. – B. 365; *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. Uchinchi kitob. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. – Т.: Sharq. 2010. – B.494.

<sup>4</sup> *Каримов И.А.* Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 97.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. «Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма икки йиллик байрамга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида». Халқ сўзи, 2013 йил 14 июнь.

respublika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun O‘zbekiston tarixidan davlat ta’lim standartdardi o‘quv dasturi talabi darajasida mazkur o‘quv qo‘llanma tayyorlandi. O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining notarix ta’lim yo‘nalishlari bakalavriat talabalari va bitiruvchilar uchun mo‘ljallangan. Tabiiyki, bu qo‘llanma ayrim kamchilik va nuqsonlardan xoli emas. Ular kelgusi nashrlarda tuzatiladi va takomillashtiriladi degan umiddamiz.

## **1-MAVZU: O‘zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati**

### ***Reja:***

- 1. O‘zbekiston tarixining predmeti va dolzarb muammolari.**
- 2. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning ilmiy - nazariy va metodologik asoslari.**
- 3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish. Uni o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni.**
- 4. Barkamol avlodni shakllantirishda O‘zbekiston tarixining ahamiyati.**

***Tayanch so‘z va iboralar:*** Tarix fani predmeti va obyekt. Metodologik tamoyillar. Dialektik metod. Milliy istiqlol g‘oyasi. Vatan tarixini davrlashtirish. Moddiy manbalar. Yozma manbalar. Tarixiy xotira.

### ***Adabiyotlar ro‘yxati:***

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
3. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
4. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
5. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I-қисм. – Т.: 2002. – Б. 6–21.
6. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганишнинг ягона концепцияси. – Т.: 1996.
7. Ўзбекистон тарихи / *Р. Муртазаева* умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 7–20.
8. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S.* O‘zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – В. 6–22.
9. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas‘ul muharrir: A. Sagdullayev. – Т.: Sharq, 2010. – В. 4–13.

**1. O‘zbekiston tarixining predmeti va dolzarb muammolari.** O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o‘tmishga borib taqaladi.

Yashab turgan hududimiz tarixiy manbalari, arxeologik qazilmalari, xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun olam tan olmoqda. O‘zbekiston tarixi umumjahon – insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki yurtimizda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar u yoki bu darajada o‘zga xalqlar va davlatlarga ta’sir qilgan.

O‘zbekiston tarixi fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik fuqarolik jamiyatni shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o‘rgatadi. Shu bilan bir qatorda bu fan xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi ko‘zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma’naviy saboqlar majmuasidir.

Tarixiy haqiqat to‘la ro‘yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va obyektini to‘g‘ri belgilanishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki O‘zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obyekt masalasi asosiy masala hisoblanadi. Zero, fan uning o‘rganish predmeti va obyektini aniq bo‘lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq qolib, maqsadga erishish mushkul.

O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy va tabiat fanlaridan farqli o‘laroq mustaqil fan. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega. U barcha fanlar tarixini ham o‘z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta’sir etadi. Bu uning o‘rganish predmeti va obyektini hamda vazifasida to‘la namoyon bo‘lmog‘i kerak. Tarix fani o‘z xususiyatiga ko‘ra, *birinchidan*, o‘zining butun diqqat-e’tiborini faqat o‘tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma’naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o‘rganadi. *Ikkinchidan*, O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik – xronologik asosda o‘rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dallilarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqea bo‘lganligi aniqlanadi. Bo‘lib o‘tgan voqelik ko‘lamining aniq sabab va oqibatlarini, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi. *Uchinchidan*, O‘zbekiston tarixi fani o‘tmishdagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o‘rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa, kelajak avlodlar uchun dasturulamal bo‘ladi. *To‘rtinchidan*, O‘zbekiston tarixi fani ko‘p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining



faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fani, O'zbekistonning o'tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti va tanazzulini tahlil qiladi. Uning o'rganish *predmetiga* esa, mana shu makondagi jamiyki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi. O'zbekiston tarixi fanining o'rganish *makoni* – *obyekti* O'zbekistonning tarixidir. Tarixiy obyekt (makon)ga nisbatan O'zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda obyekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

*Obyekt* aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, shular doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi.

*Predmet* esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iboratdir. O'zbekiston tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat, o'z o'tmishini bilishi, o'zligini o'zi anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturulamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas, jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, madaniyat, maorif, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo, boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarix fanlari ham tarix fanining o'rganish obyekti va predmeti hisoblanadi.

O'zbekiston tarixi fani yakka holda rivojlanmaydi. U ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan doimo o'zaro aloqada turadi. Insoniyat hayotining ma'no-mazmuni va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqida fikr yuritganda falsafa, davlat qurilishi va jamiyatni boshqarish masalalarida politologiya, iqtisodiy hayotni yoritishda iqtisodiyot nazariyasi, xalqning turmush tarzi, tili va milliy mentalitetini tasvirlashda etnografiya, o'zbek tili va adabiyoti, dinshunoslik fanlari yutuqlaridan foydalaniladi. Tarixshunoslik, manbashunoslik, arxeologiya, arxivshunoslik kabi maxsus fanlar tarix falsafasini chuqur anglab yetishga ko'maklashadi.

Bugungi kunda O'zbekiston tarixining ko'plab mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunday bo'lsa-da, ushbu fanning dolzarb muammolari, qaytadan ko'rib chiqishi va o'rganilishi lozim bo'lgan masalalari ham mavjuddir.

Jumladan, o'zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish bosqichlari; Vatanimiz hududida eng qadimgi davrlardan boshlab yashayotgan aholi, ularning joylashuvi va ijtimoiy aloqalari; bu aholining qo'shni qabilalar va elatlar bilan o'zaro turli munosabatlari kabi masalalarni bunga misol qilish mumkin.

Shu bilan birga dastlabki o'zbek davlatchiligining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham muhim masaladir. Ayniqsa, mahalliy qadimgi aholi o'troq yashaganligi, dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirganligi, dastlabki aholi manzilgohlarining paydo bo'lganligi; dastlabki manzilgohlar rivojlanib ilk shaharlarga aylanganligi; dastlabki shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'muriy markazlar sifatida rivojlanganligi va nihoyat, mazkur jarayonlarga asos bo'lib xizmat qilgan omillar o'ta muhimdir.

Arxeologik manbalar asosida o'lkamiz hududida qadimdan vujudga kelgan ilk davlat uyushmalari tarixi, ularning o'zaro va qo'shni davlatlar bilan olib borgan turli aloqalari, ularning tarixiy-geografik hududi va chegaralarini o'rganish ham munozarali mavzu hisoblanadi. Shu o'rinda yurtimiz hududlari va xorijda bitilgan o'rta asrlarga oid yozma manbalar asosida O'zbekiston tarixi sahifalarini yanada kengaytirish va boyitish bo'yicha qilinadigan ishlar nihoyatda ko'p.

## **2. O'zbekiston tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari.**

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu o'rinda Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», «Tarix halq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir» kabi so'zlari ham nazariy, ham metodologik ahamiyatga egadir.

Islom Karimov o'tmishni o'rganishda tarixiy taxlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirish asosiy vazifadir, deb uqtirmoqda. Bu vazifani amalga oshirish O'zbekiston tarixi fanini o'rganishning ilmiy va uslubiy asoslariga tayanishni talab etadi. Bunday yondashish zaminida dialektik metodni qo'llash yotadi. Dialektika (yunoncha – dialektike – rivojlanish to'g'risidagi falsafiy ta'limot) olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishi, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Bu degani olamda sodir bo'lgan hodisalar, voqealar ma'lum bir bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyot jarayonida sodir bo'lishini inobatga olmoq lozim. Demak, O'zbekiston tarixini o'rganar ekanmiz, uning jahon tarixining bir bo'lagi ekanligini yodda tutmoq darkor. Negaki, har bir xalq tarixi milliylik, o'ziga xos

betakror xususiyatlari bilan jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishidadir.

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda holislik – haqqoniy, adolatli yondashuv muhim metodologik qoidadir. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida aytib o'tganidek, «Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi».

Xolislik qoidasini tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada va munosabatda deb o'rganish darkor.

– O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik tamoyili o'sha davr shart-sharoitlarini, tarixiy muhitni inobatga olmoqni taqozo qiladi. Voqea-hodisalarni o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda bo'lganligini bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtayi nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi; uchinchidan, u hali ham mavjudmi; hozir qay ahvolda, qanday bo'lib qoldi; degan savollarga aniq javob berishi zarur bo'ladi.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, porloq hayot, turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'z o'tmishini yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini, buyukligini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz. Shuningdek, hozirgi zamonni, bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to'g'ri idrok yetishga, o'tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko'maklashadi.

Tarixni o'rganish faktlarni taqqoslash, mantiqiy, qiyosiy xulosalar chiqarish va umuman falsafiy tafakkur bilan yondashishni talab qiladi va o'tmishimizni teran anglashda asosiy mezon bo'lib qoladi. Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi

rivojiga bog'liq bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog'liq. Bu holdagi uzviy ikki tomonlama bog'liqlik umumiy qonuniyatdir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyati, qadim mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon tamadduniga, sivilizatsiyasiga asoslanib, O'zbekiston tarixi fani metodologiyasi ikki qismdan iborat:

**1) O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslari. Bunga quyidagilar kiradi:**

- din bilan dunyoviylik o'rtasida mo'tadil munosabat bo'lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;
- tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;
- tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtayi nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;
- tarixiy taraqqiyot asosini evolutsiyon tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi, deb anglamoq;
- tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;
- tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.

**2) O'zbekiston tarixi fanining metodologik asoslari va tamoyillari quyidagilardan iborat:**

- Ilmiy xolislik (obyektivlik);
- Tarixiylik;
- Mantiqiy uzviylik;
- Vorislik va xronologik izchillik;
- G'oyaviylik va vatanparvarlik;
- Halollik va xolislik;
- Qiyoslash, kuzatish, umumlashtirish;
- Bahslashish, munozara yuritish va isbotlash;
- Matematik hisoblash;

- Shakllash va modellashtirish;
- Ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz'iy)likka (deduksiya);
- Etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya, matematika va boshqa fanlarning yutuqlari hamda metodlaridan ham keng foydalanish;

**3. O'zbekiston tarixini davrlashtirish. Uni o'rganishda tarixiy manbalarning o'рни.** Barcha tarixlarda bo'lganidek, O'zbekiston tarixida ham davrlashtirish masalasi o'ta muhim masala. U shu tarixni o'rganuvchi tarix fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va metodlari bilan bevosita bog'liq. Demak, tarix fani qanchalik haqqoniy ilmiy-nazariya, g'oya, ta'limot va metodologiya hamda usullar bilan qurollangan bo'lsa, u shunchalik to'g'ri davrlashtiriladi.

Ma'lumki, tariximiz juda qadim va katta davrni hamda juda keng geografik mintaqani, shuningdek, tub burilish, yuksalish va inqiroz bosqichlarini ham o'z ichiga oladi. U xilma-xil ijtimoiy voqea va hodisalarga, har xil diniy va madaniy qatlam, g'oyaviy dunyoqarash va falsafiy oqimlarga boy, jahon tarixi va sivilizatsiyasining eng qadimiy va navqiron o'choqlaridan biri hisoblanadi. O'tmishda taqdir taqozosiga ko'ra tariximiz aniqrog'i Vatanimiz hududi jahon miqyosida kengayib va ma'lum geografik mintaqada torayib keldi. Bu tariximizning o'ta buyuk, shu bilan birga, juda ham murakkab bo'lganligidan dalolatdir. Shuni ham aytish joizki, bu holat hozirgi jonajon Vatanimiz O'zbekiston tarixining chegarasi va davrlashtirilishini ancha murakkablashtirdi.

Istiqlol yillari davrida tarixchi olimlarimiz tomonidan Islom Karimovning «O'zbekistonning yangi tarixini yaratish» kerakligi haqidagi metodologik va konseptual g'oyalari amal qilgan holda ko'p ming yillik Vatanimiz tarixining ilmiy asoslangan davrlashtirilishi amalga oshirildi:

- Ibtidoiy – jamoa tuzumi;
- Qadimgi davr: davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi;
- O'rta asrlar davri;
- Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida;
- O'zbekiston sovetlar hokimiyati davrida;
- Mustaqillik davri;

*Eslatma: bu davrlarning har biri o'z navbatida ma'lum bosqichlarga bo'linadi.*

O'zbekiston tarixi fanida tarixiy manbalarning o'рни va ahamiyati benihoyat kattadir. Tarixiy manbalar davr nuqtayi nazaridan qadimiy va joriy (kundalik)




ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, ularni o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra **birlamchi va ikkilamchi** manbalarga ajratish mumkin. **Birlamchi** manbaga tarixiy hujjatlarning asl nusxasi, **ikkilamchi** manbaga esa, mana shu birlamchi manbalar asosida e'lon qilingan maqola va kitoblarda keltirilgan ma'lumotlar kiradi.

Manbalar o'z holatiga ko'ra, moddiy va yozma ko'rinishlarga ega bo'ladi. Tariximizning eng qadimgi, ya'ni yozuvsiz zamonlarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalardan foydalaniladi. Bu manbalar turli-tuman bo'lib, ularga qadimgi manzilgohlar va shaharlar xarobalari, mozor-qo'rg'onlar qoldiqlari, turmush va xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat va jangovar qurollar, turli-tuman ashyolar kiradi. Moddiy va yozma manbalar ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish mumkin bo'ladi.

№	MODDIY MANBALAR	YOZMA MANBALAR
1	Mehnat qurollari	Yozuv belgilari
2	Harbiy qurol-yarog'lar	Toshga yozilgan bitiklar
3	Tanga pullar	Teriga, qog'ozga yozilgan ma'lumotlar
4	Uy-joylar, qabrlar	Xalqlar hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar
5	Uy-ro'zg'or buyumlari: idish-tovoqlar va boshqalar	Davlat boshliqlarining yozma shakldagi farmonlari
6	Devoriy tasvirlar	Yer, qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar
7	Qal'alar, shaharlar va boshqalar	Arxivlar (O'zR Prezidenti devoni arxivi, O'zR MDA va ularning viloyat, shahar va tumanlardagi bo'limlari, hamda davlat strukturasiidagi turli idoraviy va tarmoqlar)
8		Yordamchi «Narrativ» manbalar (esdaliklar, xotiralar, kundaliklar)

### ***O'zbekiston tarixini yaratish va o'rganishdagi asosiy manbalar:***

1. Arxeologik, etnografik, epigrafik, numizmatik manba va materiallar, yozma manbalar – «Avesto», mixxat, fors yozuvlari, qadimgi yunon, xitoy, hind, rim va vizantiya tarixchilarining asarlari.



2. Ulug' ajdodlarimiz – buyuk allomalar va dono mutafakkirlar, tarixchilar, shoirlar, yozuvchilar qoldirgan asarlar.

3. Turli hujjatxonalarda saqlanayotgan qo'lyozma asarlar, hujjatlar, ashyolar.

4. Kutubxonalarda saqlanayotgan yozma kitoblar, ilmiy, badiiy memuar asarlar, darsliklar, qo'lyozmalar, risolalar, to'plamlar.

5. Muzeylarda saqlanayotgan ko'rgazma zallari hujjatlari, birinchi navbatda arxeologiyaga oid qazilma yodgorliklari.

6. Muzey – shaharlar, tarixiy obidalar, yodgorliklar.

7. Kino, fono, foto hujjatlar va hokazolar.

Hozirgi kunga kelib bizgacha yetib kelgan bunday moddiy va yozma manbalarning ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Sharq qo'lyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qo'lyozmalar xazinalaridan hisoblanadi. Bu yerda 40 mingdan ziyod qo'lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq Sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Shuningdek, Vatanimiz tarixiga oid muhim qo'lyozma hujjatlar, nodir kitoblar, qimmatli ma'lumotlar xorijiy mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda saqlanmoqda. Ana shu qo'lyozma hujjatlar va kitoblarning hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi Vatanimiz tarixini yanada to'laroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi «oq» va «qora» dog'larning barham topishiga ko'maklashadi.

#### **4. Barkamol avlodni shakllantirishda O'zbekiston tarixining ahamiyati.**

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz: «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida «Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi», – deydi. Ushbu so'zlar komil insonni tarbiyalashda O'zbekiston tarixini xolisona va haqqoniy o'rganish naqadar muhim ekanligining dalilidir.

O'zbekiston tarixi fani oldida turgan asosiy vazifa quyidagilardan iboratdir: **Birinchidan**, yoshlarga va bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish. **Ikkin-**

*chidan*, yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash. *Uchinchidan*, yoshlarda otashin vatanparvarlik va harbiy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatni tarbiyalash. *To'rtinchidan*, yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e'tiqodlik)ni tarbiyalash. *Beshinchidan*, yoshlarni Vatan va xalq, millat, ota-ona, farzand, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarni chuqur his etish va ularni sadoqat ruhida tarbiyalash.

O'zbekiston tarixi fani mana shu yuqoridagilar va bulardan boshqa o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashga behad katta hissa qo'shadi. O'zbekiston tarixining davlat boshqaruvi va qurilishida, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida, millat va xalq hayotida tutgan o'rni hamda ahamiyati benihoya katta ekanligi qadim-qadimdan e'tirof etib kelinmoqda. Bunga tariximizning o'zi guvoh. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixning bu ajoyib xislati va tarbiyaviy ahamiyati, kuch-qudratini barchamiz teran his etishimiz va anglab yetmog'imiz lozimdir. Tarix – bu nafaqat o'tmish, uning tahlili bugungi kunimiz uchun muhim xulosalar manbayi bo'lib, u istiqbolimiz rejasini aniqlashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

*«G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun avvalo, uning tarixini uyg'ot».*

*A. Avgustian.*

*«Tarix millatlarning o'tmishi, taraqqiyoti hamda tanazzulining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir».*

*Abdurauf Fitrat.*

*«Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi».*

*Islom Karimov.*

## 2-MAVZU: O'rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri

### Reja:

1. Jahon taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining o'rni.
2. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari.
3. Ajdodlarimizning ilk diniy e'tiqodlari. «Avesto» – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Sivilizatsiya, insoniyatning dastlabki ajdodlari, antropogenez jarayonlari, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, Teshiktosh, Joytun, Hisor, Kaltaminor, Sarazm, Zamonbobo, Sopolli, Zarautsoy, ibtidoiy urug'chilik tuzumi – matriarxat va patriarxat, ajdodlarimiz hayotidagi ilk diniy e'tiqodlar, zardushtiylik, «Avesto».

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. АВЕСТО // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т.: ЎЗМЭ, 2000. – Б. 65–66.
3. *Авесто.* Яшт китоби. Ўзбек тилига М. Исҳоқов илмий-изоҳли таржималари. – Т.: Шарқ, 2001.
4. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 25–26.
5. *Жўраев У., Саиджонов Й.* Дунё динлари тарихи. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 65–73.
6. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I қисм. – Т.: 2002. – Б. 22–43; 50–55.
7. Когда, где, как и почему это произошло. Лондон-Нью-Йорк-Сидней-Кейптаун-Монреаль. Отпечатано во Франции в 1998 г. – С. 448.
8. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 135–150.
9. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 21–59; 87–90.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т.: ЎЗМЭ, 2002. – Б. 682–683.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Т.: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 88–92.
12. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / Қ. Ражабов [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: O'zbekiston, 2012.
13. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – Б. 23–44, 52–56.
14. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 14–31; 94–103.
15. [http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi\\_uzk.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi_uzk.pdf)

## 1. Jahon taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining o'rni.

Insoniyat qadim-qadimdan o'z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma'naviy madaniyatga, ya'ni ma'lum darajadagi sivilizatsiyaga ega bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan insoniyat sivilizatsiyasi darajasi o'sib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli qanchalik darajada moddiy va ma'naviy boylklarni yaratish va ko'paytirib borishi bilan bog'liq kechgan.

U yoki bu sivilizatsiya haqida so'z borganda insoniyatning yashash uchun kurashi, tinimsiz mehnati, ma'naviyat va ma'rifatga intilishi tufayli o'zi uchun yaratgan jismoniy va madaniy qulayliklari – ov va mehnat qurollari, kiyim-bosh, uy-joy va oilaviy munosabatlari, ishlab chiqarish usullari, maishiy xizmat vositalari, ijtimoiy ongi va ma'naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-huquqiy munosabatlari darajasi bilan tavsiflanadigan ma'lum bir tarixiy davr tushuniladi. Masalan, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi, Antik Yunon-Rim sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiyasi, Xristian sivilizatsiyasi, hozirgi zamon sivilizatsiyasi kabi tushunchalarda insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, axloqi, bilim saviyasi, mehnat qurollari va hokazo jihatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Har bir mintaqada sivilizatsiya davriy nuqtayi nazardan ertaroq yoki kechroq, o'ziga xos shaklda shakllanib, rivojlanib borgan. Tarixiy, ilmiy tadqiqotlar bizning Vatanimiz – O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda. O'zbekiston va O'rta Osiyo hududlarida olib borilayotgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlarining natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tasdiqlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning turli davrlarda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishini sivilizatsiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda paydo bo'ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy hududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsalar, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va qisman ziroatchilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bu notekislik jarayonini tabiiy geografik sharoitlar va o'zaro munosabatlar bilan izohlash mumkin. Bu o'rinda O'rta Osiyoning cho'l va dasht hududlari hamda tog'oldi va daryo vohalari



hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni taqqoslab ko'rish (Kopetdog', Hisor, Zarafshon tog'oldi hududlari hamda Qizilqum, Qoraqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari) muhimdir.


Undan tashqari, O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni miloddan avvalgi VI–IV ming yilliklardagi o'zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**2. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari.** Yer sharida hayotning paydo bo'lishi, unda insoniyatning vujudga kelishi va rivojlanishi kabi masalalar bo'yicha olimlar uzoq yillar davomida tadqiqotlar olib borib, turli nazariyalarni ilgari surib kelmoqdalar. Bu haqda dunyoviy, diniy ta'limotlar va boshqa qarashlar yuzaga keldi. Dunyoviy ta'limotga ko'ra, inson mehnat va aqliy jihatdan kamol topishi natijasida hozirgi darajasiga yetib kelgan, degan fikr bildiriladi. Diniy ta'limotga binoan odamni xudo yaratganligi aytiladi. Bugungi kunda inson boshqa sayyoralaridan kelib yerga tarqalganligi haqidagi rivoyatlar ham mavjud. Demak, sayyoramizda odamzodning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida yagona fikr yo'q deyish mumkin, bu masala muammoligicha qolmoqda.

Shuni aytish lozimki, tarix fanida insonni kelib chiqishi va rivojlanishi arxeologik va antropologik materiallar, mavjud turli manbalarga asoslanib o'rganiladi. Olimlar bergan ma'lumotlarga ko'ra eng qadimgi odamlar Yer yuzida bundan 2–3 million yil avval yashaganlar. Ular dastlab Afrika, janubiy va janubi sharqiy Osiyoda yashab, keyinchalik Osiyo va Yevropa qit'asining ichki hududlariga kirib borgan.

Ma'lumki, arxeologik izlanishlar natijasida insoniyatning dastlabki vakillarining qoldiqlari Sharqiy Afrikadagi Olduvoy darasidan topilgan. Bunda ingliz olimlari ota-bola Liki Luis va Liki Richardlarning (1959–1960-yillarida qazishma ishlari olib borilgan) xizmatlari kattadir. Bu odam qoldiqlari Tanzaniyaning Zinj nomli qishlog'idan topilgani uchun uni shu joy nomi bilan «*Zinjanthrop odami*» deb nom olgan. Olimlar tomonidan «Ishbilarmon odam» deb nomlangan «Zinjanthrop odam»ning suyak qoldiqlari yonidan tosh qurollari va har xil hayvon suyaklari ham topilgan. Zinjanthroplar bundan 3–2 million yil oldin yashab, «avstralopitek»lar («janub maymuni») oilasining eng qadimgi vakili hisobdanadi.

Zinjanthrop odamidani keyingi davrda yashagan odam qoldiqlari 1891–1892-yillari golland shifokori E. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orolidagi Trinil degan joy yaqinidan topilgan bo'lib, fanda ularni «*Pitekanthrop*» («Maymun-odam»)



deb atash rasm bo'lgan. Pitekantropalar bundan taxminan 1 mln yil ilgari yashaganlari aniqlangan. Shuningdek, 1927-yil Pekin shahri yaqinidan (Xitoy) kanadalik olim D. Blek tomonidan topilgan eng qadimgi odamlar (*arxantropalar*)ga mansub qazilma odamlar qoldiqlari «*Sinantrop*» (lot. Sina – Xitoy va yun. antropos – odam) bundan 600–500 ming yil ilgari davrga oidligi aniqlangan. Undan tashqari eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan. 1856–1870-yilda Germaniyaning Neandertal vodiysidan «*Neandertal odami*» (GFR ning Dyusseldorf shahri yaqinida; nomi shundan olingan) qoldiqlari topilgan.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzodning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar Yevropa deydilar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam dastavval Osiyoning janubida paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suradilar.

Yaqin yillarga qadar O'zbekiston hududlari eng qadimgi odamlar tomonidan 100 ming yillar ilgari o'zlashtirilgan deb hisoblanib kelinar edi. Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyo paleoliti haqidagi bahslarda bu jarayonni asosan Yevropa paleoliti bilan bog'lab kelar edilar. Ammo so'nggi yillarda O'zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.


1980-yil arxeolog O. Isломov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg'ona vodiysidagi Selung'ur (So'x tumani) g'oridan paleolit davri makonini ochishga muvaffaq bo'ldilar. So'nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Selung'ur ilk paleolit davriga oid bo'lib, 13 madaniy qatlamlardan iborat. Bu qatlamlardan juda ko'plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko'p hollarda Olduvoy qurollariga o'xshab ketadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Selung'ur topilmalarining yoshi 1 mln yildan ziyodroqdir. Selung'ur topilmalari orasidan eng ahamiyatlisi qadimgi

odam jag' suyaklari, tishlari va yelka suyaklaridir. Fanda «Farg'ona odami» – «*Fergantrop*» deb nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirish bilan birga O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonning insoniyat paydo bo'lib rivojlangan o'choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi.

Bundan tashqari fanga 1963-yillardan beri ma'lum bo'lgan Ko'lbuloq makonidan (Shimoli sharqiy O'zbekiston, Toshkent vil.) ham ko'p qatlamli yodgorlik ochilgan bo'lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit (ashel) davriga, yuqori qatlamlari esa o'rta va so'ngi paleolit davrlariga oiddir. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan, hamda bu yerdan 100 dan ziyod chopper, nukleus, qirg'ich va tarashlag'ich tosh qurollar topilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davridir. Bu davrni yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu davrni chuqur o'rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o'z faoliyati davrida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatib, kundalik hayotda o'ziga zarur bo'ladigan mehnat qurollari



yasagan, yashash uchun makonlar tanlagan, keyinchalik esa boshpanalar qurganlar. O'z navbatida bu jarayonlar inson faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa tuzumi davrini o'rganishdagi eng katta muammolardan biri – uzoq tarixiy davrni tashkil etuvchi bu bosqichni davrlarga bo'lish muammosidir. Biroq so'nggi yillardagi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, hozirgi paytda O'rta Osiyo hududi ibtidoiy jamoa tuzumi umumiy ko'rinishda *paleolit* – qadimgi tosh davri, *mezolit* – o'rta tosh davri, *neolit* – yangi tosh davri, *eneolit* – mis – tosh davri, *bronz*a davri va *temir* davriga bo'linadi.

Paleolit – ibtidoiy mehnat qurollari toshdan yasalganligi sababli eng qadimgi davrni tarixchilar *paleolit* (grekcha «palaios – palayos» – qadimgi, «lithos – litos» – tosh degan ma'noni bildiradi) – qadimgi tosh davri deb ataydilar. Paleolit davri o'z navbatida uch bosqichdan – ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleolitdan iborat.

Hozirgi O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1,2–1 mln yil avval – *ilk paleolit* davri boshlandi. Ilk paleolitning o'ziga xos tomoni shundaki, bu davrda odamlar va ularning dastlabki mehnat qurollari vujudga keladi. Biroq tosh qurollardan boshqa mehnat qurollari bizgacha yetib kelmagan.

Bu mehnat qurollari dastlab mehnat quroli topilgan makon – joy nomi bilan *ashel qurollari* deb nom olgan. Arxeologlar ilk paleolit davrini taxminan 700–300 ming yillarda bo'lib o'tgan *Shel* (XIX asrning 60-yillarida fransuz arxeologi G.Mortile tomonidan Fransiyaning Shel shahri yaqinidan topilgan arxeologik madaniyatning nomi) va taxminan 300–100 ming yillarda bo'lib o'tgan *Ashel* (Fransiyaning Amen shahri yaqinidagi Sent – Asheldan topilgan madaniyatning nomi) davriga bo'lib o'rganadilar.

Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan ajralib turadilar. Ular asosan to'da-to'da bo'lib, ya'ni ibtidoiy to'da shaklida termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar hamda tabiat oldida juda ojiz bo'lib, unda mavjud bo'lgan tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib yashaganlar. *Ibtidoiy to'da* – turmush va mehnat umumiyliги negizida



*birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasidir.* Bu davrda odamlar o'rtasida oilaviy aloqalar hali aniq tartibga tushmagan. Markaziy Osiyoda bu davrda yashagan ibtidoiy odamlar fanda *sinantrop* nomi bilan ataladi. Sinantropalar g'or va ungurlar og'zidan makon topib turli jonzotlarni ovlash, o'simlik ildizlari va yovvoyi mevalarni terish bilan kun kechirganlar, olov hosil qilishni hali bilmaganlar. Ayni vaqtda toshdan qo'l cho'qmori – chopper kabi dag'al tosh qurollar yasab, ulardan irg'itgich, urgich, chopg'ich, kavlagich va kesgichlar sifatida foydalanganlar. Shu tufayli ularni «homo – habilis» – «bilag'on odam» deyiladi.

### DASTLABKI MEHNAT QUROLLARI

- O'tkir qirrali, yassi, tuxumsimon tosh qurollari. Ular qo'l cho'qmori ham deyiladi;
- Daraxt shoxlaridan tayyorlangan yer kovlaydigan tayoq;
- Hayvonlarni zarb bilan uruvchi so'yil.

O'zbekiston hududlaridagi Selung'ur (Farg'ona vodiysidagi), Ko'lbuloq (Toshkent viloyatidagi), Uchtut (Buxorodagi) makonlari ilk paleolit davriga oiddir.

*O'rta paleolit* – miloddan avvalgi 100–40 ming yilliklar. Arxeologiyada bu davr *Muste* (*G. Mortile tomonidan Fransiyaning janubi-g'arbi (Dordon departamenti) dagi Le-Muste g'oridan topilgan madaniyatning nomi*) **madaniyati** deb ham yuritiladi.

O'rta paleolit – qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida o'rta paleolit yoki muste davri, avvalo, odamlar qiyo-



A.P. Okladnikov



Teshiktosh odam (neandertal – Surxondaryo vil., Boysun tog'idagi). M.M. Gerasimov tiklagan

fasining o'zgarishi, neandertallarning vujudga kelishi bilan farqlanadi. Ularning peshonasi va jag' tishlari bo'rtib chiqmagan, miyasi kattaroq bo'lgan, tik yura olgan. Bu davrga oid dastlabki yodgorlik Boysun tog'idagi Teshiktosh (Surxondaryo) g'or makoni 1938-yilda A. Okladnikov tomonidan ochilgan edi. Surxon vohasidagi (Boysuntog') Teshiktosh g'or-makon topilmalari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. Bu g'or makondan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Teshiktosh g'or-makonining yuqori qatlamlaridan 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan.

Olimlarning fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu bola dafn etilganda ibtidoiy dafn marosimlariga amal qilinib, jasad atrofiga tog' echkisi shoxlari qadab qo'yilgan. Shuningdek, g'or-makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o'rni va atroflaridan tog' echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan. Teshiktosh odami O'rta Osiyodagi neandertal qiyofadagi qadimgi odamlarning yagona vakili bo'lib, bu hududlardan hozirgacha boshqa topilmagan.

O'rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan bir qancha izlanishlar natijasida o'rta paleolit davriga doir ko'plab makonlar aniqlandi. Jumladan, Omonqo'ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo'tirbuloq va Zirabuloq (Samarqand), Qorabura (Vaxsh vohasi), Jarqo'rg'on (Shimoliy Tojikiston), Ko'lbuloq va Obirahmat (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Tossor (Qirg'iziston), Og'zikichik (Tojikiston), Xo'jakent (Toshkent viloyati), Qopchig'ay (Qirg'iziston) kabi ko'plab makonlar o'rta paleolit davriga oid bo'lib, ularning jami 300 ga yaqinlashib qoladi.

O'rta paleolit davri O'rta Osiyo hududlarida tabiiy iqlim o'ziga xos bo'lib, yozda ob-havo iliq va quruq, qishda esa sovuq va namgarchilik bo'lgan. Bu davrning o'rtalari va oxirlariga kelib shimoldan ulkan muzlikning siljib kelishi natijasida iqlim tamoman o'zgaradi. Natijada qadimgi



Qo'tirbuloqdan topilgan muste davri tosh qurollari (Samarqand viloyati)

odamlar turmush tarzida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Sovuq iqlim tufayli odamlar ko'proq g'orlarga joylasha boshlaydilar. Janubdagi kichik tuyoqli issiqsevar hayvonlar qirilib ketib shimol bug'ulari, mamontlar, ulkan ayiqlar paydo bo'ladi. Ulkan hayvonlarning paydo bo'lishi esa o'z navbatida jamoa bo'lib ovchilik qilishning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Sovuq iqlim ta'sirida odamlarning issiqlik manbayiga bo'lgan ehtiyoji ortib boradi. Dastlabki odamlar hayvonlar kabi osmonda sodir bo'ladigan momaqaldiroq va chaqmoq zarbidan, vulqon otilganda paydo bo'ladigan olov lavasidan, dahshatli yong'indan qo'rqr edi, keyinchalik undan foydalana boshlaydilar, olovni o'chirmaslik uchun navbatchilik qilib, olovga shox-shabba tashlab turishgan.

O'rta paleolit davri odamlari ishqalash orqali sun'iy olov chiqarishni kashf etganlar, gulxanda pishirilgan mazali va to'yimli go'sht iste'mol qilishgan, yirtqich hayvonlarni olov bilan qo'rqitishgan. Olovni bilib olish odamlar hayotida, ularning hayvonlar ustidan hukmronlik qilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. G'or va ungurlarni o'zlashtirish, o'choq yasab uning atrofida to'planish va nihoyat jamoa bo'lib ov qilish uslublari paydo bo'ladi.

*So'nggi paleolit* – miloddan avvalgi 40–12 ming yilliklar. Bu davr yodgorliklari Muste madaniyati yodgorliklariga nisbatan kamroq o'rganilgan. Hozirgi kunga qadar O'rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ziyod makonlar ochilgan. Samarqand (shaharning o'zida), Xo'jag'or (Farg'ona vodiysi), Shug'nov (Pomir etaklari), Ko'lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog'iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

Toshkent viloyatida (Ohangaron) joylashgan Ko'lbuloq makonining eng tepadagi uchta qatlami so'nggi paleolit davriga oiddir. Bu qatlamlardan nisbatan takomillashgan tosh qurollar hamda ko'plab hayvon suyaklari topilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda Toshkentning g'arbidagi Bo'zsuv II makoni ham so'nggi paleolit davriga oid ekanligi aniqlangan. Samarqand shahrida 1939-yilda ochilgan yodgorlik mintaqadagi so'nggi paleolit davriga oid dastlabki makon hisoblanadi. Samarqand makoni ko'p qatlamli bo'lib bu qatlamlardan ko'p sonli (7,5 ming) xilma-xil topilmalar topilgan. Ular orasida qirg'ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, ushatgichlar, bo'talar kabilar bor. Shuningdek, madaniy qatlamlardan gulxan qoldig'i, ko'mir parchalari va gulxan atrofidan hayvonlar hamda o'simliklar qoldiqlari aniqlangan. Bu topilmalar bu yerda yashagan kishilarning ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi. Umuman olganda, ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyo so'nggi paleolit davrini asosan uchta –

Samarqand, Xo'jag'or va Ko'lbuloq madaniyatlariga ajratadilar. Bu davrga oid madaniyatlardan faqat Samarqand shahridan so'nggi paleolit davri odamining qoldiqlari, ya'ni, yelka suyak qismlari, pastki jag' va tishlar topilgan bo'lib, tadqiqotchilar bu suyaklarni 25–30 yoshli kromanon qiyofali ayolga tegishli bo'lgan deb hisoblaydilar.

Mamlakatimizning so'nggi paleolit manzilgohlarida o'tkazilgan tadqiqotlar bu davrda mehnat qurollari yasash texnikasida, odamlarning turmush tarzi va dunyoqarashida, xo'jalik yuritishida keskin o'zgarish yuz berganligini ko'rsatadi. Xususan, odamlar g'orlardan chiqib yengil turar joylar, chayla va yarim yerto'lalarda yashay boshladilar. Ular endi faqat tog'li hududlarda yashab qolmay vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar bo'ylarida joylashadilar.

Odamlar jismoniy jihatdan ham takomillashdi. Bu davrning eng katta yutug'i antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi zamon odamlariga o'xshash bo'lgan kromanonlar (L.Larte tomonidan Fransiyaning Dordon departamentidagi Kromanon g'oridan topilgan, bundan 40–12 ming yillar avval yashagan odamlarga berilgan nom) shakllanishining boshlanishidir. Fanda bu odamni «homo – sapiens» – «aql – idrokli odam» deb ataladi. Ularning miya hajmi «homo – habilis»dan ikki baravar katta, bo'yi baland, qomati tik bo'lgan, nutqi rivojlanib, oddiy gap tuza olgan. Xo'jalikda baliq ovi kelib chiqadi. Odamlar yashash uchun kulbalar qurganlar.



Kromanon odam ish qurollari

### SO'NGGI PALEOLIT MEHNAT QUROLLARI

- Arralovchi, shiluvchi, teshuvchi tosh qurollari;
- Suyak va yog'ochdan yasalgan tishli qarmoq – garpunlar;
- Ignalar, nayza uchlari.

Mazkur davrning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ibtidoiy to'dadan **urug'chilik tuzumiga** o'tiladi. **Urug'** – birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat quroliga va qurol-yarog'larga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasidir. Qon-qarindoshlikka asoslangan urug' jamoalari ona urug'i doirasida ras-



miylashdi, u tarixda *matriarxat* deb nom oldi. *Matriarxat* – eng qadimgi tuzum rivojidadagi bir bosqich bo‘lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilanib, urug‘ va oila boshlig‘i ayol kishi bo‘lgan. Bir urug‘dan tarqalgan odamlar jamoasi katta bir g‘orda yoki bir necha kulbadan iborat joyda birgalikda yashagan, birgalikda mehnat qilgan, mehnat mahsulotlari butun urug‘ a‘zolarining umumiy mulki hisoblangan. Mehnat qurollari tayyorlash, ovqat topish, yoshlarga ov qilishni o‘rgatish ishlariga urug‘ oqsoqoli rahbarlik qilgan. Urug‘ning eng tajribali va hurmatli a‘zosi oqsoqol bo‘lgan.

Odamlar tosh va suyakka tasvir tushirishni, ayollar uchun turli bezak va taqinchoqlar, ayollarning haykalchalarini yasashni o‘zlashtirganlar. G‘orlarning devorlariga yirik hayvonlarning tashqi ko‘rinishini, ov manzaralarini tasvirlovchi rasmlar chizganlar. Hayvonlar va ovchilarning harakatlarini namoyon etuvchi o‘yin – raqs-lar vujudga kelgan. Shu tariqa, tasviriy va amaliy san‘at paydo bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda qadimgi odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar ham paydo bo‘ldi.

So‘nggi paleolit davridayoq insonning yevropoid, negroid, mongoloid kabi irqiy turlari paydo bo‘ladi. Bu irqlar odamlar taraqqiyotining sifat ko‘rsatkichi bo‘lmay, tabiiy shart-sharoitlar ta‘sirida vujudga keladi. Yevropoidlar Yevropada, negroidlar Afrikada, mongoloidlar Shimoliy, Sharqiy va Janubiy Osiyoda yashaganlar.

*Mezolit* («mezos» – o‘rta, «litos» – tosh) – miloddan avvalgi 12–7 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davrga doir arxeologik topilmalar O‘zbekistonning janubidagi Machay g‘ori, Zarautsoy qoyasi (Surxondaryo), Obishir (Farg‘ona vodiysi), Bo‘zsuv, Qo‘shilish (Toshkent), Sho‘rkul, Achchiqko‘l, Yangi qadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko‘l va boshqa hududlaridan topilgan.

Mezolit davriga kelib ulkan muzlikning yana shimolga tomon chekinishi natijasida odamlarning yer yuzi bo‘ylab keng tarqalish imkoniyatini beradi. Kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o‘zlashtira boshladilar. Xususan, janubiy o‘lkalarda, shuningdek, O‘rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurolchalar – mikrolitlar paydo bo‘lib, ular uchun suyak va yog‘och dastachalardan qadama sifatida foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o‘z tarixidagi dastlabki murakkab moslama – o‘q-yoyni kashf etdi. Natijada chopqir kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. O‘q-yoydan foydalanish insoniyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ovchilikni insonlarning hayot manbayiga aylantirdi, ovdan keladigan daromad va zahiralarni ko‘payib borgan. O‘q-yoy quroli odamning yolg‘iz o‘zi hayvonlarni ovlash, jamoadan ajralib hayot kechirishiga imkoniyat yaratadi.

Bu davrning eng katta yutuqlaridan yana biri yovvoyi hayvonlar (it, bug'i, qo'y, echki kabilar) qo'lga o'rgatila boshlanib, xonakilashtirilishidir. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O'rta Osiyoning ba'zi joylarida termachilikdan yovvoyi o'simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o'tish boshlanadi. Bu jarayon ilg'or, unumdor ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik iqlim bilan bevosita bog'liq edi.

### MEZOLIT DAVRI QUROLLARI

- O'q-yoy quroli (kamon va paykonlar);
- Tayoq uchiga o'tkir uchli nayzalar o'rnatilgan irg'ituvchi nayza qurollari.

Mezolit davriga oid mozorlarning tahlili odamlarda diniy e'tiqod shakllanayotganini, u dunyoga ishonganini ko'rsatadi. Machay qabristonida jasad chalqanchasiga yotqizilgan bo'lib, ustiga qizil rang sepilib, atrofiga tosh taqinchoqlar terib qo'yilgani aniqlangan. Ko'hitong tog'idagi Zarautsoy qoyasidan (hozirgi Surxondaryo viloyati) topilgan suratlar esa tasviriy san'atning vujudga kelganligini ko'rsatadi. Qoyada yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Zarautsoy qoyalaridagi suratlar o'sha davr rassomlarining fikr doirasini, diniy tasavvurlarni tasviriy san'atda qanchalik darajada aks ettirganliklari haqida fikr yuritishga asos beradi.



Tosh davri rasmlari. Zarautsoy darasi (Surxondaryo)



Neolit davri tosh qurollari  
(Jonbos IV makoni)

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir.

*Neolit* («neos» – yangi tosh) – miloddan avvalgi 6–4 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Fanga neolit tushunchasini ingliz arxeologi Lebbok olib kirgan.

Neolit davrida qurollar ishlash texnikasida tub o'zgarishlar yuz bergan. Yangi tosh qurollari orqali silliqlash, pardoqlash, parmalash usullari ixtiro etildi. Tosh qurollari orasida tosh boltalar, ponalar, iskanalar, tosh-teshalar, paydo bo'ldi. Shu boisdan neolit davri «toshboltalar asri» ham deyiladi.

Bu davrning yana bir yangiligi – bu hunarmandchilikning sopol buyumlar yasash tarmog'i vujudga keladi. Shuning uchun bu davrni «sopol asri» ham deyishadi. Odamlar hayotida chorvachilik va dehqonchilik vujudga keladi va xo'jalikda asosiy o'rinni egallaydi. Neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllanib

bo'ladi. Bu insoniyat erishgan katta yutuq bo'lib, odamlar tabiatga qaramlikdan butunlay qutuladilar. Urug' jamoalari ozuqa izlab ko'chib, daydib yurishdan o'troq hayot kechirishga o'tadilar. Doimiy yashaydigan kulbalar, uylar qurish odamlarning turmush tarziga aylanadi, qishloqlar vujudga keladi.

### NEOLIT DAVRI MEHNAT QUROLLARI

- Toshbolta, pona, iskana;
- Motiga (ketmon – tasha);
- Chaqmoq toshga tig' o'rnatilgan suyak o'roq;
- Toshdan yasalgan don yorg'uchoq;
- Loydan qo'lda yasalgan va pishirilgan sopol idishlar;
- Zig'ir tolasi va jundan ip yigiruv urчуqlari, mato to'quv dastgohlari yasaldi. Kiyimlar tikilgan;

➤ Yog'och g'o'lalarni bir-biriga bog'lab yasalgan suvda suzuvchi sol, qayiqalar.


Neolit davrida odamlar hayvon terisidan tikilgan kiyimlar o'miga jun va o'simlik tolasidan to'qilgan matolardan tikilgan kiyimlar kiyadigan bo'ladilar. Hunarmandchilikda to'qimachilik, tikuvchilik tarmog'i ham paydo bo'ladi. Odamlar yog'och va qamishdan qayiq yasab (qayiqsozlik) suvda suzishni ham o'zlashtirdilar. Bular bu davrning muhim kashfiyoti va ixtirosidir.

Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab quyidagi madaniyatlariga bo'linadi: Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati.

**Joytun madaniyati (mil. avv. 6–5 ming yilliklar)** – Janubiy Turkmanistonda, Ashgabat shahridan 25 km shimoldagi Joytun manzilgohidan topilgan bo'lib, mil. avv. VI–V ming yilliklarga oiddir. Bu madaniyat qoldiqlari nafaqat Turkmaniston, balki butun O'rta Osiyoda mashhur bo'lib, bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar namunalari aniqlangan. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug'ullangan.

**Kaltaminor madaniyati** akademik S.P.Tolstov tomonidan ochilgan. Bu madaniyat Xorazm viloyati hududidagi Jonbosqal'a nomi bilan mashhur bo'lgan 4 ta makonni o'z ichiga oladi. Jonbosqal'a makonini qazish paytida chayla va yarim yerto'la shaklidagi makon ochilgan. Bu makon yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Ustiga ko'ndalang yog'ochlar tashlanib, usti qamish bilan berkitilgan. Chayla o'rtasidan katta markaziy o'choq qoldig'i, atrofida mayda o'choq qoldiqlari aniqlangan. Makondan nayza poykonlar, kamon o'qlarining uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan. Shuningdek, madaniy qatlamlardan baliq, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul suyaklari va jiyda danaklari ham topilgan. Topilmalar orasida sopol idish namunalari ham bo'lib, tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda ular mil. avv. V–IV ming yilliklarga oiddir.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makonidan ham topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol idish namunalari Jonbosqal'a sopollariga juda o'xshashdir. Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong'isho'r, Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar va sopol buyumlar hamda boshqa ashyolarni o'rganish, tahlil etish, Yaqin Sharq, Qozog'iston, Ural va boshqa joylardan topilgan neolit davri ashyolari bilan qiyoslash natijasida tadqiqotchilar yuqorida eslatilgan makonlar Kaltaminor madaniyatiga mansub bo'lib, mil. avv. IV–III ming yilliklarga oid degan xulosaga keldilar. Bu makonlarda yashagan neolit davri odamlari termachilik, jayron, yovvoyi cho'chqa, bug'u va boshqa hayvonlar hamda baliq ovlab kun kechirishgan.



**Hisor madaniyati.** Asosan, Hisor – Pomir tog‘laridan topilgan. Miloddan avvalgi V–IV ming yilliklarga mansub bu madaniyat yodgorliklari 200 dan ziyod bo‘lib, ular asosan Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon, Vaxsh, Kofirnixon daryolari, Ko‘lob shahri atroflaridan topilgan. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug‘ullanganlar.

**Eneolit** (mis – tosh davri) – miloddan avvalgi 4–3 ming yillikning o‘rtalarini o‘z ichiga oladi. Insoniyat tarixining tosh davri o‘rnini metall qurollar egallay boshladi. Eneolit davriga oid ashyolar O‘rta Osiyoning Janubiy Turkmaniston hududlari (Joytun madaniyati: Anov I–II va Namozgohtepa I–III madaniyati), Amudaryo va Zarafshon quyi oqimlarida (Kaltaminor madaniyati), Kaptarqumi, Kattatuzkon mavzolari atrofida, Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km g‘arbdagi Sarazm qishlog‘ida (Tojikiston), Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq mavzolari va Zamonbobo qabristoni kabi makonlardan topilgan.

Miloddan avvalgi 4 minginchi yillarda odamlar misdan qurollar yasashni o‘rganadilar. Mis metall sifatida yumshoq bo‘lganligi tufayli, undan yasalgan qurollar mo‘rt, yumshoq va tez egiluvchan bo‘lgan. Shu sababdan toshdan mehnat qurollari yasash ham davom etgan. Bu davrni eneolit, ya‘ni mis-tosh davri deb ataladi. Odamlar dastlab misni yer yuzasidan sof holda uchratib, undan mehnat qurollarini yasaganlar. Keyinchalik uning olovda erishini bilganlar va undan turli xil shakldagi qurollar va buyumlar (misan pichoqlar, bigizlar, ignalar, boltalar, uzuklar, munchoqlar, sirg‘alar) tayyorlaganlar.

### ***O‘rta Osiyoda quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog‘liq:***

1. Xo‘jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;
2. Toshdan ishlangan qurollar ko‘p bo‘lgan holda mis qurollarning paydo bo‘lishi;
3. Katta-katta ibtidoiy jamoalarning paxsadan va xom g‘ishtdan tiklangan katta-katta uylari;
4. Kulolchilikda muhim texnika yutug‘i – xumdonlarning ishlatilishi;
5. Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug‘i (matriarxat)ga xos haykalchalari;
6. Rangdor, turli tasvirlar bilan bezatilgan sopol buyumlar mavjudligi.



Eneolit davrida O'rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko'tariladi. Lekin bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi. Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o'tgach, madaniy, xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo'jalik turlari – dehqonchilik va chorvachilik avvalgidek, Turkmanistonning janubi g'arbidagi qulay geografik sharoitda rivojlanadi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o'simliklar o'stirishga o'tmagan edilar. O'rta Osiyoning sharqiy qismidagi tog'li hududlar aholisi xo'jaligida esa ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida O'rta Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanib qoladi.

Dasht va tog' hududlaridan topilgan xilma-xil moddiy manbalarni o'rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo'shimcha xo'jaliklar – ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo'lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga dasht odamlari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlanadi deyish mumkin. Lekin neolit davri an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko'llar atrofida yashagan.

**Bronza davri** – miloddan avvalgi 3–2 ming yilliklar. Bronza – mis, qalay va qo'rg'oshin qorishmasidir. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Mil. avv. III ming yillikka kelib O'rta Osiyo hududlarida bronza qurollar keng tarqaladi. O'zbekiston hududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi. Bu davrga mansub madaniyat izlari dastlab Xorazm, keyinroq esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan. Ulardan eng yiriklari Sopollitepa, Jarqo'ton, Tozabog'yob, Zamonbobo, Chust, Amirobod yodgorliklaridir.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va **miloddan avvalgi 2 ming yillikda** dehqonchilikdan chorva-



Bronza (jez) davri qurollari.  
Farg'ona vodiysi



Hassa. Jez (Xok xazinasi).  
Mil. avv. 3–2 ming yillik

chilikning ajralib chiqishidir. Yuqorida ko'rsatilgan yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi hududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki yirik taqsimoti) o'tib oldi. Bu tarixiy jarayon, ya'ni chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi – kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Bu davrga kelib, O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bronza davridayam davom etgan bo'lsa-da, ona urug'ining mavqeyi yo'qolib

bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqeyi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'liga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini miloddan avvalgi 3 ming yillik o'rtalariga kelib *ota urug'i* – *patriarxat* davri boshlanadi. *Patriarxat* – *insoniyat rivojining shunday bosqichidirki, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan.*

Bronza davriga kelib, odamlar *kulolchilik charxi va g'ildirakni* kashf etdi. Shu tariqa harakatlanish vositalari ham vujudga keldi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida kishilik jamiyati tarixiy-madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu jarayonlarda bronzaning ahamiyati katta bo'ldi. Aholi xo'jalik yuritishning ma'lum ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka dasht va tog'oldi hududlarida esa chorvachilikka o'tib oldi. Bu davrda jamiyat hayotidagi sodir bo'lgan turli taraqqiyot jarayonlari – kishilik tarixida muhim bosqich bo'lgan davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ulkan ahamiyat kasb etdi.

**Temir davri** – miloddan avvalgi I-ming yillikning avvalidan boshlanadi. «Temir davri» atamasi antik dunyoda tosh, jez asri tushunchalari qatorida yuzaga kelgan bo'lishiga qaramasdan, fanga XIX asrning o'rtalarida daniyalik arxeolog K.Y. Tomsen tomonidan kiritilgan.

**Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyodagi xetlar foydalana boshlaganlar (mil. avv. XIV–XIII asrlar), keyinroq ularga qo'shni bo'lgan ikki daryo oralig'i, Eron, Kavkazorti mamlakatlarining aholisi ham foydalanganlar.** Mil. avv. I minginchi yillarning boshlari (IX–VIII asrlar)da ajdodlarimiz temirdan mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, bezakli buyumlar yasashni o'zlashtiradilar va temirdan foydalanish keng tarqaldi. O'rta Osiyoda ko'chmanchi chorvador qabilalarning ajralib chiqishi yuz berdi. Bu hududdan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlar mil.avv. IX–VIII asrlarga tegishli bo'lsa-da, ulardan ko'pi mil. avv. VIII–VI asrlarga oid.

Temirdan yasalgan omoch, ketmon, belkurak va boshqa mehnat qurollari ancha keng maydonlarni haydash, to'g'onlar qurish, kanal va ariqlar qazib suv chiqarish imkonini beradi. Bular dehqonchilikning yuksalishiga olib keladi. Temirning kashf etilishi hunarmandchilikni yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Temirdan qattiq va o'tkir pichoqlar, o'roqlar yasalishi mehnat unumdorligini oshirishga yordam berdi.

Temir davrida kulolchilik charxi, naqsh bilan bezatilgan sopol buyumlar keng tarqaldi. Temirchilik bosqoni, qo'l tegirmoni vujudga keldi, metallga ishlov berish rivojlandi. Xonadonlarda ip yigirish va matolar to'qish, kiyim tikish tobora kengayib bordi. Uy-joy qurilishi birmuncha yaxshilandi. 10–20 tadan xonasi bo'lgan katta maydonli uylar qurilishi bilan birga, g'ishtdan, sinchdan alohida bir oilaga mo'ljallangan uylar qurish keng tarqaldi.

**3. Ajdodlarimizning ilk diniy e'tiqodlari.** «Avesto» – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Ajdodlarimiz hayoti dastlabki diniy e'tiqodlar va marosimlar urug'chilik jamiyatida paydo bo'lgan. O'zbekiston insonlarda ilk bor diniy tasavvurlar va aqidalar paydo bo'lgan eng qadimgi o'lkalardan biri hisoblanadi. Masalan, Surxon vohasidagi (Boysuntog') Teshiktosh g'oridan neandertallarga mansub yosh bolaning suyak qoldiqlari va uning atrofiga terib chiqilgan tog' echkisi shoxlarining topilishi o'rta paleolitning oxirlarida dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'la boshlaganini ko'rsatadi. Neolit davrining oxirlariga kelib *animizm*, *totemizm*, *fetishizm* va *sehrgarlik (magiya)* singari ibtidoiy din shakllari tarqaldi.

Tabiatning jonliligi to'g'risidagi tasavvurlar yig'indisi fanda *animizm* (lotincha *anima*, *animus* – ruh) deb ataladi. Animizm – jon, ruh; dunyoda ruhlar, jonlar



shaklidagi kuchlar degan ibtidoiy din shakli. Ibtidoiy odam tasavvuriga ko'ra, uning atrofida dunyoda har narsaning (hayvonlar, o'simliklar, tabiat hodisalari va h.k.) joni, ya'ni ruhi mavjud. Yer, olov, o'rmon, suv, tog' va uy «ruh»larining kelib chiqishi ham shundan. Daraxtga topinish ramzi sifatida «hayot daraxti» mavzusi O'zbekiston xalq hunarmandchiligida muhim o'rin tutadi. So'nggi jez va temir davri boshlarida inson ruhi o'lmaydi, balki narigi dunyoda yashashda davom etadi, degan tasavvur vujudga keldi. Shunga binoan mayyit bilan birga turli ashyolar, oziq-ovqatlar, hatto bir necha xizmatkor – qulni ko'mish odat tusiga kirdi. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli mashhur asarida Xorazm xalqi orasida animizm keng tarqalganini ko'rsatadi.

Tarixan dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq ravishda *totemizm* O'zbekiston xalqlarida bir muncha keng tarqalgan edi. Totemizm – hayvonlar va o'simliklarni e'tiqod obyektiga aylanishi natijasida keng tarqalgan diniy tasavvurlarning yig'indisidir. Bu tasavvurlarga ko'ra hayvonlar, o'simliklar va boshqalarning bir xillari *totem* (*totem (hindu.)* – urug'chilik tuzumining ilk davrida hayvon va o'simliklar turiga yoki jonsiz tabiat narsalariga topinish) deyilgan. Ibtidoiy xalqlarda o'z qabilalariga asos solgan deb hisoblagan hayvon yoki o'simliklarga e'tiqod qilish, topinish; totemni o'ldirish, iste'mol qilish taqiqlangan, hayvon, o'simlik va baliq nomi bilan yuritilgan qabilalarning totem shakli solingan ramzi bo'lgan. Ayrim totemlar ham yaxshilik, ham yomonlik timsoli bo'lgan. Macalan, ilon totem jonivor sanalib, u tashqi ko'rinishidan o'qilonga o'xshash tosh tumor O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanmoqda. U Farg'ona vodiysining So'x qishlog'idan topilgan va miloddan avvalgi 2-ming yillikka oiddir. Ho'kizga esa qadimdan kuch-qudrat, mahsuldorlik timsoli sifatida qaralgan. Ba'zi arxeologik yodgorliklardan tutqichi qo'y shaklida ishlangan idishlar topilgan. Shuningdek, O'zbekiston madaniy yodgorliklarida tuya, otga sig'inilganidan dalolat beruvchi tasvirlar mavjud. Kuch-qudrat ramzi bo'lgan sher tasvirini ham ko'plab uchratish mumkin. Qadim-qadimda ba'zi qushlar ham O'zbekiston hududida tabarruk hisoblangan. Masalan, xo'roz, tovus va qirg'ovul «quyosh» qushlari deb qaralgan va ular hosildorlik keltiradi deb ishonilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Turkiston xalqlari orasida musicha, qaldirg'och, ko'kqarg'a, laylak kabi qushlarga ozor berish gunoh deb hisoblanishi ham totemizmning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Ajdodlarimiz hayotida keng tarqalgan dastlabki diniy e'tiqodlardan yana biri – fetishizmdir. *Fetishizm* (portugal., fransuz.) – yasalgan, tumor, sehrli narsa; jonsiz narsalarni g'ayritabiiy xususiyatga ega deb ishonish va ularga topinish, sajda

qilish. Fetishizmning ko'rinishlaridan biri turli xil buyumlardan yasaladigan tumor taqish odatidir. Tumorlarning shakl va ko'rinishiga qarab etnik tafovutlarni ko'rish mumkin. Masalan, xivalik o'zbeklar uzunchoq tumorlar taqishni afzal ko'radigan bo'lsa, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarida to'g'ri burchakli va uchburchakli tumorlarni taqishgan.

**Magiya (yunon.)** – sehrgarlik: odamning o'zini g'ayritabiiy kuchlarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga asoslangan ish amallari. Sehrgarlik (magiya) turlicha bo'lib, davolash, biror odamni «isitish» yo «sovitish», dehqonchilik, chorvachilik sohalari, hatto ob-havoga ta'sir ko'rsatish kabi ko'rinishlari ma'lum bo'lgan. Ko'zmunchoq, tumor yordamida yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga oid sehrgarlik ham shunga kiradi. Sehrgarlikning ba'zi shakllari hozir ham uchrab turadi: Qur'oni karim oyatlari yozilgan tumor, duo matni tushirilgan ko'zmunchoq va h.k.

Shamanizm ham ibtidoiy diniy e'tiqod shakli sifatida mavjud bo'lgan. **Shamanizm** (tungus – evenk.) – taman, saman – shamanlik; evenk tilida shamanizm ruhoni; ibtidoiy jamoa tuzumi oxirlarida vujudga kelgan dinlardan biri. Shamanizm ayrim kishilar – shamanlarning g'ayritabiiy qobiliyatiga ega bo'lib ashula aytish, raqsga tushish, childirma chalib jazavaga tushib, yovuz va saxiy ruhlar bilan bevosita munosabatda bo'la olganlari uchun kasallarni davolash, fol ochish va boshqa qobiliyatga egaliklariga ishontirishdan iboratdir. Shamanlar go'yo ruhlarni chaqira olar, qo'ng'iroqli childirma bilan ruhlar makoniga sayohat qilar, ularga iltimos bilan murojaat qila olar emish.

Janubiy Sibir xalqlarida shamanlarning maxsus belgilari – qo'ng'iroqli childirma, turli buyumlar osilgan maxsus kiyimlari va o'z marosimlari bo'lgan. Shamanizm qadimdan Afrika, Shimoliy va Sharqiy Osiyo xalqlari (xususan, O'zbekistonda ham) orasida tarqalgan. Yunon tarixchisi Gerodot O'rta Osiyoda yashovchi ayrim massaget qabilalarining shamanlari gulxan atrofida raqsga tushib, qo'shiq aytishi haqida yozgan. O'rta Osiyo shomonchilik (shamanizm) xalqning hayot tarzi, turmushi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Bizning ota-bobolarimiz yordamchi ruhlarning borligiga qattiq ishonganlar. Faqat ishonibgina qolmay, balki amalda ular bilan ish ko'rishgan.

Ajdodlarmiz ma'naviy hayotidagi dastlabki diniy e'tiqodlar zaminida asta-sekin butun Turon hududi bo'ylab keng tarqalgan dinlar vujudga kelgan. Zardushtiylik, buddizm, yahudiylilik va xristianlik kabi dinlar ana shular jumlasidandir. Bu diniy qarashlar avlod-ajdodlarimizning tabiat va jamiyat voqea-hodisalariga munosabatlarini o'zida aks ettirgan.

*Zardushtiylik* – zoroastrizm – mil. avv. VII–VI asrlarda vujudga kelgan din. So'nggi tadqiqot xulosalariga qaraganda, O'rta Osiyo, xususan, Xorazm zardushtiylik vatani bo'lgan. Zardushtiylikni Baqtriya podshosi Vishtasp birinchilardan bo'lib qabul qilgan. Bu din mil. avv. VII asrdan to milodning VII asrigacha qariyb ming yil O'rta Osiyo, Ozarbayjon va Eron xalqlarining asosiy dini hisoblangan. Qadimgi paxlaviy tilida «Zardusht» so'zi «Magupta» deb atalgan. Paxlaviy tilidagi yodgorliklarni arab tiliga tarjima qilgan olimlar uni «majus» shaklida qo'llagan. Natijada o'rta asrlardan beri «Zardusht» «majus», «zardushtiylik» esa «majusiylik» sifatida qo'llanib kelingan. «Hyp», «otash» zardushtiylikning ramzi, timsolidir. Zardushtiylikda Ahuramazda oliy xudo hisoblanganligi uchun zardushtiylik – mazdaizm yoki mazdaylik deb ham atalgan. Bu dinning paydo bo'lishi – *Zardusht*, *Zaratushtra* (Avesto tili bo'yicha), Zoroastr (yun. «astron» – «yulduz»), (mil. avv. taxm. 618, Xorazm – mil. av. 554, Balx) degan payg'ambar nomi bilan bog'liq. U Spitama (sug'diycha Spitaman degan ism ham shundan kelib chiqqan) urug'idan bo'lgan Porushasp xonadonida tug'ilgan. Onasining nomi Dug'dova.

Zaratushtra nomi qadimgi Eron «Zara – ushtra» so'zidan kelib chiqqan, «Zar» – Oltin, «ushtra» – tuya, yoki uch xil ma'noda – «Oltin tuyali», «Oltin tuya egasi», «Oltin tuya yetaklagan odam» deb tarjima qilinadi. Zardusht nomini osetin olimi V.I. Abayev «Keksa tuyalar egasi», ingliz olimi Richard Fray «Tuyakash», rus eronshunos olimi I.M. D'yakonov «Tilla rang tuya sohibi» deb tarjima qilgan.

Zardusht 40 yoshga yetganda o'zigacha bo'lgan ko'p xudolilik diniy aqidalariga hamda tabiat hodisalariga qarshi chiqib, yakkaxudolikka asoslangan birinchi diniy kitob – «*Avesto*» («Qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi) yaratgan. *Avesto*, *Ovasto* (parfiyoncha: apastak – matn; ko'pincha «Zend – Avesto», ya'ni «tafsir qilingan matn» deb ataladi) – zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «Avesto» O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda mil. avv. 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan.

Zardusht va'zlari(da'vat) matnlarining hammasi miloddan avvalgi III asrda 21 ta kitobda jamlangan, bu kitoblar «Avesto»ning asosini tashkil etadi. Kitobda Turon, Xuroson, Ozarbayjon, Iroq, Eron, Kichik Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va ma'naviy qadriyatlar haqida ma'lumot beruvchi asosiy manbadir.

Zardushtiylik dinining asosiy aqidalarini o'zida mujassam etgan Avestoda o'sha davrdagi ustuvor g'oyalar, ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar ham

o'z ifodasini topgan. Tarixchi Mas'udiyning yozishicha, podsho Doro ibn Doro xazinasida «Obisto»ning («Avesto») 12 ming oltin taxtaga, Balxiyning «Forsnoma» kitobi va Abu Rayhon Beruniy asarlarida yozilishicha, 12 ming oshlangan mol terisiga tillo suvida yozilgan 32 kitobdan iborat nusxasi bo'lgan. U Persepolda saqlangan. Makedoniyalik Aleksandr Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Ayni zamonda uning tibbiyot, falakiyot, falsafa va adabiyotga doir bo'limlari yunon tiliga tarjima qilingan.

Milodning I asrda Parfiyadagi arshakiylar hukmdori Vologez I davri (51–78) da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Shuningdek, sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida zardushtiylik diniga bo'lgan qiziqish kuchaygan. Sosoniylar davri (III–VII asrlar)da yaxlit kitob holiga keltirilgan. Jumladan, Podsho Ardasher (226–242) va uning o'g'li Shopur (242–272) hukmronlik qilgan davrda zardushtiylik yana davlat diniga aylangan. O'sha davrda hukmronlik qilgan shoh Xusrav Anushirvon (531–579) hatto ruhoniylar ham tushunishi qiyin bo'lgani uchun Avestoni zamonasining adabiy tili hisoblangan pahlaviy tiliga o'girtirgan. Shuningdek, asosiy matnga sharhlar yozilib, izohlar ham berilgan. Sosoniylar hukmdorlari tomonidan qayta tiklangan bu kitob endilikda Zend Avesto deb atalgan. Zend – bayon qilish va izohlash demakdir. Binobarin, Zend Avesto zardushtiylik dini ta'limotini to'liq aks ettirmaydi.

*Birinchi*dan, Avestoning beshdan uch qismi (18 naski) noma'lum bo'lib, faqat 12 naski kishilarning yodida qolgan og'zaki qo'shimchalar asosida kitob holiga keltirilgan.

*Ikkinchi*dan, kitobni qayta tiklash davrida astronomiya, tibbiyot, geografiya, etika kabi fanlarga oid asarlar ham uning matniga qo'shib yuborilgan, degan taxminlar bor. Shuningdek, kitobning hajmi katta bo'lgani bois dindorlarning har kuni foydalanishiga qulaylashtirilib, qisqartirilib «Kichik Avesto» shakli yaratilgan. Unga asosan tanlab olingan duo va madhiyalar kiritilgan. VII–VIII asrlarda O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va islomning keng tarqalishi bilan zardushtiylik va uning bosh kitobi Avesto taqiqlangan. Shu sababli uning aksariyat qismi yo'qolib ketgan va to'la matni hozirga qadar topilmagan. Bugungi kunda uning «Yasht», «Videvdat», «Visperat», «Yasna», «Xordo Avesto» (Kichik Avesto) nomli qismlarigina saqlanib qolgan.

«Avesto» matnlarini o'rganishda avvalo fransuz va ingliz olimlarining xizmatlari muhim hisoblanadi. Xususan, fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyupperon Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiy (mazdaiy)lar jamoasida uch

yil yashadi. «Avesto» tilini va yozuvini o'rganadi va uni 1771-yilda fransuz tiliga tarjima qilib nashr etgan. «Avesto»ning 27-jilddan iborat bu nashri asarning yettidan bir qismidir.

Tadqiqotchi Meri Boys ko'p yillar davomida Hindistondagi zardushtiylik jamoalari hayoti va urf-odatlarini o'rganadi. Bu haqda u o'zining «Zardushtiylik. E'tiqodlari va urf-odatlari» kitobida hikoya qiladi.

Zardushtiylikning axloqiy ta'limoti «ezgu fikr», «ezgu so'z» va «ezgu amal» dan iborat muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topgan. Zardushtiylik talabiga ko'ra, har bir inson tangrining yakka-yu yagonaligini e'tirof etishi, xoh erkak, xoh ayol bo'lsin ilm o'rganishi, turli kasblarni egallashi, chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanishi, kanal qazishi, yer ochishi lozim. Eng asosiysi – Zardushtiylikda e'tiqod erkinligi mavjud bo'lgan.

Qadimgi ajdodlarimizning ezgu g'oyalari va milliy davlatchilik an'analari o'z aksini topgan bu kitob faqat mustaqillik yillarida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Uning xalqimiz va milliy davlatchiligimiz tarixidagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Avesto» kitobining yaratilganligining 2700 yilligini nishonlash to'g'risida»gi (2000-y. 29-mart 110-sonli) Qaror qabul qilindi. 2001-yili O'zbekistonda «Avesto» kitobining 2700-yilligi tantanali nishonlandi. Urganchda «Avesto» yodgorligi bunyod etildi.



Avesto yodgorligi. Urganch



## 3-MAVZU: O'zbek xalqining etnik shakllanishi

*Reja:*

1. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi.
2. O'zbek xalqining etnogenezi va uning shakllanish bosqichlari.
3. O'zbeklarning etnik tarixi. «O'zbek» atamasi.

*Tayanch so'z va iboralar:* Urug', qabila, elat, xalq tushunchalari, Sug'diylar, baqtriylar (baxtariylar), xorazmiylar, saklar va massagetlar. O'zbek xalqining etnogenezi, xioniyalar, kidariylar (toxarlar), eftaliylar. O'zbek xalqining etnik tarixi, «O'zbek» atamasi.

*Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Karimov И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. *Асқаров А.* Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари / «Ўзбекистон тарихи» журнали, № 4. – Тошкент: 2002.
3. *Асқаров А.* Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. – Б. 239–252.
4. *Аҳмедов Б.* Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 196–200.
5. *Жабборов И.* Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
6. *Жабборов И.* Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти: Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 2003.
7. *Хозиров Қ.* Мустақил ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. – Т.: 2001. – Б. 28–32.
8. *Шониёзов К.* Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.: 1991.
9. *Шониёзов К.* Қарлук давлати ва қарлуқлар. – Т.: 1999.
10. *Шониёзов К.* Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001.
11. *Эрматов М.* Этногенез и формирование ўзбекского народа. – Ташкент: Ўзбекистан: 1968.
12. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 45–59.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2004. – Б.178; 9-жилд, 2005; Б.127; 10-жилд, Б.423.
14. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – Б. 77–93.
15. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 282–285.
16. <http://dic.academic.ru>

**1. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi.** Istiqlol sharofati bilan tariximizni, boy o'tmishimizni ilmiy, xolisona tarzda bayon qilish imkoniyatini qo'lga kiritdik. Mustaqillik yillarida tarix masalasiga bo'lgan e'tibor davlat darajasiga ko'tarildi. Xususan, Prezidentimiz Islom Karimovning 1998-yil iyun oyida bir guruh olimlar bilan o'tkazgan uchrashuvida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi» 1998-yil 27-iyul Qarorida va Prezidentimizning tarixiy o'tmishimizni o'rganish muammolariga bag'ishlangan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida, hamda so'nggi paytlardagi ko'pgina chiqishlarida o'zbek xalqining tarixini ilmiy, haqqoniy tarzda bayon qilish, tarixiy tadqiqotlarga keng ko'lamda yo'l ochib berish, madaniy merosimizni asrab-avaylash, milliy mafkura g'oyalarini rivojlantirib targ'ib etish va boshqa ko'plab muammolarni hal etish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbek xalqi uzoq va voqealiklarga boy tarixiga ega bo'lib, uning xalq sifatida shakllanishi masalasini o'rganishda dastlab *urug'*, *qabila*, *elat*, *xalq* tushunchalari to'g'risida bir qadar to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

*Urug'* (*eski o'zbek.*) – bir ajdoddan tarqalib (bir ona yoki otadan), umumiy bir nom bilan ataluvchi qon-qarindoshlik jamoasi. Qadimdan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, bir ildizga borib taqaladigan, turmush tarzi, yashash sharoiti bir xil bir necha oilalar birikuvidan urug'lar hosil bo'lgan. Qarindoshlik hisobi ona (ona urug'i) yoki ota (ota urug'i) bo'yicha olib borilgan. U yuqori va quyi paleolit davrlari oraligida paydo bo'lgan. Urug' jamoasining o'z yetakchisi – oqsoqoli bo'lgan. Urug' jamoasi hamma narsada, har bir masala-yu, sa'y-harakatlarda oqsoqolning izmida bo'lgan. Urug'lar qabilalarga birlashgan. Jamiyatda tabaqalanishning paydo bo'lishi bilan urug'lar bo'linib ketgan. Urug'-qabilalarga bo'linish qoldiqlari ko'p xalqlarda saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo xalqlari ko'pgina qabila va urug'larga bo'lingan. Masalan, o'zbeklar 92 dan ortiq, turkmanlar 100 dan ortiq, qozoqlar 300 dan ortiq qabilalar va urug'larga, ular esa yana bir necha urug'chalarga bo'lingan. Urug'lar ko'pincha yashagan geografik joylari va ishlab chiqarish turlarining nomlanishi bilan atalgan. Turkiy xalqlar tarkibiga barlos, qiyot, qushchi, qo'ng'iroq, uyshun, nayman, chimboy, qarluq, kenagas, do'rmon, mang'it, nukuz, uyg'ur, xitoy, toymas, qipchoq, tuman, ming va boshqa urug'lar kirgan

*Qabila* (*arab.*) – urug', urug'-aymoq – bir ota-onadan tarqalgan bir nechta urug' uyushmasi; qabila urug'ga nisbatan yirik bo'lib, bir nechta urug'larning bir-

lashuvidan hosil bo'ladi. Masalan, o'zbeklardagi ming, nayman, qo'ng'iroq qabilalari va hokazo. Bu birlik ibtidoiy jamoaga xosdir. Dastlabki qabilalar o'zaro dual ekzogamiya, ya'ni bir-biriga qiz olib, qiz berish asosida qarindoshlik iplari bilan bog'langan bir nechta juft qudalashgan urug'dan tashkil topadi. Qabilaning o'ziga xos tili (lahjasi), hududi, qabila nomining (etnonimining) bo'lishi va o'ziga xos qabila an'analarini, uning a'zolari tomonidan bilishi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi. Qabila hayotiga doir ishlarga boshchilik qiladigan qabila oqsoqoli saylangan, muhim masalalar bo'yicha qabila yig'inlari o'tkazilgan.

Qabilalar o'rtasida etnik, xo'jalik, moddiy va madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida ular qo'shilishib, birlashib ketadilar. Natijada ularning yetakchi, nufuzli guruhi nomi bilan yangi *etnik birlik – elat yoxud xalq* shakllanadi.

*Elat* – mo'g'ulcha, turkiycha so'z bo'lib, kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan millatdan oldingi birligi. Elat qabila bilan millat orasidagi etnik birlikning ko'rinishidir. Elatning shakllanishiga bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida qabilalar orasidagi etnik, xo'jalik moddiy va madaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida bir qancha qabilalar birlashadilar. Natijada etnik birlikning yangi turi vujudga keladi. Bu elat deyilib, ma'lum tarixiy sharoitda hududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida shakllanadi. Elat (asosi «el») atamasi o'tnishda keng ma'noda qo'llanilgan; xalq, davlat, qabila, qabila ittifoqi, ma'lum bir qabila yoki hudud fuqarolarini anglatgan. Turli elatlarning hudud jihatidan o'zaro yaqinlashuvi urug' va qabila guruhlaridagi kishilarning qon-qarindoshlik aloqalarini kuchaytirgan. Iqtisodiy, ya'ni xo'jalik, madaniy va etnik jarayonlarning tobora rivojlanishi natijasida bir necha qabilalarning birlashuvi jarayonida vujudga kelgan elat etnik, hududiy, iqtisodiy, til va etnomadaniy umumiylik asosida shakllangan.

*Xalq* – 1) muayyan mamlakatning barcha aholisi; 2) tarixiy birlikning turli shakllari (qabila, elat, millat). Xalqlarning kelib chiqqan tarixini (etnogenezi) va shakllanish jarayonini o'rganishda ijtimoiy fanlarda «etnos» (yun. «xalq») va «etnik birlik» iboralari qo'llaniladi. Xalq – bu biologik hosila emas, balki uzoq davom etadigan etnogenetik jarayonlar mahsuli va etnik birliklar yig'indisidir. Etnos atamasi, ya'ni xalq juda keng va tor ma'noda ishlatiladi. Masalan, keng ma'noda: Rossiya xalqi, O'zbekiston xalqi, dunyo xalqi; tor ma'noda: o'zbek xalqi, qirg'iz xalqi, tojik xalqi. Kichik bir guruh kishilariga nisbatan ham «xalq» iborasi qo'llaniladi. «Xalq» atamasini «el», «elat» o'rnida, ancha vaqtlardan buyon o'troq hayot kundalik tur-



mush tarziga aylangan etnik birliklar uyushmasiga nisbatan ishlatilib kelinmoqda. Fanda etnik birlik bosqichining 3 turi mavjud: *gabila, elat va millat*. Ketma-ket almashib kelgan bu atamalar turli vaqtlarda vujudga kelgan bo'lib, ular o'z davriga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladilar. Kishilar birlashuvining tabiiy negizi – hudud umumiyliigi, shuningdek, ular tilining yaqinligi yoki umumiyliigi etnik birlikning, ya'ni xalqning vujudga kelishida asosiy shart hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda xalqning shakllanishida iqtisodiy va madaniy umumiylik omillari ham muhim rol o'ynaydi. Biroq ushbu ko'rsatilayotgan hududiy til, iqtisodiy va madaniy umumiylik bir paytning o'zida yuz bermaydi, askincha muayyan tarixiy bosqichlarda shakllanib tarkib topadi.

O'zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllangan hudud masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, ular O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari – Movarounnahrda, Xorazmda, Yettisuvda, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'lkamizning qadimgi aholisi tosh va bronza davrlarida qanday nom bilan atalganliklari hozirda noma'lum. Yurtimizning qadimgi etnik guruhlariga haqidagi ma'lumotlar dastlab Sharq va yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Bu manbalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VII–VI asrlarda O'zbekiston hududida *sug'diylar, baqtriyaliklar (baxtariylar), xorazmiylar, sak va massaget* elatlari yashaganlar. Ular o'zbek xalqining ham ajdodi hisoblanadi.

Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Bu hududda yashaydigan qadimgi aholi *sug'diylar, sug'dlar* deb atalgan. Bu hudud Sug'da («Avesto»da), So'g'uda (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf asarlarida Sug'diyona deb nomlangan. Bu mintaqada sug'diylar etnik uyushma sifatida mil. avv. XII–XI asrlarda bo'lgan. Avestoda Gava nomli yurtda sug'diylar yashaydi deb ko'rsatilgan («Videvdat», I fragard). Axomaniylar qoyatosh bitiklaridagi Suguda nomli qaram satraplik aholisi sug'diylar bo'lgan.

Sug'diylar har 2 vohada dehqonchilik va shahar madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Mil. avv. VIII–VII asrlarda Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir (Sangirtepa), Yerqo'rg'on shahar xarobalari o'rnida bo'lgan qadimgi shaharlar Sug'd xalqi shaharsozligining ilk yirik markazlari edi. Sug'diylar uzoq muddat turli saltanatlar tarkibida bo'lib kelganlar. Jumladan, axomaniylar, yunonlar, kushonlar, xioniyalar, eftaliylar, kidariylar, Turk xoqonligi davrida ham nisbiy mustaqillik ruhini saqlaganlar.

Mil. avv. II–I asrlardan boshlab sug'diylar o'z hududlarida yangi konfederativ davlat tizimi atrofida birlashdilar. Asosiy poytaxt shaharlar Samarqand boshchiligida Kesh, Buxoro, Naxshab (Nasaf) kabilar edi. Ayni shu davrdan umumsug'd alifboli yozuvi amal qila boshlagan va uning ko'plab yodgorliklari bizgacha yetib kelgan.

Sug'diylar Buyuk Ipak yo'li xalqaro munosabatlarda katta nufuzga ega edilar. Sug'd tili xalqaro til darajasiga ko'tarilgan. Sug'd yozuvi esa, qadimgi turkiy – runiy, uyg'ur – turkiy, mo'g'ul, manjur va boshqa Sharq yozuvlariga grafik asos bo'lib xizmat qilgan. Sug'diylar o'z yozma yodgorliklarida xalq sifatida «Sg'udik nob», «Sug'd xalqi» deb atalgan.

Sug'diylar Sharqiy Turkistonga savdo bilan kelib, Buyuk Ipak yo'lidagi shahar va qishloqlarda, IV–V asrlar davomida (balki oldinroq) shu yerlarda qolib yashaganlar. Bu yerdagi viloyatlarning ko'pchiligida savdo-sotiq ishlari sug'diylarning qo'lida bo'lgan. Dunxuan va Guanchjou viloyatlarining hokimi ma'lum vaqtlargacha sug'diylardan bo'lgan. VI–VIII asrlar davomida bularning ham ko'pchiligi turkiylashib ketgan.

Sug'diylarning eng yaqin qo'shnilari **baqtriyaliklar** bo'lib, ularning yurti Surxondaryo vohasi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra baqtriyaliklar belbog'li ko'yalak, cholvor va kuloh kiyishgan, cholvorlarining pochasini uchi yuqoriga qayrilgan etiklarining qo'njiga tiqib yurishgan. Baqtriyada asosan oromiy yozuvidan va mahalliy tillardan foydalanilgan.

**Xorazmiylar (xorazmiy)** – Qadimgi Xorazmda (Amudaryoning quyi oqimi) yashab, xorazmiy tilida so'zlashgan xalq. Ularning yurti Xvarizam («Avesto»da), Xvarazmish (Behistun kitoblarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan. Taxminlarga ko'ra, xorazmiylar Hilmand vodiysi (Hirot atrofida)dan Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarga mil. avv. 1-ming yillik o'rtalarida ko'chib kelganlar. Xorazmiylar ilk bor Behistun yozuvlarida, shuningdek, Gerodot, Gekatey Miletlik asarlarida qayd etilgan. Jumladan, Gerodotning yozishicha, xorazmiylar Amudaryo deltasi (Orol dengizi bo'yida) va hozirgi Xiva vohasi janubida yashaganlar. Mil. avv. VI–V asrlar bo'sag'asida «Xorasmiya shahri» va xorazmiylar mamlakati haqida miletlik Gekatey xabar beradi. Misrdagi Nil daryosi bo'yidagi mil. avv. V asrga oid shahar xarobalaridan topilgan bir hujjatda Xarchin o'gli Dargman ismli bir xorazmiy sarkardasi tilga olingan, u axomaniylar qo'shinining bosh qo'mondoni bo'lgan.

**Saklar (Shaklar)** – milod. avv. 1-ming yillik va milodning boshlarida O'рта Osiyo va Sharqiy Turkistonning shimoli sharqiy hududlarida yashagan chorvador

qabilalar. Arxeologik adabiyotlarda bu davr «Ilk temir davri», «Ilk ko'chmanchilar davri», «Saklar davri» sifatida ma'lum. Gerodot, «*Tarix*» asarida «forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar» deb yozadi. Uning yozishiga qaraganda, Yevrosiyo cho'llarining ko'chmanchilar dunyosi shimoliy va sharqiy Qora dengiz bo'yi qabilalaridan birining nomi bilan skuda keyinroq skolotlar deb atalgan. Yunonlar esa ularni skiflar deb yuritganlar. Eron Behistun, Nahshi Rustam va Persopol degan joylardagi Axomaniy, Eroniy podsholarning qabrtoshlarida va yodgorlik lavhalarida, qoyatoshlarga o'yib yozilgan zafarnomalarda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar sanab ko'rsatiladi va shu bilan bir qatorda saklarning uchta qabila guruhi eslatiladi:

1) **saka – tigraxanda**, ya'ni «Cho'qqi qalpoqli» yoki «kamondan o'q otuvchi» saklar. Bu yunoncha matnlardagi «ortokoribantlar» degan terminga to'g'ri keladi. Ular hozirgi Toshkent viloyati va janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar;

2) **saka – tiay – taradarayya**, ya'ni «Dengiz ortidagi» saklar (Podsho Doroning Naqshi Rustam yozuvida) – Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashagan.

3) **saka – xaumavarka**, ya'ni «Muqaddas xaoma ichimligi ichuvchi» saklar – Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada yashagan. Tadqiqotchilar bu guruhni Gerodotning «Skif – amyurgiya»lari, Ktesiy Knidskiyning (Gerodotning kenja zamondoshi) «Shoh Omarg skiflari» va keyingi davr mualliflarining sakaravalari bilan aynan bir deb hisoblaydilar.

«Sak» atamasi aslida manbalarda axomaniylargacha ma'lum. Masalan, Ossuriya poytaxtidagi Ishtar ibodatxonasini qazish vaqtida marmar taxtaga podsho Ashshurbanipal (mil. avv. 669–631) yozdirgan xat topilgan. Xatda kimmeriylar va ularning sardori Tugdammanni Kilikiyadagi jangda halok bo'lgani, uni Saklar podshosi ekanligi eslatiladi. Behistun kitoblarining Akkadcha nusxasida forslar o'zlariga yaqin qo'shnilari saklarni «kimmeriylar» atamasi bilan tilga oladi.

Qadimgi tarixda saklar dovrug'ining boshlanishi mil. avv. VIII–VII asrlarda kimmeriy va skif qabilalarining Qora dengiz bo'ylari va Old Osiyoga yurishi davrida yuz berdi. Uning davomi Amudaryo va Sirdaryo bo'ylarida axomaniy podsholari Kir II va Doro bilan bo'lgan jang-u jadallarida namoyon bo'ldi. Xuddi mana shu voqealar asnosida saklarning vatani, hayoti va urf-odatlarini, urug'-aymoqlari va ularning shimoliy va sharqiy qo'shnilari haqida dastlabki ma'lumotlar paydo bo'ldi. Tarixchi Elian (III asr) saklarda bir odat borligini, unga ko'ra uylanishni istagan kishi qiz bilan yer ostidagi binoda qolib bellashishi lozimligi, agar qizni yengolmasa, u qizning asiri bo'lib qolishi haqida ma'lumot beradi. Sak ayollari erkaklar bilan bir

qatorida janglarda ishtirok yetishgan. Ular yovni aldash uchun yolg'ondan qochishga, xuddi erkaklardek ot ustida chopib keta turib orqalariga o'girilib kamondan o'q otishga mohir bo'lishgan.

Tarixiy manbalarda saklar, ularga qardosh va ularning boshqa turlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Kserksning Persepol lavhalarida tigraxauda va xaumavarka saklari bilan bir qatorda ularga qardosh va tildosh daxlar haqida gap boradi. Axomaniy yozuvlarida Erondan sharqda boshqa sak qabilalari haqida xabar uchramaydi. Ammo, yunon-rim muarrixlari saklarning boshqa turlari haqida ko'p ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, Gerodot ortokaribant saklari (uchli qalpoqli saklar), amyurgiya («daryo orti») saklari va daxlar haqida so'z yuritadi. Adabiyotlarda ularning birinchilarini axomaniylarning tigraxauda va xaumavarka saklari bilan o'xshashligi ta'kidlanadi. Fanda bu masalada turlicha qarashlar mavjud. Masalan, A. Xerman va B. Litvinskiylar, yunon mualliflari tigraxauda saklarini massagetlar ittifoqi bilan bir ekanligini taxmin qilsalar, S.G. Klyashtorniy massagetlarni daxlar bilan bir xalq deb ta'kidlaydi. Arrian mil. avv. IV asrda daxlar Tanais ortida, ya'ni Sirdaryo ortida va Tanais bo'ylab yashaganligini qayd qilib o'tadi. Arrian massagetlarni aynan skif – sak ekanligini Spitamen kurashlari munosabati bilan yaxshi baholagan. Arrian uchun massagetlar Amudaryoning chap sohilida istiqomat qiluvchi nochor qabila jamoalari edi, Sug'd bilan g'arbiy chegaradosh edi. Daxlar esa, aksincha, Sug'diyonaning shimoliy-sharqiy qo'shnisi, Tanais (Sirdaryo) vodiysining aholisi edi. Arrian daxlarni sovutlarga o'ralgan jangovar suvoriy jangchilar, Doro harbiy yurishlarining saralangan otliq askarlari sifatida ta'riflaydi. Demak, massagetlar chorvador saklarning kambag'al qatlamini tashkil etsa, daxlar ularning badavlat qatlami – oriylari edi. Gerodotning yozishicha, saklar askarlarining boshlarida qalin kigizdan tikilgan, cho'qqi qalpoqlari bo'lgan. Ular sak o'q-yoylari, kalta qilichlar (akinaklar), oyboltalar (sagariylar) bilan qurollanganlar. Saklar o'zlarining harbiy mahoratlari, asosan, o'q-yoy otishga ustaliklari bilan dong chiqarganlar. Qadimgi dunyo muarrixlari saklarni dunyodagi eng mohir merganlar deb ta'riflashgan. Mil. avv. 238-yillarda dax qabilalaridan biri parmlar Parfiya davlatini tuzgan. Arxeolog K. Akishev Markaziy Qozog'istonda o'rgangan «Tasmo'la madaniyati» sak qabila ittifoqiga kiruvchi issedonlarga tegishli ekanligini yozadi.

Mil. avv. II asrdan boshlab saklarning turli qabilalari janubga (Hindiston va Eron) siljib Yunon-Baqtriya podsholigini tor-mor etishda qatnashgan. Eronda saklar qadimgi Drang'iyona viloyatida, Xamun ko'li atrofida joylashishgan,

bu yer Sakaston – saklar mamlakati, keyinchalik Seyiston, Siston deb atalgan. Hindistonning shimoliy g'arbida, Gandxara viloyatida ular mil. avv. taxm. I asrda olimlar tomonidan Hind – sak davlati deb atalgan siyosiy birlashma barpo yetishgan, bu davlatga mansub tangalar topilgan. Davlat asoschisi podshoh Maues bo'lib, uning vorislari Az, Azilis kabi ismga ega bo'lishgan. Hind – sak davlati hind – parfyan sulolasi tomonidan bosib olingan, keyinchalik Kushon podsholigiga qo'shib yuborilgan. Hind yozma manbalarida sak etnonimi shaka sifatida berilgan, Hindistonda Shaka erasi mavjud bo'lgani ma'lum. Xitoy yozma manbalarida saklar se xalqi deb qayd etilgan. Saklar asta-sekin Hindiston, Eron, O'rta Osiyodagi xalqlar, qabilalar tarkibiga singib ketganlar. «Saklar» atamasi «Saxa» ko'rinishida Saxa Respublikasining rasmiy nomida saqlangan.

*Massagetlar (yun. Massagetai)* – Kaspiy dengizining sharqiy sohili, Orol dengizi atroflari, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida mil. avv. VIII–IV asrlarda yashagan ko'chmanchi va boshqa qabilalar guruhining yunon adabiyotlarida uchraydigan umumiy nomi. Massagetlar to'g'risida fanda turli xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlar fikricha, «massagetlar» nomi «masyo» – «baliq» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «baliqxo'rlar» ma'nosini anglatgan. Boshqa bir fikrga ko'ra, «massagetlar» atamasi «mas», «saka» va «ta» so'zlaridan tarkib topib, «saklarning katta uyushmasi»ni bildirgan. Uchinchi bir taxminga ko'ra, «massagetlar» so'zi «mazagetlar» – «ulug' getlar» degani bo'lib, massagetlarning o'zi esa qadimgi xitoy manbalaridagi «da(katta) yuechjilar» bilan aynan bir xalqdir. Bu fikrga S.P. Tolstov ham qo'shilgan, u Sirdaryoning quyi oqimi bo'yidagi arxeologik yodgorliklarni massagetlarga mansub deb hisoblagan.

Gerodotning yozishiga ko'ra, massagetlar – ko'chmanchilar. Ular piyoda va otda jang qiladilar, otlarining ko'kraklariga sovut kiydirganlar. Ko'proq kamon, nayza va sagariy (oy bolta) kabi jang qurollari ishlatganlar. Massagetlarning barcha jihoz va qurol-aslahalari mis va oltindan yasalgan. Ro'zg'or buyumlarini esa bo'yoq bilan bo'yaganlar. Massagetlar malikasi To'maris bilan bo'lgan jangda Axomaniylar davlatining asoschisi Kir II halok bo'lgan. Straboning ma'lumotiga ko'ra massagetlar Quyoshga topinganlar va unga atab otlarni qurbonlik qilganlar. Strabon ko'chmanchilar bilan bir qatorda Orol bo'yidagi botqoqliklar va orolchalarda yashab, terimchilik va baliq ovlash bilan mashg'ul bo'lgan qavmlarni, shuningdek, xorazmiylar va otasiylarni massagetlarga mansub deb bilgan.

**2. O'zbek xalqining etnogenezi va uning shakllanish bosqichlari.** O'zbek xalqining asosini tashkil etgan etnik guruhlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak,



hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baqtriylar (baxtariylar), xorazmiylar, farg'onaliklar, yarim chorvador qang'lilar, ko'chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Ettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrda kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma'lum. Shu o'rinda o'zbek xalqni etnogenezining boshlang'ich «nuqtasi» va «yakuni» masalasi katta qiziqish uyg'otadi. Dastlab taniqli sharq manbalarining chuqur bilimdoni, prof. A.Y. Yakubovskiy 1941-yilda Toshkentda chop etilgan «O'zbek xalqining yuzaga kelishi haqida» nomli asarida o'zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi, degan edi. Keyinroq, o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi antik davrgacha qadimiylashtirildi, ya'ni S.P. Tolstov qadimgi Xorazmda olib borgan keng ko'lamlı arxeologik, antropologik va etnografik materiallarning yozma manba ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganib, antik davrdan boshlab «Qang' davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, bularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmagan», degan g'oyani ko'tarib chiqdi. Akademik Karim Shoniyozov esa o'zining «Qang' davlati va qang'lilar» nomli hamda «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni» nomli oxirgi fundamental monografiyasida mana shu g'oyani qat'iy himoya qilib chiqdi. Shuningdek, Qang' davlati ichida miloddan oldingi II milodiy I asrlar davomida mutlaqo yangi, turkiy tilli xalq - qang'ar elati vujudga keladi. Bu elat eroniy tilli xalqlar bilan turkiy tilli qabilalarning aralashib, qorishib borishi natijasida tashkil topdi, degan xulosaga keladi.

Hozirgi kunda bu sana yanada qadimiylashtirildi, ya'ni so'ngi bronza davri bilan belgilanmoqda. Bunday nuqtayi nazarni akademik A. Asqarov ilgari surmoqda. Uning ilmiy tadqiqotlari orqali o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davriga borib taqalishi aytilib, o'zbek elati xalq bo'lib shakllanish yakuni esa milodiy XI – XII asrlarda deb ko'rsatiladi. Mazkur ulkan tarixiy davr ichida ajdodlarimiz bir necha etnomadaniy bosqichlarni bosib o'tadi. O'rta Osiyo hududiga turli turkiy qabilalar va etnik guruhlarning kirib kelishi bilan elatga xos etnik omillar birin-ketin shakllanishini ta'minladi va natijada o'zbek xalqi shakllandi. Bu jarayonlarni quyidagi bosqichlarda ko'rsatish mumkin:

O'zbek xalqi etnogenezining *birinchi bosqichi* – boshlanishi bronza davriga borib taqaladi. Arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, bu bosqich mil. avv. II ming yillikning o'rtalaridan to makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyo hududiga kirib

kelishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr, o'z navbatida, qator tarixiy voqealar bilan xarakterlanadi. Yevrosiyo cho'llarining chorvador aholisi hayotida ot, eshak va tuyadan transport vositasi sifatida foydalanishga o'tilgach, dasht aholisining o'z chorva podalarini haydab janub va g'arbga tomon migrasiyasi boshlanadi. Shu munosabat bilan bir guruh dasht aholisi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida (bronza davri) O'rta Osiyoning shimoli sharqiy tomonidan Amudaryoning quyi havzalariga kirib keldi. Ungacha bu zaminda Kaltaminor madaniyati (neolit davri) va Suvyorgan madaniyati (eneolit va bronza davri) aholisi yashab kelar edilar. Yangi etnik guruhning moddiy madaniyat izlari S.P.Tolstov tomonidan 1938-yildan boshlab qadimgi Xorazmda, Amudaryoning Oqchadaryo o'zanidan tortilgan Tozabog'yob kanali rayonidan topib o'rganildi. Qadimgi Xorazm tarixining bilimdoni S.P. Tolstov bu yangi etnik guruhga tegishli yodgorliklarni «Tozabog'yob madaniyati» deb ataydi.

**Ikkinchi bosqich** – antik davrda, ya'ni Da-yuechji qabilalari va hunnlarning bu zaminda paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bu davrda turkiy etnos foydasiga tub o'zgarishlar yuz beradi. Xususan, mil. avv. III – milodiy V asrlar davomida Qang' davlati doirasida qang'ar elati tashkil topadi, Sirdaryoning o'rta havzasi rayonlarida ikki tilli aholi etnik guruhlari omuxtalashgan moddiy voqealar – Qovunchi madaniyati va o'zbeklarga xos antropologik tip – «O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi» shakllanadi va nihoyat o'zbek xalqi asoslari dastlab tarkib topgan etnomadaniy maydon tarkib topadi.

**Uchinchi bosqich** – yurtimizning ichki hududlariga xioniylar, kidariylar (toxarlar), eftaliylar kabi turkiy tilli qabila va elatlarning kirib kelishi bilan bog'liqdir.

**Xioniylar** – turkiy qabila. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra dastlab Oltoy tog'lari atrofida yashashgan va IV asrning I yarmida janubiy g'arbga siljib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'iga kirib kelishgan. Bu yerda dastlab ular Zarafshon vohasini egallab, janubga harakat qilishgan va sosoniylar Eronga qaram bo'lib qolgan Kushon podshohligi o'rnini egallaganlar hamda markazi Toxariston bo'lgan Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Xurosonning bir qismini ham o'z ichiga olgan Xioniylar (Xionitlar) davlatini (IV–V asrlar) barpo qilishgan. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa xioniylarning dastlab Orol dengizi shimolida yashaganligi va yirik massaget qabilalar ittifoqiga mansub bo'lib, hunlar bilan aralashganligini ta'kidlaydilar (L.N. Gumilev, S.P. Tolstov, K.V. Trever). Ularning fikricha, yunon va lotin tilidagi asarlarda xioniylar «oq hunlar» deb atalgan. IV asrning 70-yillarida

xioniylar sosoniylar Eroniga qarshi hujum uyushtirib, muvaffaqiyatga erishganlar. Shuningdek, sosoniy podshohlar Varaxran (418–438), Yazdigard II (438–457) davrlarida ular Eronning eng yirik raqibiga aylanganlar. Xioniylar davlati 120-yildan oshiqroq hukmronlik qilgan.

V asrning 20-yillarida sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – *toxarlar* kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo'lib, *Kidar* ismli hukmdori ularga yo'lboshchi edi. Shuning uchun ular *kidariylar* nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda g'arbiy va janubiy Sug'd yerlarini ishg'ol etib, Xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatganlar. Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxtiga aylantirilgan.

V asrning 30–50-yillarida kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman bo'lib qolgan. Bu ikki davlat o'rtasida 456-yilda bo'lib o'tgan navbatdagi to'qnashuvda sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar o'zini qayta tiklab ololmaydi. Buning ustiga tez orada kidariylar shimoldan janubga tomon siljigan yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – eftallar bilan to'qnashadilar. Natijada, kidariylar O'rta Osiyoni tark etib, janubga – Shimoliy Hindistonga chekinadilar. U yerlarda 75-yil hukmronlik qiladilar.

*Eftaliylar, eftaltilar, abdallar, eftallar, xaytallar, ieda* – O'rta Osiyoning shimoli sharqidan Movarounnahrning ichki viloyatlariga kirib, milodiy V asrda davlat barpo etgan qabila ittifoqi. Eftaliylar O'rta Osiyo, Hindiston, Afg'oniston, Eron va Sharqiy Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan. V asrning o'rtalarida diyorimizga kirib kelgan eftallar yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. «Eftal» degan nom ilk bor «xeptal» shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida «Eftalon» deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni Vaxshunvar deb ham ataganlar, u eftallar yurishiga boshchilik qilgan. Xullas, Eftaliylar davlati VI asrning 60-yillarigacha Markaziy Osiyodagi eng yirik davlatga aylangan.

*To'rtinchi bosqich* – Turk xoqonligi davri (VI–VIII asrlar). Ma'lumki, VI asr o'rtalarida Oltoyda, Janubiy Sibirda, Yettisuvda, Sharqiy Turkistonda joylashgan qabilalar birlashib, Turk xoqonligini tashkil etadi. O'zbek etnogeneziga faol ta'sir o'tkazgan turkiy etnik komponentlar bu davrida O'rta Osiyoning markaziy mintaqalari (Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Farg'ona vodiysi) va Xorazmga kelib joylashib, ma'lum bir tarixiy davr mobaynida, bu etnik komponentning aksariyat qismi o'troqlashdi. Shu bilan birga turkiy qabila va qavmlar yerli tub aholi bilan jadal qorishishi yuz berdi. O'zbek etnogenezining mana shu



bosqichida Movarounnahrning asosan shimoliy va sharqiy viloyatlarida ikki til va ikki xo'jalik ukkladining yaqinlashuv jarayoni kuzatiladi, buning oqibatida aksariyati turkiyzabon dehqon va hunar ahlidan iborat yirik hududiy birlik tashkil topadi.

Arablarning O'rta Osiyoga kirib kelishi turkiy qabila va qavmlarning mintaqaning ichki rayonlariga jadal kirib kelishini vaqtincha to'xtatdi. Natijada, ungacha bu yerga kelib, o'rtnashib qolgan turkiy qavmlarning mahalliy aholi bilan aralashib-qorishib ketish jarayoni tezlashadi. Ayniqsa, bu jarayon Movarounnahrning shimoliy va sharqiy mintaqalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mintaqaning janubiy tumanlarida esa uning aksi, ya'ni ancha avval bu tomonlarga kelib, kuchli eroniy til muhitiga tushib qolgan turkiy aholi forsiylashadilar.

O'zbek xalqi etnogenezining *keyingi bosqichida* – IX asrning 40-yillarida Movarounnahrda shimoli sharqda tashkil topgan Qarluqlar davlati muhim ahamiyat kasb etdi. Qarluq turklari atrofiga o'troq, yarim o'troq va chorvador turkiy qabilalar birlashib, kuchli siyosiy davlat uyushmasi tarkib topdi. Qarluqlar milodiy VII–VIII asrlardayoq O'rta Osiyoning shimoliy va shimoli sharqiy hududlarining katta qismini egallagan edilar. Ular boshqa turkiy qabilalar bilan birgalikda Janubiy Qozog'iston, Toshkent vohasi, Zarafshon havzalarigacha, ularning ayrim guruhlarini Toxaristongacha kirib borgan edilar.

X asr o'rtalarida Qoraxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi. Harbiy yurishlar natijasida X asrning oxiri – XI asrning boshlariga kelib Movarounnahrning barcha hududlari egallandi. Endilikda, Qashg'ardan Amudaryogacha, Sharqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Toshkent vohasi, qadimgi Farg'ona, qadimgi Sug'd va Baqtriya – Toharistonni o'z ichiga olgan hududiy kenglikda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi o'zbeklarning xalq sifatida uzil-kesil shakllanganligini ko'rsatuvchi etnik belgi edi.

Demak, X asrning oxiri – XI asrning boshlariga kelib, o'zbek xalqi etnogenezi tarixida uning xalq sifatida shakllanishi uchun zarur barcha etnik belgilar namoyon bo'ldi. Aniqroq aytganda, ma'lum yirik hududiy-geografik viloyatlarda moddiy va ma'naviy madaniyat birligi, antropologik tip birligi, turkiy etnik asosda tuzilgan, o'zlikni anglash va hukmron turkiy etnik asos atrofida jipslashgan va ikki tillilik belgilari asosida qurilgan siyosiy davlat uyushmasi tashkil topdi.

Shunday qilib, hozirgi O'zbekiston hududi va uning tevarak-atrofida deyarli ikki ming yil davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida *o'zbek xalqi milodiy XI–XII asrlarda* uzil-kesil shakllandi. Bu yakuniy etnogenetik jarayon o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatida hamda hozirgi zamon o'zbeklarining jismoniy

qiyofasida o'z aksini topgan. Binobarin, bundan keyingi tarix o'zbek xalqining etnik tarixi (ya'ni shakllangan xalq tarixining boshlanishi) hisoblanadi.

**3. O'zbeklarning etnik tarixi. «O'zbek» atamasi.** O'zbeklarning etnik tarixi uning etnogenezi kabi uzoq davom etadigan etnomadaniy jarayon bo'lib, bu jarayon to XIX asrning o'rtalarigacha davom etadi. O'zbek etnik tarixida XV asr oxiri XVI asrlar ham muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda O'rta Osiyoga mang'it, qo'ng'irot, nayman, uyg'ur, saroy, qatag'on, qushchi, do'rmon, kenagas, qirq, yuz, ming, bahrin va boshqa Dashti Qipchoq o'zbek etnik guruhlarining navbatdagi to'liqini kirib keldi. Natijada Movarounnahr aholisining etnik qiyofasida ularning alomatlarini faollashgan.

Dashti Qipchoqdan 2 daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'i va Xorazmga kelib o'rnamagan etnik guruhlar «o'zbek» nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko'paytirgan bo'lsalar hamki, lekin uning etnik tarkibini tubdan o'zgartirib yubormagan. Ushbu etnoslar shakllangan o'zbek xalqining tarkibiga kelib qo'shilgan navbatdagi etnik komponent edi, xolos. Ular Movarounnahr va Xorazm aholisining turmush tarziga, an'alariga, madaniyatiga, xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi tipdagi madaniy qatlam hosil qilgan. Ayniqsa, Zarafshon vodiysi va O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisi orasida bu nisbat kuchli seziladi. Mahalliy aholiga ular «o'zbek» nomini berishgan va bu nom Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi uchun rasmiy ravishda umumiy nom bo'lib qolgan.

O'z o'rnida aytib o'tish lozimki, «o'zbek» etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda yakdil fikr mavjud emas. O'zbek so'zi XIII–XIV asrlarda yashagan Juvayniy va Rashididdinlarning asarlaridan ham bizga ma'lum. Xususan, Eron tarixchisi va geografi Hamidulloh Qazviniy «Tarixi Guzida» nomli tarixiy asarida 1335-yilda Ozarbayjonga yurish qilgan askarlarni «o'zbeklar» degan etnik nom bilan atab, Oltin O'rdani «Mamlakati o'zbekiy» deb ataydi. Oltin O'rdaning sharqiy qismida yashagan va Oltin O'rda xoni (Sulton Muhammad, 1312–1342-yy.) O'zbekxon qo'shini tarkibiga kirgan ko'chmanchi xalq ham «o'zbek» etnik termini bilan atalgan.

O'zbek etnonimining yuzaga kelishi masalasida ayrim mualliflar (T. Vamberm, T. Xovors, M.P. Pelo) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli «o'zbek», ya'ni «o'z-o'ziga bek» deb atagan desalar, boshqalar (P.P. Ivanov, A.Y. Yakubovskiy, Xilda Xukxem) «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon nomi bilan bog'laydi. V.V. Grigoryev,

A.A. Semyonov va B. Ahmedov kabi boshqa yana bir guruh olimlar esa o'zbek nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalariga taalluqli bo'lgan degan fikrni ilgari suradilar.

Tadqiqotchi A. Ibrohimovning yozishicha, o'zbek xalqi asosan ikki etnik qatlamlardan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Irtish) daryo bo'ylaridan tortib, to Xorazmning shimoli, Sirdaryoning o'ng va quyi oqimigacha bo'lgan hududlarda shakllangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu makon o'tmishda turlicha nomlar bilan, xususan, Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, o'zbek viloyati, o'zbek mamlakati, o'zbek ulusi deb atalgan.

Tarixiy manbalarda o'zbek xalqining 92 urug'i haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu urug'lar nafaqat O'zbekiston hududida, balki butun O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Bu 92 o'zbek urug'lariga mo'g'ullar bosqinidan oldingi va istilo davrida shuningdek, shayboniylar davrida kelgan etnik guruhlar ham kiradi. Shuningdek, O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan chig'il, yag'mo, usun, tuxsi, xalach va boshqalar turkiy etnik guruhlar ham 92 o'zbek elati tarkibiga kirgan.

O'zbek xalqining millat sifatida shakllanishi murakkab tarixiy jarayon hisoblanadi. Tadqiqotchi Q. Xonazarovning «Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi» nomli risolasida ta'kidlanishicha, «...Yer yuzida aholining 96% u yoki bu darajaga uyushgan millatlar bo'lib, 4% i esa elatlar va qabilalardir».

O'zbek xalqi ham elatdan millat darajasiga ko'tarilgan va jahon sivilizatsiyasi tarixida o'z o'miga ega bo'lgan xalqdir. Hozirda o'zbek millati tarixining boshlanish nuqtasini belgilash dolzarb muammoli masala hisoblanadi. Akademik A. Asqarov o'zining «O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi» nomli asarida «o'zbek xalqining millat tarixi XIX asr oxiri – XX asrning boshlaridan boshlanadi», deb ta'kidlaydi. Bunda olim O'rta Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, Rossiya imperiyasining xonliklarga qilgan harbiy harakatlari asosida Turkiston hududiga turli xalqlarning kirib kelishi jarayoni natijasida o'zbek xalqining etnik tarkibi o'zgarishi, son jihatidan ko'payishi elat ko'rinishidan millat darajasiga o'tishini nazarda tutgan bo'lsa kerak. Lekin bu fikr hozirgacha bahstlab masala hisoblanadi. Ma'lumki, millatning shakllanishi xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, millat aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan etnik tarixning eng yuksak yuqori cho'qqisi, kamolat bosqichi hisoblanadi. Millat o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shaklidir.

#### 4-MAVZU: O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

##### *Reja:*

1. İlk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona.
2. Vatanimiz xalqlarining ajnabiy bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi.
3. Salavkiylar davlati. Turon zaminda vujudga kelgan Yunon-Baqtriya, Davan, Qang' davlatlari.
4. Kushon podsholigi va uning yurtimiz davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.

*Tayanch so'z va iboralar:* Mehnatning dastlabki yirik taqsimoti, sun'iy sug'orma dehqonchilik, ilk shaharsozlik, davlat, Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Parfiya, Yunon-Baqtriya, Davan, Qang', Kushonlar.

##### *Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 25–72.
2. *Анорбоев А.* ва бошқ. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Т.: Фан, 2001.
3. История государственности Узбекистана: Т.1, (вторая половина II тысячелетия до нашей эры – III век нашей эры). / отв. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Т.: Узбекистан, 2009.
4. *Сағдуллаев А.* ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I қисм. – Т.: Академия, 2000. – Б. 16–60.
5. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I қисм. – Т.: 2002. – Б. 44–50; 55–75.
6. «Фан ва турмуш». 2006. – № 5–6; 2007. – № 3–4; 2008. – № 3–4–5.
7. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 22–110.
8. Ўзбекистон тарихи. I – қисм / Масъул муҳаррирлар: *А.С. Сағдуллаев, Б.Ж. Эшов.* – Т.: Университет, 1997. – Б. 40–55; 62–93.
9. Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Масъул муҳаррир: *Ш. Каримов.* – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 9; 12–22.
10. Ўзбекистон тарихи / *Р. Муртазаева* умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 60–86; 91–110.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3, 8, 10-жилдлар. – Т.: ЎМЭ, 2002–2005.
12. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / *Қ. Ражабов* [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: *Р. Абдуллаев.* – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: O'zbekiston, 2012.
13. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – Б. 45–52; 56–71.

14. *Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1. / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. – T.: Sharq, 2010. – B. 31–41; 60–87.*
15. <http://en.uz/index.html#9058>
16. [http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi\\_uzk.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi_uzk.pdf)

**1. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona.** Davlatlarning paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Zero, har bir xalqning o'z sivilizatsiya bosqichini o'tgan yoki o'tmaganligi uning o'z davlatchilik tizimiga egaligi yoki ega emasligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, xalqimizning o'z davlatchilik tizimiga qachon ega bo'lganligini bilish tarix fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Dastlabki davlatlar sug'oriladigan dehqonchilik hududlari – Misr, Mesopotamiya, Elam (hoz. Eron hududida), Hindiston va Xitoyda bundan 4–5 ming yillar muqaddam vujudga keldi. Sug'orish shoxobchalarini bunyod etish bilan mehnat unumdorligining keskin oshishi ularning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Davlatning tashkil topish jarayonida piramida shaklida bunyod etilgan jamiyat vujudga keldi:

- eng yuqorida yagona hukmdor (podshoh, fir'avn, xon va h.k.);
- quyiroqda – uning eng yaqin safdoshlari, maslahatchilari (vazirlar, amirlar);
- ulardan keyin quyi martabali amaldorlar;
- piramidaning asosini esa qishloq jamoalari tashkil etadi.

Davlat oliy hukmdor sanalib, jonli-jonsiz hamma narsalarga, barcha fuqarolarning ham hayoti, ham mulkiga egalik qilardi. Jamiyatning barqaror tabiati davlatning tub o'zgarishlarsiz yashashini ta'minlab keldi. Chunonchi, qadimgi Misr davlati mil. avv. IV–III ming yilliklarda paydo bo'lib, 30 asrdan ko'proq yashadi. G'arb davlatlari Sharq davlatlaridan ancha keyin paydo bo'lgan, biroq ular ancha tez rivojlangan. Yevropa ijtimoiy jamiyatidagi o'zgarishlar davlatlarning yangi-yangi tiplarini vujudga keltirib chiqargan.

Davlat, davlatchilik o'z mohiyati bilan insonlarning dolzarb talablarini, tub ehtiyojlarini amalga oshirishga, ularning huquqlarini himoya qilishga, jamiyatda barqarorlik o'rnatish va uni saqlashga mo'ljallangan tashkilot, u muayyan jamoa, elat, xalq tomonidan tashkil etilgan maxsus guruh bo'lib, uning ma'lum huquqlarga ega bo'lgan vakillari mavjud. Davlat jamiyatga tashqaridan zo'rlab kiritilgan emas, balki ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va taraqqiy etishi natijasida jamiyatning o'zida vujudga kelgan. Davlat siyosiy tashkilot sifatida jamiyatni uyushtiradi, hokimiyat bilan xalqni uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Davlatlarning



kelib chiqishi ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin, ya'ni o'zga davlatlarning ta'sirisiz, mustaqil tarzda yuzaga kelgan davlatlarga yoki buning aksi o'zga davlatlarning ta'siri ostida yuzaga kelgan davlatlar.

Davlatchilik tushunchasining hozirgi davrdagi mazmuni 1933-yilgi davlatlarning huquq va majburiyati xalqaro Konvensiyasida aks etib, quyidagi omillar bilan xarakterlanadi: 1) muayyan hudud; 2) aholi; 3) boshqa davlatlar bilan tashqi aloqa; 4) hukumat.

O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchilik tizimiga o'tish jarayoni mil. avv. 2-ming yillikning o'rtalarida boshlandi. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

► Kishilik jamiyatining ishlab chiqarish munosabatlarida mehnatning dastlabki yirik taqsimoti, buning natijasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi siljishlar va o'zgarishlar. Ma'lumki, so'nggi bronza davrida (mil. avv. 2-ming yillik) mehnatning dastlabki yirik taqsimoti ro'y beradi. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Iqtisodiy hayotdagi siljishlar tufayli ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, bu mahsulot ma'lum shaxslar qo'lida to'plana boshlaydi. Odamlar orasida mulkiy tengsizlik holatlari yuzaga kela boshladi.

► Jamiyat va davlatning bosh yacheykasi hisoblangan *oilaning* yuzaga kelishi. *ota urug'i* – *patriarxat* davridan (miloddan avvalgi 3 ming yillik) boshlab urug'chilik munosabatlari ham o'zgarib boradi. Ikki urug' a'zolaridan tashkil topgan er-xotin – juft oilalar vujudga keladi. Buning natijasida mulkchilikda ham o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Katta patriarxal oilalar urug' jamoalaridan ajralib chiqadi, ularga urug' jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlari ajratib beriladi. Shu tariqa urug' jamoasining umumiy xo'jaligi oilalar jamoasiga bo'linadi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataladi. Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek, hunarmandchilik va mol ayirboshlashning rivojlanishi urug' va qabilalar ichida ayrim to'q oilalarning vujudga kelishiga olib keldi. Mulkiy tabaqalanish kengayib bordi.

«Avesto» ma'lumotlariga ko'ra O'rta Osiyoda jamiyatning asosini katta patriarxal oilasi tashkil etgan. Bu «*nmana*» deb atalgan. Shunday oilaning bir nechtasi urug' jamoasini – «*vis*»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi «*varzana*» deb atalgan. Bunday jamoalar birlashib qabilani – «*zantu*» ni tashkil etgan. Qabilalar o'rtasida muntazam kelishmovchiliklar bo'lib turgan. O'z hududlarini himoya qilish maqsadida bir necha yirik qabilalar muayyan hudud (viloyat) da birgalashib yashaganlar. Bu birlashma *dahyo(yu)* degan nom olgan. Bu

viloyatlarni boshliq («*qavi*») boshqargan. Ushbu viloyatlar dastavval harbiy-siyosiy birlashma sifatida paydo bo'lgan. Ular o'zi yashagan hududni mudofaa qilgan. Sug'orish ishlarini uyushtirgan va boshqarib borgan. Qabila boshliqlari vaqti-vaqtida to'planib, kengashib turishgan. Bular dastlabki davlatchilikning alomatleri edi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning siyosiy tuzilmasi davlat va uni boshqaruv tizimi muttasil takomillashib borgan.

► Davlatlar paydo bo'lishining navbatdagi omili – osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo'li» bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Ishlab chiqarishning *osiyocha usuli* mil.avv. V ming yillikdan milodiy I asrgacha daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan. Davlat tuzilmasining «Yevropacha yo'li» Yevropa hududida mil.avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi yunon polislarida mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy-mulkiy tabaqalanishuvi jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Miloddan avvalgi IV ming yillik eneolit davridayoq O'rta Osiyoning janubida sug'orma dehqonchilik vujudga keldi, anhorlar va ariqlar ochildi, unumdor yerdan keng foydalanib, turli o'simliklar (arpa, bug'doy, javdar) ekildi, mevachilik ham rivojlandi. Bronza davrida esa sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosini tashkil etdi. Sug'orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo'shimcha mahsulot va xususiy mulk ko'rinishlari paydo bo'ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza davrida, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlandi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

► Ilk davlatlarning paydo bo'lishida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligi bilan bir qatorda *hunarmandchilik, o'zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy* aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Dastavval shuni aytish joizki, O'rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab

o'zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Bu o'rinda o'sha davrda shakllanib keyinchalik ancha rivojlangan qadimgi yo'llarning ahamiyati beqiyos bo'ldi. O'rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo'shni davlatlar bilan ham o'zaro aloqalarni rivojlantirganlar. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, qimmatbaho Badaxshon (Tojikiston) lojuvard toshlari mil avv. III ming yillikdayoq Mesopotamiya va Misr shaharlarida nihoyatda qadrlangan va bu hududlar bilan o'zaro mol ayirboshlash munosabatlari o'rnatilgan. Undan tashqari, Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, O'rta Osiyo yodgorliklaridagi so'nggi bronza va ilk temir davri topilmalaridagi juda ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan dalolat beradiki, bu jarayon ham ilk davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

► Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatlarning shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida ilk davlatlar shahar-davlatlar ko'rinishida paydo bo'lgan. Bu jarayon sug'orishga asoslangan barcha dehqonchilik hududlari – O'rta va Yaqin Sharq, shu jumladan O'rta Osiyo mamlakatlarida yuz bergan. Dastlab, O'rta Osiyodagi ilk davlatlar deyilganda, yaqin yillargacha miloddan avvalgi VII–VI asrlarda vujudga kelgan «Katta Xorazm» va «Qadimgi Baqtriya» podsholiklari tushunilib kelingan. Ular davlatchiligimiz rivojining ikkinchi bosqichiga tegishli davlatlardir. So'nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar shahar-davlatlar ko'rinishida bo'lib, ular miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo'lganligidan guvohlik beradi. Bunga misol tariqasida shu davrda yuzaga kelgan Jarqo'ton shaharsozlik madaniyatini aytish mumkin.

Shahar madaniyatining shakllanishi ham xuddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi uzoq bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil. avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqo'ton, Sopollitepa, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltintepa, Ulug'tepa kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;
- hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;



- qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Ko'p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, O'zbekistondagi ayrim ko'hna shaharlarning yoshi 2700–3000-yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Ko'zaliqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo) kabilar kiradi. Qadimgi shaharlar-tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi.

► Davlat paydo bo'lishida uning tabiiy-geografik hududi va joylashuvi ham muhim omil hisoblanadi. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i – alohida tarixiy-geografik va tarixiy-madaniy hududdir. Uning sivilizatsiyasi Amudaryo va Sirdaryo tufayli ko'p ming yilliklar mobaynida vujudga keldi. Bu mintaqada yuzaga kelgan davlatlar qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham umumiy belgilar bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyoning boshqa qismlaridagi davlatlardan o'ziga xos belgilariga ko'ra ajralib turgan.

***Qadimgi davrda O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida davlat birlashmalarining har xil shakllari mavjud bo'lgan:***

1. Davlat tipi – podshohlik. Boshqaruv shakli – mutlaq monarxiya.
2. Davlat tipi – konfederativ podshohlik. Boshqaruv shakli – cheklangan monarxiya. Ular odatda qabila boshliqlari yoki o'z tangasini zarb qiluvchi urug' boshliqlari tomonidan boshqariladigan bir nechta mustaqil o'lkalardan iborat bo'lgan.
3. Davlat tipi – mulkka egalik qilish. Boshqaruv shakli – qabila dohiylari yoki urug' boshliqlarining meros qilib qoldiriladigan hokimiyati.

***O'rta Osiyodagi qadimgi davlatchilik evolusiyasini (taraqqiyotini) bir necha davrlarga ajratib ko'rsatish mumkin:***

**1-davr.** Miloddan avvalgi II ming yillikning II yarmi – O'zbekiston janubida davlatchilik tuzilmalarining ilk belgilari paydo bo'ldi. Davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda topilgan.

**2-davr.** Miloddan avvalgi I ming yillikning boshi – Xorazm, Baqtriya, Sug'd tarixiy-madaniy viloyatlarining shakllanishi.

**3-davr.** Miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Ahmoniyalar bosqini va O'rta Osiyoning Ahmoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

**4-davr.** Miloddan avvalgi IV–II asrning yarmi. Yunon – Makedon qo'shinlari bosib olgandan boshlab, Yunon – Baqtriya podshohligining qulashigacha. Bir vaqtning o'zida mahalliy davlatchilikning tiklana borishi.

**5-davr.** Miloddan avvalgi II asrning yarmi va milodiy I asri boshi. Mahalliy davlatlar: Qang', Xorazm podshohligi, Sug'd, Davan davlatlarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi.

**6-davr.** Milodiy I asr boshidan III asr yarmigacha. Mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi. O'zbekiston janubiy hududlarining Kushon imperiyasi tarkibiga kirishi.

Salkam uch ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishining keyingi davrlari quyidagilardan iborat:

1. Ilk o'rta asr davlatchiligi tarixi (IV–VIII asr o'rtalarigacha);
2. Rivojlangan o'rta asr davlatchiligi tarixi (IX–XIII asr boshlari);
3. Amir Temur va temuriylar davlati (XIV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari);
4. XVI–XIX asr birinchi yarmi davlatchiligi tarixi;
5. O'zbek davlatchiligi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr mustamlakachiligi davrida;
6. Mustaqil O'zbekiston davlatchiligi bir necha ming yillik o'zbek davlatchiligining davomi va vorisi sifatida.

*(Izoh: O'z navbatida o'zbek davlatchiligi tarixidagi ushbu davrlar bir qator bosqichlarga bo'lib o'rganiladi.)*

O'zbekiston hududida miloddan avvalgi VII–VI asrlarda dastlabki davlat birlashmalari (Xorazm, Baqtriya va Sug'diyona) vujudga keldi. Bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tgan.

**Qadimgi Xorazm (miloddan avvalgi VII – milodiy IV asrlar)** – Turon va Eron mintaqalari oralig'idagi davlat, ya'ni Amudaryo quyi havzasidan Turkmaniston janubiga qadar, shuningdek, O'rta Osiyoning markaziy tumanlarini o'ziga birlashtirgan O'rta Osiyoning keng hududlarini o'z nazoratida tutgan qabilalar konfederatsiyasi hisoblangan. Xorazm davlati egallagan hududlar ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Murg'ob va Tajang daryolari atroflariga qadar ham yoyilgan. Shu boisdan bu qadimgi tarixiy o'lka fanda 2 xil: Katta Xorazm va Qadimgi Xorazm nomlari bilan ma'lum.

Bu davlat «ishlab chiqarishning Osiyo usuli»ga ega bo'lgan davlatlarning qadimgi sharq tipiga mansub edi. «Avesto» da Qadimgi Xorazm davlati haqida bir qancha ma'lumot bor. Unda Xorazm O'rta Osiyodagi rivoj topgan, o'z hududiy chegaralariga ega bo'lgan o'lkalardan, viloyat (davlat)lardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Gerodot ma'lumoticha, qadimda Oks (Amudaryo) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho'lli, sahroli yerlarga suv chiqazilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Gerodot taassurotlarida Xorazm o'lkasida yashagan aholi dehqonchilikda katta tajribaga ega bo'lib, ularning donli, dukkakli ekinlar, chunonchi, bug'doy, suli, arpa, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini mo'l-ko'l yetishtirganligi qayd etib o'tiladi.

Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozirgacha yetarli bo'lmasa-da, rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi – Siyovushiyalar bo'lganligi zikr etiladi. «Avesto»da ko'rsatilishicha, Siyovarshon Kavousning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, hokimiyatni egallab, Xorazmda Siyovushiyalar sulolasiga asos soladi.

Mil. avv. IV asrda Amudaryo quyi oqimi hududida Qadimgi Xorazm davlati tashkil topdi. Ushbu asrda Katta Xorazmning Amudaryoning quyi oqimidagi hududi Qadimgi Xorazm davlatiga uyushadi. Bu paytda Xorazmda Farasman ismli shoh bo'lganligi manbalarda tilga olinadi. U g'oyatda tadbirkor hukmdor bo'lgan. U Iskandar Zulqarnaynga elchi jo'natib, uning Xorazm tomonga yurishining oldini oladi.

**Qadimgi Baqtriya.** Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda tashkil topgan bu davlat – Amudaryoning yuqori va o'rta oqimidagi, hozirgi Surxondaryo, Qashqadaryo, qisman Zarafshon, shuningdek, hozirgi Tojikistonning janubi, Afg'onistonning shimoli sharqiy qismidagi hududlarni tasarrufiga olgan. Yozma manbalarda u Bahdi («Avesto»da), Baqtrish (Behistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni Baqtriana yoki Baqtriya deb ataganlar. Baqtriyaning o'tmishda «Ming bir shahar mamlakati» deb nomlanganligi unda shaharlarning ko'p bo'lganligidan guvohlik beradi. Bu davlatning ko'pdan ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur bo'lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podshoh qal'asi alohida ajralib turgan. Ba'zi yozma manbalarda qayd etilishicha, bu davlat tarkibiga Sug'd va Marg'iyona hududlari ham kirgan.

Ko'plab tarixiy manbalarda Baqtriya haqida to'xtalib o'tilgan. Xususan, «Avesto»da Baqtriya (Baxdi) «bayroqlari (doim) baland hilpirab turadigan», shon-

shavkat o'lkasi sifatida ta'riflanadi. Yunon tarixchisi Gerodot o'zining 9 kitobdan iborat bo'lgan «Tarix» asarida Baqtriya va baqtriyaliklarni 45 marta tilga olgan. U Baqtriya xalqi, bu davlatning qudrati jihatidan Misr va Bobil davlatlari bilan teng bo'lganligi haqida yozadi. Shu bilan birga «Baqtriya» atamasi yunon dramaturgi Esxilning mil. avv. V asrda sahnaga qo'yilgan «Forslar» (472) tragediyasida ham uchraydi. Yana bir yunon geografi va tarixchisi Strabon Baqtriyani «oriylar o'lkasining javohiri» sifatida ta'riflaydi. Qadimgi Baqtriya davlati to'g'risida yunon olimi Ktesiy ma'lumotlari ham qimmatlidir. U Baqtriyadagi ko'plab shaharlar, uning poytaxti Baqtra (Balx), Baqtriya podshosi Oksiard, unga qarashli behisob boyliklar haqida ma'lumotlar beradi.

Ushbu davlat mil. avv. VI–IV asrlarda Axomoniylar, Aleksandr (Iskandar), Sallavkiylar saltanatlarini tarkibiga kiragan. Mil. avv. III asr o'rtalarida esa Yunon – Baqtriya podsholigi tarkibiga qo'shilgan. Mil. avv. II asrlarda to'xtarlar tomonidan bosib olingach, Toxtariston deb atala boshlangan.

**Qadimgi Sug'diyona (miloddan avvalgi VII – milodiy IV asrlar)** – bu davlat uyushmasi ham Baqtriya singari qadimdan mustaqil faoliyat ko'rsatgan. Bu davlatning hududiga hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, ya'ni, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari, Tojikistonning Panjikent atrofidagi yerlar kirgan. Qadimgi Sug'diyona va sug'diylar haqida ilk yozma manbalarda ma'lumotlar juda kam. Bu davlatning poytaxti Samarqand shahri bo'lgan. Arxeologlarning bergan ma'lumotlarga qaraganda tub yerli aholi shaharni Smarakansa deb atagan. Bu shahar qadimgi «Buyuk Ipak yo'li»da joylashgan bo'lib, savdo-iqtisodiy jihatdan Sharq va G'arbni bog'lagan. Sug'd tili qadimda va ilk o'rta asrlarda jahon savdo tili sifatida katta nufuzga ega bo'lgan. Sug'diyonada aholi yuqori darajada dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik madaniyatiga ega bo'lgan.

**2. Vatanimiz xalqlarining ajnabiy bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi.** Mil. avv. 558-yilda Eron hududida yashovchi xalqlar podsho Kayxusrav II boshchiligida kuchli davlatga uyushdilar. Bu davlat ikki asr mobaynida, ya'ni, mil. avv. 330-yilgacha faoliyat ko'rsatgan. Uning hududlari Misrdan to Shimoli G'arbiy Hindistonga qadar cho'zilgan edi. Axomoniylar (ko'plab adabiyotlarda axomaniylar) saltanatini Kir II (qad. Eron – Kurush, grek. – Kyros) barpo etdi va mil. avv. 558–530-yillarda esa Axomoniylar davlatini boshqargan. Axomoniylar davlati qisqa davr ichida Hind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek Misr, Midiya va Bolqon yarim orolining bir qismini bosib oladi. Kir II O'rta Osiyo yerlariga yurish qilishga maxsus tayyorgarlik

## Xorazm, Baqtriya va Sug'diyona davlatlari xaritasi



ko'radi. Kirning sharqiy hududlarga, xususan, O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini ikki bosqichga bo'lish mumkin. 1-bosqich mil. avv. 545–540-yillar, 2-yurish mil. avv. 539–530-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda Parfiya, Baqtriya, Marg'iyona hududlari bosib olindi. Ammo O'rta Osiyo xalqlari har doim erk, ozodlik va hurlikni hamma narsadan ustun qo'yanlar. Shu bois ular bosqinchi Axomaniylar zulmiga qarshi muttasil kurash olib borganlar. Miloddan avvalgi 530-

yilda massagetlar yo'lboshchisi malika To'marisning Kir II ustidan qozongan yorqin g'alabasi bunga misol bo'la oladi. Axomaniylar shohi Kir II ning tanadan judo etilgan boshini odamlar qoni bilan to'ldirilgan mesh – qopga solar ekan, To'maris shunday deydi: «Ey, Kir! Umr bo'yi jang qilib, odam goniga to'y mading, mana, endi to'yguningcha ich!».

Lekin Kir II ning o'limidan keyin O'rta Osiyo xalqlari axomaniylarning bosqinidan qutula olmadilar. Kir II o'limi uchun uning avlodlari o'ch oldi. Jumladan, podshoh Doro I o'rta osiyoliklarga qattiq jaf o'ldi. Axomaniylar shohi Doro I (522–486) davrida O'rta Osiyo hududlari bosib olinadi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, mil. avv. 522-yilda



Doro I ning  
barelyef surati




podsholik taxtini egallagan Doro I ga qarshi Marg'iyonada Frada boshchiligida xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Doro I qo'zg'oloni bostirish uchun Baqtriya satrapi Dodarshishni yubordi. Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi, 55 ming qo'zg'olonchi qatl etiladi, 7 mingga yaqin kishi asir olinadi. Frada ham qo'lga olinib, mil. avv. 521-yilda qiynab o'ldiriladi. Ammo qo'zgonlar davom etavergan. Axomaniylar shohi Doro I ning shaxsan o'zi mil. avv. 519-yillarda parfiyaliklar va sak qabilalari ustiga qo'shin tortib borishga majbur bo'lgan.

Doro I O'rta Osiyo xalqlaridan qattiq o'ch oldi, ammo ayni paytda o'zi ham katta talafotlar ko'rdi. Bu o'rinda muarrix Poliening «Harbiy hiylalar» asaridagi Shiroqning (asarda Shiroq – Siyrak deb nomlangan) afsonaviy harbiy jasorati diqqatga sozovordir.

Manbada hikoya qilinishicha, yilqiboqar Shiroq o'z vatanga bostirib kelgan dushmanlarni hiyla ishlatib, chalg'itib, Qizilqumning halokatli jazirama dashtlariga boshlab boradi va



**Persapol Doro I-ning saroyidagi Eron jangchilari tasviri tushirilgan barelyef (mil. avv. VI asr oxiri – V asr bosh.)**





**Filipp II Makedonskiy**  
(mil. av. taxm/ 382–336)



**Filipp II ta'sviri tushirilgan**  
**tangalar**

o'z jonini qurbon qilib bo'lsa-da, vatani va xalqini yovuz dushmandan asrab qoladi. O'rta Osiyo xalqlari Eron axomaniylariga qarshi qat'iy kurash harakatlari olib borilayotgan bir davrda chetdan yangi xavf kirib kelayotgan edi.

Mil. avv. IV asrning o'rtalaridan boshlab esa, Bolqon yarimorolidagi shahar-davlatlar kuchaya boshlaydi. Mil. avv. 359-yilda Fillip II (mil.av. taxm. 382–336) Makedoniyani birlashtirib, yagona davlat tuzishga erishadi. U kuchli armiya tashkil etadi.

Yunoniston hududlarini egallab olgan Filipp II 337-yilda Korinf shahridagi anjumanda o'zini Yunoniston podshosi deb e'lon qildi. Bu davrda axomaniylar bilan Yunoniston o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi. Filipp II mil. avv. 336-yilda axomaniylarga qarshi urush e'lon qildi. Ammo shu yili Filipp II o'ldirilganligi tufayli urush harakatlari to'xtab qoldi.



**Aleksandr Makedonskiy**  
(mil. avv. 356, Pella– 323, Bobil)

Taxtni Filipp II ning 20 yoshli o'g'li Aleksandr, Iskandar Maqduniy (mil. avv. 356, Pella – 323, Bobil) egalladi. U Sharq mamlakatlarida Iskandar, Iskandar Zulqarnayn (*Zulqarnayn* – Aleksandr Makedonskiyning laqabi. Sharqda shu laqab bilan atalgan. Bu laqab tojining ikki cheti shoxsimon bo'lganligi sababli «ikki shohli» yoki «ikki tomon – ham G'arb, ham Sharq hukmdori» degan ma'nolarni anglatgan) nomi bilan mashhur edi.

Aleksandr otasi Filipp II yo'lini davom ettirdi. Ammo u dastlab mamlakat ichki hayotini mustahkamladi. Davlat hokimiyatiga qarshi bo'lgan amaldorlarga nisbatan qattiq choralar ko'rdi. U Bol-





Pompey shahridagi Favn uyidagi devoriy surat. Fileksenning miloddan avvalgi IV asrga mansub mashhur «Aleksandr Makedonskiyning Doro III bilan Issa yaqinidagi jangi» rasmidan nusxa

qon yarimorolida o'z hokimiyatini mustahkamladi. Mil. avv. 334–330-yillarda o'zining asosiy raqibi Doro III qo'shinlariga bir necha harbiy zarbalar berib, butun Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Finikiya, Misr yerlarini egallab axomaniylar davlati hududlariga kirib bordi. Doro III Midiyaga qochdi. Iskandar qo'shinlari mil. avv. 330–329-yillarda Afg'onistonning janubiy tomonlarini egallab Hindiqush tog'lari orqali O'rta Osiyoga yurish boshladi.

Tarixiy manbalarda Aleksandrqa qarshi butun O'rta Osiyo xalqlari oyoqqa turganligi hikoya qilinadi. Ayniqsa baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar xalq qasoskorlari Spitamen, Oksiard rahbarligida qahramonlik ko'rsatgan. Iskandar hiyla-nayranglar va shafqatsiz qirg'inlar evazigagina o'z maqsadini ro'yobga chiqara olgan. Jumladan, Samarqand (Marokand)da



Aleksandr Makedonskiy tetradraxmasi.  
Miloddan avvalgi IV asr, kumush.  
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

Spitamen boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olonni Aleksandr ikki yildan so'nggina – mil. avv. 328-yil kuzida bostira oldi, xolos. Diodor bergan ma'lumotlarga qaraganda, qo'zg'olonni bostirish chog'ida sug'dliklardan 120 ming kishi shafqatsizlarcha qirib tashlangan. Ustrushonada Samarqand bilan Xo'jand oralig'idagi tog'liklar bilan bo'lgan jangda tub yerli 30 ming aholidan 22 minggi qilichdan o'tkazilgan. Ammo vatanparvarlar taslim bo'lmaganlar. Iskandar hiyla ishlatib mahalliy hukmdorlardan Sug'd qal'asining hokimi Oksiardning qizi Roksana (Raxshona, Ravshanak)ga uylanadi, mahalliy xalqqa o'zini yaqin tutib, uning milliy urf-odatlarini qabul qiladi, milliy kiyimlarini kiyib yuradi. Shundan so'nggina mahalliy hukmdorlarning bir qismi uning tomoniga o'tadi va Aleksandr o'z niyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Juda katta va dahshatli janglardan so'ng Aleksandr mil. avv. 327-yilgacha uncha katta bo'lmagan hududlarni: Baqtriya, Sug'diyona, Marg'iyona, hozirgi Bekobod va Xo'janddan iborat Sirdaryo bo'ylarini egallay oldi, xolos. Xullas, Eronday qudratli davlatni uch oy ichida bo'ysundirgan Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bo'ysundirishga uch yil sarfladi. Mil. avv. 327–325-yillarda Iskandar Hindistonni zabt etdi. Mil. avv. 325-yili Bobilni egalladi. U yangi urushlarga tayyorgarlik ko'rish paytida bezgak kasaliga chalinib, 34 yoshida, ya'ni mil. avv. 323-yilda o'z davlatining yangi poytaxti Bobil shahrida vafot etdi. Shunday qilib, makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn olib borgan bosqinchilik va adolatsiz urushlar oqibatida O'rta Osiyoda axomaniylar zulmi yunon-makedon istilochilari zulmi bilan almashdi. Bu zulmdan qutulish uchun Sug'diyona xalqlariga 150 yil, Baqtriya xalqlariga esa 180 yil kerak bo'ldi. Bu jarayonda o'lkamiz xalqlarining erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari hal qiluvchi rol o'ynadi.

**3. Salavkiylar davlati. Turon zaminda vujudga kelgan Yunon-Baqtriya, Davan, Qang' davlatlari.** Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng taxt vorisligi uchun uning lashkarboshilari o'rtasida kurash avj olib ketdi. Bu davrdan tarix sahnasiga Salavkiylar sulolasi chiqdi. Bu sulolaning asoschisi Salavka I Nikator (yun. Seleukos Nikator – «Muzaffar», mil. avv. 358/354–281/280) edi. U mil. avv. 312-yilda Bobil satrapligini bosib oladi. Shu bilan Salavkiylar davlatining hukmronligi boshlangan bo'lib, bu sulolaning so'nggi vakili Antiox III Aziatskiy (mil. avv. 69–64) edi. Salavkiylar davlatining O'rta Osiyoda hukmronligi mil. avv. 312–250-yillarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, mil. avv. 301-yilda Frigiyaning Ips deb atalgan joyida yuz bergan qonli janglar oqibatida Aleksandr Makedonskiy saltanati uchta mustaqil davlatga bo'linib ketdi: Makedoniya – Antiox avlodlariga, Misr – Ptolomey avlodlariga

va Suriyadan to O'rta Osiyo – Hindistongacha bo'lgan yerlar Salavka I ga tegdi. Tadqiqotchilarning fikri bo'yicha O'rta Osiyo yerlarining Salavka I tomonidan bosib olinishi mil. avv. 306–301-yillarga to'g'ri keladi.

Mil. avv. 293-yil Salavkiylar davlati uchun tarixiy voqealarga boy sana hisoblanadi. Jumladan, bu yilda davlat poytaxti Bobildan Suriya – Antioxiyaga ko'chirildi. Shu bilan birga Salavka I dastlab o'g'li Antiox I Soter (onasi Spitaman qizi Apama) ning ixtiyoriga Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyonani berdi. So'ngra uni O'rta Osiyo yerlarining hokimi etib tayinlaydi.

Yunon muarrixlari Salavka I va uning o'g'li Aktiox I ning O'rta Osiyoga juda katta e'tibor berganliklarini yozadilar. Ular davrida 75 shahar qurilganligi manbalarda qayd etiladi. Bu shaharlar Salavkiya, Antioxiya va boshqa nomlar bilan atalgan. Salavkiylar davlati turli etnik guruhlarini xarbiy kuch ishlatish yo'li bilan birlashtirish orqali tashkil etilgan davlat edi. Davat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan strateg shug'ullangan. Uning hududlariga ko'chmanchi qabilalar tez-tez hujum qilib turgan. Shunday bo'lsa-da, Salavka I Hindiston bilan urush harakatlari olib borgan, ammo bu yurishlar sulh ko'rinishidagi «mag'lubiyat» bilan yakunlandi. Bu hol salavkiylarning O'rta Osiyodagi obro'siga salbiy ta'sir qildi. Salavkiylarga qarshi mahalliy xalq qo'zg'olonlar ko'taradi. Ayniqsa, bu qo'zg'olonlar mil. avv. 280-yilda Salavka I vafotidan so'ng kuchaydi. Salavka I o'limidan so'ng hokimiyat tepasiga uning o'g'li Antiox I chiqdi va davlatni 20-yil davomida boshqardi.

Miloddan avvalgi III asrning o'rtalariga kelib Salavkiylar davlatida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Buning oqibatida O'rta Osiyoda Salavkiylar hokimiyatining barham topishiga olib keldi va mil. avv. 250-yilda undan dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya podsholigi ajralib chiqdi. Bu davlat mil. avv. 64-yilda faqat hozirgi Suriya hududidan iborat bo'lib qoldi va o'sha yili Rim provinsiyasiga aylantirildi.

**Yunon-Baqtriya podsholigi** – qadimgi quldorlik davlati (mil. avv. 250–248-yillar orasi – mil. avv. 140–130-yillar). Asoschisi salavkiylarning Baqtriyadagi satrapi Diodot hisoblanadi. Mil. avv. 250-yilda u o'zini Baqtriyaning mustaqil hukmdori deb e'lon qiladi. Davlat hududiga hozirgi Janubiy Tojikiston, Janubiy O'zbekiston va Afg'oniston kirgan. Yunon-Baqtriya podsholigi kuchaygan paytlarda unga Pokiston, Shimoliy-G'arbiy Hindiston hamda Sug'diyona ham bo'ysungan. Poytaxti Baqtra (o'rta asrlardaga Balx) shahri bo'lib, uning xarobalari Shimoliy Afg'onistonda, Mozori Sharif shahri yaqinida joylashgan. Davlat bir qancha satrapliklar (viloyatlar)

ga bo'linib boshqarilgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalari iqtisodiy hayot, badiiy hunarmandchilik, haykaltaroshlik, madaniyat, shaharsozlik yunon an'analari asosida yuksak rivojlanganligidan dalolat beradi. Yunon-Baqtriya

davriga mansub eng mashhur yodgorlik Shimoliy Afg'onistondagi Oyxonum va Janubiy Tojikistondagi Taxti Sangin yodgorliklari hisoblanadi. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Vaxsh va Panj daryolari quyilishida joylashgan Taxti Sangindagi ibodatxona tuzilishi va topilmalari ellinizm dunyosiga xos diniy e'tiqodlar keng tarqalganligini ko'rsatib turibdi.

Yunon-Baqtriya podsholigi Hindiston va O'rta Osiyo hududlarini o'zaro bog'lovchi hamda Xitoydan Badaxshon orqali Fors ko'rfaziga olib chiquvchi savdo yo'llarini nazorat qilib, xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarida faol ishtirok etgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ko'plab tangalar tovar-pul munosabatlari rivojlanganligini ko'rsatadi. Tangalar yunon standartlari asosida kumush va jezdan quyilgan. Tangalarda (tetradraxma, draxma, obol va b.) hukmdorlar qiyofasi yuksak did va aniqlik bilan tasvirlangan. Diodot (mil. avv. 250–230), Evtidem (mil. avv. 230–200), Demetriy (mil. avv. 200–185), Evkradit (mil. avv. 185–171), Geliokl (mil. avv. 171–155) va boshqa hukmdorlari ma'lum. Bitta nom bilan davlatni boshqargan hukmdorlar (mas, Diodot I–II, Evkradit I–II) ham bo'lgan.



**Zeus va Apalon tasviri tushirilgan Yunon-Baqtriya tangalari. Kumush. Mil. avv. III–II asrlar**



**Podsho Evtidem tasviri tushirilgan Yunon-Baqtriya tangalari. Kumush. Tax. mil. avv. 235–200-yillar**



**Podsho Demetriy tasviri tushirilgan Yunon-Baqtriya tangalari. Kumush. Tax. mil. avv. 200–185-yillar**



**Podsho Evkradit asviri tushirilgan Yunon-Baqtriya tangalari. Kumush. Tax. mil. avv. 175–155-yillar**



**Podsho Geliokl tasviri tushirilgan Yunon-Baqtriya tangalari. Kumush. Tax. mil. avv. 155–140-yillar**

Mil. avv. III asr oxiri – II asrning 1-yarmi davlatning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Mil. avv. II asr o'rtalaridan boshlab ichki nizolar kuchayib, inqiroz davri boshlanadi. Mamlakat alohida viloyatlarga bo'linib, mahalliy hokimlar (Antimax, Menandr, Appolodot va b.) o'z nomidan tangalar zarb qilishgan. Yunon-Baqtriya podsholigi mil. avv. 140–135-yillarda sak va yuechji qabilalari tomonidan butunlay tugatilgan.

**Davan** (xitoycha Da-yuandan olingan) – Farg'ona vodiysidagi qadimgi davlat. Mil. avv. II–I asrlardagi Xitoy manbalarida keng, obod, boy mamlakat – Davan haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Davan shahar va voha hokimlarining erkin ittifoqidan iborat davlat edi. Ulug' hukmdor qarorgohi Gushan (hoz. O'zgan shahar deb taxmin etiladi)da bo'lgan. Podsho hokimiyati qabila zodagonlaridan iborat oqsoqollar kengashi tomonidan cheklab qo'yilgan. Oliy kengash hukmdorni podsholikdan tushirishi, hatto o'lim jazosiga hukm qilishi mumkin bo'lgan. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda mil. III asrgacha uchraydi. So'ngra Davan o'rniga «*Boxan*» va «*Polona*» (mil. V asr) atamalari uchrab muarrixlar ushbu atamalar qadimgi Davanga mos keladi deb qayd etib o'tganlar. Ammo arxeolog olim akademik A. Asqarovning xulosasiga ko'ra, Davan davlati mil. avv. II asrda emas, balki ancha ilgari – mil. avv. IV yoki III asrlarda ham bo'lgan. U davrda bu davlatning nomi Parkana bo'lgan. Davan nomini xitoylar berganlar. Xitoyshunos N.Y. Bichurinning fikricha, Davan – Qo'qondir, ham shahar va o'lkadir. Xitoyliklar Davan deb, nomi toxarlar bilan bog'liq bo'lgan mamlakatni atashgan degan fikr bor.





Mil. avv. II asr Xitoy manbalari ma'lumotlarida ta'kidlanishicha, Davanda 300 ming aholi yashagan. Vohada 70 ta katta-kichik shahar bo'lgan, poytaxti Ershi (hozirgi Marhamat) shahri edi. Davanliklar ko'zlari kirtaygan, qalin soqolli xalq bo'lib, savdo-sotiq ishlarida mohirliklari bilan nom chiqarishgan. Davanda xotin-qizlar izzat-ikrom qilingan. Davanda yetishtirilgan «*samoviy tulporlari*» – arg'umoqlar (zotli chopqir otlarga Sharq xalqlari bergan umumiy nom) Sharqda mashhur bo'lgan. Mil. avv. 104–101-yillarda Xitoy askarlari Davanga ikki bor hujum qilganlar. Birinchi hujum Xitoy askarlarining mag'lubiyati bilan tamom bo'lgan, chunki ular istehkomga aylantirilgan qishloqlarning qarshiligini sindirish uchun ojizlik qilganlar. Xitoyliklar 60 ming kishilik katta qo'shin bilan ikkinchi marta hujum qilib, 101-yilda Ershi shahrini qamal yetishgan.

*Qang' davlati, Qanhxa* (qad. xitoy manbalarida Kangkiya, zamonaviy o'qilishda Kangjuy, rus adabiyotida Kangyuy) – qadimda Sirdaryoning o'rta havzasida mavjud bo'lgan davlat (mil. avv. III – mil. V asr o'rtalari). Ayrim adabiyotlarda ushbu davlat aholisi ham uning nomlari bilan ataladi.

K. Shoniyozovning fikricha, Qang' davlati sharqda Farg'ona (Davan, Dayyuan), shimoliy sharqda Usun (Uysun) davlatlari, shimoliy g'arbda Sarisu, g'arbda Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaradosh bo'lgan. Xitoy manbalariga ko'ra, Qang' davlatining janubiy hududiga hozirgi O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va Urganch tumanlari kirgan bo'lib, uning chegarasi Amudaryoga borib taqaladi. Janubda – Dayruzie (Dayuechji) davlati joylashgan. Kushon podsholigi tashkil topishi va uning hududi kengayishi munosabati bilan Qang' davlatining janubiy chegarasi o'zgargan. Shu tufayli mil. avv. II asrda Xitoy elchisi Chjan Syan farg'onaliklar yordamida Qang' davlati orqali Dayruzie (Dayuechji) davlatiga borgan. Qang' davlatining qishki poytaxt shaharlari Bityan va Sushie bo'lgan. Bityan Binkat shahri (boshqa manbalarga ko'ra, Qanqa) o'rnida, Sushie esa hozirgi Parkent tumanidagi So'qoq (Sukeeke) nomli joyga to'g'ri keladi. Qang' davlatining yozgi qarorgohlari Issiqko'l bo'ylab, hozirgi Qoraqo'l (Prjevalsk) yonida bo'lgan. Qang' davlatining qo'shini 80–90 ming jangchini tashkil etgan. Qang' davlati aholisining urf-odatlari Ruzie (Yueszi) davlati aholisi urf-odatidan farq qilmagan. O'z navbatida, ruzieliklar urf-odatlari hunlarnikiga o'xshash bo'lgan. Qang' davlati hukmdori va Hun xoqonligi o'rtasida qudachilik munosabatlari o'rnatilgan. Shu tufayli xitoylar hunlar ustidan g'olib chiqib, ularni o'z joylaridan siqib chiqarganida, hun xoqoni o'z avlodi bilan Qang' davlatiga ko'chib kelgan.

Qang'lilarda madaniyat va san'at ham yuksak darajada rivoj topgan. Milodiy II–III asrlarga oid xitoy manbalarida qang'lilarning mohir sozanda, maqomchi va bastakor bo'lganliklari, ularning mashhur raqqosalari to'g'risida ma'lumotlar bor.

Qang' davlatining ko'chmanchi aholisi chorvachilik, shaharlar va ularning atrofida yashagan o'troq aholi esa dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ular Buyuk Ipak yo'lidagi xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o'rin tutganlar. Qang' davlati hududida jiddiy migratsion jarayonlar sodir bo'lib turgan. Mil. III asrning 2-yarmida Qang' davlati parchalanib, uning hududida Shosh (Shi), Samarqand (Kan), Maymurg' (Mi), Shahrisabz (Shi), Kattaqo'rg'on (Xe), Usrushona (Sao) kabi kichik davlatlar tashkil toptan.

**4. Kushon podsholigi va uning yurtimiz davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.** *Kushon podsholigi* – o'zbek davlatchiligi tizimidagi qadimgi davlat (milodiy I–III asrlar). Milodiy I asrning 1-yarmi yoxud o'rtalarida yuechjilar tasarrufidagi Kushon mulking yuksalishi natijasida vujudga kelgan. Massagetlar (Xitoy yilnomalarida – yuechji) mil. avv. 140-yil Sirdaryo ortidan Baqtriyaga kelib, saklarni yenggan va Yunon-Baqtriya podsholigi o'rnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib (Kushon, Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi) yashagan. Bulardan Kushon (Xitoy yilnomalarida Guyshuan) qabilasi jabg'usi Kadjiz (Kadjiz I–15–45/51) mil. I asrda qolgan 4 qabilani bo'ysundirib, o'zini hukmdor deb e'lon qilgan.



Qang' davlati tangalari. Kumush.  
Milodning boshlari

«Kushon» atamasi yo sulola yoki qabilaga tegishli bo'lib, u ilk bor mil. avv. I asr oxiri – mil. I asr boshida hukmronlik qilgan podshoh «Geray» – Sanab zarb qildirgan tangalarda qo'llangan. Mil. avv. I asrda Kosonsoy-Kushonlar saltanatining poytaxti bo'lgan. Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shimoliy Baqtriya (Tojikiston hamda O'zbekistonning janubi, Turkmanistonning janubiy sharqidagi yerlar) kirgan. Dastlab jabg'u, keyinchalik podsho unvoni bilan davlatni idora qilgan Kadjiz I Kushon davlatiga asos solgan bo'lib, uning davrida kushonlar hozirgi Afg'oniston





**Podsho Kadfiz II**  
milodiy I sar



**Podsho Kanishka I**  
(78–123)

bilan Pokistonning ko'pchilik qismini bosib olgan.

Kujula Kadfizning o'g'li Vima Kadfiz (30-yil podsholik qilgan), xususan, Kanishka I (23-yil podsho bo'lgan) va uning o'g'li Vasishka (4-yil podsholik davrini surgan) davrida Kushonlar davlati har tomonlama kuchayib dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Buni milodning

III asriga oid budda matnidagi «dunyo uch qismga (Xitoy, Rim va Kushon) bo'lingan» degan jumlar ham isbotlaydi. Kushon davlati O'rta Osiyoning kattagina hududlari, Shimoliy Hindiston, Qashg'ar, Afg'oniston va Sharqiy Turkiston yerlarini o'z tarkibiga qamrab olgan edi. Kanishka podsholigi davrida mamlakatning iqtisodiy-siyosiy va harbiy qudrati har tomonlama rivoj topdi. Mamlakatda oltin, kumush va mis tangalar zarb qilindi. Bu davrda ayniqsa Termiz, Samarqand, Naqshab, Buxoro, Choch, Dalvarzin, Peshovor va boshqa shaharlar rivojlandi. Xitoy, Rim va boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalari kengaydi. Bu borada «Ipak yo'li»ning o'rni va ahamiyati oshdi. Xitoy savdo-sotiqda o'zining xom ipak va ipak matolari, oltin va terilari bilan mashhur bo'lsa, O'rta Osiyolik savdogarlar noyob va nafis shishalari, qimmatbaho toshlari, zeb-ziynat buyumlari bilan dong taratgan edilar.

Kushon saltanatida siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo'lida bo'lgan davlat bo'lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo'lish bilan birga bosh kohin ham edi. Davlat satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ularning satraplari ayrim erkinliklarga ega edi. Kushon podsholigi quldorlik davlati bo'lsa-da, unda qishloq jamoasi muhim o'rin tutgan. Kushon podsholari mamlakatda keng ko'lamda dinlararo murosasozlik siyosatini yurgizgan: aholi, asosan, buddizmning mahayana mazhabiga e'tiqod qilgan, shuningdek, mamlakatda zardushtiylik, otashparastlik, hinduizm kabi ko'plab boshqa dinlar ham bo'lgan. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo keng taraqqiy etgan. Pul tizimida ko'proq oltin va mis tangalar qo'llanilgan. Dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik rivojlangan, qishloq xo'jaligi ekinlarining ko'pchilik turi ekilgan. Kushon davlati Kanishka I (78–123) podsholigi davrida o'z yozuviga ega bo'lgan. 22 harfdan iborat bo'lgan bu yozuv Kushon (Baqtriya) yozuvi deb atalgan. Bu yozuvlar Kushon davlati zarb etgan tangalarda aks etgan.

Kushon saltanatining inqirozi Xuvishka (151–190) podsholigi davri (32-yil hukm surgan)dan boshlandi. Bu jarayonda Sosoniylar davlatining tarix sahnasiga



Kushon podsholari tangalari

chiquvi asosiy omil bo'ldi. Xususan, sosoniy hukmdorlardan Shopur I ning (milodiy 242–243-yillardagi yurishlari) va Shopur II ning (309–379) kushonlarga bergan zarbalari hal qiluvchi o'rin tutdi. Milodiy III asrning 1-yarmi yoki o'rtalarida Kushon podsholigi barham topgan.

**Kushonlar davri madaniyati.** Kushonlar davlati Rim, Parfiya va Xitoy bilan har jihatdan bellasha olgan Qadimgi Sharqdagi eng qudratli saltanatlardan biri bo'lib, ikki asr mobaynida osiyoliklarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazgan. Bir saltanat tarkibida bir necha mamlakatlar, xalq va elatlarning birlashuvi turli madaniyatlarni o'zaro yaqinlashtirdi, davr madaniyatlari

#### O'rta Osiyo Kushon saltanati davrida (milodiy I–III asrning birinchi yarmi)



(mahalliy Qad. Baqtriya, yunon, sak va hind madaniyatlari)ni mujassamlashtirdi. Ammo, Kushonlar davlati madaniyati tarixining ayrim jihatlari hanuzgacha noaniq bo'lib, tarixchi, sharqshunos va arxeolog olimlar ularga oydinlik kiritish uchun izchil va chuqur ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Chunonchi, bu borada 1913 va 1960-yillarda London, 1968-yil Dushanbe, 1970-yil Kobulda xalqaro simpoziumlar o'tkazildi, UNESCO qoshidagi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o'rganish komissiyasi esa kushonlar tarixi va madaniyatini o'rganishni o'z oldiga asosiy vazifalardan biri qilib qo'ydi. Arxeologlar Kushon madaniyatiga oid Bagram, Balx, Began, Surxko'tal (Afg'oniston), Kosambi (Hindiston), Sirsukx, Taksila (Pokiston), Ayritom, Bozorqal'a, Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Voe, Termiz, Xayrobodtepa, Xolchayon (O'zbekiston), Kayqubodshoh, Ko'hnaqal'a, Shaxrinav, Munchoqtepa (Tojikiston)da qazish ishlari olib bordi.

Arxeologik topilma va ko'hna yozma manbalar asosida kushonlar madaniyatiga doir quyidagi muhim ilmiy ma'lumotlar aniqlandi: burjli mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan shahar qurilishi taraqqiy etgan, bir necha o'nlab shunday shaharlar, ko'plab yirik sug'orish inshootlari qurilgan. Shaharlar ichida arklar mavjud bo'lib, ularning atrofini turli binolar majmuasi qurshab turgan.

Kushonlar davlatining shimoli g'arbiy hududlaridagi binolar qurilishida ko'proq xom g'isht va paxsadan, janubi sharqida esa toshdan foydalanilgan. Bino va xonalar haykaltaroshlik, tasviriy san'at asarlari bilan bezatilgan. Haykal va rasmlarda, asosan, podsholar, podsho xonadoni a'zolari, boy-zodagonlar, sozanda va masxarabozlar tasvirlangan (masalan, Xolchayonda). Budda diniga mansub inshootlarda esa Budda va uning safdoshlari, izdoshlari, kohinlar va xizmatkorlar ifodalangan (mas, Termiz yaqinidagi Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepada). Haykallar, asosan, ohaktosh, loy va ganchdan tayyorlangan, ular orasida sirtiga tilla suvi yuritilganlari ham bor. Devoriy suratlarda esa diniy va bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Kulolchilik taraqqiy etgan, topilgan sopol idishlar xilma-xilligi va o'zining nozik, jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Amaliy san'at keng rivojlangan, uning eng yaxshi namunalari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmoqda. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to'qish taraqqiy etgan.

Kushonlar davri san'at yodgorliklari dastlab, Xindistonni shimoliy g'arbidan «Kandaxor haykalchilik maktabi» deb nomlangan yodgorliklar topildi. Yana Xadda va Shotorana (Afg'oniston), Butkara (Pokiston)dan yuzlab Kushonlar davriga oid haykalchalar topilgan.



Kanishka I davrida Kushon-Baqtriya tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Aholi, asosan, buddizm dinining mahayana mazhabiga e'tiqod qilgan, ko'plab budda ibodatxonalari qurilgan, shu bilan birga, otashparastlik, hinduizm ham keng tarqalgan. Kanishka buddizm tarixida birinchi bo'lib vaqt-vaqti bilan diniy yig'in chaqirib turishni joriy etgan. Dastlabki yig'inda buddizmning mazkur yangi mazhabi – mahayana rasmiylashtirilgan. Bu esa buddizmning Osiyo mamlakatlarida keng tarqalishiga, uning jahon dinlaridan biriga aylanishiga sabab bo'lgan. Topilgan tangalarning orqa tomonida turli ma'budlar - Mixra-Mitra (Quyosh ma'budi), Otash (olov ma'budi) va boshqalar tasvirlanganligi buni isbotlaydi.

Saltanatda savdoning rivojlanishi yozuvning keng ko'lamda tarqalishiga imkon yaratgan. Oromiy yozuvi asosida sug'd va xorazmiy yozuvlari vujudga kelib, taraqqiy etdi. Hind alifbosiga asoslangan kharoshthi yozuvi namunasi ilk bor Termizdan, teri va taxtaga bitilgan xorazmiy yozuvi namunasi esa Tuproqqal'adan topildi. Kushonlar davlati yerlaridan o'tgan Buyuk Ipak yo'li tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Kushon podsholari zarb qilgan oltin, kumush va mis tangalar Efiopiya, Skandinaviya, Italiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda topildi. Bu esa Kushonlar davlati chet mamlakatlar bilan keng miqyosda savdo va madaniy aloqalar olib borganligidan dalolat beradi. Sharqdan olib kelingan ipakka G'arb bozorlaridagi mollar almashtirilgan. Umuman savdoda ko'p tovarlar qatori dorivorlar, Rim tilla tanga va taqinchoqlari, fil suyaklari va undan tayyorlangan turli buyumlar hamda «tirik tovar» – sozanda, raqqosa va hunarmand qullar ham bo'lgan. Kanishka adabiyot va san'at homiysi bo'lib, Kashmir viloyatida Kanishkapur shahriga asos soldi.

## 5-MAVZU: Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi, rivojlanishi, tarmoqlari va ahamiyati

### Reja:

1. Qadimgi savdo – tranzit yo'llari va Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi.
2. Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari.
3. Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati.

*Tayanch so'z va iboralar:* Bronza davri savdo va tranzit yo'llari, «Lojuvard yo'li», «Shoh yo'li», Chjan Syan va Buyuk Ipak yo'li, savdo va madaniy aloqalar, «Buyuk Ipak yo'li – muloqot yo'li» xalqaro dasturi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Савдо уйидан Ипак йўлини тиклаш сари. Асарлар, 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 366–368.
2. «Буюк ипак йўли ва Фаргона водийси» мавзуидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: 2004.
3. Мустакиллик: Изохли илмий-оммабоп луғат. – Т.: Шарқ, 2006. – Б. 55–57.
4. Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. – Т.: 1999.
5. Усмонов Қ., Содиков М., Н. Обломуродов. Ўзбекистон тарихи. I қисм. Ўқув қўлланма. – Т.: 2002. – Б.76–83.
6. Формирование и развитие трасс Великого Шелкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье. // Тезисы докладов. – Самарканд: 1990.
7. Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.23.
8. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 110–116.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2001. – Б. 319–321.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2005. – Б. 107–108.
11. Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S. O'zbekiston tarixi. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – B.71–76.
12. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdulayev. – Т.: Sharq, 2010. – B. 88–94.
13. [http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi\\_uzk.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi_uzk.pdf)

**1. Qadimgi savdo-tranzit yo'llari va Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi.** Qadimgi xalqlarning taraqqiyotida savdo va tranzit yo'llarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Mil. avv. III ming yillikka kelib, O'rta Osiyoning ko'pgina hududlari qadimgi aholi tomonidan o'zlashtirib bo'lingan edi. Cho'l va dasht hududlardagi ko'chmanchi chorvador aholi vohalardagi o'troq aholi bilan o'zaro aloqalarni bronza



davriga kelib yanada rivojlantiradilar. Tarixiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, Buyuk Ipak yo'li tashkil topmasdan ancha ilgariyoq Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo hududlarida o'zaro almashinuv yo'llari mavjud edi.

Qadimdan shakllanib kelgan bu yo'llar Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo munosabatlarini ta'minlagan va kelgusida bunyod etilajak Buyuk yo'lining shakllanishida muhim bo'lgan edi. Savdo aloqalari hosil bo'lishiga Markaziy Osiyo tog'larida yarim qimmatbaho toshlar – Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko'p jihatdan xizmat qilgan. Bronza davridagi (mil. avv.

III–II ming yilliklar) ana shunday yo'llardan biri «*Lojuvard (Lazurit) yo'li*» deb atalib, uning bir tarmog'i Badaxshon, Baqtriya va Marg'iyona hududlarini Xorazm, Sug'd, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Yana bir tarmog'i esa, Baqtriya va Marg'iyonani Mesopotamiya bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshondan qazib olinadigan la'l toshi (lojuvard) Qadimgi Sharq zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan ham topilgan. Badaxshon lojuvardining Hind vodiysi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

«Lazurit yo'li» bilan bir paytda «*Nefrit yo'li*» ham tarkib topgan, bu yo'l Xotan va Yorkent tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog'lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga Sug'diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan. Bu yo'nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo'lga kirib mujassamlashgan.

Qadimgi yo'llardan yana biri, «*Shoh yo'li*» bo'lib, bu yo'l mil. avv. VI asrning so'nggi choragida, Doro I hukmronligi davrida qurilgan tranzit aloqa yo'li edi. Mil. av 1-ming yillik o'rtalarida, Axomaniylar davlati tarkibiga kiritilgan O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari va viloyatlari ham o'sha davrning harbiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta iz qoldirgan xalqaro aloqalar tizimida faol ishtirok eta boshladilar. Axomaniy hukmdorlar va mahalliy hokimlar – satraplar bu aloqalarda katta o'rin tutgan aloqa-savdo yo'llari faoliyatiga alohida e'tibor berishgan. Yunon tarixchisi Gerodot o'zining «Tarix» asarida bu yo'l haqida muhim ma'lumotlar qoldirgan. Unga ko'ra, bu yo'l dastlab axomaniylarning yirik savdo



Lazurit. Tog'li Badaxshon  
(Tojikiston)

va ma'muriy markazlaridan bo'lgan Suza shahrini Kichik Osiyo va O'rta dengiz bo'yidagi shaharlar bilan bog'lagan. 2400 km ga cho'zilgan bu yo'lning har 24–25 km masofasida, ya'ni bir kunlik yo'lda maxsus bekatlar qurilgan. Bu bekatlarda elchilik missiyasi a'zolari, choparlar, savdo karvonlari dam olishi uchun sharoitlar yaratilgan bo'lib, maxsus xizmatdagi kishilar uchun doimo chopqir otlar yetarli miqdorda mavjud bo'lgan. Shoshilinch xabar olib ketayotgan chopar bu bekatlarda otni almashtirishi yoki xabar va xatni bu bekatlardagi boshqa maxsus choparlarga berishi mumkin bo'lgan. Shu tariqa shoshilinch xabar va ma'lumotlar ulkan imperiyaning turli burchaklaridan poytaxt shaharga juda qisqa muddatda yetkazib berilgan. So'nggi arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, «Shoh yo'li»ning bir tarmog'i shimoliy sharqqa yo'naltirilgan bo'lib, Marg'iyona va Baqtriya hududlari orqali Hindistongacha yetib borgan. Bu davrda O'rta Osiyoning janubiy hududlarida ham bir kunlik yo'l masofasida, ya'ni har 24–25 km da maxsus bekatlar barpo etila boshlaganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Bu bekatlar, odatda, mustahkamlangan istehkom shaklidagi rabotlar ko'rinishida bo'lib, karvon yo'llarini qo'riqlash vazifasini bajaruvchi kichik harbiy qismlar ham shu yerda joylashtirilgan edi. Bu rabotlar, o'z navbatida, O'rta Osiyodagi qadimgi karvonsaroylar vazifasini ham bajaradi. Ularda davlat xizmatchilari, choparlar, savdo karvonlari, harbiy qismlar, sayyohlar va boshqalarga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan edi.

Shu tariqa mil. avv. V–IV asrlarda O'rta Osiyoning janubiy hududlarida ham Axomaniylar saltanatining markaziy viloyatlarida faoliyat ko'rsatuvchi yo'llarga monand aloqa yo'llari tizimi, pochta-alloqa xizmati barpo etila boshlangan. Doro I tomonidan barpo etilgan «Shoh yo'li» faoliyati IV asrning so'nggi choragida Aleksandrning harbiy istilolari natijasida tugatilgan, lekin O'rta Osiyodagi aloqa yo'llari tizimi va aloqa-pochta xizmati o'z ahamiyatini saqlab qolgan va rivojlangan.



**Ferdinand Paul Vilgelm**  
(fon Rixtgofen)  
(1833–1905)

Mil. avv. II asr xalqaro ahamiyatga va aniq yo'nalishga ega bo'lgan savdo-tranzit yo'li, ya'ni qit'alararo karvon yo'li «Buyuk Ipak yo'li» vujudga keldi. Buyuk Ipak yo'li atamasi qadimda ishlatilmagan. Buyuk Ipak yo'lini tarixiy, geografik va madaniy jihatlarini ilmiy o'rganish amalda ko'plab mamlakat olimlari tomonidan XIX asrning 2-yarmidan boshlangan. Uni tadqiq yetishga G'arbiy Yevropa, Rossiya va Yaponiya olimlari salmoqli hissa qo'shdilar. Xususan, Yaponiyada «Buyuk Ipak



yo'li ensiklopediyasi» nashr qilindi. 1877-yilda mashhur nemis olimi *Ferdinand Paul Vilgelm Rixtgofen* o'zining «Xitoy» nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevrosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini «Ipak yo'li» deb atagan, keyinchalik «Buyuk Ipak yo'li» atamasi qabul qilingan. «Buyuk» so'zi yo'lning juda ham uzun bo'lganligini hamda juda ko'p xalqlar taqdiriga aloqadorligini anglatadi. «Ipak» so'zi esa yo'lning asosan qimmatbaho mahsulot – Xitoy ipagi savdosiga xizmat qilganligini bildiradi. XIX asrning 2-yarmiga qadar bu yo'l «*G'arbiy meridional yo'l*» deb atalar edi.

Buyuk Ipak yo'li haqidagi ilk yozma ma'lumotlar miloddan avvalgi 138-yilga to'g'ri keladi. Bunda xitoylik diplomat va sayyoh Chjan Syan (? – mil. avv. taxm. 103)ning xizmatlari muhim rol o'ynaydi. Xitoy imperatori U-Di (asl ismi Lyu Che) (mil. avv. 156–87) tomonidan mil. avv. 138-yilda Chjan Syan g'arbga, yuechjilar bilan xunnularga qarshi ittifoq tuzish maqsadida yuborilgan. Ammo yo'lda elchi Chjan Syan xunnular qo'liga asir tushadi va 10-yil hibsda bo'lgan. U asirlikdan qochib, Markaziy Tyanshan dovonlari orqali Issiqko'lga chiqadi. Norin daryosi bo'ylab Farg'ona vodiysiga keladi. Bu yerda o'zi uchun vodiydagi shaharlarni kashf qiladi. Bu shaharlar Farg'ona davlatiga qarashli ekanligini bilib oladi. Tabiiyki, elchi Xitoyning xunnularga qarshi kurashida Farg'ona hukmdorining yordamini olmoqchi bo'ladi. Lekin Farg'ona hukmdori faqat savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildiradi. Chjan Syan janub sari sayohatini davom ettiradi. Oloy vodiysidan o'tib, yana xunnular qo'liga tushib qoladi. Bir yildan keyin vataniga qaytadi. Elchi Xitoy imperatoriga ko'rgan-bilganlarini so'zlab beradi. U Xitoyga Farg'ona otlaridan birini va beda urug'idan olib kelgan edi. Bu otni xitoyliklar «samoviy» deb ataganlar. Imperator U-Di o'z saroyi yaqinida beda ektiradi. Keyinchalik u Xitoyning butun shimoli bo'ylab ekiladigan bo'ladi. Xitoyliklar anor, uzum, bodring va yong'oq ekishni ham yo'lga qo'yadilar.

Chjan Syan missiyasi Xitoy uchun G'arbiy o'lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik Xitoy imperatori bilan Dovon hukmdorlari o'rtasida qonli urushlar bo'lib o'tdi. Bu urushlarga asosiy sabab xitoyliklarni hayratga solgan Dovon «samoviy otlari» edi.

Mil. avv. 111–105-yillarda imperator U-Di Parfiya (Xitoy manbalarida Ansi deb eslatiladi) podsholariga, Qang' hukmdorlariga, keyinroq esa Baqtriya yerlariga (Kushonlar) o'z elchilarini jo'natib ular bilan diplomatik-savdo aloqalarini o'rnatadi. Shu tariqa, Chjan Syan yurgan yo'l bo'ylab miloddan avvalgi II–I asrlarda Xitoy mamlakatini Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi jahon ahamiyatiga ega «Buyuk Ipak yo'li» deb ataluvchi karvon yo'liga asos solinadi.

Ipakning qachon va qayerda paydo bo'lganligi masalasida fanda har xil qarashlar bor. Fanda ipakning vatani Xitoy deb tan olingani sir emas. Ammo hind olimi Mukerji Hindistonda ipakning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq va ishonarli ma'lumot bera olmasa-da, u ipakning Xitoyda paydo bo'lib u yerdan boshqa yerlarga tarqalganligi haqidagi fikrga qo'shilmaydi. U Hindistonda ham tog'li tumanlarda yovvoyi ipak qurti tut daraxtlari ustida pilla o'rashlarini ta'kidlaydi.



Xitoyda ipakning paydo bo'lishi haqida juda ko'p rivoyatlar bor. Xitoy hukmdori Chin Chong ipak va ipak qurti, tut daraxti maydonlarining kengaytirish haqida katta g'amxo'rlik qilgan. Rivoyatlarning birida miloddan avvalgi 2698-yilda (yana bir rivoyatda esa miloddan avvalgi 2600-yilda) Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da,

tut daraxtlari soyasida choy ichib o'tirgan paytida, uning piyolasiga yuqoridan pilla tushib, issiq choyda yumshab, uning tolalari yoyilib ketadi. Malika Si pilla iplarini piyoladan olib tashlashga qancha urinmasin, uning uzundan uzun tolalari chuvalib bo'lmaguncha choyni ipak ipdan tozalay olmaydi. Rivoyatda aytilishicha, pilla tolasini olish usuli ana shu voqeadan so'ng ma'lum bo'lgan. Xitoy xalqi pilla kalavasini topib olishni Osmon xudosi – Si Ling Chiga bog'laydi. Si – bu Osmon xudosisining nazari tushgan malika, deb u ilohiylashtirilgan va unga atab ibodatxonalar qurilgan. Hozirgacha Xitoyda malika Siga atab har yili ipak bayrami o'tkazilar ekan. Xitoy yilnomalari Fu Gi ismli hunarmandning miloddan avvalgi 3400-yilda musiqa asbobi yasab, uning torlarini ipakdan qilganligini xabar beradi. Xullas, ipakning vatani Xitoy bo'lganligiga shubha yo'q. «Ypak yo'li» Xitoydagi ana shu ipak savdosi bilan bog'langan yo'ldir. Xitoyda ipakchilikning dastlab keng tarqalgan joyi Xuanxe daryosining quyi havzasida joylashgan Shandun viloyatidir.

Ipak mahsulotlari Yevropa xalqlarini juda maftun etgan. U zamonlarda Yevropa ipak nimaligini bilmagan. Chunki ipak qurti, uni boqish, undan pilla olish, pilladan esa ipak olish degan narsalardan mutlaqo bexabar bo'lgan. Xitoyliklar va keyinchalik bizning bobolarimiz ipakdan ajoyib matolar to'qiganlar. Bu matolar yevropaliklarni lol qoldirgan. Ba'zi yozma manbalarda ko'rsatilishicha, hatto bir vaqtlar ipak mato o'rami pul o'rnida ham ishlatilgan ekan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ipak qurti boqish IV asrda Xitoydan Buyuk Ipak yo'li orqali hozirgi O'zbekiston hududiga tarqalgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu «ipak yo'li» aftidan uzoq vaqt mavjud bo'lmagan, chunki VI asrning 2-yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo'yicha monopol huquqdan mahrum bo'lgan, asr oxirida esa Vizantiya shu qadar ko'p miqdorda ipak yetishtirar ediki, uni Xitoydan keltirishga hech qanday ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoatini barpo etilishi va uni asta-sekin Kavkaz orti va O'rta Yer dengiz mamlakatlariga tarqalishi bilan Buyuk Ipak yo'lining tarixi tugaydi. Keyingi asrlarda, ayniqsa mo'g'ullar saltanati davrida garchand Sharq bilan G'arbni bog'lovchi karvon yo'li mavjud bo'lgani haqida ko'plab dalillarni keltirish mumkin bo'lsa-da, lekin «ipak yo'li» nomini unga shartli ravishda qo'llash mumkin, chunki bu yo'lining ahamiyatini endilikda ipak emas, boshqa tovar va maqsadlar belgilar edi.

Buyuk Ipak yo'li XVI asrdan e'tiboran o'z ahamiyati va rolini yo'qotib bordi. Bunga quyidagi sabablarni aytish mumkin:

Birinchidan, Amir Temur va temuriylar sulolasining pirovard oqibatda chuqur inqirozga yo'liqishi va tarix sahnasiga boshqa hukmron sulolalarning, chunonchi, Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar sulolasining chiqishi hamda ularning boshqaruv usulining g'oyatda murakkab kechganligi, markaziy hokimiyatning kuchsizlanib, mamlakat hududlarining tarqoq holatda o'z qobig'iga o'ralishi va hokazo hollar bu hududning tashqi dunyodan tobora ajralishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchidan, Movarounnahrda kelib o'rnashgan o'zbek urug'lari, ularning amir-beklari, sultonlari o'rtasida hokimiyat talashib olib borilgan o'zaro jang-u jadallar, doimiy qon to'kishlar natijasida o'lka tez-tez iqtisodiy buhronlarga duch keldi, siyosiy beqarorlik avj oldi. Mamlakat tashqi davlatlar bilan aloqalar bog'lash, iqtisodiy, savdo-sotiq bobida hamkorlik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi.

Uchinchidan, ilg'or Yevropa olimlari, sayyohlari tomonidan XV–XVII asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar davri boshlangandan so'ng bu yo'l o'z-o'zidan so'na boshladi, chunki tuya va otga suyangan karvon G'arbiy Yevropaning yelkanli kema va karavellalari bilan tenglasha olmas edi. Ammo uning insoniyat taraqqiyotidagi ijobiy roli shubhasizdir.

**2. Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari.** Umumiy uzunligi 12 000 km dan iborat Buyuk Ipak yo'li Xitoydagi Xuanxe daryosining o'rta oqimida joylashgan *Sian shahridan* boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Bu yerda yo'l ikkiga ayrilgan:

*Birinchisi – Shimoli g'arbiy Buyuk Ipak yo'li* – Turfon, Torim vohasi, Qashqar, Farg'ona orqali o'tib, Samarqandgacha kelgan. Bu yerda Buyuk Ipak yo'li yana ikkiga bo'linib, biri Marv, Nisa (Turkmanistonning janubida joylashgan

shahar, hozir faqat xarobalari o'rganilmoqda), Hamadon, Bag'dod va Misr orqali O'rtayer dengizigacha yetib borgan. Ikkinchisi Buxoro va Xorazmga yo'nalgan va Xorazmda ikkiga bo'lingan: biri Orolning sharqidan Janubiy O'rol orqali Saklab yurtiga (Rossiyaga) va Sabar (Sibir) turklari yurtiga borgan. Xorazmda davom etgan ikkinchi yo'l Mang'ishloq, Hazar (Kaspiy) dengizi sharqi shimoli orqali Kavkaz, Itil (ruschasiga Volga), Bulg'oriya (Tataristonning eski nomi), Qrim, Qora dengiz yo'li bilan Yevropaga borgan.

Farg'ona vodiysida Ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan. Birinchisi O'zgandan Axi, Qamchiq dovoni orqali (yozda) Iloq vohasi va Toshkentga kelgan. Ikkinchisi janubiy tarmoq bo'lib, O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan.

**Ikkinchisi – Janubi g'arbiy Buyuk Ipak yo'li** – Xo'tan, Yorkent, Pomir-Tyanshan tizmalari orqali o'tib, Baqtriyaning poytaxti Zariaspa (Balx)ga borgan. Balxda janubiy yo'l ikkiga ajralib, biri Hindistonga, ikkinchisi g'arbiga yo'nalgan va Marvda shimoliy yo'l bilan tutashgan. Marvdan Buyuk Ipak yo'li Parfiyaning poytaxti Nisa, Eronning Gekatompil, Apaliya va Ekbatana (Hamadon) shaharlari orqali Mesopotamiyaga chiqib, u yerdan Damashqqacha borgan, Quddus va Misrga yo'nalgan.



Asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham bo'lgan. Biri Axsidan Koson orqali Chust vohasiga o'tgan. Yana biri Pop, Zarkent orqali konchilar qarorgohlariga va yaylovlarga borgan. Qurama va Oloy tog'lari qazilma boyliklari va Zarafshon daryosi boyliklari tufayli bu yo'l tarmog'ini «*Oltin yo'l*» deb atashgan.

O'rta Osiyo kumushiga ehtiyoj sezgan mamlakatlarga boradigan «*Kumush yo'l*» ham bo'lgan. Bu yo'l Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borgan. U Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i hisoblanib, VI asrdan boshlab ishga tushgan.

**3. Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati.** Buyuk Ipak yo'li – Xitoy, O'rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari, keng ma'noda esa Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, tijorat, diplomatik va madaniy-ilmiy aloqalar yo'li. Buyuk Ipak yo'li Sharq-u G'arbn bog'lovchi, turli mamlakatlarning savdo-sotiq, tijorat aloqalarining eng asosiy vositasi bo'lganidan, bu yo'nalishda joylashgan davlatlar undan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga yoxud bu borada o'z mavqeyini mustahkamlashga intilganlar.

Shu bois turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlar bunga intilib, Buyuk Ipak yo'li ustidan o'z nazoratlarini o'rnatganlar. Masalan, mil. avv. VI–IV asrlarda Eron ahmoniylar, mil. avv. IV asrda esa makedoniyalik Iskandar, mil. avv. II–I asrlarda Rim-Parfiya davlatlari o'rtasida bu borada katta raqobat ketgan. Yoxud Arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo'lining Eron va Sug'diyona hududlaridan o'tgan qismida Eron va Sug'd savdogarlari yetakchilik rolini o'ynaganlar. Arab xalifaligi kuchayib, ko'plab hududlarni qo'lga kiritgach, bu yo'l arab savdogarlari tasarrufiga o'tadi. Chingziylar davrda Buyuk Ipak yo'lining tasarrufi butunlay ularning qo'l ostida bo'ladi. Buyuk sohibqiron Amir Temur davriga kelib uning qudratli saltanati vujudga kelgach, Buyuk Ipak yo'li sarhadlari yangidan kengayib, katta miqyoslar kasb etib, yanada rivoj topadi.

Sohibqiron Amir Temur Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishida katta rol o'ynagan davlat arbobidir. U savdo yo'llari orqali xalqaro hamkorlik va integratsion jarayonlarni tezlashtirish, el va davlat farovonligini ta'minlashni yaxshi anglab yetgan. Shuning uchun ham Amir Temurning geosiyosat yo'nalishida Buyuk Ipak yo'li masalasi alohida ahamiyat kasb etgan. Amir Temur asrlar davomida Movarounnahr hududlaridan o'tgan, ammo mo'g'ullar davrida yo'nalishlari birmuncha buzilgan Buyuk Ipak yo'lining an'ana va yo'nalishlarini qaytadan tikladi va rivojlantirdi. Buyuk Ipak yo'lining eng so'nggi rivojlanish davri ham Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi.



Amir Temur Oltin O'rda bilan ham, avvalo, Buyuk Ipak yo'li masalasida kurashdi. Sohibqiron Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy va siyosiy asoslarini teran tushunib, uning huquqiy himoyasini ta'minladi va shu orqali har tomonlama mustahkam xalqaro uzviy aloqalarni o'rnatdi. Sohibqiron Amir Temur davrida xalqaro savdo-sotiq aloqalari rivojlantirilib, tadbirkorlikka katta imkoniyatlar yaratildi. Amir Temur ko'pgina Sharq va G'arb davlatlari rahbarlariga bitgan maktublarida ham, avvalo, xalqaro savdo-sotiq va tadbirkorlarga katta imtiyozlar berish lozimligi davlat taraqqiyotiga, aynan, xususiy tadbirkorlar katta ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida alohida takidlab o'tgan. U tadbirkorlikka imtiyozlar yaratish va uni kafolatlash maqsadida Buyuk Ipak yo'lining ish faoliyatini bir maromga solib, har bir bekatga alohida nigohbonlar tayinlanadiki, natijada karvonlarning bir manzildan ikkinchi joyga bexatar yetib borishi ta'minlandi. Sohibqiron karvon yo'llarida kimda-kim zarar ko'rsa, bunday huquqbuzarliklarga javobgarlikni shu hududlarning hokim va boshqa ma'murlariga yukladi. Zararni amaldorlar hissasidan undirish qoidasining joriy etilishi xalqaro savdo yo'lidagi huquqiy kafolatlardan biri bo'lib qoldi.

Amir Temur va temuriylar davrida karvon yo'llarini ta'mirlashga alohida e'tibor berildi va shu sohaga taalluqli huquqni muhofaza etuvchi bo'linmalar tuzildi. Sohibqiron Buyuk Ipak yo'lining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali o'z davlati va qo'shni davlatlarning mudofaa va xavfsizligini taminlash maqsadlarini amalga oshirishga ham harakat qilgan. Amir Temur va temuriylar davrida mukammal bojxonalar tizimi yaratilgan. Bu davrda davlatlarning tutash mintaqalarida yirik bojxonalar barpo qilingan. Bulardan biri Kavkaz tog' tizmalarining Kaspiy dengiziga tutashgan yerida joylashgan. Darband bojxonasi, ikkinchisi ham shu nom bilan atalib, Samarqand bilan Balx o'rtasida joylashgan Shahrisabzdan 2 kunlik masofada barpo etilgan. Bu bojxonalar Markaziy xazinaga katta mablag' o'tkazgan.

Demak Ipak yo'li orqali Amir Temur nafaqat mudofaa, tinchlik, barqarorlik, yaxshi qo'shnichilik va savdo-iqtisod aloqalarini rivojlantirish, balki geosiyosiy maqsadlarini ham amalga oshirgan. Hali dengiz yo'llari ochilmagan davrda yagona aloqa vositasi bo'lmish Buyuk Ipak yo'li xalqaro maydonda katta strategik kuchga ega bo'lgan va qaysi davlat bu yo'lda sarbonlik qilsa, u katta iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarga ega bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk Ipak yo'lining ish faoliyatini takomillashtirish orqali Amir Temur ilk bora tizimli pochta aloqalarining o'rnatilishiga asos solgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur saltanatining u chetidan bu chetigacha bir bolakay boshida bir lagan tilla qo'yib yurgan taqdirda ham hech kim



unga ko'z olaytira olmagan. Demak, Buyuk Ipak yo'li masalasi Amir Temur davlatchilik tizimidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan. Ipak yo'lida ham huquqiy asos yaratilgan. Bu esa bizga «Amir Temur va temuriylar davlatining Uyg'onish pallasiga o'tishda huquqiy asoslar muhim omil bo'lgan» degan xulosaga kelishimizga turtki beradi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Shuningdek, UNESCO rahbariyati bilan hamkorlikda «*Ipak yo'li – muloqot yo'li*» mavzusida o'tkazilayotgan amaliy tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, 1987-yili UNESCO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMTning umumjahon dekadasi doirasida «Ipak yo'li – muloqot yo'li» xalqaro dasturini qabul qilingan edi. Dasturning ishlab chiqilishi Yevrosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarning 2000-yilga qadar ilmiy-madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'ldi. Bu dastur O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixlarini keng qamrovda tadqiq etishni nazarda tutadi. Biroq uning asosiy maqsadi – Sharq bilan G'arb o'rtasida yanada mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat edi. 2000-yilga qadar mo'ljallangan ushbu dastur asosida Buyuk Ipak yo'li bo'ylab birgalikda ko'pgina xalqaro ekspeditsiyalar («Marko Polo izidan», 1987, Istanbul – Pekin; «Dengiz» ekspeditsiyasi, 23.10.90–23.02.91; Xivada yakunlangan «Markaziy Osiyo respublikalari bo'ylab», 1991; «Ko'chmanchi madaniyatlar yo'nalishi bo'ylab ekspeditsiya», iyun-avgust, 1992; «Yevropa Ipak yo'li», 1995, Istanbul – Leon) uyushtirildi, kinofilmlar yaratildi, kitoblar, broshyuralar va maqolalar chop etildi, ba'zi arxeologik va me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Shuningdek, ko'plab ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlar (Samarqand, 1990; Turkiya, Finlandiya, 1993; Kipr, 1994; Buxoro, 1996; Boku, 1998) ham o'tkazildi. Ba'zi bir Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri-Lanka, Yaponiya) Buyuk Ipak yo'lini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy institutlar barpo etilgan. Masalan, BMT va UNESCO qaroriga ko'ra, Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochilgan. 1997-yil mayda O'rta Osiyoni Eron bilan bog'lagan Saraxs – Mashhad transport yo'lagi uchastkasi qurilishi tugallandi, bu bilan O'rta Osiyo



Ipak yo'li

mamlakatlari Fors qo'ltig'iga, Yevropa mamlakatlari esa O'rta Osiyoga chiqish imkoniga ega bo'ldilar. Ilmiy va madaniy dasturlardan tashqari Buyuk Ipak yo'lini tiklash bo'yicha jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan loyiha amalga oshirilmoqda. Navbatdagi vazifa – O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi transport yo'lagi uchastkasini qurishdir. Mana shu reja amalga oshgudek bo'lsa, Atlantika okeanidan tortib Tinch okeanigacha bo'lgan masofada Buyuk Ipak yo'lining «transport yo'lagi» varianti to'la tiklangan bo'ladi.

O'zbekistonda Buyuk Ipak yo'lini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda. 1995-yil 2-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.



Hozirda «O'zbekiston pochta» OAJ va O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlash-tirish va telekommunikasiya texnologiyalari Davlat qo'mitasi tomonidan «Buyuk Ipak yo'li» turkum pochta markalari muomalaga chiqarilgan. Pochta markalarida XI–XIX asrlarda Buyuk Ipak yo'lidan o'tgan shaharlarning memoriy yodgorliklari tasvirlangan. Pochta blokida Buyuk Ipak yo'li xaritasi tasvirlanib, yuqori qismida o'zbek tilida lotin grafikasida «Buyuk Ipak yo'li» yozuvi joylashgan.

Xullas, Buyuk Ipak yo'li dunyo xalqlariga o'n yetti asr davomida xizmat qilgan. Bu yo'l yurtimiz tarixida ham katta iz qoldirgan.

## 6-MAVZU: Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo xalqlari

### Reja:

1. Yer egaligi munosabatlarining shakllanishi. Eftaliylar davlati.
2. Turk xoqonligi.
3. Arablar istilosi va hukmronligi davrida O'rta Osiyo.

*Tayanch so'z va iboralar:* Dehqon, feodal munosabatlar, feodal yer egaligi, kadi-varlar, kashovarlar, chokar, eftallar, mazdakchilik, turk, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Qur'on, arablar istilosi, Movarounnahr, soliq siyosati, Muqanna, islom dinining yoyilishi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. *Абулғозий.* Шажараи турк. – Т.: Чўлпон, 1992.
4. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 72–90.
5. *Айний Садриддин.* Муқанна исёни. – Т.: Фан, 1994.
6. *Аҳмедов Б.* Тарихдан сабоқлар. – Т.: 1994.
7. *Вамбери Ҳ.* Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: 1990.
8. *Беляев В.А.* Илк ўрта асрларда араблар, ислом, Араб халифалиги. – М.: 1965.
9. *Наршахий.* Бухоро тарихи. – Т.: Камалак, 1991.
10. *Насимхон Раҳмон.* Турк хоқонлиги. – Т.: 1993.
11. *Сағдуллаев А.* ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I қисм. – Т.: Академия, 2000. – Б. 60–65; 72–82.
12. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I қисм. – Т.: 2002.
13. *Усмон Турон.* Туркий халқлар мафкураси: Рисола. – Т.: Чўлпон, 1995.
14. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 156–184.
15. *Шокиров Ю.* Ислом шариати асослари. – Т.: Меҳнат, 1992.
16. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 119–164.
17. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар) / Маъсул муҳаррирлар: Д.А. Алимова, Э.В. Ртвеладзе. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.44–61.
18. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.
19. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdulayev. – T.: Sharq, 2010. – B.107–126.

**1. Yer egaligi munosabatlarning shakllanishi. Eftaliylar davlati.** Milodiy IV–V asrdan O'rta Osiyo hududida yerga egalik munosabatlari, ya'ni feodal ishlab chiqarish munosabatlari qaror topa boshladi. «Feodal» lotincha – «katta yer egasi» ma'nosini anglatadi. Bu davrdan yerga bo'lgan munosabat o'zgarib bordi. Yangi yerlar o'zlashtirildi. Bu yerlarning asosiy qismi ma'lum bir kishilar – zodagonlar qo'lida to'planib bordi. Bu yirik yer egalari ziroatkor dehqonlar ustidan hukmronliklarini o'rnatdilar. Bu mulkdorlar ilk o'rta asrlarda «dehqon», ya'ni «qishloq hokimi» nomi bilan shuhrat topgan. Ularga qaram kishilar «kadivar», ya'ni «qishloq qo'rg'onlarida yashovchilar», deb atalgan. Ilk o'rta asrlarda kadivarlar (asosan, yersiz va yerga muhtoj qishloq mehnatkashlari) O'rta Osiyodagi asosiy ijtimoiy tabaqa hisoblangan.

O'rta Osiyoda dehqon Rusiyadagi singari mulkdor feodal yer egasiga emas, balki yerga bog'lanib qolgan edi. Tekin ishlab berish (barshchina) bu yerda iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmaganligidan sug'oriladigan dehqonchilik hukmron bo'lgan butun O'rta Osiyo hududida renta-soliq turi muhim ahamiyat kasb etgan. Renta solig'ini ma'lum hududdagi jamoaga uyushgan erkin dehqonlar to'laganlar. Bu erkin ziroatkor, ya'ni oddiy mehnatkash aholi – «kashovarlar» deb atalganlar. Kashovarlar jamoa boshlig'i «dehqon»ga soliq to'laganlar. Bu davrda sarkor, chokar, qo'shchi kabi ijtimoiy tabaqa vakillari ham bo'lgan. «Sarkor» – mulkdor va quldor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda urug' va qabila boshliqlari ishboshi sifatida obodonchilik ishlarida faol qatnashgan, «chokar» – dehqon qo'riqchisi, «qo'shchi» – yerni omoch bilan ag'daruvchi kashovar.

O'rta Osiyo hududida yerga egalik munosabatlarining shakllanishi jarayonida milodiy V asr o'rtalariga kelib, bu yerda yangi bir qudratli davlat – Eftaliylar (eftalitlar) davlati vujudga keldi. Uning hududi hozirgi Afg'onistonning katta qismi, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning sharqiy va janubiy-sharqiy viloyatlarini o'z ichiga olgan. Uning asosiy negizini Baqtriya – Toxariston tashkil etgan. Shu yerdan turib eftaliylar qo'shni mamlakatlarga yurishlar qilganlar.

Eftaliylar tarixiga oid ma'lumotlar rimlik tarixchi Ammian Marsellin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Prisk Paniyskiy (V asr), Prokopiylar Kesariyskiy (VI asr), Feofan Vizantiyskiy (VI asr), suriyalik yozuvchi Zenob Glak (VII–VIII asrlar), armanistonlik tarixchilar Lazar Parbskiy (V asr), Favso Buzanda (IV asr), Erishe (V asr) asarlarida mavjud. Birmuncha keyinroq yozilgan Xitoy solnomalari «Vey-shu» (VI asr) va «Man-shu» (IX–X asr)da ham eftaliylar to'g'risida qimmatli manbalar bor.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha «eftaliylar» degan nomning o'zi V asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran paydo bo'lgan. Feofan Vizantiyskiyning ma'lumotlariga qaraganda eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon deb nomlangan. Arman tarixchilaridan biri esa eftaliylar degan nom «xaft» (yetti), ya'ni massagetlarning yettinchi qabilasi nomidan olingan deb hisoblaydi. Milodning VI asrida yashagan Sharqiy Rim tarixchisi Prokopiylar Orol dengizining sharqida yashagan xunlar oq yuzli bo'lganligi uchun ularni «oq xunlar» deb atagan. Eftaliylar – oq xunlarning o'zi dastlab ko'chmanchi bo'lib, keyinchalik shaharlarni bosib olishlari bilan o'troq hayot tarziga o'tganlar. Shu tufayli Vizantiya tarixchilari (Menandr) eftaliylarni shahar qabilasi sifatida ta'riflaydi.

Vaxshunvor Eftalon taxminan 457-yili Chag'oniyon (Surxondaryo viloyatining Termizdan yuqori qismi), Toxariston, Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib O'rta

Osiyoda katta davlatga asos soldi. Bu davrda Eronda vujudga kelgan sosoniylar eftaliylarning kuchayib ketayotganligidan xavfsirab, ularga qarshi urush olib bordi. Garchi ikki tomon o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar V asrning 30-yillaridayoq sodir bo'lgan bo'lsa-da, biroq hal qiluvchi janglar 459-yilda Eron taxtiga chiqqan sosoniylar shohi Peroz davriga (459–484) to'g'ri keladi. Shoh Peroz uch marta eftaliylarga qarshi yurish qilgan. Biroq shoh Peroz eftaliylarga qarshi yurishlari muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. 1-va 2-yurishlarda shoh Peroz asirga tushadi. Dastlab Vizantiyadan yuborilgan pul evaziga katta o'lpon to'lab asirlikdan ozod etiladi. Peroz asirlikdan ozod bo'lib, eftaliylarga ilgari bosib olingan Taliqon shahrini qaytarib berish va Veraxran V tomonidan belgilangan chegaradan nariga o'tmaslik majburiyatini oladi. Taliqon shahrida o'rnatilgan chegara minorasi fillar yordamida ko'chiriladi. Ammo Peroz o'z va'dasini bajarmaydi va eftaliylar ustiga ikkinchi marta qo'shin tortib keladi. Ammo bu yurish yana mag'lubiyat bilan yakunlanib, Suriya manbalarida ta'kidlanishicha, Peroz ikkinchi marta asir tushgan. Sosoniylar shohi eftaliylarga kumush dirhamlar bilan to'ldirilgan qoplar ortilgan 30 ta xachir berish majburiyatini oladi. Lekin u faqat yigirmata xachir va shunga loyiq tangalar topa oladi, xolos. Majburiyatning qolgan qismi evaziga Peroz o'zining gudak o'g'li Kubod (Kavod)ni garovga qoldiradi va ikki yil davomida eftaliylarga katta xiroj to'lab turishga majbur bo'ladi. Bu xirojni Peroz aholiga og'ir jon boshi soliqlarini solish yo'li bilan to'laydi.

Majburiyatdagi qarzni to'lab bo'lgan Peroz o'zini eftaliylarga do'st qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi va o'z singillaridan birini eftaliylar podshosi Vaxshuvorga xotinlikka taklif qiladi. Lekin Peroz singlisini o'rniga boshqa qizni yuborib Vaxshunvorni aldaydi. Vaxshunvor bunga javoban, eftaliylarning iltimosiga ko'ra Erondan kelgan harbiy maslahatchilarni kaltaklattiradi va o'ldiradi.

Shoh Peroz Vizantiya yordami bilan 484-yil Marv yaqinida uchinchi, o'zining so'nggi yurishida harbiy qo'shini bilan ular uchun maxsus tayyorlangan bo'ri o'ralariga tushib halok bo'ladi. Ushbu voqea natijasida Perozning qizi asirga tushib, Vaxshunvorning xotiniga aylanadi. Perozni tor-mor keltirgan eftaliylar Eronga juda katta o'lpon soliqlar soladilar va Marvni egallaydilar. Sug'dni esa ular allaqachon, ya'ni 467–473-yillarda o'zlariga qaratgan edilar. So'ngra eftaliylar Kobul va Panjob vodiysini hamda Sharqiy Turkistondagi Qorashar, Urumchi (490), Qoshg'ar (497–509) va Xo'tanni ham zabt etadilar.

Eftaliylar qo'li ostida tarbiyalangan Perozning o'g'li Kubod davrida Eron eftaliylarga xiroj to'lashda davom etgan. Uning hukmronlik yillaridagi (488–



531) tengsizlik va ekspluatatsiya zulmiga qarshi xalq ommasi o'rtasida norozilik qo'zg'olonlari bo'lgan. Bu davrda barcha yerlar jamoa qo'lidan tortib olinib «dehqon mulki»ga aylantirilgan. Barcha boylik va hokimiyat boylar qo'lida bo'lgan. Ayollar huquqi poymol qilingan. Bu hol Mazdak ibn Hamadon boshchiligida qo'zg'olon kelib chiqishiga sabab bo'lgan. *Mazdakchilar* – «Z» harfi bilan boshlanadigan to'rt narsaning aholi o'rtasida teng bo'lishni talab qilganlar: 1) *Zamin (Yer)*; 2. *Zar (oltin)*; 3, *Zo'rlik (kuch-hokimiyat)*; 4. *Zan (xotin)*. Kubod dastlab bu qo'zg'olonni himoya qildi va qo'llab-quvvatladi. So'ngra u bu qo'zg'olonga qarshi kurashdi va qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirib Mazdakni 529-yilda qatl qildi.

Kubod hukmronligi davrida Eron bilan eftaliylar orasidagi munosabatlar ancha yumshab do'stona tus ola boshladi. Bu hol eftaliylar orasida o'sgan Kubodning eftaliylar bilan shaxsiy do'stona munosabatlarining natijasi bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas. Kubod eftaliylar podshosining qizi, ya'ni o'z jiyaniga uylanadi. Chunki uning opasi asirga tushgach Vaxshunvorning xotini bo'lgan edi. Ikki tomon o'rtasidagi yaqinlik shu darajada kuchaydiki, eftaliylar 502-yilda Eron tomonida turib Vizantiyaga qarshi urushda qatnashganlar. 506-yilda tuzilgan sulh bitimiga ko'ra Vizantiya tillasidan va boshqa ulushlarini olishga muvaffaq bo'lganlar. Eron bilan eftaliylar o'rtasidagi do'stona munosabatlar Kubodning o'g'li Xusrav I Anushirvon davrida ham davom ettirilgan. Chunki, Xusrav I eftaliylarga yil sayin kumush hisobida belgilangan xirojni to'lab turgan. Ammo Xusrav I Turk xoqonlarining eftaliylarga qilgan hujumidan foydalanib, 554-yilda eftaliylardan Toxaristonni tortib oladi. 563–567-yillarda esa Turk xoqoni Istami yabg'u (vizantiyacha – Dizavul yoxud Silzibul) Eron bilan ittifoqda eftaliylarga qaqshatqich zarba beradi va bu podsholikni tobe ahvolga solib qo'yadi. Lekin VI asr oxirlariga kelib Turk xoqonligi roziligi bilan eftaliylar Eronga qarshi urush olib bordi va Toxaristonni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. So'ngra Eronda boshlangan fuqarolar urushidan foydalanib, sosoniylarga qaram bo'lishdan ozod bo'lgan eftaliylar allaqachon g'arbiy turkiy xoqonlik ta'siriga tushib qolganliklaridan o'zlarining avvalgi mustaqilliklarini saqlab qololmadilar.

*Eftaliylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.* Eftaliylar davrida davlatning boshida podsho turgan. Ammo taxt otadan bolaga meros bo'lib qolmay, sulolaning eng loyiq deb topilgan kishisiga berilgan. Eftaliylarda aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, ayrim qismigina ko'chmanchilik asosida yashagan, o'tovlarda istiqomat qilishgan. Jamiyatda «sara kishilar» – zodagonlarning mavqeyi kuchayib borgan va ular ko'proq shaharlarga kelib yashay boshlaganlar. Eftaliylar davrida aholi sonining o'sishi natijasida obikor yerlarga bo'lgan talab



ortib bordi. Natijada V–VI asrlarda hozirgi Toshkent va Janubiy Qozog'iston yerlarini sug'orish uchun Bo'zsuv va Zog'ariq kanallari, Samarqand viloyati yerlarini sug'oruvchi Darg'om kanallari qazildi.

Eftaliylar davlatidagi asosiy shaharlar Sug'diyona shaharlaridan iborat bo'lib, ular orasida Kushoniya (Kattaqo'rg'on yaqinida), Rivdad, Poykend (Poykand), Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha kabi shaharlar eftaliylar hukmronligi yillarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar hisoblangan va iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy etgan. V asrdan boshlab Samarqand ham taraqqiy eta boshladi. Eftaliylar davlatining siyosiy markazi – poytaxti qayerda bo'lganligi to'g'risida qat'iy aniq ma'lumot yo'q. Taxminiy fikrlarga ko'ra bunday markaz **Poykand** yoki **Balx** shahri bo'lgan deyiladi.

Eftaliylar Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan elchilik, savdo-sotiq munosabatlarini olib borishgan. Bu savdo jarayonida sosoniy tangalar bilan bir qatorda mahalliy tangalar ham qo'llanilgan: buxorxudotlar tangasi, sug'diy tangalar, xorazm tangalari va hokazo.

Tarixiy yozma manbalarda eftaliylarning kundalik turmush va madaniyati haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar saqlanmagan. Askarlari qo'lida harbiy qurol-yarog'lardan gurzi, o'q-yoy va asosiysi qilich muhim o'rin tutgan. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, eftaliylar cho'qmorlar bilan jang qilganlar (forslar kamonlar, arablar nayzalar bilan), ular nihoyatda bahodir, jangovar va mard xalq bo'lishgan. Eftaliylarning tili haqida aniq bir xulosaga ega emasmiz. Eftaliy podsholigida sug'd tilining keng qo'llanilganligi to'g'risida manbalar yetarli darajada



Eftaliy podsholari To'ramon va Mixirakula oltin tangalari. VI sar

ma'lumot beradi. Sug'd yozuvidan tashqari, undan biroz farq qiluvchi buxorocha yozuv, xorazmiy va eftallar yozuvi keng tarqalgan. Eftallar yozuvi o'zining shakli bilan qisman boshqalardan farq qilgan va so'zlar chapdan o'ngga qarab o'qilgan. Alifbosida 25 ta harf bo'lgan. Bu davr xalq qo'shiqlari va eposlari Firdavsiy «Shohnoma»sida tasvirlangan.

Ushbu davlatda har xil diniy g'oyalarga e'tiqod qilish davom etgan. Aholi zar-dushtiylik, qadimiy e'tiqodlardan Siyovush, Anahita, Mitra, Buddaparastlik (asosan Shimoliy Hindistonda) kabi dinlarga sig'ingan. Shuningdek, moniylik va mazdakiylik ta'limotlari ham mavjud bo'lgan.

Eftaliylarda moddiy madaniyat taraqqiy etgan. Binokorlik, naqqoshlik, tasvi-riy san'at rivojlangan. Eftaliylar davri tarixiga oid ba'zi bir moddiy madaniyat yodgorliklari saqlanib qolgan. Bular eftaliy shohlari yozgi qarorgohi – Varaxsha yodgorligi (V asr), Xorazm viloyati hududidagi Firqal'a (Qiyot – Beruniy yaqinida), Buxoro viloyatida Poykend, Termiz yaqinidagi Bolaliktepedan topilgan saroy va boshqalardir.

Shunday qilib, V asr o'rtalarida tashkil topgan eftaliylar davlati VI asrning o'rtalariga kelib, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va kichik-kichik mayda hukmdorlarning raqobatlari natijasida asta-sekin yemirila boshladi.

Ta'kidlash joizki, milodiy V asr oxiri – VI asr o'rtalarida Eftaliylar davlati Hindistonda ham mavjud bo'lgan. Bu davlat eftaliylarning Hindistonga bostirib kirishi natijasida vujudga kelgan. U Shimoliy Hindiston, Pokiston va janubiy-sharqiy Afg'oniston hududidan iborat bo'lgan. Mazkur davlat To'ramon va uning vorisi Mixirakula davrida kuch-qudratga to'lib, ravnaq topgan. VI asr o'rtalariga kelib tanazzulga yuz tutgan.

**2. Turk xoqonligi.** VI asrning o'rtalariga kelib Oltoy, Yettisuv va O'rta Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar birlashib katta Turk xoqonligi davlatini tashkil qildilar. Lekin bundan VI asrga qadar turkiyzabon xalqlar va ularning davlat uyushmalari bo'lmagan deb bo'lmaydi. Xususan, turkshunos olimlar I. Bichurin, N. Gumilyovlar Xitoy manbalari asosida bergan ma'lumotiga binoan, ilk turkiy qabilalar mil. avv. 1756-yildan boshlab tilga olingan.

Turk xoqonligi xususidagi ma'lumotlar yetarli bo'lsa-da, ammo ularning ko'pchiligi bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma'lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VII–VIII asrlarda to'plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar – Urxun-Enisey, Turk-Run yozuvlari, Xitoyning «Tan xonadoni tarixi» (VII–IX asrlar) tarixiy manbasi, VI asr oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar

Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efesskiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdek, Turk xoqonligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta asr mualliflari at-Tabariy, Denovariy (IX–X asr), Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham uchraydi.

Qadimgi Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, turk atamasi bundan 3,5–4 ming yil muqaddam iyerogliflar bilan yozilgan bitiklarda «tiek» va «tiauk» shaklida uchraydi. «*Turk*» so'zi – baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarni anglatadi. Turklarni kelib chiqishi bo'yicha turli afsona va rivoyatlar mavjud. Xususan, Abu Is'hoq Nishopuriy (VIII) o'zining «Qissai al-anbiyo» asarida turklarning kelib chiqishini Nuh payg'ambar o'g'li Yofasning to'ng'ich o'g'li Turk bilan bog'laydi. Boshqa afsonaga ko'ra, ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Bu ma'lumotlar Bey shi va Suy shu Xitoy yilnomalarida berilgan bo'lib, turklarning ota-bobolari katta botqoqlik chekkasida («G'arbiy dengiz»ning o'ng qirg'og'ida) yashagan. Biroq ular qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlanadi. Ammo ulardan o'n yashar bola tirik qolgan. U Turfon tog'lariga ketib, u yerda urg'ochi bo'ridan o'nta bola ko'rgan. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylanadilar. Har bir boladan bir urug' kelib chiqadi. O'g'illardan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo'ladi. Afsonaga ko'ra, «Turk» so'zi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidir. Yana boshqa afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yonbag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu yerdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'lboshchisi bo'lgan.

Ma'lumki, VI asrning 2-yarmida Turk xoqonligiga qadar mintaqada ikkita yirik davlat: Eftaliylar va Jujanlar davlati mavjud bo'lgan. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqeyi ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub Asan (Asyan, Asyan-shod) va Tuu (460–545-yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin 545-yil Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551-yilda Jujan xonining qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Xuddi shu yili Bumin yangi davlat – Turk xoqonligiga (551–745) asos soladi. Ushbu xoqonlik 551-yildan 745-yilgacha faoliyat ko'rsatdi. Bumin Ili daryosi bo'yida hukmdor deb e'lon qilinib, «Ili qag'an» degan unvonni oladi Endi hukmdor o'zini xoqon (turkcha – qag'an) deb yurita boshladi. Oltoydagi O'tukan shahri xoqonlikning poytaxti qilib belgilandi.

Bumin o'z ukasi Istamiga (Istami – turkcha, Sedimi – xitoycha, Sinjibu – arabcha, Stembi – xagah yunoncha) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldori unvoniga

to'g'ri keluvchi «Yabg'u» (bahodir) unvonini berib, u bilan birgalikda o'z davlatini kengaytirish payiga tushdi. Istami ko'proq g'arbiy yo'nalishga boshchilik qilib tez orada Sharqiy Turkistondagi nushibi, turkash, duli qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. 552-yilning oxirida Bumın xoqon vafot etdi. Shundan so'ng taxtga Qora Issiq o'tiradi. Bundan foydalangan Jo'jonlar xoqonlikka hujum uyushtiradi. Biroq u jujanlarni qayta bosh ko'targanligiga qarshi kurashib, natijada ularning rahbari Din o'z qo'shini bilan tor-mor keltiriladi. Tez orada Qora Issiq ham vafot etadi. Shundan so'ng uning ukasi Muqan (ba'zi adabiyotlarda Muxan, Mug'an) xoqon «Kushu» unvoni bilan taxtga o'tirdi. U yigirma yil (553–572) hukmronlik qildi.

Muqan xoqon 556–557-yillarda Xitoyga yurishlar qilib, bu yerdagi G'arbiy Vey (Toba) sulolasi o'rnini egallagan Si (550–577) va Chjou (577–581) sulolalarini o'z ta'sir doirasiga oladi. 558-yilda esa jo'janlarga so'nggi hal qiluvchi zarbani berdi. Shu bilan birga xoqonlik ushbu yilda Ural va Volga bo'ylarini zabt etib, Shimoliy Kavkazdagi ko'chmanchi ovarlar bilan to'qnashadi. Turkiylar eftaliylar va ovarlarga qarshi kurashishda Vizantiya va Eron bilan do'stona aloqani mustahkamlashga harakat qila boshlaydi. Vaziyatdan foydalangan Eron eftaliylardan Toxariston, Chag'oniyon, Kobul atrofidagi yerlarni tortib oldi. Turk xoqonligi ovarlarga qarshi harakat qilib, ularga yordam berib turgan Vizantiyani bu yo'ldan qaytarish uchun 563-yilda nushibi qabilasining rahbari Esxilni Vizantiyaga elchi qilib jo'natdi.

Ta'kidlash lozimki, Muqan xongacha ham amakisi Istami yabg'u xoqonlikning g'arbiy qismini, boshqarar edi. U 552–555-yillarda «o'n tuman qo'shinining» sarkardasi sifatida harbiy yurishlar qilib, yurishlar natijasida Yettisuv turklarini, Oltoy hududida yashovchi eftaliylarni bo'ysundiradi va o'zini «o'n qabilali» deb atab, xoqon deb e'lon qilgan. Istami akasi Bumin vafotidan keyin (555-yilda) Toshkent va uning atroflarida, Qozog'iston, Yettisuv va Xorazm hududlarida mustahkam o'rnashib oldi. Endi Turk xoqonligining chegaralari Amudaryogacha yetib boradi.

Istami yabg'u o'z qo'shini bilan dastlab 563-yilda Eftaliylar davlatiga yurish qildi. 565-yilda esa eftaliylarga Naxshab shahri (hozirgi Qarshi shahri yaqinidagi Yerqo'rg'on xarobasi) atrofida og'ir zarba beradi. Natijada Turk xoqonligi eftaliylarga qarashli Choch, Farg'ona, Ustrushona, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Kesh va Nasafni qo'lga kiritdi. Ayni bir paytda xoqonlikning eftaliylarga qarshi ittifoqchisi Sosoniylar Eroni hukmdori Xusrav I Anushirvon esa eftaliylar tarkibida bo'lgan Toxariston, Kobuliston, Zobuliston (Shimoliy Afg'oniston) viloyatlarini egallaydi.

Xullas, Turk xoqonligining eftaliylar davlatiga qarshi 563–567-yillar davomida qilgan ketma-ket zarbalari asosida O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan

yerlar egallandi. Buning oqibatida Eftaliylar davlati qulaydi. Biroq Eron turkiylar qo'liga ko'pgina muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlar o'tib qolganligidan o'z noroziligini bildiradi. Bu davrda Turk xoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi. Natijada ikki o'rtadagi munosabatlar keskinlashdi.

Dastlabki paytlarda har ikki davlat o'rtasida munosabatlar yaxshi bo'lgan. Hatto Eron shohi Xusrav I Anushirvon turk malikasiga uylangan ham edi. Biroq Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvafaqiyatsiz chiqdi. Eron bilan munosabatlarni o'rnatishga intilishlar foyda bermaydi. Xusrav I Turk xoqoni Istaming birinchi marta 567-yilda yuborgan elchisi Maniakh olib kelgan ipak buyumlarni hammasini ko'zi oldida o'tga tashlaydi. Istami tomonidan yuborilgan ikkinchi elchilarni esa Xusrav zaharlab o'ldiradi.

Istami yabg'u Eron bilan munosabatlar keskinlashib ketsa, uning oldini olish uchun Vizantiya bilan yaqinlashish siyosatini qo'llamoqchi bo'ladi. Shu maqsadda 568–569-yillarda sug'd savdogari Maniakh boshchiligidagi elchilar Vizantiyaga yuborildi. Ular Kavkaz orqali Konstantinopolga yetib keldilar. Elchilar imperator Yustinian II qabulida bo'lgan. Imperator turkiylar bilan harbiy-siyosiy, savdo shartnomasiga kelishib oldi. Yustinian II javob tarzida Vizantiyaning Zemarx boshliq elchilarini xoqonlik davlatiga jo'natadi. 569-yilda xoqon Zemarxni Tyanshandagi «Oltin tog'» yaqinidagi qarorgohida qabul qildi. Muzokaralar davomida asosiy diqqat ipak savdosi va birgalashib Eronga qarshi kurash olib borish masalalariga qaratilgan. Shundan so'ng Turk xoqonligi Eronga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Istami Xusrav I Ashushirvon qo'shinlarini tor-mor qilib, Eronning shimoliga bostirib kiradi. Turkiylar eftaliylar yerlarining Eronga o'tib qolgan yerlarini yana o'z qo'liga qaytarib oladilar. Eron tinchlik bitimini imzoladi va har yili 40000 Vizantiya tillasi to'lash majburiyatini oladi.

Biroq Muqan xoqon va Istami yabg'ularni vafotidan so'ng Turk xoqonlikning ta'siri ancha zayiflasha boshlaydi. Eron sarkardasi Bahrom Chubin turkiylarning Chur Bag'a xoqon qo'mondonligidagi 300000 kishilik qo'shinini tor-mor keltiradi. Chur Bag'a jangda halok bo'ldi. Bahrom Chubin Buxoro yaqinidagi Poykand shahriga bostirib kirib, xoqonning o'g'li Barmuda Teginni asirga oladi va xoqon xazinasini Eron shohiga yuboradi.

Muqan xoqon vafotidan (576-y.) so'ng taxtga uning ukasi Arslon To'ba o'tirdi. Arslon To'ba qo'lida 8 ta viloyat jam etilgan bo'lib, o'z vaqtida ular o'zaro bir-birlari bilan chiqisha olmas edilar. 581-yilda Arslon To'ba xoqon vafot etdi. Xoqonlikda o'zaro ichki kurashlar avj oldi.



Aynan mana shunday keskin vaziyat sharoitida Buxoroda xoqon xonadoniga mansub Abruy (? – taxm. 585, Poykend) boshchiligida 585-586-yillarda xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Bu qo'zg'olonning kelib chiqishi sababi mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulning avj olishi bilan bog'liq edi. Jumladan, VI–VII asrlarda O'rta Osiyoda dehqonlar tomonidan yerlarni egallash jarayoni tobora avj oldi. Qashshoqlashib borayotgan ziroatkor-kashovarlar mulkdor zodagon dehqonlarning asoratiga tushib, qaram kadivarlarga aylanadi. Natijada qashshoqlik va dehqonlarning asoratiga qarshi aholi bosh ko'tarishga majbur bo'lgan. Qo'zg'olonga boshchilik qilgan Abruyning asl ismi – To'ramon bo'lib, Abruy esa unvon edi. Qadimgi turkcha – Ala, xitoycha Abo – katta ma'nosini anglatadi. U boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o'rnatadi. Buxoro aholisi Abruyi Poykend shahriga hokim qilib tayinlaydi. Shu bois qo'zg'olondan vahimaga tushgan mulkdor dehqon va savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib, Turkiston va Taroz atrofiga borib o'rtnashadilar. Ular turk xoqoni Qorachurindan qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda yordam so'raydilar. Qorachurin o'g'li Sheri Kishvar boshchiligida Buxoroga katta lashkar yuboradi. Natijada qo'zg'olon bostiriladi. Sheri Kishvar Abruyi tutib uni qizil asalari to'la qopga tiqib o'ldirishni buyuradi va o'zi Buxoro vohasining noibi bo'lib, Buxorodagi yerlarni yana o'z egalari – dehqonlarga qaytarib berish choralarini ko'rgan.

Qo'zg'olonlar bostirilgan bo'lsa-da, biroq o'zaro ichki kurashlar, urug'-aymoq udumlarining kuchliligi xoqonlikni zaiflashtira bordi. Natijada Turk xoqonligi VI asrning 80-yillari oxirlariga kelib (bu sana ba'zi adabiyotlarda 603-yillar bilan belgilanadi) o'zining ichidagi ichki nizolar va Xitoydagi Suy imperiyasining aralashuvi natijasida ikkiga, ya'ni G'arbiy va Sharqiy xoqonliklarga bo'linib ketdi.

**G'arbiy Turk xoqonligi** (o'z davrida «O'n O'q xoqonligi») deb yuritilgan) tarkibiga Oltoy tog'larining g'arbida joylashgan o'lkalar; Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryolari bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyoning kichik yarim mustaqil davlatlari kirib, uning markazi Yettisuv edi. G'arbiy xoqonlikdagi yozgi qarorgoh Isfijob yaqinidagi Mingbuloqda, qishkisi Suyob shahrida edi.

**Sharqiy Turk xoqonligi** bir muddat Oltoy tog'larining sharqidan to Uzoq Sharqqacha bo'lgan hududni, ya'ni Janubiy Sibir, O'rxun daryosi havzalari (Mo'g'uliston), Shimoliy Xitoy hududlarini o'z ichiga olib, uning markazi Oltoyda joylashgan. Xoqonlikning poytaxti O'tukan vodiysi (Mo'g'uliston)da qaror topgan.

Sharqiy Turk xoqonligi Shibi xoqon (Sivar, 609–619) davrida Xitoy (Suy) imperiyasiga qarshi jang olib boradi. U 615-yilda Xitoyga yurish qilib Yaymin



(Ordos) viloyatida imperator Yandini qurshovga oladi. Yaymindagi 41 qal'adan 39 tasi Turk xoqonligi qo'liga o'tadi. Shibi xoqon 618-yil Xitoy taxtga Suy sulolasi (589–617) o'rniga kelgan Tan sulolasi (618–907)ning ishlariga ham aralashgan. U harbiy harakatlarini yana Xitoyga qaratdi. Biroq Xitoy hududiga kirgan vaqtda vafot etadi. Taxtga El xoqon (620–630) o'tiradi va 10-yil davomida, asosan, Xitoy bilan kurash olib boradi. 2 marta, 624–626-yillarda poytaxt Chananni qurshab oladi. Uning o'limidan so'ng Sharqiy Turk xoqonligi Xitoyning Tan sulolasiga qaram bo'lib qoldi. Xususan, xoqonlik 630-yildan – 682-yilgacha Xitoyga qaram bo'lib yashadi. Ammo bu yillarida ham turkiylarda urug'-qabilachilik va davlatning ma'muriy qurilishi o'zgarmadi. Ayrim turk sarkardalari Xitoy imperiyasining harbiy lavozimlariga, askarlari esa harbiy yurishlarga jalb etildi. Oradan yarim asr o'tib, Qutlug' Eltarish (682–691) davrida xoqonlik yana o'z mustaqilligini tikladi. Uning ukasi Qapag'an xoqon (691–716) davrida esa mintaqadagi eng yirik davlatga aylandi. Bilga xoqon (716–734) hukmronligi davrida Turk xoqonligi mintaqaning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. 716-yilda Selenga daryosi havzasida istiqomat qiluvchi uyg'urlarga, 717-yilda o'g'uzlarga, 718-yilda qarluqlarga qarshi jang qilib, ularni xoqonlikka bo'ysundiradi. Bu davrda xoqonlik hududlari sharqda Sirdaryoning sharqidan to g'arbda Xingan tog'lari yonbag'irlari (Manjuriya), Shandun o'lkasini (Xitoyning shimoli sharqi, Sariq dengizdagi Boxay ko'rfazigacha bo'lgan yerlar), janubda Tibetning shimoli, Sharqiy Turkiston, Xitoyning shimoliy viloyatlaridan to shimolda Yenisey daryosi va Baykalbo'yini o'z ichiga olganligi ma'lum bo'ladi.

G'arbiy Turk xoqonligi hukmdori Istaming o'g'li Tardu xoqon (576–603) davrida sasoniylar Eroniga qarshi janglar olib borildi. U g'arbda o'z hokimiyatini kuchaytirdi. Uning o'g'li Sheguy xoqon (610–618) davrida ham uning qo'shinlari janubi g'arbiy hududlarda faol harakat qilgan. U Eronning shimoli sharqiy viloyatlariga hujum uyushtirib, sasoniylar ustidan yirik g'alabaga erishadi va Isfahon, Ray kabi shaharlarni egalladi. Uning inisi Tun yabg'u (618–630) xoqonlikning g'arbdagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. Bu davrda G'arbiy Turk xoqonligi yana yuksalib, uning chegarasi g'arb va janubi-g'arbda Janubi-Sharqiy Yevropa dashtlari, Kavkaz, Volgabo'yi, Gurgon, Marv, Hind daryosining yuqori havzalari, Shimoliy Hindiston va Afg'onistonning aksariyat viloyatlarini o'z ichiga olardi. Shunday bo'lsa-da, lekin bu yuksalish uzoqqa chuzilmadi.

Xitoyliklar VII asrning 30-yillarida turklarni yana mag'lubiyatga uchratganlar. Natijada, 659-yilda bir necha mag'lubiyatdan so'ng turklar Xitoy oliy hokimiyatini

tan olganlar. 660-yillarda esa xitoyliklar O'rta Osiyo hududlarida ham xuddi o'zlaridagi kabi ma'muriy-uslubiy boshqaruvni joriy qilmoqchi bo'ldilar, ammo bu ishni eplay olmadilar. Chunki, 670-yilda tibetliklar Sharqiy Turk xoqonligini tashkil etdi. Bu voqea Xitoy ma'murlarining diqqat-e'tiborini O'rta Osiyodan chalg'itib Tibetga qaratishga majbur qildi.

VII asrning oxirlarida O'rta Osiyo hududlarida Turk xoqonligini qaytadan tiklashga bir qadar urinishlar bo'ldi. Biroq 740-yilga kelib Turk xoqonligi ham ichki, ham tashqi ziddiyatlarga duch keladi. Bilga xoqonning o'g'illari hukmronligi davrida xoqonlik zaiflashadi. 742–744-yillarda uyg'ur, qarluq va basmil qabilalari birlashib, xoqonlikka hujum uyushtirishadi. 745-yilda ittifoqchilar Turk xoqonligining so'nggi hukmdori – Bo'lmish (Bolmish, 744–745) xoqonni o'ldirishadi va taxt uyg'urlar qo'liga o'tadi.

*Turk xoqonligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.* Butun saltanat ustidan oliy hukmronlikni *xoqon* olib borgan. Undan keyingi shaxs – *Yabg'u* (bahodir) davlatdagi birinchi amaldor (vazir) vazifasida bo'lgan. (Masalan: Istami yabg'u, Tun yabg'u). Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Taxt merosxo'ri *tegin* (turkiycha – qul) deb yuritilgan. Tegin taxtga da'vogar shaxs bo'lgan. Ayni chog'da davlat boshlig'i farzandlari – shahzodalar (xonozodalar) ismiga qo'shib aytiladigan sharaffi unvon (masalan, Kultegin). *Tudun* – unvoni hukmdorning joylaridagi noibi (nazoratchisi)ga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj – soliq ishlarini nazorat qilganlar. Urug'-qabilaning nomdor vakillari «*beklar*» deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodaganlar kengashi – «*Qurultoy*» boshqargan.

*Xoqonlik boshqaruvida ikki xil tizim mavjud edi:* 1) bo'ysundirilgan ba'zi o'lka va viloyatlarda mavjud mahalliy sulolalar saqlanib qolgan va ular xoqonlikka o'lpon to'lab turganlar; 2) tobe o'lka va viloyatlarning ayrimlari boshqaruviga tayinlangan hukmdor xonadoniga mansub vakillar hokimiyati.

Xoqonlikda aholining quyi tabaqasi *budun* yoki *qora budunlar* deb atalgan. Budun o'z navbatida qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etgan. U «o'n o'q budun» yoki «o'n o'q el» deb yuritilgan. O'n o'q budun yoki elning hokimi ham «yabg'u» yoki «jabg'u» nomi bilan atalgan. O'n o'q el sardori bir tuman (ya'ni o'n ming) suvoriyni safga tortar edi. Bunday harbiy bo'linmaning tumanboshisi «*shod*» deb yuritilgan. Shod unvonidagi kishi hukmdorning o'ng tomonidan joy olgan.

Turk xoqonligidagi har bir hokimlikda bir necha yuzdan tortib, bir necha ming sonli o'z qo'shinlari bo'lgan. Qo'shin to'plashda ham sinfiy tabaqalanish asosiy rol o'ynagan. Jumladan, otliq askarlar urug' zodagonlari vakillaridan tanlanib, o'q-

yoy, dubulg'a, qilich va shamshir bilan qurollangan. Piyoda askarlar esa yollangan faqorolar va qullardan iborat bo'lgan.

G'arbiy xoqonlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turar edi. Sharqiy xoqonlikdagi aholi asosan ko'chmanchi chorvadorlardan iborat bo'lsa, g'arbiy xoqonlik aholisining katta qismi esa o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan.

Bu davrda O'rta Osiyo yerlarida dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab suv ayirgichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan. Farg'ona va Sug'dda esa aholi kon ishlari bilan shug'ullanib, oltin, mis va temir; Iloqda qo'rg'oshin, kumush; Shahrisabzda tosh, qizil tuz qazib olingan.

VI–VII asrlarda harbiy to'qnashuvlar tez-tez bo'lib turganligidan shaharlar unchalik rivojlanmagan. Bu davrda qo'rg'on-qa'la qurish avj olgandi. Boy yer egalari ana shunday qo'rg'on-qal'alarda yashaganlar. Xorazm vohasidagi bunday qal'alar ancha keng o'rganilgan. Birgina Berqutqal'a mavzeyida boy va zodagonlar yashaydigan 96 ta shunday qo'rg'onchalar bo'lganligi aniqlandi. Tarixchi arxeologlar Sug'dda ham bunday qal'achalar bo'lganligini isbotlamoqdalar. Qo'rg'onchalar atrofi devor bilan o'ralgan. Uning o'rtasida minorasi bo'lgan. Bu minoralar mudofaa inshootlari vazifasini o'tagan.

Turk xoqonligi davrida madaniyat o'z davriga nisbatan yuksak taraqqiyot darajasida bo'lgan. Turkiy xalqlar dunyodagi qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan hisoblanadi. Turk hukmronligi davrida sug'd yozuvi, oromiy yozuvi, xorazm yozuvi bilan bir qatorda qadimiy turkiy xalqlarning yozuvi – «Turk-Run yozuvi», «Urxun-Enasoy yozuvi», «Ko'k Turk yozuvi» keng ishlatilgan. 1970-yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyolar asosida turkiy yozuvning tarixi mil. avv. II–I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

Turk xoqonligi to'g'risida bitiktoshlarda qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bunga Kultegin bitiktoshi, Bilga xoqon bitiktoshi, To'n-Yuquq bitiktoshini misol qilish mumkin. Turkiylar tarixi uchun bitik yozuvlar avvalo asosiy manba bo'lsa, undan keyin yozma adabiyotning ilk namunasi hamdir. Olim Nasimxon Rahmonning fikricha turkiylar qanchalik katta hududni egallagan bo'lsalar, ular yaratgan yodnoma bitiklar ham shunchalik katta hududga yoyilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Shimoliy Mo'g'uliston yodnomalari.
2. Lena – Boyko'lbo'yi yodnomalari.

3. Oltoy yodnomalari.
4. Sharqiy Turkiston yodnomalari.
5. O'rta Osiyo guruhi yodnomalari.
6. Sharqiy Yevropa yodnomalaridir.

Turk xoqonligidagi xalqlarning bir qismi eftaliylar singari «J» lovchi shevalarda so'zlashganlar. VI asrga kelganda u «Y» lovchi lahjaga aylanib, davlat tili bo'lib qolgan. Turk yozuvi bilan bir qatorda sug'd va xorazm yozuvi ham keng qo'llanilganligini yuqorida ta'kidlagan edik. Sug'd yozuvi 25 ta belgidan iborat bo'lib, chapdan o'ngga qarab yozilgan. Ularning taqvimlari bo'lgan. Bunday taqvimlar Tojikiston tog'laridan topilgan. Shaharlarda sug'd-turk ikki tilliligi rasmiy holat bo'lganligi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida ham qayd etilgan. Xullas, o'tmish avlodlarimiz yuksak darajada qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan deb qat'iy xulosa chiqarish uchun hamma asoslarga egamiz. Bu yozuv madaniyat durdonalari keyinchalik arablar va mo'g'ullar bosqini davrida yo'q qilib yuborilgan.

Daliliy ashyolar VII asrda mamlakatimiz hududida savodxonlik kuchli bo'lganligidan guvohlik beradi. 5 yoshga to'lgan bolalar yozish va hisob-kitobga o'rgatilgan. 20 yoshga to'lganda esa savdo-sotiq bilan shug'ullanish uchun savdo karvonlariga qo'shib chet davlatlarga yuborilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bor. Shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifati o'zidan keyingi uch tarmoq – hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turki bo'ladi. O'rta Osiyoning shu davrdagi Marv, Poykant Buxoro, Samarqand, Choch, Isfijob, Suyob kabi shaharlari savdo-sotiqning markazlari edi. Xitoy bilan savdo munosabatlari ayniqsa rivojlanib, 627–647-yillar mobaynida Xitoyga 9 marotaba savdo elchilari yuborildi. O'rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo'lib, Buxoroda *buxorxudotlar*, Xorazmda *xorazmshohlar*, Choch va Iloqda *bo'dun va dehqonlar*, Farg'onada *ixshidlar* hukmronlik qilishgan. Ularning hammasi Turkiy xoqonlikka qaram bo'lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar.

VI–VII asrlarda Turk xoqonligi hududida yashagan xalqlar diniy nuqtayi nazardan turli-tuman g'oyalar ta'sirida bo'lganlar. Deyarli har bir urug'-qabila va xalqning o'z diniy e'tiqodi bo'lgan. Shu boisdan turk qabilalarida ko'p xudolilik keng tarqalgan.

Turk xoqonligi davrida ham O'rta Osiyoda animizm va shamanizm mavjud edi. Shuningdek, ota-bobolar ruhiga sig'inish ham turkiy xalqlar o'rtasida X asrga

qadar keng tarqalgan diniy e'tiqodlardan bo'lgan. Bu hol ruh o'lmaydi, u narigi dunyoda ham yashaydi, degan tasavvurlardan paydo bo'lgan. Xususan, 576-yilda Istami xoqonni dafn qilish marosimida uning o'g'li otasi minib yurgan otlarni, shu bilan birga to'rt harbiy asirni otasining arvofiga qurbon qilgan. Muqan xoqon vafot etganida esa unga oxiratda xizmat qilish uchun 20000 kishi o'ldirilib, birga ko'milgan. Qiyomat kunini turkiylar «Qoldirilgan kun» deb ataganlar. Turkiylar qabrtoshlari, ya'ni bitiktoshlar yoniga odamlarning tosh haykalchalarini qo'yishgan. Ular «balballar» deyilgan. Bu balballar o'lgan odamning ruhiga bag'ishlangan yodgorlikdir.

VI–VII asrlarda yuqoridagi diniy e'tiqodlardan tashqari, turkiy xalqlar orasida zardushtiylik, buddizm, xristianlik va boshqa dinlar ham tarqalgan.

Turk xoqonlari davriga oid manbalar, tarixiy obidalar nisbatan kam saqlangan. Ammo Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, VI–VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriy san'at, haykaltaroshlik ancha keng taraqqiy etgan. Ustrashona, Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Panjikent xarobalaridan topilgan naqshlar va suratlar fikrimizning yorqin dalilidir. Bu davrda kulolchilik san'ati ham rivoj topgan. Turk xoqonligi davrida yaratilgan moddiy madaniyat yodgorliklardan bir turi loydan yasalgan turli tasvirdagi haykalchalardir. Bu haykalchalar qo'lida kosa yoki qurol-yarog' ushlab turgan kishi shaklida bo'lib, odatda, ular qo'rg'oncha yoki marhumlar qabrlariga qo'yilgan.

Shunday qilib, IV asrning oxiri va V asrning boshlaridan e'tiboran mamlakatimiz hududida feodal tuzumning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshladi. Feodal taraqqiyoti tomon rivojlanib borgani sari, mamlakatimiz xalqlari jahon taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldilar, jahon davlatchiligi, sivilizatsiyasi va madaniyatiga o'z hissalarini qo'shdilar.

**3. Arablar istilosi va hukmronligi davrida O'rta Osiyo.** VI asrning oxiri va VII asr boshlarida (ya'ni islom dinining vujudga kelishi arafasida) Arabiston yarim-orolida Somiy (semit) qavmiga mansub arab qabilalari tarqoq holda yashadilar. Ular o'rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Arablar asosan ko'chmanchi, chorvachilik bilan hayot kechirgan. Ko'chmanchilar *badaviylar* deb yuritilgan. Vohalardagi aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dengiz bo'ylari, vohalarda, xususan, yarimorolning Qizil dengizga tutash Hijoz vohasi va janubiy Yamanda arab qabilalari asosan o'troq hayot kechirgan, savdosotiq, hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan edi. Ayniqsa Hijozning bosh shahri – Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan.



**Islom dinining vujudga kelishi. Arab xalifaligi**

Aholi orasida islom dinigacha ko'p xudolik – butparastlik urf bo'lgan. Jumladan, Ka'bada 360 ta but bo'lib, ularning eng yiriklari Hubal va Lut bo'lgan. Mamlakatda

ko'p xudolilikning mavjud bo'lishi o'zaro qabilaviy urushlarni yuzaga keltirgan. Bu holat hamjihatlik va barqarorlikka xavf solib, siyosiy parokandalikka sabab bo'lgan. Shunday bir vaziyatda Hijoz (G'arbiy Arabiston)da yakka xudolikka asoslangan insonlarga to'g'ri va haq yo'lni ko'rsatuvchi islom dini yuzaga keldi. *Islom* arabcha – bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish ma'nolarini bildiradi. Islom dinidagilar «muslim» («sadoqatli»; ko'pligi – «muslimun») deb atalgan. Bu dinning asoschisi payg'ambar Muhammad alayhissalomdir. Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad nomini aytgan yoki eshitgan kishi «sollalohu alayhi vasallam» (s.a.v.) yoki «alayhissalom» (a.s.) deb salovat aytib qo'yish vojib hisoblanadi.

Muhammad alayhissalom 570-yil 27-avgustda Makka shahrida Quraysh qabilasining Hoshimiylar xonadonida dunyoga keldi. Uning bobosi Abumutallib Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi kalitining nigohboni (saqlovchisi) bo'lgan. Muhammad (c.a.v.) go'dakligidayoq etim qolgan. Tug'ilmasidan avval otasi – Abdulloh, 6 yoshligida esa, onasi Omina vafot etgan. U dastlab bobolari, so'ng amakilari Abu Tolib qo'lida tarbiya olgan. Muhammad (c.a.v.) amakilarining maslahatiga ko'ra, badavlat savdogar ayol Xadicha binti Xuvaylidning savdo ishlariga boshchilik qiladi va 25 yoshlarida unga uylanadi, Xadicha bu davrda 40 yoshda edi.

Muhammad ibn Abdulloh islom dini va birinchi musulmonlar jamoasi asoschisi sifatida 40 yoshida, ya'ni 610-yilda payg'ambarlik faoliyatini boshlab, islom dini dastlab o'ziga yaqin bo'lgan kishilarga, so'ngra aholi orasida targ'ib qila boshladi. Bu ta'limot aholining barcha qatlamlari manfaatlariga mos bo'lib, tez orada birinchi navbatda shahar ahli ichida tarqala boshladi. Lekin yangi din tarafdorlarining ahvoli ularning e'tiqodlariga ko'ra og'irlashib borgach, so'ng bir qism musulmon aholi Habashistonga, ba'zilar shimolga qarab ketishga majbur bo'ldi. Muhammad ham o'ziga qarshi turgan quraysh qabilasi a'zolarining ta'qibi kuchayib ketgach, 622-yil 16-iyulda (ba'zi adabiyotlarda 15-iyul deyiladi) o'zining eng yaqin do'sti va safdoshi Abu Bakr bilan Makkadan Madinaga ko'chishga majbur bo'ladi. Bu arab tilida «hijrat» deb atalib, shu kundan boshlab, musulmon olamida qabul qilingan hijriy yil boshlanadi. Hijriy yil hisobi ikki xil bo'ladi: hijriy-qamariy, ya'ni oy hisobi bo'yicha va hijriy-shamsiy, quyosh hisobi bo'yicha belgilanadi. Madinada Muhammad o'z ta'limotini davom ettiradi.



Muhammad binni Abdulloh hayotining oxirlariga kelib 630-yilda ko'p sonli arab qabilalarining islom bayrog'i ostida birlashuvi negizida yagona davlatga asos soldi. Mazkur davlat Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum sahrosigacha cho'zilgan yerlarni o'z ichiga olar edi. Bu davrdan boshlab Makka islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylandi. 632-yil 25-yanvarda Makkai Mukarramaga so'nggi hajga safar qilgan Muhammad alayhissalom haj safaridan so'ng qattiq betob bo'lib qoladi. U kishi betobligida Ka'ba masjidiga imomlikni o'tashni qaynotalari Abu Bakrga topshiradi (622-yilda Xadicha vafotidan so'ng Abu Bakrning qizi Oyshaga uylangan edi).

Muhammad alayhissalom nasroniy yil hisobida 632-yil (hijriy yil hisobida 10-yili) 25 mayda o'z uylarida vafot etadi. Payg'ambarimiz vafotidan so'ng u kishining ishonchli noiblari yoki o'rinbosarlari (arabcha – xalifalar) davlatni boshqarganlar. Ana shu tariqa tarixda «*Arab xalifaligi*» (632–1258) paydo bo'lgan.

Islom musulmonlarida asosan ilk to'rt xalifa alohida ahamiyatga ega. Bular – Abu Bakr Siddiq (632–634), Hazrati Umar (634 – 644), Hazrati Usmon (644–656) va Hazrati Ali (656–661). Ular «*Al-Xulafo arroshidun*» (To'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar) degan nom oldilar.

Bundan keyin xalifalik 661–750-yillarda umaviylar sulolasiga o'tgan. Bu sulolaga Muoviya I (661–680) asos solgan. Bu davrda islom Shimoliy Afrikaga keng tarqaldi, xalifalik poytaxti Damashq bo'lgan. Shu tufayli bu xalifalikni Damashq xalifaligi deb ham atashadi. Umaviylardan so'ng xalifalik taxti Abbosiylar (750–1258) sulolasi qo'liga o'tgan. Bu sulolaning asoschisi Muhammad alayhissalomning amaki avlodlaridan «Saffoh» («Xunrez») laqabi bilan mashhur bo'lgan Abul Abbas Abdulloh (750–754) edi.

Arab xalifaligi VII–VIII asrlarda Misr, Suriya (Shom yurti), Falastin, Iroq, Eron va boshqa hududlarni bosib oldi va o'z hukmronligini o'rnatdi. Shundan so'ng u o'z e'tiborini O'rta Osiyo hududlariga qaratdi.

#### Arablar tomonidan O'rta Osiyoning zabt etilishi

O'rta Osiyoning qulay va go'zal tabiiy iqlimi, sharoiti hamda behisob boyliklari hamisha arablarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Arablarining O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlarini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 650/651–705-yillardan boshlanadi. Mazkur davrdan boshlab arablar bu hududni to'la istilo etishni emas, balki shu maqsadda harbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlar harbiy kuch-qudratini sinab ko'rish, mavjud geografik, harbiy, iqtisodiy, siyosiy joylashuv haqida ma'lumotlar to'plash,

kichik yurishlar orqali katta o'ljalar orttirish rejasini amalga oshiradi. Ikkinchi davr 705-yildan keyingi yillarini o'z ichiga olib, bunda arablar O'rta Osiyoni batamom bosib olishga qaror qiladilar.

Dastlabki yurishlar Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni ishg'ol etish bilan boshlandi. So'ngra hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli sharqiy qismi va Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlarni istilo etadilar. Arablar bu hududlarni Xuroson deb ataydilar. Uning markazi Marv shahri edi. Arablar bu yerda o'rnamashib olgach, Amudaryo (Jayhun) dan shimolda joylashgan boy viloyatlarni bosib olishga tayyorgarlik ko'radilar. Bu yerlarni arablar «Movarounnahr», ya'ni «daryoning narigi tomoni» deb ataganlar. Hozirgi zamon tarixiy-geografik ilmiy adabiyotida Movarounnahr deganda, asosan, Turkmanistondan tashqari bo'lgan O'rta Osiyo hududlari, ya'ni O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismi tushuniladi.

Arablar 652-yilda hal qiluvchi jangda Balx shahrini egallashadi. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movarounnahrda hujum qilish rejasini arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Movarounnahrda ilk bor hujum 654-yili Sug'ddagi Maymurg' va 667-yili Chag'oniyonning egallanishidan boshlangan. Biroq xalifalik ichidagi o'zaro hokimiyat uchun ichki nizolarning kuchayishi natijasida arablarning Movarounnahr yerlariga hujumlari bir qadar to'xtab qoladi.

Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviya I (661–680)ning farmoni bilan Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro viloyatiga bostirib kiradi, Poykand va Romitoni egallab, Buxoro shahrini qamal qiladi. Bu jangda arablar g'olib keladilar. Arablar o'z foydasiga sulh tuzib, yuz ming (bir lak) dirham hajmida boj undirib, katta o'lja bilan orqaga qaytishgan.

676-yili Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon boshliq arablar Buxoro va Samarqandga yurish qiladi. Buxoro malikasi Xo'takxotun o'z qo'shini bilan arablarga qarshi chiqadi. Bu jangga Sug'd, Kesh, Nasafdan harbiy qo'shin yordamga kelgan. Ammo sug'dliklar jang maydonini tashlab chiqib ketgach, malika kattagina boj to'laydi.

Said ibn Usmonning Samarqandga qilgan yurishida Muhammad payg'ambarning jiyanini Qusam ibn Abbos ibn Abdul Mutallib ishtirok etadi. Lekin u Samarqand Namozgohida halok bo'ladi. U keyinchalik Shohizinda («Tirik shoh») nomini olgan qabristonga dafn etiladi. Samarqand 1 oy davomida qamal qilinadi. Sug'dliklar jasorat bilan qarshilik ko'rsatadilar. Said ibn Usmon sug'dliklar bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. U Samarqanddan 30000 kishini asirga olib, orqaga qaytadi va yo'l-yo'lakay Termiz shahrini ham istilo etadi.

680-yilda xalifalik taxtini egallagan Yazid I 683-yilda vafot etdi. Bundan so'ng toju taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movarounnahrda hujum qilishdan deyarli to'xtab, o'z ichki nizolari bilan band bo'lib qoladilar.

Xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685–705) davrida ichki nizolarga chek qo'yildi. Arablar yana o'z e'tiborini Movarounnahrda qaratdilar. 704-yili xalifa Qutayba ibn Muslimni Xurosonning yangi noibi etib tayinladi va uning zimmasiga butun O'rta Osiyo hududlarini uzil-kesil bosib olish vazifasini yukladi. 705-yildan bu hududni xalifalikka butunlay qo'shib olish va zabt etishning ikkinchi davri boshlandi.

Bu paytda O'rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlar o'rtasida tez-tez nizolarning bo'lib turishidan Qutayba unumli foydalandi. O'z harbiy yurishlarini Qutayba 705-yil Balx viloyatini bosib olish bilan boshladi. Balxdan tashqari u Chag'oniyon, Shuman va O'rta Osiyoning janubidagi kichik viloyatlarni o'ziga bo'ysundiradi. Jumladan, Chag'oniyon hokimi Tish arablar tomoniga o'tib ketadi.

Qutayba 707-yilda Amudaryodan o'tib, Poykandni qamal qilib, 50 kunlik qamaldan so'ng shaharni egalaydi. 708–709-yillardan Buxoro va uning atrofidagi yerlarni zabt etadi. 710-yilda esa Nasaf va Kesh egallanadi. Shundan so'ng Sug'dning bosh shahri – Samarqandni bosib olishga tayyorgarlik ko'riladi. Biroq u 711-yilda aka-uka Chag'on va Hurzod janjalidan foydalanib, Xorazmni bosib oladi. 712-yilda Qutayba Samarqandga hujum qiladi. Bu paytda norozilik va qo'zg'olon natijasida podsho Tarxun taxtdan ag'darilib, uning o'rniga Sug'd podshosi va Samarqand hokimi sifatida G'urak (710–737) taxtga o'tiradi. Tarxun esa hibsdan o'zini o'zi halok etadi. G'urak arablarga qarshi chiqadi. U dushmanga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatadi, ammo Qutayba yana g'olib keladi. Ikki o'rtada sulh tuziladi. Sulh talablariga ko'ra, G'urak arablarga yiliga 200 ming dirham tovon to'lashi kerak bo'ladi. Shuningdek, 30 ming sog'lom kishini qul o'rnida berish sharti ham bor edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi – Afrosiyob arablarga bo'shatib beriladi. Qutayba shaharda masjid qurdiradi. Qutayba buning evaziga G'urakni Samarqand, Kesh va Nasafga hokim etib tayinlaydi.

Qutayba jo'nab ketishi oldidan shaharda o'z ukasi Abdurahmon ibn Muslim boshliq yaxshi saralangan qo'shinni qoldirib ketadi. Ammo Sug'd aholisining qarshiligi bu bilan tugamaydi. Al-Yaqubiyning yozishicha, 712-yil kuzida Samarqandda arab noibiga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Ularga turklar yordam beradi. Faqat 713-yil bahorida Qutaybaning yetib kelishi bilangina shahardagi qo'zg'olon bostiriladi.

Mug' tog'idan topilgan hujjatga ko'ra, Qutayba o'zining keyingi yurishlarida Shosh, Farg'ona va Turkiy xoqonlik qo'shinlaridan iborat yana bir harbiy ittifoqning qarshiligiga duch keladi. Sug'd, Choch, Farg'ona ittifoqiga Panjikent hokimi Devashnich ham qo'shiladi. Shunday bo'lsa-da, Qutayba 713-yilda Choch vohasini, 715-yilning boshida esa Farg'ona vodiysini uzil-kesil bosib oladi.

Xullas, 713–715-yillarda Qutayba ibn Muslim Qashg'argacha bo'lgan yerlarni egallaydi. Shu tariqa u O'rta Osiyo yerlarini zabt etib, Xitoy hududigacha cho'zilgan o'lkada yashayotgan xalqlarni islom diniga kiritadi. U barcha viloyatlarga arablardan bo'lgan amirlarni noib etib tayinlaydi. Biroq uning faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. 705-yilda arab xalifaligi taxtini egallagan Volid 715-yilda vafot etdi. Xalifalik taxtiga Sulaymon ibn Abdulmalik (715–717) chiqdi. Qutayba Sulaymonga nisbatan g'animlik munosabatida bo'lib, unga nisbatan isyon ko'tardi. Natijada bu isyon muvaffaqiyatsiz tugab, 715-yil Farg'onada Qutayba askarlar tomonidan o'ldirildi.

Shunday qilib, o'n yil davomida olib borilgan doimiy kurashlar natijasida Movarounnahr xalifalik tarkibiga kiritildi. Buning eng asosiy va bosh sabablari quyidagilardan iborat:

**Birinchiidan**, o'lka xalqlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlikning bo'lmaganligi va tarqoqlikning mavjudligidir. Arablar Movarounnahr yerlariga bostirib kelgan paytda o'lkada bir-biriga dushman bo'lgan 15 dan ortiq kichik-kichik feodal davlatchalar bor edi. Bu holdan arablar ustalik bilan foydalandilar;

**Ikkinchiidan**, arablar ko'chmanchi turk qabilalari bilan mahalliy o'troq xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklardan ham foydalandilar.

**Uchinchiidan**, arablar Movarounnahr qadar juda ko'plab boshqa mamlakatlar va aholi hududlarini bosib oldi. Ular bu mamlakatlarning aholi kuchlari, moddiy boylik imkoniyatlaridan O'rta Osiyo hududlarini bosib olish chog'ida foydalandilar.

**To'rtinchiidan**, arablar Movarounnahr hududlariga bostirib kelganlarida bu yerda ko'p xudolik, ya'ni turli diniy g'oyalarning mavjud bo'lganligi bilan bog'liqdir. Bu hol arablarga qarshi o'lkamiz hududi xalqlarining birlashuviga to'sqinlik qildi va arab bosqinchilarining g'alabasini yengillashtirdi.

Arablar bosqinidan so'ng O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy ahvol Arablar O'rta Osiyo bosib olinganidan so'ng, bu hududlarni boshqarish markazi Marv shahri bo'lib qolgan edi. Bu yerda xalifalikning noibi turgan, u Movarounnahr va Xurosonni idora qilgan. Dehqonlar xalifalik noibining mahalliy aholi orasidan bo'lgan vakiliga bo'ysunganlar. Bunday kishilar amir unvoniga ega hisoblanar edilar.

Arab istilochilari zabt etilgan O'rta Osiyo hududlarida dastlab qattiqqo'llik bilan *arablashtirish siyosatini* olib bordilar. Ushbu maqsad yo'lida ular ming-minglab arablarni O'rta Osiyo hududlariga ko'chirib kelganlar va eng yaxshi yerlarni ularga zo'rlik bilan olib berganlar. Movarounnahr hududlarida arablar egallab olgan ba'zi yerlar hozirgacha ham «arab qishloq»lari nomi bilan saqlanib qolgan. Dali ibn Ziyod davridayoq o'lkaga 50 mingdan ortiq arab aholisi Basra, Kufa atroflaridan ko'chirilib keltirilgan.

Belozuriy va Narshaxiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, arab lashkar-boshilari ko'chirib keltirilgan arablarga mahalliy xalqlarning uy-joylarini zo'rlik yo'li bilan tortib olib berganlar. Jumladan, Qutayba Samarqand va Buxoroni egallagach, shaharlardagi uylarning yarmini arablarga bo'shatib berilishini talab qilgan. Faqat quraysh qabilasining o'zidan Samarqandga besh ming aholi ko'chib kelgan. Buxoro, Samarqand, Marv va boshqa shaharlar aholisi o'z yashash joylaridan masjid qurish bahonasida ham ko'chirilgan. Arablashtirish jarayonida o'lkaga kelgan ba'zi arab zodagonlari dehqonchilik vohalaridagi eng unumdor yer maydonlari va suv inshootlarini egallab ola boshladilar. Arab oilalari qishloq va shaharlarga kelib o'rtnasha boshladilar. Ariq qazish, ko'prik qurish, binolarni ta'mirlash va boshqa jamoa ishlarida aholidan bepul foydalanar edilar. Shu bilan birga, mahalliy aholi arab zodagonlari va qo'shinini ot-ulov, kiyim-kechak, oziq-ovqat, qullar va boshqa narsalar bilan ta'minlab turishi kerak edi.

Arablar avvalboshda Movarounnahrning hunarmandchilik va savdo shaharlari, obod viloyatlariga bostirib kirib, ularni taladilar va katta o'ljalarga ega bo'ldilar. O'lkalarni bosib olish chog'ida dehqonchilik vohalari oyoqosti qilinib, shahar va qishloqlar vayron etildi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Oqibatda ko'pgina joylarda qurg'oqchilik yuzaga kela boshladi. Shaharlardan katta miqdorda qimmatbaho o'ljalar, Buxoro, Poykand va Sug'd hukmdorlaridan esa katta miqdorda tovon olindi. Arab qo'shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko'plab erkaklar majburan safarbar qilindi.

Iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarmaslik maqsadida arablar bosib olingan hududlarda an'anaviy davom etib kelgan soliq tizimi o'z kuchida qoldirilgan holda, sasoniylar tartibidagi soliq tizimi joriy qilindi. Bular asosan quyidagilar edi:

1. *Qavonin* yoki *mukati'a* – mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in;

2. *Maqosima* – hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'langan. Uning hajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan;



3. *Misoxa* – yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo'lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligi e'tibor berilmagan.

**Bu soliq tizimiga quyidagi soliqlar ham qo'shilgan:**

• Xiroj – arabcha – «chiqim, xarajat, sarf-soliq»; yer solig'i – hosilning 1/3 qismi miqdorida yig'ilgan;

• Ushr – arabcha – «o'ndan bir» – davlat idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi hisobida olingan;

• Zakot – arabcha – «tozalanish» – mol-mulkning 1/40 qismi (2,5 foiz) hajmida olingan;

• Juz'ya (jon solig'i) – islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i. Juz'ya natura yoki pul hisobida, asosan dehqonchilik mahsulotlaridan yig'ilgan.

Bulardan tashqari, aholiga mahalliy va mavsumiy soliq, majburiyatlar ham yuklangan edi.


IX asr arab tarixchisi Xo'rdodbehning ko'rsatishicha, xalifalikka faqat xiroj solig'i hisobiga Sug'd viloyati 326 ming, Farg'ona 280 ming, Shosh 607 ming, Ustrushona 50 ming dirham soliq to'lagan. Buxoroga belgilangan xiroj solig'i miqdori bulardan ham ko'p bo'lgan. Shu bois istilochilar «kuch xirojda» deb bejiz aytmagan.

Islom dinini qabul qilgan, musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va juz'ya soliqlaridan ozod etilib, ularga anchagina imtiyozlar berildi. Namoz o'qish uchun masjidlarga borgan shaxslarga 2 dirhamdan pul ham berilar edi. Arablar og'ir soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmaganlarni haqoratlab va xo'rlab taxtachalarga «qarzdor» degan yozuvlar yozdirib, ularning bo'yniga ostirib qo'yar edi. Jumladan, Taboriyning so'zicha, Xuroson va Movarounnahrning 735–738-yillardagi noibi Asad ibn Abdulloh juz'ya to'laydigan kishilarning bo'yniga tamg'a ostirgan.

Islom dinini qabul qilganlarni juz'ya va xiroj soliqlaridan ozod qilish siyosatini xalifa Umar II ham yurgizgan va u bu siyosatni Xurosonga 717-yilda noiblikka tayinlangan Jarroh ibn Abdullohdan bajarilishini talab qilgan. Jarroh rasman xalifaga bo'ysungan bo'lsa-da, bosib olingan mamlakat aholisi islomni qabul qilgan bo'lishidan qat'i nazar, xiroj solig'ini to'lashi kerak deb hisoblardi. Bundan tashqari, Jarroh islomni qabul qiluvchilar uchun sunnatni shart qilib qo'ygan. Mahalliy xalq o'rtasida Jarroh zulmidan norozilik kuchaygan. Umar II vaziyat murakkabligini hisobga olib, Jarrohni 719-yilda ozor va arman yurtiga hokim qilib jo'natadi. Arablar o'z hukmronligi siyosiy negizini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashda islom dinini keng yoyishga va targ'ib qilishga katta e'tibor berdilar.



## Islomning tarqalishi (VII–VIII asrlar)



O'rta Osiyo aholisi ichida e'tiqod qilayotgan zardushtiylik, moniylik, buddizm, nasroniy va boshqa dinlar soxta deb e'lon qilindi. Ayniqsa zardushtiylikka qarshi keskin kurash olib borildi. Bosib olingan yerlarda bu dinning barcha ibodatxonalari yo'q qilinib, ularning o'rniga masjidlar barpo qilina boshladi. Zardushtiy adabiyotlar,

**Arab bosqiniga qarshi  
xalq harakatlari**

xususan, diniy kitoblar, sug'd tilidagi nomalar, xalq adabiyoti yo'q qilinib yuborildi.

Arablarining O'rta Osiyo hududida yurgizgan zo'ravonlik va mustamlakachilik siyosati, shubhasiz, tub yerli aholining turli ijtimoiy qatlamlarida keskin norozilikka sabab bo'ldi. Buning natijasida arablar hukmronligi davomida o'lkaning turli hududlarida xalq qo'zg'olonlari yuzaga keldi.

O'rta Osiyo xalqlari arab istilosida o'z erki va ozodligi uchun kurashga otlanganlar. Arablarga qarshi olib borilgan bu kurashning eng e'tiborli tomoni shundaki, unda Movarounnahrning o'troq qadimiy yerlik aholisi va turk qabilalari doimo hamnafas bo'ldi.

**O'RTA OSIYODA ARABLARGA QARSHI OLIB BORILGAN XALQ QO'ZG'OLONLARI**

- 720–722-yillarda – Sug'diyonada G'urak va Divashtich boshchiligida;
- 725–729-yillarda – Samarqand, Buxoro, Xuttolonda;
- 736–737-yillarda – Tohariston va Sug'dda;
- 746–749-yillarda – Xuroson va Movarounnahrda Abu Muslim boshchiligida;
- 769–783-yillarda – Muqanna qo'zg'oloni;
- 806–809-yillarda – Rafi ibn Lais qo'zg'oloni.

720–722-yillarda Sug'diyonada yuz bergan G'o'rak (Sug'd ixshidi – ya'ni hukmdori) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qo'zg'olon arablar hukmronligiga qarshi yo'nalgan dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo'lgan. Unda arablar siyosati va zulmidan g'azabga kelgan o'n minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. 721-yilda Xurosonning yangi tayinlangan noibi Said Xarashiy katta muntazam harbiy kuch tufayli mazkur qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olon rahbarlaridan biri – Divashtich ham qatl etiladi. Bundan so'ng 400 sug'd savdogari Xitoyga jo'nab ketadi.

725–729-yillar davomida xalifalikning og'ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro, Xuttalon viloyatlarida qo'zg'olonlar ko'tarilgan. Qo'zg'olonchilarning ancha qismi arab ma'murlari olib borgan siyosatga (ayniqsa, xiroj masalasida) norozilik bildirib, islom dinidan chiqadilar. Qo'zg'olonchilar besh yil davomida arablar hukmronligiga katta zarba berdi.

736–737-yillarda Tohariston va Sug'dda yangidan ko'tarilgan kuchli qo'zg'olon o'z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etgandi. Faqat Xuroson va Movarounnahrning yangi hukmdori Nasr ibn Sayyor (738–748)ning olib borgan

tadbirlar tufayligina qo'zg'olon harakatlari bartaraf etildi. Bunda u mahalliy aholiga, ayniqsa, uning nufuzli qatlamiga ma'lum darajada yon berishga majbur bo'ldi. Xususan, u arablarning mahalliy aholi bilan qon-qardoshlik aloqalarini kuchaytirishga intildi. Shu maqsadda o'zi ham Buxorxudod Tog'shodaning qiziga uylandi. Islomni qabul qilgan kishilar juzyadan ozod etilib, barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtirildi. Xiroj solig'i to'lash barcha uchun baravar deb e'lon qilindi.

Ma'lumki, VIII asrning 40-yillarida Arab xalifaligida ummaviylar bilan abbosiylar o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanadi. Abbosiylik g'oyasi harakatini tashviqot va targ'ibot qilish maqsadida bu guruhning eng ishonchli va sodiq vakillari xalifalikning barcha hududlariga yuborildi. Shu maqsadda 746-yili abbosiylar targ'ibotiga rahbarlik qilish uchun Xurosonga Abu Muslim (asli ismi Abdurahmon ibn Asad, taxminan 727–755-yillar) yuboriladi. Abu Muslim Xurosonga yetib kelgach, o'z qarorgohi sifatida Marv shahridan uch farsah g'arbda Harkon arig'i sohili bo'yidagi mustahkam Safizanj qishlog'ini tanlaydi. Abbosiylarning tang'asi tim qora rang bo'yog'ida bo'lganligi bois Abu Muslim va uning tarafdorlari o'z kiyimlarini ana shu rangga bo'yab oladi. Shuning uchun ularni «Qora kiyimlilar» deb atashgan. Abu Muslim olib borgan targ'ibot tez orada Xuroson va Movarounnahrda keng yoyildi. U 747-yilning dekabr – 748-yil yanvarida Xuroson noibi Nasr ibn Sayyorni engib, Marv shahrini egalladi. 748-yilda esa Abu Muslim Nishopur va Tusni zabt etadi. U 749-yili xalifalik poytaxti Damashqqa yurish qildi. Natijada umaviy Marvon II taxtdan ag'dariladi. 749–750-yillarda umaviylar hokimiyat tepasidan ketdi. Abbosiylar xalifalik hokimiyatini egalladilar. 750-yilning boshida Abu Muslim qo'shini Katta Zab daryosi bo'yida umaviylar ustidan hal qiluvchi g'alabaga erishdi. Xalifalik taxti abbosiylar sulolasiga o'tdi. Taxtga bu sulola xonadonidan Abul Abbas Saffoh ko'tariladi. Biroq abbosiylar davrida ham mehnatkash aholining ahvoli yaxshilanmadi. Abu Muslim abbosiylarni xalifalik taxtiga olib kelgan bo'lishiga qaramay, abbosiy xalifalar undan asosiy taxt da'vogari sifatida qo'rqar edilar. Shu bois, 755-yilda xalifa Abu Ja'far Davonaqiy – Mansur (754–775) Makkaga yo'lga otlangan Abu Muslimni hiyla yo'li bilan qo'lga olib, uni qatl ettiradi.


Abu Muslim o'chini olish uchun 755-yilda Reyda Sunbod boshchiligida (70 kun davom etgan), Movarounnahrda Is'hoq rahbarligida, 722-yilda Xurosonda Ustoz Sis boshchiligida va 782-yilda Jurjonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan.

769–783-yillarda arab istilochilari istibdodiga qarshi Movarounnahrda bo'lib

o'tgan eng katta qo'zg'olon – «Oq kiyimlilar» (qo'zg'olonchilarning asosiy jangovar guruhi oq rang kiyim kiygan edi) yoki qo'zg'olon rahbari nomi bilan Muqanna qo'zg'oloni deb yuritiladi. Bu qo'zg'olon deyarli butun O'rta Osiyo hududlariga tarqaldi. Muqanna ism bo'lmay, «niqobdor», «pardali» ma'nolarini anglatadi. Muqannaning asli ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, uning ismi va shaxsi to'g'risida yozma manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Ya'qubiyning ta'kidlashicha, Muqannani Hoshim ul-a'var, ya'ni bir ko'zli Hoshim deb ham ataganlar.

Ibn Xallikon esa Muqannaning ismi Ota bo'lgan deydi. Muqannaga salbiy munosabatdagi tarixchi Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida u haqda quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurardi».

Muqanna Abu Muslim qo'shinida kichik lashkarboshi edi va Abduljabbor Azdiy davrida (757–759) esa vazirlik darajasigacha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalarining ilhomchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan, ijtimoiy tenglik va erkin hayot da'vatini targ'ib etgan. Muqanna o'zini payg'ambar deb e'lon qilgani bois, uni xalifa Mansur qamoqqa olib, Bag'dod zindoniga tashlaydi. Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra Muqanna zindondan qochib, Marvga keladi va 776-yilda xalifalikga qarshi



769–783-yillarda «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni

ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qiladi.

Tez orada Muqanna Amudaryodan o'tib, Kesh viloyatiga yo'l oladi. Buxorudod Tug'shod uni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som (Sanam) qal'asini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Muqanna ta'limoti umumiy mulkiy tenglik va arablarni O'rta Osiyodan haydab chiqarish g'oyalarini targ'ib etar edi. Uning ta'limoti Sug'd, Eloq (Ohangaron), Shoshda ham yoyila boshladi.

Qo'zg'olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja'far 776-yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq qo'shinni Movarounnahrda yuboradi. Biroq Jabroil qo'zg'olonchilarga yengiladi. U katta talafotlar berib, Samarqandga yetib keladi. Jabroilga yordam berish uchun yuborilgan Uqba ibn Salim boshliq 14.000 kishilik qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan qirib tashlanadi. Natijada Naxshab va Chag'oniyon vohalari qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi.

Qo'zg'olon markazi Narshaxda, Buxoro atrofida joylashadi. Shu yili Narshax yaqinida Buxoro hokimi Husayn ibn Muvoz va Samarqand noibi Jabroilning birlashgan qo'shini o'rtasida 4 oy jang bo'ladi. «Oq kiyimlilar» bu jangda ustun keladi, keyinchalik son jihatdan ko'p bo'lgan arablar qal'aga kiradilar. Narshax qal'asi arablar tomonidan egallanadi. Kesh va Samarqand endilikda qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanadi.

780–783-yillarda qo'zg'olon harakatlari so'nggi hal qiluvchi pallaga kiradi. Bu davrda Muqannaning asosiy kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to'plangan edi. Muqanna qarorgohi bo'lgan Som (Sanam) qal'asini qamal qilish Hirot amiri Sayd ibn Xoroshiyga topshiriladi. 783-yilda Som (Sanam) qal'asi qamal qilinadi. Uzoq vaqt qamaldan so'ng muqannachilar taslim bo'ladilar. Lekin istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan tandir ichiga tashlab, halok bo'lgan.

Xalifalikni larzaga solgan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon shu tariqa tugaydi. Bu qo'zg'olonning yengilishiga bir necha sabablar bor edi. Avvalo, qo'zg'olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qila olmadilar. Mahalliy zodagonlar alohida guruhni tashkil etib, keyinchalik umumiy xiyonat yo'liga kirib arablar tomoniga o'tib ketdilar. Uzoq davom etgan ko'rashlar qo'zg'olonchilarni holdan toydirdi, ularning iqtisodiy ahvolini nochor ahvolga keltirgan edi.

Muqanna rahbarligidagi «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, biroq u Movarounnahrda Arab xalifaligining mustamlakachilik ildizlariga bolta urdi. Istilochilarga qarshi mahalliy xalq harakati to'la to'xtab qolmadi. 806-yilda Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi yana qo'zg'olon ko'tarildi. Ushbu



qo'zg'olon Samarqandda boshlanib, Shosh, Farg'ona, Buxoro, Narshax, Xorazm va boshqa hududlarga ham tarqaldi va xalifalikni larzaga soldi. Xuroson noibi Ma'mun mahalliy zodagonlar – Somonxudot, uning nabiralari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyoslar yordami bilangina qo'zg'olonn bostira oldi.

Arablarga qarshi olib borilgan kurash behuda ketmadi. Asta-sekin xalifalikning hukmronligi zaiflashib, uning ta'sir doirasi qisqarib bordi. Bu hol Movarounnahr aholisining ozodlikka erishuvida muhim ahamiyat kasb etdi.

### **7-MAVZU: O'rta Osiyo xalqlari hayotida IX–XII asrlarda yuz bergan uyg'onish (renessans) davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi**

#### **Reja:**

- 1. O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi (renessans)ni ta'min etgan tarixiy shart-sharoitlar.**
- 2. IX–XII asrlarda ilm-fan ravnaqi.**
- 3. Badiiy adabiyot rivoji.**
- 4. Islom madaniyati va so'fiylik.**
- 5. Moddiy madaniyat. Binokorlik va me'morchilik.**

**Tayanch so'z va iboralar:** *Renessans*, «Sharq Uyg'onishi», «Bayt ul-hikmat», «Ma'mun akademiyasi», ilm-fan, O'rta Osiyoning buyuk allomalari, badiiy adabiyot, islom madaniyati, hadisshunoslik, tasavvuf ta'limoti, binokorlik, me'morchilik, maqbaralar, minoralar, masjidlar, madrasalar.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Каримов И.А.* Истиклол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 1994.
2. *Каримов И. А.* Илму маърифат зиёси ҳеч қачон сўнмайди. Хоразм Маъмун Академиясининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ // Халқ сўзи. 2006 йил 3 ноябрь.
3. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
4. *Абдунабиев А.* Вклад в мировую цивилизацию. – Т.: 1998.
5. *Абдулаҳатов Н., Ғозиев Т.* Бурҳониддин Марғилоний: тарихий ҳақиқат ва асотирлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2010.
6. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 101–103; 111–113; 122–123; 133–134; 147–150.
7. *Аҳмедов Б.* Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 37–51; 153–162.
8. Буюк сиймолар, алломалар (1–2 китоб). – Т.: Мерос, 1995, 1996.
9. *Жуманиязов М.* Маъмун академияси. – Урганч: 1994.



10. *Ирисов А.* Беруний ва Ҳиндистон. – Т.: Фан, 1963.
11. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар). – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001.
12. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т.: Шарқ, 2006.
13. *Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий.* Танланган асарлар. – Т.: Фан, 1983.
14. *Отахўжаев А.* Абу Али ибн Сино (рисола). – Т.: 2011.
15. *Отахўжаев А.* Абу Райҳон Беруний (рисола). – Т.: 2011.
16. *Садуллаев А.* Хоразм Маъмун академияси. – Хива: 2000.
17. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов.* Ўзбекистон тарихи. I қисм. Ўқув кўлланма. – Т.: 2002. – Б.132–151.
18. «Фан ва турмуш». 2006 йил, №1–3.
19. Хоразм Маъмун академияси. Илмий монографик тўплам. – Т.: 2005.
20. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 110–116.
21. *Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ.* Марказий Осиёда ислом маданияти. Қисқача маълумотнома / Маъсул муҳаррир Н. Иброҳимов. / – Т.: Шарқ, 2005.
22. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: 2006. – В.71–76.
23. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. – Т.: Sharq, 2010. – В. 220–285.
24. [http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi\\_uzk.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi_uzk.pdf)

**1. O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi (renessans)ni ta'min etgan tarixiy shart-sharoitlar.** Uyg'onish davri, Renessans – O'rta Osiyo, Eron, Xitoy (IX–XII va XV asrlar), G'arbiy Yevropada yuz bergan madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. «Renessans» (fransuzcha, renaissance – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq) atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuk-salish (XIV–XVI asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asr turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar. Birinchi marta «uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o'z asarlarida ishlatadi. «Uyg'onish», «uyg'onish davri» atamaları XIV–XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini anglatib, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan «tirilishi», «uyg'onishi» ma'nosida ishlatila boshladi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llanila boshladi.

Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr

oldin (IX–XII asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida «Musulmon Renessansi» (A. Mes) yoki «Sharq Uyg'onishi» (N.I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlari, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlar shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yaratdi.

VIII asrda Arab xalifaligi hududni fath etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib – qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning mafkurasi edi.

Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay, Movarounnahrda hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo'lib qoldi. Davlatni boshqarishda xalifalik ma'muriyati bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar ham oz bo'lib, borlari ham zaif edi. Bu hol o'z navbatida arab tili va yozuvini Movarounnahrda keng yoyilishiga imkoniyat yaratib berdi.

Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlar arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o'qishni odat tusiga, an'anaga aylantirdilar. Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shuning singari katta shaharlarda Movarounnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bag'dod shahri Sharqning ilm-ma'rifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. IX asrda bu shaharda xalifa Horun ar-Rashid hukmronligi davri (786–809) da «Bayt ul-hikmat» yoki «Xizonat ul-hikmat» («Hikmat xonasi»)ga asos solinib, xalifa Ma'mun hukmronligi davri (813–833)da «Bayt ul-hikmat»ning faoliyati yanada rivoj topgan, uning rasadxonasi va katta kutubxonasi bo'lgan (buyuk

matematik Muso Xorazmiy va astronom Ahmad Farg'oniylar shu yerda ishlagan). Sharqning fanlar akademiyasi hisoblangan *«Bayt ul-hikmat»* – o'zbekcha asarlarda *«Bilimdonlar uyi»* yoki *«Donishmandlar uyi»* deb yuritiladi.

Shu o'rinda XI asrda tashkil etilgan Xorazm Ma'mun akademiyasi haqida to'xtalib o'tishni muhim deb hisoblaymiz. X asr oxiri va XI asrning boshlarida xuddi Bag'doddagi *«Bayt ul-hikmat»* akademiyasiga monand ilmiy markaz tuzish, fan taraqqiyotiga xizmat qilish, uning samaralaridan foydalanishga intilish an'anasi Xorazmda hukmronlik qilgan Ma'muniylar (995–1017) sulolasi davrida ham davom ettirildi va yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Ma'lumki, 995-yilda Gurganj amiri Ma'mun ibn Muhammad Kot (305-yilda barpo etilgan)ni egallab, bu yerdagi afriq'iyalar sulolasiga barham berdi. U poytaxtni Kotdan Gurganch (Ko'hna Urganch)ga ko'chirib, o'zini Xorazmshoh deb e'lon qildi (995–997). Uning vorislari Ali ibn Ma'mun (997–999) va, ayniqsa, Ma'mun ibn Ma'mun (999–1017) davrida Gurganj ancha kengayib, unda madaniyat va san'at ravnaq topdi.

Ma'mun ibn Ma'mun o'z zamonasining bilimdon olimlariga e'tibor bilan qaraydi va ularning ilmiy izlanishlariga keng imkoniyatlar yaratishga harakat qildi. Bu paytda uning qarorgohi – Maydonsaroy Somoniylar davlatidagi notinchliklardan qiynalgan ko'plab olimlar to'planadigan ilmiy markazga aylanadi. Shu tariqa Ma'mun ibn Ma'mun tomonidan Gurganjda *«Dorul hikma va maorif»* (ba'zi bir manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasaga asos solindi. Shuni aytish lozimki, tarixiy manbalarda mazkur akademiyaning qachon tashkil topganligi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Biroq ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, u 1004-yilda tashkil topgan. XVIII–XX asr tarixchi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligini isbotladi. Shu asosda unga shartli ravishda *«Xorazm Ma'mun Akademiyasi»* deb nom berildi.

Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar rahbarlik qilgan ushbu ilmiy muassasa 1017-yilgacha faoliyat olib borgan bo'lsa-da, lekin u jahon ilmiy tafakkuri, madaniy va ma'naviy taraqqiyotining benazir hodisasi sifatida tarixda chuqur iz qoldirdi. Xususan, bu akademiyaning asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq (?–1036, riyoziyotchi va falakiyotshunos olim; «Batlimusi soniy») («Ikkinchi Ptolemey») degan faxriy nom olgan), Abulxayr ibn Hammor (941–1048, mantiqshunos; bundan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo'lgani uchun «Buqroti soniy») («Ikkinchi Gippokrat») laqabiga unvoniga sazovor bo'lgan), Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy (970–1011, tabib; Ibn Sinoning ustoz);

Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayx (1030-y. vafot etgan), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy an-Naysaburiy (961–1038); Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy (1015-y. vafot etgan), Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy al-Xorazmiy (X–XI asrlar) va boshqalar.

1997-yil 20-oktabr Xiva shahrining 2500-yilligiga bag'ishlangan tantanalarda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov Xorazmdagi Ma'mun akademiyasini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdi va 1997-yil 11-noyabrda imzo chekkan farmoniga binoan Xiva shahrida Ma'mun Akademiyasi qayta tashkil qilindi. Bu voqea o'zbek xalqi madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. O'zbekistonning taklifi va tashabbusi bilan UNESCO tomonidan Ma'mun Akademiyasi 1000-yilligini xalqaro miqyosda nishonlashda ishtirok etish haqida qabul qilingan qaror hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shunga muvofiq qarori asosida 2006-yil 2-noyabr kuni Xiva shahrida yubiley tantanalari va xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan Prezident Islom Karimov tantanali majlisda yorqin nutq so'zladi. O'z nutqida Prezidentimiz Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarixini va ilmiy merosini uzluksiz ta'lim jarayoniga kiritish haqida muhim taklifni o'rtaga qo'ydi.

O'rta Osiyo madaniyatining yuksalishiga yuqoridagi tarixiy jarayonlardan tashqari siyosiy jarayonlar ham ta'sir qildi. VIII asr oxiri – IX asr boshlarida bo'ysundirilgan xalqlarni mutlaq itoatda saqlab turish nafaqat xalifalik markazi ma'murlariga, balki o'lkalarga tayinlangan noib uchun ham tobora qiyinlasha boshladi. Bu davrda xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishiga majbur etdi. Birin-ketin O'rta Osiyoda Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib, o'z mustaqilligini tiklab olish imkoniga ega bo'ldi.

IX asrda Somoniylar davlatining tashkil topgandan so'ng XII asrga qadar asta-sekin Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlati vujudga keldi. IX–XII asrlarda O'rta Osiyoda ushbu mustaqil markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni ta'minladi.

Xalqaro maydonda katta e'tibor va nufuzga ega bo'lgan bu davlatlar Ahmad Nasr, Ismoil Somoniylar, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, Tug'rulbek, Sulton Sanjar Anushtegin, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida har tomonlama rivojlanib, madaniy taraqqiyotda yuksak

darajaga ko'tarildi. Chunki bu hukmdorlar davrida mamlakatda davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Natijada moddiy ishlab chiqarish rivoj topdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o'sdi.

**2. IX–XII asrlarda ilm-fan ravnaqi.** IX–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo'ldi. Bu davrda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, geografiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma'noda shu davrda qo'yildi.

#### JAHON FANI VA SIVILIZATSIYASIGA HISSA QO'SHGAN BUYUK ALLOMALARIMIZ

- ▶ Muhammad Muso al-Xorazmiy (783–850)
- ▶ Ahmad al-Marvoziy (780–880)
- ▶ Ahmad al-Farg'oniy (797–865)
- ▶ Abu Nasr Forobiy (873 – 950)
- ▶ Abu Bakr Muhammad Narshaxiy (899–959)
- ▶ Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997-yil)
- ▶ Abu Rayhon Beruniy (973–1048)
- ▶ Abu Bakr al-Xorazmiy (935–993)
- ▶ Abu Ali ibn Sino (980–1037)
- ▶ Mahmud az-Zamaxshariy (1075–1149)
- ▶ Burhoniddin Marg'inoniy (1123–1197)

#### Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy

(783, Xiva – 850, Bag'dod)

**Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** – o'rta osiyolik buyuk matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Dastlabki ma'lumotni Xiva shahrida olgan va yetuk olim bo'lib shakllangan. Bunda arab istilosidan so'ng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani an'analari asosiy rol o'ynagan.

Xalifa Horun ar-Rashidning o'g'li va uning Xuro-







Musa al-Xorazmiy «Algebra»  
qo'lyozmasining 1-sahifasi  
(Oksford, Buyuk Britaniya)

sondagi voliysi al-Ma'mun huzuriga – Marvga taklif etilgan. 819-yilda Bag'dodni egallagan al-Ma'mun turkistonlik olimlardan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Habash al-Hosib Marvaziy, Abul Abbos Javhariy va boshqalarni o'zi bilan olib ketib, o'ziga xos ilmiy jamoa tashkil etgan. Bu jamoa fan tarixidagi dastlabki rosmana akademiya deb qaraladigan ilmiy muassasa – «*Bayt ul-hikmat*» («Donishmandlik uyi») ning o'zagini tashkil etgan. Bu akademiya al-Xorazmiy yetakchi olim va ilmiy rahbar bo'lgan. U shu davrdan boshlab Bag'dodda al-Ma'mun (813–833), so'ng al-Mu'tasim (833–842), al-Vosiq (842–847) xalifaligi davrlarida yashab ijod etgan.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» – **algebraik asar**, «Hisob al-Hind» («Hind hisobi haqida kitob») yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» – **arifmetik asar**, «Kitob surat-ul-arz» («Yer surati haqida kitob») – **geografiyaga oid asar**. **Astronomiyaga oid asarlari:** «Zij» («Astronomik jadval»), «Kitob al-Amal Bil Usturlabat» («Usturlob bilan ishlash haqida kitob»), «Quyosh soati haqida risola». **Tarixga doir asarlari:** «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi»), «Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola».

Xorazmiyning algebraik risolasining to'liq nomi – «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala». Risolaning nomidagi «al-jabr» va «al-muqobala» so'zlari «to'ldirish» va «ro'para qo'yish» – o'rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. «*Aljabr*» so'zi lotincha transkripsiyada «algebra» bo'lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi. Xorazmiy nomi esa matematika fanida «algoritm» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi.



Xorazmiy haykali. Xiva shahri

Bugun umumbashariy madaniyatning eng oddiy unsuriga aylanib ketgan sonlarni o'nli sanoq sistemasida yozish va ular ustida arifmetik amallarni bajarish qoidalari al-Xorazmiyning «Hind hisobi haqida kitob» asari tufayli joriy bo'lgan.



Al-Xorazmiy «Zij»i o'rta asrlar fanidagi astronomiyaga oid dastlabki asar bo'lib, 37 bobdan iborat va 116 ta jadvalni o'z ichiga oladi. «Zij»da birinchi marta tangens funksiyasi kiritilgan. Al-Xorazmiy «Zij»i nazariy astronomiya va astronomik jadvallardan iborat bo'lib, arabcha qo'lyozmalari saqlanmagan, Maslama al-Majritiy (X asr) tomonidan qayta ishlangan variantning lotinchaga va yahudiychaga tarjimalari yetib kelgan.

Al-Xorazmiy «Kitob surat-ul-arz» («Yer surati haqida kitob») asarida geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan (iqlimlarning sonini 8 bo'lgan) farqli o'laroq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki 1 iqlimdan to 7 iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Al-Xorazmiyning «Kitob at-tarix» asarida Muhammad (as) hayoti bilan bog'liq sanalar, islom tarixidagi muhorabalar, Quyosh tutilishlari, 713-yil 10-mart kuni Antioxiya shaharida yuz bergan dahshatli zilzila, xalifalikdagi siyosiy hodisalar qayd etilgan. Afsuski, bu asar bizgacha yetib kelmagan.

### Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy

(taxm. 780–880)

**Ahmad al-Marvaziy** – Bag'dod ilmiy maktabida faoliyat ko'rsatgan yirik astronom va matematik olim bo'lib, u «Habash al-Hosib» («Habash hisobchi») laqabi bilan tanilgan. Uning ismidagi al-Marvaziy rutbasi esa muallifni hozirgi Turkmanistonning Bayram Ali shahri yaqinidagi Marvdan ekanligini ko'rsatadi. Olimning ismi va ba'zi asarlari o'rta asr mualliflaridan Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (1173–1248) va Hoji Xalifalar (1609–1657) tomonidan zikr etiladi. Jumladan, Ibn an-Nadim uni yuz yildan ortiq yashagan, deb ma'lumot berib, Marvaziyning yettita kitobining nomini sanab o'tgan. Ibn al-Qiftiy esa uning asli marvlik bo'lib, xalifa al-Ma'mun va al-Mu'tasim zamonida Bag'dodda faoliyat ko'rsatganligini aytadi. Olimning yashagan umrini Ibn al-Qiftiy yuz yillar atrofida, deb xabar beradi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Ahmad al-Marvaziy uzoq umr ko'rgan. Fan tarixiga oid bibliografik kitoblardan bu olimni 770–870-yillar mobaynida yashab o'tgan deb taxmin qilinadi. Ahmad al-Marvaziy «Zij» («Astronomik jadvallari») deb ataladigan «Damashq ziji» («az-Zij al-ma'ruf bid-Dimashqiy»), «Zij» (bu zij Bag'dod shahri uchun tuzilgan) va «al-Ma'munning tekshirilgan ziji» («az-Zij al-Ma'muniy al-mumtahan») asarlarining muallifidir.

Ibn al-Qiftiy al-Marvaziy «Shoh uchun zij» («az-Zij al-Shahiy») nomli yana bir kichik hajmdagi risolaning ham muallifi, deb ko'rsatgan. Lekin bu risola yuqorida zikr etilgan «zij»larning birortasi bo'lishi mumkin. «Damashq ziji» hozirda Istanbulda saqlanmoqda.

### Ahmad al-Farg'oniyy

(taxm. 797–865)



**Ahmad al-Farg'oniyy** (to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniyy) – astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan o'zbek qomusiy olimi. Al-Farg'oniyy Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan. Sharqda al-Farg'oniyy, Yevropada Alfraganus taxalluslari bilan mashhur. Uning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida juda oz ma'lumotlar yetib kelgan. Ahmad al-Farg'oniyy hayoti, ilmiy izlanishlari va kamoloti Abbosiylar sulolasi hukm surgan, Arab xalifaligi jahonning eng yirik saltanatlaridan biriga aylanib, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan kelgan ko'plab mutafakkirlar muhim o'ringa ega bo'la boshlagan tarixiy davrda kechdi.

Ahmad al-Farg'oniyy Xalifa Xorun ar-Rashid (786–809) vorislari al-Ma'mun (813–833), Mu'tasim (833–842) va Mutavakkil (846–861) hukmronlik qilgan davrda yashadi hamda avval Marv, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmi hay'at falakiyotshunoslik (astronomiya), riyoziyot (matematika) va jug'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi hamda qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi.

Ahmad al-Farg'oniyyning ijodiy faoliyati Bag'dodda ulug' mutaffakir olim al-Xorazmiy rahbarligidagi «Bayt ul-hikmat» bilan bog'liq. U arab atamashunosligining paydo bo'lishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Bag'dod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashdi. Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlariga ko'ra, al-Farg'oniyy Suriya shimolida, Sinjor sahosida 832–833-yillar Tadmur va ar-Raqqa oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda ishtirok etgan.

Ahmad al-Farg'oniyyning hayoti va ilmiy hamda amaliy faoliyati to'g'risidagi eng so'nggi ma'lumot 861-yilga tegishdi. O'sha yili Abbosiy xalifa Abul Fazl Ja'far al-Mutavakkil (hukmronlik yillari 847–861-y.) buyrug'iga binoan Nil daryosidagi

suv sathini o'lcaydigan inshoot barpo etish uchun Misrning Qohira yaqinidagi Fustat shahriga keladi. Ilmiy-texnik va me'moriy jihatdan g'oyat ulug'vor bu qurilma Nil daryosining **Sayyolat ul-Rod mavzesida** hozirga qadar saqlanib qolgan.

Hozirgi kunda al-Farg'oniyning 7 ta asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir:

➤ «Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi»). Odatda bu asarni «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi va qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. Ushbu asar 1145- va 1175-yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima etiladi. Shundan so'ng Ahmad al-Farg'oniyni nomi lotinlashtirilib, «Alfraganus» shaklida G'arbda shuhrat topdi.

➤ Al-Farg'oniyning «Usturlob yasash haqida kitob» – qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Narij va Tehron kutubxonalarida saqlanadi.

➤ «Usturlob bilan amal qilish haqida kitob» – birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston) saqlanadi.

➤ «Al-Farg'oniyni jadvallari» – qo'lyozmasi Patnada (Hindiston) saqlanadi.

➤ «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola» – qo'lyozmalari Gota va Qohirada saqlanadi.

➤ «Quyosh soatini yasash haqida kitob» – qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi.

➤ «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan.

1998-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Ahmad al-Farg'oniyning 1200-yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Farg'ona shahrida alloma nomi bilan ataladigan istirohat bog'i va qadimgi Quva shahrida Ahmad al-Farg'oniyni haykali o'rnatildi. UNESCO ning 1998-yildagi tadbirlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ahmad al-Farg'oniyni tavalludining 1200-yilini nishonlash to'g'risida»gi qarori (1997-yil 27-noyabr)ga ko'ra alloma hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy ko'rgazmalar o'tkazildi, yangi kitoblar nashr etildi, spektakllar sahnalashtirildi, filmlar suratga olindi.



**Ahmad al-Farg'oniyni  
haykali. Farg'ona**

## Abu Nasr Forobiy

(873–950)



**Forobiy** (taxallusi; to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy) – O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun «Al-muallim as-soniy» («Ikkinchi muallim», Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» nomlariga sazovor bo'ldi. Forobiy Sirdaryo sohilidagi Forob (O'tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. O'sha davrda Movarounnahrda somoniylar sulolasi

hukmronlik qilgan. Bo'lajak faylasuf boshlang'ich bilimini O'trorda olgandan so'ng, o'qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Forobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag'dodga yo'l oladi. Olim yo'l-yo'lakay Eronning yirik shaharlari Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo'ladi. Bag'dodda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to'plangan edi. Bu yerda ko'zga ko'ringan olim-u fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o'rgandi. Masalan, Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870–940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860–920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o'rgandi. Ba'zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Taxminan 941-yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug'ullangan. U Halab (Aleppo) hokimi Sayfud – davla Hamdamid (943–967) iltifotiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e'tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko'nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko'radi.

Forobiy 949–950-yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Forobiy 160 dan ortiq asar yozgan, lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Allomaning asosiy asarlari: «Falsafani

o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Ensiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi», «Taliqot» (sharhlar), «Inson a'zolari haqida risola», «Bo'shliq haqida maqola», «Donolik asoslari», «Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi», «Hayvon a'zolari, funksiyasi va potensiyasi», «Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima», «Mantiq ilmiga kirish», «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Musiqqa haqida katta kitob», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Masalalar mohiyati», «Buyuk kishilarning naqllari», «Ihsos al-ulum», «Hikmat ma'nolari», «Aql to'g'risida», «Ilmlar va san'atlar fazilati», «Qonunlar haqida kitob», «Substansiya haqida so'z», «Falak harakatining doimiyligi haqida», «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Ritorika haqida kitob», «Hajm va miqdor haqida so'z», «Musiqqa haqida so'z», «Fizika usullari haqida kitob», «Fazilatli xulqlar», «Fozil shahar aholisining fikrlari», «Jismalar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida», «Aristotel «Metafizika» kitobining maqsadi to'g'risida» va boshqalar.

Forobiy asarlari XX asrning 70–80-yillarida Toshkent va Olmaotada «Falsafiy risolalar», «Mantiqiy risolalar», «Matematik risolalar», «Ijtimoiy-axloqiy risolalar», «Tadqiqotlar va tarjimalar» nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

### **Abu Bakr Muhammad Narshaxiy**

(899–959)

**Narshaxiy**, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyya al-Xattob ibn Sharik an-Narshaxiy – tarixchi olim. Buxoroning (hozirgi Vobkent tumanida) Narshax qishlog'ida tug'ilgan. Tarjimayi holiga oid ma'lumotlar kam. Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943–944-yillarda «Buxoro tarixi» nomli asarini arab tilida yozib, uni somoniylar amiri Nuh ibn Nasr (hukmronlik davri 943–954)ga bag'ishlagan. Asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotlarda «Tarixi Narshaxiy», «Taxqiq ul-Viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarning turli nomlar bilan atalishiga ham sabablar bor. Bu asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning bizgacha yetib kelgan qismi 1128-yilda Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Undan keyingi yillarda ham Narshaxiyning asari bir necha tahrirlarga uchragan, ba'zi matnlari qisqartirilgan va so'nggi voqealar asosida to'ldirilgan. Abu Nasr Ahmad Qubaviy asar matnini qisqartirish bilan chegaralanmay balki Tabariy,



Abu Hasan Nishopuriyning «Hazo'iq ul-ulum», Ibrohimning «Axbari Muqanna» kabi asarlaridan foydalanib uni to'ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o'tgan davrdan keyingi, 1178–1179-yillardan 1220-yillarga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

«Buxoro tarixi» asari o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi kunda Somoniylar davri tarixi bo'yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo'zg'oloni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar ham bu asarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo'lganligi sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga chiqishini qoralagan.

### **Abu Abdulloh al-Xorazmiy**

(vafoti 997)

**Xorazmiy**, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy (X asr) – tarixchi. Balxda tug'ilgan, somoniylar amiri Nuh ibn Mansur saroyida xizmat qilgan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u «Al-kitob al-Xorazmiy» nomi bilan ham tanilgan. Somoniylar vaziri Utbiyga atab qomusiy asar «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kaliti») nomli asar yozgan. Asarda arab tilida ko'p ishlatiladigan atamalarning izohlari berilgan. Atamalar fanlar bo'yicha alohida-alohida bo'lim (15 bo'lim) qilib berilgan. Ayniqsa, ma'muriy masalalarga (ish yuritish, soliqlar tartibi masalalari, suvdan foydalanish, shuningdek, ob-havo) oid bo'limlari muhim tarixiy ahamiyatga ega.

### **Abu Rayhon Beruniy**

(973– 1048)

**Beruniy**, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad – ulug' o'zbek mutafakkir olim, o'rta asrning buyuk daholaridan. O'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma'danshunoslik fanlarini puxta egallagan. U Urganch shahridan 120 km na-



ridagi qadimgi janubiy Xorazmning poytaxti Kot (hozirgi Beruniy) shahri yaqinida tug'ilgan. Uning nasl-nasabida «Berun» so'zi «tashqi shahar», «Beruniy» esa «tashqi shaharda yashovchi kishi» ma'nosini bildiradi.

Beruniyning ilm-fanga qiziqishi yoshligidanoq kuchli bo'lgan. Mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur qo'lida ta'lim oladi. Ibn Iroq falakiyot va riyoziyotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, sog'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi.



O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro etgan. Abu Rayhon Beruniy 17 yoshligidanoq Kotda mustaqil astronomik kuzatishlar olib bordi. O'shanda u Kotning geografik kengligini o'lchadi. 994-yili, 21 yoshligida, ekliptika tekisligini ekvatorga qanchalik qiyaligini o'lchab berdi, dunyoda birinchi bo'lib globusni ixtiro qildi. Biroq Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois, 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi – sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozini tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi. O'sha vaqtda Kaspiy oldi viloyatlarida ziyoliylar sulolasi (928–1042) hukmronlik qilgan; bu sulolaning vakili Qobus ibn Vashmgir (1012-yil o'ldirilgan) yosh olimni o'z himoyasiga oladi. Yoqut Hamaviyning yozishicha, Qobus ibn Vashmgir Beruniyga vazirlik lavozimini taklif qilgan, lekin olim bunga rozi bo'lmagan.

Beruniy amir Qobusga bag'ishlab «*Al-osor al boqiya an al-qurun al-holiya*» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshladi va bu asarni 27 yoshida, 1000-yili yozib tamomladi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy 1005-yillarda Xorazmga qaytadi va so'ngroq uni yangi hukmdor Ali Abbos Ma'mun II saroyga yaqinlashtiradi. O'sha davrda Urganchda Xorazmshoh saroyida ko'p mashhur olimlar to'planib, fanning turli sohalarida ilmiy ishlar olib borgan. «Ma'mun akademiyasi» deb nomlanadigan bu anjuman faoliyatida Beruniy muhim

rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashdi.

Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari ham uning Xorazmda turgan davrida bo'lgan. Ularning savol-javoblaridan va Beruniyning Ibn Sinoga yozgan e'tirozlaridan bizgacha faqat 18 tasi yetib kelgan. Bu yozishmalar uning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan ham qiziqqanini ko'rsatadi. Bu savol-javoblarda ikki mashhur olim fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borgan. Abu Rayhon Beruniy 1016-yil Kot shahrida yashab turganida birinchi bo'lib Sharq olamida dastlabki ilmiy globusni yasagan (P.G. Bulgakov uni 995-yilda yasalgan deb yozgan). U faqat Shimoliy yarim shardan iborat eng birinchi bo'rtma (relyefli) globus bo'lib, aholi yashaydigan joylar aniq ko'rsatilgan.

Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan (1017) bosib olingach, Beruniy Xorazmshoh saroyidagi boshqa bir qancha olimlar bilan birgalikda G'azna shahriga olib ketildi. Beruniyning G'aznadagi davri uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi.

Beruniyning «*Xorazmning mashhur kishilari*» asari ham shu davrda yara-

Beruniyning «Al-Qonun al-Mas'udiy» («Mas'ud qonun») asaridagi qo'zg'almas yulduzlar koordinatalari

tilgan. Uning geodeziyaga oid muhim asari «*Taxdid nihoyot il-amokin li tashih masofot il-masokin*» («Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash») 1025-yil 18-noyabrda yozib tugatilgan. Bu asarning birdan bir qo'lyozmasi Istanbulda, birinchi marta rus tiliga shu qo'lyozmadan «Geodeziya» nomi bilan tarjima qilindi. «Geodeziya» Beruniyning dunyoqarashini belgilashda boy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

«*Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar*» asari ham 1029-yil G'aznada yozilgan. Asarning forscha va arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o'sha zamon astronomiyasi bilan bog'liq bir qancha fanlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Beruniyning mashhur «Hindiston» asari – «Tahqiq molil – Hind min ma'qula maqbula fil-aql av marzula» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi») 1030-yilda yozilgan.

U amaliy astronomiya masalalari ustida ham juda ko'p shug'ullanar edi. Beruniy 1029 ta yulduzning koordinatalari va kattaliklari qayd etilgan jadvalni tuzgan. Beruniyning astronomiyaga oid «*Al-Qonun al-Mas'udiy*» («Mas'ud qonuni») asarini sulton Mas'udga bag'ishladi. Kitobning qachon yozib tugatilgani aniq emas. Bu asar Beruniyning falakiyotga doir eng muhim asaridir. O'rta asr olimlari bu asarni juda yuksak baholagan. Shundan keyin u yana ikkita muhim kitob yozgan.

Bulardan biri «*Mineralogiya*», ya'ni «*Kitob al-jamohir fi ma'rifat al-javohir*» («Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami»). Asarda qimmatbaho toshlar haqida nazariy ma'lumotlar bo'lib, ularni ishlash usullari va ular bilan qanday savdo qilish kabi juda ko'p amaliy masalalarni ham yoritib berilgan. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, Yevropada mineralogiya sohasidagi eng yaxshi asar hisoblangan.

Uning oxirgi asari – «*Kitob saydana fi-t-tib*» («Dorivor o'simliklar haqida kitob») qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar «Saydana» nomi bilan mashhur bo'lib, Sharq, xususan, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifi berilgan. «Saydana»da yig'ilgan 1116 ta dori moddaning 107 tasini ma'daniy moddalar, 880 tasini o'simliklar, 101 tasini hayvoniy moddalar, 30 ga yaqinini murakkab dorilar tashkil etadi. Bu dorilarning turli til va lahjalardagi nomiga Beruniy alohida ahamiyat beradi, chunki o'sha davrdagi tibbiy adabiyotda bu borada juda ko'p xato va chalkashliklar mavjud.

Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod qilgan. Uning ilmiy merosi juda keng va rang-barang. Ilmiy ish sohasidagi zo'r qobiliyati uning ko'pchilik zamondoshlari va keyingi davr olimlari tomonidan e'tirof etilgan. 1035–1036-yillarda Beruniy o'z ilmiy ishlarining ro'yxatini tuzadi. Bunda shu vaqtgacha yozgan kitob va risolalari 113 taga yetgani ko'rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarini ham qo'shsak, u qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat. Uning asarlari mavzu jihatdan turli-tuman. Ko'pchilik asarlari o'z zamonasida o'ziga xos bir ensiklopediya hisoblangan. Asarlarining 70 tasi falakiyot, 20 tasi riyoziyot, 12 tasi geografiya va geodeziya, 3 tasi ma'dansunoslik, 4 tasi xaritagrafiya, 3 tasi iqlimshunoslik, bittasi fizika, bittasi dorishunoslik, 15 tasi tarix va elshunoslik, 4 tasi falsafa, 18 tasi adabiyot va boshqa fanlarga oiddir. Beruniy turli tillardan bir qancha ilmiy va adabiy asarlarni tarjima ham qilgan. Afsuski, hozircha olimning faqat 28 ta



Beruniy ijtimoiy nazariyalar sohasida ham samarali ijod etdi, bu sohalar rivojiga hissa qo'shdi. U «Kitob fi axborot il-mubayyizot val-qaromita» («Oq kiyimliklar va qarmatiylar xabarlarini haqida kitob») asarini O'rta Osiyoda o'sha davrda eng ilg'or ijtimoiy harakatlardan biri bo'lgan qarmatiylarga bag'ishlagan. Ijtimoiy sohada «Kitob ul-maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob») asari ham bo'lgan. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Beruniyning tarix sohasida quyidagi asarlari ham ma'lum bo'lib, ammo bu asarlari ham bizgacha yetib kelmagan:

- «Kitob fi axbori Xorazm» («Xorazm xabarlarini haqida kitob») asari.
- «Kitob tarixi ayyom as-Sulton Mahmud va axbori abihi» («Sulton Mahmud davri tarixining kitobi va otasi haqidagi xabarlar») nomli asari.

### Abu Bakr al-Xorazmiy

(935–993)

**Abu Bakr al-Xorazmiy** 323 hijriy (935 milodiy) – yili Xorazmda tug'ilib, ilk ta'limni shu yerda oladi. Umrining gullagan davrida (20–25 yoshlarida) vatandan chiqib, Iroq va Shomga boradi, yetuk olim va shoirlar bilan tanishib, ulardan ta'lim oladi. Keyin Halabga borib, mashhur Hamdamiylar amiri, shoir va olimlar homiysi Abulhasan Sayfuddavla (944–967) bilan tanishib, uning saroyida xizmat qilib, so'ng Buxoroga keladi. Somoniylar saroyida yashab, vazir Abu Ali al-Bal'amiy (960–974 va 992–996) bilan do'stlashadi, lekin u bilan munosabati yomonlashib, Nishopurga yo'l oladi. Bu yerdagi taniqli shoirlar Abulhasan al-Kazviniiy, Abu Mansur al-Bag'aviy va Abulhasan al-Hakamiylar bilan do'stlashib, ularning shoirlik mahoratidan bahramand bo'ladi.

Umuman Xorazmiyning umri fojialar va rohatbaxsh etuvchi onlarga to'la. U turli shaharlarda bo'lib, qamoqda ham yotib chiqadi, amirlarning e'tiboriga tushib boylik ham orttiradi, amaldorlarning g'azabiga uchraydi va h.k. Abu Bakr al-Xorazmiy Nishopurga kelib, bu yerda muqim yashay boshlaydi. Talabalarga saboq beradi, she'r yozishni o'rgatadi, nishopurlik mashhur adib, shoir va olimlar, shular qatori as-Saolibiiy bilan do'stlashib, ularning majlislarida ishtirok etadi. Somoniylar vaziri al-Utbiy siquvidan qutulish uchun qochishga majbur bo'ladi. Shoir bir necha vaqtdan so'ng yana Nishopurga qaytadi, umrining oxirida yakkalanib qoladi va hayotining keyingi davri og'ir musibatlar bilan o'tadi. U hijriy 383 (milodiy 993)-yili Nishopurda vafot etdi.



Abu Bakr al-Xorazmiyning adabiy merosidan arab tilidagi katta devoni va «Risolalari» bizgacha yetib kelgan. Abu Bakr al-Xorazmiy «Risolalari» X asr nasriy adabiyotining mashhur yodgorligi hisoblanadi. Til va uslub jihatdan nihoyatda puxta ishlangan bu asar saj' (qofiyali nasr) bilan yozilgan bo'lib, zamonasidagi mashhur kishilar: amir, vazir, lashkarboshi, qozi, amaldor, faqihlarga, adib va tilshunos olimlarga, ya'ni al-Xorazmiyning do'stlari va homiylariga yozilgan xatlardir.

Risolalar mazmuni turli bayramlar, yuqori martabaga ko'tarilish va biror muvaffaqiyatni qo'lga kiritish, o'lim, mansabdan chetlatilish, kasallik yoki urush xavfi kabi munosabatlar bilan tabrik yoki qayg'u izhor etib, tasalli berish, tuhfalarni uchun tashakkur aytish kabilardir. Risolalar orasida al-Xorazmiyning o'z shogirdlariga yozgan maktublari ham ko'plab uchraydi.

### Abu Ali ibn Sino

(980–1037)



**Ibn Sino**, Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali – jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'rta osiyolik buyuk qomusiy olim. G'arbda Avisenna nomi bilan mashhur. Zamondoshlari Ibn Sinoni «Shayx ar-ra'is» («Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i»); «Sharaf al-mulk» («O'lka, mamlakatning obro'si, sharafi»), «Hujjat al-haq» («Rostlikka dalil»); «Hakim al-vazir» («Donishmand, tadbirkor vazir») deb ataganlar.

Ibn Sino Afshona (hozirgi Buxoro viloyati Romiton tumani hududida) qishlog'ida 370-yili safar (980-yili avgust) oyida tug'ildi. Otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967–997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Xurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlangan. U Afshona qishlog'ida Sitara («Yulduz») ismli qizga uylanib, ikki o'g'il farzand ko'rdi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, 985-yili Ibn Sinolar oilasi poytaxt – Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradi. 10 yoshga yetar-yetmas Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi.

Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. Uning tib (tabiiyot) ilmidagi yuksak mahoratga erishishida buxorolik boshqa bir tabib Hasan



Ibn Nuh al-Qumriy (to'liq nomi Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriy)ning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. O'sha kezlarda hukmdor Nuh ibn Mansur betob bo'lib, yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taqlif qiladi. Uning muolajasidan bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shunday qilib, Ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda oldi. Olimning ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlandi. U Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, «Urjuza» tibbiy she'riy asari, o'z qo'shnisi va do'sti Abul-Husayn al-Aruziyning iltimosiga binoan, ko'p fanlarni o'z ichiga olgan «Al-Hikmat al-Aruziy» («Aruziy hikmati») asarini ta'lif etdi. Undan tashqari, boshqa bir do'sti faqih Abu Bakr al-Barqiy (yoki Baraqiy)ning iltimosiga ko'ra, 20 jildli «Al-Hosil val-mahsul» («Yakun va natija») qomusiy asari hamda 2 jildli «Kitob al-bir val-ism» («Saxovat va jinoyat kitobi»)ni yozdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Ibn Sino faoliyat ko'rsatgan davrda ikki sulola (Qoraxoniylar va Somoniylar) tarix sahnasida hukmronlik uchun kurash olib bormoqda edi. Mamlakatdagi bunday beqarorlik fan arboblarning faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Shu bois Ibn Sino o'z yurtini tark etib Xorazmga bosh olib ketdi. Bu davrda Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch)da zamonasining ko'pgina taniqli olimlari to'plangandi. Yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq (1034-yil vafot etgan), atoqli tabib va faylasuflar Abu Saxl Masixiy (1010-yilda vafot etgan), Abul-Xayr Xammor (942–1030) va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shular jumlasidan. Ana shu ilmiy davraga 1005-yil Ibn Sino ham kelib qo'shildi. Xorazmda Ibn Sino asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullandi. Ammo olimning tinch ijodi bu yerda ham ko'pga cho'zilmadi. Sharqda qudrati ortib borayotgan G'azna hukmdori sulton Mahmud G'aznaviy bu o'lkaga ko'z tikadi. U, avval, Ma'munga saroydagi bir guruh olimlarini G'aznaga jo'natib yuborishni so'rab xat yozadi. Bu xatga javoban Beruniy va Abul-Xammor G'aznaga ketadi. Ibn Sino esa bu taqlifni rad etib, Masihiy bilan birgalikda 1010–1011-yillarda yashirincha Xorazmni tark etdi.

Shu vaqtdan olimning sargardonlik yillari boshlanib, umrining oxirigacha vatandan uzoqda hayot kechirishga majbur bo'ldi. Masihiy bilan Ibn Sino Jurjonga – Masihiyning vataniga yo'l oldi. Lekin yo'ldagi qiyinchiliklar va suvsizlik tufayli



Masihiy betob bo'lib, vafot etdi. Natijada, Ibn Sino azob-uqubatlar chekib, avval Niso, so'ng Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlarida qisqa muddat turgach Kaspiy dengizining janubiy sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keldi. Jurjon (Go'rgon arabcha Jurjon – Erondagi shahar)da 1012–1014-yillarda yashadi, lekin shu qisqa vaqt ichida uning hayotidagi muhim voqealardan biri – Abu Ubayd Juzjoniy bilan uchrashuv va bir umrga do'stlashuv sodir bo'ldi. U Ibn Sinoga nafaqat shogird, balki sodiq do'st ham edi. Ular olimning so'nggi damigacha, – 25 yil davomida birga bo'ldi. Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pgina asarlarining ta'rihi va tartibga tushishi hamda ularning keyingi avlodlarga kelishida Juzjoniyning xizmati katta.

Jurjondalik vaqtida Ibn Sino ham ilmiy ijod bilan shug'ullandi, ham tabib sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda u shogirdining iltimosiga ko'ra, mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir nechta risola yozdi va eng muhimi «Tib qonunlari»ning dastlabki qismlarini yaratdi. 1014-yil olim Jurjonni tark etib, Rayga ko'chdi.

Lekin olim Rayda ham uzoq turolmadi, chunki Sulton Mahmud G'aznaviyning Rayga ham hujum qilish xavfi bor edi. Shu bois Ibn Sino Rayni tark etib, nisbatan kuchliroq bo'lgan Hamadonga, Majduddavlaning akasi Shamsuddavla (997–

1021) huzuriga ketadi. Hukmdorni sanchiq kasalidan davolaganidan keyin olimni saroyga taklif qiladilar. U avval saroy tabibi bo'lib ishlaydi, so'ng 1019–1021-yili Hamadonda vazirlik lavozimini o'taydi. Davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay ilmiy ishlarini ham davom ettiradi va qator asarlar yaratadi. «Tib qonunlari»ning 1-kitobini tugatib, o'zining mashhur falsafiy qomusi – «Kitob ash-shifo»ni ham shu yerda 40 yoshlarda yozishga kirishadi. «Tib qonunlari»ning qolgan qismini ham Hamadonda yozib bitiradi.

Ammo Shamsuddavla vafot etgach, uning o'g'li yangi hukmdor Samodavla va uning saroy amaldori Toj al-Mulk bilan kelisha olmay o'rtada nizo yuzaga keldi. Natijada ibn Sino do'stlari orasida yashirinib yurishga majbur bo'ldi va hatto zindonga tashlandi. Isfahon hukmdori Alouddavla Hamadonni



Ibn Sino olimlar kengashida

bosib olgach, u zindondan (4 oy qamoqda yotgan) ozod qilindi. Hamadonda 1023-yilgacha istiqomat qiladi. Shu yili Isfahonga jo'nab ketadi. Umrining qolgan 14 yilini shu yerda o'tkazdi. Ibn Sinoning tashrifi munosabati bilan uning ishtirokida Isfahon amiri buyrug'i asosida hukmdor saroyida haftaning har juma kunlari olimlar kengashi – «*Majlisi ulamo*» yo'lga qo'yildi. Isfahonda ham u tinimsiz ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lib, bir qancha asarlar yaratdi. Ular orasida tib, falsafa, aniq fanlar, tilshunoslik kabi fanlarga oid kitoblar bor. «Kitob ash-shifo»ning qismlari, fors tilidagi falsafiy asari «Donishnoma» («Kitob ash-shifo» asarining qisqartirilgan nusxasi bo'lib, 1031–39-yillarda yozilgan deb taxmin qilinadi) va 20 jildli «Insof-adolat kitobi» shular jumlasidan.

Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino garchi, jismonan juda baquvvat bo'lsa-da, biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, kecha-kunduz tinim bilmay ishlash va bir necha bor ta'qib qilinib, hatto hibsdan yotishlar olimning salomatligiga jiddiy ta'sir etdi. U qulanj (kolit) kasalligiga chalindi. Alouddavlaning Hamadonga yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay u bilan birga safarga chiqdi. Yo'lda dardi qo'zg'ab olimning tamomila madori quriydi va oqibatda u shu darddan 42-xijriy yilning ramazon oyida, 1037-yilning 18-iyun 57 yoshida vafot etdi. Olim Hamadonda dafn etildi. Uning qabri ustiga 1952-yil maqbara ishlangan (me'mori X. Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag'ishlangan muzey xonalari ham o'z ichiga oladi.

Olimning ilmiy merosi haqida manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan lekin bizgacha ularning 160 tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo'lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan. Lekin bu asarlarning hammasi ham olimlar tomonidan bir xilda o'rganilgan emas. Olimning fors tilida yozgan bir necha g'azal va qit'alari, 40 dan ortiq ruboiylari ham mavjud.

### *Olimning falsafaga oid asarlari:*

➤ Eng yirik va muhim asari «Kitob ash-shifo»dir. U 4 qismdan iborat: mantiq, tabiiyot, riyoziyot, metafizika yoki ilohiyot.

➤ «Kitob an-najot» («Najot kitobi») asari «Kitob ash-shifo»ning qisqartirilgan shakli.

➤ Al-ishorat vat-tanbihot» («Ishoralar va tanbihlar») asari.

➤ «Hikmat al-mashriqiyn» («Sharqchilar falsafasi») asari.

➤ «Kitob al-ishorat fil-mantiq val-hikmat» («Mantiq va falsafaning ishoralari») asari.

➤ «Donishnoma» («Bilim kitobi») asari fors tilida yozilgan. «Donishnoma» 4 bo'lim: mantiq, metafizika (ilm ul-ilohiy), fizika va matematika (riyoziyot) dan iborat.

***Falsafiy mazmundagi badiiy qissalari:***

- «Tayr qissasi».
- «Salomon va Ibsol».
- «Hayy ibn Yaqzon».
- «Yusuf haqida qissa».

***Musiqaga oid asarlari:***

➤ «Javome' ilm ul-musiqiy» («Musiqqa ilmiga oid to'plam») asari «Kitob ash-shifo»ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat.

➤ «An-Najot», «Donishnoma»larda musiqqa haqida kichik bo'limlar ham mavjud, «Tib qonunlari», «Risolai ishq» va boshqalarida musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan.

***Geologiya va minerologiyaga oid asari:***

- «Al-Af'ol val-infiolot» («Ta'sir va ta'sirlanish») asar.

***Kimyoga oid asari:***

➤ «Risola as-san'a ilal-Baraqiy» («Baraqiyga atab san'at (al-kimyo) ga doir risola») nomli kichik asari. Bu asarni Ibn Sino 21 yoshida, ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va mutaqqaddim kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida yozgan;

➤ Risola al-iksir» («Iksir haqida risola») asari. Ibn Sino 30 yoshlarga borib, ilmiy tajribasi ortgan yosh olim metallar transmutatsiyasi sohasidagi urinishlarning zoye ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va ushbu asarini yozib, unda kimyoviy yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi.

***Botanikaga oid asari:***

➤ «Kitob ash-shifo»ning «An-nabot» («O'simliklar») qismida o'simliklarning turlari, paydo bo'lishi, oziqlanishi, o'simlik a'zolari va ularning vazifalari, ko'payishi hamda o'sish sharoitlari haqida bo'lib, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ham ish olib borilgan.

Ibn Sinoning tib (tibbiyot)ga oid 30 dan ortiq asari bizgacha yetib kelgan. Arab tilida yaratilgan 5 kitobdan iborat bo'lgan (jildli) «Tib qonunlari» (asl nomi «Kitob al-Qonun fi-t-tib») – Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asosiy asaridir. «Tib qonunlari» o'z davridagi tabobatning mufassal ensiklopediyasi bo'lib, unda inson sog'ligi va kasalliklariga oid masalalar mantiqiy tartibda to'la bayon etilgan. Ibn Sino «Tib qonunlari»ning 1-kitobini Jurjonda, qolganlarini esa Ray va Hamadonda yashagan vaqtida yozgan (1015–1024).



Abu Ali ibn Sinoning «Kitob al-Qonun fi-t-tib» asari

Olim tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi risolalari ham bo'lib, bunga quyidagilarni aytish mumkin:

- «Urjuza fi-t-tibb» («Tibbiy urjuza») nomli she'r bilan ifodalovchi risolasi.
- «Al-Adviyat al-qalbiya» («Yurak dorilari»). Bu risolasidagi barcha oddiy dorilarni (65 ta) o'z asariga kiritgan, ba'zi oddiy yurak dorilarini Ibn Sino kashf etganligini yozadi.
- «Daf' al-madorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya» («Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish»).
- «Kitob al-qulanj» («Qulanj haqidagi kitob»).
- «Maqola fi-n-nabz» («Tomir urishi haqida maqola»).
- «Risola fi-l-boh» («Shahvoniy quvvat haqida risola»).
- «Risola fi tadbiri al-musofirin» («Safardagilarning tadbiri haqida risola»).
- «Risola fi xifz as-sihha» («Sog'liqni saqlash haqida risola»).
- «Risola fi-s-sikanjubin» («Sikanjubin haqida risola»).
- «Risola fi-l-fasd» («Qon olish haqida risola»).
- «Risola fi-l-hindabo» («Sachratqi haqida risola»).

Ibn Sino o'z davridagi ilmlar tasnifi masalasiga ham jiddiy e'tibor bilan qaradi va bu sohada «Aqsom al-ulum al-aqliya» («Aqliy ilmlar tasnifi») nomli asar yozdi. Unda olim aqliy ilmlarni hikmat – falsafa ilmlari deb olib, ularni nazariy va amaliy qismlarga bo'ldi.



## Mahmud az-Zamaxshariy

(1075–1144)

**Zamaxshariy** (nisbasi; to'liq ism-sharifi Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad) – tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi. Buyuk mutafakkir arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqh (qonunshunoslik)ka oid 50 dan ziyod noyob asarlarning muallifidir. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Zamaxshariy ko'p asarlarini Makkada yozadi. Shu boisdan u Jorulloh («Allohning qo'shnisi») degan sharaflı nomga muyassar bo'lgan.

Zamaxshariyning ilmiy merosi boy bo'lib, jumladan quyidagi asarlari qayd etiladi:

➤ «Al-Mufassal» («Grammatika bo'yicha mufassal kitob», 1121) asari arab tili nahvu sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham shuhrat topgan. «Al-Mufassal»ning ixchamlashtirilib, muxtasar holatga keltirilgan nusxasi «Al-Un-muzaj» («Namuna») nomi bilan ataladi.

➤ «Sharh abyat kitob Sibavayh» («Sibavayh kitobining sharhi») – grammatikaga oid asarlaridan biri bo'lib, arab tilshunosi Sibavayh (796-yil vafot etgan) ning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir.



Mahmud az-Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adib» asari (XII asr)

➤ «Muqaddimat ul-adab» («Adab ilmi-ga muqaddima», 1137). Bu asar Otsiz Xorazmshohga bag'ishlab yozilgan. Asaridagi arabcha so'zlar ostida forsiy va turkiy tarjimalarning berilishi o'zbek tarixiy leksikologiyasi uchun qimmatlidir. Asar 5 katta qismga bo'lingan bo'lib – otlar, fe'l-lar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi.

➤ «Al-Mustaqso fil-amsol» («Kamolga yetgan maqollar») – 3500 ga yaqin arab maqollarini to'plab, ularni izohlagan.

➤ «Kitob al-jibol val-amkina val-miyoh» («Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob») asarida geografik joylar, tog'lar va dengizlarga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

➤ «Asos al-balog'at» («Notiqlik asoslari») asari lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so'z boradi.



➤ «Al-foiqfi g'arib al-hadis» («G'arib hadislar haqida qimmatli kitob») asari hadisda uchraydigan, ma'nosini anglash qiyin bo'lgan iboralar, so'zlar haqida.

➤ «At-voq uz-zahab fil – mavo'iz val-xutab» («Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar») – nasihatimiz maqolalar to'plamidan iborat.

➤ «Rabiy' ul-abror va nusus ul-axyar» («Ezgular bahori va yaxshilar bayoni») asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan.

➤ «Al-Qustos fil-aruz» («Aruzda o'lchov») asari aruz vazni haqida bahs yurituvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

«Maqomat» («Maqomlar») – 50 maqomdan iborat bo'lib, qofiyali nasr – saj' uslubining nozik namunalari o'zida mujassam etgan muhim asardir.

➤ «Navobig' ul-ka-lim» («Nozik iboralar») hikmatli so'zlardan iborat asar.

➤ «An-nasouh us-sig'or val bavo – lig' ul-kibor» («Kichiklarga nasihatlar») didaktik ruhdagi asar.

➤ «Devon uz-Zamaxshariy» falsafiy she'rlar, qasida, faxriya, nazmiy maktublarni o'z ichiga olgan.

➤ «Al-Kashshof an haqiqit it-tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish», 1132–34) asari Qur'on tafsiriga bag'ishlangan. «Al-Kashshof»ning 100 ga yaqin qo'lyozmalari va asarning o'ziga bitilgan 20 dan ortiq sharh va hoshiyalar mavjud.



Xorazm. Mahmud az-Zamaxshariy ziyoratgohi

## Burhoniddin Marg'inoniy

(1123–1197)

**Burhoniddin Marg'inoniy** (to'liq ismi Abulhasan Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy al-Rishtoniy al-Marg'inoniy (Marg'ilon – tarixiy manbalarda Marg'inon deb yozilgan)) – buyuk faqh olimi, imom. Dastavval otasi Abubakr ibn Abduljalil, so'ng Simom Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiy qo'lida tahsil ko'rdi. Rishton, Marg'ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlarida islomiy ta'lim olib, hanafiya mazhabining buyuk faqhi sifatida nom qozondi. Shayxulislom bo'lib yetishdi. 1149-yil haj safariga bordi. Burhoniddin Marg'inoniy Samarqand shahridagi Chokardiza qabristonga dafn etilgan.

Burhoniddin Marg'inoniyning ilmiy merosi boy bo'lib, quyidagi asarlari mavjud:



**Burhoniddin Marg'inoniyning  
«Kitob al-Hidoya» asari (XIII asr)**

➤ «Bidoyat ul-mubtadiy» («Boshlovchilar uchun qo'llanma») – fiqh bo'yicha asosiy asari. Bu asarni Burhoniddin Marg'inoniy hanafiya nazariyotchisi, shariat asoschilaridan Abul Hasan al-Quduriy (1029-yilda vafot etgan) va Muhammad ash – Shayboniy (884-yilda vafot etgan) asarlariga tayanib yozgan.

➤ «Bidoyat ul-mubtadiy» kitobi nazariy asar edi, undan amaliy jihatdan foydalanish qiyin bo'lgan. Shu sababli Burhoniddin

Marg'inoniy 8 jildli sharh – «Kifoyat ul-Muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'limot»)ni yozishga qaror qilgan. Keyinchalik bu kitobi asosida 1178-yil «Kitob al-Hidoya» (qisqacha nomi «Hidoya» – «To'g'ri yo'l»)ni yaratadi.

➤ «Nashr al-mazhab» («Mazhabning tarqalishi»).

➤ «Kitob at-tajnis val-maziyd» («Fuqarolik huquqini taqdim etish»).

➤ «Kitob ul-faroiz» («Majburiyatlar haqida kitob»).

➤ «Maziyd fi furu ul-hanafiy» («Hanafiya mazhabiga qo'shimchalar») kabi asarlarini yozib qoldirgan.

Burhoniddin Marg'inoniy o'z asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning turli shakllari (davlat va xususiy mulkchilik), moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslarini, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi, tartibi va jinoiy ishni ko'rish masalalarini batafsil yoritib berdi.

Bu asarlarda adolat tuyg'usi, o'z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z o'laytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Burhoniddin Marg'inoniyning o'zi hayoti davomida ana shunday insoniy fazilatlarga amal qilib yashadi. Ilmu urfon yo'lidagi fidoyiligi, kamtarligi o'z asarlarida biron marta ham «men» degan so'zni ishlatmay, «bu zaif banda aytadi», deya xokisorlik bilan izoh berishida ham ko'rinib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan Burhoniddin Marg'inoniy vafotining 800-yilligi (1997), tavalludining 910-yilligi (hijriy sana bo'yicha) 2000-yilda keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Marg'ilon shahrida markazida Burhoniddin Marg'inoniy yodgorlik majmui bunyod etilib, shu yerda uning ramziy maqbarasi o'rnatildi.



Marg'ilon. Burhoniddin Marg'inoniy  
yodgorligi



Burhoniddin Marg'inoniy  
(ramziy) maqbarasi

**3. Badiiy adabiyot rivoji.** O'rta Osiyo Uyg'onish davri madaniyati xususida gap borar ekan, bunda uning muhim tarkibiy qismi, xalq dahosi mahsuli bo'lgan badiiy adabiyot va uning ajoyib namoyandalarining serqirra ijodi to'g'risida to'xtalib o'tmasdan bo'lmaydi.

IX–XII asrlar davri madaniyati ayni paytda yuksak darajada ravnaq topgan badiiy adabiyot namoyandalari ijodida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyoda *forsiy* va *turkiy adabiyotning* ajoyib durdona asarlari yaratildi. Garchi

o'lkada rasmiy davlat tili sifatida arab tili va uning grammatikasi hukm surgan bo'lsa-da, biroq o'lkada mustaqil davlatlarning tashkil topishi va rivojlanib borishi davomida fors va turkiy adabiyot ham o'sib, uning zabardast vakillari ijodi sayqal topib bordi.

Somoniylar va g'aznaviylar hukmronligi davrida yashab ijod qilgan *Abu Abdullo Rudakiy, Daqiqiy, Abu Shukur Balxiy, Abulqosim Firdavsiy* kabi daho shoirlarning *forsiydagi ijodi* fikrimizga dalil bo'la oladi.

### Abu Abdullo Rudakiy

(858–941)



**Rudakiy** Abu Abdullo Ja'far – fors-tojik shoiri. Fors-tojik she'riyati asoschilaridan biri. Yoshligidan she'riyat va musiqaga ixlos qo'ygan, adabiyotni, arab tilini o'rgangan. Zamonasining mashhur cholg'uchisi Abul Abbas Baxtiyordan musiqa bo'yicha ta'lim olgan; barbat, chang, ud, rud kabi cholg'u asboblarni chalishni o'rgangan. Rudakiyning she'riyat va musiqadagi mahoratini eshitgan Buxoro hukmdori Nasr II ibn Ahmad Somoniy uni saroyga taklif etgan. Rudakiy Buxoroda vazir Abul Fazl Bal'amiy homiyligida ijod qilib, san'atda katta obro' qozongan va 40 yil saroyda shoirlarga boshchilik qilgan. Uning tug'ma ko'r bo'lganligi haqida naqlar bor. Aslida saroydagi ig'vo va fitnalar tufayli dushmanlari Rudakiyning ko'zlariga mil tortib ko'r qilgan, mol-mulkini talab, o'zini Buxorodan badarg'a qilishga erishgan. Qarigan chog'ida Rudakiy o'z qishlog'iga qaytib, faqirlikda umr kechirgan.

Manbalarda Rudakiy she'riyati 100 000 baytdan iboratligi qayd etilgan. Ammo hozirga qadar uning 1000 bayt asari (2 qasida, 50 ruboiy, she'r va dostonlari) yetib kelgan.

Rudakiy Movarounnahrda o'z she'rlaridan devon tuzgan ilk shoir hisoblanadi. «Bo'i jo'i Mo'liyon oyad hame» («Mo'liyon arig'ining isi kelmoqdadir») misrasi bilan boshlanadigan g'azali unga favqulodda shuhrat keltirgan.

«Modari may» («Mayning onasi»), «Dar vasfi Buxoro» va «Shikoyai az piri» Shoirning «Qarilikdan shikoyat» qasidaları, hamda «Kalila va Dimna», «Davroni falak» va boshqa bir necha masnaviylaridan parchalar bizgacha yetib kelgan.

Rudakiy fors-tojik she'riyatining deyarli barcha shakllarini ishlab bergan. Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan dastlabki poetik janr – ruboiy (arab. – to'rtlik) larni Rudakiy va Shahidi Balxiy yaratgan. Qadimgi manbalarda Rudakiyning «Oftob davroni», «Aroisan – nafois» («Nafis kurtaklar») va «Sindbodnoma» (933) dostoni bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Rudakiy va uning izdoshlari forsiy she'riyatda bir necha asr hukmronlik qilgan Xuroson (yoki Turkiston) uslubiga asos solib, uni rivojlantirgan.

### Daqiqiy

(956–980)

**Daqiqiy** (asl ismi Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad) – fors-tojik shoiri. Daqiqiy yoshligida o'qish uchun Buxoroga kelgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab qolgan. Daqiqiy somoniy amirlaridan Mansur ibn Nuh (961–976-yillar hukmronlik qilgan) hamda Abulqosim Nuh ibn Mansur (976 – 997-yillar hukmronlik qilgan) saroyida xizmat qilgan. Daqiqiy sharq adabiyotida mavjud lirikaning barcha janrlarida she'rlar yozgan. Eski manbalarda uning qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, bahoriyot, chiston singari janrlardagi asarlardan tarkib topgan devoni borligi ta'kidlangan. Lekin hanuzgacha shoirning qo'lyozmasi topilmagan. Shoir merosidan ayrim namunalar tazkira va lug'atlardagina saqlanib qolgan. Daqiqiy qasidago'ylik va g'azalnavislikda ustod san'atkor darajasiga ko'tarilgan. U o'z she'rlarida do'stlikni, muhabbatni, ma'rifatni kuylagan; qasidalarida donishmand, odil podsho boshchiligidagi markazlashgan davlat uchun kurash g'oyasini ifodalagan. Bundan tashqari Daqiqiy Abulqosim Nuh ibn Mansur Somoniy topshirig'i bilan qadimgi ajdodlar tarixi haqida «Shohnoma» yozishga kirishdi. Ammo 1000 baytdan iborat «Arjasp va Gushtasp» dostonini yozib tugatgan paytida o'z g'ulomi tomonidan o'ldirildi. Keyinchalik Firdavsiy bu dostonni o'z «Shohnoma»siga kiritgan. Asarda Zaratushtraning paydo bo'lishi, Gushtasp va boshqa ayonlar uning dinini qabul qilishlari, Turon podshohi Arjaspning bu voqeadan noroziligi hamda Gushtasp bilan Arjasp o'rtasidagi urush hikoya qilingan. Mazkur jangnoma Eron va Turon xalqlari tarixini, jumladan, zardushtiyluk dinining paydo bo'lishini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

### Abu Shukur Balxiy

(915-y. tug'ilgan. Vafot etgan yil noma'lum)

**Abu Shukur Balxiy** (Balxiy – taxallusi) – shoir. Fors adabiyotida dostonchilikka asos solganlardan biri. Asosan somoniylar hukmronligi davrida yashab ijod etgan. Ma'lum muddat Nuh ibn Nasr saroyida xizmat qilgan. Asarlarida insonparvarlikni, ilm va hunarni ulug'lagan, kishilarni tenglikka, tinch-totuvlikka da'vat etgan. «Ofarinnoma» dostoni (947) katta shuhrat qozongan. Doston didaktik mavzuda (asarlaridan 379 bayt turli tazkira va lug'atlarda saqlangan). Asarlari arab tiliga tarjima qilingan.

### Abulqosim Firdavsiy

(taxm. 934–1030)



**Firdavsiy** Abulqosim Tusiy – fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda tahsil olgan. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va pahlaviy tillarini chuqur o'rgangan. O'z davrining qomusiy olimi bo'lib yetishgani uchun ham uni hakim deb ulug'lashgan. U Eron, Turon, Yunon va Hindiston olimlarining turli sohadagi asarlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Firdavsiy yoshligidanoq she'rlar mashq qila boshlagan. Bu haqda ma'lumotlar bo'lsa-da, she'rlarining o'zi yetib kelmagan. Uning «Yusuf va Zulayho» nomli doston yozganligi ham haligacha munozarali. Firdavsiy otasidan qolgan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan.

Ba'zi manbalarda uning uzoq yillar sarbozlik xizmatida bo'lgani ham aytiladi.

Uni olamga mashhur, nomini tillarda doston qilgan, abadiylikka muhrlagan narsa – bu «Shohnoma» asaridir. Eron va Turon xalqlarining qariyb 4 ming yillik tarixi yuksak mahorat bilan qalamga olingan «Shohnoma» ustida Firdavsiy 30 yildan ortiq mehnat qilgan. Tadqiqotchilar asarni 3 qismga bo'ladilar: 1-bo'limda eng qadimgi afsonalar qayta ishlanib, nazm ipiga terilgan bo'lsa, 2-bo'limda xalq qahramonlari haqidagi rivoyat-u qissalar badiiy talqin qilinadi. 3-bo'limda tarixiy shohlar hayoti tasvirlangan. «Shohnoma» eng qadimgi davrlardan boshlanib, sosoniylar shohi Yazdigard III davrida arablarning Eronga bostirib kirishi bilan



yakunlanadi. «Shohnoma» hajmi (60 ming baytni o'z ichiga oladi), mavzu ko'lami, obrazlar olami, qahramonlarning ko'p va xilma-xilligi, g'oyaviy motivlari va ko'tarilgan masalalar jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asar. 100 dan ortiq dostonlardan tashkil topgan bu asarda mingdan ziyod katta-kichik personajlar ishtirok etadi.

Firdavsiy vafot etgach otasidan qolgan bog'ning bir chekkasiga ko'milgan. 1934-yilda tavalludining 1000-yilligi munosabati bilan shoir qabri ustiga maqbara qurilgan va u shoir muxlislarining muqaddas ziyoratgohiga aylangan.

Bu davrda *turkiy adabiyot* ham o'z taraqqiyotida katta yutuqlarga erishdi. Xususan, turkiy adabiy tili eski o'zbek va uyg'ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo'ldi. Turkiy adabiyotni yuksaklikka ko'tarishda *Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Burhoniddin Rabg'uziy, Ahmad Yugnakiy* kabi turkiyzabon adiblarning xizmati benazir bo'ldi.

### Mahmud Koshg'ariy (XI asr)

Mahmud Koshg'ariy ibn Husayn ibn Muhammad – turkshunoslik ilmining asoschisi, filolog olim. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansub. Otasi Husayn ibn Muhammad o'sha davrdagi Baregan shahrining amiri bo'lgan. Koshg'ariy boshlang'ich ma'lumotni o'z qishlog'ida, yuqori ma'lumotni Koshg'ar madrasalarida olgan, arab, fors, turkiy kabi 7–8 tilni puxta egallagan. So'ng u Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur shaharlarida bilimni oshirgan. 1056–1057-yillarda mamlakatdagi



ichki nizolar natijasida olim o'z vatanini tark etib, 15-yil davomida atrofda qardosh xalqlar orasida yurishga majbur bo'lgan. Ana shu yillarda u turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug'lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o'rinlari, urf-odatlarini, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o'rganadi. So'ng Bag'dodga borib, ancha vaqt shu shaharda ijod qilgan, xususan, 1072-yil (ba'zi manbalarda – 1074-yil va undan ham keyin) dunyoga mashhur asari «Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar devoni») ni yozib bitiradi va uni xalifa Muqta'diy (1075–1094)ga bag'ishlaydi. «Devonu lug'otit turk» muqaddima va lug'at qismlardan iborat. Mahmud Koshg'ariy mazkur asariga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ilova qildi.



**Mahmud Koshg'ariyning Dunyo xaritasi.  
«Devonu lug'otit-turk»ning  
Istanbul qo'lyozmasidan olingan**



**Xaritaning o'zbekcha tarjimasasi**

Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dengiz, ko'l, daryo kabi-larning nomlari yozilgan. Xaritada aks etmagan ba'zi bir nomlar lug'at matnida izohlangan. Xarita, asosan, Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Bu haqda Mahmud Koshg'ariyning o'zi: «Rumdan Mochingacha bo'lgan... shaharlar o'rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim», – deb yozadi. Shartli qabul qilingan bo'yoqlar rangi doira tashqarisida to'rt joyda so'z bilan izohlangan. Ayrim kamchiliklariga qaramay, Mahmud Koshg'ariyning XI asrda tuzilgan xaritasi o'z davri uchun mukammal, hozirgi davr uchun geografik ma'lumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi.



**Mahmud Koshg'ariyning qabri  
ustiga o'rnatilgan sag'ana**

Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asari turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug'atlarning barcha xususiyatlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'at bo'lib, o'z muallifini dunyoga ulug' adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa ko'p fanlarlan yaxshi xabardor bo'lgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk»dan avvalroq yaratilgan, «Javohirun – nahvi fi lug'otit – turk» («Turkiy tillar sintaksisi qoidalari») deb nomlangan asari ham bo'lgan. Ushbu asar hozircha topilgani yo'q.

Koshg'ariy 1080-yilda (yoki 1118-yilda) vataniga qaytib kelib, O'paldagi Aziq qishlog'ida, Hazrati Mullom tog'i etagidagi tepalikda joylashgan madrasada dars bergan va ilmiy ijod bilan mashg'ul bo'lgan (hozirda mazkur madrasaning faqat poydevorlari saqlanib qolgan). 1105-yilda (yoki 1126-yilda) 97 yoshida vafot etgan va Xitoyning Qashg'ar (Koshg'ar) viloyati O'pal nohiyasidagi ajdodlari maqbarasiga dafn etilgan. Maqbara hozirgacha «Hazrati Mullom mozori» nomi bilan mashhur.

**Yusuf Xos Hojib** (asl ismi Yusuf) – turkigo'y shoir, mutafakkir, davlat arbobi. «Qutadg'u bilig» dostoni muallifi. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar beruvchi yagona manba ham «Qutadg'u bilig» kitobidir. U zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o'rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Mahmud Koshg'ariy kabi turkiy tilning mavqeyini oshirish, uning madaniy-adabiy hayotdan o'ziga munosib o'rin egallashi uchun kurashgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim», 1069–1070) asari islomiy turkiy adabiyotni boshlabgina bermay, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko'tardi. Mazkur asar nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti an'analari, balki qardosh xalqlar, jumladan, forsiy adabiyot tajribalarini ham ijodiy o'zlashtirgan holda yaratilgan. «Shohnoma» kabi mutaqorib vaznida yozilgan va «Turkiy Shohnoma» nomi bilan shuhrat qozongan (73 bob, 6520 bayt va to'rtlikdan iborat).

«Qutadg'u bilig» – XI asr so'z san'ati-ni nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtmoyiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-



**Yusuf Xos Hojib**  
(taxm. 1020/21, vafot  
etgan yili noma'lum)



**Yusuf Xos Hojib maqbarasi**  
(Qashg'ar, XI asr)

fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Yusuf Xos Hojib uni Bolosog'unda boshlab, Qashqarda yozib tugatgan va qoraxoniylar hukmdori Tavg'och Bug'roxonga taqdim etgan. Bug'roxon muallifni taqdirlab, unga «Xos Hojib» («Eshik og'asi») unvonini bergan. Shundan keyin shoir «Yusuf Xos Hojib» nomi bilan mashhur bo'lgan. Lekin dostonning oxiridagi shikoyat ohanglariga qaraganda, shoir umrining oxiri bu davlatning tanazzuli davriga to'g'ri kelgan, shunga muvofiq hayoti ham og'ir kechgan. Shoirning Qashqardagi maqbarasi ziyoratgohga aylangan.

### **Burhoniddin Rabg'uziy**

(XIII asr oxiri – XIV asr boshlari)

**Rabg'uziy** (taxallusi; asl ism-sharifi Nosiriddin Burhoniddin o'g'li) – shoir. Raboto'g'uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlari og'zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to'g'risidagi qissalarni chuqur o'rgangan. O'zi ham ko'pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib nasrda rivoyatlardan hikoyat, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan.

Bizgacha «Qisasi Rabg'uziy» (1309–1310) asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo'g'ul beklikidan Nosiriddin To'qbug'aning topshirig'i bilan yozilib, 72 qissadan iborat.

### **Ahmad Yugnakiy**

(XII asr oxiri – XIII asr 1-yarmi)

**Ahmad Yugnakiy** – shoir, mutafakkir. Tarjimai holi haqida deyarli ma'lumot yo'q. «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfasini») asari bizgacha yetib kelgan. Uning oxirida Adib Ahmad ismi tilga olinadi. Shoir «Hibat ul-haqoyiq» (14 bob, 512 misradan iborat)ni tugatib, uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi.

Mashhur sharqshunos olim E.E. Bertels bu asar qadimgi o'zbek adabiy tilidan mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda bir ko'prik bo'lganini aytadi. Asar tilida qadimgi turkiy so'zlardan ko'ra, arab va fors so'zlarining ko'p qo'llangani shundan dalolat beradi. Yugnakiy bu asari bilan o'zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan.

**4. Islom madaniyati va so'fiylik.** IX–XII asrlar davri nafaqat dunyoviy fanlarning yuksaklab borishi bilan, shu bilan birga islomiy madaniyat va ma'naviyatning

shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, bu sohada talay yetuk olim-u ulamolarning yetishib chiqib, Vatanimiz sha'nini olamaro, ulug'laganligi bilan ham tavsiflanadi. Garchand islom dini Arabiston yarim orolida vujudga kelgan bo'lsa-da, biroq yangi ilohiy ta'limot zaminida ravnaq topdi, takomiliga erishdi. Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egalladi.

Islom va uning asosiy ta'limoti aks etgan Qur'oni Karim g'oyalarning o'lka hayotiga kirib kelishi va keng yoyilishi, shuningdek, mahalliy xalqlarning musulmonchilik tamoyillari va udumlarini qabul qilishi hamda ularga e'tiqod bog'lashi davomida asta-sekin islom madaniyati shakllanib, chuqur ildiz otib bordi. Bunda shu yurt zaminidan yetishib chiqqan buyuk islomshunos allomalarning xizmati benazirdir.

### YURTIMIZ ZAMINIDAN YETISHIB CHIQQAN ISLOM OLAMINING BUYUK SIYMOLARI

- ▶ Imom al-Buxoriy (810–870) Hadis ilmining asoschisi.
- ▶ Abu Iso at-Termiziy (824–892) Hadis ilmi peshvolaridan.
- ▶ Abu Mansur Moturidiy (vafoti 945 y.) Moturidiya tariqati asoschisi.
- ▶ Abu al-Mu'iyin an-Nasafiy (1027–1114) Kalom ilmi yirik namoyandasi.
- ▶ Xo'ja Ahmad Yassaviy (104–1167) Yassaviya tariqati asoschisi.
- ▶ Najmiddin Kubro (1145–1221) Kubraviya tariqati asoschisi.
- ▶ Abdulloh G'ijdivoniy (1103–XII asr ikkinchi yarmi) tasavvuf ilmi asoschilaridan.

- ▶ Bahouddin Naqshband (1318–1389) Naqshbandiya tariqati asoschisi.
- ▶ Xo'ja Ahror Valiy (1404–1490) Naqshbandiya tariqatining yirik namoyadasi.

Yurtimizda islomiy madaniyatning yuksalib borishi barobarida uning ulug'vor g'oyalari, asl maqsadlarini keng tashviq, targ'ib qilish, ayniqsa, hadis ilmini asosli tadqiq etish kuchayib bordiki, bunda sarzaminimizdan chiqqan qator buyuk muhaddis olimlarning xizmati katta bo'ldi. Hazrati payg'ambarimiz Muhammad Alayhivassalom nomi va u zoti sharifning muborak so'zlari bilan bog'liq «Qur'oni Karim» oyatlari mazmuni, mohiyatini teran tushunish va anglab yetishga muhim kalit bo'lib xizmat qiladigan hadisshunoslik ilmi IX asrda jiddiy rivoj topdi. Shu o'rinda hadis tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, *hadis* (arab. – xabar, gap, yangilik) – Muhammad (s.a.v.) aytgan so'zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to'g'risidagi rivoyat. Islom dinida Qur'ondan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. Hadis 2 turga – Hadisi kudsiy (ma'nosi Alloh



taoloniki, aytilishi Rasululloh tomonidan bo'lgan Hadislar) va Hadisi nabaviyga bo'linadi. E'tiborga olinishi jihatidan esa 3 qismga bo'linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif. Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad (s.a.v.) o'z hadislarini aytardi. Hijriy III asrda hadis ta'lif etish sohasida «musnad», «sahih», «sunan» deb atalmish turli yo'nalishlar vujudga keldi.

Movarounnahrda birinchi bo'lib Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy hadis to'plamini tasnif etgan. Keyinchalik, milliy, siyosiy ixtiloflar natijasida, payg'ambar nomidan yolg'on hadislar to'qish, fiqh va kalom ilmi sohasidagi ziddiyatlar, amir va hokimlarga xushomadgo'ylik oqibatida ko'plab ishonarsiz, to'qima hadislar yuzaga kelgan.

Davr o'tishi bilan hadislar tanlanib, muhim deb hisoblanganlari bir tizimga solina boshladi. IX–X asr boshlarida dindorlar orasida eng ishonchli deb tanilgan hadisning 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: «Sahihi Buxoriy», «Sahihi Muslim», «Sahihi Termiziy», «Sunani Abi Dovud», «Sunani Ibn Moja», «Sunani Nasoiy». «Sahihi Buxoriy» ko'proq e'zozlanadi. Bu 6 ta hadis to'plamini tuzgan muhaddislardan 2 tasi movarounnahrlik (Imom al-Buxoriy (810–870) va Abu Iso at-Termiziy (824–892), 4 tasi esa xurosonlik bo'lgan. Hadislar to'plami sunna deb nom olgan. Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan.

Imom al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziylar shu kunga qadar hadis ilmining eng ko'zga ko'ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko'tarilgan zotlardir.

### **Imom al-Buxoriy**

(810–870-y.)

Buxoriy, Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) – islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Buxoriy umr bo'yi hadislarini to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan, ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. U jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadisni yoddan bilgan.

Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Imom al-Buxoriy ilmiy merosi ham boy bo'lib, bunga quyidagilarni aytish mumkin:



➤ Imom al-Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam») deb nomlangan («Sahihi Buxoriy» nomi bilan ham ataladi) 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir.

➤ 1322 hadis va xabar jamlangan «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. Bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o'zbekcha tarjimai 1990-yil Toshkentda nashr qilingan.

➤ «Kitob al-kuna» («Kunyalar haqida kitob») roviylarning kunyalariga bag'ishlangan asari, u 1940-yil Hindistonda chop etilgan.

➤ «At-Ta'rix al-kabiyr» («Katta tarix») kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi.

➤ «At-ta'rix as-sag'iyr» («Kichik tarix») asari. U hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan.

➤ «Kitob al-favoid» («Foydali ashyolar haqida kitob»), «Al-Jomi' al-kabiyr» («Katta tayanch»), «Xalq af'ol al-ibod», («Alloh bandalari ishlarining tabiati»), «Al-Musnad alka-biyr» («Katta tayanch»), «At-tafsir al-kabiyr» («Katta tafsir»), «Kitob



Samarqand, Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi

al-xiba» («Xayr-ehson haqida kitob») va boshqa asarlarning ba'zilar bizgacha yetib kelmagan, ba'zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor.

➤ «Tafsir al-Qur'on» («Qur'on tafsiri») asarini ham alohida ta'kidlash kerak.

Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi el-yurti bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225-yilgini nishonlash to'g'risida»gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to'y-tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

### Abu Iso at-Termiziy

(824–892)

**Termiziy** Abu Iso, Imom Termiziy (to'liq nomi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zaxdok Sullamiy Bug'iy Termiziy) – buyuk muhaddis. Uning qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Abu Iso at-Termiziy asarlari:

➤ «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonarli to'plam») asari Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, «al-Jomi' as-sahih» bo'lib, 6 ta ishonchli hadislar to'plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda «Jomi' at-Termiziy», «Sahihi Termiziy», «Sunani Termiziy» nomi bilan ham ataladi.

➤ «Ash-Shamoil an-nabaviya» yoki «Ash-Shamoil an-nabiy sollalohu alayhi va sallam» («Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatлари») nomli asari Muhammad (a.s.)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatları, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir.

➤ «Al-Ilal fil-hadis» («Hadislardagi illatlar»).

➤ «Risola fil-xilof val-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»).

➤ «At – Ta'rix» («Tarix»).

➤ «Kitob uz-zuhd» («Zohidlik kitobi»).

➤ «Kitob ul-asmo val-kuno» («Ismlar va kunyalar kitobi») va boshqalar.

1990-yil at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi.

Mustaqillik yillarida at-Termiziyning yodgorlik majmuasi qaytadan ta'mirlanib, qutlug' ziyoratgohga aylantirildi.

O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davrining yana bir muhim jihati shundaki, bunda islom dini va uning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tadqiq etish hamda rivojlantirishda tasavvuf, so'fiylik ta'limotining yuzaga kelishi va kengayishi bilan uzviy bog'liqdir. Avvalo, tasavvuf, so'fiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U «Muqaddima» asarida Tasavvuf «suvf» – «jun», «po'stin» so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi. Tasavvuf va «sufiy» so'zlari IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim Sufiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida «zuhd» («zohidlik», «tarkidunyochilik»), «taqvodorlik», «parhezkorlik» kabi so'zlar ishlatilgan.

O'rta Osiyoda tasavvuf ta'limotining rivojlantirishi ulug' ajdodlarimiz – Xoja Ahmad Yassaviy, Abduholiq G'ijdivoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiylar singari allomalar nomi bilan bog'liq. Tasavvuf ta'limotini kengayishi natijasida O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalish – tariqatlari (XII asrda Turkistonda «Yassaviya», XII asr oxirida Xorazmda «Kubraviya», XIV asrda Buxoroda «Naqshbandiya») paydo bo'ldi va tarqaldi. Ushbu tariqatlarda insonlar Alloh yo'lida, haq yo'lida tinimsiz toat-ibodat, tavba-tazarru qilish barobarida ularning peshona terisini to'kib, halol-u pok mehnat qilish, doimiy sa'y-harakatlarda bo'lishlari kerakligi ulug'lanadi.

**5. Moddiy madaniyat. Binokorlik va me'morchilik.** IX–XII asrlarda Movarounnahrda moddiy madaniyat o'ziga xos uslub va shakllarda to'xtovsiz rivoj topib bordi. Xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, me'morlar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar, miskarlar tomonidan yurt dovrug'ini olamga tanitgan ajoyib me'morchilik obidalari, san'at namunalari bunyod etildi. Movarounnahrda me'morlik va san'at yangi taraqqiyot bosqichiga o'tdi.

Ushbu davrda Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim (usti yopiq bozor) va karvonsaroylar qurildi. IX–XII asrlarda O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum

ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallar edi. X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgardi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi.

*Mazkur davrning me'morchiligining noyob obidalariga  
quyidagilarni aytish mumkin:*



**Ismoil Somoniy maqbarasi**  
(Buxoro, taxm. 864–868)



**Arabota maqbarasi (Samarqand viloyati**  
**Tim qishlog'i, 977/8 (hijriy 367)**

Buxorodagi ko'hna me'moriy yodgorlik Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy va uning avlodlari maqbarasi. Ismoil Somoniy maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, jim-jima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, buyra to'qimasini eslatadi. Ismoil Somoniy maqbarasi O'rta Osiyo me'morchiligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan. Uning tuzilishida qadimgi sug'd me'morligining an'analari saqlanib qolgan buyuk me'moriy asardir. 1925-yilda gumbazi ta'mir etilgan. V. Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan. Binoni ko'mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, B. Zasiqin va Usta Shirin Murodov boshchiligida ta'mirlangan (1937–1939). Ismoil Somoniy maqbarasi shahar madaniyat va istirohat bog'i hududida joylashgan.

Mazkur me'moriy yodgorlikning me'mori noma'lum. Poydevori toshdan, devorlari chorsi g'ishtdan (23x23x4 sm) ganchxok bilan terilgan. Arabota maqbarasi Movarounnahrda saqlanib qolgan eng qadimgi musulmon maqbaralaridan biri. Maqbara me'moriy tuzilishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Uning peshtoqi o'sha davrda yaratilgan

shu turdagi binolarning dastlabki yetuk namunasi bo'lib, XI–XII asrlar me'morchiligining rivojiga ta'sir etgan.

Buxorodagi me'moriy yodgorlik bo'lib, mag'ok (chuqurlik)da va attor bozori yaqinida joylashgani sababli Mag'oki Attori masjidi deb nomlangan. Qadimgi 4 ustunli Moh masjidi (IX asr) o'rinda XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934–1935-yillari V.A.Shishkin rahbarligida arxeologik qazishlar o'tkazilishi natijasida aniqlangan). XIV asrda ta'mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Abdulazizxon davrida (1541–42-yillar) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35x17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o'rta gumbazi balandroq bo'lib, uning asosi (poygumbazi)dagi darchalar orqali bino ichiga yorug'lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g'ayri odatiy ravishda binoning yon tomoni (janub)da joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismiga qayta qurilgan. Peshtoqining ko'rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o'ziga xos bezaklar muhim o'rin tutadi. Ganch va mayda g'isht bo'lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g'oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o'lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo'rtma bezaklar ishlangan. Ustun go'shalari o'yima naqshlar bilan boshi vazasimon shaklda ko'rkamlashtirilgan. Mag'oki Attori masjidining bezaklari XII asr Buxoro me'morlik maktabining yuksak namunasi sifatida O'zbekiston me'morlik tarixida alohida o'rin tutadi. 1939–1949-yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta'mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan.

Shohizinda ansamblining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan eng qadimgi yodgorlik. Qusam ibn Abbas qabri atrofida keyinchalik turli masjid, maqbara va chilla-xona bunyod etilgan. Qusam ibn Abbas islom dinining asoschisi, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachasi bo'lgan Abbasning zurriyoti edi. Qusam ibn Abbas islomni targ'ib va tashviq qilishda ishtirok etgan buyuk shaxslardan



**Mag'oki Attori masjidi**  
(Buxoro, X–XVI asrlar)



**Qusam ibn Abbas maqbarasi**  
(Samarqand, XI asr)



**Buxoro namozgohi (Buxoro, 1119)**

bo'lgan. U shu maqsadda 676-yilda arab istilochilari bilan birgalikda Samarqandga kelgan. Afsonalarda aytilishicha, shu yerda, namoz o'qib turgan paytida kofirlar hujum qilib uni o'ldirgan.

**Buxorodagi me'moriy yodgorlik.** Shaharning janubiy chekkasida, qoraxoniylar sulolasining yozgi qarorgohi o'rniida barpo etilgan. Masjid pishiq g'ishtdan oddiy qilib qurilgan, atrofi baland devor bilan o'ralgan. XVI asrda 3 toqili va ustunli peshayvon shaklidagi gumbazli bino qurilgan. Tarhi to'g'ri to'rtburchak bo'lib, 3 asosiy xonadan iborat. O'rtadagi murabba tarhli xona yassi gumbaz bilan yonlaridagi



**Raboti Malik, Shoh raboti**  
(hozirgi Navoiy shahri yaqinida, Karmona, taxm. 1069–79)



xonalar balxi gumbaz bilan yopilgan. Asosiy xonaga peshtoq, yonidagi xonalarga dalon – yo'lakdan kirilgan. Peshtoqqa girih naqsh ishlangan, Qur'ondan ko'chirilgan oyatlar bitilgan.

Buxoro namozgohi me'morligida mehrob va uning atrofiga ishlangan koshinkori bezaklar alohida ajralib turadi. Unda Buxoro me'morchiligi va bezak san'atining an'analari o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyodagi monumental me'moriy yodgorlik Qadimgi Buxoro – Samarqand yo'lining Cho'li Malikdagi yirik chegara va savdo bekatida bunyod etilgan. Katta karvonsaroy, hozirgi Navoiy shahri yaqinida. Bizgacha uning faqat peshtoq qismi (diametri – 12,6 m.) saqlangan.

Janubiy minorasi (balandligi 5,5 m) 1930-yilgacha mavjud bo'lgan. Raboti Malik karvonsaroy vazifasidan tashqari, istehkom, qo'rg'on sifatida ham muhim rol o'ynagan. Rabot katta keng hovli (22,5x22,5 m) va atrofi o'ralgan 2 qavatli xona – hujralardan iborat bo'lib, ularga sopol quvurlar orqali suv o'tkazilgan. Markaziy qismi to'ridagi muhtasham saroy oldi bir qatorli ravoqli ayvon (7,5x13 m) 2 qanotiga joylashgan.

Buxorodagi qadimgi shaharsozlik yodgorligi. Dastlab mil. avv. I asrda qurilgan. Shaharning qadimgi qal'asi. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari – buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida (IX–X asrlar) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan.

Qoraxoniylar davrida (XI–XII asrlar) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) ark bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (XVI asr)da shakllangan.

Balandligi 20 m cha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan arkning maydoni 4 ga, tarhi ko'pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g'isht, paxsalar bilan mustahkamlangan.

Muqaddas ziyoratgoh binosi to'g'ri to'rtburchak tarhli (19 x 26 m) bo'lib, g'arbdan sharqqa cho'zilgan 4 xonadan iborat, har bir xona bir-biriga o'xshamagan gumbazlar bilan qoplangan. Dastlab eng qadimgi xona – murabba tarhli (4,5x4,5 m) quduqxona bunyod etilgan (Arslonxon tomonidan Minorai kalon va Namozgoh masjidi



**Buxoro Arki**  
(Buxoro, IX–XX asrlar)



**Chashmai Ayyub maqbarasi**  
(Buxoro, XII asr, 1380)



**Jarqo'rg'on minorasi**  
(Surxondaryo viloyati, 1108 –1109)

Minoraning hozirgi bal. 21,6 m, asosi (diametri – 5,4 m)ning kitobasida me'mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va qurilgan sanasi yozilgan (V.A. Shishkin tomonidan o'qilgan). Jarqo'rg'on minorasi ta'mirlangan, davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

**Buxorodagi me'moriy yodgorlik.** Muhandis va me'mor Baqo loyihasi asosida Qoraxoniylar tomonidan qurdirgan (1127). Minorai kalon o'rnida avval ham minora bo'lgan u qulab tushgach, mustahkam qilib qayta qurilgan. Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan. Yer sathidan 9 m chuqur, balandligi 50,0 m,

bilan bir davrda qurilgan degan rivoyatlar saqlangan), uning ikki yonida ziyoratchilar uchun o'z vaqtida 2 eshigi bo'lgan. Old tomoniga toqli xona (4,5x4,5 m) tutashtirib qurilgan, u binoga peshtoq vazifasini o'tagan, qo'sh gumbazli, oldi peshtoqli. Ziyoratxona devorida Amir Temur farmoyishiga binoan 1379-yilda unga taqab gumbazli katta xona, burchaklarida minoralari bo'lgan daxlsiz qurilganligi yozilgan. Binoning qadimgi qismi ichkarida qolgan. Rivoyatlarga ko'ra chashma – quduq Ayyub payg'ambar qadamjoyi.

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Minor qishlog'ida joylashgan me'moriy yodgorlik. Xuroson me'morlik maktabi an'analari asosida barpo etilgan. Yonida bir vaqtlar pishiq g'ishtdan qurilgan Jome masjid bo'lgan (saqlanmagan).

Jarqo'rg'on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga g'ishtdan mavj shaklida terilgan 16 plitavor qobirg'adan iborat. 20 m balandlikda g'ishtin panjarali ravoqlar ishlanib, uning ustida kufiy yozuvli belbog' hoshiya bor. Belbog' ustida yana qirralar davom ettirilgan, lekin minora tepasi saqlanmagan. N.N. Karazin rasmida masjid va minora xarobasi aks ettirilgan (1879-yil).

kursisi qirrador, tanasi g'o'lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa – ko'shk bilan bog'langan.

Minorai kalonning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'isht ganchxok loyida terilgan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibliigi, handasiy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. 1924-yilda binoning tanasi va muqarnaslari ta'mir etilgan. 1960-yilda esa yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta'mirlangan. Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan Minorai kalonda ta'mirlash ishlari olib borildi (1997). Minorai kalon Buxoro shahrining noyob va ko'hna yodgorliklari qatoridan markaziy o'rin egallagan.

Buxoro viloyati Vobkent shahridagi me'moriy yodgorlik. O'n ikki qirrali supa asosida o'rnatilgan g'o'la (quyi qismining diametri 6,19 m, yuqori qisminiki – 2,81 m) shaklida rangdor, pishiq g'ishtlardan qurilgan. Bir paytlar yonida mavjud bo'lgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Bo'rtma naqshli 10 belbog' bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga o'xshamaydigan qilib g'isht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs – Sadr Burhoniddin Abdulaziz II ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametri 3,66 m), g'isht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil qilingan, darchalarning quyisi g'isht panjara bilan to'silgan. Minoraning tashqi ko'rinishi ko'p jihatdan Minorai kalonga o'xshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 m bo'lganini arxeologik tadqiqotlar ko'rsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 m.



**Minorai kalon (Katta minora), Arslonxon minorasi (Buxoro, 1127)**



**Vobkent minorasi (Buxoro, XII asr)**



**Sulton Sanjar maqbarasi  
(Marv, (Turkmaniston)  
XII asrning 40-yillari)**

Saljuqiylar sultoni Sanjar (1157-yilda vafot etgan) o'zi uchun qurdirgan ulkan bino. Me'mori Muhammad ibn Otsiz as Saraxsiy. Sulton qal'a markaziga joylashgan. Sulton Sanjar maqbarasi bizgacha xaroba holda yetib kelgan. Maqbaraga Saljuqiylar saroyi va masjid tutash bo'lgan. Sulton Sanjar maqbarasiga turli urushlar ko'p putur yetkazilganiga qaramay, o'z mahobatini yo'qotmagan. 1980-yilda qayta tiklangan.

Ushbu me'moriy yodgorliklar bilan bir davrda barpo etilgan ko'plab noyob me'mochilik inshootlari qatorida O'zgendagi *Qoraxoniylar maqbarasi (XI asr)*, G'azna yaqinida marmar koshinlardan barpo etilgan 32 ta kirish eshiklari, 4 ta ayvoni bo'lgan,

baland qubbalari lojuvard osmonni eslatuvchi *G'aznaviylarning mahobatli yozgi saroyi* (1112-yilda qurilgan)ni ham aytish mumkin.

## **8-MAVZU: O'rta Osiyo mo'g'ullar istilosi va hukmronligi davrida**

### **Reja:**

1. Markazlashgan mo'g'ullar davlatining tashkil topishi. XII asr boshida Xorazm davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

2. O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi va unga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – Vatan himoyachisi.

3. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

*Tayanch so'z va iboralar:* Mo'g'ullar davlati. Qurultoy, xon, Chingizxon. «Yaso» (yasoq) qonunlari. Mo'g'ullar bosqini, Jaloliddin Manguberdi. Ulus, Chig'atoy ulusi. Soliq va o'lponlar.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарк, 1998.
2. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. *Азамат Зуё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Т.: Шарк, 2000. – Б. 134–150.

4. *Асқаров А.* Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. – Б. 253–258.
5. *Аҳмедов Б.* Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
6. *Бунёдов З.* Ануштагин – Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231). А. Аҳмедов ва М. Маҳмудов таржимаси. – Т.: 1998.
7. *Жалололидин Мангуберди* // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2002. – Б. 536–538.
8. *Мирзо Улугбек.* Тўрт улус тарихи. – Т.: Чўлпон, 1994.
9. *Сағдуллаев А.* ва бошқа. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I-қисм. – Т.: Академия, 2000. – Б. 118–129.
10. *Султонов Т.И.* Поднятые на белой кошме. Потомки Чингизхана. – Алматы: 2001.
11. *Тонарий О.* Жалололидин Хоразмшоҳ ва унинг даври. – Т.: 1999.
12. *Тошев Н.* Жалололидин Мангуберди. – Т.: 1999.
13. *Тошев Нурёғди.* Жалололидин Мангуберди (рисола). – Т.: 2011.
14. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 232–261.
15. Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Масъул муҳаррир: Ш. Каримов. – Т.: Шарк, 2000. – Б. 68–87.
16. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 221–267.
17. *Чингизхон* // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2005. – Б.623.
18. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.
19. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 286–337.

**1. Markazlashgan mo'g'ullar davlatining tashkil topishi. XII asr boshida Xorazm davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.** XI–XII asrlarda mo'g'ullar ijtimoiy hayotda urug'-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo'lib, asosan, chorvachilik, o'vchilik va o'zaro tovar ayirboshlash, savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelishgan. Biroq XII asr oxiri – XIII asr boshlarida mo'g'ul urug' boshliqlari orasida hokimiyat uchun ichki ko'rashlar avj oldi. Bu ko'rashlarda Chingizxon g'olib chiqib, 1204–1205-yillarda ko'chmanchi urug' va qabilalarni siyosiy jihatdan birlashtirdi. Chingizxonning asl ismi Temuchin (Temujin – mo'g'ulcha, temir ustasi) bo'lib, u taxminan 1155-yili O'non daryosi yaqinidagi Delpun Bo'ldan mavzesida tug'ilgan. Chingizxonning otasi Esugay bahodir, onasini esa O'elun Fujin (xotun) edi.



Temuchin mo'g'ullarning hukmdori sifatidagi o'rmini har jihatdan mustahkamlash va bunga qonuniy tus berish maqsadida 1206-yili Onon daryosi bo'yida umummo'g'ul qurultoyini chaqirdi. Qurultoyda Temuchin **ulug' xon (qoon)** deb e'lon qilindi va unga «**Chingiz**» laqabi berildi. Chingiz so'zi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinadi. Jumladan, tarixchi Rashiddinning yozishicha, kuchli, buyuk degan ma'noni anglatadi. «Mening jonajon tarixim» asarida esa qurultoyda «*Temuchinga Dengizxon, ya'ni okean hukmdori unvoni*» berilganligi ta'kidlanadi.

Bu qurultoyda o'rta asrlar mo'g'ul huquqi to'g'risidagi asosiy yozma yodgorligi – «Yaso» (yasoq) qonunlari («Chingizxon yasosi») qabul qilindi. Ushbu hujjat Chingizxon amriga binoan yozilib, «Oltun daftar» (chingiziy xonlarning rasmiy tarixi) bilan birga xon xazinasida saqlangan. U ko'p yillik hayot tajribasi, qabila va urug'larning urf-odati, an'anasi, o'zini oqlagan udumlar asosida tuzilgan edi. Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi bilan Chingizxon yasosini takomillashtirish, yangi qonunlar bilan to'ldirish zarurati tug'ilgan. 1218-yilda unga muhim tuzatishlar kiritilgan.

«Yaso»da xonning vazifalari va huquqlari, qo'shinni tashkil etish tamoyillari, jazo choralari, ayollar huquqlari va h.k. belgilangan. Uning so'nggi tahriri 1225-yildagi qurultoyda qabul qilingan.


XIII asr boshlariga kelib Chingizxon qo'shni davlatlar va xonliklarni birin-ketin bosib olishga kirishadi. Xususan, 1206-yilda naymanlar bo'ysundirildi. 1207-yilda Chingizxon tang'utlar boj to'lamaganligi uchun ular ustiga yurish qilib yer-mulklarini vayron etadi. 1207–1208-yillarda Enasoy (Yenisey) daryosi havzasini, so'ngra Yettisuv viloyatining shimoliy qismi egallandi. 1211-yilda uyg'urlar yeri istilo etilgach, Chingizxon Xitoyga hujum boshladi. 1211–1215-yillarda Xitoyga qarshi bir necha bor hujumlar uyushtirildi. 1215-yilda mo'g'ul lashkarlari Shimoliy Xitoyning markazi – Szindi (Pekin) shahrini bosib oladi, Szin sulolasi tugatildi. Chingizxon bu mamlakatdan juda ko'plab miqdorda oltin, kumush buyumlar, shoyi, atlas matolar, cho'ri-kanizaklardan tashqari har xil qurol-yarog' aslahalari, harbiy texnika moslamalari: manjaniq, palaxmon, naftandozlarni va ularni ishlata oladigan mohir ustalarni ham olib keladi. Bu hol Chingizxon lashkarlarining eng yaxshi qurol-aslahalar bilan ta'minlangan qudratli kuchga ega bo'lishini ta'minlaydi. Xullas, qisqa muddat ichida mo'g'ullar davlati O'rta Osiyodagi Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlatiga chegaradosh mamlakatga aylandi.

Shuni aytish lozimki, Sulton Qutbiddin Muhammad Oloviddin Xorazmshoh (Muhammad Xorazmshoh) (1200–1220) davriga kelib mamlakatning hududlari



behad kengaygan. U uzoq yillar davomida qo'shni davlatlar ustiga muvaffaqiyatli harbiy yurishlarni amalga oshirib, Ozarbayjon, Eron, Kurdiston, Iroq yerlarini qo'lga kiritgan edi. Ayniqsa, 1210-yili sentabr oyida Sirdaryo bo'yidagi Ilamish dashtida qoraxitoylar bilan bo'lgan hal qiluvchi jangda qozonilgan g'alabadan o'ta ruhlangan Sulton Muhammad Xorazmshoh o'ziga «Iskandari Soniy (ikkinchi Iskandar)» va saljuqiylarning buyuk sultoniga taqlid qilib «Sulton Sanjar» unvonlarini oladi. Davlat muhriga esa «zil Allohi til ard» (Ollohning yerdagi soyasi) deb «kamtarona» yozdirishni buyurgan. O'z navbatida u ham Xitoyni fath etishni xohlar edi.

### XORAZMSHOHLAR DAVLATI



Shunday bo'lsa-da, biroq, davlatining ichki ijtimoiy-siyosiy hayoti g'oyatda murakkab, ziddiyatli kechayotgandi. Xususan, Muhammad qipchoqlardan bo'lgan qator lashkarboshilarga ishonmas, taxtga ko'z tikkan onasi Turkon xotin (ya'ni «turklar onasi») va uning saroyiga tiqishtirilgan qarindoshlari bilan chiqishmas, din peshvolarini o'z harakatlari tufayli qattiq ranjitgan edi. Xalq qo'zg'olonlarini (1210-yil Samarqand qo'zg'oloni) shafqatsizlik bilan bostirgani, soliqlar zulmi, turmush darajasining pastligi uni oddiy xalqdan juda uzoqlashtirgandi. Buning oqibatida Muhammad Xorazmshohning siyosiy mavqeyi pasayib bordi.

Shunday siyosiy sharoitda Chingizxon va Xorazmshoh davlatlari o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi. 1216-yilda Chingizxon Xorazmshoh Muhammadning elchisi Bahovuddin Roziyni izzat-ikrom, hurmat bilan kutib olgan. Qabul chog'ida o'zaro totuvlik va do'stlik qaror topib, ikki davlat hududlarda savdogarlarning erkin qatnoviga xohish bildirildi. O'z navbatida, Chingizxon ham javob tashrifi bilan o'z savdo karvonlarini elchilar bilan xorazmshohlar yurtiga yuborgan. Bu elchilarga Mahmud Yalavoch al-Xorazmiy, Aliakbar Xoja al-Buxoriy va Yusuf Kenka al-O'troriylar boshchilik qilgan edilar (Mahmud Yalavoch asli xorazmlik bo'lib, Chingizxon hukumatidagi Xorazm elchisi vazifasidan voz kechib, mo'g'ullarga sotilib, o'z ona Vataniga xiyonat yo'liga kirgan bir shaxs edi). Xorazmshoh Muhammad elchilarni 1218-yilning bahorida Buxoroda kutib oladi. Elchilar Xorazmshohga Chingizxonning xatini topshiradilar. So'ng, 1218-yili Xorazmshoh yangi elchilarni yuboradi. Bunga javoban Chingizxon Mahmud Yalavoch boshchiligida Xorazmshoh davlatiga elchi yuboradi. Ammo munosabatlar borgan sari keskinlashib bormoqda edi.

1218-yilda Chingizxon Xorazmga navbatdagi 500 tuya hamda 450 musulmon savdogarlardan iborat savdo karvonini jo'natdi. Karvon Urganch tomon yo'l olgan edi. Lekin Xorazmshohlarning chegara viloyati O'tror yerlariga kirib kelishi bilan oq bu karvon ushlab qolindi. O'tror hokimi Inalxon (Inolchiq, uning forsiy laxallusi G'o'irxon edi) arab tarixchisi ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, Xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi.

O'tror fojeasidan so'ng Chingizxon Ibn Kafroj Bug'roni ikki mulozim bilan Xorazmshoh huzuriga elchi etib jo'natdi. Chingizxon aybdorni jazolash, Inalxonni unga topshirishni talab qiladi. Xorazmshoh Chingizxonning talabiga javoban elchini o'ldirishni va ikki mulozimni soqol-mo'ylovini qirib sharmandali qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikki davlat o'rtasida harbiy to'qnashuv muqarrar ekanligini ko'rsatadi.


## 2. O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi va unga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – Vatan himoyachisi.

Mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazmshoh Muhammad davlati o'z boshidan g'oyatda og'ir, musibatli va tang siyosiy vaziyatni kechirayotgan edi. Bu vaziyat «O'tror voqeasi»dan so'ng yana ham keskin tus oldi. Xorazmshoh Muhammad o'zi boshlagan qaltis o'yindan talvasaga tushib, boshiga urgan ilondek gangib qoladi va qimmatga tushadigan juda katta xatolarga yo'l qo'ya boshlaydi. Bu xatolarning hammasiga asosiy sababi uning o'z onasi Turkon xotun bo'ldi. Xorazm saltanatining turli urug'lardan tashkil topganligi va hokimiyatning Muhammad hamda uning onasi Turkon xotun orasida bo'linganligi, ya'ni qo'shhokimiyatchilik tashqaridan qaraganda juda qudratli bo'lib ko'ringan bu hokimiyatni amalda juda bo'shashtirib yuborgan edi.

Xorazmshoh Muhammadning qo'shinlari asosan qang'lilar, qipchoqlar va turkmanlardan tashkil topgan edi. Turkon xotun tufayli Dashti Qipchoq va Kaspiy dengizining shimoliy hududlarida yashab yurgan va madaniy jihatdan orqada bo'lgan qabilalar Xorazmshoh Muhammad qo'shinida lashkarboshilik va viloyatlar hokimligi lavozimlarini egallab olgan bo'lib, ular faqat Turkon xotun buyrug'iga quloq solar edilar. U asosiy masalalarda o'zini Muhammaddan ustun qo'yar va uning ko'plab buyruqlarini bekor qilar edi. Turkon xotun o'ziga-o'zi «dunyo malikasi» unvonini berib, buyruqlariga «Tinchlik va din homiysi, koinot ayollari malikasi Turkon» deb imzo chekar ekan. Xorazmshoh Muhammad islom olamida ham o'z obro'-e'tibori va puturini ketkazib bo'lgan edi. Xullas, Chingizxon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatida ichki vaziyat notinch va barqaror emasdi.

Chingizxon bu mamlakatning harbiy qudrati, geografik holati davlat boshqaruvidagi qarama-qarshilik va zaiflik tomonlarini o'rganib chiqdi hamda mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat urush uchun nihoyatda qulay ekanini tushunib, 1218-yili navbatdagi qurultoyini chaqirgan va unda harbiy harakatlar rejasini ishlab chiqdi. 1219-yilning ko'zida Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga qarshi urush harakatlarini boshladi. Bu paytda Chingizxon lashkarlarining umumiy soni 200 mingga (ba'zi manbalarda 600 000 jangchi) yaqin edi.

Chingizxonga uyg'ur xoni Ediqut va Olmaliq hukmdori Sig'noqtakin kuchlari ham qo'shiladi. Chingizxon Irtish qirg'oqlaridan to Sayhun sohillarigacha bo'lgan harakati davomida hech qanday qarshilikka duch kelmadi. Hujumning dastlabki zarbasi O'trorga qarshi qaratildi (1219 sentabr – 1220-yil mart). Shu yerda Chingizxon o'z lashkarlarini to'rt qismga bo'ladi va Movarounnahr va Xorazmni



tezroq zabt etish maqsadida ularni to'rt yo'nalish bo'yicha yalpi hujumga tashladi. U o'g'illari Chig'atoy va O'qtoylarni O'tror shahrini qamal qilishga qoldiradi va buning uchun 100 ming kishilik lashkar ajratdi. Yana bir o'g'li Jo'chini ikkinchi qism lashkarga bosh qilib, Sirdaryo etaklari tomon yubordi va unga Sig'noq, O'zgan, Barchinlikent, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni bosib olishni topshirdi. Uncha katta bo'lmagan 5 ming kishilik qo'shinga Aloqno'yon va Sukatu Cho'rbiy ismli sarkardalar qo'mondon etib tayinlandi. Ularning vazifasi Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimida joylashgan Banokat va Xo'jand shaharlarini egallashdan iborat edi. Chingizxonning o'zi kichik o'g'li Tuluxon bilan birgalikda

Movarounnahrning katta qismini Muhammadning boshqa yerlaridan kesib qo'yish va qamal qilingan shaharlarga yordam yuborilishiga to'sqinlik qilish maqsadida Buxoroga yurish boshlaydi.

Muhammad Oloviddin Xorazmshoh dushmanga qarshi harbiy harakatlarni belgilash maqsadida Mashvarat (harbiy kengash) o'tkazadi. Biroq unda uning o'jarligi bilan noto'g'ri yo'lni belgilaydi. Ulkan qo'shin tor shaharlarga bo'lingan holatda jo'natildi va janglarning boshidayoq yagona boshqariladigan qo'shin sun'iy ravishda parchalanib, tarqoq holatga tushib qoldi. Umumiy nazoratdan xalos bo'lgan bir qancha lashkarboshilar qo'l ostidagi qo'shinlari bilan dushman tomonga o'tib ketdi. Qoracha Xojib, Safiy Akra, Badriddin Amid kabi sarkardalar sotqinlik yo'lga kirdi. Ammo oddiy xalq va o'z yerining ozodligi uchun kurashgan hokimlar mo'g'ullar istilosiga qarshi jiddiy kurashga bel bog'laydi. O'tror shahri Inalxon boshchiligida 5 oy davomida qamal holatida bosqinchilar hujumlarini daf etdi. Ammo mo'g'ullar katta kuch safarbar etib shaharni egallashdi. Inalxon qo'lga olingach Samarqandga olib borilib, qiynab o'ldirildi. O'tronni egalagan mo'g'ullar shaharni talab vayron qildi.

1220-yilning fevral oyida mo'g'ullar Buxoroni qamal qilishni boshlaydi. Shahar mudofaasiga Inanchxon O'g'ulhojib, Ixtiyoriddin Qo'shlu, Hamid Pura Qoraxitoylar boshchilik qildi. Ularning safini mo'g'ullardan qochib kelgan uyg'ur Gurxon (Ko'kxon) ham to'ldirdi. Noteng dushmanga qarshilik ko'rsatildi. Lekin 1220-yil 16-fevralda mo'g'ullar Buxoro shahrini egalladi. Shunday bo'lsa-da, shahar hali ularga batamom taslim bo'lgan emas edi. Uyg'ur Gurxon boshchiligida 400 nafar buxorolik vatanparvarlar shahar arkiga chiqib olib yana 12 kun mobaynida tengsiz dushman kuchlariga qarshi jang qildi. Faqat barcha vatanparvar jangchilar kurashib jon berganlaridan so'nggina mo'g'ullar Buxoro arkini qo'lga kiritdi. Alamga mingan mo'g'ullar bunga javoban buxoroliklarning 30 mingini qirib tashladi. Aholining qolgan qismi qullarga aylantirildi.

1220-yil martida Samarqandga qarshi harakat boshlandi. Qamalning beshinchi kuni shahar qozisi va shayxulislom boshchiligida mo'g'ullarga vakillar yuboriladi. 1220-yil 16-martda Samarqand darvozalari mo'g'ullarga ochib berildi. Shaharda ommaviy qirg'in boshlandi. Mo'g'ullar Samarqandning bosh suv inshooti «Juyi arzis» («Qo'rg'oshin nova»)ni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldirdi. Namozgoh darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni xonavayron qildi. Chingizxon Samarqand shahridan 30 mingga yaqin hunarmand va rassomlarni asirlikka oldi va ularni o'z farzandlari, xotinlari, qo'shin boshliqlari, qarindosh-urug'lari va yaqin kishilariga xizmatkorlikka bo'lib, hadya qilib berdi.

Samarqand jangidan so'ng Muhammad Xorazmshoh tahlikaga tushib, o'z mamlakatidan qocha boshladi. Avval Iroqqa, so'ng Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashura oroliga borib yashirindi. 1220-yilning dekabrda u ayanchli tarzda vafot etdi. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Xorazmshoh o'limi oldidan Xorazm saltanatini faqat sulton Jaloliddin saqlab qola olishiga nihoyat ko'zi yetadi, uning beliga qilich taqib, Jaloliddinni taxt vorisi va valiahd deb e'lon qildi. Qolgan farzandlariga Jaloliddin izmidan chiqmaslikni vasiyat qildi.



Shu o'rinda Jaloliddin Manguberdi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uning to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198–1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220–1231) edi. Onasi – Oychechak turkman kanizaklardan bo'lgan. U voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215-yil). Biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan edi.

1220-yilning yozida Chingizxon Naxshab (Qarshi)ga bostirib kirdi va uni egalladi. Shu yilning kuzida esa Termizga ham qo'shin tortdi. Termiz qamalning 11-kuni qattiq hujum bilan zabt etilib, shahar xarobaga aylantiriladi. Harbiy yurishlar oqibatida Sirdaryo havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari ham zabt etilgan.

1221-yilning boshida Jaloliddin Manguberdi va shahzodalar Oqshoh, O'zloqshohlar bilan Ko'hna Urganch (Gurganch)ga kelib, shahar mudofaasiga kirishadi. Lekin shahardagi Qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo'ladi. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bo'lmasligi aniq bo'lib qolgan edi. Ushbu voqealardan so'ng Jaloliddin 1221-yil 10-fevralda Xo'jand hokimi Temur Malik maslahati bo'yicha 300 nafar sinalgan suvoriylar bilan Urganchni tark etib, Xurosonga yo'l oladi. U Niso shahrigacha bo'lgan masofani 16 kunda bosib o'tadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mo'g'ullarga qarshi mardonavor ko'rashgan yana bir tarixiy shaxs Xo'jand shahri hokimi **Temur Malik** edi. U 1220-yilning aprel oyida Xo'jand mudofaasiga rahbarlik qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Chingizxon Xo'jand shahrini egallashga salkam 70 ming kishini safarbar etgan. Uzoq muddatli og'ir



janglardan holsizlangan Temur Malik o'zining oxirgi odamlarini 70 ta qayiqqa joylab Sirdaryo o'zidan Urganch yerlariga olib ketadi. U yerda uning qo'shinlari yangi taxt vorisi Jaloliddinga qo'shiladi. Urganch himoyaga tayyorlanadi. Chingizxon bu shahar istilosiga eng sara 50 ming kishilik askar kuchlarni tashlaydi. Mo'g'ullar shafqatsiz jang olib boradilar. Shahar himoyasida sabot turgan 76 yoshli shayx Najmiddin (asl ismi - sharifi – Ahmad ibn Umar Xivakiy)ning «*Yo Vatan, yo sharaflı o'lim*» degan g'oyasi ila har qaysi uy uchun jang olib boriladi. Urganch kurashi 7 oy davom etadi. Haligacha mo'g'ullar hech yerda bunchalik ko'p talafot ko'rmagan edi.

Xuroson hududida Jaloliddin Manguberdi Nishopur, G'azna, Niso kabi shaharlar atrofida mo'g'ullarga qahshatgich zarbalar berdi. G'azna yaqinidagi Voliyon qal'asidagi jangning o'zida mo'g'ullardan 9 mingtasi halok bo'lgandi. Ayniqsa, 1221-yilda shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvona dashti yaqinida 30 minglik mo'g'ul qo'shini Jaloliddin tomonidan tor-mor etilganligi Chingizxonni hayratga soldi. O'zaro o'lja talashuvi arazlab qolib Sayfiddin Ig'roqdan ajralgan Jaloliddin ko'p sonli dushman oldida chekinishga majbur bo'ldi.

Endi Chingizxonning o'zi Jaloliddinga qarshi qo'shin tortdi. Fapdiz qal'asi (G'aznadan 50 km sharqda joylashgan) yaqinida Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltirdi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekindi. Chingizxon qo'shini Jaloliddinni daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oldi. 1221-yil 25-noyabrda payshanba kuni bo'lgan tengsiz jangda mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (bu cho'l hozirda ham «Cho'li Jaloliy» deb ataladi). Daryo qirg'og'iga kelib, bu voqeani kuzatib turgan Chingizxon taajjub va hayratdan yoqasini barmoqlari bilan tutib: «Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan, hech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo'lini (mardona) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo'lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug' Xudo ishidir», – degan edi.

1222-yilda Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonga yurish qildi. U katta o'ljani qo'lga kiritib, shu asosda Hind yerlarida yana yangi qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi. Bu qo'shin harakati tufayli 1225–1227-yillarda Iroq va Kavkazga yurish qilgan. 1227-yilning sentabrida Isfaxon (Eron) shahri yaqinida Jaloliddin katta mo'g'ul qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi.



Urganch. Jaloliddin Manguberdi haykali

1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchradi. Uning kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog'a, Tabrizni 1231-yilda egallab, Jaloliddinni ta'qib yetishgan. U ta'qibdan qutulib, Kurdiston tog'lariga chiqib ketgan. Ammo bu yerda qaroqchi qurdlar qo'liga asir tushib, fojiali ravishda 1231-yil 20-avgustida halok bo'ldi. Shunday qilib, 140 yil hukmronlik qilgan buyuk Xorazmshohlar davlati va uni boshqargan xonadon yakun topdi.

Jaloliddin Manguberdi O'rta Osiyo urush domiga tortilgan, siyosiy parokandilik hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'lgan edi. U Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil kurash olib

bordi. 14 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan uning xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish yo'lida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, **1999-yil 5-noyabrda** Xorazmda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi tantanali nishonlandi. Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdigacha muhtasham haykal o'rnatildi. **2000-yil 30-avgustda** esa «*Jaloliddin Manguberdi*» ordeni ta'sis etildi.

**3. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.** Mo'g'ullar istilosidan keyingi Movarounnahr va Xorazmdagi hayotni so'z bilan ifodalash g'oyatda og'ir. O'lkaning gullab turgan shahar va qishloqlari bamisoli kultepaga aylandi, hayot izdan chiqdi, bir vaqtlar aholi gavjum bo'lgan vohalar bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Hali Chingizxon hayotligi chog'idayoq o'zi bosib olgan hududlarni farzandlari o'rtasida taqsimlab berdi. To'ng'ich o'g'li Jo'chiga Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Shimoliy Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar tegdi. Jo'chi vafotidan so'ng bu yerlar uning o'g'li Botuxonga o'tdi. Ikkinchi o'g'il Chig'atoyxonga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahr, Xorazmning janubiy (markazi Qiyot shahri) hududlari, shuningdek, Balx, Badahshon, Kobul, G'azna va Sind daryosigacha bo'lgan yerlar berildi. Uchinchi o'g'il O'qtoygacha Chingizxon o'zining kindik qoni tomgan vatani Mo'g'ulistonni va Xitoyni hadya qildi. Kenja o'g'li Tuluga esa Xuroson bilan

Eron tegdi. Chingizxon lashkarlarni ham farzandlari o'rtasida taqsimlab berdi. Ana shu tariqa mo'g'ullar zabt etgan bepoyon hududlarni uluslarga bo'lib, udel asosida boshqara boshlaydi. Uluslar markaziy davlatga – xonlar xoni – «*qoon*» yoki «*xoqon*»ga bo'ysunar edi. Uluslar hokimi esa «*xon*» deb atalgan. Chingizxon vafotidan so'ng xonlar xoni – *xon O'qtoy* bo'lgan. Ulug' xoqonning poytaxti Qoraqurum shahri edi.

Movarounnahr va Xorazmning janubiy hududlari Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lib, XIV asrning 40-yillariga qadar mavjud edi. Ulus poytaxti Beshbaliq shahri bo'lgan. Mo'g'ullar madaniy taraqqiyotda o'lkamizning yerli xalqlariga nisbatan juda qoloq edidlar. Ularning bunday bepoyon va katta hududdagi mamlakatni boshqarish tajribalari yo'q edi. Shu bois mo'g'ullar mahalliy xalqlarning zodagon vakillari xizmatidan foydalanishga majbur edilar. Ana shunday zodagonlardan biri bo'lgan xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochga Movarounnahrni bevosita idora qilish topshirilgan. U o'ziga poytaxt qilib Xo'jand shahrini tanlagan.

Mo'g'ullar Mahmud Yalavoch boshchiligida o'lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edi. «*Kalon*» – dehqonlardan olinadigan asosiy soliq edi va u hosilning 1/10 qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan «Qopchur» solig'i olingan. Bu soliq turining miqdori har yuz bosh qora moldan birga teng edi. Bundan tashqari, «Yaso» qonuni bo'yicha aholidan davlat foydasiga «*Shulsi*» – deb atalgan soliq undirilgan. «Shulsi»ning miqdori har bir podadan ikki yashar qo'y va qimiz uchun har ming otdan bir biyani tashkil etgan. Bular ham yetmaganday mamlakatdagi savdo yo'llarida joylashgan bekat – «*Yom*» (jom)larning xarajatlari ham aholi gardaniga qo'yilgan. Ularning miqdori shu darajada ko'payib ketar ediki, ba'zi hollarda har bir «yom» uchun 20 ot-ulov, so'yish uchun qo'ylar, sog'ish uchun sog'uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan. Yuqorida sanab o'tilgan soliqlardan tashqari xalq ommasi yana mahalliy to'ralarning zulm va sitamlaridan ham azob va zahmat chekadi. Ana shu tariqa aholi mo'gullar bosqinidan so'ng ikkiyoqlama zulm iskanjasida qiynaldi. Bosqinchi mo'g'ullarning va mahalliy zodagonlarning zulm va sitamlariga qarshi xalq bir necha bor kurashga ko'tarildi. 1238-yilda Buxoroga yaqin Torob qishlog'ida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni (unga g'alvir ustasi, hunarmand Mahmud boshchilik qiladi) ana shunday qo'zg'olonlardan biridir. Bu qo'zg'olon tez orada Buxoro va uning atroflaridagi qishloqlarga yoyildi. Unda mehnatkash dehqonlardan tashqari hunarmand va kosiblar ham qatnashadi. Mahmud Torobiy qo'zg'olonini mo'g'ullardan norozi bo'lgan Buxoro ruhoniylarining boshlig'i Shamsiddin Mahbubiy ham qo'llab-quvvatladi va

qo'zg'olonchilarga qo'shildi. Qo'zg'olonchilar mo'g'ul lashkarlarini Buxoro ostonalarida tor-mor keltirdi. Mag'lubiyatga uchragan mo'g'ullar Karmanaga chekindi va Xo'janddan Mahmud Yalavoch yordamini kutdi. Qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. Karmana ostonalarida qo'zg'olonchilar bilan mo'g'ullar o'rtasida qattiq va shiddatli jang bo'ldi. Bu jangda mo'g'ullardan 10 ming kishi o'ldirildi. Ammo qo'zg'olonchilarning rahbari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiyar ham jangda halok bo'ldi. Bu qo'zg'olon istiqboli uchun katta yo'qotish edi. Mahmud Torobiyning ukalari Muhammad va Ali qo'zg'olonga rahbarlikni o'z qo'llariga olgan bo'lsalar-da, ular yoshlik va tajribasizlik qildi. Xo'janddan yetib kelgan Mahmud Yalavoch qo'zg'olonn shafqatsizlik bilan bostirdi va uning qatnashchilaridan ayovsiz o'ch oldi. Qo'zg'olon ishtirokchilaridan 20 ming kishi qirib tashlandi. Buxoro va uning atroflarida yana mo'g'ullarning Chig'atoy ulusi hukmronligi tiklanadi. Ammo qo'zg'olon xalq ommasining kelgindi bosqinchilar zulmidan sabr kosasi to'lib-toshganligini ko'rsatdi. Bu qo'zg'olon xalq ommasining bir yoqadan bosh chiqarib hamjihatlik bilan kurashga otlansa, mo'g'ullarni Vatan tuprog'idan haydab chiqarib, o'z ozodligi va mustaqilligini qo'lga kiritishi mumkin ekanligini aniq-ravshan namoyon etdi.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni bahonasi bilan markaziy hokimiyatdan Chig'atoy – Movarounnahr hukmdori Mahmud Yalavoch chetlashtirildi. Unga qo'zg'olonn bostirishda sustkashlik qilganligi aybi qo'yildi. Yalavochning o'rniga uning o'g'li Mas'udbek 1289-yilgacha Movarounnahrda hukmronlik qildi. Mahmud Yalavoch ulug' qoon O'qtoy huzuriga yetib borgach, u Dasin (Pekin) shahriga hokim qilib tayinlandi va 1250-yilgacha, ya'ni vafotiga qadar shu lavozimda turdi.

Shu narsa alohida e'tiborga loyiqki, mo'g'ullar Movarounnahrda qariyb bir yarim asr mobaynida hukmronlik qilgan bo'lsalar, shu davr mobaynida biror muddat bo'lsa-da, tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik bo'lgan emas. Chingizxon nasli namoyandalari, shuningdek, boshqa mo'g'ul qabila va urug' zodagonlari markaziy va udel hokimiyatlari uchun talashib, boylik, yer, davlat hirsini havasi bilan bir-birlariga qarshi ayovsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu kurash va tarafkashliklarning azobini esa oddiy mehnatkash xalq tortdi.

Saltanat birligini buzishga qaratilgan harakatlarning dastlabki ko'rinishlari hali Chingizxon hayotligi chog'ida ko'zga tashlangan edi. O'shanda Chingizxon o'z o'g'li Jo'chidan shu darajada qattiq gazablangan ediki, ota-bola o'rtasida qonli to'qnashuv bo'lishiga oz fursat qolgan. Faqat Jo'chining bevaqt o'limi tufayli bu

dahshatli hodisa ro'y bermadi. Jo'chi vafot etgach, uning o'g'li Botuxon bilan O'qtoyning o'g'li Quyuqxon o'rtasida kurash keskinlashdi. To'satdan Quyuqxon dunyoni tark etdi (1249) va yana ikki o'rtada urush bo'lmadi.

Xullas, 1251-yilda Qoraqurumda chaqirilgan qurultoy chingiziylar o'rtasidagi ziddiyatlarni biryuqlik qilishi kerak edi. Unda Chig'atoy va O'qtoy avlodlari fitna uyushtirishda ayblanib qo'lga olindi. Qurultoydan so'ng ularning qarindosh-urug'laridan 77 amir qatl etildi. Qurultoyda Botuxon va uning ukasi Berkaxonning qo'llab-quvvatlashi natijasida Tuluxonning bosh farzandi Munqa ulug' xoqon (1251–1259) etib saylandi. Munqa davrida Chig'atoy ulusi tugatildi. Ulus yerlari Munqa va Botuxon o'rtasida o'zaro taqsimlandi. Faqat Chig'atoyning nabirasi Olg'uxon Oltin O'rdaga qarshi keskin choralar ko'rib, 60-yillarda Chig'atoy ulusini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'ldi. Yuqoridagi voqealar shuni ko'rsatadiki, buyuk mo'g'ul davlati faqat nomigagina bor edi, xolos. Amalda esa har bir ulus o'zicha mustaqil bir xonlik, davlat edi va ular bir-birlariga nisbatan zimdan ish tutardi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Chig'atoy mo'g'ullarining ma'lum bir qismi: ilg'or zodagonlar, savdogarlar va boshqalar madaniy jihatdan o'zlariga qaraganda ancha rivoj topgan mahalliy xalq ta'sirida o'troq hayot kechirishning afzalligini tushuna boshladi. Bunda albatta mahalliy hukmdorlar ba'zi bir vakillarining olib borgan tadbirkorlik siyosati ham ma'lum darajada ijobiy o'rin tutgan. Bu borada Chig'atoy ulusining vakillaridan Qayduxon va mahalliy hukmdorlardan Mas'udbeklarning nomlarini tilga olish joizdir. Tolos vodiysida Chig'atoy ulusining xoni bo'lgan Qaydu 1269-yilda mo'g'ul shahzodalari va no'yonlarining qurultoyini chaqirdi. Unda qurultoy qatnashchilari «bundan keyin tog' va cho'llarda yashashga, shahar atroflarida manzil qurmaslikka, chorva mollarini ekinzorlarda o'tlatmaslikka va bekordan bekorga jarima va soliqlar olmaslikka» qaror qildi.

Movarounnahr hukmdori Mas'udbek esa shaharlarning ichki hayotini yaxshilashga katta e'tibor berdi, tovar-pul munosabatlarini tiklash maqsadida pul islohoti o'tkazdi. U o'lkaning 16 shahar va viloyatlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Naxshob, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va o'lchovlarda yuqori qiymatga ega bo'lgan sof kumush tangalar zarb ettirib, muomalaga kiritgan. Bu ko'rilgan tadbirlar natijasida sekin-astalik bilan hayot jonlana bordi, hunarmandchilik, savdo va dehqonchilik yana izga tusha boshladi. Chig'atoy avlodlari o'troq madaniy hayotga intilib, o'zlari ham har tomonlama taraqqiy



etdilar va asta-sekin mahalliy xalqlar bilan qo'shib, qorishib ketdi. Ular o'z hokimiyatlarini mustahkamlash maqsadida islom dinidan foydalandi va uning keng tarqalishiga yordam beradi. Chig'atoyning nabirasi Muborakshoh (1264) mo'g'ul hukmdorlaridan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan.

O'troq hayot tarzini afzal ko'rgan va islom diniga xayrixoh bo'lgan Chig'atoy ulusi xonlaridan biri Kepakxon (dastlab 1309; ikkinchi bor 1318–1326) edi. U Tuvaxonning o'g'li bo'lib, qadimgi Nasaf shahridan janubroqda o'ziga saroy qurdiradi, bu joy Qarshi nomi bilan tarixga kiradi va Kepakxon davlatining poytaxti bo'ldi. Poyon Ravshanovning fikricha, Qarshi sarhadi kengayib, shu yillarda Naxshob va Nasaf ham uning tarkibiga kirib, qo'shib ketgan.

Kepakxon Qarshida o'zining hukmronligi davrida davlatni idora qilish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul islohotlarini o'tkazadi. U davlatni viloyatlarga, ya'ni mo'g'ulcha «tumanlar»ga bo'ladi, mahalliy hokim va beklarga moslashtirib idora uslubida olib bordi.

Kepakxon mamlakatda ichki savdo-sotiqni tartibga solish, xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aloqalarini yaxshilash maqsadida ikki xil pul birligini yo'lga qo'yadi. Yirik kumush tangalar – *dinor*, mayda kumush tangalar – *dirham*, deb yuritilgan va ularning har ikkalasiga ham bir xil nom – «*kepaki*» berilgan edi. Bu pul birligi, hatto temuriylar davrida ham aholi o'rtasida muomalada bo'lgan.

Chig'atoy ulusi hukmdorlari davrida yerga egalik qilishning to'rt xili mavjud edi: birinchisi *mulki devon* deb atalib, bu davlatga qarashli yerlar edi; ikkinchisi *mulki inju* – xon noiblari va ularning avlod-ajdodlariga qarashli yerlar. Uchinchisi *mulki vaqf* – masjid, madrasa, xonaqo, mozar va maqbaralarga qarashli yerlar. To'rtinchisi – *xususiy mulk* yerlari. Yerlar va mulklarning kattagina qismi harbiy zodagonlarga, xon oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga «*iqto*» va «*suyurg'ol*» yer-mulklari tarzida bo'lib berilgan. Ular «*iqtidorlar*» va «*suyurg'ol egalari*» deb atalib, har qanday soliq va to'lovlardan ozod qilingan. Yirik yer egalarning mulklarida qaram bo'lib qolgan mayda dehqonlar «*kadivarlar*» deb yuritilgan va ular o'z xo'jayinlariga qarashli bo'lgan yerlarda hosilning 1/3 evaziga koranda bo'lib ishlab berar edi.

XIV asrning 40-yillaridan e'tiboran Qarshi shahri mo'g'ul xonlaridan bo'lgan Qozonxonning poytaxtiga aylandi. U Kesh – Samarqand hududlari oralig'ida «Zanjir saroy» nomi bilan ma'lum bo'lgan saroy barpo qildi. 1347-yilda Qozonxon mahalliy turk zodagonlari tomonidan qattiq mag'buliyatga uchradi va Qozog'on tomonidan o'ldirildi. Ana shu tariqa Chig'atoy sulolasi hukmronligi barham topdi.



1269-yilda Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv – Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va G'arbiy ulus, ya'ni Movarounnahrda bo'linib ketgan edi. «Xorazmning sharqiy qismi ham G'arbiy ulusga qaragan». 1348-yildan boshlab Movarounnahr, ya'ni Chig'atoy ulusi yerlariga hukmronlik qilish mo'g'ullardan bo'lgan Tug'luq Temurga, 1363-yilda uning vafotidan so'ng esa o'g'li Ilyos Xo'ja ixtiyoriga o'tdi.

1340–1370-yillar mobaynida Movarounnahrda fitna, tarqoqlik va o'zboshimchalik shu darajada kuchaydiki, mo'g'ullar mahalliy hukmdorlar usidan umuman nazoratni eplay olmadilar, har bir viloyat, tuman va shahar amalda o'ziga-o'zi bek, o'ziga-o'zi xon edi. Jumladan, Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida, asosan turkmo'g'ul qabila boshliqlari hukmron bo'lib, ular markaziy qoonga bo'ysunmas edi. Bu hol ulug' xonlarning viloyatlar ustiga lashkar tortishiga sabab bo'lardi. Kesh va uning viloyatida Hoji Barlos, Xo'jand viloyatida Boyazid Jaloir, Balx viloyatida 1358-yilda ovda o'ldirilgan turk amiri Qozog'onning nabirasi amir Husayn, Xuttalonda Kayxusrav hukmron edi. Xullas, XIV asrning 50-yillari oxirlarida Movarounnahrda hukm surgan tarqoqlik va beboshliklardan xalq ommasini og'ir aholda edi.

### **9-MAVZU: Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV–XV asrlar)**

#### ***Reja:***

1. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.

2. Markazlashgan davlatning tashkil topishi va saltanatni barpo etish yo'lidagi harbiy yurishlar.

3. Amir Temur davlatidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. «Temur tuzuklari» va uning ahamiyati.

4. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson.

5. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayot.

***Tayanch so'z va iboralar:*** Siyosiy tarqoqlik. Amir Temur. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi. Amir Temur harbiy yurishlari. Anqara jangi, Temur tuzuklari. Xuroson, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Amir Temur va temuriylar davri moddiy madaniyati, Ulug'bek akademiyasi, Amir Temur bog'lari, ilm-fan ravnaqi, tarixshunoslik, xattotlik san'ati, tasviriy san'at, musiqa madaniyati, badiiy adabiyot: o'zbek va fors-tojik adabiyoti.

*Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Асарлар, 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. *Каримов И.А.* Амир Темури давридаги бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин. Асарлар, 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. *Каримов И.А.* Амир Темури – фахримиз, ғуруримиз. Асарлар, 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. *Каримов И.А.* Халқимиз бор экан, Амир Темури номи барҳаётдир. Асарлар, 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
6. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 151–234.
7. Амир Темури жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Ҳ. Қароматов. / – Т.: Шарқ, 2001.
8. *Акрамов С.А.* Буюк ўзбек олими Улуғбек. – Т.: 1961.
9. *Аҳмедов Б.* Улуғбек. – Т.: Камалак, 1994.
10. *Аҳмедов Б.* Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
11. *Аҳмедов Б.* Соҳибқирон Темури (хаёти ва ижтимоий сиёсий фаолияти). – Т.: 1996.
12. *Вамбери Ҳ.* Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: Ғафур Ғулом, 1990.
13. *Заҳириддин Муҳаммад Бобури.* Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.
14. *Ибн Арабшоҳ.* Амир Темури тарихи – Темури тарихида тақдир ажойиботлари. 2-жилдлик. – Т.: Меҳнат, 1992.
15. *Каримов Ш., Шамсутдинов Р.* Соҳибқирон Амир Темури ва унинг салтанати. – Андижон: Мерос, 1995.
16. *Люсьен Кэрэн.* Амир Темури салтанати. – Т.: Маънавият, 1999.
17. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар). – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001.
18. *Муродов А.* Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: 1971.
19. *Муҳаммаджонов А.* Темури ва теурилар даври. – Т.: Фан, 1996.
20. *Муҳаммаджонов А.* Амир Темури (рисола). – Т.: 2011.
21. *Низомиддин Шомий.* Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
22. *Очилов Э.* Бобури (рисола). – Т.: 2011.
23. *Очилов Э.* Алишер Навоий (рисола). – Т.: 2011.
24. *Пасилов Б.* Улуғбек (рисола). – Т.: 2011.
25. *Сағдуллаев А.* ва бошқа. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I қисм. – Т.: Академия, 2000.
26. *Содиқов Ҳамдам.* Амир Темури салтанатида хавфсизлик хизмати: (тарихий бадиалар). Масъул муҳаррир Н. Абдулазизова. – Т.: 2010.
27. Темури тузуқлари / Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалилов ва бошқа., Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ. Қароматов тарж. – Т.: Ўзбекистон, 2011.

28. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I қисм. Ўқув кўлланма. – Т.: 2002. – Б. 171–193.
29. *Холбеков М.* Амир Темурнинг Европа кироллари билан ёзишмалари. – Самарқанд: 1996.
30. *Шарофиддин Яздий.* Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997.
31. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 262–302.
32. Ўзбекистон тарихи (Қисқача маълумотнома). – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 87–111.
33. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003.
34. *Қаюмов А.* Алишер Навоий. – Т.: 1994.
35. *Қудратуллаев Ҳасан.* Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. – Т.: Шарқ, 2011.
36. *Ҳожи Исмаилов Абдуллоҳ.* Марказий Осиёда ислом маданияти. Қисқача маълумотнома / Маъсул муҳаррир Н. Иброҳимов. / – Т.: Шарқ, 2005.
37. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: 2006. – В.164–185.
38. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. – Т.: Sharq, 2010. – В. 338–485.

#### **1. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.**

**Амир Темурнинг siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.** XIV asr o'rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo'rlari qo'l ostida bo'lsa ham, bu yerlar mayda bo'laklarga bo'linib ketib, ularda toj-u taxt, hokimiyat uchun o'zaro nizolar kuchayib ketgan edi. Chig'atoy ulusidagi barqarorlik Qozonxon vafotidan so'ng (1336–1347) barham topdi. Siyosiy va iqtisodiy inqiroz Amir Qazog'on (1347–1357) davrida yanada avj oldi. Amir Qazog'on fitna natijasida o'ldirilgach, XIV asrning 50–60-yillarida Chig'atoy ulusiga qarashli Movarounnahr hududida 10 ga yaqin mustaqil bekliliklar vujudga keldi (Xorazmda so'fiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayyidlar amirlari va boshqalar). Mustaqil bekliliklarga bo'linish oqibatida beklar o'rtasida doimiy nizo, janjallar yuzaga keldi. Yurt butunligi jiddiy xavf ostida qoldi.

Buning ustiga, 1348-yil taxtni egallagan Tug'luq Temur 1360–1361-yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kirdi. Uning xuruji ham vaziyatni yanada qiyinlashtirdi. Mana shunday o'zaro ichki urushlar qizigan, mo'g'ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi. Bunday qaltis vaziyatda siyosiy kurash maydoniga yosh Amir Temur kirib keldi.



Amir Temur, (to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul) 1336-yil 9-aprelda Kesh, hozirgi Shahrisabz shahri yaqinidagi Xoja Ilg'or (hozirgi Yakkabog' tumani) qishlog'ida barlos urug'ining oqsoqollaridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan Amir Tarag'ay (?–1360) oilasida dunyoga keldi. Amir Temurning onasi Takina xotun (taxm. 1318–1353) buxorolik.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Shayx Shamsuddin Kulol (?–1360-yilgacha, Kesh) Temurbekning piri bo'lgan.

U yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va saboqdoshlari (Abbos Bahodur, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilgan.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aql-u zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasovuriy va amir Qazatn bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'ay Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Tug'luq Temur 1360–1361-yillarda Movarounnahr harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Movarounnahr amirlari xalqqa bosh

bo'lib mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmadi. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtini tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izladi. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochdi.

Yurt boshiga tushgan mana shunday og'ir pallada siyosat maydoniga kirgan 24 yoshli Temur xalq bilan birga bo'lishga intilib, boshqacha yo'l tutdi. U 1360-yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishib, xon xizmatiga kirdi. Natijada Tug'luq Temurning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi (hokim) etib tayinlandi. Shubhasiz, bu noilojlikdan qo'yilgan siyosiy hamda strategik qadam bo'lib, bu bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talon-tarojining oldini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Biroq, Movarounnahrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxo'ja va uning lashkarboshisi amir Bekkichik bilan Amir Temurning murosasi kelishmay qoladi. Shu sababdan 1361-yilning oxirida u mamlakatni tark yetishga majbur bo'ldi.

Amir Temur Xivaning janubida, Urganjiy dashtida Tug'luq Temurning yana bir raqibi – qaynog'asi Amir Husan (Husayin ibn Musallab – ?–1370) bilan uchrashdi. Amir Husayn bilan Sohibqiron Temurning bir-birlari bilan juda yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo'lgan davrlar 1361–1365-yillarni o'z ichiga oladi. Dastlab ular Tug'luq Temurning farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi To'qol (Tavakkal) bilan jang qiladilar va uni tor-mor keltirdi. Biroq ushbu jang oqibatida Sohibqiron g'oyat og'ir ahvolga tushdi. 1362-yil bu vaziyatdan xabar topgan Maxon (hozirgi Mari yonida) hokimi turkman Alibek Joniqurbon Ilyosxo'jaga yoqish maqsadida Temurni qo'lga oldi va zindonga tashladi. Temur zindonda 62 kun tutqunlikda hayot kechirgan. Bunday og'ir vaziyatda unga turkmanlarning sanjari qabilasi boshlig'i Muborakshoh yordam berdi.

1362-yilning kuzida Seyistonda viloyat (Eron va Afg'oniston chegarasida joylashgan tarixiy viloyat) hukmdori Malik Qutbiddinning tarafida turib mekroniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda Amir Temur o'ng kafti va o'ng oyog'idan jarohatlandi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib qoldi. Shu bois undan dahshatga tushgan dushmanlari hasad bilan «Temurlang» deb atashgan. Ikki oy mobaynida Temur Garmsirda davolandi. So'ngra Balxga yo'l oldi. Bu yerda hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rdi.

1363-yil Tug'luq Temur vafot etib, Mo'g'ulistonda xonlik taxtini Ilyosxo'ja egalladi. Shu yili Amir Husayn va Amir Temur Amudaryoning chap sohilida, Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g'alaba qozondi. Keyingi ikki



yil davomida ittifoqchilar Ilyosxo'ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qildilar. Nihoyat 1364-yil oxirida ular mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqaradilar.

Biroq Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxo'ja 1365-yilning bahorida yana Movarounnahr ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida (Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»siga ko'ra 1360-yil 16-iyunda) Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga binoan 1365-yil 22-mayda sodir bo'ladi. Tarixda u «Jangi loy» – «Loy jangi» nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda amir Husaynning xiyonati oqibatida mag'lubiyatga uchraydilar va o'z qo'shinlari bilan Amudaryo bo'ylariga chekinib, Balx viloyatida o'rnashdilar. Ilyosxo'ja esa hech qanday qarshilikka uchramay Xo'jand, Jizzax va boshqa bir qancha shahar hamda qishloqlarni egallab, Samarqand ustiga yurdi. Samarqand o'sha paytlarda katta qo'shinga qarshilik ko'rsata olmasdi. Shaharning na devori va na mustahkam istehkomlari, na qurollangan sipohiyi bor edi. Bek va amirlar shaharni tark etgan edi, lekin mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tarildi, sarbadorlar shahar mudofaasini o'z qo'llariga oldilar. Shahar mudofaachilariga Madrasa tolibi ilmlaridan Mavlonozoda Samarqandiy, jun (paxta) tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof va mergan mavlono Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar Samarqand shahrida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berdilar.


Samarqandliklarning ishlab chiqqan harbiy rejası puxta chiqdi va o'z samarasini berdi. Bir necha hujum samarasiz tugagach mo'g'ullar shahar atrofını qurshab olib uzoq vaqt qamal qilish rejasini o'ylab chiqdilar. Lekin lashkar safida yuqumli kasallik tarqaldi. Buni ot vabosi (o'lati) deb atashadi. O'lat oqibatida Ilyosxo'ja qo'shinlariga mansub otlarning katta qismi qirilib ketdi. Ilyosxo'ja katta yo'qotishlar bilan dastlab Samarqandni keyin esa Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Sarbadorlarning Ilyosxo'ja ustidan g'alabasi butun Movarounnahrda ovoza bo'ldi. Bu paytda Keshda bo'lgan Amir Temur bu xabarni Amudaryo bo'ylarida bo'lgan Amir Husaynga yetkazdi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yetib keladilar va shahar yaqinidagi Konigil (Samarqandning janubiy sharqida, Cho'ponota tepaligi etagidagi gil koni bo'lib, bu kon yaqinida, Siyob (Obirahmat) arig'i bo'yida joylashgan keng, ko'kalamzor mavze) mavzeyiga kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib bordi. Uchrashuvning



birinchi kunida beklar ularning sharafiga ziyofat berib, sha'niga hamd-u sanolar aytadilar. Biroq ertasi kuni Abu Bakr Kuluyi bilan Xurdaki Buxoriylar dorga tortiladilar. Mavlonozodani esa Amir Temur o'rtaga tushib qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi. Ammo ko'p vaqt o'tmay Husayn bilan Amir Temur o'rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. Amir Xusayn Amir Temurga yaqin bir necha beklarni isyon ko'tarishda gumonsirab, ularga katta jarima soldi. Temur do'stlariga yordam berish maqsadida bisotidan bor javohirlarni qaynog'asiga to'lab yaqin kishilarini qutqarib qoldi. To'plangan boylıklar ichida Husaynning singlisi O'ljoy Turkonning qulog'idagi oltin sirg'a ham qo'shib tovonga kiritilgan bo'lib uni aslida Temur va O'ljoy Turkonning to'y kunlariga yaqin Husayn tomonidan hadya qilingan edi. Javohirlar ichida sirg'a egasi kimligini bilib turib Husayn uni qaytarib bermagan. Amir Temur bundan qattiq g'azablangan. 1366-yilda O'ljoy Turkon xotunning o'limi ham ikki hukmdorni bir-biridan ajralishini tezlashtirgan omil desak bo'ladi. 1366–1370-yillar davomida ular o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar ham bo'ldi.

1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan *Sayyid Baraka* (?–1404) tashrif buyurdi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi tabl (nog'ora) bilan yalovbayroq tortiq qilib, uning buyuk



Amir Temur davlati yalovbayrog'i

kelajagidan bashorat qildi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shildi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etdi. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengildi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ldi. Amir Husayn qatl etildi. Bu g'alabadan so'ng o'sha davrning udumiga ko'ra, Temur Amir Husayn taxtiga o'tirgach, uning xotinlaridan to'rttasini o'ziga xotinlikka tanladi, ular aql va farosatda yagona, go'zallikda tengsiz Chig'atoy ulusi xoni – Qozonxonning qizi Saroymulkxonim, Bayon sulduzning qizi Ulus

og'ο, Xizr – Yasavuriyning qizi Islom og'ο va Tog'oy – Turkonlar edi. Husaynning boshqa xotinlarini Temur o'ziga yaqin kishilarga xotinlikka berdi.

Amir Temur Qozonxonning qizi Saroymulkxonim (1341–1408), ya'ni xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur «ko'ragon», ya'ni «xonning kuyovi» unvonini oldi. Zotan xon avlodiga mansub Saroymulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug' hisoblanib, «Katta xonim» yoxud «*Bibixonim*» degan unvonga ega bo'ldi.

1370-yilning 11-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning quroldosh do'stlari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkazildi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilindi. Lekin o'sha davrdagi vaziyatni va amirlardan bo'lganligini hisobga olib, mo'g'ullarning qarshiligini kuchaytirmaslik maqsadida xon taxtiga «soxta xon» Chingizxon naslidan Suyurg'otmish (1370–1388) o'tqazildi. Keyinchalik Amir Temur Xorazmga qilgan 4-yurishidan qaytib kelgach, Buxoroda olamdan o'tgan Suyurg'atmishxon o'rniga uning o'g'li Sulton Mahmud (1388–1404) rasmiy ravishda xon sifatida taxtga o'tqazilgan. Amalda markaziy hokimiyatni Amir Temur o'zi boshqardi. Samarqand davlat poytaxti deb e'lon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal'alar hamda saroylar barpo etildi.

**2. Markazlashgan davlatning tashkil topishi va saltanatni barpo etish yo'lidaga harbiy yurishlar.** Amir Temur Movarounnahrning qonuniy hukmdori bo'lib olgach, mamlakat hududlarini birlashtirishga kirishdi. Shu maqsadda u 1370-yil iyunida Samarqandda qurultoy chaqirdi. Qurultoyda Shibirg'on hokimi amir Zinda Chashmdan boshqa Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari to'plandilar. Unda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo'shin tuzish masalalari muhokama etildi. Ikki daryo oralig'ida yashovchi turk – mo'g'ul qabila boshliqlari, barcha amirlar Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etdi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar berdi. Amir Temur yirik harbiy bo'linmalarning boshliqlari etib Ardasher Qavchin, Joku Barlos, Iskandar A'lam Shayx, Usmon Abbos, Sayfiddin Barloslarni tayinladi.


Amir Temur hukmronligining dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga katta ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun 1370-yil oxiri va 1371-yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qilindi. Mo'g'ul xoni Kepak Temurga qaqshatqich zarba berilishi orqasida Farg'ona vodiysi hududlarini,

O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayramni o'z tasarrufiga oldi. 1370–1371-yillarda Hisor, Badaxshon, Qunduz kabi viloyat amirlari ham Amir Temur hokimiyatini tan olib, unga bo'ysundilar. 1370-yil kuzi va 1371-yil bahorida amir Zinda Chashmga zarba berib, Afg'oniston shimolidagi Shibirg'on viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oldi.

Amir Temur o'z saltanati tarkibiga Xorazm mulkini ham qo'shib olish uchun besh marotaba (1371, 1373, 1375, 1379, 1388) harbiy yurish qildi. Ma'lumki, Xorazm Oq O'rda hukmdorlariga suyanib, hanuz bo'ysunishdan bosh tortib kelardi. Xorazmni Amir Temur Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. Ammo bu masala elchilar vositasida tinch yo'l bilan hal etilmagach Xorazm hududiga besh marotaba yurish qildi. Birinchi yurishi 1371-yil yoz (iyul)ida Kot shahrini egallash bilan yakunlandi. Amir Temurning 1373-yil bahori va 1375-yil yozida Xorazm tomonga qilgan ikki yurishi natijasiz tugadi. Bu asnoda Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan ittifoq tuzib olgan Xorazm hukmdori Yusuf so'fi, uning yordamida Amir Temur davlati hududlariga bir necha bor yurish qilib, Qorako'l viloyati va Buxoro tumanlarini talon-taroj etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379-yilda Amir Temurni to'rtinchi marotaba Xorazmga qo'shin tortishga majbur etdi. Lekin bu yurish ham avvalgilari kabi sulh tuzish bilan tugadi. Biroq shunga qaramay, Yusuf so'fi ilgari Xorazmning Chig'atoy ulusiga tegishli bo'lgan janubiy-sharqiy (Kot va Xiva shaharlari birga) qismini yana qaytadan bosib oldi. Amir Temur davlatiga nisbatan Yusuf so'fining tutgan bunday tajovuzkorona siyosati Xorazm ustiga Amir Temurning beshinchi marta yurish qilishiga sabab bo'ldi. 1388-yilda Xorazmning poytaxti vayron etilib, uning hududlari Amir Temur davlatiga bo'ysundirildi.

Bu orada Amir Temur Mo'g'uliston hokimi Qamariddin bilan ham to'qnashib qoldi, chunki bu davrda uning Movarounnahrda bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. Amir Temur mamlakatning shimoliy-sharqiy hududlariga nisbatan bo'layotgan muttasil tahdidni bartaraf qilish uchun Qamariddinga jiddiy zarba berishga kirishdi. Yigirma yil (1371–1390) mobaynida Sohibqiron Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alaba qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda ichki tarqoqlik, o'zaro nizolar, shuningdek Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'yib, ushbu hududda yashovchi el-u elat va xalqlarni yagona davlatga birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movarounnahr aholisi taqdirida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Biroq Amir Temur bu bilan qanoatlanmadi. Tez orada u qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu davrda Oltin O'rda, Xuroson va Erondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo'l keldi. Amir Temur harbiy yurishni Xurosondan boshladi. 1381-yil u Hirotni egalladi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Xuroson, xususan uning poytaxti Hirot strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, Eron, Iroq, Shom va boshqa mamlakatlarga o'tishda ko'prik vazifasini o'tardi. 1381–1384-yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval 1381-yilda Kalot, Turshiz va Sabzavor, 1382-yilda Tus, Qalot shaharlari, 1383-yilda esa butun Xuroson va Mozandaron (Erondagi tarixiy viloyat) bo'ysundirildi. 1384-yilda esa Astrobod



viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari ham bo'ysundirildi.

Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda «uch yillik (1386–1388)», «besh yillik (1392–1396)» va «yetti yillik (1399–1404)» urushlar nomi bilan mashhur. Uch yillik harbiy yurishlarda Eron, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston) oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi.

Amir Temurning «uch yillik» urushlari davrida shimoliy g'arbdan, ya'ni Oltin O'rda tomonidan bo'layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ldi. U 1389-yilda Dizaq (Jizzax)ning Achchiq mavzesida, 1391-yilning 18-iyunida (hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan Qunduzcha (Kondurcha) daryosi vodiysida va nihoyat, 1395-yilda (28-fevral) Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi. Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida Quyi Itil (Volga) viloyatlari, Saroy Berka, Saroychik va Hojitarxon (Astraxan) kabi shaharlar egallandi. Amir Temur To'xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha bordi va Yelesht shahrini ishg'ol qildi. Rusiya tarixchilari B.D. Grekov va A.Y. Yakubovskiylarning ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishlari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

Shundan so'ng Amir Temur butun e'tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt yetishga qaratdi. U besh yillik (1392–1396) urush davomida G'arbiy Eron, Iroq (1393-yil 22-avgustda Bag'dod shahri zabt etilgan) va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar va jaloiriylar sulolasining hukmronligi barham topdi.

Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan urushi 1398-yil maydan – 1399-yil martigacha davom etgan. Bu urushda Amir Temurga qarshi asosiy raqib sifatida Dehli hokimi Sulton Mahmud (1393–1413) chiqdi. 1398-yil 17-dekabrda Dehli yaqinidagi Panipat yalangligida shiddatli jang sodir bo'ladi. Bu jangda ham Sohibqiron qo'shini g'olib bo'ldi. Amir Temur Dehlidan keyin deyarli katta qarshilikka uchramaydi. Qariyb o'n bir oy davomida Hindiston zabt etildi. Sohibqiron juda ko'p qullar va boyliklarni, shu jumladan 120 jangovar filni qo'lga kiritadi va ularni 1399-yil may oyida o'z poytaxti Samarqandga olib keldi. Bular orasida ko'zni qamashtiruvchi juda katta, olovdek yonib turgan qip-qizil javohir – «*Chirog'i olam*» alohida qimmatga ega edi. Yoqutning yuziga buyuk Amirning



nomi o'yib yozildi va Samarqanddagi yigirma besh ming noyob javohirlar qatoridan joy oldi.

Amir Temurning 1399–1404-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabilarning Ubuliston o'lkasi (qadimgi Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etildi. Keng ko'lamli harbiy yurishlar natijasida Sohobqiron Amir Temur saltanatining chegarasi Usmonli turklar davlati chegarasiga borib taqaldi. Bu davrda Yaqin Sharqda Usmonli turklar, shuningdek Misr sultoni al-Faraj (1399–1405) ning, shuningdek, jaloiriylar (1336–1432) va qoraqayunlilar (1380–1468) ning siyosiy va harbiy qudrati oshib, Temur saltanatining janubi g'arbiy viloyatlariga xavf solina boshlandi. Bu urushning ochilishiga asosiy sabab bo'ldi. Shu omillar tufayli bu ikki davlat o'rtasida to'qnashuv bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi. Biroq Amir Temur 1389-yildan Usmonli turklar taxtni egallagan sulton Boyazid I Yildirim (1359–1403) bilan jang qilishga shoshilmadi, aksincha, sulton bilan munosabatni yaxshilash tarafdori bo'lgan. Ziddiyatlarni diplomatik yo'l bilan hal qilish maqsadida ikki tomon o'rtasida 4 marta xat almashish tashabbuskori bo'ldi. Biroq Sulton Boyazid esa har safar qaysarlik, manmanlik qilib, hatto Amir Temur nomiga nomaqbul so'zlarni yozgan. Natijada Amir Temur urush boshlashga sabab bo'ldi.



**Boyazid I Yildirim**  
(1359–1403) – Usmonli  
turklar sultoni  
(1389–1402)

Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida, Chubuq mavzeyida sodir bo'ldi. Bu jang tarixda «**Anqara jangi**» deb ataladi. Uch kun davom etgan bu jangda har ikki tomondan hammasi bo'lib 360 ming nafar, shu jumladan, Sohobqiron Amir Temurning taxminan 200 ming, usmonlilar sultonining 160 ming askari qatnashadi. Janggohning qulay qismiga joylashtirilgan qo'shinning markaziy qismiga Amir Temurning o'zi qo'mondonlik qiladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohobqiron kuchlari turk qo'shinini tor-mor etdi.

Sulton Mahmud Boyazid I Yildirimni asir olishga muvaffaq bo'lgan. U bilan birga xotini serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiylar ham asirga tushdilar. So'ng Amir Temur Anadolu yarim orolini egalab, O'rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir





**1402-yil Anqara jangi. Amir Temur va Boyazid I Yildirim o'rtasidagi yakkama-yakka olishuv. O'rta asr miniaturasi**

shahrini zabt etdi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham berdi. So'ngra, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari unga taslim bo'ldi, Misr ham o'z itoatkorligini izhor etdi. Amir Temur Anqara, Nikeya, Bursa va Izmir shaharlarini egallab, Vizantiya va butun xristian olamining Boyazidga yig'ib bergan bojlaridan iborat katta boylikni qo'lga kiritdi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlarning o'zi kattagina karvonga yuk bo'lgan.

Bandi qilingan Boyazid o'rduog'ohga olib kelingach, Amir Temur unga hurmat va ehtirom ko'rsatdi. Uning vafotidan so'ng (1403-yil 9-mart) esa vorislariga himmat ko'zi bilan boqib, ularga beqiyos muruvvatlar qildi. Chunonchi, Boyazidning to'ng'ich o'g'li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinladi. Edirne (Adrianopol) shahri uning poytaxti qilib belgilandi. Anadoluning shimoliy-g'arbiy qismi suyurg'ol sifatida Iso Chalabiyyga in'om qilinib, Bursa shahri uning poytaxtiga aylantirildi. Usmonli turklar davlatining markaziy qismini boshqarishni Muso Chalabiyyga topshirdi. Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo'lmagan, chunki u Yevropa davlatlarining

Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi.

Shunday bo'lsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380–1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399–1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390–1407) tabriklab, unga o'z muboraknomalarini yubordi. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404-yil 27-noyabrda 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. O'sha yili qish Markaziy Osiyo tarixida eng qahraton qish bo'lgan. Sirdaryoning suvi 1 metrga muzlagan, askarlardan ko'pini quloq – burunlarini, qo'l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay shamollab qoladi. 1405-yil yanvar oyining o'rtalarida O'trorda to'xtashga qaror qilishdi va shu yerda 18 fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etdi. Amir Temurning vafoti haqidagi xabar garchi avvalda sir tutilsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay bu noxush xabar mamlakat bo'ylab tarqalib ketdi. Amir Temurning jasadini Samarqandga olib kelinib dafn qilindi.

**3. Amir Temur davlatidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. «Temur tuzuklari» va uning ahamiyati.** Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan edi. U dunyoning 27 o'lkasi va viloyatlarni zabt etib, Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari; shimoliy-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha; janubiy sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlar bo'ysundirildi. Amir Temur hayotligi chog'idayoq saltanatni asosan to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'il, nabiralariga taqsimlab bergan: Xuroson (1396), Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) Shohrux (1377–1447)ga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshoh (1366–1408)ga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayx Mirzo (1354–1394)ga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammad (1376–1407)ga suyurg'ol qilib berilgan.

Amir Temur davrida davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangandi. Sohibqiron o'ziga qadar mavjud bo'lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi:


- Davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi.
- Davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi buzilmasligi.
- Davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilishi.
- Boshqaruv tizimi muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo'lishi.
- Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e'tiborida bo'lishi.
- Fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish.
- Har bir davlat shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi.

➤ Davlat tepasida turgan kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglamog'i.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to'qqizinchisini, ya'ni, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta'minlashini qo'shdi.

#### Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi shakli

Dargoh	Devon (vazirlik)
Dargohni oliy hukmdorning o'zi boshqargan	Ijroiya hokimiyat – devonni <b>devonbegi</b> (bosh vazir) boshqargan. Devon 7 (ayrim manbalarda 8 ta) vazirlikdan iborat bo'lgan. Ular:
Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlarini oliy devon yuritgan	<b>1 – mamlakat va raiyat vaziri.</b> U viloyat va tumanlardan to'planadigan hosil, soliq-o'lponlar va mamlakat obodonligi bilan shug'ullangan
<b>Dargohda quyidagi amaldorlar ham bo'lgan:</b>	<b>2 – vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar vaziri.</b> U navkarlarning ta'minoti (maoshi, oziq-ovqat va qurol-yarog'lari) bilan shug'ullangan
<b>Bosh hojib, Hojiblar, Xazinabon</b>	<b>3 – tijorat (savdo) vaziri</b> edi. U tashqi savdo boji tamg'a, chorvachilikdan to'planadigan zakot, egasiz qolgan mol-mulkning tasarrufi, meros va merosxo'rlar kabi masalalar bilan shug'ullangan

<b>Xonsolar jibachi, Qushchi, Bakovul</b>	4 – <b>saltanatning moliya ishlari vaziri</b> bo'lib, davlat xazinasining kirim-chiqimlarini boshqargan. Oliy devonda har kuni ushbu to'rt vazir hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda hukmdorga hisob berib turgan
<b>Kotiblar, Bitikchilar, Tabiblar</b>	«Xolisa» <b>bosh nazorat hay'ati</b> . Chegara viloyatlari va boshqa tobe mamlakatlar boshqaruvi, ya'ni moliyaviy muammolar va keladigan daromadlarni boshqarish, nazorat qilish uchun maxsus 3 ta vazir tayin etilgan. O'z navbatida bu 3 vazir saltanatning «xolisa» deb yuritilgan bosh nazorat hay'atini tashkil etgan. Bu 7 vazir devonbegiga bo'ysungan va u bilan bamaslahat davlatning moliyaviy ishlarini amalga oshirganlar
<b>Sozandalar, Dorixonachilar</b>	8 – <b>adliya vazirligi (devoni mazolim)</b> ham mavjud bo'lgan. Bu vaqtda adliya, ya'ni sud tizimi uchga bo'lingan: fuqarolik, ya'ni dunyoviy ishlar bilan shug'ullanuvchi sud, harbiy sud (lashkar qozisi), shariat tartibi bilan shug'ullanuvchi islom qozisi
<p>Mavjud hujjatlarni rasmiylashtirish tizimi ham tartibli bo'lib, hujjat bir necha amaldorning nazoratidan o'tib ularning muhrlari bosilgandan keyin oliy hukmdorning muhri bosilgan. Shundan so'ng bu hujjat qonun kuchiga kirgan. Amir Temur muhrida qo'yidagi belgi o'z aksini topgan:</p> 	

Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, qoziyi ahdos (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri a'zam (vaqf yerlari, mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhassil (soliq undiruvchi), tavochi (asosiy qo'shinlarni to'plash ishiga mutasaddi amaldor), qorovulbegi, qutvol (qal'abon), muhtasib (shariat qoidalari ijrosini, bozor tartiblarini nazorat qiluvchi) va boshqalar bo'lgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda qurultoy va kengashlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratgan. Uning «...davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim», – degan so'zlari buning yorqin dalilidir. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur tomonidan Qarshi, Samarqand, Qorabog' va boshqa joylarda o'tkazilgan qurultoy va kengashlarda shahzodalar, davlat ma'murlari, harbiy boshliqlar, ulamolar va mulkdor zodagonlarning vakillari qatnashgan. Ularda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoliga oid masalalar muhokama etilib, qarorlar qabul etilgan va tadbirlar

belgilangan. Masalan, 1403-yilda Kavkazning Baylaqon shahrida chaqirilgan kengashga olim-u fuzalolar taklif etilgan. Ulardan mamlakatni boshqarishda, xususan, uning obodonligi yo'lida amalga oshiriladigan xayrli ishlar – jamoat binolari va inshootlar qurilishlarida o'z maslahatlari bilan ko'mak berishlari so'ralgan.

Mamlakatning iqtisodiy hayotida dehqonchilik asosiy o'rin tutgan. Shu bois Amir Temur va temuriylar dehqonchilikning bosh omili bo'lgan sug'orish ishlariga katta ahamiyat berishgan. XIV asrning oxiri – XV asrning 1-yarmida Movarounnahr va Xurosonda yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, korizlar, suv omborlari – bandlar va hovuzlar barpo etilib, suv tanqis viloyat va vohalar, shahar, qishloqlarning suv ta'minoti yaxshilangan. Qo'riq va bo'z yerlar o'zlashtirilib, obikor yerlarning maydoni kengaytirilgan. Yangi qishloqlar, chorbog'lar va sayilgoh bo'stonlar barpo etildi. Amir Temur Samarqand vohasi, poytaxt va uning tevarak-atrofini obod etilishiga alohida e'tibor bergan. Obirahmat, Mazdahin, Bozor, Korand va Nahri jadid kabi sug'orish tarmoqlari orqali obod etilgan qishloqlarning soni 72 taga yetgan. Yangi qishloqlarning bir qismi Sharqning mashhur shaharlari: Damashq, Qohira, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan nomlanib ulug'langan.

Sohibqiron Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik sug'orish ishlarini amalga oshirgan. Uning farmoni bilan Murg'ob daryosidan 20 dan ortiq sug'orish tarmoqlari qazilib, Marv vohasi qayta obod etilgan. 1401-yil Kavkazning Baylaqon mavzesida Arake daryosidan chiqarilgan Barlos kanali zamonasining yirik irrigatsiya inshootlaridan biri bo'lgan. Kanalning uzunligi 10 farsax (60–70 km) bo'lib, kemalar qatnay olgan.

Shohrux va Ulug'bek hukmronligi davrida ham sug'orish ishlari yanada kengaygan. Dashtlarga suv chiqarilib, bo'z yerlar o'zlashtirilgan. Xususiy sohibkorlar esa, hatto bir-ikki yil davomida soliq va to'lovlardan ozod etilgan. Bu davrda Temuriylar Samarqand, Qashqadaryo, Marv vohalari, Tus vodiysi va Hirotda yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, dehqonchilik maydonlarining suv ta'minotini tubdan yaxshilashgan.

Amir Temur va temuriylar davrida mulkchilik munosabatlari yanada takomillashgan. Mulkning, asosan, 4 shakli: «**mulki devon**» (davlat yerlari), «**mulk**» (xususiy yerlar), «**mulki vaqf**» (madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar) va «**jamo'a yerlari**» bo'lgan. Yerlarining katta qismi davlat mulki hisoblangan, ularni «suyurg'ol» yoki «tarxon» tarzida in'om qilish keng tarqalgan. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga nomigagina qaram bo'lib, odatda, ular deyarli mustaqil bo'lishgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar



barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod etilgan. Tarxonlik amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan.

Ko'pgina manbalar Amir Temur va temuriylar davrida O'rta Osiyo va boshqa hududlarda soliq tizimi ma'lum me'yorga tushirilganligini bayon qiladi. Mansabini suiiste'mol qilgan ayrim amaldor shaxslar aholi noroziligiga uchragan va hukmdorlar tomonidan qattiq jazolangan. Temuriylar davrida soliqning asosiy turi «xiroj» bo'lgan. Xiroj – yer solig'i sifatida yilda ikki marotaba yig'ib olingan. Olingan hosilga qarab mahsulot yoki pul holida qat'iy belgilangan miqdor hajmida soliq to'plash talab etilgan.

Sug'orma dehqonchilik yerlardan «mol» solig'i olingan. Mulk yerlarining bir qismi «ushr» miqdorida soliq to'lagan. Tanobona solig'i bog'lardan olingan. Amalda jon solig'i, ulog', begor kabi soliqlar ham bo'lgan. Soliqlardan tashqari fuqarodan soliq yig'uvchi (muxassilona), hosilni belgilovchi (sohib jamona), kirimni boshqaruvchilar (zobitona, «dorug'ona»), suv taqsimlovchi («mirobona») kabi to'lovlar undirib olingan. Shuningdek, aholi favqulodda xarajatlar uchun «avorizot» va «tavojjuhoti xorijiy» kabi odatdan tashqari soliqlarni ham to'lagan.

XIV asrning oxiri va XV asrning 1-yarmida Temuriylar davridagi iqtisodiy taraqqiyotga (hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo) mamlakatda o'tkazilgan pul islohotlari turtki bo'lgan. Dastlab, Amir Temur, so'ngra ayrim Temuriylar mamlakatda yagona pul birligini joriy yetishgan. Amir Temur vazni 6 gr li «tanga» va 1,5 gr li «miri» deb yuritiladigan 2 xildagi kumush tangalarni zarb etgan. Bu kumush tangalar Suyurg'atmishxon va Sulton Mahmudxon nomlari bilan Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon va Iroqning 40 dan ortiq yirik shaharlarida chiqarilgan. Shohrux Astrobod, Buxoro, Domg'on, Isfahon, Kushoniya, Kermon, Qum, Nishopur, Marv, Samarqand, Sabzavor, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Hirot, Sheroz va boshqa shaharlarda o'z nomi bilan kumush tangalar zarb etib, pulning ichki savdodagi muomalasini tartibga solgan. Bu borada 1428-yilda Ulug'bek o'tkazgan fulusiy (mis) pullar islohoti ayniqsa katta ahamiyat kasb etgan.

Mehnatkash aholini ichki chakana savdoga kengroq jalb etish maqsadida Ulug'bek mahalliy hokimiyatning yengil vazndagi barcha chaqa pullarini man etgan. Bir vaqtning o'zida u Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya va Andijonda zarbxonalar barpo qilib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirib, muomalaga chiqargan. Xalq o'rtasida Ulug'bekning chaqalari «fulusi adliya», ya'ni «adolatli chaqa» nomi bilan shuhrat topgan. Shu bilan birga Ulug'bek tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida «tamg'a» – savdo bojini bir muncha ko'paytirgan.





**Miri (besh tiyinlik tanga), Amir Temur va Mahmud. Samarqand shahri. Og'irligi 1,51 gr. Kumush. 1391**



**Fulus (tanganing bir turi). Amir Temur. Samarqand shahri. Og'irligi 4,13 gr. Mis. 1383**



**Tanga. Amir Temur va Mahmud. Isfag'on shahri. Og'irligi 1,51 gr. Kumush. 1395**



**Tanga. Amir Temur va Muhammad Sulton. Sultoniya shahri. Og'irligi 6,21 gr. Kumush. Sanasi o'chib ketgan**



**Miri (besh tiyinlik tanga). Amir Temur va Mahmud. Samarqand shahri. Og'irligi 6,03 gr. Kumush. Sanasi o'chib ketgan**



**Fulus (tanganing bir turi). Amir Temur. Samarqand shahri. Og'irligi 3,51 gr. Mis. 1383**



**Miri (besh tiyinlik tanga). Amir Temur va Mahmud. Xorazm. Og'irligi 1,50 gr. Kumush. 1394**



**Fulus (tanganing bir turi). Og'irligi 2,45 gr. Mis**



**Tanga. Amir Temur va Mahmud. Mordin shahri. Og'irligi 5,95 gr. Sanasi o'chib ketgan**



**Tanga. Amir Temur va Muhammad Sulton. Yazd shahri. Og'irligi 6,17 gr. Kumush. 1402**



**Tanga. Amir Temur va Mahmud. Koshon shahri. Og'irligi 6,00 gr. Sanasi o'chib ketgan**



**Tanga. Amir Temur va Mahmud. Bomiyon. Og'irligi 5,95 gr. Kumush. 1397-1398**

Amir Temur davlatida ham huquqiy munosabatlar, Qur'oni Karim va Hadisi sharifda bayon qilingan tartib-qoidalarga asoslangan. Uning huquq va qonun unsurlari «Temur tuzuklari»da o'z aksini topgan. Temur tuzuklari – adolatli hamda kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar hisoblanadi. Amir Temur hayotining so'nggi yillarida o'zining esdaliklari va tuzuklarini yozib qoldirdi. «Temur tuzuklari»ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o'zbek tilda bitilganligi ma'lum. Asar o'rtaosiyolik Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy tomonidan 1610-yili usmoniy turk hokimlaridan biri – Yaman hokimi Ja'far Posho (hukmronlik yillari 1607–1612) ning topshirig'i bilan fors tiliga tarjima qilindi va dunyoga «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari») nomi bilan tarqaldi. Bizga uning fors tilidagi nusxasi va fors tilidan o'zbek tiliga tarjimasining uch nusxasi yetib kelgan. Eng to'liq nusxasi «Malfuzot-i Temuriy» deb nomlangan va u Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu nusxa Toshkentda 2000-yili chop etildi.

Asar ikki qism, 56 ta banddan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342–1405-yil 18-fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismida Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-u nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi.

Amir Temur davlatni boshqarishda o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farq qilib, davlat va mamlakatni boshqarishda 1 yoki 2 tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. «Temur tuzuklari»da aytilishicha, davlat asosini 12 ijtimoiy toifa tashkil qiladi: Ular:

➤ sayyidlar (payg'ambar avlodlari), olimlar va shayxlar;

- katta tajribaga ega ilmi kishilar;
- xudojo'y, darvesh, qalandarlar;
- no'yonlar – amirlar, ya'ni harbiy kishilar, mingboshilar;
- askarlar (sipoh) va xalq ommasi (raiyyat);
- davlat boshqaruv ishlarini a'lo darajada biladigan maslahatgo'y dono va aqlli kishilar;

- vazirlar, kotiblar, devon boshlig'i;
- tibbiyot ahli, munajjim va muhandislar;
- muhaddislar va muarrixlar;
- tasavvuf vakillari va oriflar;
- hunarmandlar va san'atkorlar;
- tojir (savdogar) va sayyohlar xorij bilan savdo-sotiq.

Bu ijtimoiy toifalar taqdirini 3 narsa: podshoh, xazina va askar hal qiladi. Qo'shin, asosan o'n, yuz, ming va tumanga bo'lingan. O'n kishilik harbiy bo'linma tepasida turgan boshliq – o'nboshi, ... yuzboshi, mingboshi, tuman boshlig'i, no'yon deb atalgan. Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko'rsatilgan.

«Tuzuklar»da mukammal davlat boshqaruvini tashkil etish quyidagicha ifodalanadi:

- davlat daxlsizligini va mustahkamligini har tomonlama muhokama etish;
- oliy hukmdor hokimiyatining cheklanmaganligi hamda mustaqil siyosat yurgizishi;
- vazirlarga yuklatilgan majburiyatlar va ular bajarishi lozim bo'lgan vazifalar;
- markazga tobe bo'lgan mulk(ulus)lar amirlari hamda tuman hokimlarining vazifalari;
- oliy davlat kengashi;
- davlat xavfsizligi va mustahkamligi, joylardagi jamoat tartibi, hamda mamlakat tinchligi, osoyishtaligini saqlash;
- muntazam qo'shin tashkil etib, qo'shin qo'mondonlarini tayinlash, lavozimlarga ko'tarish, rag'batlantirish va ularga maosh to'lash;
- aholidan olinadigan turli soliqlar (zakot, xiroj va boshqalar) miqdorini aniqlash;
- harbiy yurishlarda jasorat namunalarini ko'rsatganlarni (noiblar, amirlar, sipohiylar va boshqalar) rag'batlantirish;
- harbiy yurishlar va janglar paytida qo'shinning joylashuvi va ularni ajratib turuvchi belgilar.

**I N S T I T U T E S**  
**P O L I T I C A L A N D M I L I T A R Y,**  
 WRITTEN ORIGINALLY  
 IN THE MOGUL LANGUAGE,  
 BY THE GREAT  
**TIMOUR, IMPROPERLY CALLED TAMERLANE;**

First translated into PERSIAN by ABU TAULIB ALHUSSEINI,  
 and thence into ENGLISH, with Marginal Notes,

BY MAJOR DAVY,

PERSIAN SECRETARY TO THE COMMANDER IN CHIEF  
 OF THE BENGAL FORCES

From the Year M D C C L X X ' 6 6 M D C C L X X I I I.

AND NOW PERSIAN SECR. TO THE GOVERNOR GENERAL OF BENGAL.

The Original PERSIAN transcribed from a MS. in the Possession of  
 Dr. WILLIAM HUNTER, PHYSICIAN EXTRAORDINARY to the QUEEN,  
 F. R. & A. S. and of the ROYAL ACADEMY OF SCIENCES at  
 PARIS, and the WHOLE WORK published with a Preface, Indexes,  
 Geographical Notes, &c. &c.

BY JOSEPH WHITE, B. D.

FELLOW OF WADHAM COLLEGE, and LAUDIAN PROFESSOR OF ARABIC IN THE  
 UNIVERSITY OF OXFORD.

O X F O R D :

AT THE CLARENDON-PRESS. M D C C L X X X I I I. (1783)

Sold by J. MURRAY, N<sup>o</sup>. 32 Fleetstreet, London; and by D. PRINCE  
 and J. COOKE, Oxford.

«Томур тузуқлари-нинг Оксфордда амалга оширилган  
 инглиз тилидаги нашри титул баррахи.  
 Буюк Британия, Лондон. 1783.»



«Temur tuzuklari»ning Oksfordda amalga oshirilgan ingliz tilidagi nashrida berilgan Amir Temur surati, Buyuk Britaniya, London, 1783

Shu bilan birga «Tuzuklar»da amir Temurning boshqaruv faoliyatini kuchli nazorat qilish, odamlardan unumli foydalanish, ularni o'z atrofiga to'plash va birlashtirish, katta-kichik tadbirlarni tashkil etish bo'yicha olib borgan ishlari haqidagi ma'lumotlar ham saqlangan.

**4. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson.** Amir Temur vafot etgan paytda uning 4 o'g'lidan 2 tasi (Mironshoh (1366–1408) va Shohrux Mirzolar (1377–1447)) va 19 ta nevara, 15 chevара, shuningdek, uning kichik qizi Sulton Baxt begim (taxm. 1365–1430) va katta qizi Og'a Begim (?–1382)ning o'g'li Sulton Husayn Mirzolar qolgan edi.

Amir Temur vasiyatiga ko'ra uning o'rmini Qobul, Qandahor va Shimoliy Hind yerlarini boshqarib turgan nabirasi Jahongir Mirzo o'g'li Pirmuhammad (1376–1407) egallashi kerak edi. Biroq Mironshoh o'g'li shahzoda Xalil Sulton (1384–1411) o'zboshimchalik bilan 1405-yilning 18 martida Samarqandni egalladi va o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qildi. Oqibatda shahzoda, amir va

viloyat noiblarining noroziligi kuchayib, isyon va g'alayonlar ko'tariladi. Bu hol saltanatning darz ketishiga olib keldi. Tez orada g'arbiy hududlarning ancha qismi mustaqil bo'lib ajralib ketdi. Ozarbayjon tomonda turkmanlarning Oq quyunli va Qora quyunli sulolalarining Temur saltanatiga bo'ysunmaslik va unga nisbatan qarshilik harakati kuchaydi.

Norozilik harakatlari boshlanishida, Farg'onada Xudoydod bilan Shayx Nuriddin Xalil Sultonga qarshi qo'zg'alib, O'ratepa va Farg'onani egallab oldi. Bu davrda Xurosonda Shohrux (1405-yil), Balx, G'azni va Qandahorda Pirmuhammad; G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o'g'illari Umar Mirzo va Abubakr Mirzo hokimi mutlaq bo'lib oladilar. Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram viloyatlari amir Berdibekning tasarrufiga o'tadi, Oltin O'rda amirlaridan Idiku Xorazmni zabt etadi. 1405–1408-yillarda Balx, Xuroson, Seyiston, Kermon va Ozarbayjonda



temuriy shahzoda va ayrim amirlarning birin-ketin ko'tarilgan g'alayonlari kuchayib ketadi. Valiahd Pirmuhammad bunday g'alayon va fitnaning qurboni bo'ladi (1407-yil 22-fevral vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar tomonidan o'ldirilgan). 1408-yil 22-aprel kuni Qora qyunli turkmanlarning yetakchisi Qora Yusuf (1389–1420) bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'lib, Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketadi.

Xalil Sultonning Movarounnahr oliy hukmdori sifatidagi faoliyati uzoqqa chuzilmadi. Xuroson hukmdori Shohrux katta qo'shin bilan 1409-yil 25-aprelda Amudaryo orqali o'tib, Samarqandga yurish boshladi. Shu yil mayda shahar egallandi. Shohrux bilan tuzilgan shartnoma (1409) natijasida Xalil Sulton Movarounnahrdan voz kechgan. Unga Ray (Erondagi qadimgi shahar) berilgan. Umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Nihoyat, shijoatli Shohrux Mirzo bu qonli nizolar, urushlarga barham berib, Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat jilovini qo'lga kiritadi.

Shu o'rinda Shohrux Mirzo haqida to'xtaladigan bo'lsak, u Amir Temurning 4-chi o'g'li bo'lib, 1377-yil 20-avgustda Samarqandda tug'ilgan. Uning yoshlik davri Samarqandda o'tib, shu yerda dunyoviy va diniy ta'lim oldi. Shohrux Mirzoning davlat boshqaruvi va siyosiy-harbiy jaryonlarga jalb etilishi asosan Amir Temur tomonidan 1390–1391-yil Dashti Qipchoqqa va 1392-yil g'arbiy mamlakatlarga «besh-yillik yurishlari» chog'ida uni mamlakatni boshqarishga tayinlab qo'yishida namoyon bo'ldi. Ko'p o'tmay, Amir Temur uni o'z yoniga chaqirib oladi va 17 yoshli Shohrux Mirzo jangovar harakatlarda qatnasha boshlaydi. Keyinroq esa, Samarqandga qaytarib, poytaxtni boshqarib turishni topshiradi.

1396-yilda Amir Temur Shohrux Mirzoga Xuroson o'lkasini suyurg'ol qiladi. U Amir Temurning «yetti yillik yurishi»da, xususan, Yaqin Sharqdagi G'arbiy harakatlarda bevosita qatnashgan. Shohrux Mirzo janglarda shaxsiy dovyuraklik va jasoratini namoyish etgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, Amir Temur vafotidan so'ng, rasmiy ravishda Shohrux Mirzo 1405-yil 1-martda Temuriylar saltanati hukmdori sifatida Xuroson taxtiga o'tirdi va o'z nomidan Hirotda uning nomiga xutba o'qitib, pul (tanga) zarb ettirdi.

Shohrux Mirzo 1409-yil mayda Samarqandni egallaydi va poytaxtdan Hirotda qaytish oldidan 15 yoshli Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi. O'zi esa Xuroson hukmdori bo'lib qoladi (1409–1447). Shohrux Mirzo o'z hukmdorligi davrida Temuriylar saltanatining hududiy kengligi, harbiy salohiyati, kuchli iqtisodiy mavqeyini saqlashga intildi. Buning uchun Movarounnahr, Eron, Ozarbayjonga yurishlar qilib g'alaba qozongan.

Davlat boshqaruvi ishlarida saltanatni suyurg'ol tizimi bo'yicha boshqargan Shohrux Mirzo davlat devonining kundalik ishlarni doim nazorat qilib turgan. Devonda diniy va dunyoviy masalalar yuzasidan yetuk allomalar ishtirokida suhbatlar tashkil qilgan, o'zi ham ularda faol qatnashgan. Qarorlar qabul qilishda kengash va maslahatga katta e'tibor bergan.

Shohrux Mirzo davrida ham bunyodkorlik ishlariga, xususan, shaharlar obodonchiligi va sug'orish tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Xususan, 1405-yilda – Hirot, 1407-yilda Balx shaharlarini tiklashga oliy farmon bergan. 1220-yil Chingizxon yurishi chog'ida xarob qilingan Marv shahri qayta barpo etilib, unga Murg'ob daryosidan ariq qazdirib suv keltirildi. Obodonlashtirish ishlari bilan birga mamlakatda ilm-fan rivojiga alohida e'tibor berilgan edi. Hirot, Samarqand, Buxoro, Mashhad, Sheroz va boshqa shaharlarda ilm-fan keng rivoj topdi.



Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u 1394-yil 22-martda Eron Ozarbayjonining Sultoniya shahrida (Amir Temurning «*bash yillik yurish*»ida (1392–1396) Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qilish chog'ida) tug'ilgan. 15 yashar Ulug'bek davlat boshqaruvi ishlarida yosh bo'lgani sababli amir Shohmalik unga homiy (otaliq) etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi – O'trordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi voliylari 1410-yil bahorida Ulug'bek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo'lgan jangda Shohmalik va Ulug'bek g'alaba qilganlar. 1411-yil sentabrda Shohrux Samarqandga kelib, Shohmalikni o'zi

bilan Hirotga olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtdan boshlab, ya'ni 1411-yildan Ulug'bek Movarounnahrni mustaqil idora yetishga kirishgan.

Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u Amir Temur singari jang-u jadallarga qiziqmadi. Bu sohaga uning ortiqcha rag'bat ham bo'lmagan. Faqat zaruriyat taqozo qilgandagina u harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Xususan, 1414-yilda Farg'ona hukmdori shahzoda Ahmad itoatdan bosh tortishga uringan paytda u katta qo'shin tortgan va uni yenggan. Qashg'ar ham to 1428-yilgacha Ulug'bekka tegishli bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek o'z hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchi harbiy yurishi – 1425-yilning erta bahorida o'zini mustaqil xon deb e'lon

qilgan Mo'g'uliston xoni Shermuhammad o'g'lon (1421–1425)ga qarshi bo'ldi. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi va mahalliy muxolifatni kuchlarni bartaraf etib, mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi. Qo'lga kiritilgan o'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabrtoshi yasattiriladi.

Mo'g'ulistonda bo'lgan bu urushda Ulug'bek qozongan g'alabani nishoni tarzida Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida hijriy 828-yilda (1428) Ulug'bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o'ziga xos «zafarnoma» hozirgi kungacha saqlangan.

Ikkinchi harbiy yurishi Sig'noq shahari tomon bo'lgan. Sirdaryoning quyi havzasi Ulug'bek tasarrufida edi. Ulug'bek 1427-yil Sig'noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan Baroq o'g'lon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar qo'shini bilan to'qnashgan va mag'lubiyatga uchragan. Dushman Ulug'bekni ta'qib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan, Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli Shohrux Xurosondan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi.

Shohrux 1447-yil 12-mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. Uning vafotidan so'ng, Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatif (1423–1450) voris sifatida temuriylar hukmdori bo'lib qoladi. Lekin Shohruxning qattiqqo'l xotini Gavharshod begim bu haqda o'z fikriga ega edi. U Shohrux davrida Temuriylarning poytaxti bo'lib qolgan Hirot taxtiga marhumning 3-o'g'li bo'lmish Boysung'ur mirzoning o'g'li va suyukli nabirasi Alouddavla mirzoni o'tqazish tarafdori edi. Gavharshod begim va tarxon amirlar Abdullatifni oliy bosh qo'mondonlikka tayinlab, uning amakivachchasi Alouddavlani Hirot taxtiga o'tqazishgan. Bu qarordan norozi bo'lgan Abdullatif Alouddavla bilan qarshi urush ochgan, lekin Nishopur yaqinidagi jangda (1447) yengilib, hibsga olingan. Ulug'bek farzandi hayotini saqlab qolish maqsadida Alouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan. Unga ko'ra, Alouddavla Xuroson hukmdori deb tan olinib, Abdullatifga Balx ulusi berilgan. Biroq ko'p o'tmay sulh buzilib, Ulug'bek 1448-yil bahorida Abdullatif bilan birgalikda 90 ming askar bilan Xurosonga kelib, Hirot yaqinida bo'lgan jangda Alouddavlani tor-mor qiladi. G'alaba Abdullatifning shaxsiy shijoati va lashkarboshilik iste'dodi tufayli erishilgan bo'lsa ham, Ulug'bek fathnomani kichik o'g'li Abdulaziz nomidan e'lon qiladi. Undan tashqari, bobosi Shohrux tomonidan Abdullatifga vasiyat qilingan Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asi va uning ichidagi boyliklarini ham Ulug'bek Abdulazizga beradi. Shundan so'ng Ulug'bek bilan Abdullatif o'rtasidagi munosabat ochiq dushmanlik tusini oladi.

1449-yil Ulug'bek Samarqandda Abdulazizni qoldirib, Abdullatifga qarshi qo'shin tortgan va Amudaryo bo'yida ikki tomon qo'shini 3 oy muqobil turgan. Samarqandda qolgan beklar isyoni tufayli Ulug'bek poytaxtga qaytishga majbur bo'lgan, natijada Abdullatif Amudaryodan o'tib Termiz, Shahrisabzni egallagan. 1449-yilning oktabr oyida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'i yonida otasini yengib, taxtni egallagan. Abdullatifning roziligi bilan 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida Ulug'bek o'ldirildi (uning jasadi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan). Oradan 2–3 kun o'tmasdan ukasi – Abdulaziz Mirzo va otasiga sodiq bo'lgan amirlarni ham qatl ettirgan.

Mamlakat fuqarolari tomonidan «padarkush» («ota qotili») deb la'natlangan Abdullatif va uning tarafdorlari taxtda uzoq vaqt o'tirolmadi. Abdullatif olti oylik hukmronligidan so'ng, 1450-yil 8-mayda Ulug'bekning xos navkarlaridan Bobo Husayn Bahodir tomonidan o'ldirilgan. Uning kallasi tanasidan judo qilinib, Registon maydonida Ulug'bek madrasasining peshtoqiga osib qo'yildi.

Ulug'bek fojiasidan so'ng, 1450-yildan hokimiyatga bir vaqtning o'zida Samarqandda Ulug'bekning kuyovi Abdullo Mirzo, Buxoroda esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Said (1424–1469)lar podshoh qilib ko'tariladi. Oqibatda ular o'rtasida hokimiyat uchun yana kurash boshlanadi. Movarounnahr va Xurosonda muttasil davom etib turgan o'zaro kurashlar Dashti Qipchoqdagi hukmdorlar uchun juda qo'l keladi. 1451-yilda Abulxayrxon katta qo'shin bilan Abu Said yordami va ishtirokida Toshkent, Chinoz va Jizzax orqali Samarqandga Mirzo Abdulloga qarshi yurish qiladi. Sheroz qishlog'i yaqinidagi Bulung'ur anhuri yoqasida jang bo'ladi. O'zaro to'qnashuvda Mirzo Abdullo yengiladi va jangda halok bo'ladi. Shunday qilib, Abulxayrxonning yordamida Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib qoladi.

Temuriylar mulkinging Xuroson qismi 1449-yildan Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur tasarrufida edi. 1457-yilgacha u Xurosonni o'z qo'lida tutib turadi. 1457-yil Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgach, o'sha yili Abu Sayid Hirot shahrini egallab, saltanatning har ikki qismini birlashtiradi. Bu davrda Umarshayxning nabirasi Sulton Husayn (Husayn Boyqaro, 1438–1506) Xorazmni egallab oladi.

1469-yil Abu Said (Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlarni egallab turgan) oqquyunli turkmanlarga qarshi yurish qiladi. Mug'on (Ozarbayjon) cho'lida Uzun Hasan bilan bo'lgan jangda Abu Said halok bo'ladi. Otasining o'limidan so'ng, Abu Saidning vorislari Sulton Husayn bilan to'qnashmay Movarounnahrda qaytadilar. 1469-yilning 24-martida Sulton Husayn Xuroson

hokimi sifatida Hirotning taxtini egallaydi. Natijada temuriylar mulki yana ikki mustaqil qismga: Sulton Husayn hukmronligidagi Xuroson va Abu Said o'g'li Sulton Ahmad hukmronligidagi Movarounnahrda bo'linib ketadi.

Abu Saidning vafotidan so'ng Movarounnahrda hukmronlik qilgan avlodlari – Sulton Ahmad (1469–1494), keyin Sulton Mahmud (1494–1495/8) va keyinchalik Mahmudning o'g'li Sulton Ali (1498–1500) davrida yurtning yanada ichki ziddiyatlar-u tanazzulga yuz tutishi pirovard oqibatida Temuriylar hukmronligining barham topishiga olib keldi. XV asrning 90-yillari boshlarida Farg'ona mulkida Umarshayx Mirzo vafotidan so'ng, hokimiyat jilovini qo'lga olgan uning o'g'li navqiron va shijoatli Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo (1483–1530) Mirzoning Temuriylar saltanatini tiklash va saqlab qolish yo'lida Muhammad Shayboniyxon (1451–1510)ga qarshi olib borgan bir necha yillik jang-u jadal harakatlari ham natijasiz tugadi. Shundan so'ng, buyuk orzulari sarobga aylangan, vujudini umidsizlik qoplagan Bobur Mirzo butun e'tiborini Hindistonga qaratadi. 1526-yil 21-aprel Panipat jangida Dehlini egallaydi va keyingi janglari asnosida Hindiston zabt etildi. Shu tariqa boburiylar sulolaga asos soldi.

Xurosonda XV asrning ikkinchi yarmida Abusaid Mirzo o'limidan so'ng hokimiyatga kelgan Husayn Boyqaro (1469-yil 24-martidan to 1506-yil 5-mayga qadar hukmronlik qildi) davrida bu o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ko'plab muhim o'zgarishlar yuz berdi. Buning boisi shundaki, Temuriy shahzodalar ichida jasur va tadbirkor, salohiyatli va ma'rifatli hukmdor bo'lgan Husayn Boyqaro o'zining salkam 40-yillik hukmronligi davrida Xurosonda katta xayrli ishlarni amalga oshirish, saltanat qudratini ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Bu ulug'vor ishlar va sa'y-harakatlarida uning maktabdosh do'sti, buyuk donishmand, o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari (1441–1501)ning o'rni beqiyosdir.

Ulug' Navoiyning Boyqaro saroyida birinchi vazir sifatida katta mavqe va nufuzga ega bo'lishi, albatta, ko'plab muhim davlat masalalarini oqilona, raiyat foydasiga hal etishda qo'l kelgan. Ayniqsa, poytaxt Hirot va uning tevarak-atroflarida faol obodonchilik ishlari olib borilishini ro'yobga chiqarishda, ko'plab salobatli me'morchilik obidalari, xalq xo'jalik inshootlarini barpo etishda bu ikki ulug' zotning bahamjihat sa'y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Husayn Boyqaro vafotidan so'ng 1506–1507-yillarda sultonning sevikli xotini Xadicha begim irodasi bilan Xuroson taxtiga aka-uka Badiuzzamon ibn Sulton Husayn (1458–1515) va Muzaffar Mirzo (1473–1509) o'tiradi. Mamlakatda



qo'sh hukmdorlik vujudga keladi. Har ikki shahzoda o'z taxtgohini Hirotning ikki chekkasiga quradi. 1507-yil Muhammad Shayboniyxon Xurosonga kirib, birinchi jangdayoq har ikki shahzodaning qo'shinini tor-mor etib Hirotni egallaydi. Badiuzzamon Mirzo Eronga, Muzaffar Mirzo esa Astrobodga qochadi.

Shunday qilib, Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud bo'lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan.

**5. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayot.** Amir Temur va temuriylar davrida (XIV asr ikkinchi yarmi–XV asr) Movarounnahr va Xuroson – O'rta Osiyo madaniy hayotida juda katta yuksalish ro'y berdi. Bu davr o'z mohiyati bilan Sharq renessansining, uyg'onish davrining o'ziga xos bosqichi bo'ldi. Bu davrda madaniy hayotning kuchayish darajasi IX–XII asrlar orasidagi ilk musulmon renessansidan qolishmaydi.

**Moddiy madaniyat.** Amir Temur va temuriylar mamlakat mustaqilligi, el-yurt osoyishtaligi, uni obod etishda bunyodkorlik ishlariga katta ahamiyat berdilar. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo'lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat-u inshootlar bino qilganlar. Bu davrda Chingizxon hujumi va mo'g'ullarning beto'xtov bosqinlari oqibatida vayronaga aylangan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Banokat (Shohruxiya) kabi qadimgi shaharlar, qal'a va istehkomlar qayta tiklandi, ya'ni shaharlar va qishloqlar qad ko'tardi. Sohibqironning buyrug'iga asosan 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda Kesh shaharlari atrofida mudofaa devorlari barpo etiladi.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarida ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib bir qator shaharlari (1258-yil mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan Iroq poytaxti Bag'dodni, Dog'iston Respublikasidagi Darbandni, 1221-yilda mo'g'ullar istilosi davrida vayron qilingan Arake va Kura daryolari birlashadigan yerga yaqin bo'lgan shahar – Baylaqonni (1403-yil))ni qayta tikladi. Amir Temur tomonidan Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, 1389–1395-yillarda Turkistonda mashhur shayx Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirilgan bo'lsa-da, lekin asosiy e'tiborini ona shahri Kesh (Shahrisabz) va poytaxti Samarqandga qarattirdi.

Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda



mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbat ul-ilm val adab», ya'ni «Ilm va ta'lim gumbazi» degan sifat bilan shuhrat topgan. Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabzda ulkan saltanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan. Shahar atrofi qal'a devori bilan o'rab olingan.

Shahrisabzda Amir Temur tomonidan «*Dor us-Siyodat*» («*Sayyidlar uyi*») maqbarasi va *Oqsaroy* qurilgan.

### **Dor us-Siyodat – «Sayyidlar uyi» (1379–1380)**

Shahrisabzning janubiy-sharqiy qismida Amir Temur qurdirgan maqbara majmuasi. XIX–XX asr boshlarida qisman ta'mirlangan. Farzandi Jahongir Mirzo maqbarasi (Hazrati Imom maqbarasi) va Amir Temurga mo'ljallangan yer osti go'rxonasi saqlanib qolgan. *Dor ut-tilovat* bilan bir majmuani tashkil qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sida yozilishicha, Amir Temur Shahrisabzda maxsus bino qurdirgan, unda o'z o'g'li Amirzoda Jahongir va boshqa amaldorlar hamda buzrukvorlarning daxmalari qo'yilsin, deb farmon bergan.

### **Dor ut-tilovat majmuasi**

(Tilovat uyi, Qur'on o'qiydigan joy, XIV asr)

Shahrisabz markazida Dor us-siyodat majmuasi g'arbida temuriylar xonadoniga mansub qadimgi inshootlardan iborat Dor ut-tilovat majmuasi ham joylashgan. Hozir kompleksdan uchta yodgorlik saqlanib qolgan: 1) Amir Temur tomonidan otasi Tarag'ayning piri shayx Shamsuddin Kulol mozori (1370) ustiga shahar jome' masjidini yoniga qurdirilgan maqbara. 2) Otasi Tarag'ay mozori qoldig'ini Shahrisabzga ko'chirtirib, pirini oyoq tomoniga qo'ydirib, gumbaz maqbara qurdirgan. 3) Ulug'bek jome' masjidini – Ko'k gumbaz (1435–1436).

### **Oqsaroy (Shahrisabz, 1380–1404)**

Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik. Amir Temurning onasi Takina xotun sharafiga qurilgan. Shaharning shimoliy sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Me'mor Muhammad Yusuf. Bir zamonlar muhtasham, hashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, xaroba holga kelgan ulkan peshtog'i, ikki chek-

kasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Bu salobat va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash – old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. 20 yil davomida qurilgan ushbu me'moriy yodgorlikning ranglari oy yorug'ida jilolanib – oqarib ko'rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan. Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – tom tepasiga ishlangan hovuzdir. Hovuzga suv Taxtaqoracha dovonidan qo'rg'oshin quvurlar orqali oqib kelib, undan sharshara hosil qilib pastga tushirilgan.



**Oqsaroy xarobalari**

1707-yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtog'i ostida toj kiyib, taxtga o'tirganligi peshtoqning o'sha paytda butun ekanligidan darak beradi. 1973–1975-yillarda arxeologik tadqiqotlar, 1994–1996-yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan.

Samarqand saltanat poytaxtiga aylantirilgach, unda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Nasaf va Keshning me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, maqbara va xonaqohlar qurildi. 1403–1404-yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo (?–1412) Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan.

Jumladan, mo'g'ullar bosqinida butunlay vayron etilgan va aksari aholisi qirib tashlangan va qisman qul qilingan Samarqand

shahri Amir Temur hukmronligi davrida o'zining qadimgi o'rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangidan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o'rnatildi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar bino qilindi. Ko'ksaroy 4 qavatli bo'lib, gumbazlari va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangani uchun u shunday atalgan. Ko'ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga

chiqarish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o'tqazadigan toshdan taxkursi – Ko'ktosh qo'yilgan edi. Bulardan tashqari arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar ustaxonasi va aslahaxona, tangalar chekiladigan zarbxona kabi imoratlar joylashgan.

Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

XIV asrning oxiri – XV asrlarda Samarqandda ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari shahriston yoki rabodi doxilda turli-tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari qad ko'taradi. Amir Temur mamlakatda, xususan uning poytaxti Samarqandda hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Ispan elchisi Klavixoning yozishicha, Sohibqiron hunarli biror kishini ham Movarounnahrni tashlab ketishiga yo'l qo'ymagan. Aksincha, Amir Temurning amri-farmoni bilan Damashqning eng mohir to'quvchilari, Halabning mashhur paxta yigiruvchilari, Anqaraning movut to'quvchi korxonalari, Turkiya va Gurjistonning zargarlari, xullas, ko'p kasb-hunar sohiblari boshqa shaharlardan Samarqandga ko'chirib olib kelindi. O'sha davrda shaharda turli din va mazhablardagi kishilar istiqomat qilardi. Klavixoning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandda 150 mingdan ziyodroq aholi yashagan. Shahar maydoni Ispaniyaning Shibliya (Sevilya) shahridan kengroq bo'lgan. Lekin uning bu ma'lumotida shahar arki bilan qal'a, ya'ni ichki shahar qismlarigina ko'zda tutilgan, xolos.

### **Amir Temur davrida bunyod etilgan me'moriy obidalarga quyidagilarni aytish mumkin:**

**Samarqanddagi me'moriy yodgorlik.** Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan, hamda masjid, minora va madrasadan iborat ansambl.

Ularning eng qadimiysi Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, xalq orasida Shohizinda («Tirik shoh») nomi bilan mashhur. Ansambl bir-biri bilan yo'lak orqali bog'langan uch guruh binolardan iborat.

XIII asrda mo'g'ullar istilosi davrida Afrosiyob vayron bo'lgach, xalq bu yerni tark qilgan. Amir Temur va Ulug'bek davrida bu yerda qurilish ishlariga



Shohizinda («Tirik shoh») ansambli majmui (Samarqand, XI–XX asrlar)

ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishlardan aniqlanishicha, Afrosiyobning qadimiy qal'a devori yonbag'rida qilingan zina XVIII asrda vayron bo'lgan, keyinchalik 40 pog'onali g'ishtin yangi zina va chortoq qurilgan, bular hozirgacha saqlangan. Shohizinda ansamblidagi inshootlarning ko'pchiligi XIV asrga taalluqli. Ansamblning bosh darvozasi janubda ko'chaga qaratib qurilgan. Darvozaxonani Ulug'bek hijriy 838 (milodiy 1434–1435) yilda o'g'li Abdulazizga atab qurdirgan. Unda quyidagi so'zlar bitilgan: «Abdulaziz Bahodir ibn Ulug'bek ibn Shohrux ibn Temur».

### **Shohizinda ansambli tarkibida temuriylar xonadoni bilan bog'liq bo'lgan quyidagi me'moriy yodgorliklar mavjud:**

#### **Shodimulk og'a (Turkan og'o) maqbarasi (1372)**

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Amir Temurning opasi Turkan og'oning vafot etgan qizi Shodimulk og'o (1370–1371)ga atab qurdirgan peshtoq-gumbazli bir xonali sag'anasi. 1383-yilda Turkan og'oning o'zi ham qizi yoniga dafn etilgan. Maqbara 1954-yilda ilmiy o'rganilib, ta'mirlash ishlari olib borilgan. Maqbarada XIV–XV asrlardagi xalq ustalarining me'morlik va naqqoshlikda erishgan yutuqlari yuksak mahorati aks etgan.



#### **Tug'lu Tekin maqbarasi (1376)**

Shohizinda ansamblining o'rta qismida joylashgan bo'lib, shaharning qadimgi devoriga taqab, Temur sarkardalaridan amir Husaynning o'zi va onasi Tug'lu Tekin sharafiga qurilgan. Maqbara (8,5 x 9,5 m) bir xonali, eshigi g'arbga qaragan. Maqbarada o'sha davr me'morlik hamda koshinkorlik san'atining noyob namunalari saqlangan. Gul va yaproqlar tasviri, tutashgan halqalar hamda yozuvlar ko'k – moviy bo'yoqlarga to'ldirilgan. Tug'lu Tekin maqbarasi ostida sag'ana (3,15 x 4,15 m) bor. Unga yo'lakdan kiriladi. Maqbaraning bizgacha yetib kelgan ravog'i va unga tutash devor qoldiqlari asosida (1960-yillarda qolgan qismlari) qayta tiklangan (usta Sh. Is'hoqov, me'mor I.I. Notkin).

### **Shirinbeka og' o maqbarasi (1385–1386)**

Amir Temurning singlisi Shirinbeka og' oga atab qurilgan. Maqbara ravog' i ichidagi arabiy bitikda muhim tarixiy hujjat saqlangan (tarjimasi): «Bu qabr malikai muazzama, mukarrama Shirinbeka og' o Tarag' ay (bek) qiziniki. Ravzasini Alloh nurli etsin. Sana 787» (mil. 1385/6).

### **Tuman og' o majmuasi (XIV–XV asrlar)**

Majmua Amir Temurning xotini Tuman og' o begim nomi bilan bog' langan. Tuman og' o majmuasi maqbara, masjid, hujralar va chortokdan iborat, turli davrlarda bunyod etilgan. Bezaklari XV asr boshlarida ishlanib, uning yaxlitligini ta' minlagan. Tuman og' o qurdirgan bir guruh binolar yaqinida usta Muhammad Shayx ibn Hojibek Tabriziy tomonidan 1405–1406-yillarda qurilgan Tuman og' o maqbarasi bor.

### **Shohizinda ansambli tarkibiga Xoja Ahmad maqbarasi (XIV asr 60-yillari) va Usta Ali maqbarasi (1380) ham kiradi.**



**Xoja Ahmad maqbarasi  
(XIV asr 60-yillari)**

Shohizinda xazirasining yuqori hovlisi (to' ri) da joylashgan. Maqbara peshtoq-gumbazli, to' rtburchak tarhli (7,6 x 3 m) xonadan iborat bo' lib, xona o' rtasida 4 ta nomsiz sag' ana bo' lgan. Bino ichi, gumbaz osti tuzilishi XII asr me' morligi uslubini eslatadi.

Old tomondagi peshtog' i rangli sirkori koshinlar bilan bezatilgan, suls va kufiy xatidagi kitobalar va bezaklar mahorat bilan uyg' unlashtirilgan. O' ymakori bezaklar orasida «... amali usta Faxr Ali...» yozuvi saqlangan.

### **USTA ALI MAQBARASI (1380)**

Bu me' moriy yodgorlik birinchi – nomsiz maqbara bo' lib, unda qarshilik Usta Ali Nasafiy nomi saqlanganligi uchun uning nomi bilan ataladi. Maqbara to' rtburchak tarhli (8,1x9,8 m), bir xonali, peshtoq-gumbazli, gumbazi 16 qirrali baland asosga o' rnatilgan. Maqbaraga peshtqidagi chuqur ravoqli eshik orqali kiriladi. Maqbara ostida to' rtburchakli sag' ana joylashgan.





**ISHRATXONA, KO'SHKI DILKUSHO – KO'NGIL OCHUVCHI JOY  
(Samarqand, 1397–1398)**

Amir Temur tomonidan 1397–1398-yillar Bog'i Dilkusho o'rtasida qurilgan Ishratxonaning qoldiqlari hozirda ham garchi ancha qismini yo'qotgan bo'lsa-da, ko'rkam va jozibali ko'rinadi. Uning baland gumbazi 1903-yildagi kuchli zilzila vaqtida qulab tushgan. Ishratxona (ko'ngil ochuvchi joy) binosi Amir Temur Samarqand atrofida alohida ixlos bilan, shaxsan o'zi nazoratida qurilgan bog' ko'shklari ichida eng mashhuri va eng muhtashami sifatida, ayniqsa saqlanib qolgan yagona namuna sifatida O'zbekiston me'morligi tarixida alohida o'rin tutadi.



**Bibixonim majmuasi (Samarqand, 1399–1404)**



**Bibixonim majmuasining qoldiqlari**



**Majmuaning hozirgi ko'rinishi**


Mazkur majmua *jome masjidi, madrasa va maqbaradan* iborat bo'lib, Markaziy Osiyo me'morchilik san'atining ajoyib klassik namunasi, mahobatli arxitektura inshootlari yig'indisidir. Bular aslida Amir Temurning katta xotini Bibixonim (Saroymulkxonim) nomi bilan bog'liq.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Bibixonim o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatdon va yetuk aql-zakovat sohibasi, shuningdek, husnatofat bobida ham benazir edi. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi.

### Bibixonim jome masjidi (1399–1404)



Bibixonim jome masjidining xarobalari



Bibixonim jome masjidi (tiklangan loyiha)

Sohibqiron Amir Temur Hindiston safaridan qaytgach, uning farmoni bilan qurila boshlangan. (Masjidni qurgan usta va me'morlarning nomlari noma'lum). Masjid hovlisining sahni 63,8x76,0 m bo'lib, to'rt tomondan ravoq va peshtoqlar bilan o'ralgan. Uning umumiy sahni 167x109 m, burchaklarida baland minoralar bo'lgan. Zilzilalar ta'sirida asta-sekin yemirilib vayron bo'lgan, faqat shimoliy-g'arbiy minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. Poydevori xarsangtoshdan, devorlari pishiq g'ishtdan ishlangan (qalinligi 4,5 m). Masjidga kiraverishdagi peshtoqning yuqori qismi 1897-yilgi zilzila paytida qulagan (qolgan qismining balandligi 33 m, kengligi 46 m). 1868-yilda podsho Rossiyasi qo'shinlari Samarqandni qamal qilganda Bibixonim jome masjidi to'p o'qidan vayron bo'lgan.



**Bibixonim jome masjidining hozirgi ko'rinishi**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'tmishimizning boshqa me'moriy yodgorliklari qatori Bibixonim jome masjidini tiklashga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash» to'g'risidagi Qarori (1994-yil 29-dekabr)ga binoan me'moriy majmuada ta'mirlash ishlari olib borildi.

Bibixonim o'z jamg'armasi hisobidan «o'z onasi sharafi»ga (Klavixo) XIV asr oxirida Samarqandda madrasa qurdirgan. Sayyoh, olim A. Vamberi ta'kidlashicha, bu madrasada 1000 ga yaqin talaba o'qigan.

Bibixonim madrasasi Bibixonim jome masjidining kirish peshtog'i qarshisida joylashgan. Lekin jome masjididan oldin qurilgan. Saryoy tarixchisi G'iyosiddin Alining «Amir Temur 1399-yil 10-mayda madrasada to'xtab o'tganligi» haqidagi ma'lumoti shundan dalolat beradi. Tarixnavis Fasih Havofiy (1375–1442) ta'kidlashicha, Amir Temur jome masjidi qurilishini kelib ko'rarkan, me'moriy majmuada mutanosiblik buzilganligi – madrasa peshtog'i va ayvoni jome masjidga nisbatan balandroq va qiyaroq bo'lib qolganligi uchun darg'azab bo'ladi va me'morlar (Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jald)ni jazolaydi. Madrasa XVI asr oxirida Buxoro amiri Abdullaxon II tomonidan buzib tashlangan.



**Bibixonim madrasasi**



**Bibixonim maqbarasi**

Bibixonim madrasasi yonida unga «qo'sh» uslubda Tuman og'ο xonaqohi qurilgan. Tarixiy manbalar bu xonaqoh ham 1399-yildan oldin bunyod etilganligi haqida ma'lumot beradi.


Bibixonim majmuasining tarkibiy qismi. Maqbara ham masjid qarshisida joylashgan. Yerto'la (tangxona)ga maxsus yo'lak orqali tashqaridan tushilgan.

### **Amir Temur maqbarasi**

**(Samarqand, XIV asr oxiri – 1405-yil).**

Xalq orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o'g'illari Umarshayx, Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va boshqalar) dafn etilgan. Boburning ta'kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal'asi janubida Toshqo'rg'on – Chaqarda madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo'lgach (1403-yil, 27 yoshida), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon berdi. Maqbara madrasa hovlisining to'riga bunyod etilgan. Maqbara devorlaridagi turli-tuman nishonlar orasida binoni qurgan usta Muhammad ibn Mahmud Isfahoniyning nomi yozilgan. Maqbarani tashqi ko'rinishini ishlashda gumbazga katta e'tibor berilgan, tashqi gumbazi 64 qobirg'ali, baland poygumbaz (diametri – 15 m, balandligi – 12,5 m)ga o'rnatilgan.

Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan madrasa va xonaqoh qoldiqlari topilgan. Ziyoratxona o'rtasidagi marmar panjara bilan o'ralgan murabba xazira sahniga qator qabrtoshlar qo'yilgan. Yuqorisi (to'ri)da Amir Temurning harbiy yurishlarida unga hamroh bo'lgan va uning yuksak hurmatini qozongan Mir Sayyid Baraka sag'anasi joylashgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, 1409-yil Shohrux Mirzo Movarounnahr taxtini Xalil Sultondan tortib olgach, otasining vasiyatini bajarish maqsadida Sayyid Barakaning xokini Andxo'ydan Samarqandga keltirib, Amir Temur maqbarasiga dafn ettiradi.



Sayyid Baraka qabrining oyoq tomoniga Amir Temurning o'zi dafn qilingan. Uning uch tomonida Muhammad Sulton, Mironshoh, Umarshayx qabrlari bor. Keyinchalik bu yerga Temurning nabiralari va evaralarining qabrtoshlari qat'iy tartibda joylashtirilgan. Temur sag'anasiga qo'yilgan ko'k nefrit qabrtoshini, yuqorida aytilganidek, Ulug'bek 1425-yil Mo'g'ulistonga qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshdagi lavhada Temurni ulug'laydigan so'zlar, uning shajarasi hamda marsiyalar o'ymakori yozuvlarda bitilgan. Hamma sag'analar Ulug'bek tomonidan yaxlit o'yma marmar panjara bilan o'ralgan. Ziyoratxonaning sharqiy qismidagi ravoqdan zina orqali ostki qavatidagi go'rxonaga tushiladi. Go'rxona sakkiz qirrali. Undagi sag'analar yuqori qavatda qanday joylashgan bo'lsa, bu yerda ham shu tartibda joylashgan.



**Shohrux.**  
M.M. Gerasimov  
rekonstruksiyasi  
(1941)



**Amir Temur.**  
M.M. Gerasimov  
rekonstruksiyasi  
(1941)

Amir Temurning moddiy merosi uzoq yillar davomida talon-toroj qilindi, xo'rlandi va toptaldi. Xususan, Chor Rossiya imperiyasi va sovetlar hukmronligi davrida ulug' sohibqiron tomonidan yaratilgan boyliklar turli yo'llar bilan yurtimizdan olib chiqib ketildi. Ularning ko'plari Rossiyaning davlat Ermitaj muzeyida saqlanmoqda, katagina qismi esa boshqa davlatlarga oltinlar hisobiga sotib yuborilgan.

Taqdir taqozosi bilan Amir Temur qabri ikki marotaba bezovta qilingan. Sohibqironning xokini behurmatlik va bezovta qilinishi natijasida qabrtoshiga yozilgan bashoratning la'natiga duchor bo'lgan.

Birinchi 1736-yilda sodir bo'ladi. Eron taxtiga chiqqan Nodirshoh Amir Temur sag'anasiga qo'yilgan mohtob qabrtoshni Mashhadga olib kelgan va evaziga ko'p o'tmay o'z nabirasi shahanshoh Aliqul Mirzo tomonidan o'ldirilgan.

Ikkinchi sovetlar davrida yuz berdi. 1941-yil iyun oyida Samarqandda Amir Temur va temuriylarning qabrlarini o'rganish bo'yicha ilmiy ekspeditsiya ish boshladi. Musulmon odatiga zid ravishda 2-iyunda Shohrux, 5-iyunda Mirzo Ulug'bek qabri ochildi, Amir Temur qabrini esa 21-iyun ertalab soat 8.00 da ochish boshlanadi. Shu yilning 22-iyun yakshanba tongotarda fashistlar Germaniyasi hujum qilmaslik haqidagi avgust shartnomasini buzib,



sobiq SSSRga hujum boshladi. Temuriylarning jasadlari Moskvaga olib ketiladi. 1942-yil noyabrida esa temuriylarning jasadlari Samarqandga qaytarilib, qayta dafn etilgan. Me'moriy majmuada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991–1996-yillarda ta'mir ishlari olib borilgan.

Amir Temur hayoti davomida piru ustozlari, ulug' sahobalarning ziyoratgohlarini obod yetishga katta e'tibor qaratdi. Xususan, Sohirqiron saltanatni boshqargan chog'larida ham o'zning piru ustozlari Shamsuddin Kulol qabrini ziyorat qilib turgan. 1373–1374-yil Amir Temur Shamsuddin Kulol qabri yonida bir gumbaz – maqbara qurdiradi va otasining xokini o'sha yerga ko'chirtirib, Shamsuddin Kulol qabrining qibla (g'arb) tomoniga dafn etadi.

XIV asr oxirlarida Amir Temur Shom (Suriya) yerlarini zabt etgan paytda ulug' sahobalardan biri Abu Ubayda Amir ibn al-Jarroh qabri xokidan keltirib Qarshi shahrida dafn ettirgan va u yerga maqbara qurdirgan.

Chashmai Ayyub ziyoratxona devorida Amir Temur farmoyishiga binoan 1379-yilda unga taqab kulohiy gumbazli katta xona, burchaklarida minoralari bo'lgan daxliz qurilganligi yozilgan.

Sohirqironning obodonchilik faoliyati an'anaga aylanib, uning vorislari tomonidan davom ettirilgan. Temuriy shahzodalar, nufuzli amir-u vazirlar, viloyat va ulus hokimlari, hatto ayrim malikalar o'z shaxsiy mablag'larining kattagina qismini masjid-u madrasalar, xonaqoh-u shifoxonalar, hammom-u bozor – rasta (chorsu)lar, rabot-u karvonsaroylar, suv inshootlari-yu bog'-rog'lar barpo yetishga sarf qilganlar. Masalan, Shohrux Mirzo bunyodkorlik ishlariga, xususan, shaharlar obodonchiligi va sug'orish tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, Hirot (1405), Balx (1407) shaharlarini tiklashga oliy farmon bergan. Chingizxon yurishi chog'ida xarob qilingan (1220-yil) Marv shahri qayta barpo etilib, unga Murg'ob daryosidan ariq qazdirib suv keltirildi.

Temuriylar davrida shahzodalar bilan bir qatorda malikalar ham yurt obodonchiligi va ravnaqi yo'lida o'zlarining benazir hissalarini qo'shganlar. Jumladan, Hirot, Mashhad, Balx va Marv shaharlari va qasabalarining obod etilishida Shohrux Mirzo xotini Gavharshod bегinning hissalarini katta bo'lgan. Bizgacha *Gavharshod bегim me'moriy majmuasi* yetib kelgan.

## **Temuriylar davrida bunyod etilgan me'moriy obidalarga quyidagilarni aytish mumkin:**

### **Ko'k gumbaz masjidi (Shahrisabz, 1434–1435).**

Bu me'moriy yodgorlikni Ulug'bek Mirzo otasi Shohrux Mirzo nomiga qurdirgan. Peshtoq ravog'ida ularning nomlari va qurilish vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar saqlangan. Ko'k gumbaz masjidi Dor ut-tilovat majmuasi tarkibidagi asosiy jome masjiddir. Ko'k koshin bilan qoplangan gumbazi (nomi ham shundan), peshtoqining o'ng va chap tomonidagi ustunlari, boloxonasi buzilib ketgan. Binoga sharqdan peshtoq (ravog'ining kengligi 10 m) orqali kiriladi. Ko'k gumbaz masjidi 1970-yillarda hamda Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan (1995–1996) qayta ta'mirlangan.

### **Gavharshod begim me'moriy majmuasi**

1) Mashhad (Eron) markazida Hirot hukmdori Shohrux Mirzoning xotini Gavharshod begim sharafiga (me'mor Qavomiddin Sheroziy) qurilgan (1405–1419) masjid. Atrofi ayvonli katta hovli (55 x 45 m)ning to'rt tarafida to'rt xona bo'lib, ularning janubidagisi katta va gumbazli. Unga minorali ulkan peshtoq orqali kirilgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go'zal bezaklar ishlangan. Masjidning shimoliy tomonida Imom Rizo maqbarasi, sharq tomonida Madrasa, g'arbida esa shahar karvonsaroyi joylashgan bo'lib, bular masjid bilan yo'lakcha orqali o'zaro bog'langan.

2) Hirot (Afg'oniston) Musallosidagi katta me'moriy yodgorlik (1418–1438). Masjid, madrasa va temuriylar avlodi maqbaralaridan iborat bo'lib, Shohruxning xotini Gavharshod begim sa'y-ehitimomi bilan 20 yil mobaynida qurilgan (keyinchalik maqbaraga Gavharshod begimning o'zi, o'g'li Boysung'ur Mirzo dafn etilgan). Bosh me'mor – Shohruxning saroy me'mori Qavomiddin Sheroziy. Maqbara yoniga keyinchalik Husayn Boyqaro mahobatli Madrasa va xonaqoh qurdirgan. Katta qismi, jumladan madrasaning o'zi ham saqlanmagan, maqbara, 8 minoradan 1 tasi, masjid va madrasaning xarobalarigina saqlanib qolgan. Gavharshod begim madrasasi hovlining shimolida bo'lib, masjidning ham, madrasaning ham burchaklarida minoralar bo'lgan, ular marmar va koshin qoplab bezatilgan. Murabba tarhli maqbara 1432-yilda qurib tugallangan, ayniqsa, uning qovurg'ali gumbazi o'ziga xos jozibali. Gumbaz sirkor g'isht terib naqshlangan, uning qurilishida me'mor Imomiddin, hirotlik ustalar – Xoja Mirali Hiraviy va



Ulug'bek madrasasi (Buxoro, 1417)



Ulug'bek madrasasi – Registon ansamblining g'arbida joylashgan (Samarqand, 1417–1422)



Ulug'bek madrasasi (G'ijduvon, 1433)

Xoja Mirak Hiraviylar qatnashgan. Ichkaridagi nozik va nafis naqqoshlik bezaklarini Boysung'ur Mirzo yaratgan.

Buyuk Amir Temurning moddiy madaniyat bobidagi bunyodkorlik faoliyatini uning avlodlari, birinchi navbatda Mirzo Ulug'bek (1394–1449) davom ettirdi. Buyuk olim Movarounnahr shaharlarini, xususan, Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifat dargohiga aylantirishga intildi. Ulug'bekning farmoni bilan Buxoroda (1417), Samarqandda (2 ta madrasa: birinchisi Registon ansambli tarkibida (Ulug'bek madrasasi, 1417–1422) va ikkinchisi Go'ri Amir ansambli tarkibida) va G'ijduvonda (1433) madrasalar barpo qilindi.

Mirzo Ulug'bek XV asrning o'rtalarida Bibixonim masjidi hovlisining o'rtasida marmartoshdan lavhni yasattirgan (lavh – Qur'on qiroat qilinadigan maxsus kursi). Unda quyidagi so'zlar bitilgan: «Sultoni azim, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, hanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibn sulton amiri muhin Ulug'bek Qurag'on».

### Ulug'bek rasadxonasi (Samarqand, 1428–1429).

Ulug'bek farmoyishi bilan 1428–1429-yilda Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan. Ayrim qo'lyozmalar («Boburnoma»)ga ko'ra, balandligi 30,4 m dan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblarga bo'lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m li qo'shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Kvadratning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimoliy tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minutlik yoy 11,53 mm ga to'g'ri keladi.



Ulkan silindr shaklidagi uch qavatli Ulug'bek rasadxonasi (V.A. Nilson rekonstruksiyasi)



Ulug'bek rasadxonasining tashqi ko'rinishi qoldiqlari

Ulug'bekning vafotidan so'ng o'zaro toj-u taxt uchun bo'lgan janglar oqibatida rasadxona qarovsiz qolib, XVI asrda vayron qilingan. Ulug'bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yil V.L. Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan. 1964-yil Ulug'bek rasadxonasi yonida Ulug'bek muzeyi ochilgan. Hozir Ulug'bek rasadxonasidagi katta asbob – kvadratning yer ostida saqlangan qismi balandligi bilan 11 m keladi.



Ulug'bek rasadxonasining ichki qismi

## Gumbazi Sayyidon maqbarasi

(Shahrisabz, 1437–1438).

Gumbazi Sayyidon – «Sayyidlar gumbazi» maqbarasi Mirzo Ulug'bek tomonidan qurdirilgan. Maqbara chortoq tarhli (tashqi o'lchami 9 x 9 m, ichki tomoni 5,75x5,75 m), poygumbazi sakkiz qirrali, gumbaz bilan qoplangan. Peshtog'i va tashqi tomon gumbazi qulab tushgan (hozirda gumbazi qayta tiklangan).

Maqbara ichidagi sag'analar (XV–XVIII asrlarga oid)da Ulug'bek avlodlari bo'lmish termizlik sayyidlar (Amir Abdul Muoniy, Muhammad Sayyid va Mag'rufjon Muoniy)ning nomlari yozilgan (shundan maqbara «Sayidlar gumbazi» deb nomlangan bo'lsa kerak).

### Masjidi Kalon (Buxoro, XV–XVI)



Masjidi Kalon – forscha – «katta masjid» ma'nosini anglatadi. XII asrdagi qadimgi imorat qoldiqlari ustida, ya'ni Minorai Kalon yonida, XV asrdan qurila boshlagan. XVI asr boshlarida ta'mir etilgan (masjid hovlisi va atrofida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida aniqlangan). Ulug'bek davri me'morligi an'analari bo'yicha qurilgan. Markaziy Osiyodagi eng yirik masjidlardan biri bo'lib, unga 1200 odam sig'gan. Masjidi kalonning 208 ta ustuni 288 ta gumbazchani ko'tarib turadi.

### Oqsaroy (Samarqand, XV)

Temuriylarning so'nggi daxmasi. Oqsaroy qo'shimcha daxma sifatida Abu Said (1449–1469) va Sulton Ahmad Mirzo (1469–1494) hukmronligi davrida qurilgan. Maqbara pishiq g'ishtdan ganch qorishmasi bilan terilgan.

### Bobur uyi va uning atrofidagi obidalar (XV)

O'shda Sulaymon tog'ida Bobur qurdirgan uy, uning atrofidagi masjid, madrasa va ziyoratgohlar. Bobur uyi 1989-yili xalq mablag'i va hashar yo'li bilan qaytadan tiklangan. Bobur uyining arki yonida 700 yillik tarixga ega madrasa bor. Hozir tarix muzeyi. Bobur uyining poyida, janubiy g'arb tomonida Sulaymon payg'ambarning jiyani Asof ibn Burqiyoning qabri bo'lib, uning oldida «Masjidi juz'a» jomesi bor. Hozir bu O'sh pedagogika institutiga ombor qilib berilgan. «Masjidi juz'a»ning shimoliy-g'arbiy tomonidan «Makkai ajab» degan masjid bo'lib, hozir uning besh-o'nta daraxti qolgan, xolos.



XV asrda Xuroson shaharlari, ayniqsa, uning poytaxti Hirotning obod etilishi sulton Husayn Boyqaro va uning vaziri Alisher Navoiy nomlari bilan bog'liq. Xurosonda, xususan, Hirot va uning tevarak-atrofida Navoiy va uning safdoshlari tashabbusi bilan 300 dan ortiq jamoat binolari (masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh, hammom, shifoxona, saroy, ko'shk, istirohat bog'lari, rabotlar) hamda sug'orish inshootlari (hovuz, ko'prik, band – suv omborlari) barpo etilgan. Qurilishlarning aksariyati Navoiyning bevosita homiyligi bilan yoki uning mablag'iga amalga oshirilgan. Xondamirning yozishicha, Navoiy 52 rabot, 19 hovuz, 16 ko'prik, 9 hammom va bir nechta madrasa, masjid, shifoxona va xonaqohlar qurdirgan.

Temuriylar davrida bunyodkorlik ishlari mamlakatning turli qismlarida olib borildi. Bu davrning noyob me'moriy obidalariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- XIV asr – Xivadagi Ichan qal'ada Said Aloviddin maqbarasi qurilgan.
- XIV asr oxiri – Toshkent yaqinida Zangiota maqbarasining qurilishi.
- XV asrning birinchi yarmi – Toshkentdagi Shayx Xovandi Toxur majmuasi tarkibidagi Qaldirg'ochbiy maqbarasi qurilgan.

➤ 1451-yil – Toshkentda Xoja Ahror Jome masjidining qurilishi.

Amir Temur davrida markaziy shaharlar va ularning tevarak-atrofida ko'rkam ma'muriy, ma'rifiy va jamoat binolari, suv inshootlari qurish bilan bir qatorda bog-u bo'stonlar barpo etildi. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlar (Ahmad Bog'ishamoliy va b.)ning aql-zakovati, mehnatiyu mahorati bilan 1378–1404-yillarda Samarqand shahri va atrofida Amir Temur bog'lari bunyod ettirilgan.

### *Amir Temur bog'lari tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'lingan:*

Birinchisi – chorbog'lar geometrik (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak) shaklda bo'lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo'lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog'larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan.

Ikkinchisi – tuzilishi geometrik shaklda bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida barpo etilgan bog'lar. Bunday bog'lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy qismi tabiiy, qo'l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko'shk (ayvon) va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o'rnatilgan. Bu turdagi bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan.

*Amir Temur bog'laridan eng mashhurlari quyidagilar:*

**Bog'i Baland.** Amir Temur Samarqandning shimolidagi Cho'ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog'chilik san'ati ustalari hamda me'morlari qatnashgan. Bog' o'rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo'lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmazorlar boqqa go'zal bir tarovat baxsh etib turgan.

**Bog'i Behisht.** 1378-yil Amir Temur Samarqandning g'arbida suyukli xotini Tuman og'a (Xayrunniso)ga atab qurdirgan. Yozma manbalarda «Bog'i Jannat» nomi bilan ataladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog' o'rtasidagi atrofi xandaq bilan muhofaza etilgan sun'iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo'lgan. Saroyga bir necha ko'tarma ko'priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog'chasi ham bo'lgan.

**Bog'i Davlatobod.** Amir Temurga Hindiston yurishidan qaytgan kuni, ya'ni 1399-yil 22-aprelda hadya qilingan. Arxeologik tadqiqotlar (I.A. Suxarev, 1936 va O'. Alimov, 1967)ga ko'ra, u Samarqanddan 13 km janubda, Katta O'zbekiston traktining chap tomonida bo'lgan. Amir Temur bu bog'da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o'tkazgan, elchilarni qabul qilgan.

**Bog'i Dilkusho (Ko'ngil ochuvchi bog').** 1397-yil Amir Temur xotinlaridan biri – To'qalxonim sharafiga qurdirgan. Samarqanddan 5 km sharqda, Panjakent yo'lining o'ng tomonida (qadimgi Hinduvon qishlog'i o'rnida) joylashgan. Har tarafi 900 m uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o'ralgan, 4 darvozasi, markazida hashamatli saroy bo'lgan. Saroy uch qavatli bo'lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Amir Temur olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo'yilgan. Amir Temur Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoni ana shu bog'da qabul qilgan. Bu bog' o'rnida hozir Dilkusho qishlog'i joylashgan.

**Bog'i Jahonnamo (Jahon ko'zgusi).** 1398-yil Amir Temur Samarqanddan 7 farsax (42 km) narida, Zarafshon tog'i etagida qurdirgan. Unda saroy va qal'a bo'lgan. «Zafarnoma»da yozilishicha, bu bog'ning hududi benihoyat katta bo'lib, yo'qolib qolgan ot 6 oydan so'ng topilgan ekan.

**Bog'i Maydon.** Amir Temur Samarqandning shimolida, Cho'ponota tepaligi etagida qurdirgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog'da hashamatli bir ayvon (ko'shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo'lgan. Mirzo Ulug'bek bu bog'ni yanada obod qilgan. Bu bog' o'rni hozir ham **Bog'i Maydon** deb ataladi.

## SAMARQAND XARITASI. IX-XIX ASRLAR

Amir Temur  
qurdirgan bog'lar

1. Bog'i Baland
2. Bog'i Behisht (1378)
3. Bog'i Dilkusho (1397)
4. Bog'i Shamol (1397)
5. Bog'i Jahonnamo (1398)
6. Bog'i Davlatobod (1399)
7. Bog'i Maydon
8. Bog'i Nav (1404)
9. Bog'i Chinor (1404)
10. Bog'i Bo'ldu
11. Bog'i Zog'on
12. Bog'i Amirzoda Shohrux
13. Bog'i Dilafro'z va boshq.

**Bog'i Nav (Yangi bog').** 1404-yil Amir Temur Samarqandning janubida qurdirgan. Lolazor qishlog'i o'rnida joylashgan. Bu bog' to'rtburchak shaklda bo'lib, atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan, har burchagida minora qad ko'tarib turgan. Markazida boshqa bog'lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida hovuz bo'lgan.

**Bog'i Chinor.** 1404-yil Amir Temur Samarqandning sharqida (Konigilning janubiy g'arb tarafida, hozirgi «Qo'sh tamg'alik» tepaligi o'rnida) barpo qildirgan. Unda chinorlar ko'p bo'lgan. Markazida xochsimon tarhli saroy joylashgan.

**Bog'i Shamol.** Amir Temur 1397-yil nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Samarqandning g'arbida bo'lgan. Undagi saroy to'rtburchak shaklda bo'lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qora yog'och va fil suyagidan ishlangan. Bu bog' joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham «Bog'i Shamol» deb ataladi.

Samarqand atrofida bulardan tashqari yana bir qancha bog'lar bo'lgan. Chunonchi, *Bog'i Bo'ldu*, *Bog'i Zog'on*, *Bog'i Naqshi Jahon*, *Bog'i Amirzoda Shohrux*, *Bog'cha*, *Bog'i Dilafro'z*, *Bog'i Sheron*, *Gulbog'*, *Lolazor*, *Bedana qo'rug'i*, *Chumchuglik*, *G'ozxona* va boshqalar shular jumlasidandir.

Amir Temurning bog' qurish an'anasini temuriy shahzodalar ham davom ettirishgan. Masalan, Ulug'bek rasadxonasi etagida bobosi Amir Temur an'anasiga ko'ra Mirzo Ulug'bek ikkita bog' qurdiradi. Ularning biri Bog'i maydon, ikkinchisi Chinnixona nomi bilan ataladi. Bog'i maydon o'rtasida qurilgan bino ikki qavatli bo'lib, devor va ustunlariga marmardan sayqal berilgan. Chinnixona – arxeologik yodgorlik, saroy. Samarqandda Cho'ponota tepaligining janubi g'arbida joylashgan bo'lib, XV asrning 40-yillarida Ulug'bek rasadxonasiga yaqin joyda qurilgan. Saroy devorlari chinni bilan qoplangani uchun ham Chinnixona deb atalgan. Ulug'bek va olimlar shu yerda samoviy kuzatuv, ilmiy tadqiqotlardan so'ng hordiq chiqarishgan. Chinnixonadagi imoratlarining biri toshdan, ikkinchisi chinnidan bo'lgan. Chinni 1422-yilda Xitoydan keltirilgan.

**Ilm-fan ravnaqi.** Vatanimiz tarixida Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bir qatorda uning ma'naviy-madaniy hayotining ham gurkirab rivojlanishiga, ilm-urfon, adabiyot va san'at sohalarining o'sishiga, bu soha olimlarining iste'dodi va ijodining kamol topishiga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bu o'rinda Amir Temur, Shohrux Mirzo, Ulug'bek, Boysunur Mirzo, Sulton Husayn, Bobur Mirzo singari ulug' hukmdor siymolarning shaxsiy ibrati tahsinga loyiqdir.

Amir Temur o'z mamlakatining ilm-irfon, madaniyat va san'at ahliga xorijiy ellardan ko'plab kasb-hunar ahllarini, me'mor-u naqqoshlarini, olim-u fozillarini oldirib kelib, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berib, ularning bilimi, tajribasi va iste'dodini ishga solib, hayratomuz ulug'vor bunyodkorlik va ijodkorlik ishlarini ro'yobga chiqardi. Bu davrda bunyod etilgan betakror me'moriy obidalar, osori-atiqalar, yuksak san'at asarlari, ilmiy-madaniy meros namunalari bunga yorqin dalil bo'la oladi. Amir Temur salohiyatining ajoyib ifodasi bo'lgan «Tuzukot»da sohibqironning ilm-fan, ma'rifat ahliga har doim alohida e'tibor berganligi va har bir muhim ishni amalga oshirishda ularga qat'iyon suyanganligi qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan. Amir Temur davrida yashab ijod qilgan allomalardan Jaloliddin Turonshoh (vafoti 1385), Bahouddin Naqshband (vafoti 1389), Xoja Hofiz Sheroziy (vafoti 1389), Xoja Kamol Xo'jandiy (vafoti 1391), Allomai Taftazoniy (vafoti 1392) va boshqalarni eslash kifoyadir.

Movarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm-fan va san'atning taraqqiyotida Ulug'bek va uning atrofida yig'ilgan olimlarning o'rni va hissasi nihoyatda buyukdir. Ulug'bekning farmoni bilan bunyod etilgan Samarqand, Buxoro, G'ijduvon shaharlaridagi madrasalarda Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidalari), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), jo'g'rofiya (geografiya), ilm-u aruz (poetika), arab tili kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitildi. Hatto, Buxoro madrasasining darvozasi: «Bilim olish har bir musulmon ayol-u erkakka farzdir», degan hadis yozib qo'yilgan.

Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasi ikki qavatli, 50 hujrali bo'lib, har bir hujra 3 xona: qaznoq (omborxonona), yotoqxona va darsxonadan iborat bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, madrasada 100 dan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta'lim olgan. Madrasada zamonasining iqtidorli olimlaridan Mavlono Shamsuddin Muhammad Havofiy yetakchi mudarris bo'lgan. Mashhur olimlardan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy hamda Mirzo Ulug'bekning o'zi va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars berganlar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, madrasada ilmi hay'at (astronomiya) darsini Qozizoda Rumiy o'tgan.

Ulug'bek farmoyishi bilan qurdirilgan rasadxona o'z davrining akademiyasi bo'lgan. Shu asosda 1429-yil Samarqandda Mirzo Ulug'bek tomonidan «*Dor-ul ilm*» – *Samarqand akademiyasiga* asos solindi. Ulug'bek akademiyasini tan olgan va dunyoga tanitgan kishi bu fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi Volter (taxallusi; asl nomi Mari Fransua Arue (Arouet) 1694–1778)dir. Uning tarixiy mavzudagi «Millatlarning holatlari va odatlari haqida» (1753–1758) asarining 3-jildi Amir Temur va temuriylar hukmdorligiga bag'ishlangan. Volter o'z asarida Ulug'bek haqida, uning podsholigi, Samarqandda ilm-u ma'rifatni taraqqiy ettirib, fan rivojiga katta hissa qo'shganini hurmat bilan ta'kidlab «Ulug'bekning buyukligi, uning qilgan ishlari bilan belgilanadi. U Samarqandda birinchi Fanlar akademiyasini yaratdi, yer kurrasini o'rgandi, koinot va yulduzlarni kashf etib mashhur jadval tuzdi...», deb yozadi.



Volter

Ulug'bek akademiyasida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan 100 dan ortiq olim faoliyat ko'rsatdi. Ulug'bek atrofiga uyushgan ko'plab buyuk qomusiy olim sohiblari – Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muhammad Ali Qushchi, Muhammad Havofiy faoliyat ko'rsatib ilm-fanning turli sohalarida, ayniqsa





**Yan Geveliyning «Astronomiya darakhchisi»  
kitobidan olingan gravura  
(Ulug'bek – chapdan uchinchi)**



**Mirzo Ulug'bekning  
«Ziji Ko'ragoniy» (XVI asr) asari**

astronomiya, matematika singari aniq fanlar bo'yicha barakali ijod qildilar hamda o'zlaridan ulkan ilmiy meros qoldirib ketdilar.

Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Unda kichik o'lchamli asboblari: armillyar sfera, 2, 4 va 7 halqadan iborat o'lchov asboblari, triangula, quyosh hamda yulduz soatlari, asturlab va boshqalar bo'lgan. Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan.

Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari «Ziji Ko'ragoniy» («Ko'ragoniy yangi astronomik jadvali») 1437-yil Ulug'bek rasadxonasida yaratilgan. Ushbu ilmiy asar ikki bo'limdan, ya'ni batafsil yozilgan muqaddima va vaziyatlari elliptik sistemada berilgan 1018 ta yulduzning jadvalidan iborat. «Ziji Ko'ragoniy»da keltirilgan yulduzlar jadvali Samarqandda olib borilgan kuzatishlar asosida tuzilgan. Jadval yulduzlar soni va kuzatishlarning originalligi jihatdan astronomiya tarixida Gipparx – Ptolemey jadvalidan (II asr) keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Optik asboblari ixtiro qilinguniga qadar tuzilgan zijlar orasida «Ziji Ko'ragoniy» eng mukammal hisoblanadi. Undan vaqtni aniqlash va geografik koordinatalarni o'lchashda, shuningdek, turli astronomik masalalarni hal qilishda XVII asrga qadar Sharqda va Yevropada foydalanib kelindi. Asarda boshqa jadvallar ham bor. 683 ta punkt uchun geografik koordinatalarni o'z ichiga oluvchi jadval, asosan, turli manbalardan foydalanib tuzilgan.

Ulug'bek ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham ijod qilgan. Uning qalamiga mansub «Ulusi arba'yi Chingiziy» («Chingiziylarning» to'rt ulusi (tarixi)) yoki «Tarixi arba'yi ulus» («To'rt ulus tarixi») nomi bilan mashhur asari, hech shubhasiz, tarixshunoslik fanida qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. 1425-yildan keyin yozib tamomlangan bu asar muqaddima va to'rt qismdan iborat.



№	Ulug'bek akademiyasi olimlari ijodidan namunalari	
1	Qozizoda Rumi (taxm. 1360–1437) asarlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ «Risola fil hisob» («Hisobga doir risola»)</li> <li>➤ «Sharhi Mulaxxis fil-hay'a» (Astronomiyaga oid «Qisqacha risola»ning sharhi)</li> <li>➤ «Sharhi ashkol at-ta'sis»</li> <li>➤ «Risola al-jayb» («Sinus haqida risola»)</li> <li>➤ «Dar bayoni istirohati jaybi yak daraja» («Bir daraja sinusini aniqlash usulining bayoni haqida»)</li> <li>➤ «Dastur al-amal va tahqiqil-jadval» («Amal dasturi va jadvallarini tuzatish»)</li> <li>➤ «Misha» («O'lchash»)</li> <li>➤ «Risola fil-hay'a val-handasa» («Astronomiya va geometriya haqidagi risola»)</li> <li>➤ «Sharh at-tazkira»</li> <li>➤ «Sharh tahrir al-Majistiy»</li> <li>➤ «Risola fi ilm il-hay'a» («Astronomiya ilmi haqida risola»)</li> <li>➤ «Risola fi rubbil-mujayyab» («Sinus kvadrat haqida risola»)</li> <li>➤ «Lima kana halla kavni nisba irtifa' a'zam al-jibol ila qutri al-arz kanisba sub'ard sha'ira ila zira'» («Nima uchun tog'larning eng balandining Yer diametriga nisbatan arpa donining bir gazga nisbati kabi ekanligi qabul qilingani»)</li> <li>➤ «Risola fi samiy al-qibla» («Qibla azimuti haqida risola»)</li> <li>➤ «Sharh hikmat al-ayn»</li> </ul>
2	G'iyosiddin Jamshid Koshiy (? – taxm. 1430) asarlari	<p><b>Astronomiyaga oid:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ «Ziji Hoqoniy dar takmili ziji Elxoniy» («Elxoniy astronomik jadvalini takomillashtirishda Hoqoniy astronomik jadvalining ahamiyati»)</li> <li>➤ «Sullam us-samo» («Osmon narvoni»)</li> <li>➤ «Nuzxat ul-hadoyiq» («Bog'lar sayri»)</li> </ul> <p><b>Matematikaga oid:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ «Risola al-muhitiya» («Aylana haqida risola»)</li> <li>➤ «Risolat ul-atvor val-jayb» («Vatarlar va sinus haqida risola»)</li> <li>➤ «Miftoh ul-hisob» («Arifmetika (hisob) kaliti»)</li> </ul>
3	Ali Qushchi (1403–1474) asarlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ «Risola fil-hisob» («Hisob haqida risola»)</li> <li>➤ «Risolai qusur» («Kasrlar risolasi»)</li> <li>➤ «Risola al-fathiya» («G'alaba risolasi»)</li> <li>➤ «Risola al-Muhammadiya fil-hisob» («Hisob haqida»)</li> <li>➤ «Risola fi halla ash-shakl al-hilol» («Hilolsimon shakllarni o'lchash haqida risola»)</li> <li>➤ «Sharhi Miftohal-ulumi Taftazoniy» («Taftazoniyning «Miftoh al-ulum» (Ilmlar kaliti)ning sharhi»)</li> <li>➤ «Risola dar ilmi hay'a» («Astronomiya ilmi haqida risola»)</li> <li>➤ «Sharhi «Ziji Ulug'bek» («Ulug'bek «Zij»iga sharh»)</li> </ul>

3	Ali Qushchi (1403–1474) asarlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ «Sharhi risolai «Tuhfai shohiya» («Shohiy tuhfa» risolasining sharhi)»</li> <li>➤ «Sharhi risolai «Sullam as-samo» («Sullam as-samo» risolasiga sharh)»</li> <li>➤ «Xitoyнома»</li> <li>➤ «Risolai mantiq» – 1430-yili Samarqandda, fors tilida yozilgan risola</li> <li>➤ «Sharhi tajvidi Xoja» («Xoja «Tajvidi»ning sharhi)»</li> </ul>
---	----------------------------------	--

**Tarixshunoslik.** Amir Temur va temuriylar davrining yana bir muhim yutug'i – bu ijtimoiy fanlar, xususan, tarixshunoslik sohasida katta tadqiqotlarning yaratilganligidir. Bu xayrli ishlarining yuzaga chiqishida ham temuriy hukmdorlar tashabbusi va rahnamoligi beqiyos bo'lgan. Jumladan, Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayricha ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir.

Bu davrda yashab ijod etgan muarrixlarning asarlarida o'sha zamon tarixiy voqealarining mufassal tafsilotlari, sharhlaridan tashqari ularning chuqur ijtimoiy mohiyati, mazmuni o'zining butun ziddiyatligi va murakkabligi bilan ifoda etilgan.

№	Amir Temur va temuriylar davrida tarixshunoslik sohasini rivojlantirishda o'zining ulkan xizmatlarini qo'shgan muarrixlar va tarixchi olimlar	Asarlarning nomi
1	Nizomiddin Shomiy (? – taxm. 1412)	«Zafarnoma» (1401–1404)
2	Hofizi Abru (1361/62–1430)	Tarixiy va tarixiy-geografik asarlari: «Zayli Zafarnomai Shomiy», «Zayli Jomi' ut-tavorix», «Tarixi Hofizi Abru», «Majmua at-tavorixi sultoniya», «Zubdat ut-tavorixi Boysunquriy»
3	Sharafiddin Ali Yazdiy (? –1454)	«Zafarnoma» (1419–1425)
4	Fasih Havofiy (1375 – taxm. 1443)	«Mujmali Fasihiy» («Fasihiyning (tarixlar) majmuasi») (1433–1442)
5	Abdurazzoq Samarqandiy (1413–1482)	«Matlai sa'dayn va majmai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi») (1467–1469)
6	Ibn Arabshoh (1388–1450)	«Ajoib ul-maqdur fi axbori Temur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») yoki «Amir Temur tarixi»

7	Mirxond (1433–1498)	Hirot shahrida 1494-yilgacha 7 jildli «Ravzat us-safo fi siyratul-anbiyo val-muluk val-xulafo» («Payg'ambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i») asarining 6-jildini yozib tugatgan. Asarning 7-jildini Mirxond vafotidan so'ng nevarsi Xondamir tomonidan hijriy 929 (1522–1523)-yilda yozib tamomlagan
8	Xondamir (1473/76–1534)	«Makorim ul-axloq» («Oliyjanob xulqlar») (1501), «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson zoti xabarları va do'stning tarjimai holi») (1520–1524)
9	Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo (?–1412)	1403-yilda Samarqandga, Amir Temur huzuriga tashrif buyurgan. Safari asnosida «Temurbek saroyiga sayohat kundaligi»ni yozgan. Klavixoning safar xotiralari 1-marta 1582-yil Argonte de Molina shahrida «Buyuk Temur tarixi» nomi bilan nashr etilgan

Mazkur jadvalda nomlari ko'rsatilgan muarrixlar o'sha davr ijtimoiy hayoti jarayonining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda temuriy hukmdorlarning turli-tuman faoliyati, sa'y-harakatlari bilan bog'liq tarixiy hodisalar, voqealar silsilasini o'z imkoniyatlari darajasida xolis va haqqoniy aks ettirishga intilganlar. Shu bilan birgalikda bunda ularning o'z shaxsiy qarashlari yoxud u yoki bu hodisalarni ba'zan bo'rttirib, ba'zan esa kamsitib, bir yoqlama tarzda ifodalashga uringan bo'lishlari ham shubhasizdir. Bunday hollar, jumladan, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va boshqa muarrixlarning asarlari uchun ham birdek taalluqlidir. Biroq, eng muhimi, tilga olingan bu asarlar o'zining ilmiy qimmati, muhim tarixiy manbalar sifatidagi benazir qadri bilan biz minnatdor avlodlar uchun muhim ahamiyatga egadir.

**Nafis kitob va xattotlik san'ati.** Temuriylar davri madaniyati ravnaqida xattotlik san'atining o'rni ham alohidadir. Bu davrda ilm-fan va adabiyot bilan bir qatorda kitobat san'ati, ya'ni qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan xattotlik, musavvirlik, lavvohlik (lavha chizish) va sahhoflik (muqovasozlik) san'ati ham nihoyatda taraqqiy etadi. Shu o'rinda xattotlik haqida qisqacha ta'rif beradigan bo'lsak, **xattotlik** (arab. – husnixat yozuvchi), kalligrafiya – yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitoblarini yaratish kasbidir. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda,



jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muxakkak, nasta'liq, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riko, rik'iy) mavjudligi haqida darak beradi.

XV asrdan kitob ko'chirish (fors, eski o'zbek tillari)da nasta'liq xati rasm bo'lgan. Xattotlar ko'proq saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan. Xattotlik Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so'nggi sulolalar (ashtarxoniyalar, mang'itlar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. Temuriy shahzodalar Ibrohim Mirzo (1394–1435, Shohrux ikkinchi o'g'li), Boysung'ur Mirzo (1397–1433, Shohrux Mirzoning o'g'li), Badiuzzamon Mirzo (1458–1515, Husayn Boyqaroning to'ng'ich o'g'li) va boshqalar xattotlikka homiylik qilish bilan birga o'zlari bu san'at turi bilan shug'ullanganlar. Jumladan, Ibrohim Mirzo olti xil xatda tengi yo'q xattot bo'lgan. Shuning uchun ayrim masjid va madrasalar peshtoqiga o'z qo'li bilan kitobalar ham yozgan. Temuriy shahzoda Boysung'ur Mirzo Hirotda tashkil qilgan kutubxonasida musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) esa yangi xat va alifbo «Xatti Boburiy» ixtirochisidir. Kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari, qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattotlik keng qo'llanilgan.

Amir Temur davrining yetuk xattotlaridan biri Mir Ali Tabriziy (1330–1405) nasx va ta'liq xati uslublari asosida nasta'liq xatini kashf qilgan. Amir Temur va Shohrux Mirzo xizmatida bo'lgan. Nasta'liq xatining qonun-qoidalari bayon etilgan risola yaratgan, ko'plab shogirdlar tayyorlagan. U ko'chirgan qo'lyozmalar, jumladan, Kirmoniyning «Xumoy va Humoyun», «Kamolnoma», «Ravzat al-anvar» dostonlari (1396, Britaniya muzeyida), Sa'diyning «Kulliyot»i, «Bo'ston» asari (1377), Nizomiy va Dehlaviyning «Xamsa»lari (Eron milliy kutubxonasida) va qit'a (mumtoz adabiyotda lirik janr)lar (1 donasi Sankt-Peterburgdagi Rossiya milliy kutubxonasida) bizgacha yetib kelgan.

Temuriylar davrida Sultonali Mashhadiy (1437–1520) «Sulton ul-xattotin» («Xattotlar sultoni») va «Qiblat ul-kuttob» («Kotiblar qibliasi») nomli yuksak unvonlarning sohibi bo'lgan. Xattotlik san'atida o'ziga xos maktab yaratgan Sultonali Mashhadiy nasta'liq xatining mislsiz ustози, Alisher Navoiy (1441–1501) ning kotiblaridan biri sifatida sharaf topgan edi. Bu davrda Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik san'atkorlar (Abduljamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy va boshqalar) xattotlikda samarali ijod qilgan. Sultonali Mashhadiy o'z qalamiga sayqal berib, Nizomiy, Fariddin Attor, Xo'ja Hofiz, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Husayniy (Husayn Boyqaro) va boshqa mualliflarning asarlarini kitobot qilgan. Sultonali tomonidan ko'chirilgan 50 dan ziyod kitoblar nusxasi bizgacha yetib kelgan.

№	Temuriylar davrining eng taniqli xattotlari	
1	Sultonali Mashhadiy (1437–1520)	<p>Sultonali Mashhadiyning Navoiy ijodiga munosabati o'zgacha bo'lib, shoirning aksar asarlarini bir necha nusxalarda ko'chirgan. Jumladan, Navoiyning «Ilk devon»ini o'zi tartib etgan (1465; qo'lyozma nusxasi Rossiya milliy kutubxonasida). O'z navbatida ulug' shoir ham xattotga chuqur hurmat bilan qaragan, «Majolis un-nafois» asarida unga yuqori baho bergan.</p> <p>Sultonali Mashhadiy ko'chirgan va tartib qilgan mo'tabar qo'lyozmalar ham o'zbek mumtoz adabiyotining noyob namunasi, ham Hirot kitobat san'atining shoh asarlari, durdonalari sifatida qadrlidir. Shulardan 50 dan ortiq kitob va 500 ga yaqin qit'alar bizgacha saqlangan: O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida Navoiyning 3 devoni (jumladan, «Navodir un-nihoya» va b.), Husayn Voiz Koshifiyning «Hotamnoma», «Javohirnoma» asarlari; Angliyaning Vindzor saroyi kutubxonasida Navoiyning «Devon»i, «Xamsa» asarlari; Rossiya milliy kutubxonasida Navoiyning «Xamsa» asari; AQSHning Metropolitan muzeyida Navoiyning «Devon»i; Turkiyaning Istanbuldagi To'pqu saroyi kutubxonasida Navoiyning «Xamsa», Sa'diyning «Devon»i, Sulton Husayniyning «Devon»i (4 nusxa) va boshqa qo'lyozmalar</p>
2	Abduljamil Kotib (?-1505/06)	<p>Alisher Navoiyning shaxsiy kotibi, Hirotidagi Sultoniya madrasasida nahv va sarfdan dars bergan (mudarris). U Alisher Navoiyning «Xamsa», «Navodir un-nihoya» va boshqa asarlarini ko'chirgan. Navoiyning lirik asarlari bo'yicha «Tuhfat us-salotin» («Sultonlarga tuhfa») to'plamini tuzgan</p>



3	Darvesh Muhammad Toqiy (XV asr 2-yarmi–XVI boshlari)	Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy bilan hamsuhbat bo'lgan, ularning asarlarini chiroyli nasta'liq xatida ko'chirgan. Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan qo'lyozma kitoblar: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Husayn Voiz Koshifiyning «Lubob ul-albob» (1477-yilda ko'chirilgan), Alisher Navoiyning uchta terma devoni (XV asr oxiri – XVI asr boshlari), Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» (XV asr oxiri), Muhammad Tohiriy G'azzoliyning «Ma'rifat ul-mazohib» (1502) asarlari; Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi ommaviy kutubxonada Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa»si (1482), Istanbuldagi To'pqupu saroyi kutubxonasida Alisher Navoiyning hayotligida tartib berilgan mo'tabar «Kulliyot»i (26 asarni o'z ichiga olgan, 802 varaqdan iborat) rasmiy qo'lyozma kitobi (1497–1500) saqlanadi
4	Sulton Muhammad Xandon (XV–XVI asr 2-yarmi)	Sultonali Mashhadiyning shogirdi, xushtabiat, xushchaqchqlikka moyil bo'lgani uchun «xandon» laqabini olgan. Ijodini Navoiyning shaxsiy kutubxonasida boshlagan. Sulton Muhammad Xandon ko'chirgan qo'lyozma kitoblarga ba'zan otini yozmagan. Xondamir xattotni «nasta'liq xatida iste'dodi juda zo'r», deb baholagan. Ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Sulton Muhammad Xandon ko'chirgan Sa'diyning «Bo'ston» asari (1514), Hofizning «Devon»i (1519), Xusrav Dehlaviyning «Devon»i (1497) va «Qiron us-sa'dayin» asari (1515), Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Subhat ul-abror» (1523), Navoiyning «Devon»i (1528) va boshqa qo'lyozmalar, ko'plab qit'alari bizgacha yetib kelgan
5	Sulton Muhammad Nur (1472–1530)	Sultonali Mashhadiyning shogirdi. Hirotda Navoiy homiyligida xattotlik san'atini o'rgangan, ijodini ham Navoiyning shaxsiy kutubxonasida boshlagan, turli majlislarda ishtirok etgan. Asosan, Hirotda ijod qilgan, ma'lum muddat Buxoroda ham bo'lgan. Navoiy uning san'atini yuqori baholab, o'z davrida: «Hech kim mayda nasta'liq xati yozishda unga teng kelmagan», – deb yozgan. Ko'plab shogirdlar tayyorlagan, ulardan Salim Kotib, Ayniy va b. ustozining xat uslubini davom ettirgan. Sulton Muhammad Nur ko'chirgan qo'lyozmalar: Abdulla Hotifiyning «Xamsa» dostonlaridan olingan terma baytlar (1500); Sa'diyning «Bo'ston» (1501); Sa'diy va Jomiy g'azallari terma «Devon»i (1519); Nizomiyning «Xamsa» (1524); Jomiyning «Yusuf va Zulayho» (1528); «Subhat ul-abror»; Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (1528); Nizomiyning «Xusrav va Shirin» (1530), Navoiyning «Devon»i; «Kalila va Dimna» va b. Sulton Muhammad Nur bitgan qit'alardan 9 tasi Rossiya milliy kutubxonasida saqlanadi



6	«Sayid Ruhullo», «Sayid Mirak», «Xoja Mirak» nomlari bilan mashhur bo'lgan. Kamoliddin Behzodning ustози. Alisher Navoiy kutubxonasida ishlagan, Sulton Husayn Mirzo saroy kutubxonasining boshlig'i bo'lgan. Kitobat san'atining mohir ustasi, xattot ham bo'lgan. Sa'diyning «Bo'ston», Navoiyning «Xamsa», Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Nizomiyning «Xamsa» asarlari qo'lyozmasini bezashda ishtirok etgan. Hirot jome masjidi kitobalarini yaratgan va boshqa binolarni bezagan
7	Mirali Qilqalam, Xalvoiy, Rafiqiy, Shoh Muzaffar va boshqalar.

**Tasviriy san'at.** Temur va temuriylar davrida ulkan muvaffaqiyatlaridan yana biri bu tasviriy san'atning gurkirab taraqqiy etganligidir. Bu davr tasviriy san'ati – portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'ldi. XIV asrning yarmida Samarqand miniatura maktabi tashkil topgan.

Temuriylar davrida yetishib chiqqan va tasviriy san'at dong'ini olamga taratganlar jumlasiga ustoz Shamsiddin Abdulhay, Muhammad Nur, Shayx Turoniy, Abdulla Hiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir, Pir Sayid Ahmad Bog'ishamoliy va boshqa musavvir va naqqoshlarni kiritish mumkin. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaralari yoxud jang tafsilotlari o'zining tabiiyligi, tiniqligi va originalligi bilan kishini hayratga soladi. Masalan, Muhammad Siyohqalam, Hoja Muhammad va ustoz Abdulhay mo'yqalami bilan sayqal topgan 96 ta muroqqa (albom) shunday tasvirlar sirasiga kiradi.

Siyomolar qiyofasi tasvirlari orasida Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur va boshqalarning tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan. Musavvirlar bu tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini aniqroq va mukammalroq tasvirlashga, ayrim hollarda hatto ularning ma'naviy dunyosini ochishga intilganlar. Masalan, mashhur rassom Mahmud Muzahhib tomonidan chizilgan Navoiy tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg'inlik alomatlari, ham ulug'vorlik va oliyanoblik ko'zga yaqqol tasvirlanib turadi.



A. Navoiy (musavvir Mahmud Muzahhib asari, XVI asr)

XV asrning 20–30-yillarida Shohrux saroyida qo'lyozma kitoblar tayyorlanadigan ustaxonasi bo'lgan kutubxona yuzaga kelgan. Kutubxonada 40 dan ortiq san'atkorlar, jumladan adabiy va tarixiy mazmundagi qo'lyozmalarni bezovchi musavvirlar, xattotlar, naqqosh, muzahhib va boshqalar to'plandi. Kutubxonaning faoliyatiga shahzoda Boysung'ur Mirzo homiylik qilgan. Uning sa'y-harakati asosida jahon san'ati tarixida muhim o'rin tutgan Hirot miniatura maktabiga asos solgan (keyinchalik mutaxassislar tomonidan «Nigorxonai Behzod» yoki «Behzod akademiyasi» deb atalgan). Hirot miniatura maktabi – XV asrda Hirotida shakllangan tasviriy san'at (miniatura)dagi uslubdir.

XV asrning II yarmida Husayn Bayqaro va Alisher Navoiy homiyligi tufayli Hirot miniatura maktabi o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda rasm va ranglar uyg'unligi tuzilishining mohir ustalari bo'lgan Mirak Naqqosh, Xo'ja Muhammad naqqosh, Xo'ja Ali al-musavvir, Shoh Muzaffar kabilar ijod qildi.

1455–1536-yillari Hirotida buyuk miniaturachi musavvir, Sharq uyg'onish davrining yetuk san'atkori, Hirot miniatura maktabining asoschisi – Kamoliddin Behzod faoliyat ko'rsatdi. U «Ikkinchi Moniy» degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan. Tarixchilardan Mirzo Muhammad Haydar, Do'st Muhammad va Qozi Ahmadning ma'lumotlariga ko'ra, Behzodni Sulton Husaynning kitobdori Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olgan. Behzod musavvirlikni Pir Sayid Ahmad Tabriziydan o'rgangan, o'z ijodida musavvir Xalil Mirzo Shohruxiy badiiy uslubini davom ettirib, uni rivojlantirgan va kamolga yetkazgan, yosh musavvir iste'dodi juda tez shakllangan. Bunda Alisher Navoiyning murabbiylik faoliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Navoiyning shaxsiy kutubxonasida o'sha davrning yetuk san'atkorlari Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad kabi musavvirlar, Hofiz Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad Nur kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. Behzod shu kutubxonada, ayniqsa, xattot Sultonali Mashhadiy va Yoriy Muzahhib bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Behzod ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu yerda – Navoiy va boshqa san'atkorlar ijodi ta'sirida kamol topgan.

Behzod musavvir sifatida tanilgach, Sulton Husayn saroyiga xizmatga chaqirilgan. 1487-yil Sulton Husayn farmoni bilan Behzod saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Keyinchalik bu joy o'z davrining badiiy akademiyasiga



**Behzod (rassom Temur Sa'dullayev asari, 1978)**



**Sulton Husayn Mirzo huzurida ziyofat  
(Sa'diyning «Bo'ston» asariga Behzod  
ishlagan miniatura)**



**K. Behzod. Qal'a qurilishi.  
1494–1495-y. Miniatura.  
London Britaniya muzeyi**

(«Nigorxonai Behzod» yoki «Behzod akademiyasi») aylanadi. Musavvir Hirotida Navoiy va Sulton Husayn hayotlik davrida qizg'in ijod bilan band bo'ldi, ko'plab mo'tabar qo'lyozmalarni yaratishga rahnamolik qildi, ma'lum qismini nafis rasmlar bilan ziynatlashda shaxsan ishtirok etdi. Qator zamondoshlarining – Navoiy, Jomiy, Sulton Husayn va boshqalarning chexrakushoy (portret) larini yaratdi, bir guruh yoshlarga rassomlik sirlarini o'rgatdi. 1507–1510-yillarda Behzod Hirotni egallagan Muhammad Shayboniyxon xizmatida bo'ldi. Bu davrdan bizgacha Behzod yaratgan Shayboniyxon portreti yetib kelgan. 1510-yil Hirot shahri safaviylar qo'liga o'tadi. 1520-yilda Shoh Ismoil yosh shahzoda Tahmosibga rasm o'rgatishi uchun Behzodni o'z saltanati poytaxti Tabriz shahriga taklif etadi, 1522-yilda esa maxsus farmon bilan



**Sulton Husayn Bayqaro  
(Behzod ishlagan  
miniatura)**

rassomni o'z kutubxonasidagi kitobat ahli (kotib, naqqosh, muzaxlib, jadvalkash, halkor, zarko'b, loju-vardsho'y va b.)ga mutasaddi etib tayinlaydi. 1524-yil Shoh Ismoil vafotidan keyin Shoh Tahmosib davrida ham Behzod katta obro' va e'tiborga ega bo'lgan. Tabrizda Behzod Sulton Muhammad, Og'a Mirak va Mir Mansur kabi musavvirilar bilan hamkorlikda ijod qildi. Qozi Ahmadning ma'lumotiga ko'ra, Behzod hayotining oxirida ona shahri Hirotga qaytgan va shu yerda vafot etgan. Musavvirning qabri Ko'hi Muxtor (Murod tog'i; Afg'oniston hududida)ning xushmanzara joyida joylashgan.

Kamoliddin Behzodning ijodida Hirot miniatura maktabining jo'shqin, harakat va detallarga boy kompozitsiyalardan his-tuyg'ularni ifodalash usuliga, shuningdek, portret janriga o'tishdek taraqqiyot yo'li o'z ifodasini topdi. Uning har bir yaratgan asari, shoh asar edi. Zamondoshlari uning asarlarini badiiy mukammalligi, o'ta hayotiyiligi va haqqoniyligi uchun qadrladilar.

**Musiqa madaniyati.** Temuriylar davri musiqa madaniyatining rivoj topishida ham alohida o'rin tutdi. Tarixchi Ibn Arabshoh Temur saroyidagi ijodiy muhitni shunday tasvirlaydi: ...«Qur'onni qiroatda ham, savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Domg'oniy, Mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Huzayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy va Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al-Marog'iy edi».

Bu davrda musiqa san'atining rivoj topganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, A. Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining 8 turi bo'lganligini yozadi. Bu – tuyuq, changi, turkiy, orzuvoriy (yoki oruzvoriy), muhabbatnoma, mustazod va boshqalardir. Ayrim miniaturalar, badiiy obrazlar va boshqalar xalq san'atining ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Xalq kuylari va qo'shiqlari musiqa san'atining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur davrida san'at va musiqa olamida Abdulqodir Go'yanda (1334–1435) mashhur bo'lgan. Uning hayotining asosiy qismi Samarqandda kechgan. Abdurazzoq Samarqandiy va Sharafiddin Ali Yazdiylar uni musiqa va advor (musiqa nazariyasi)da zamonaviy yagonasi, deb yozadilar.

XIV–XV asrlarda yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratildi. Juda ko'p mahoratli sozandalar, mashshoqlar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. Abduqodir Noiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Qosim Rabboniy va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda musiqachilar bilan bir qatorda Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy kabi mutafakkir va shoirlar ham musiqa san'ati bilan shug'ullanib, uning rivojiga ma'lum hissa qo'shadilar. Masalan, Ulug'bek «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy»,

«Tabriziy», «Usuli ravon» va «Usuli otlig'», Navoiy «Isfahoniy» kuylarini ijod qiladi. Jomiy va Binoiylar musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar.

Temuriylar davri musiqa san'atida, ayniqsa, Hirot ijodiy muhitining roli katta bo'lgan. Hirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiy, Hiloliy va Jomiy singari mumtoz shoirlarning she'r, g'azallaridan keng foydalanganlar. Xo'ja Abdulla Marvarid, Qul Muhammad, Shayx Noiy, Husayn Udiy va Shayx Qumiylar mashhur va taniqli musiqa san'ati vakillari sanaladilar. Navoiyga zamondosh bo'lgan Abuqodir va Qutbiddin Qo'iy, qo'shiqchi va musiqa nazariyasi bilimdoni Abdulloh Loriy, qonunchi Darvesh Ahmad Qonuniy, naychi Sulton Ahmad Devona, Hiri, shuningdek, 360 dan ziyod kuylar ijodkori Hoja Yusuf Andijoniy singarilar ham davr musiqa olamining benazir namoyandalari edilar.

**Badiiy adabiyot.** Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining to'laqonli mazmuni, manzarasi va ko'lami o'sha zamonda har taraflama gurkirab ravnaq topgan badiiy tafakkur samarasi – badiiy adabiyotda yaqqol namoyon bo'ldi. Negaki Vatanimiz tarixining mana shu chinakam Uyg'onish davrida o'zlarining serqirra, serjilo ijodi bilan yuksak insonparvarlik, umumbashariy g'oyalarni tarannum etgan ko'plab zabardast adib-u shoirlar, daho ijodkorlar yetishib chiqdilar. Eng muhimi shundaki, bu davrda badiiy tafakkurda an'anaviy bayroqdor bo'lib kelgan fors-tojik adabiyoti bilan yonma-yon turkiy – o'zbek adabiyoti ham rivojlanib, uning namoyandalari safi ko'payib bordi. Tarjima adabiyot vujudga keldi. Badiiy adabiyotning o'sishi bilan uzviy bog'langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, nodir asarlar yaratildi.

№	XIV–XV asrlarda badiiy adabiyot sohasida ijod qilgan shoirlar va adiblar	Asarlarining nomi
1	Qutb Xorazmiy (XIV asr – ?) – shoir, tarjimon	«Xusrav va Shirin» dostoni. Sig'noq shahrida yozilgan (1330–1340)
2	Sayfi Saroyi (1321–1398) – shoir, tarjimon	Bizgacha uning 10 dan ortiq g'azal, qasida, qit'a, ruboiy, «Suhayl va Guldursun» dostoni, «Gulistoni bit-turkiy» asari yetib kelgan. «Sindbodnoma»ni o'zbek tiliga qilgan tarjimasini saqlanmagan. She'rlarida vatanparvarlik, odamiylik, inson qadr-qimmatini, do'stlik, muhabbat motivlari bilan birga ijtimoiy mavzu ham kuylangan («Ko'ngul», «Topilmas», «Erur» va boshqalar)



3	Haydar Xorazmiy (XIV asrning oxiri – XV asrning 1-yarmi) – shoir. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri	Turkiy va forsiyda she'rlar yozgan, devon tuzgan. Nizomiy Ganjaviyning «Mahzan ul-asror» asariga «Gulshan ul-asror» nomi bilan turkiy tilda javob yozib (1409–1414), Sulton Iskandarga bag'ishlagan. Asarning hajmi 639 baytdan iborat. Yaqin-yaqingacha «Gul va Navro'z» dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlandi
4	Durbek (XIV asr oxiri – XV asr boshi) – o'zbek shoiri	Bizgacha uning «Yusuf va Zulayho» dostonigina yetib kelgan. Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostoni 1409-yilda yozilgan. Doston asosini Sharqda mashhur Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyat tashkil etgan
5	Amiriy, Yusuf Amiriy (XV asr) – shoir	Boysung'ur Mirzo himoyasida yashagan. Turkiy va forsiyda ijod qilgan. Amiriyning turkiydagi bir devoni hamda «Dahnoma», «Chog'ir va Bang munozarasi» asarlari yetib kelgan. Forsiydagi asarlaridan 2 baytgina ma'lum: biri «Majolis un-nafois», ikkinchisi Yaqiniyning «O'q va yoy munozarasi»da saqlangan. Amiriy «Dahnoma» (1429) asari bilan noma janrini rivojlantirdi
6	Yaqiniy (XV asrning 1-yarmi) – shoir	Yaqiniyning hozirgacha faqat «O'q va Yoy» asari saqlanib qolgan. Bu asar Yusuf Amiriy, Ahmadiy an'analarining davomi sifatida maydonga kelgan
7	Gadoiy (1403/04–XV asr oxiri) – shoir. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri	Gadoiy – taxallusi bo'lib asl ismi hozircha noma'lum. U g'azal janri, aruz ilmi va she'riyat qoidalarini yaxshi bilgan. Asosan turkiy (o'zbek) va qisman fors tilida g'azal, qit'a, tuyuq, mustazod, qasidalar yaratgan. Gadoiy o'z ijodi bilan XV asr o'zbek mumtoz she'riyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Xususan, uning g'azallari mazmunan hayotiyiligi, badiiy va shaklan barkamolligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari aruzning xalq qo'shiqlariga yaqin ramal, hazaj bahrlarida yozilgan. Tili xalqona sodda, vazni yengil, sho'x va hoqi. Gadoiyning XV asr 2-yarmi – XVI asr boshlarida noma'lum kotib tomonidan ko'chirilgan «Devoni Gado» asari bor. Unga 2974 misradan iborat 230 g'azal, 1 mustazod, 1 qasida, 5 qit'a, tuyuq kirgan. «Devon»dagi qasida temuriy shahzoda Muhammad Jahongir Mirzoning o'g'li Xalil Sulton madhiga bag'ishlangan. Gadoiyning forsiydagi she'rlari Fahri Hiraviyning «Radoyif ul-ash'or» tazkirasiga kiritilgan



8	Atoiy (XV asr) – shoir	Yassaviy avlodidan. G'azalnavis – lirik shoir. Uning lirikasida xalq iboralari, ta'birlar, maqol va matallar, ertak mavzulariga oid so'zlar ko'p. G'azallarini asosan aruzning ramal bahrida yozgan. Vazni yengil, misralari qisqa, so'zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. Shuning uchun ham uning she'rlari xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan. Atoiy tajohuli orifona, laf va nashr kabi tasvir vosita va usullarini ham yaratgan. Shoir ijodi bizgacha to'la yetib kelmagan. Devonining taxm. XVI asrda ko'chirilgan, 260 g'azalni o'z ichiga olgan qo'lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi
9	Sakkokiy (XV asr) – shoir. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri	Sakkokiy – shoirming taxallusi, uning asl ismi ma'lum emas. «Sakkok» (pichoqchi) so'zidan, shoir hunarmand oilada tug'ilgan degan fikrni taxmin qilish mumkin. U o'zbek adabiyotida qasida janriga asos solgan shoirlardan. Xoja Muhammad Porso, Xalil Sulton, Ulug'bek va Arslon Xoja Tarxonlarga bag'ishlab qasidalar yozgan. Qasidalaridan birida Ulug'bekni xalqning mehribon hukmdori, ma'rifatparvar va buyuk olim sifatida ulug'laydi. Shoir o'zbek dunyoviy lirikasini ham mazmun, ham shakl jihatdan boyitgan. Shoir g'azallari va qasidalari devon qilib to'plangan bo'lsa-da, to'liq nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Sakkokiy devoni Londonda, Britaniya muzeyida va O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida (inv. № 7685) saqlanadi
10	Lutfiy, Mavlono Lutfiy (1366–1465) O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri	O'z zamonining «Malik ul-kalomi», ya'ni «So'z podshosi». Lutfiy – turkiy she'riyatda maktab yaratgan san'atkor. Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan. U birgina turkiy tilda asarlar yaratib qolmadi, balki fors tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va san'atni sevish kabi fikrlar katta joy olgan. Bizgacha shoirming XVI–XX asrlar mobaynida ko'chirilgan turkiy devonining 33 qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ular Toshkent, Dushanbe, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Olim E. Ahmadxo'jayevning aniqlashi bo'yicha, Lutfiy qalamiga mansub mavjud she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayt) g'azal janrida yozilgan

Bu davrning badiiy adabiyoti, xususan o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan ushbu shoirlarning ilmiy merosi o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi.



**Alisher Navoiy**  
(V.E. Kaydalov  
chizgan, 1947)


Ulug' o'zbek shoiri, mumtoz she'riyatimiz sultoni Alisher Navoiyning katta ijodi ham shu tarixiy davr bilan bog'liqdir. Alisher Navoiy, Navoiy (taxalluslari; asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) (1441-yil 9-fevral – Hirot – 1501-yil 3-yanvar) – buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. U 10–12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. 15 yoshida esa shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va tamagirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro 1472-yilning fevral oyida Alisher Navoiyni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Bu davrda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir (1487-yilgacha) Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal yetishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech kimni kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqqa boshladi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotida va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta'mirlatgan. Ular orasida Hirotidagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifo'iya» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dor-ul-huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dor-ul-huffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Alisher Navoiyga Husayn Boyqaroning hurmati doimo baland bo'lgan. Xususan, Navoiyga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qilgan. Ammo Alisher Navoiy rozi bo'lmagach, unga «Muqarrabi hazrati sultoniy» («Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan rasmiy unvon beriladi. Bu bilan u davlatning hamma ishlariga aralasha

olar va podshoh bilan ko'rishish imkoniga ham ega bo'lar edi. Bundan ko'rinib turibdiki u badiiy ijod bilan bir qatorda, davlat ishlaridan ham yiroqda bo'lmagan.

Uning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bunda yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, yurtparvarlik va erksevarlik g'oyalari butun tarovati bilan namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy – filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

№	Alisher Navoiyning ijod gulshani	
1	«Hiloliya» qasidasi	O'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan biri. 1469-yil 14-aprel kuni, Ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Alisher Navoiy do'sti Husayn Boyqaroni taxtga chiqishi bilan qutlab, unga yangi yozgan ushbu qasidasini taqdim etgan
2	«Tuhfat ul-afkor» qasidasi	1476-yilda yozilgan forsiy tildagi birinchi yirik asari bo'lib, Jomiyga bag'ishlangan
3	<p data-bbox="203 766 421 793">«Badoe' ul-bidoya»</p>  <p data-bbox="183 1013 442 1101">(«Badiiylik ibtidosi») Devon qo'lyozmasining ikki sahifasi (XVI asr)</p>	1470-yillarning oxirlarida o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni. Mazkur devonda 777 g'a-azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje'band, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan kam o'zbek shoiriga nasib bo'lgan
4	«Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»)	O'zbekcha she'rlar asosida 1480-yillarning oxirida tuzgan devoni
5	«Chixl hadis» («Qirq hadis» yoki «Arbain»)	Asarda Muhammad payg'ambar(s.a.v.)ning qirq hadisi to'rtlik bilan she'riy ifodalab berilgan
6	«Mufradot» («Risolai muammo»)	Adabiyot nazariyasiga oid bu asari forsiy tilda yozilgan, muammo yozish va yechish qoidalarini ilmiy izohlashga bag'ishlangan. 1485-yilda yozilgan

7	<p style="text-align: center;"><b>«Xamsa»</b></p>  <p style="text-align: center;"><b>«Xamsa»ning Sultonali Mash'aliy ko'chirgan nuxsasi (1492–1493) muqovasi</b></p>	<p>1483–1485-yillarda yozilgan bo'lib, asar besh dostonni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati»)</li> <li>➤ «Farhod va Shirin»</li> <li>➤ «Layli va Majnun»</li> <li>➤ «Sabbayi sayyor» («Yetti sayyora»)</li> <li>➤ «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»)</li> </ul> <p>Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida turkiy tilda birinchi marotaba yaratilgan. Alisher Navoiy «Xamsa»si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik XV asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi</p>
8	<p style="text-align: center;"><b>«Nazm ul-javohir»</b></p>	<p>1485-yilda yozilgan bu asarda to'rtinchi xalifalardan bo'lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli gapi ruboiy tarona (to'rt misrasi ham qofiyalangan) shaklida bayon etilgan</p>
9	<p style="text-align: center;"><b>«Holoti Sayyid Hasan Ardasher»</b></p> <p style="text-align: center;"><b>«Xamsat ul-mutahayyirin»</b></p> <p style="text-align: center;"><b>«Holoti Pahlavon Mahmud»</b></p>	<p>Navoiy o'zi uchun qadrdon bo'lgan Sayyid Hasan Ardasher (1488-yilda vafot etgan), Jomiy (1492-yilda vafot etgan), olim va shoir Pahlavon Mahmud (1493-yilda vafot etgan)lar xotirasini abadiylashtirish, ularga o'z hurmatini izhor etish uchun bu risolalarni yozgan edi</p>
10	<p style="text-align: center;"><b>«Tarixi muluki Ajam»</b> («Ajam podshohlari tarixi»)</p>	<p>1489-yilda yozilgan</p>
11	<p style="text-align: center;"><b>«Majolis un-nafois»</b> («Nafis majlislar»)</p>	<p>Adabiyotshunoslik sohasidagi Alisher Navoiyning tazkirasi (1490–1491; 1497–1498-yillarda qayta ishlangan). Turkiy tazkirachilikning ilk namunasi. Asarda XV asrda Xuroson va qo'shni mamlakatlarda yashagan shoir, yozuvchi va olimlar (jami 459 kishi) ijodiga oid qisqa ma'lumotlar berilgan. Bu ma'lumotlar yillar, geografik o'rinlar hamda sulolaviy tartiblarga tayanib joylashtirilgan. 8 qism – «majlis»dan iborat</p>
12	<p style="text-align: center;"><b>«Mezon ul-ayzon»</b> («Vaznlar o'lchovi»)</p>	<p>O'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aniqrog'i, aruz vazni qoidalari haqida ilmiy qo'llanmasi (1490–1492)</p>
13	<p style="text-align: center;"><b>«Munshaot»</b> («Maktublar»)</p>	<p>Turkiy tildagi maktublar to'plamining majmuasi, 1494-yilda tuzilgan</p>

14	<p><b>«Xazoyin ul-maoniy»</b> («Ma'nolar xazinasi»)</p>	<p>Alisher Navoiy 1491–1492-yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498–1499-yilda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgan. Devonning birinchi qismi «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik g'aroyibotlari»), ikkinchi qismi «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismi «Badoe' ul-vasat» («O'rta yosh badialari») va to'rtinchi qismi «Favoyid ul-kibor» («Keksalik foydalari») deb nomlanadi</p>
15	<p><b>«Devoni Foni»</b> («Foni devoni»)</p>	<p>1490-yillarning o'rtalarida, Eron olimi Yusuf Sheroziy taxminicha, 1495–1500-yillar orasida Alisher Navoiy forsiy she'rlari devon holiga keltirilgan va bu devon shu nom bilan mashhur bo'lgan</p>
16	<p><b>«Sittai zaruriya»</b> («Olti zarurat»)</p>	<p>Fors tilida. Forsiy qasidalar to'plami. To'plamga 6 qasida kiritilgan bo'lib, ularni Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidanavislar ta'sirida yaratgan</p>
17	<p><b>«Fusuli arba'»</b> («To'rt fasl»)</p>	<p>Fors tilida. Forsiy qasidalar to'plami. To'plamga 4 qasidasi kiritilgan bo'lib, ulardan «Bahor» 57 baytdan, «Saron» 71 baytdan, «Xazon» 33 baytdan, «Day» 70 baytdan iborat. Ularda yilning 4 fasli – bahor, yoz, kuz va qish, bu fasllardan har birining o'ziga xos go'zalligi zavq bilan tasvirlangan va to'rttalovi ham zamon podshohi – Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi do'st va yaxshi inson sifatida vasf yetishga bag'ishlangan</p>
18	<p><b>«Lison ut-tayr»</b> («Qush tili»)</p>	<p>Falsafiy-majoziy xarakterdagi Navoiyning so'nggi dostoni 1498–1499-yillarda yaratilgan. Bu asarini shoir «Foni» taxallusi bilan yozgan</p>
19	<p><b>«Muhokamat ul-lug'atayn»</b> («Ikki til muhokamasi» yoki «Ikki til tadqiqi»)</p>	<p>Tilshunoslik sohasidagi ilmiy asari. 1499-yilda yozilgan</p>
20	<p><b>«Mahbub ul-qulub»</b> («Qalblar sevgani»)</p>	<p>O'zbek badiiy nasrining ilk namunasi – falsafiy-didaktik asar. Shoirning so'nggi buyuk asarlaridan biri bo'lib, 1500-yilda yozilgan. 3 qismdan iborat</p>

21	«Vaqfiya»	Alisher Navoiyning eng muhim asarlaridan biri «Vaqfiya» bo'lib, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o'zi qurgan imoratlariga vaqfi, ya'ni rasmiy hujjatidek ko'rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, Alisher Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi o'rni, uning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va aniqlik bilan yoritilgan
----	-----------	--



Zahiriddin  
Muhammad Bobur

Bu davrning iste'dodli shoirlari va adiblari ichida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 Andijon – 1530 Agra)ning ijodi ham o'ziga xos o'ringa ega. U o'z yurtida hukmronlikni to'la qo'lga kiritgan bo'lsa-da, temuriy shahzodalar ichida tanxo o'zi Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli Boburiylar sulolasiga asos soladi.

Bobur Mirzo davlat arbobi, iste'dodli sarkarda bo'lish bilan bir qatorda o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili va buyuk shoir sifatida boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Boburning o'zi guvohligiga ko'ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim»,

deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to'plana boshlashi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko'p vaqti jang-u jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bo'lgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan.

Bobur Mirzo 18–19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g'azali va «Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq. Bobur Mirzo ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o'rin tutadi. Uning o'z she'riy asarlarini to'plab, devon holiga keltirgan sanani ko'rsatuvchi aniq tarixiy ma'lumotlar ma'lum emas.



Hozirda uning 119 g'azali, bir masnu she'ri, 209 ruboiysi, 10 dan optiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rin olgan.

№	<p style="text-align: center;"><b>Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub asarlar</b></p> 	
1	<p>«Boburnoma»</p>  <p>«Boburnoma»-ning bosh jildi</p>	<p>Jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik. O'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxm. 1518/19–1530). «Boburiya», «Voqeoti Bobur», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa «Vaqoe» va «Tarix» degan nomlarni ishlatgan. «Boburnoma»da 1494–1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar-yilma-yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.</p> <p>«Boburnoma» o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494–1504), Afg'oniston (1504–1524) va Hindiston (1524–1530)dagi hukmdorlik davriga bo'linadi</p>
2	<p>«Mubayyin» («Bayonat beruvchi»)</p>	<p>Ushbu asar Hindiston yurishlari davri, ya'ni 1521-yilda yozilgan. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat qoidalariga bag'ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo'ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to'g'risida ham shar'iy mezonlar bayon qilingan</p>
3	<p>«Muxtasar»</p>	<p>Aruz vazni nazariyasi haqidagi asar (taxm. 1521–1523). Manbalarda «Mufassal», «Risolai aruz» deb ham yuritiladi. Unda aruz vaznidagi barcha yutuq va kamchiliklar ko'rsatilgan. Bobur aruzning ba'zi noaniq masalalariga aniqlik kiritdi va uni yangi fikrlar bilan boyitdi, turkiy, arab, fors aruzlarini bir-biri bilan qiyoslab, aruz vaznining 248 turini aniqladi</p>

4	«Xatti Boburiy» («Bobur xati»)	Zahiriddin Muhammad Boburning risolasi va shu risolada ilgari surilgan xat turi. «Xatti Boburiy» arab alifbosi asosida tuzilgan bo'lsa-da, bu alifbodan ba'zi jihatlari bilan ajralib turadi. Ammo bu ham arab alifbosi singari 29 harfdan iborat. Risolada Bobur arab alifbosini tahrir qilib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish yo'lidan boradi va shu maqsadda uni turkiy tilning talaffuz me'yorlariga moslashtirishga harakat qiladi. Xatti Boburiy bilan muqaddas Qur'oni karim ham ko'chirilgan va u «Mushafi Boburiy» deb atalgan
5	«Musiqiy»	Musiqashunoslik sohasiga oid asari. Biroq asarning matni hanuz topilgan emas
6	«Harb ishi»	Harbiy masalalariga maxsus bag'ishlangan risolasi. Asarning matni hanuz topilgan emas

Shu bilan birga, XIV–XV asrlarda fors-tojik adabiyoti ham an'anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Bu adabiyot dovrug'ini baland ko'targan, yuksak badiiy ijod namunalari yaratgan Kamol Xo'jandiy (taxallusi; ismi Kamoliddin Mas'ud, 1321–1401), Xofiz Sheroziy (taxalluslari; asl ism-sharifi Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad, 1326–1389), Abdurahmon Jomiy (taxallusi; asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad, 1414–1492), Binoiy (taxallusi; asl ismi Kamoliddin Ali Muhammad Sabz, 1453–1512), Hiloliy (taxallusi; to'liq ism-sharifi Mavlono Badriddin Hiloliy Chig'atoiy, taxm. XV asrning 70-yillari–1529) singari daho so'z san'atkorlari nomini alohida tilga olib o'tish joizdir. Ularning yuksak badiiy tafakkur ila yaratilgan umrboqiy asarlari, mana, necha asrlardirki, tarix va davrlar sinovidan o'tib, qanchalab avlodlar ongi, shuurini yolqinlantirib kelmoqda.

### **10-MAVZU: Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari**

#### *Reja:*

1. Turkistonning uch xonlikka bo'linishi.
2. Xonliklar davrida iqtisodiy munosabatlar.
3. Xonliklarda madaniyat.
4. XIX asrning birinchi yarmida xonliklarning geosiyosiy o'rni, davlat boshqaruvi tizim va ijtimoiy-siyosiy hayot.
5. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketish oqibatlari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** Dashti Qipchoq, Shayboniyxonlar, Buxoro xonligi, Ashtarxoniylar, Buxoro amirligi, mangʻitlar. Xiva xonligi, Qoʻngʻirotlar. Qoʻqon xonligi, minglar. Davlat boshqaruvi, davlat lavozimlari. Moddiy madaniyat. Oʻzaro va ichki kurash.

**Adabiyotlar roʻyxati:**

1. *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. *Каримов И.А.* Хива ва Бухоро шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимлардаги табрик сўзи // «Халқ сўзи», 1997 йил 21 октябрь.
3. *Абулғози.* Шажараи турк. – Т.: Чўлпон, 1990.
4. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 235–304.
5. *Ахмедов Б.А.* Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965.
6. *Бобобеков Ҳ.Н.* Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996.
7. *Бобоев Ҳ., Хидиров З.* ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: «Fan va texnologiya» нашриёти, 2009.
8. Бухоро хонлиги // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2001. – Б. 302–306.
9. *Зиёев Ҳ.* Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 11–37.
10. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века) / Отв.ред. Д.А. Алимова. – Т.: Фан, 2012.
11. *Йўлдошев М.И.* Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Т.: Фан, 1959.
12. *Мир Муҳаммад Амир Бухорий.* Убайдуллонома. – Т.: Фан, 1957.
13. *Муҳаммад Солиҳ.* Шайбонийнома. – Т.: 1989.
14. *Очилов Э.* Бобур (рисола). – Т.: 2011.
15. *Ражабов Қ., Очилов Э.* Убайдуллахон (рисола). – Т.: 2011.
16. *Сагдуллаев А.* ва бошқа. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I қисм. – Т.: Академия, 2000. – Б.146–254.
17. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I-қисм. Ўқув қўлланма. – Т.: 2002. – Б. 194–223.
18. Хива хонлиги // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2005. – Б. 417–419.
19. *Шамсутдинов Р.* ва бошқа. Ватан тарихи (XVI – XX аср бошлари): К.2. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 9–142.
20. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 303–405; 415–422.

21. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар) / Маъсул мухаррирлар: Д.А. Алимова, Э.В. Ртвеладзе. – Т.: Шарқ, 2001.
22. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркiston Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 25–53.
23. Ўзбекистон ислом обидалари. – Т.: 2002.
24. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. – Даврий тўплам № 2. – Т.: Шарқ, 1999.
25. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 299–334.
26. Кўкон хонлиги // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2005. – Б. 209–212.
27. *Ҳофиз Таниш Бухорий*. Абдулланом. I–II жилд. – Т.: Шарқ, 1999, 2000.
28. *Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – Б. 186–217.
29. *Shamsutdinov R.* va boshq. Vatan tarixi. (XVI–XX asr boshlari); K.2 / Mas'ul muharrirlar: O', Mavlonov, Q. Usmonov. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 11–148.

**1. Turkistonning uch xonlikka bo'linishi. Buxoro xonligi.** Amir Temur vafotidan so'ng uning yirik davlati parchalana boshladi. Temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli saltanatning bo'linishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. XV asrning 90-yillaridayoq Movarounnahrning markaziy viloyatlariga o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli temuriylar davlati tobora zaiflashib borayotgan edi. Bu davrda Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Shunday bir shart-sharoitda Muhammad Shayboniyxon butun Turkistonda markazlashgan qudratli hokimiyat o'rnatish g'oyasi bilan tarix sahnasiga chiqdi. Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog' sultonning o'g'li edi. Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo'ygan. U Abulxayrxon vafotidan so'ng Dashti Qipchoqning asosiy hududida o'z hukmronligini o'rnatish maqsadida harbiy yurishlarini olib borib, nihoyat, 1487–1488-yillarda O'tror, Sayram, Yassa (Turkiston) Sig'noq shaharlarini bosib oldi. Shayboniyxon juda katta hududni qo'lga kiritib, Xorazmga ham tahdid sola boshladi.

Samarqand hokimi Ahmad Mirzo mo'g'ullarning tinimsiz qilib turgan hujumidan tinkasi qurib Shayboniyxonga yordam so'rab murojaat qiladi. Shu bahona bilan Shayboniyxon Movarounnahrda kirish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ayniqsa, 1494-yilda Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so'ng temuriy shahzodalarning o'zaro nizolari yanada kuchayib, mamlakatda boshboshdoqlik, ko'p

hokimiyatchilik yuzaga keldi. Bundan foydalanishga intilgan Shayboniyxon 1497-yilda Movarounnahrda o'zining dastlabki hujumini uyushtirdi. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib katta o'lja bilan qaytib ketdi.

XV asrning oxirlarida Samarqand taxti uchun da'vogarlar o'rtasidagi nizolar keskin tus ola boshladi. Taxtni ishg'ol etish borasida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) ham harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1496-yilda Samarqand shahrini qamal qiladi, lekin qish yaqinlashib qolgani uchun qamalni to'xtatadi. 1497-yil mayda Boysung'urning akasi Sulton Mas'ud (1475–1506) bilan ittifoqqa kirgan Bobur Samarqandni ikkinchi bor qamal qiladi (Samarqandni ikkinchi bor qamal qilganida Bobur va Shayboniyxon birinchi marta yuzma-yuz bo'ldi). Boysung'ur yordam so'rab Turkistonga (Yassiga) odam yuborib, Muhammad Shayboniyxonni chaqiradi. Paytdan foydalangan Muhammad Shayboniyxon tezlikda lashkar tortib kelgan, ammo so'nggi pallada Boysung'ur aynib uni qabul qilmaydi, ya'ni Boysung'ur Shayboniyxonga Samarqand darvozasini ochmagani sababli, u Bobur bilan jang qilmasdan maydonni tashlab ketadi.

Boysung'ur ham Samarqandni tark etgach, Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur boshchiligidagi Andijon qo'shinlari 1497-yil noyabrda temuriylar poytaxti Samarqand shahrini egallaydi. Biroq bungacha shahar 7 oylik qamal natijasida huvullab qolgan edi. Atrofdagi qishloqlarning dehqonlari ahvoli yomon holatda bo'lib, Samarqandga oziq-ovqat yetkazib berish imkoniyatidan mahrum bo'lgan edilar. Shuningdek, Boburning Farg'onada uning ukalari sabab nizo kelib chiqadi. Natijada 1498-yil ilk bahorida Bobur boshchiligidagi Farg'ona amirlari temuriylarning rasmiy poytaxti Samarqandni tark etishga majbur bo'ldilar. Bobur 1500-yilgacha Farg'onada tinchlik o'rnatish bilan ovora bo'ldi. Butun Movarounnahr yerlarini birlashtirish maqsadi bilan yonayotgan Bobur, hatto tinchlik uchun Farg'onani ham ikki qismga bo'lib, ukasi Jahongirga Sirdaryoning shimoliy qismini berishga majbur bo'ldi. O'n besh yashar Zahiriddin Samarqandda jami 100 kungina hukmronlik qildi. Bu uning Movarounnahr poytaxtiga birinchi bor qadam qo'yishi edi. Ana shu voqea yosh Bobur xotirasida katta iz qoldiradi. U o'z xotiralarida qudratli bobokaloni Temur davlatining sobiq poytaxti bo'lgan shaharni zo'r mehr bilan tavsiflaydi.

XVI asr boshlaridan Muhammad Shohbaxt Shayboniy Movarounnahr va Xurosonni birlashtirib markazlashgan davlat tuzish maqsadida asosiy harbiy harakatlarni boshlaydi. Xususan, Shayboniyxon qo'shinlari 1499-yildan Movarounnahrni



istilo qilishga kirishdi. U Qarshi va Shahrisabzga yurish qilib, katta o'ljalar bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko'p o'tmay, katta kuch bilan Movarounnahr-ga qaytgan va 1499-yilda Shayboniyxon Buxoro va Qorako'lni egallaydi. Shayboniyxon Buxoroga o'z dorug'asi (hokim)ni tayin etib, uni o'zining bosh qarorgo-higa aylantiradi. Shayboniyxon Samarqand ustiga yurish qilib shaharni to'qqiz oy qamalda tutadi. Bu vaqtda Samarqandda Abu Saidning nabirasi Sulton Ali Mirzo hukmdorlik qilardi. Og'ir iqtisodiy tanglik va taxt uchun kurashlardan bezor bo'lgan mehnatkash omma shaharni faol mudofaa qilmadi. Natijada 1500-yilda Samarqand Shayboniyxonga jangsiz taslim bo'ladi. Biroq shahar zodagonlarining ma'lum qismi Temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg'ona hukmdori Zahiriddin Muhammad Boburga maktub yo'llab Samarqandni ishg'ol qilishga da'vat etadilar. Bobur qo'shinlari bilan Samarqandga yetib kelgach, unga peshvoz chiqilib, sha-har darvozalari ochib beriladi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldir-gan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G'uzor shaharlarida Bobur hokimligi e'tirof etiladi. Ammo, shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch bilan yana Samar-qandga yurish boshlaydi. 1501-yil aprelda Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Bobur qo'shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamalga olinib, u to'rt oy davom etadi.

Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi. Noilajlikdan Bobur 1501-yilning II yarmida Samarqandni tark etib, Toshkentga tog'asi Mah-mudxon huzuriga yo'l oladi. Shayboniyxon Samarqandni ikkinchi marotaba jangsiz egallaydi.

1503-yilda Shayboniyxon Sirdaryo tomon yurish qilib, Toshkent xoni Mah-mudxon, Bobur va Sulton Ahmadxonning birlashgan kuchlarini tor-mor keltiradi. Toshkent va Shohruxiya shaharlari zabt etiladi. 1504-yilda Farg'ona ishg'ol qilinadi. Shayboniyxon Samarqandni o'z davlatining poytaxti qilib, Buxoroga inisi Mahmud Sultonni hokim etib tayinlaydi. Toshkent xonligi va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarni amakilari Kuchkunchixon bilan Suyunchxo'jaxonga topshiradi.

Movarounnahrda siyosiy mavqeyini mustahkamlab olgach, Shayboniyxon 1504-yilda avval Hisor hukmdori Xusravshohni yengib Qunduzni bo'ysundiradi. So'ngra Xorazmga yurish qiladi, 10 oy davom etgan qamaldan so'ng 1505-yilning avgust oyida Urganch taslim bo'ladi. Natijada butun Xorazm yerlari Shayboniyxon tasarrufiga o'tadi.



Movarounnahr va Xorazm hududlari qo'lga kiritilgandan keyin Shayboniyxon Xurosonni zabt yetishga jiddiy kirishdi. Sulton Husayn Boyqaroning vafotidan so'ng Xuroson taxti uchun o'g'illarining o'zaro kurash boshlashi unga juda qo'l keldi. Xirot taxtiga birdaniga ikki shahzoda Muzaffar va Badiuzzamon o'tkazildi. Temuriy shahzodalarning kelishib harakat qila olmaganligi va harbiy jihatdan uquvsizligidan foydalangan Shayboniyxon 1506-yilda Balxni egalladi. 1507-yilda Hirot shahri ham qo'lga olingandan keyin butun Xuroson Shayboniylar davlatiga qo'shib olindi. Shu yilda Muhammad Shayboniyxon nomidan xutba o'qiladi. 1508-yili Muhammad Shayboniyxon Xurosonning Jom, Marv, Mashhad, Qandahor, Astrobod kabi muhim markazlarida o'z hukmdorligini o'rnatishga erishadi. Shayboniyxon hayotining so'nggi davriga kelib uning qo'l ostidagi davlat tarkibiga shimolda Sirdaryo bo'yidagi shaharlarni, Xorazmni, Farg'ona vodiysini, Marv bilan birga Janubiy Turkmanistonni, hamda Mashhad, Astrobod bilan birga Domg'on viloyatini qamrab olgan ulkan hudud kirar edi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasiga asos solinadi. Muhammad Shayboniyxon «Imom uz-zamon, xalifat ur-rahmon» unvonini olib o'z qo'lida dunyoviy va diniy hokimiyatni birlashtirdi.

Movarounnahr va Xurosonda qozonilgan g'alabadan so'ng u shimolda kuchayib borayotgan Qozoq xonligi bilan to'qnashadi. Shayboniyxonning Xurosondaligidan foydalangan qozoq sultonlari Movarounnahrda bir necha marta bostirib kirib, uni talon-toroj qiladilar. 1506–1509-yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib, qozoq sultonlariga zarba beradi va Dashti Qipchoq ichkarisigacha quvib boradi. Bu yurishlar natijasida Turkistonning Sig'noq, Yassi, Sabron shaharlari qayta qo'lga kiritiladi.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Turkiston (Turon) zaminida bunday o'zgarishlar yuz bergan bir davrda, Eronda ham katta siyosiy o'zgarishlar yuz beradi. Chunonchi, g'arbiy Eronda hokimiyatga yangi siyosiy kuch – Ismoil Safaviy (1502–1524) boshchiligida safaviylar keladilar. Ismoil Safaviy Eron hukmdori Ismoil Ardabil shahridagi sufiylar xonadonidan edi.

Safaviylar va shayboniylar o'rtasidagi jangga qadar Shayboniyxon Eronni bosib olish uchun zimdan tayyorgarlik ko'rgan. Jumladan, 1509-yilning aprel oyida u Qarshida o'z qo'shinlarini to'playdi va ularga bosh bo'lib Amudaryo kechuvi – Burdaliq tomonga (hozirgi Chorjo'y yaqinida) qarab yo'lga tushadi. Lekin, Fazlulloh ibn Ruzbexonning bergan ma'lumotiga qaraganda, yo'lda o'zbek sultonlarini o'z uluslariga qaytarib yuboradi. Muhammad Temur sulton Samarqandga, Hamza

sulton Hisori Shodmonga, Ubaydullo sulton Buxoroga o'z qo'shinlari bilan qaytib ketadilar. Lekin Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi. Mashhad va Tus shaharlarini egallab, ulardagi muqaddas joylarni ziyorat etib, ba'zi me'moriy inshootlarni ta'mirlashga buyruq beradi. 1510-yilda Erondan orqaga qaytgan Shayboniyxon orqadan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan Marv yaqinida, Movarounnahrda yordam kelishini kutmasdan jangga kirishga majbur bo'ladi va son jihatdan ustunlikka ega bo'lgan «Qizilboshlilar» qo'shinidan mag'lubiyatga uchraydi. Muhammad Shayboniyxonning o'zi ham bu jangda halok bo'ladi. Shoh Ismoil buyrug'iga ko'ra Muhammad Shayboniyxonning kallasi olinib po'sti shilinadi, po'sti ichi somon bilan to'ldirilib safaviylarning g'arbdagi dushmanlari bo'lmish usmoniy hukmdori Sulton Boyazid II (1481–1512) huzuriga jo'natiladi. Bu bilan Ismoil usmoniy hukmdorga o'z qudratini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgani aniq. Shayboniyxonning bosh chanog'i oltin bilan qoplanib, undan bazmi jamshidlarda Ismoil may quyib qadah sifatida foydalanganligi ham ma'lum.

Jang tugaganidan so'ng uning jasadi askarlar jasadlari orasidan topilgan. Shayboniyxonning vahshiylarcha tanib bo'lmas holga keltirilgan boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufa degan yerga dafn etildi. Hozirda boshqa shayboniy ham dafn etilgan Sufa Registon maydonida bo'lib, Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakda joylashgan.

Muhammad Shayboniyxon o'limidan so'ng taxtga Ko'chkunchixon (1510–1530), ya'ni marhumning amakisi chiqadi. Bu xon ona tomondan temuriylardan bo'lib, mashhur olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya begimning va ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonning o'g'li edi. Garchi u rasman 20 yil mamlakatni boshqargan bo'lsa-da, ammo sulola ichida mavjud ba'zi bir qarama-qarshiliklar sabab shayboniy Muhammad Shayboniyxon zamonidek qat'iy ichki va tashqi siyosat yurgiza olmaganlar. Jumladan, Shayboniyxon tiriklik vaqtidayoq Movarounnahr va Xurosonni o'zbek sultonlariga suyurg'ol sifatida taqsimlab bergan edi. Viloyatlarni taqsimlashda Shayboniy urug'lari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, ziddiyatlar o'zbeklar davlatini zaiflashtirdi va shayboniy keyingi janglarda birin-ketin mag'lubiyatga uchradilar. 1511–1512-yillarda shayboniyrolararo ichki ziddiyatlardan foydalangan holda, hamda safaviylar ko'magiga suyanib, Bobur Samarqand taxti uchun kurashni davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Xuroson to'lig'i bilan, shu jumladan, hozirgi Turkmaniston, Xorazm, Shimoliy Afg'oniston Eron shohi Ismoil hukmronligiga o'tdi. Qobul hukmdori

Zahiriddin Muhammad Bobur shoh Ismoilning yordami bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511-yilning bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktabrning boshida esa Samarqandni yana qo'lga kiritadi.

Bobur Samarqandni egallagach, Shoh Ismoilni oliy hokim deb e'lon qildi. Shia imomlari nomi bilan tangalar zarb qila boshladi, Movarounnahrni Eron manfaatlariga buysundirdi. Uning buyrug'i bilan har juma kuni Ismoil Shoh nomiga xutba o'qitiladigan bo'ldi. Boburning bu harakati, ayniqsa, Ismoil Safaviy yetakchiligini tan olishi mahalliy xalqning (suniylarning) noroziligini qo'zg'adi. Bunday qulay fursatdan Shayboniyxonning jiyani Ubaydulla Sulton (1486–1540) foydalanishga kirishdi va 1512-yil 28-aprelda Jondor tumani yaqinidagi Malik ko'li yonida jangda Bobur lashkari Ubaydulla Sulton qo'shinidan yengiladi. Bobur Hisorga chekinadi. Ubaydullaxon Buxoro va Samarqandni egallaydi. Bu voqeadan so'ng Boburning iltimosiga binoan shoh Ismoil sakson mingli qizilboshlilar qo'shinini yordamga yuboradi. 1512-yil 16-iyunida Eron askarlari Amudaryodan o'tib Bobur qo'shiniga kelib qo'shiladilar. Bobur Movarounnahrni Shayboniylardan qaytarib olishga oxirgi marta urinib ko'radi. Dastlab Qarshi shahri qo'lga kiritiladi.

Boburning ittifoqchi qo'shinlari Buxoro tomon yurib Karmanani qamalga olgan vaqtda, shayboniy sultonlardan Ubaydullaxon G'ijduvon yaqinida qizilboshlilarga to'satdan (1512-yil 24 noyabrda) hujum qilib ularni tor-mor qiladilar. G'ijduvon jangidagi mag'lubiyatdan so'ng Ismoil Safaviyning Bobur bilan ittifoqi buzildi. Bobur yana Qobulga ketishga majbur bo'ldi. Bobur Mirzo 1513-yilda Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e'tiborini Hindistonga qaratadi.

1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5–6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlaydi. Shudan so'ng hozirgi Bangladesh, Pokiston, Hindistonning shimoli va Afg'oniston hududida Buyuk Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu sulola XIX asr o'rtalarigacha (300-yildan ortiq) hukmronlik qildi.

Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmadi, o'zaro ichki kurashlar davom etdi. 1530-yilda Ko'chkunchixonning o'limidan so'ng Movarounnahr taxtiga uning o'g'li Abu Saidxon o'tqazildi. U 1533-

yilgacha hukmronlik qildi. Abu Said hukmronligidan so'ng turkiy an'anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug'i (1512-yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan) Ubaydullo Sultonni 1533-yilda Buxoroda shayboniylar sulolasining xoni qilib ko'tarildi. Ubaydullaxon Samarqanddagi Ko'chkunchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqaradi.

Buxoro xonligini tashkil topishida Ubaydullaxon (1486–1540) muhimdir. Xususan, Ubaydullaxon 1533-yil taxtga chiqib, Shayboniylar davlati poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chiradi. Bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo'lib kirdi.

Ubaydullaxon vafot etgach (1540), xonlik qisqa muddat 3 qismga bo'linib, Buxoroda Abdulazizxon (1540–1550), 1557-yildan Abdulla Sulton (Abdullaxon II; Iskandarxonning o'g'li); Samarqandda Abdullaxon I, Abdullatifxon, Baroqxon; Balxda Pirmuhammadxon hukmronlik qilishgan. Ammo 1551–1556-yillarda shayboniylar o'rtasidagi Movarounnahr uchun kurashda Iskandarxonning o'g'li Abdullaxon II (1534–1598) g'olib chiqib, Buxoro xonligida o'z hokimiyatini o'rnatgan. 1557-yil mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi. U tarqoqlikka barham berish, xonlik hududini birlashtirish va uni yanada kengaytirish maqsadida harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Xususan, Balx (1573), Samarqand (1578), Toshkent (1582), Farg'ona (1583), Badaxshon (1584), Ko'lob (1585), Xuroson (1588), Xorazm (1595–1596) ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi va shu asosda markaziy davlat boshqaruv devonini mustahkamladi. 1557–1561-yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561–1583-yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda hukmdor Abdullaxon II edi. U 1583–1598-yillarda rasman oliy hukmdor – xon sifatida Buxoro xonligini boshqardi. Shunday qilib XVI asr oxiriga kelib Buxoro xonligi markazlashgan ulkan davlatga aylangan. Sharqda Qashqar bilan chegaradosh bo'lgan, g'arbiy chekkasi Orol va Kaspiy dengizi sohillarigacha borib tutashgan. Xonlikning shimoldagi chegaralari Turkiston va Sayramgacha yetib, janubda Xurosonning sharqiy qismini o'z ichiga olgan.

Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish borasida ko'plab tadbirlarni amalga oshirdi. Biroq ichki nizo, adovatni bartaraf etolmadi. G'animlar Abdullaxonga qarshi uning o'g'li Abdulmo'minni qayraydi, 1589-yildan ota-bola munosabatlari keskin yomonlashadi. Abdullaxon II bilan uning o'g'li Abdulmo'min o'rtasida taxt masalasida kelishmovchilikdan foydalangan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati yerlariga bostirib kiradi. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganda vafot etadi. Abdullaxon II o'rniga taxtga

ko'tarilgan Abdulmo'min 6 oycha hukmdor bo'ldi, u otasining amirlaridan biri Abdulvose' tomonidan otib o'ldirildi. 1598-yilda taxtga so'nggi Shayboniy Pirmuhammad II chiqdi. Biroq uning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Pirmuhammadxon II o'ziga qarshi chiqqan Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan 1601-yil iyunda Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamolda bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragach, taxtni topshirishga majbur bo'ldi. Shu bilan qariyb 100 yil hukm surgan shayboniylar sulolasi barham topib, 1601-yildan Buxoro xonligini yangi turkiy sulola – Jo'jixon naslidan bo'lgan *ashtarxonlar (joniylar) sulolasi* hukmronligi boshlangan.

<i>Shayboniylar sulolasi (1500-1601)</i>		
<i>№</i>	<i>Sulola vakillari</i>	<i>Hukmronlik davri</i>
1	Muhammad Shayboniyxon (1451–1510)	1500–1510
2	Ko'chkunchixon, Ko'chim (1530-y. vafot etgan)	1510–1530
3	Abu Saidxon (1533-y. vafot etgan)	1531–1533
4	Ubaydullaxon (1486–1540)	1533–1540
5	Abdullaxon I	1540-yil mart – sent.
6	Abdulazizxon (1509–1550)	1540–1550, Buxoroda
7	Abdullatifxon (1551-y. vafot etgan)	1540–1551, Samarqandda
8	Baroqxon (1556-y. vafot etgan) haqiqiy ismi Navro'z Ahmadxon	1551–1556
9	Pirmuhammadxon I (1567-y. vafot etgan)	1557–1561
10	Iskandarxon (1583-y. vafot etgan)	1561–1583
11	Abdullaxon II (1534–1598)	1583–1598
12	Abdulmo'minxon (1599-y. vafot etgan)	1598 (6 oy)
13	Pirmuhammadxon II	1598–1601

*Davlat tizimi.* Shayboniylar davrida hokimiyat tepasida **xon** turardi. U oliy hokimiyatni cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i sifatida boshqargan. Xon taxtga taklif qilingan vaqtda u oq kigizga o'tirg'izilib, to'rt tomonidan eng mo'tabar va nufuzli to'rtta zodagon ko'tarib borardi. An'anaga ko'ra katta hayotiy tajribasiga ega va obro'li amirlar **otaliq** unvonini olib ular voyaga yetmagan shahzodalarni tarbiyalashardi. Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvda Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib-qoidalar, xususiyatlar bilan





Shayboniyar davlati va Xorazm XVI asrda

birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun-qoidalariga amal qilingan. Davlatni boshqarishda xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lidagi mahalliy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Ular yordamida, bevosita ishtirokida xon ma'muriy boshqaruvni amalga oshirardi.

Shayboniyar hukmronligi yillarida eng oliy davlat idorasi dargoh hisoblangan. Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan **dargoh** – saroy devonida jamlangan edi. Uning tepasida oliy hukmdor – xon turgan. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama (hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan Vazirlar Mahkamasiga o'xshash tizim) mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi. **Ko'kaldosh, otaliq, naqib, vaziri a'zam, vazir, devonbegi** va boshqa oliy darajali saroy amaldorlari, **no'yon, tug'begi, kutvol, dorug'a, qurchi-boshi** va boshqa harbiy amaldorlarning fikri va manfaatlari ham qarorlar qabul qilinishida katta ahamiyatga ega edi.



Shayboniylar davlatida oliy hukmronlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug' namoyandaga o'tishi an'ana tusiga kirgan edi. Keyinchalik bu tartib sulola ichidan oilaviy taxt vorisligiga o'tgan. Bunday holat Abdullaxon II hukmronligi davrida ko'zga tashlanadi. Masalan, hokimiyat Iskandarxondan o'g'li Abdullaxonga, Abdullaxondan esa o'g'li Abdulmo'minga o'tgan. Taxt vorisi **navvob, qug'ulxoniy, kichik xon** deb atalganligi ham ma'lum. Biroq shayboniylar sulolasidagi davomiylilik so'nggi paytga qadar yuqoridagicha muhim shakllana olmagan. Abdullaxon II davrida Balx viloyati hokimligini valiahdga topshirish an'anasi shakllanib borgan bo'lsa-da, ammo shayboniylar hukmronligiga chek qo'yilishi munosabati bilan bu an'ana rivojlanmagan. Aksincha, bunday an'ana Ashtarxoniylar davrida shakllangan edi.

1601-yilda ashtarxoniylardan Boqi Muhammad Buxoro hokimiyatini qo'lga oldi. Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Ashtarxon, Hoji Tarxon) va uning atrofidagi yerlar, xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556-yil Astraxanni Rossiya bosib olgandan keyin, Ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oilasi bilan Buxoroga ko'chib kelgan. Buxoro xoni Iskandarxon (1563–1583) qizi Zuhroxonimni uning o'g'li Jonibek sultonga bergan. Jonibek sulton Zuhroxonimdan uch o'g'il (Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'rgan. Din Muhammad Abdullaxon II zamoni (1583–1598)da Niso va Abivard hokimi bo'ldi. Abdulmo'minxon o'ldirilgandan keyin (1599) amir va ruhoniylar Jonibek sultonni xon taxtiga ko'tarmoqchi bo'ldilar. Lekin, Jonibek sulton Buxoro xoni deb e'lon qilingach, o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Seyiston hukmdori bo'lgan Din Muhammad Hirot yaqinida safaviylar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi va taxtga Boqi Muhammad (1601–1605) o'tqazilib, ukasi Vali Muhammad (1605–1611) voris deb e'lon qilinadi. Shundan boshlab Buxoro xonligi ashtarxoniylar qo'lga o'tdi.

Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo'lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyat amaldorlari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, nizolar mamlakat tinkasini quritib borardi. Ashtarxoniylardan bo'lgan Abulfayzxon (1695–1747) davridan boshlab bu sulolaning nufuzi pasaya boshlagan.

Abulfayzxon (1711–1747) nomigagina xon qilib o'tqazilgan. Hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo'lga o'tib qoladi. Ayniqsa, Abdullabiy, Ibrohimbiy, Muhammad Hakimbiylar davlat boshqaruvida katta ta'sirga ega bo'lganlar.

<i>Ashtarxoniylar sulolasiga mansub Buxoro xonlari (1601–1757)</i>		
<i>№</i>	<i>Sulola vakillari</i>	<i>Hukmronlik davri</i>
1	Boqi Muhammadxon (?–1605)	1601–1605
2	Vali Muhammadxon (?–1611)	1605–1611 (taxtdan haydalgan)
3	Imomqulixon ibn Dinmuhammadxon (1589–1650)	1611–1642
4	Nadr Muhammadxon (1592 – taxm. 1651)	1642–1645 (taxtdan voz kechgan)
5	Abdulazizxon (1614–1681)	1645–1681
6	Subhonqulixon (1625–1702)	1681–1702
7	Ubaydullaxon II, Ubaydullo Muhammad Bahodirxon (1681–1711)	1702–1711 (Saroy fitnasi natijasida Buxoroning Piri Mirza chorbog'ida o'ldirilgan)
8	Abulfayzxon (1695–1747) (nomigagina xon bo'lgan)	1711–1747 (Mang'itlardan bo'lgan Muhammad Rahim otaliq boshliq fitnachilar tomonidan o'ldirilgan)
9	Abdulmo'minxon (Buxoro xonligining qo'g'irchoq xoni)	1747–1751 (o'ldirilgan)
10	Ubaydulloxon III (Buxoro xonligining qo'g'irchoq xoni)	1751–1754 (o'ldirilgan)
11	Sherg'ozii (Buxoro xonligining qo'g'irchoq xoni)	1754–1756

Abulfayzxon davrida siyosiy tarqoqlik g'oyatda kuchayib, har bir viloyat amalda mustaqil boshqaruvga ega bo'lgan hokimiyatga aylanib qolgan edi. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, 1711-yilda Balx, 1723-yilda Samarqand viloyati Buxoro xonligidan ajralib chiqadi. 1720-yillarda Toshkent viloyatini qalmoqlar bosib oladi. Buxoro xonligida iqtisodiy va siyosiy tanglik kuchaya borib xonlik tanazzulga yuz tutgan. Bu porakandalik markaziy hokimiyatda yuqori mavqega ega bo'lishga intilgan biylar o'rtasidagi kurash sababli ro'y bergan edi. Bu kurashda Shahrizabz hokimi kenagas Ibrohimbiy bilan barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan Muhammad Hakimbiylar katta rol o'ynadilar.

Buxoro xonligidagi porakandalik, o'zaro urushlar 1736-yilda Eronda hokimiyatni egallab, mustahkamlanib olgan Nodirshoh Afshar (1736–1747) e'tiboridan chetda qolmadi va u Buxoro va Xiva xonlarini o'ziga bo'ysundirish harakatini boshladi. Eron hukmdori 1740-yil bahorida Balxni egalladi va o'sha yili kuzda katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib Buxoroga qo'shin tortgan. Bu paytda Nodirshohni Muhammad Hakimbiy (?–1743) va o'g'li Muhammad Rahim (1709–1758) qo'llab-quvvatlaydi. Abulfayzxon og'ir shartlarga ko'nib, sulh tuzishga majbur bo'ldi va Nodirshoh hokimiyatini tan oldi. Taxtda oliy hukmdor xon bo'lsa-da, biroq u Nodirshoh ishonchli vakili sifatida mang'itlardan bo'lgan biylar qo'lidagi qo'g'irchoq edi. Mamlakat boshqaruvi 1743-yilgacha Muhammad Hakimbiy, uning vafotidan keyin Muhammad Rahimbiy qo'lida bo'ldi. Xonlik Nodirshohning o'limidan keyin (1747) Eronga tobelidan qutulib, o'z mustaqilligini tikladi. Biroq, 1747-yilda otasi o'rniga otaliq tayinlangan Muhammad Rahim boshliq fitnachilar Abulfayzxonni o'ldirdilar.

**Buxoro amirligi.** Ma'lumki, 1747–1756-yillarda taxtga Abulfayzxon vorislari qo'g'irchoq xonlar sifatida taxtga o'tqazilgan. Davlat hokimiyati amalda Muhammad Rahim asos solgan mang'itlar sulolasi qo'lga o'tdi. Mamlakat yana ichki nizolar girdobiga tortilgan, viloyat hokimlari isyon ko'targanlar. Muhammad Rahim ularni shafqatsiz suratda bostirgan. Muhammad Rahim 1753-yilda o'z nomiga xutba o'qitirdi va xonlar avlodiga mansub bo'lmagani uchun o'zini «**amir**» deb e'lon qildi. Shu asosda 1753-yildan keyin Buxoro xonligining nomi Buxoro amirligi deb nomlana boshlandi. 1756-yil 16-dekabrda esa Muhammad Rahim arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan rasmiy ravishda Buxoro taxtini egallagan.

Shunday qilib, Ashtarxoniylar sulolasi barham topib mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlangan. Mang'itlar sulolasining 1920-yilgacha hukmronlik qilgan davri tarixda shuning uchun ham Buxoro amirligi deb ataldi.

Muhammad Rahim vaqtida (1753–1758) Buxoro amirligiga qarashli yerlar ancha qisqargan. Uning tarkibiga Buxoro, Samarqand, Miyonqol, Karmana, Qarshi, G'uzor, Karki, Chorjo'y, Shahrisabz viloyatlari kirib, Toshkent va Farg'ona viloyatlari xonlik tasarrufidan chiqib ketgan. Doniyolbiy otaliq vaqtida (1758–1785) ham o'zaro urushlar davom etib, Karmana, O'ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun va boshqa joylarda mahalliy kuchlar bosh ko'tarib, poytaxt izmidan chiqishga harakat qilganlar. Doniyolbiyning katta o'g'li Shohmurod hukmronligi davri (1785–1800) da Doniyolbiy joriy etgan soliqlardan bir qanchasi bekor qilindi, iqtisodiy hayot birmuncha yaxshilandi. Ruhoniylarning mavqeyi oshdi. Mang'itlar sulolasi

markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qanchalik urinmasin, viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishi davom etaverdi. Ayniqsa Buxoroga muxolif bo'lgan Shahrisabz va Kitob beklari bilan kurash shiddatli bo'ldi. Faqat 1853-yildagina bu beklarlarni Buxoroga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lindi. Amir Haydar davri (1800–1826) ham ichki va tashqi urushlardan xoli bo'lmadi. Ayniqsa O'ratepa bir necha marta qo'ldan qo'lga o'tib turdi. XIX asrning I-choragida Buxoro bilan Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasida O'rta Osiyoda ustunlikka erishish uchun qirg'in-barot va talon-taroj urushlari bo'ldi. Toshkent, Turkiston, Chimkent va ularning atrofi Qo'qon xonligi tasarrufiga o'tdi. 1825-yilda Xiva xonligi Buxoroga qarashli Marvni egalladi. To'xtovsiz urushlar, soliqlar miqdorining ortishi qo'zg'olonlarga, jumladan 1821–1825-yillarda Buxoro va Samarqand oralig'ida istiqomat qiluvchi xitoy – qipchoq qabilalari qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Amir Haydarning vorisi Nasrullaxon (1827–1860) amirlik yerlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U taxtga da'vogar bo'lish mumkin bo'lgan barcha shaxslarni qirib tashladi. Nasrullaxon 1839, 1841 va 1858-yillarda Qo'qon xonligiga bostirib kelib, aholini qirg'in qildi va boyliklarini taladi. 1842 va 1843-yillarda Buxoro bilan Xiva xonliklari o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'ldi.

*Mang'itlar sulolasiga mansub Buxoro amirlari (1756–1920)*

<b>№</b>	<b>Sulola vakillari</b>	<b>Hukmronlik davri</b>
1	Muhammad Rahim (1709–1758)	1756–1758
2	Abulg'ozixon (amalda Muhammad Doniyolbiy (?–1785 otaliq)	1758–1785
3	Shohmurod (1741/49–1800)	1785–1800 Zamondoshlari va kelajak tarixchilari Shohmurodni «Amiri ma'sum» («Begunoh amir») va «Umari soniy» («Ikkinchi Umar»), «g'oziy» unvonlari bilan tilga olishadi
4	Haydar (1778–1826)	1800–1826 Buxoro amirligi taxtiga o'tirib, «amir al-mo'minin» unvonini olgan (1800-yil 2-dekabr)
5	Mir Husayn (1797–1826)	1826

6	Mir Umar (?–1826)	1826
7	Nasrullaxon (1806–1860)	1826–1860 Taxtga o'tirgan kundan boshlab, bir oy davomida har kuni 50–100 kishini qatl qilib turdi. Shu bois amir Nasrulloqa «qassob amir» deb laqab qo'yilgan edi
8	Muzaffar (amir Said Muzaffar, 1819–1885)	 1860–1885
	Abdulahad (1859–1911)	1885–1910 Abdulahad davrida jadidchilik harakati kuchaygan
10	Olimxon (Amir Sayid Olimxon, 1881–1944)	 1910–1920

**Xiva xonligi.** 1505-yilda Temuriylar tasarrufida bo'lgan Xorazm hududi ham Shayboniyxon tomonidan bosib olindi. Shayboniyxon vafoti (1510-yil)dan keyin Xorazm Eron safaviylari qo'l ostiga o'tgan. Xorazmda Eron shohi Ismoilshoh hukmronligi uzoqqa bormadi. Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga qarshi harakat boshlangan.

Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asarida yozilishicha, Vazir shahrida yashovchi Umar Shayx degan kekxa qozisi eroniy qizil boshlilarga qarshi kurashni tashkil qilib, unga o'zi boshchilik qilgan. Xorazmliklar ikki yil deganda eroniylarni o'z yurtlaridan haydab chiqardilar. Hukmdorlarni Dashti Qipchoq vakillariga almashtirishda shayx Said ota avlodlaridan bo'lgan Said Xisomiddin harakat tashkilotchilaridan biri bo'lgan. U boshchiligida Jo'ji avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbars 1511-yili Vazir shahriga (Ustyurtda, Ko'hna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shahar XV asrda o'zbek xonlaridan Mustafaxon tomonidan barpo etilgan) taklif etildi. Elbars o'z ukasi Beybars bilan Xorazmga kelayotganini eshitgan aholi eroniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarib ularni butunlay qirib tashlashdi va 1511-yil Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbars



Xorazm hukmdori deb tan olindi. Ushbu sana tarixchi olimlar tomonidan Xiva xonligining tashkil topishi deb baho beriladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, xonlikning Xiva xonligi deb nomlanishini ba'zi bir tarixchilar qo'ng'irotlar sulolasi davri bilan bog'lashga ham harakat qiladilar. 1512-yilda Xorazm mustaqil davlatga aylandi. Aynan shu davlat zaminida Xiva xonligi shakllandi. 1920-yilgacha faoliyat ko'rsatgan Xiva xonligi taxtida asosan ikki sulola vakillari: 1511–1770-yillar orasida Arabshoh naslidan tarqagan shayboniylar sulolasi, 1770–1920-yildan esa qo'ng'irotlar sulolasi o'tirgan.

Elbarsxon davridayoq (1512–1516) Xorazm davlati zaminida bo'lajak Xiva xonligining siyosiy geografiyasi shakllandi. Zero, bu paytda u g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi havzasi, janubda Atrek daryosi va Saraxs atroflarigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgandi.

Poytaxt dastlab Vazir shahri, so'ngra – Ko'hna Urganch edi. XVI asr oxiri–XVII asr boshlarida Amudaryo o'zanining o'zgarishi munosabati bilan Ko'hna Urganchning mavqeyi pasaydi, aholisi qulayroq joyga ko'chib borib joylashadi va bu yerda Yangi Urganch (shaharga 1646-yilda Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon tomonidan asos solingan) shahri paydo bo'ldi. Bu orada Xiva shahrining mavqeyi ko'tarildi. Arab Muhammadxon (1602–1623) davrida poytaxt uzil-kesil Xivaga ko'chirildi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Dahiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirar edi. Biroq xonlikda tinchlik bo'lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o'zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o'rtasida, shuningdek, shahzodalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun urushlar bo'lib turar, bu hududlar qo'ldan qo'lga o'tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez hujum qilib falokatlar keltirardi.

XVIII asr o'rtalarida Eron shohi Nodirshoh, uning o'g'li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o'z boshqaruvini o'rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko'chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo'lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar bo'lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o'zbek qabilalaridan Qo'ng'irot urug'ining boshlig'i Muhammad Amin inoq 1770-yilda hokimiyatni qo'lga oldi. Biroq inoqlar hali rasman oliy hokimiyatga ega emas edilar. Shunday bo'lsa-da, Xiva xonligida yangi sulola – Qo'ng'irot sulolasiga asos solindi (bu sulola 1920-yilgacha hukm surdi). Bu sulolaning rasmiy birinchi xoni Eltuzar (?–1806) 1804-yilda taxtga o'tirib, rasman xon unvonini oldi.



<i>Shayboniylarning arabshohiylar sulolasiga mansub Xiva xonlari (1511–1770)</i>			
№			
1	Elbarsxon (1511–1516)	18	Xudoydodxon (1687–1688)
2	Sulton Hojixon (1516)	19	O'zbekxon – Arnakxon (1688–1690)
3	Husaynqulixon (1516)	20	Jo'ji sulton (1694–1697)
4	So'fiyonxon (1516–1522)	21	Valixon (1697–1699)
5	Bujaqaxon (1522–1526)	22	Shohniyozxon (1699–1702)
6	Avaneshxon (1526–1538)	23	Shohbaxtxon (1702–1703)
7	Alixon (1538–1547)	24	Sayid Alixon (1703–1705)
8	Aqatoyxon (1547–1556)	25	Musaxon (1705–1706)
9	Yunusxon (1556–1557)	26	Yodgorxon (1706–1713)
10	Do'stxon (1557–1558)	27	Sherg'ozixon (1714–1728)
11	Hoji Muhammad (1559–1602)	28	Elbarsxon II (1728–1739)
12	Arab Muhammadxon (1602–1623)	29	Tohirxon (1739–1740)
13	Elbars sulton va Habash sulton (1623)	30	Nuralixon (1740–1742)
14	Asfandiyorxon (1623–1643)	31	Abulg'ozixon II (1742–1746)
15	Abulg'oziy Bahodirxon (1643–1663)	32	G'oyibxon (1746–1756)
16	Anushaxon (1663–1686)	33	Qoraboyxon (1756–1757)
17	Arang Muhammadxon (1686–1687)	34	Temurg'ozixon (1757–1764) va boshqalar

*Qo'ng'irotlar sulolasiga mansub Xiva xonlari (1770–1920)*

№	Sulola vakillari	Hukmronlik davri
1	Muhammad Amin Inoq (taxm. 1730–1790)	1770–1790 1761-yili inoqlik lavozimiga ko'tarilgan
2	Avaz Muhammad Inoq (Avazbiy, 1782–1804)	1790–1804
3	Eltuzarxon, (Eltuzar Muhammad Bahodirxon, (?–1806))	1804–1806 1804-yilda rasman xon unvonini olgan

4	Muhammad Rahimxon I (1775–1825)	1806–1825
5	Oллоqulixon (taxm. 1794–1842)	1825–1842
6	Rahimqulixon	1842–1845
7	Muhammad Aminxon (1817–1855)	1846–1855
8	Abdullaxon	1855–1856
9	Qutlug' Murodxon	1856
10	Sayid Muhammadxon (1823–1864)	1856–1864
11	Feruz – Muhammad Rahimxon II (1845–1910)	 1864–1910
12	Asfandiyorxon, Isfandiyorxon (?–1918)	1910–1918
13	Sayid Abdullaxon (?–1933)	1918–1920

**Qo'qon xonligi.** Shayboniyxon hukmronligi o'rnatilgach Movarounnahrning barcha hududlari, shu jumladan Farg'ona vodiysini o'z avlodlariga taqsimlab berdi. Xususan, Axsini Jonibek sulton, Andijonni esa Mahmud sultonga berdi. XVI asrda o'rta Osiyoda ikki mustaqil feodal xonlik Buxoro va Xiva xonliklari tashkil topdi. Ammo har ikkala xonlik o'zaro urushlar olib bordi.

Bu urushlar va raqobatlar natijasida ikkala xonlik ham har jihatdan kuchsizlanib bordi. Xonliklar ichidagi separatistik kuchlar esa markazdan qochishi va mustaqillikka erishish uchun kurashni kuchaytirib yubordi. Buxoro xoni Abdullaxon (1583-yildan boshlab u o'zbeklar xoni deb e'lon qilingan) davrida Farg'ona vodiysi Buxoro xonligiga bo'ysundirilgan edi. Bu vaqtda Buxoro xonligida feodal tarqoqlik va beqarorlik avj olgandi. Ayniqsa, Ubaydulloxon II (1702–1711) hukmronligi davrida Balx viloyati markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydi. Samarqand va Hisor viloyatlarida yuz qabila, Shahrisabz va Qarshida kenagas va mang'it qabilalari, Farg'ona vodiysida ming qabilasi isyon ko'targan edi.

1709-yilda Farg'ona muzofotiga qarashli Pop tumanidagi Chodak qishlog'ida (hozirgi Namangan viloyati hududida) yashovchi xo'jalar bosh ko'tarib o'zbeklarning ming qabilasiga qabila oq soqoli Shohruxbiyni xon qilib e'lon qildilar. Rivoyatlarga ko'ra, Shohruxbiy Oltin Beshik avlodidan bo'lgan. Mulla Olimning «Tarixi Turkiston» asarida keltirilishicha, o'zbeklar Chodak xo'jalari hukmronligi asoratidan xalos bo'lishga ahd qilib Ashurbek o'g'li Shohruxbiyni Targ'ovada xon qilib saylashga qaror qildilar. Shohruxbiy o'rda va qo'rg'on uchun qulay joy tanlashga farmon beradi. Yuborilgan odamlar «Ko'k to'nliklar» yashaydigan ikki soy oralig'ida joylashgan hududni qulay joy, deb hisoblaydilar. Ular bu yerda ark quradilar va uning atrofida saroy va binolar qura boshlaydilar. Shundan keyin Shohruxbiyni taxtga o'tqazadilar. Shu tariqa Farg'ona vodiysi Buxoro xonligiga bo'ysunishdan bosh tortdi va o'zini mustaqil deb e'lon qildi. Qo'qon shahri chetida joylashgan Tepaqo'rg'on Shohruxbiyning qarorgohiga aylandi. Buxoro xonligidan ajrab chiqqan vodiya *Qo'qon xonligi* tashkil topdi.

Hozirda Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan sulola vakillari haqida turli fikrlar mavjud. Ayrim adabiyotlarda Qo'qon xonligining hukmdorlari mahalliy yuqori tabaqa vakillari, ruhoniylar va mashhur Xo'ja Ahror Valiy avlodlaridan bo'lgan deb hisoblaydilar.

Tarixchi Haydarbek Bobobekovning ta'kidlashicha barcha musulmon tarixchilari va ayrim rus mualliflari Qo'qon xonlari sulolasini Oltin Beshik bilan, u orqali Bobur bilan bog'laydilar.

Qo'qon xonlarining nasabnomalarini Oltin Beshik rivoyati bilan bog'liqligi Niyozmuhammadning «Tarixi Shohruxiya», Mirzo Olim Mushrifning «Ansabu savalotin va tavorixul havoqin», Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadidai Toshkand», Fozilbek Otabek o'g'lining «Mukammali tarixi Farg'ona», V. Nalivkinning XIX asr 80-yillari o'rtalarida Qozonda chop etilgan «Qo'qon xonligining qisqacha tarixi» («Краткая история Кокандского ханства»), Ibratning «Farg'ona tarixi», Mulla Shamsiddin Shavqiyning «Shohnoma» dostonida, Muhammad Aminbek Xudoyorxon o'g'lining «Turkiston viloyatining gazetini»ning 1894-yil sonlarida o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan «Farg'ona viloyati xonlari xususidagi voqealar» nomli asarlarida, adabiyotshunos, professor Sharif Yusupovning maqolalarida va boshqa ko'plab manbalarda o'z ifodasini topgan. Ammo ayrim mualliflar<sup>1</sup> bu ma'lumotni tasdiqlovchi asos «Boburnoma»da ham va

<sup>1</sup> История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века) / Отв. ред. Д.А. Алимова. – Т.: Фан, 2012. – С. 375.



Sayid Islombek

boshqa manbalarda ham uchramaydi va aksincha bunga nisbatan Qo'qon xonlari o'z shajarasini ulug'lash va xonlikka da'vo qilish uchun vosita sifatida foydalanganlar degan fikrni ilgari suradilar.

Amir Temur va uning o'g'li Mironshohdan boshlangan sulola, Qo'qon xoni Xudoyorxon gacha davom etib kelgan. Sh. Yusupov shunday xulosa qiladi: «Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Sayid Muhammad Xudoyorxon sohibqiron Amir Temurning yigirma uchinchi avlodi, xonning ikkinchi o'g'li Sayid Muhammad Aminbek yigirma to'rtinchi hamda Muhammad Aminbekning o'g'li Sayid Islombek sohibqironning yigirma beshinchi avlodi bo'lib chiqadi».

Temurshunos, Boburshunos fransuz olimi O'zbekistonning xalqlar do'stligi ordeni bilan taqdirlangan professor Lyus'en Keren o'zining «Shahzoda Islombek» maqolasida Qo'qon xonlari temuriy Mironshohga borib taqaladi, degan g'oyani ilgari surgan. Bu ishini o'zbek olimi Sh. Yusupov davom ettirib Islombekning hayoti, taqdiri haqida tadqiqot ishi olib bormoqda.

Minglar sulolasining dastlabki vakili bo'lgan Shohruxbiy 1721-yilda vafot etgach, uning katta o'g'li Muhammad Abdurahimbiy (Rahimbiy) taxtga o'tiradi. Qo'qon shahrini poytaxtga aylanishida Muhammad Abdurahimbiy xizmatlari kattadir. Ma'lumki, 1711-yil Eski qo'rg'on qal'asi o'rnida hozirgi Qo'qon shahriga asos solindi, istehkom va qal'a barpo etildi. 1732-yil Abdurahimbiy bu ishini nihoyasiga yetkazdi va shaharni xonlik poytaxtiga aylantirdi. Shu davrdan boshlab shahar Qo'qon deb atala boshladi. Qo'qon shahrini Rahimbiy qurganligi sababli «Qal'ayi Rahimbiy» deb yuritilgan. Niyoz Muhammad Ho'qandiyning Shohrux tarixi («Tarixi Shohruxbiy») va Isoqxon Ibratning «Farg'ona tarixi» («Tarixi Farg'ona 1916») asarlarida qayd etilishicha Rahimbiy o'zi sotib olgan tevarakatofidagi yerlari bilan to'rtta qishloq o'rnida bino qurgan. U o'z qaynotasi Ho'jand hokimi Oqbo'tabiyni o'ldirib Ho'jand (1725)ni ham qo'shib oldi. Ana shu yo'l bilan Farg'ona vodiysida markazi Ho'qand – Qo'qon bo'lgan davlat tashkil topdi va kengayib bordi. Bu hukmdor qo'shinni ancha mustahkamlashga erishib, 1726-yili O'ratepani va 1729-yili Samarqandni bosib oldi. Ammo Samarqand Buxoro xonligi tomonidan qayta egallandi. Abdurahimbiyning qarorgohi Chilmahram degan joydan yetti chaqirim naridagi Deykon To'da degan qishloqda edi. 1732-yili Abdurahimbiy

hozirgi Qo'qon shahrining o'rniga poytaxtning poydevorini qo'ydi. U Samarqandni qayta egallash bilan birga, Kattaqo'rg'onni ham egalladi, Shahrisabzni o'z ta'sir doirasiga kiritishga erishdi. Shu tarzda Farg'ona vodiysida mustaqil hokimiyat mustahkamlanib boraverdi.

Abdurahimbiy 33 yoshida vafot etgach, taxtga uning ukasi Abdukarimbiy (1733–1747/48) o'tirdi. Uning davrida Qo'qon haqiqiy markaz bo'lib qoldi. Chunki u poytaxtni eski Qo'qon yaqinidagi Tapaqo'rg'on qishlog'idan hozirgi Qo'qonga ko'chirdi. Abdukarimbiy o'z davlatini mustahkamlash va kengaytirish uchun harakat qildi. Farg'ona vodiysi Abdulkarimbiy (1734–1751) davrida yanada ilg'orlashdi. Bu vaqtda Qo'qonda yangi qarorgoh, yangi saroy, madrasa va boshqa inshootlar qurildi. Poytaxt devor bilan o'ralib, uning Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Toshkent va Haydarbek nomlarida darvozalari bor edi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 1740-yildan Qo'qon poytaxt sifatida to'la shakllanadi va rasmiylashtiriladi. Mana shu vaqtlardan boshlab, keyinchalik Qo'qon xonligi nomini olgan mustaqil davlat ancha kuch-quvvatga to'ladi va mavqeyi oshib boradi.

Abdukarimbiy vafotidan keyin xonlar tez-tez almashtiriladi. 1750–1754-yillarda Abdurahmonbiy (1750–1751), Erdonabiy (1751–1753), Bobobek (1753–1754) xonlik qilganlar. Nihoyat, 1755-yilda Erdonabiy ikkinchi marta hokimiyatga kelgach, xonlik ancha mustahkamlandi. U O'sh va O'zganni bo'ysundirib, 1758–1759-yillarda Sharqiy Turkistonga ham yurish qilgan. Bu davrda Qo'qon xonligi Buxoro va Xitoy bilan tengma-teng kurashadigan davlatga aylandi. Lekin Erdonabiy davrida olib borilgan urushlar mehnatkash xalqning aholini ancha og'irlashtirdi. Erdonabiy 1769-yilga qadar taxtni boshqargan. Undan keyin taxtga o'tirgan Sulaymonbek bor-yo'g'i 6 oy xonlik qildi.

Qo'qon xonligini 1770–1800-yillarda boshqargan Norbo'tabek markaziy hokimiyatni mustahkamlash va bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda bir muncha muvaffaqiyat qozondi. U Chust va Namangan hokimlarining o'zboshimchaliklarini tugatib, qo'zg'olon ko'targan Xo'jand shahrini bo'ysundirdi va uni xonlikka butunlay qo'shib oldi. Lekin 1799-yilda uning Toshkentni egallash uchun yuborgan qo'shini mag'lubiyatga uchradi.

Olimxon (1800–1810) davrida Qo'qon xonligining siyosiy qudrati mustahkamlandi. Harbiy islohot o'tkazib, qo'shinni ancha mustahkamlagan Olimxon Angren vohasini, Toshkent (1808), Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Natijada Qo'qon savdogarlari Rossiya bilan bevosita savdo qila boshladilar. 1805-yilda Olimbek xon unvonini qabul qildi va shu paytdan e'tiboran Farg'onada tashkil



topgan davlat rasman Qo'qon xonligi deb atala boshlandi. Bungacha ular «biy» va «bek» deb atalardilar.



Olimxon xon unvonini joriy etgan birinchi hukmdor bo'ldi. Undan boshlab taxt egalari odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ldi. Ayrim mahalliy manbalarga ko'ra, Olimxon nihoyatda qattiqqo'l va shafqatsiz kishi hisoblangan. Manbalarda «Zolimxon» – Olimxonning laqabi, deyiladi. U o'z amakisi Hojibekni qatl qilib, ko'p zulmlar qilgan ediki, buni g'azabidan va zulmidan Zolimxon ismi mashhur edi». Olimxon olib borgan siyosat butun xalqning Olimxondan noroziligiga olib keldi va bu fitnaga sabab bo'ldi. Olimxon 1810-yilda ukasi Umarxonning taxtga chiqarilganini eshitib, Qo'qonga ketayotganda Oltiqush degan joyda fitnachilar tomonidan o'g'li Shohruxxon bilan birga otib o'ldiriladi.

O'rniga taxtga o'zini amir deb atagan Umarxon (1810–1822) o'tiradi. Uning davrida Qo'qon xonligi hududlari yanada kengaytirildi. U Sirdaryoning undan irmoq olgan Yangidaryo hududlarigacha kirib borib 1813–1815-yillarda Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida Oqmasjid qal'asiga (hozirgi Qizil O'rda) asos soladi. Shuningdek Umarxon tomonidan Chimkentdan Ila daryosigacha (ya'ni sharqiy yo'nalishda) bir qator qal'alar silsilasi bunyod etilgani ma'lum. Masalan, 1814-yili Qoratog'ning shimoliy tomonida Cho'loqqo'rg'on, Oloyda Qizilqo'rg'on, 1821-yili Talas daryosi bo'yida yuqorida tilga olingan Avliyoota (hozirgi Jambul) hamda Ulug'qo'rg'on, Darovutqo'rg'on shular jumlasidandir. Umarxon 1817-yilda O'ratepani egallaydi. 1818-yili u «amir al-muslimiyn» unvonini oladi. Qo'qon xonligi hududiy jihatdan yirik davlatga aylandi.

*Minglar sulolasiga mansub Qo'qon xonlari (1709–1876)*

№	Sulola vakillari	Hukmronlik davri
1	Shohruxbiy (taxm.1680/81–1721)	1709–1721
2	Abdurahimbiy (1700–1733)	1721–1733 (o'ldirilgan)
3	Abdulkarimbiy (1710–1750)	1733–1750
4	Abduraxmon	1750–1751
5	Erdonabiy (1720–1764)	1751–1752; 1753–1762
6	Bobobek (?–1753)	1752–1753 (10 oy hukm. qil.; o'ldirilgan)



7	Sulaymonbek	1762–1763
8	Norbo'tabiy (taxm. 1749–1798)	taxm. 1763–1798
9	Olimxon (?–1810)	1801–1810 (o'ldirilgan) 1805-yilda xon unvonini qabul qilgan va shu- yildan davlat rasman Qo'qon xonligi deb atala boshlandi
10	Umarxon (Amiriy, 1787–1822)	1810–1822
11	Muhammad Alixon (taxm. 1803/06–1842) (Umarxon va Nodirabegimning o'g'li)	1822–1841 (taxtdan voz kechgan)
12	Sulton Mahmud	1841–1842
13	Sheralixon (taxm. 1797–1845)	1842–1845 (taxtdan voz kechgan va qatl etilgan)
14	Murodxon (?–1845)	1845 (7 kun xon bo'lgan va qatl etilgan)
15	Xudoyorxon (1831–1884)	 1845–1858; 1863 (may–iyun); 1865–1875
16	Mallaxon (taxm. 1830–1862)	1858–1862 (Andijon hokimi Olimbek tomonidan o'ldirilgan)
17	Shohmurodxon	1862–1863
18	Sulton Sayidxon (Sulton Murodxon, ?–1868)	1863 – 1865
19	Nasriddinbek (1850–1876)	 1875 (iyul–oktabr)

Shunday qilib, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga bo'linib ketdi. Uchta davlat – Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi.

**2. Xonliklar davrida iqtisodiy munosabatlar.** Xonliklar tarixi iqtisodiy hayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsa-da, xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash avj olgan yillarda tanazullik hollari yuz berganligidan guvohlik beradi. Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi.

Xonliklar iqtisodiyotining asosini dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etgan. Aholining katta qismi asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik sohasini rivojlantirish masalasiga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilgan. Xususan, Shayboniyar hukmronligi yillarida, ayniqsa Abdullaxon II davrida Buxoro xonligida dehqonchilik ishlarini rivojlantirishga ahamiyat berildi. Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Vaxsh, Murg'ob daryolari bo'ylarida ko'plab kanallar, anhorlar, ariqlar qazilib, atrofdagi yerlarga suv chiqarilgan, yangi ekinzorlar va bog'lar barpo etilgan. Birgina Qashqadaryo bo'ylaridagi yerlarga suv chiqaruvchi o'ndan ortiq kanallar qazilganligi va ishlab turganligi ma'lum. Abdullaxon II davrida qurilgan Zarafshon daryosidagi Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko'prik suv ayirgichlari, Sangzar daryosidagi Tuyatortar kanali, Amudaryo – Chorjo'y kanali, Toshkent viloyatidagi Zaxariq, Nurota tog'lari suvlarini to'plovchi Oqtob va Band suv omborlari yirik inshootlardan edi. Bu tadbirlar g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Xiva xonligida ham sun'iy sug'orish ishlariga katta e'tibor berilgan. Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu boisdan dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Ulardan 11 ta yirik kanallar davlat ahamiyatiga molik edi: Pitnak kanali, Polvon kanali, Kazovot kanali, Shoxabbaz kanali, Yarmish kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Karakuz kanali, Arna kanali, Bo'zsuv kanali, Suvvoli, Xon kanali. Kanallarning qurilishi yerlarni sug'orish holatini yaxshilashga ko'maklashdi. XVI –XVII asrlarda barpo etilgan, uzunligi 14 km bo'lgan Shohobod, uzunligi 96 km bo'lgan O'rmush, G'oziobod kanallari ham dehqonchilikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bulardan tashqari umum jamoa yerlarini sug'orishga mo'ljallangan o'rtacha uzunlikdagi kanallar va ariqlar hamda xususiy kishilarga

tegishli kichik kanallar va ariqlar (Sherxon, Nayman, Uyg'ur, Eltuzarxon) ham xonlikning sug'orish tizimida muhim bo'g'inlar edi.

Qo'qon xonligida ham ariq va kanallar tarmog'i kengaytirildi. Namangan hududida Yangiariq kanali, Sirdaryodan O'ratepa tomon sug'orish tarmoqlari, ko'plab ariqlar qazildi, dehqonchilik ancha rivojlandi.

Xonliklar hududida yer egaligi		
Buxoro xonligi	Xiva xonligi	Qo'qon xonligi
<b>Davlat yerlari</b>		
«Amloki podshohiy» yoki «Mulki sultoni»	Podshohlik yoki amlok yerlari	Xon yerlari yoki «Amloki sultoni»
Xon (amir) boshchiligidagi mulkdorlar guruhi ixtiyoridagi yerlar		
<b>Xususiy yerlar</b>		
«Mulki xolis» yoki «Mulki yerlari»	Mulkiy yerlar	«Mulki xiroj» va «Mulki ushriyat»
Xususiy yer mulklari hisoblanib, xon va uning yaqinlari, harbiy-ma'muriy amaldorlar, yirik din peshvolariga «iqto'», «suyurg'ol», «tanxo», «tarxon» kabi shakllarda berilgan yerlar edi		
<b>Vaqf yerlari</b>		
Diniy mahkamalarga, madrasa va masjidlarga, qabristonlarga qarashli yerlar		
<b>Qishloq jamoalari va dehqonlari egalik qiladigan yerlar</b>		

Yerda mehnat qiladiganlarning ko'pchilik qismi o'z yer maydoniga ega bo'lmay, ijaraga olingan yerda ishlovchi kambag'al qishloq aholisi edi.

**Dehqonchilik.** Bug'doy, arpa, sholi, jo'xori, makkajo'xori, mosh, no'xat, loviya, kunjut, suli, beda ekinlari yetishtirilgan. Shuningdek, qovun, tarvuz, qovoq, bodring, piyoz, qalampir, sarimsoq ekilib hosil olingan. Paxta, ipak mahsulotlari, bog'dorchilik ham rivojlanib, olma, gilos, o'rik, uzum, shaftoli, anjir, olxo'ri kabi mevalar yetishtirilgan.

**Chorvachilik.** Yaylovlarda qo'y, echki, yirik shoxli mollar (sigir, ho'kiz), ot va tuyalar boqilib, go'sht, sut, jun, teri va boshqa mahsulotlar olingan.

**Hunarmandchilik.** Xonliklarning yirik shaharlari hunarmandchilik markazlari bo'lib, ularda 60 dan ortiq turdagi hunarmandchilik buyumlari tayyorlangan. Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Shahrisabz va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, XVI asrda Samarqandda

hunarning 61 turi mavjud bo'lgan. Paxta, ipak, jun, teri kabi mahalliy xomashyolardan ip yigirish, gazlamalar to'qish, tayyor kiyimlar tikish, kigiz va gilamlar tayyorlash, ko'pchilik rivojlangan. Metall va yog'ochga ishlov berish, misgarlik, temirchilik, ganch o'ymakorligi, duradgorlik, kulolchilik, qandolatchilik, oshpazlik, novvoylik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari ancha kengaydi.

**Soliq.** Xonliklarda raiyat (dehqon, chorvador, hunarmand, savdogar)ga turli-tuman soliqlar solingan, turli majburiyatlarni – kanal va ariqlar qazish, ularni tozalash, obodonlashtirish, mudofaa inshootlarini qurish va boshqa ishlarga majbur etilgan. Xonliklarda olinadigan soliqlarning turi juda ko'p bo'lib, har bir xonlikda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan.

Soliq turlari		
Buxoro xonligi	Xiva xonligi	Qo'qon xonligi
<b>Asosiy soliq turlari</b>		
Xiroj (yerdan olingan hosilning beshdan bir qismi) Zakot (chorvador va savdogarlar uchun molning qirqdan bir miqdorida) Tamg'a (hunarmandlar va do'konlar maxsus soliq to'lagan) Taxti joy – tagjoy (o'z mahsulotlarini ijaraga olingan do'konda sotuvchilar uchun) Jizya (boshqa dinga mansub savdogarlar o'z mahsulotining beshdan bir qismini to'lagan) Ixrojot (saroy xarajatlarini ta'minlash uchun yig'iladigan soliq) Qo'nalg'a (elchilar, amaldorlar, choparlarni tekinga mehmon qilish)		
Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, xonliklarda 60 dan 90 gacha turdagi soliqlar undirilgan. Jumladan, Shayboniyar davlatida soliq, o'lpon va majburiyatlar tizimi ancha murakkab bo'lib, rasman 90 ga yaqin soliq va o'lponlar undirilgan. Xiva xonligida esa soliq, majburiyat va o'lponlarning 25 ga yaqin turi bo'lgan		
<b>Turli majburiyatlar</b>		
<b>Buxoro xonligida</b> eng og'ir majburiyat bu yasoq bo'lib, unga ko'ra aholi kanallar, xandaqlar qazish, yo'llar qurish, o'tin, somon, shox-shabba yig'ishga safarbar qilingan va tekin ishlab bergan. Shu bilan bir qatorda begor (turli qurilishlarida tekinga ishlab berish) majburiyati ham bo'lgan. Undan bezor bo'lgan mehnatkash xalq tez-tez g'alayon qilib turgan.	<b>Xiva xonligida:</b> 1. Begar – rasman 12 kunlik davlat majburiyati; 2. Qazu – butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati; 3. Ichki va obxo'ra qazu – har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati; 4. Hachi – himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati; 5. Otlanuv – xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish.	<b>Qo'qon xonligida</b> esa hashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

**3. Xonliklarda madaniyat.** O'zbek xonliklari davrida barpo etilgan me'moriy yodgorliklar bugungi kunda yurtimizning moddiy madaniyatini boyitib kelmoqda. Mazkur davrda qurilish inshootlari turlari yanada takomillashadi, ko'plab jamoat binolari (karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, hammom, tim va boshqa savdo rastalari) quriladi. Monumental binolarning tarixi, qiyofasi o'zgaradi, hunarmandlar uyushmalari vujudga keladi. Buxoro shahri balandligi 10 metrli devor bilan o'ralib, shahar darvozalari qurildi, yirik binolar qurishda (Mir Arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin masjid – xonaqosi) xalq me'morchiligi an'analaridan foydalanildi. Shahar tashqarisida ham monumental binolar (masalan, Chorbakr) qurildi. Jome masjidlari saroy kabi serhasham qilib, madrasalar peshtoqli, minorali tarzda qurib, hovlilari to'rt tomondan ayvon va hujralar bilan o'raldi. Buxoro va Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasalari bunga guvohlik beradi.

*Moddiy madaniyat.* Xonliklar davrida binolarni bezashda mayda o'simlik – naqshli parchinlar ishlatildi. Devorlarga gul terish kabi temuriylar davridagi usullar rivojlantirildi. Xonliklar davridagi me'morchilik yodgorliklari hajmi va pardozining jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Bunga Samarqandning Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasasini misol qilish mumkin. Devorlardagi ajoyib naqsh-u nigorlar va ichki devorlardagi to'kis tilla bezaklar juda nafis ishlangan. XVIII asr oxirlaridan Xiva xonligida ta'mirlash va shaharsozlik ishlari avj oladi. Ollaqulixon madrasasi, Rahmonquli inoq saroyi hajm jihatidan ancha mahobatli qurilgan. Qo'qon xonligi me'morchiligida rang-baranglik va yorqinlik, pardozdagi koshinlarning yorqin tovlanishi kabi xususiyatlar, ayniqsa, Xudoyorxon saroyida yaqqol namoyon bo'ladi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida me'morchilik hajm jihatdan ixcham binolar, goho bezak-pardozlardan butunlay xoliligi bilan ko'zga tashlanadi. Xonliklar va amirlikda me'morchilik qurilishida va bezakda o'ziga xoslik ham seziladi. Farg'ona uylari kengovul va ayvonli, guldor tokchali, o'yma ganchli, shiftlari naqsh-u nigorli qilib qurilsa, Samarqand va Buxoro uylari uchun chiroyli ko'rinishdagi ustunli ayvon, girih va islomiy naqshlar tushirilgan devor va ganch o'ymakorligi xosdir. Xiva uylari tashqi va ichki shaklda qurilib, ayvoni ichkariga qaragan, ustunlariga o'yma naqshlar chekilgan, murakkab shakldagi gullar bilan bezalgan. Xullas, bu davrning ko'pgina betakror madaniyat sohalari o'z sirlarini mukammal saqlab kelmoqda.

**Xonliklar davri me'moriy obidalari  
Buxoro shahridagi me'moriy obidalar**

*Mir Arab madrasasi (Buxoro, 1530–1536)*

Buxoro xoni mumtoz shoir Ubaydullaxon in'om etgan mablag' hisobiga Shayx Abdulla (Mir Arab) tomonidan 1530-yilda qurila boshlangan. Biroq Mir Arab madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmagan, u 1536-yil boshida vafot etgan. Shayxning vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan. Madrasa Minorai kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darxonona va masjid, go'rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar, yozuvlar bilan uyg'unlashgan (saqlanmagan).





Mir Arab madrasasi O'rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an'anaviy loyiha va mujassamot o'z ifodasini topgan. Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtog'i va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklangan.

### *Abdullaxon madrasasi (Buxoro, 1588–1590)*



Buxorodagi Ko'sh Madrasa ansamblining shimoliy qismida joylashgan. Me'mori noma'lum, Abdullaxon II qurdirgan. Tuzilishi odatdagi madrasalardan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o'rab turadi. Har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o'tiladi. Madrasaning katta peshtoqi janubga qaragan. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor bezaklar bilan pardozlangan. Darvozadan o'tib, ikki yoqdagi katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi. Darvoza xotamkoriy uslubining noyob namunasi – garih shaklli mayda yog'och parchalaridan terilgan. Abdullaxon davri me'morligi yetuk namunasi bo'lgan bu madrasa Buxoro me'morchiligining XV asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.

### *Modarixon madrasasi (Buxoro, 1566–1567)*

Abdullaxon madrasasi qarshisida joylashgan. Ikkalasi qo'sh Madrasa majmuasini tashkil qiladi. Modarixon madrasasi Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan (nomi ham shundan). Madrasa chorsi tarhli (67 x 45 m), 2 qavatli. Bosh tarzida ulkan peshtoq va uning 2 yonidagi 2 qavatli, oldi ravoqli 3 qismga ajratilgan xonalar oldi handasaviy uslubda koshinkori naqshlar bilan bezatilgan.

### *Masjidi Kalon (Buxoro, XV–XVI)*



Masjidi Kalon – forscha *«katta masjid»* degan ma'noni anglatadi. Ushbu me'moriy yodgorlik XII asrdagi qadimgi imorat qoldiqlari ustiga XIV–XV asrlarda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida ta'mir etilgan (masjid hovlisi va atrofida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida aniqlangan). Masjid to'g'ri to'rtburchak tarhli (127x78 m), keng hovli atrofini gumbazli bostirma ayvon egallagan. 288 ta qubba (gumbazcha) 208 ta ustunga tayangan.

Masjidi Kalonning tashqi 7 eshigi bo'lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq ravog'idagi boloxona va uning yon tomonidagi qirrali ravoqlar koshin va sirlangan g'ishtlar bilan bezatilgan. Peshtoq orqali hovli to'ri (yuqorisi)dagi xonaqoh – maqsuraga o'tiladi. Xonaqohning tashqi poygumbazi baland, moviy gumbazi uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Ichki gumbaz osti bag'allariga «qolibkoriy» uslubida qator mayda ravoqcha (16 ta)lar ishlangan, mehrob bezaklari nafis koshinkorlik san'atining yuksak namunasidir, unda usta Boyozid Puroniy nomi va 1514-yil sanasi ko'rsatilgan. Peshtoq oldidagi sahnada kichik ko'shk (pavilon) bor, qurilishi (XX asr)da Usta Shirin Murodov qatnashgan. Markaziy Osiyodagi eng yirik masjidlardan biri bo'lib, unga 1200 odam sig'gan.

### *Toqi Zargaron (Buxoro, XVI)*

Toqi Zargaron – forscha *«zargarlar toqi»* degan ma'noni anglatadi. Zargarlik buyumlari sotish uchun mo'ljallangan savdo markazi. Gumbazi arablar bosqiniga qadar qurilgan deb taxmin qilinadi.

Vosifiyning XVI asr boshlarida yozgan asarida Buxoro chorsusi sifatida tilga olingan. Toqi Zargaron Ulug'bek madrasasi yonida, qadimgi shahriston markazi – 2 katta ko'cha kesishgan chorraha ustini qoplab turadi. Bino, asosan, XV asrda qurilgan (XVI asrda to'la-to'kis ta'mirlanganligi sababli shu yili bunyod etilgan deb taxmin qilinadi). Ulkan gumbaz 8 ta toqiga o'rnatilgan. Tarhi 45,4 x 43,5 m, balandligi 16,7 m, gumbazining asos aylanasi 14 m, poygumbazi ko'p qirrali, undagi 16 ta darcha orqali bino ichiga yorug'lik tushib turadi.



Atrofini o'rab turgan do'konlar gumbazi balandligi 5–7 m. O'tmishda uning dalonlarida 36 zargarlik ustaxonasi va do'konlar bo'lgan. Atrofiga savdo rastalari, ombor, karvonsaroylar qurilgan. Toqi Zargaron Buxorodagi toqilarning eng yirigi va mujassamoti jihatidan murakkabi hisoblanadi.

### *Fayzobod xonaqohi (Buxoro, 1598–1599)*

Abdullaxon II davrida Dustum Devonbegi tomonidan qurdirilgan. Fayzobod xonaqohi ko'p xonali, peshtoq – gumbazli, tarhi 35 x 28,8 m. Markazida gumbazli katta xonaqoh (12,7 x 12,7 m), 3 tomondan ravoqli bostirma (galereya) o'rab turadi. Old tomonida ulkan peshtoq, 2 yon tomonida 2 qavatli hujralar hamda ravoqli yo'lak joylashgan.

Fayzobod xonaqohi ochiqravoqli galereya shaklida qurilganligi bilan ajralib turadi. XX asrning 70–80-yillarida vayronaga aylangan Fayzobod xonaqohi Buxoro maxsus ilmiy ta'mirlash ishlab chiqarish ustaxonasi (ustalar A. Haitov, R. Qurbonov va boshqalar) tomonidan qayta tiklangan.



### *Chor Bakr me'moriy majmuasi (Buxoro, XVI–XIX)*

Buxoroning Sumitan mavzeyidagi me'moriy yodgorlik. Shu yerda yashab o'tgan mashhur to'rt shayx (Abu Bakr Sa'd, Abu Bakr Fazl, Abu Bakr Muhammad, Abu Bakr Tarxon) nomi bilan bog'liq. Shayxlar qabristoni oldiga Abdullaxon II tomonidan xonaqoh, masjid, madrasa va katta bog'dan iborat me'moriy majmua barpo etilgan (1559). Keyingi asrlarda yana qo'shimcha binolar qurilib, atrofi bog'larga aylantirilgan.



Xonaqoh gumbazli xona va peshtoqdan iborat. Peshtoq bezagida koshinkori naqshlar va yirik kufiy yozuvlar, 2 yon qanotida guldastalar bor. Ichki bezagida ganchkorlik va qirma namunalari uchraydi. Madrasa peshtog'i kengroq, dahanasi uch ravoqqa bo'lingan. Kitobasi arabiy yozuvdan iborat. Mo'jaz minora me'moriy majmua markazida joylashgan.

### *Abdulazizxon madrasasi (Buxoro, 1652)*

Buxoro xoni Abdulazizxon (1645–1680) tomonidan 1652-yilda qurilgan. Me'mor Mimxoqon ibn Xo'ja Muhammad Amin. Abdulazizxon madrasa Ulug'bek madrasasining (1419) qarshisida joylashgan. Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshyonli. To'rtburchak hovlining har tarafida peshtoqli ayvon bor. Umuman



madrasa bezaklari yuksak san'at va mahorat bilan ishlangan. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Madrasa XVII asrning Buxoro mahobatli me'morligining yetuk namunasidir.

Madrasa asosan juz'iy ta'mirlar (peshtoq muqarnasini Usta Shirin Murodov ta'mirlagan) asosida tartibga keltirilgan.

*Bahouddin majmuasi (Buxoro, XVI asr)*



Shayx Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira-ansambl. Mozor Abdulazizxon buyrug'i bilan tartibga solinib, hazira barpo etilgan va 1544–1545-yillarda majmuaning eng katta binosi – xonaqoh qurilgan. Bahouddin majmuasi daxmalar (Daxmai shohon va Bahouddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, saqoxona, hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdulazizxon xonaqohidan iborat. Majmua kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozadan o'tgach, o'ngda kichkina masjid, chap tomonda ziyoratchilar uchun turli binolar bo'lganligi ma'lum. Bahouddin majmuasiga undan 0,5 km shimoliy sharqda joylashgan «Qasri Orifon» masjidi ham kiradi, uning yonida pastakkina minora bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi o'tkazilib (1993) majmua qayta ta'mirlandi, qo'shimcha binolar bunyod etildi.

*Labihovuz ansambli (Buxoro, XVII asr)*



Dastlab bozor maydoni bo'lgan. Maydon o'rtasida katta hovuz qazilib (1620-yil) atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan, xarsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Shag'al va tuproq bilan to'ldirilib shibbalangan. Hovuz eni 36 m., bo'yi 45,5 m., chuqurligi 5 m. Uning g'arbida Nodir Devonbegi xonaqohi, sharqida Nodir Devonbegi madrasasi, shimolda Ko'kaldosh madrasasi va Ernazar elchi madrasasi (saqlanmagan) qad ko'targan. Hozirda hovuz atrofiga chinorlar ekilib, choyxona qurilgan. Yodgorliklar ta'mirlangan.



*Nodir Devonbegi madrasasi (Buxoro, 1622–1623)*



Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog'ay ibn Sulton) qurdirgan. Nodir Devonbegi madrasasi Labihovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo'q, hovli atrofi 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan o'ralgan.

Hujralarga o'ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o'rnatilgan. Hovliga pishiq g'isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor.

*Nodir Devonbegi xonaqohi (Buxoro, 1620–1621)*

Ushbu me'moriy yodgorlikni ham Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi qurdirgan. Labihovuz ansamblidagi hovuz bilan birga bunyod etilgan. Peshtog'i hashamatli, ravog'ining qanosi ancha baland, ulug'vor, ayrim yerlarida koshinlarning parchalari saqlanib qolgan. 2 tomonidagi tagi qirrali guldasta – mezanalar old ko'rinishiga salobat beradi. Xonaqohning 2 yonidan ham hujralarga kiriladigan eshiklari bo'lgan. Devorlari bir necha bor ta'mirlangani (1914–1916-yillarda Buxoroning oxirgi amiri Sayid Olimxon tomonidan ta'mirlangan) dan asl ko'rinishi o'zgargan.

*Ko'kaldosh madrasasi (Buxoro, 1568–1569)*



Buxoro xonining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan. Labi hovuz ansamblining shimolida joylashgan. Ikki qavatli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtog'idagi darvoza girih va islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Madrasa hovlisi uzun (42 x 37 m), o'rtaga yangi imorat 1929-yilda qurilgan. Hovli tomondagi 2 qavatli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan peshtoqli baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qavatli 160 hujra bilan o'ralgan. Ko'kaldosh madrasasi 1960–1970 va 1995–1997-yillarda ta'mirlangan.

*Bolohovuz masjidi (Buxoro, XVIII–XIX asr)*

Buxorodagi me'moriy yodgorlik, tomonlari 11,5 m li murabba tarhli bino. Bolohovuz masjidining katta gumbazli masjidi 1712-yil, hovli va hujralari XIX asrda, ayvoni 1915–1917-yillarda, masjid yonidagi alohida turgan minora ham shu yillarda Usta Shirin Murodov va usta Hafizovlar tomonidan qurilgan.



Bolohovuz masjidi qalqonsimon va murakkab bo'rtma naqshlar bilan bezatilgan. Mehrobiga nafis naqshlar ishlangan. Ganch shuvoqli peshtoq masjidning sharq tomonida bo'lib, bo'g'ot osti ganch naqshlar bilan bezatilgan. Peshtoqning yon tomonlariga ikki qavatli baland tokchali hujralar qurilgan. Bolohovuz masjidining 20 ta baland va ingichka yog'och ustunli ayvoni bor. Ayvonning yon devorlaridagi tokchalari naqshlar bilan bezatilgan. Bolohovuz masjidida namozlar o'qilgan. Masjidning ayvoni va qandil osilgan shiffti ayniqsa serhasham. Registon maydoni tomonidan Bolohovuz masjidiga qaralsa peshayvoni, maydon yonboshidagi kichkina minorasi va o'rtasidagi hovuz kishida ajoyib taassurot qoldiradi. Hovuz qirg'oqlari yirik toshlar bilan zinapoyali qilib mustahkamlangan.

### *Chor minor (Buxoro, 1807)*

Chor minor – forscha «to'rt minora» degan ma'noni anglatadi. Xalfa Niyozqul qurdirgan. Chor minor an'anaviy usulda qurilgan masjid, bir qavatli madrasa, atrofi bir qavatli hujralar bilan o'ralgan hovlidan iborat. Sinchli peshayvon tipidagi masjid hovlining janubiy-g'arbiy burchagida joylashgan. Madrasaga 2 qavatli, gumbaz tomli darvozaxona orqali kiriladi. Murabba tarhli darvozaxona o'ziga xos mujassamot yechimiga ega: oldi peshtoqli, to'rt burchagida to'rtta minora joylashgan (nomi ham shundan), minoralarning tepa qismi gumbaz shaklida yakunlangan bo'lib, ular sirkori koshinlar



bilan bezatilgan. 2 qavatli xonaning 1-qavati miyonsaroy ko'rinishida bo'lib, izoralari toshlar bilan qoplangan, tomi gumbazli, 2-qavati kutubxona, kutubxonaning shifti pastak gumbazli bo'lib, sodda muqarnaslar halqasi bilan to'ldirilgan. 2-qavatga minoralarning biridan ziņa orqali chiqiladi.

### *Sitorai Mohi Xosa (Buxoro, 1826–1920)*



Buxorodagi mang'itlar sulolasining 3 avlodiga mansub saroy-bog'. Buxorodan 4 km shimolda. Dastlabki binolar Nasrullaxon (1826–1860) va Muzaffarxon (1860–1885) hukmronligi davrida qurilgan. Abdulahadxon hukmronligi davri (1885–1910) da saroy va xushmanzara bog' barpo etilgan. Amir Olimxon hukmronligi davri (1910–1920)da yangi saroy qurilgan. Sitorai Mohi Xosa maydoni 6,7 g bo'lib, eski saroy, g'isht to'shalgan 3 hovli va ko'pgina xonalardan iborat.

Bu yerdagi amir Muzaffarxon mehmonxonasi keng, baland zali, ikki tomondagi boloxonali ayvonlari, yevropacha eshik va derazalari bilan ajralib turadi.

Uch qismga bo'lingan murabba tarhli xonani tashkil etuvchi Abdulahadxonning xonasi bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan 2 zal o'rtasidagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g'arb tomoniga taxt o'rnatilgan. Eski saroy sharqidagi amir Olimxonning bosh qarorgohi – yangi saroyga ravoqli, muhtasham darvoza o'rnatilgan. An'anaviy sirkori parchinlar bilan birga Rossiyadan keltirilgan kafel qoplamalardan ham foydalanilgan.

Oqsaroy ichkarisi Sharqning jim-jimador, nafis naqshlari, jozibador gullari bilan uyg'unlashgan. Oqsaroy 2 yil mobaynida Usta Shirin rahbarligida (25–30 kishi tomonidan) qurilgan va pardozlangan. Yangi saroy rus muhandislari Sakovich va Margulis rahbarligida qurilgan. Qabulxona Yevropa uslubida biridan ikkinchisiga o'tiladigan qilib qator joylashtirilgan. Yangi saroyning kiraverishi boqqa tutashib ketgan. Bog'ning shimoliy qismida haram joylashgan. Uning g'arbida haram xizmatkorlari uchun xonalari bo'lgan kichik hovli bor. Haram 2 qavatli va yarim doira shaklida qurilgan. Mahalliy me'morlik an'analarini o'zida saqlab qolgan. Bog'ning qoq o'rtasida 8 xonali ko'shk bor. Uning xonalari 8 qirrali qilib qurilgan mehmonxona atrofida joylashgan. Oshxonaning devorlari tilla va kumush suvi yugurtirib bezatilgan. Ko'shkning janubda to'g'ri burchakli devori tokchali katta xona bo'lgan. Qolgan boshqa xonalar yotokxona va xizmatkorlar uchun mo'ljallangan. Bog'ning janubida ikki qavatli masjid, katta hovuz qurilgan (1917–1918). Hovuz kulrang G'ozg'on marmari bilan qoplangan. Binoning ichida uzun yo'lak bo'lib, xonalari faqat bir tomondan shamollatilgan. Hozirda Sitorai Mohi Xosada Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi, dam olish uyi va bolalar sanatoriysi joylashgan.

*Samarqanddagi me'moriy obidalar:*

*Shayboniylar daxmasi (Samarqand, XVI asr)*



Samarqanddagi o'rta asr me'moriy yodgorligi. Shayboniyxon 1510-yil Eron shohi Ismoil I Safaviy bilan bo'lgan jangda halok bo'lgach, Shayboniyxonning boshsiz tanasi Samarqandga olib kelinib o'zi qurgan madrasada marmar supa ostiga, ya'ni Baland Supaga dafn qilingan.

Baland Supa Registon maydonida Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakda joylashgan bo'lib, bu yerga keyinchalik boshqa shayboniy sultonlar va malikalar: Mahmud Sulton (1503/04-yilda o'ldirilgan), Maxdiy Sulton, Hamza Sulton (1511-yilda o'ldirilgan), Muhammad Temur Sulton (1511-yilda vafot etgan), Qutlug' Muhammad Sulton (1545-yilda vafot etgan), Abulxayr Sulton (1511-yil o'ldirilgan), Yodgor Sultonim (1526-yilda vafot etgan), Shahribonu xonim (1535-yilda vafot etgan), Shoh Sulton xonim (1530-yilda vafot etgan), Suyunch Muhammad Sulton (1586-yilda vafot etgan) lar dafn etilgan.

### *Sherdor madrasa (Samarqand, 1619–1636)*



Registon ansambli tarkibida. Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rniga Yalangto'sh Bahodir qurdirgan. Ulug'bek madrasasining ro'parasida joylashgan. Madrasa tarhi to'rtburchak, 2 qavatli. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg'ali gumbaz va minoralar joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar (54 ta)ning oldi ravoqli



ayvon. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o'tagan. 1960–1964-yillarda peshtoq qanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan.

### *Tillakori madrasasi (Samarqand, XV asr)*

Registon ansamblida Ulug'bek davrida bunyod etilgan Mirzoyi karvonsaroyi (XV asr) o'rnida Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir madrasa va jome masjid qurdirgan (1641–46). Karvonsaroy asosi ustiga Madrasa (shimoliy-sharqiy qismida), hujralar o'rnida peshtoq gumbazli masjid (g'arbida) joylashgan. Dastlab «Yalangto'shbiy kichik madrasasi» deb nomlangan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun «tillakori» (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlagan.

Tillakori madrasasidan shahar jome masjidi va Madrasa sifatida foydalanilgan. Shuning uchun masjidi (63 x 22 m) katta va serhashamligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi. Madrasa (70 x 70 m) ga g'arbiy peshtoq orqali kiriladi. Peshtoq chuqur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2 qavatli hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta – mezanalar egallagan. Masjid xonaqohi (10,8 x 10,8 m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Uning gumbazi nihoyasiga yetkazilmagan. Xonaqoh to'riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O'z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonini oldi ravoqli, gumbaz tomli ayvon (yo'lak)lar egallagan. Peshtoq ravog'idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659–1660-yillarda bajarilganligi yozilgan.



Tillakori madrasasi bir necha bor ta'mir qilingan. 1817-yilda amir Haydar buyrug'i bilan zilziladan zarar ko'rgan peshtog'i qayta tiklanishi jarayonida shakli buzilgan. 1885-yildagi ta'mir vaqtida zarhal naqshlar oddiy bo'yoqlar bilan almashtirilgan. Tillakori madrasasida Samarqand ta'mirlash ustaxonasi tashkil etilib (1930), koshinlarning qadimgi rangini topish yo'lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tillakori madrasasidagi yo'qolib ketayozgan noyob zarhal naqshlarni ustalar ilmiy o'rganib, qayta tikladi (1970). Binokorlar madrasaning Registonga qaragan peshtog'ini Sherdor Madrasa va Ulug'bek madrasasi bilan moslashtirib qayta qurdi.

*Toshkentdagi me'moriy obidalar:*

*Ko'kaldosh madrasasi (Toshkent, 1551–1575)*

Toshkent shahari markazining Chorsu maydonida joylashgan. Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan. Madrasa (umumiy o'lchami 62,7 x 44,9 m) bosh tarzi janubiga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonalarining tomi o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat. Hovlining atrofidagi hujralar 38 ta bo'lib, darsxona va masjid bilan o'zaro bog'langan. Madrasa dastlab 3 qavatli bo'lgan. Me'morlar madrasani bezashda, asosan, binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Ko'kaldosh madrasasi XVIII asr boshlarida qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy ombori sifatida foydalanilgan. 1886 va 1946-yillardagi zilzilalar oqibatida vayron bo'lgan. Bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko'rinishi o'zgarib ketgan.



Ko'kaldosh madrasasi hujralaridan birida Furqat (1889–1891) va Hamza (1910–1911) istiqomat qilgan, shoir Xislat va boshqalar tahsil olgan. Madrasaning old tomoniga an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. 1998-yildan binoning muhandislik ustuvorligini ta'minlash, tashqi va ichki tarzlarini asl holiga keltirish va atrofni obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ko'kaldosh madrasasi O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi tasarrufida (1991-yildan). Binoda shu idoraga qarashli o'rta maxsus islom bilim yurti joylashgan.

### *Baroqxon madrasasi*

*(Toshkent, 1531/32–XVI asrining 2-yarmi)*

Toshkentda shayboniy xonlardan Baroqxon (Navruz Ahmadjon, vafoti 1556-yil) tomonidan qurilgan madrasa. Hovli atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo'lib, madrasaning g'arbiy qismi birmuncha oldinga chiqqan. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g'ishtdan ishlangan. Ba'zi joylari sinchli. Baroqxon madrasasi o'rni da dastlab 2 (katta va kichik) maqbara bo'lgan. Kichik maqbarada Baroqxon qabri bor. Uning to'rt tomonidagi eshiklaridan uchtasi keyinroq berkitib tashlangan (qolgan eshikdan zina bilan tomga chiqilgan). 1904-yilda masjidga aylantirilgan katta maqbarada Toshkent hokimi Suyunchxo'ja qabri joylashgan. Baroqxon ikki maqbarani o'z ichiga olgan Madrasa qurdirgan. Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang-barang sirkor g'ishtchalardan namoyon terilgan.



XX asr boshlaridagi ta'mir vaqtida qadimgi bezaklarning qoldig'i ko'chirib tashlanib, oq ganch bilan suvalgan. 1946, 1949, 1951, 1967-yillarda ta'mir ishlari olib borilgan. Baroqxon madrasasida 2008-yilgacha O'zbekiston Musulmonlari idorasi joylashgan.

*Xivadagi me'moriy inshootlar:*

*Arab Muhammadxon madrasasi (Xiva, 1616, 1838)*

Dastlab Xiva xoni Arab Muhammadxon madrasani bir qavatli, oddiy sinchli qilib qurdirgan. Serhasham ishlangan ayvon saqlangan (Xiva muzeyi). Olloqulixon davrida madrasa binosi kvadrat tarhli, peshtoq va gumbazli qilib qayta qurilgan. Bosh tarzidagi masjid va hujralar ikki qavatli, ikki burchagida burj – guldastalari bor. Qolgan tomonlaridagi hujralar bir qavatli. Hovli etagida ayvon – masjid qurilgan.

*Sherg'ozixon madrasasi (Xiva, 1719–1726)*



Ichkan qal'a tarkibida. Xiva xoni Shergh'ozixon Xurosonga qilgan yurishi (1718) chog'ida qurila boshlagan. Madrasaning g'arbida qurilgan kichik xonaga xon jasadi dafn etilgan. Maqbara bosh tarziga tutash qilib qurilgan. Madrasa bosh tarzi 2 qavatli. Ulkan peshtoq orqali kiraverishda gumbazli miyonsaroy, uning 2 burchagida chortoq tarhli, gumbazli masjid va darsxona joylashgan. Miyonsaroy tepasidagi kichik hujralar talabalar uchun yotoqxona bo'lgan. Devorlariga tokcha, taxmon, kosamonlar ishlangan. Hovli atrofidagi 1 qavatli qator hujralar oldi ayvonli bo'lib, hovli o'rtasida hovuz joylashgan. Madrasa bezaklari saqlanmagan.

### *Muhammad Amin inoq madrasasi (Xiva, XVIII asr)*

Muhammad Amin inoq tomonidan qurdirilgan. Ichan qal'a markazida joylashgan. Muhammad Amin inoq va uning o'g'li shu madrasaga dafn qilingan deb taxmin qilinadi.

Madrasa bosh tarzi maydonga qaragan. Janubda peshtoqdan 3 gumbazli miyonsaroy orqali to'g'ri to'rtburchak tarhli hovliga (25,4 x 24 m) kiriladi. Hovli atrofida bir qavatli hujralar va qarama-qarshi joylashgan 2 ayvon bor. Hovlining kesik burchaklaridan hujraga kirish uchun tor yo'laklar ishlangan. Miyonsaroy O'rta Osiyo mumtoz me'morligiga xos bo'lmagan tarzda ishlangan. Uning gumbazlari o'zaro ravoqlar orqali bog'langan.

### *Qutlug' Murod Inoq madrasasi (Xiva, 1804–1812)*

Ichan qal'a tarkibida. Olloqulixonning tog'asi Qutlug' Murod Inoq qurdirgan. Vasiyatiga binoan miyonsaroy zamini tagiga dafn etilgan. Madrasa to'rtburchak tarhli (57 x 44 m), masjid va darsxona (tarhi 5 x 5 m), hujralar (3 x 3 m), hovli (31,8 x 27,8 m) hamda hovli o'rtasidagi sardoba (diametri 7,15 m)dan iborat. Qutlug' Murod Inoq madrasasi Xivada dastlab qurilgan 2 qavatli madrasa bo'lib, Xiva madrasalariga xos bo'lmagan 2 qavatli, 3 ochiq ravoqli, bosh tarzi ochiq va mahobatli qilib bunyod etilgan; bino g'ishtdan loy bilan terilgan, poydevori devoridan yog'och to'sinlar (sarsobaniki marmar) bilan ajratilgan. Bu madrasa Xivadagi sirlanmagan va bosma usulida yaratilgan bo'rtma bezaklar qo'llangan yagona yodgorlikdir.

### *Muhammad Aminxon madrasasi (Xiva, 1852–1855)*



Muhammad Aminxon tomonidan qurdirgan. Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan. Madrasa ikki qavatli. Birinchi qavatidagi hujralar dahlizli, ikkinchi qavatdagilar ayvonli. Bu uslub Xiva madrasalari me'morligida ilk bor shu binoda qo'llanilgan. Ayvonlarning qurilishi sodda, hovlining umumiy me'morligiga mos. Ikki qavatli ayvonlardagi qanoslar va qarama-qarshi qo'yilgan peshtoqlar sirkor parchinlar bilan naqshlangan. Hujralar tomi balxi gumbaz bilan berkitilgan.

Binoda Xiva me'morlik maktabiga xos uslublarning eng yaxshi namunalari qo'llangan. Bosh tarzidagi miyonsaroy 2 oshyonli, 5 gumbazli bo'g'imlarga ajratilgan. Yog'och o'ymakorligida ishlangan eshik va panjaralar noyob san'at asari hisoblanadi. Umumiy tarhi – 77 x 60,0 m; hovli 38,0 x 38,0 m; masjid 9,4 x 8,4 m; darsxona 5,6 x 5,6 m. Madrasa ta'mirlanib, mehmonxona uchun moslashtirilgan, o'tmishda yirik o'quv dargohi va shahar devonxonasi bo'lgan.




### *Kalta minor (Xiva, 1852)*

Muhammad Aminxon madrasasining old tomonida joylashgan. O'rta Osiyoda eng katta va baland qilib qurish mo'ljallangan (taxm. 70–80 m). 1852-yil qurila boshlanib 1855-yilda xonning vafoti tufayli chala qolgan (nomi shundan). Hozir Kalta minorning balandligi 26 m, asosining diametri–14.2 m. Bezagida oq, yashil, feruza rangli koshinlar qo'llanilgan (feruza rangli koshin ko'p ishlatilganidan ko'kminor deb ham ataladi). Xiva shahrining 2500-yilligi arafasida (1996–1997) Kalta minorning koshinkori bezaklari to'liq ta'mirlandi va undagi «nasta'liq» yozuvlari qayta tiklandi.

### *Xiva juma masjidi (Xiva, X–XVIII asrlar)*

Ichan qal'aning markaziy qismida Ota darvoza va Polvon darvozalar birlashtiruvchi ko'chada joylashgan. Juma masjidi haqidagi ilk ma'lumot X asrda Xorazmga kelgan arab sayyohlari al-Muqaddasiy (Maqdisiy) va al-Istaxriy yozmalarida uchraydi. Manbalarga ko'ra, juma masjidining dastlabki binosi buzilib ketgan va o'rniga Abdurahmon Mehtar buyrug'iga binoan xuddi shu usulda kattaroq yangi masjid qurilgan (1788). Masjid o'ziga xos tarhi va hajmi bilan ajralib turgan. Bir qavatli bo'lib, atrofi g'ishtin devor bilan o'ralgan. Uning boshqa masjidlardan farqi qadimgi arab me'morligiga xos uslubda (yopiq, ko'p ustunli hamda hovlisiz





qilib) qurilganligidadir. Unda ayvonlar bilan o'ralgan hovli ham, ulkan peshtoq ham, gumbazli xonalar ham yo'q.

Xonaqoh ichi shirdagi ikki tuynuk orqali yoritiladi. Tomi yassi, to'sinli, shipini 212 ustun ko'tarib turadi. Ustunlar 17 qatorli, oralig'i 3,15 x 3,15 m. Ustunlar masjid tuzilishining asosini tashkil etish bilan birga uning badiiy bezagi hamdir. Ular o'ziga xos mutanosiblik va ko'rinishga ega. 212 ustundan X–XIV asrlarga oid 25 ustun eng qadimiysi bo'lib, tuzilishida bir qancha uslub namunalari bor. X–XI asrlarga oid 4 ustun chuqur bo'rtma naqshli, kufiy xati islomiy naqsh bilan uyg'unlashgan. Unda faqih Abul Fadal Muhammad Laysi farmoni bilan qurilgani yozilgan. X–XII asrlarga oid 17 ustun nisbatan sayoz o'yilgan, undagi handasaviy naqshlar oralig'i uslublashtirilgan, nabotiy shakllar bilan to'ldirilgan, yozuvlari kufiy xatida bitilgan (yaxshi saqlanmagan) XV asrga oid 3 ustun islomiy, girih naqshlar va nasx xatida hoshiya qilib terilgan. Masjid yonidagi minora XVII asrda qulab tushgan, XVIII asrda mayda pishiq g'ishtdan qayta tiklangan. Minora yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Tepasiga sharafa va g'ishtdan dandana hoshiya belbog'lar ishlangan. Juma masjidi bir necha bor ta'mirlangan. Oxirgi ta'miri 1990-yilda Xivaning 2500-yilligi arafasida bajarilgan. Umumiy o'lchamlari: masjid – 55 x 46 m, minora balandligi 42 m.

### *Ota darvoza (Xiva, 1828–1829)*



Ichan qal'aning g'arbiy darvozasi. Olloqulixon hukmronligi davrida qurilgan. Shermuhammad ota nomi bilan ham atalgan. Darvozaxona to'g'ri to'rtburchak tarhli (17,50 x 15,40 m), ichkarisi uzun dalon bo'lib, usti ikki katta gumbaz (diametri–15,07 m) bilan qoplangan. Dalonning 2 tomonida bir-biriga o'tiladigan oldi ochiq, gumbazli xonalar darvozabonlar xonasi vazifasini o'tagan. Xonalarning biridan hujraga o'tiladi.

Hujradagi aylanma zinadan tomga chiqiladi. Darvoza peshtog'i baland bo'lib, ikki yon tomonini guldastalar egallagan. Peshtoqining ravoqli darchalari guldastalar qafasasi bilan bir balandlikda bo'lib, kunguralar bilan yakunlangan. Ota darvozaning dastlabki ko'rinishi saqlanmagan, arxiv materiallari asosida qayta tiklangan (1974). 1978-yildan do'kon uchun moslashtirilgan.

### *Olloqulixon madrasasi (Xiva, 1834–1835)*



Madrasa qurilishi Ichan qal'atning yaxlit ansambl bo'lib shakllanish tarixi bilan bog'liq. O'rta Osiyo me'morligida keng tarqalgan qo'shmadrasa uslubida, Olloqulixon timi, Xo'jamberdiy madrasasi, Polvon darvoza bilan o'zaro

bog'langan. Olloqulixon madrasasi sun'iy tepalik (balandligi 3 m) ustiga qurilgan, shu tufayli qo'shni binolardan ancha baland ko'rinadi. Madrasa to'g'ri to'rtburchak tarhli (62,45 x 47,0 m), peshtog'i g'arbga qaragan. Bosh tarzini miyonsaroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning qurilgan sanasi saqlangan. Hovli – 34,6 x 29,4 m. Masjid va darsxona (4,8 x 4,8 m) tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Devorlaridagi chuqur ravoqlar hisobiga xona keng ko'rinadi. Ayvon (5,5 x 5,5 m) Madrasa g'arbida joylashgan, mehrobi ganchli muqarnasdan «iroqi» uslubida bezatilgan. Hujralar (99 ta)ning har birida bittadan eshik, tobadoniga panjaralar o'rnatilgan.

### *Abdullaxon madrasasi (Xiva, 1855)*

Ichan qal'adagi Olloqulixon va Qutlug' Murod Inoq madrasalari oralig'ida joylashgan. Abdullaxon (Xiva xoni Qutlug' Murod Inoqning o'g'li) xotirasiga onasi tomonidan qurdirilgan. Chortoq tarhli (31,5 x 28,25 m) bo'lib, burchaklariga guldasta – minora ishlangan. Bosh tarzidagi keng ravoqli peshtoq orqali 3 gumbazli miyonsaroyga, u orqali hovliga o'tiladi. Hovli (18,9 x 14,0 m) atrofi hujralar bilan o'ralgan. Hujralar tomi balxi gumbaz bilan yopilgan. Janub tomondagi gumbazli masjid miyonsaroy bilan bog'langan. Darsxonalar tarhi murabba – 4,25 x 4,25 m. Hovliga g'arbdan ensiz yo'lak orqali kiriladi.

### *Muhammad Rahimxon madrasasi (Xiva, 1871)*



Muhammad Rahim II (Feruz) qurdirgan. Ko'hna arkning sharqiy darvozasi qarshisida joylashgan. Muhammad Rahimxon madrasasi masjid, ayvon, darsxona, kutubxona va hujralardan iborat. Madrasaning old tomoni 2 qavatli, qolgan tomonlari bir qavatli. Burchaklariga guldastalar ishlangan. Xiva me'morligiga xos uslubda peshtoqli koshinkori naqshlar bilan bezatilgan. Sirli g'ishtlar «qo'sh» va «bantak» uslubida terilgan. Umumiy tarhi – 62,4 x 49,7 m; hovli – 28,3 x 28,8 m; darsxona – 5,4 x 5,4 m; masjid – 7,0 x 7,0 m; savdo qatorlari – 25,0 x 50,0 m; hovli 16,9 x 42,5 m.

### *Mozori Sharif madrasasi (Xiva, 1882)*

Muhammad Rahimxon II (Feruz) buyrug'i bilan usta Qalandar Kochim qurgan. Madrasa (28,6 x 15,8 m) bir qavatli, bosh tarzi janubga qaragan. Peshtog'i yashil rangli sirkor koshinlar bilan «bantak» uslubida bezatilgan. Darvozasi va uning tepasidagi to'sin yog'och o'ymakorligida ishlangan. Bosh tarzidagi xocheimon gumbazli miyonsaroy orqali hovliga o'tiladi. Hovli (11,6 x 6,2 m) atrofida balxi gumbazli hujralar joylashgan. Mozori Sharif madrasasida darsxona va masjid uchun alohida xonalar qurilmagan.

### *Islomxo'ja madrasasi va minorasi (Xiva, 1908–1910)*



Ichan qal'a markazida joylashgan. Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri va qaynotasi Islomxo'ja qurdirgan. Madrasa (42,8 x 32,5)ning bosh tarzi ikki qavatli. Hovli (23 x 20) atrofi bir qavatli kichik hujralar (jami 42 ta) bilan o'ralgan. Bosh tarzining hovliga qaragan ikkinchi qavatida ayvon bor. Madrasaning janubiy sharqidagi masjid gumbazli, mehrobi koshin va ganchkori naqsh bilan bezatilgan. Old tomonida Xivadagi eng baland minora (44,6 m) qad ko'targan. Asosining diametri – 9,5 m. Yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Ko'k, yashil rangli naqshlar bilan belbog'lar ishlangan. Qafasasiga panjaralar o'rnatilib, yuqorisi muqarnasli sharafa va qubba bilan yakunlangan. Minora shaharning deyarli hamma tomonidan ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Islomxo'ja madrasasi va minorasini qurishda me'mor Xudoybergan hoji, naqqoshlar Eshmuhammad Xudoyberdiyev, Bolta Voisov va boshqalar qatnashgan.

### *Qo'qondagi me'moriy obidalar Norbo'tabiy madrasasi (Qo'qon, 1799-yil)*

Qo'qon xoni Norbo'tabiy hukmronligi davrida qurilgan. Xalq orasida Madrasai Mir nomi bilan ham yuritiladi. Norbo'tabiy madrasasi chorsu maydoni yaqinida qurilgan. Bir qavatli, hovlili, to'g'ri to'rtburchak tarhli (52 x 72 m), 4 burchagiga minora – guldastalar ishlangan. Hovli (38 x 38 m) atrofiga qator ravoqli xujralar joylashgan. Peshtog'i shimolga qaragan. Miyonsaroyning 2 tarafida peshtoq bo'ylab tutashgan gumbazli masjid va 12 ta derazali (panjaralar o'rnatilgan) darsxona mavjud. Norbo'tabiy madrasasi pishiq g'ishtdan qurilgan.

### *Daxmai Shaxon – Shohlar daxmasi (Qo'qon, XIX asrning 20-yillari)*



Qo'qon xonlari xonadonlariga tegishli shaxslar Norbo'tabiy va uning avlodlari dafn etilgan xazira. Daxmaga g'arbdan peshtoq (9,4 x 11,7 m) orqali kiriladi. Peshtoqining ikki tomoniga burjlar ishlangan, sirkor g'isht va koshin bezakli qilib terilgan. Peshtoq sathining yon tomonlari to'q zangori rangdagi juft qalampir tasvirlar bilan bezatilgan. O'rta qismiga zangori, yashil va oq koshindan sakkiz qirrali yulduzlar, tepasiga qizil, qora va yashil rangli yo'l-yo'l chiziqlar tushirilgan.

Maqbara gumbazli, ichki devorlaridagi darchalarning biridan tomga, ikkinchisidan masjidga o'tilgan. Uchinchisi esa ochiq turgan. Ichki qismidagi katta ravoqlar bilan darcha ravoqlarining oraliqlaridagi g'ishtlar tik, gajaklar esa to'lqinsimon qilib terilgan. Maqbara yonida ayvonli masjid (7 x 6,8 m) ikki ustunli bo'lib, uning to'sinli shifti 4 katakka bo'lingan, bo'yama naqsh bilan bezatilgan. Daxmai shohonda xonning onasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi yaxshi saqlangan.

### *Qo'qon Jome masjidi (Qo'qon, 1819–1822)*

Qo'qon xoni Umarxon nomi bilan bog'liq. Masjid ulkan xonaqoh va uni uch tomonidan o'rab olgan 98 yog'och ustunli keng ayvon hamda minoradan iborat. Bino devorlari ganchkori, izoralari chaspak uslubida, ayvon shifti to'sinlari islomiy va girih naqshlar, ustunlar kalla muqarnaslar, o'yma naqshlar bilan bezatilgan, tagkursilar marmardan ishlangan. Minora konussimon shaklda, yuqori qismi 6 qirrali qafasa tuynuk va kubba bilan tugallangan, bezaksiz. Minora yuqorisiga aylanma zina orqali chiqiladi.

### *Xudoyorxon o'rdasi (Qo'qon, XIX asrning 2-yarmi)*



Qo'qon xoni Xudoyorxon qurdirgan. Me'mor va muhandis Mir Ubaydulla loyihasi va rahbarligida bunyod etilgan; ustalardan Mulla Suyarqul, Solixo'ja va buxorolik usta Fozilxo'jalar qatnashgan, koshinlarini rishtonlik kulol usta Abdulla



mahorat bilan bajargan. Xudoyorxon o'rdasi to'g'ri to'rtburchak tarhli (68x143 m) bo'lib, sun'iy tepalikka baland g'ishtin poydevorli qilib qurilgan: xon qarorgohi, o'rda ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda foydalaniladigan 100 ga yaqin katta- kichik xonalar, ichki – tashqi hovlilardan iborat bo'lgan.

1938-yil Xudoyorxon o'rdasida me'mor Obid Zayniddinov boshchiligida ta'mirlash loyihasi ishlari olib borildi; ta'mirlashda usta Q. Haydarov, naqqosh S.Norqo'ziyev va boshqa ustalar qatnashdi. 1974-yildagi ilmiy ta'mirlash va loyihalash ishlari (me'mori N. Akromxo'jayev, E. Nurullayev va boshqa) natijasida saroyning dastlabki holati aniqlandi. 1924-yilda Xudoyorxon o'rdasida Qo'qon xonligi yutuqlari ko'rgazmasi ochilgan, 1925-yildan Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

*Ilm-fan va madaniyat.* XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan, adabiyot, san'at, musiqa, qo'shiqchilik amaliy san'atning taraqqiyoti ham hayot sharoitlari bilan o'zaro bog'liq holda notekis rivojlandi.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi o'zbek xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Birinchidan, O'rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o'rinlarda turgan bo'lsa, XVI–XVII asrlardan e'tiboran bu hududda tushkunlik boshlanadi. Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o'zlari alohida, mustaqil faoliyat ko'rsatsalarda davlat idora ishlari o'zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo'qonda fors-o'zbek, Xivada o'zbek tili rasman davlat tili bo'lib hisoblanardi. Turmushda adabiy ijodda o'zbek va fors tillari keng qo'llanilar edi. Uchinchidan, an'anaga ko'ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro'si saqlanib qolgandi.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi. O'zbek xonliklar davrida O'rta Osiyoda ikki turdagi maktab mavjud edi: quyisi – maktab va oliy – madrasa. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Maktablar qizlar uchun alohida, o'g'il bolalar uchun alohida bo'lgan. Odatda, boshlang'ich maktabda o'qish va yozish, ya'ni savod o'rgatilar va diniy matnlar yodlash bilan birga, arifmetika va adabiyot o'qitilar edi. Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'on, doston va she'r-u g'azallarni yodlagan.

Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. O'qish, yozishni o'rgangan bolalar madrasalarda o'qitilgan. Madrasalarda o'quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) bosqichlarda olib

borilib, unda uchta til (arab, fors va turkiy) mukammal o'rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o'qish usullari, qiroat, tavsir), fiqh (shariat qonunlari), handasa asoslari, arab tili sarfu nahvi (grammatikasi), notiqlik san'ati, aljabr, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo'g'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Madrasani bitirganlar qozi, uning yordamchisi, masjid imomi lavozimlarida ishlaganlar, mudarrislik qilganlar.

Shu o'rinda har bir xonlikning o'ziga xos madaniy muhitini yoritishda yakka tartibda to'xtaladigan bo'lsak ular qo'yidagilardan iborat.

**Buxoro xonligi.** Ushbu xonlikdagi ilm-fan va madaniy muhitni tasvirlashda xonlikda hukmronlik qilgan sulolalarning faoliyatiga e'tiborni qaratish lozim.

XVI asrning birinchi yarmida fan va madaniyatning rivoj topishi shayboniylar sulola namoyandalarining tutgan o'rni katta bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish muhimdir. Ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edi. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Javonmard Alixon kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar, diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar.

Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta'limni Buxoro madrasasida tahsil olib ilm-fan, she'riyatga mehr qo'ygan. «Hazrati imom uz-zamon xalifat ur-rahmon» unvoni berilgan Shayboniyxon davr talabiga binoan turkiy tilidan tashqari fors tilini yaxshi egallagan, she'riyatga qiziqib, o'zi she'rlar yozgan. Shayboniyxon tomonidan 1508-yilda chig'atoy – turkiy tilida yozilgan. «Baxr ul-xudo» («Haqiqiy yo'lning dengizi») diniy qasidasining yagona qo'lyozma nusxasi Londondagi «British Muzeyi» kutubxonasida saqlanadi. Shayboniyxonning yagona she'rlar to'plami bo'lgan «Devon»i esa Turkiyaning Istanbul shahridagi To'pqopi Saroyi kutubxonasida saqlanadi. Bu asar haqidagi birinchi ma'lumotni tarixchi olim Zaki Validiy To'g'on 1927-yilda «Yangi Turkiston» jurnalining 1-sonida bosilgan «Shayboniyxonning she'rlari» maqolasida bergan. Muallifning bergan ma'lumotlariga qaraganda Shayboniyxon Shohbaxt, Shayboq, Shaybek, Sheboniy, Shohibek nomlari (taxallus)da ijod qilgan devoni 191 varaqdan iborat.

Shayboniyxondan so'ng kuchli va tartibli davlatga asos solgan Ubaydullaxon (1533–1540) davrida ham ilm-fan va madaniyat rivojlandi. U yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga e'tiqod qilib, shayx sifatida muridlar ham tarbiyalagan. Ubaydullaxon «Ubaydiy», «Ubaydulloh», «Qul Ubaydiy» (Qul Xoja Ahmadga, ya'ni Ahmad Yassaviyga taassub) taxalluslari bilan o'zbek, fors, arab tillarida ijod qilib devonlar yozgan.

Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an'anasini rivojlantirgan. Undan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan. Xon ijodida diniy-tasavvufiy g'oyalar yetakchilik qiladi. Ubaydullaxon o'zbek va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning bu 2 tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. Xususan, o'zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog'liq. Ubaydullaxonning musiqa ilmiga katta rag'bat bo'lgani, musiqiy asboblari chalgani, nozik husnixat egasi bo'lgani ma'lum.

Shayboniylardan Ko'chukchixonning o'g'li Abdullatifxon (?–1551)ning tarix, ilmi nujum borasida salohiyati juda yuqori bo'lgan.

Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdor Abdullaxon II hukmronligi davrida (1583–1598) Buxoro xonligida madaniy hayotida katta yutuqlarga erishildi. Ilm-fan, marifat va madaniyat homiysi sifatida Abdullaxon II «Xon» taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Shayboniylar davrida, ayniqsa bu sulola vakillardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro xonligi iqtisodiy va madaniy hayotida birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi. Adabiyot, tarix, tarjimonlik, lug'atchilik, me'morlik, naqqoshlik, tasviriy san'at va boshqa sohalar ravnaq topdi.

Shayboniylar davrida yaratilgan eng yirik adabiy va tarixiy asarlarga quyidagilarni aytish mumkin:

➤ «Shayboniynoma» – **Muhammad Solih** (1455–1535)ning o'zbek adabiyoti tarixida ilk realistik tarixiy jangnoma dostoni. 1506–1507-yillarda yozilgan. Doston 8880 misra, 76 bobdan iborat. XV asr oxiri–XVI asr boshlaridagi voqealar aks etgan bu asar tarixiy, etnografik, geografik, lingvistik jihatlardan ham, badiiyligiga ko'ra ham muhim ahamiyatga ega.

➤ «Badoe' ul-vaqoe'» – **Zayniddin Vosifiy** (1485/86–1551/66)ning asari. Asarda («Nodir voqealar», 1-qism, 1517–18; 2-qism, 1539) Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi 1532-yilgacha bo'lgan davrdagi ilmiy, adabiy, tarixiy va madaniy hayot aks ettirilgan.

➤ «Zubdat ul-osor» – **Abdulloh Nasrullohiy** (taxm. XV asrning 70-yillari – XVI asr o'rtalari)ning tarixiy asari. Taxminan 1533-yilda yozilgan.

➤ «Abdullanoma» – **Hofiz Tanish Buxoriy** (taxm. 1540–1589)ning tarixiy asari. Bu asar Movarounnahrning XVI asrdagi tarixiga bag'ishlangan. 1584–1590-yillar oralig'ida fors tilida yozilgan. Asar Buxoro hukmdori Abdullaxon II ga bag'ishlanib, «Sharafnomai shohiy» va qisqartirilgan ayrim nusxalari «Zafarnomai Abdullaxon» nomlari bilan ham ataladi.

Bu davrda lug'atlar ham tuzilgan. Masalan, 1593–1594-yillarda Amin Ahmad Roziy – «Haft iqlim» – «Yetti iqlim» nomli jug'rofiy, biologiyaga oid lug'at tuzadi. Unga Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilinadi.

O'tmishning noyob asarlari, ya'ni Rashiduddin Fazlulloh («Jome' at-tavorix») va Sharafiddin Ali Yazdiy («Zafarnoma»)ning tarixiy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Badiiy adabiyot sohasida ham yutuqlarga erishildi. Xususan, 1566-yilda Hasanxoja Nisoriy (1516–1597) Abdullaxon II ga bag'ishlangan «Muzakkiri ahbob» nomli tazkirasini yozdi. Bu asar Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» va Navoiyning «Majolis un-nafois» asarlaridan keyingi uchinchi tazkira deb hisoblanadi.

Musiqqa sohasida musiqashunos, shoir, bastakor – Kavkabiyy Najmiddin Buxoriy (?–1532) va boshqalar ijod qildi. Xattotlikda esa mashhur xattotlar Mir Ali Hiraviy, Ahmad Husayniy, Mir Husayn al-Husayniy, Sultonali Mashhadiy, Do'stmuhammad Buxoriy va boshqalar faoliyat ko'rsatdi. Tasviriy san'at yuksalib, Buxoro miniatura maktabi vujudga keldi. Kutubxonachilik sohasida Abdulazizxon va Abdullaxon II ga tegishli kitobxonalar o'z zamonasining eng yirik kitob xazinalari hisoblangan, ularda qo'lyozma asarlarni ko'chirish, ta'mirlash, ularga bezaklar ishlash bilan ham shug'ullanilgan.

Tibbiyot ilmi ham taraqqiy etdi. Tibbiyot ilmini rivojlantirishga XV asrning 2-yarmi va XVI asrning 1-yarmida yashab ijod etgan xurosonlik tabib, olim Sultan Ali Xurosoniy katta hissa qo'shgan. Ko'p yillik tajribalari asosida «Dastur ul-iloj» («Kasalliklarni davolash bo'yicha qo'llanma», Samarqand, 1526) va «Muqaddimayi dastur ul-iloj» («Kasalliklarni davolash bo'yicha qo'llanmaga muqaddima») asarlarini yozgan. Tibbiyot ilmi sohasida 1541-yilda Muhammad Husayn ibn al-Miroqiy Samarqandiy tibbiyot va farmakologiyaga oid ilmiy asar yozadi. U ko'z tabibi shoh Ali ibn Sulaymon Navro'z Ahmadxon huzurida ishlab kasalliklar haqida «Tabiblik dasturilamali» risolasini bitadi. Bu sohada mavlono Abdulhakim, Muhammad Yusuf va boshqalar ham faoliyat ko'rsatgan. Yirik shaharlarda shifoxona (dor ush – shifo)lar tashkil qilindi.

Ta'lim-tarbiyaga e'tibor kuchaydi, har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolalar olti yoshdan o'qishga qabul qilinadigan bo'ldi. Madrasalarda ilohiyotdan tashqari riyoziyot, faroiz, handasa, fiqh, she'r san'ati, mantiq, musiqa, xattotlik va boshqa fanlar o'qitildi.

Ashtarxoniyalar davridagi muttasil urush harakatlari madaniy hayot taraqqiyotiga katta to'siq bo'ldi. Diniy zo'ravonlik kuchaydi, dunyoviy fanlar o'rnini islom

aqidalari egallay boshladi. Lekin shunga qaramay adabiyot, san'at, musiqa va boshqa sohalarda bir qancha iste'dodli olimlar yetishib chiqdi.

Ashtarxoniylar davrida yaratilgan yirik adabiy va tarixiy asarlarga quyidagilarni aytish mumkin:

➤ «Bahr al-As-ror fi manaqib al-ahyar» («Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi») («Geografiya») – ensiklopedik tasnifdagi **Mahmud ibn Vali** (taxm. 1595–?)ning asari. Taxminan XVII asrning o'rtalarida yozilgan. Asarda dengiz, okean, daryo, qir, tog', buloq, mashhur portlar (bandargoh), shaharlar, mamlakatlar va ular hududidagi tabiiy muhit, hayvonot olami, ajoyibotlar haqida bayon qilinadi.

➤ «Ubaydullanoma» – **Mir Muhammad Amin Buxoriy** (1645 – ?)ning asari. Buxoro xonligining XVIII asr 1-choragi tarixiga oid bo'lib, 1716-yildan keyin yozgan.

➤ «Tarixi Abulfayzxon» – **Abdurahmon Tole'** (XVIII asrning 1-yarmi)ning asari. Bu asar XVIII asrning birinchi yarmidagi Turkistonning siyosiy ahvoriga oid qimmatli manba bo'lib, aniq ma'lumotlarga boy.

➤ «Subhonqulixon to'g'risida hajviya» – **Turdi** (XVII asr – 1699/1700)ning asari. 165 misradan iborat ushbu asar 1691-yilda yozilgan.

➤ «Muhit at-tavorix» («Tarixlar okeani») – **Muhammad Amin Buxoriy**ning asari. 1700-yilda yozilgan. Asar 10 bobdan iborat bo'lib, uning keyingi boblari somoniylar va ashtarxoniylar davrini o'z ichiga oladi. Asarda olimlar, xattotlar va naqqoshlar haqida noyob ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa, Subhonqulixon hukmronligi davrida (1680–1702) yuz bergan siyosiy voqealar va boshqa tarixiy jarayonlar yoritilgan.

Bu davrda adabiyot sohasidagi eng muhim yutug'i sifatida Mutribiyning (1558–XVII asrning 30-yillari) «Tazkirat ush-shuaro» nomli adabiyot antologiyasini aytish mumkin. 1605-yilda yozilgan bu qomusiy antalogiyada XVI asr 2-yarmi – XVII asr boshlarida O'rta Osiyo va Ozarbayjonda yashab ijod etgan 320 nafardan ortiq shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgan.

Musiqashunoslikda Darvishali Changiy («Risolai musiqiy») asarlari bizgacha yetib kelgan) va boshqa musiqashunos, bastakor, sozanda, hofizlar ijod qildi. Tibbiyot va me'morlik biroz taraqqiy etdi: ashtarxoniyatlardan Subhonqulixon Buxoroda maxsus shifoxona hamda tibbiyot kutubxonasi qurdirdi. Hashamatli binolar (Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Nodir devonbegi madrasasi, Bolohovuz masjid va b.) bunyod etildi. Maktab va madrasalarda asosan diniy fanlar, qisman adabiyot (Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil va b.) o'qitildi.



Mang'itlar sulolasidan bo'lgan Buxoro amirilar Shohmurod tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan «Ayn fi-hikmat» («Donishmandlik asoslari») asarini yozgan, hanafiya mazhabiga doir «Fatavayi ahli Buxoro» («Buxoro ahliga fatvolar») to'plamini tuzgan.

Mang'itlar hukmronligi davrida madaniy hayot yuqori darajada bo'lmadi. Badiiy ijodda madhiyabozlik va tarkidunyochilik mavzusi hukmron edi.

XVIII asr 2-yarmi va XX asr boshlarida quyidagi tarixiy-badiiy asarlar yaratildi:

➤ «Tuhfai xoniy» – **Muhammad Vafo Karminagiy** (1685–1769)ning asari;

➤ «Toj ut-tavorix» («Yilnomalar toji», 1800) – **Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqiy** (XIX asr)ning asari;

➤ «Fathnomai sultoniyy» («Sulton fathnomasi») – **Muhammad Mirolim Buxoriy** (XIX asr)ning tarixiy asari;

➤ «Tuhfai shohiy» («Podshohning tuhfasi», 1900–1902) va «Tarixi salotini mang'itiya» («Mang'it hukmdorlari tarixi» 1906–1907) – mang'itlar sulolasi tarixiga bag'ishlangan **Mirzo Abdulazim Somiy** (1839–1908)ning asarlari;

➤ «Navodir ul-vaqoe'» («Nodir voqealar») va «Tarjimai ahvoli amironi Buxoro» («Buxoro amirlarining tarjimai hollari») – **Ahmad Donish** (1826–1897) ning asarlari.

«To'tinoma», «Chor darvesh», «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhra», «Bo'z o'g'lon», «Yusuf va Ahmad», «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar xalq orasida keng tarqaldi. Xalq san'ati turlari – qiziqchilik, fonus xayol, dorbozlik taraqqiy etdi, musiqa ommaviy san'atga aylandi, tasviriy san'at ham ma'lum darajada rivojlandi (Abdulxoliq Maxdum va b.).

**Xiva xonligi.** Xiva xonligida ham adabiyot, tarixnavislik, xattotlik, musiqa san'ati, me'morlik va madaniyatning boshqa sohalarida muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan. Tabiiy va texnika fanlariga dunyoviy ilmlarga e'tibor deyarli qaratilmagan. Lekin bu bilan Xiva xonligida ta'lim tizimi past daraja degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Xususan, XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab va 103 madrasa mavjud bo'lgan. Xiva shahrining o'zida 22 ta madrasa bo'lgan.

XVI asrda Xiva xonlari saroy kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda Eshmuhammadxonga «Shohnoma»ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi. Xiva qo'lyozmalarida Buxoro qo'lyozmasidan farqli o'laroq, mundarija manzarali qilib bezatilmagan.



Xonlikda ko'plab shoir, tarixnavis, tarjimon, musiqashunos, xattot va ma'rifatparvar faoliyat ko'rsatib, ularning badiiy sohadagi asarlari o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos o'ringa ega. Bunga quyidagilarni aytish mumkin:

**Munis Xorazmiy** (taxallusi; asl ism-sharifi Sher Muhammad Amir Avazbiy o'g'li, 1778–1829)ning birinchi she'rlar devoni «Devoni Munis» (1804), asosiy adabiy merosi esa – «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar do'sti», 1815–1820) devoni. Shunidek, «Savodi ta'lim» (1804) she'riy risolasi ham bor.

**Ogahiy** (taxallusi; to'liq ism-sharifi Muxammadrizo Erniyozbek o'g'li, 1809–1874)ning lirik kulliyoti (asosiy asarlari to'plami) – «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori», 1872) bizgacha to'la yetib kelgan.

**Feruz** (Muhammad Rahimxon II, 1845–1910) mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida lirik she'rlar yaratgan. She'rlariga «Devoni Feruz» nomi bilan tartib bergan (1879).

**Komil Xorazmiy** (taxallusi; asl ismi Pahlavon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o'g'li, 1825–1899) «Dar bayoni ta'rif va tavsif Toshkand» («Toshkent ta'rifi va tavsifi bayonida») qasidasini bitgan. Bu qasida (1891, 1896–1897-yillarda yozilan) o'zbek adabiyotida ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan dastlabki yirik she'riy asarlardan bo'lib, unda yangi, zamonaviy madaniyat ulug'lanadi.

Komil Xorazmiy Sharq mumtoz shoirlari an'analari ruhida lirik she'rlar yozgan, devon tuzgan. Bu devonda 8000 misradan ortiq she'r bo'lib, ular g'azal, murabba, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, qasida, muammo kabi janrlarda yozilgan.

**Bayoniy** (taxallusi; asl ismi Muhammad Yusufbek Bobojonbek o'g'li, 1858–1923) mumtoz she'riyatning deyarli hamma janrlarida ijod qilib, Navoiy, Munis, Ogahiy an'analari davom ettirgan. Avaz O'tar bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. «Devoni Bayoniy» she'rlar to'plamini tuzgan.

**Rojiy** (taxallusi; asl ism-sharifi Muhammad Yusuf Mahzum ibn Xo'jamberdi, XIX asrning 30-yillari – XX asr boshi) mumtoz adabiyot an'analari ijodiy davom ettirgan, unga yangi mavzu va obrazlar olib kirgan. «Choy», «Bel og'riq», «Kelur», «Bois» va boshqa g'azallarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan, kishilarni saxovatpeshalikka, kamtarinlikka undagan. Uning 2000 misradan ortiq she'rlari 3 devoni bizgacha yetib kelgan.

**Mutrib Xonaxarobiy** (taxallusi; asl ismi Muhammad Hasan Hoji Tabib o'g'li, 1865–1925) ilk she'rlarini 1890-yilda yoza boshlagan. Uning bayoz, devon va majmualar orqali 14 ming misraga yaqin g'azal, muxammas, musaddas, qasidalardan iborat adabiy merosi yetib kelgan.

**Laffasiy** (taxallusi; asl ismi Hasanmurod Muhammad Amin o'g'li, 1880–1945) o'zining «Xiva shoir va adabiyotshunoslarining tarjimai hollari» tazkirasida xalq orasida mashhur bo'lgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Rog'ib, Feruz va Chokar kabi 51 nafar xorazmlik ijodkorning tarjimai holi va ijodi haqida ma'lumot bergan. Asarda Laffasiy o'z she'rlaridan ham namunalar keltirgan.

Xivalik olimlar, tarixchilarning o'z davri uchun o'zbek tarixshunosligiga qo'shgan eng katta hissalaridan biri shundaki, ular tilga olingan manbalarni o'zbek tilida yozganlar. Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon (1603–1663) yirik tarixchi olim sifatida «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima» asarlari bilan Xorazm tarixnavislik maktabini boshlab bergan bo'lsa, Munis Xorazmiyning «Firdavs ul-iqbol» («Baxtlar bog'i») asari va Ogahiyning «Riyoz ud-davla» («Saltanat bog'lari», 1844), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i», 1845–1846), «Jome' ul-voqeoti sultoniy» («Sultonlik voqealarini jamlovchi», 1857), «Gulshani davlat» («Davlat gulshani», 1865), «Shohidi iqbol» («Iqbol guvohi», 1872) va boshqa asarlari bilan tarixnavislik va tarjimonlik maktabini yaratdi. Xiva xonligida Bayoniy (1858–1923) ham faoliyat ko'rsatib, «Shajarayi Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi» nomli tarixiy asarlarini yozgan.

Bundan tashqari xivaliklar tarixshunoslikdagi tarjimachilik sohasida tahsinga loyiq ishlarni ro'yobga chiqarganliklarini aytib o'tish lozim. Chunonchi, Mirxondning «Ravzat as-safo», Yazdiyning «Zafarnoma», Xondamirning «Habib as-siyar», Vosifiyning «Badoye ul-voqoe'», «Tarixi Tabariy», Rashididdinning mashhur «Jome at-tavorix» (Ali sulton (vafoti 1571–1572) buyrug'i bilan), Binoiyning «Shayboniyнома», shuningdek, «Tarixi Muqimxoniy», «Taqobati Akbarshohiy», Mahdixon Astrobodyning «Tarixi Nodiriy», «Zubdat al-hikoyot», «Miftoh al-tolibin», «Axloqi Muxsiniy», «Nasihatnomayi Kaykovus» («Qobusnoma»), Sad'iyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», «Salomon va Ibsol» «Yusuf va Zulayho», Nizomiyning «Haft paykar», Xisraviyning «Hasht behisht», Hiloliyning «Shoh va gado», Nosiriyning «Ravzat as-safoyi Nosiriy», Darvish Ahmadning «Sahoyir al-axbor», mashhur arab tarixchilari Mas'udiy, Ibn al-Asr asarlari arab va fors tillaridan o'zbekchaga o'girilgan.

Musiqashunoslik sohasida, ayniqsa, Feruz va Komil Xorazmiyning ijodi muhim edi. Feruz Shashmaqom kuylarini o'rgangan, saroyda maqom ansamblini tuzgan. «Navo», «Dugoh», «Segoh» maqomlariga bog'lab kuylar yaratgan. Komil Xorazmiy Sharq mumtoz musiqasi, xususan, maqomchilik an'analarini rivojlantirishga homiylik qilgan, o'zbek kuylarini yozib olish uchun «Tanbur chizig'i» deb ataluvchi

nota tizimini joriy etgan. Bu o'ziga xos notada «Rost» maqomining bosh qismini yozgan. Mutrib Xonaxarobiy esa maqomchi-bastakor sifatida ham mashhur bo'lgan.

Xiva xonligida xattotlik sohasi ham muayyan darajada rivojlandi. Masalan, Munis Navoiyning «Mezon ul-avzon», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarlarini kitobat qilgan (1794, 1797). Ayniqsa, «Mezon ul-avzon»ni oldingi ayrim xattotlar yo'l qo'ygan xatolarni tuzatib, savodli ko'chirgan. Bu uning aruz ilmining xos bilimdoni ekanligidan ham dalolat beradi. XVII–XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Rojii, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi qator usta xattotlar ham yashab, mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko'chirganlar. Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etganlar. Bular – qog'oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvoh, lavha chizuvchilar, miniaturachi rassom va sahhoflar edilar.

Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda jami 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa mavjud bo'lgan.

**Qo'qon xonligi.** Xonlikning XVIII–XIX asrlar 1-yarmida kechgan madaniy hayotida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar va siljishlar yuz berib borganligi ayondir. XIX asrda Qo'qon xonligida tarixnavislik sezilarli ravishda o'sib borgan. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilindi va yangi kitoblar yozildi. Bu yangi asarlarning o'ziga xos xususiyatlari ham bor edi – ularning ayrimlari she'riy yoki qisman she'riy yo'lda yozildi. Bu esa qo'qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay, o'zlari ham she'riyatda qalam tebratganliklarini ko'rsatadi. Bunga misol qilib quyidagilarni aytish mumkin:

- **Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy** – «Tarixi jahonnomai» asari;
- **Fazliy Namangoniy** – «Majmuai shoiron» («Shoirlar majmuasi», 1821) asari;
- **Mushrif** (taxallusi; ismi Mirzo Qalandar, ?–1825) – «Shahnomayi nusrat-payom» («G'alabadan xabar beruvchi Shohnoma», 1822) asari;
- **Hakimxon to'ra** (1802–?) – «Muntaxab at-tavorix» («Yilnomalar to'plami») asari;
- **Niyoz Muhammad Ho'qandiy** (taxm. 1802/03–1878-yildan so'ng) – «Tarixi Shohruxiy» (1871–72) asari;
- **Shavqiy** (taxallusi; asl ism-sharifi Mulla Shamsi mulla Husan o'g'li, 1805–1889) – «Jangnomai Xudoyorxon», «Tarixi Ho'qand», «Pandnomai Xudoyorxon» va boshqalar.

XIX asr boshlarida shakllangan Qo'qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta o'rin tutgan. Qo'qon hukmdorlarining qator namoyandalari temuriylar an'anasini davom ettirib, o'zlari ham ilm-ma'rifat bilan shug'ullanib, bu sohani ravnaq topdirishga katta sa'y-harakat qilganlar. Ayniqsa, bunda Qo'qon xonlaridan Umarxon (1810–1822) va Muhammad Alixon (1822–1841) davrlari yaqqol ajralib turadi.

Qo'qon adabiy muhitini ravnaq toptirishda quyidagi shoirlarning xizmatlari benihoyat ahamiyatlidir.



**Mashrab** (taxallusi; asl ism-sharifi Boborahim Mulla Vali o'g'li, 1640–1711) – shoir va mutafakkir. Mashrab nomi XVIII–XIX asrlarda tuzilgan tazkira va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda (masalan, Bade Samarqandiyning «Muzokir ul-ashob» va boshqa.) zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda kam. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab, devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat «Devoni Mashrab», «Devonai

Mashrab», «Eshoni Mashrab», «Hazrati shoh Mashrab» nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi noma'lum) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi, shu jarayonda asarlaridan namunalar ham keltiriladi. Mashrab qoldirgan badiiy meros hajm va janrlar jihatidan hanuzgacha aniqlangan emas. Ammo bizga hozircha ma'lum asarlarining o'zi ham shoirning favqulodda noyob iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi.

Mashrab o'zbek adabiyoti tarixida eng ko'p mustazod yozgan ijodkorlardan biri. Shoir mustazodlari ham, xuddi g'azallari kabi, sho'x va jarangdor, nafis va zavqbxashdir. Mashrab fors tilida ham bir necha she'riy turlarda yetuk namunalarni yaratgan.

Mashrab qoldirgan adabiy meros to'la aniqlanib, o'rganilgan emas. Ba'zi tadqiqotchilar juda ko'p she'riy hikoyat va g'azallarni o'zida jamlovchi «Mabdai nur» nomli yirik asarni shoirga nisbat beradilar.

**Nizomiy Xo'qandiy** (taxallusi; asl ism-sharifi Nizomiddin Muhammadaminxo'ja o'g'li, XVII asr oxiri – XVIII asr boshi) – shoir. Buxoroda tahsil ko'rgan. Nizomiy Xo'qandiydan falsafiy mazmundagi «Majmuat ul-maqosid» («Maqsadlar

majmuasi») nomli kitob, 300 ga yaqin g'azal va muxammaslardan iborat she'rlar to'plami qolgan. Uning ayrim she'rlari toshbosma usulda bosilgan bayozlarda ham uchraydi. Nizomiy Xo'qandiy asarlarida o'z zamonidagi illatlarga nafrat ko'zi bilan qaraydi, insoniy tuyg'ularni, muhabbat va sadoqatni ulug'laydi. She'rlari ravon, sodda tilda yozilgan.

**Nozil Xo'jandiy** (taxallusi; ism-sharifi Avazmuhammad ibn Hojimuhammad, 1788–1876) – shoir. Dastlabki ma'lumotni Xo'jandda olgach, umrining oxirigacha Qo'qonda yashagan. O'zbek va tojik tillarida irod qilgan. Asarlarining mavzuyi boy va rang-barang. Hajviy asarlari Maxmur hajviyasiga hamohang. Hajviy she'rlarini «Hashviyotnoma» kitobiga jamlagan. Asar 3297 misra – 100 hajviy she'r: 49 muxammas, 33 g'azal, 12 musaddas, 3 ruboiy, 1 murabbdan iborat. Shularning 91 tasi o'zbek tilida. Ularda amaldorlar, makkor shaxslar, takabbur boylar, mayxo'rlik va bangilik tanqid qilingan. Nozil xalq maqollari va hikmatli so'zlarni to'plab, to'rtliklar yaratgan va ularni «Zarbulmasal» deb nomlagan. Asar o'zbek va tojik tillarida 3000 irsolul masal ruboiyni o'z ichiga olgan.

**Akmal Xo'qandiy** (Mulla Shermuhammad, XVIII asrning 1 yarmi – taxm. 1810) – o'zbek shoiri. Maxmurning otasi. O'zbek va tojik tillarida irod qilgan. Turli tarixiy voqealarga bag'ishlab she'rlar, shiru-shakar uslubida muxammaslar yozgan. Muhabbat va insoniylikni ulug'lagan, adolatsizlikni qoralagan, xalqni ma'rifatga chaqirgan. Tuzgan devonlari saqlanmagan. Turli bayozlar («Bayozi yangi», 1911; «Bayozi Muhallo», 1912; «Armug'oni Xislat», 1912)ga kirgan asarlari yetib kelgan.

**Umarxon** (1787–1822) – Qo'qon xoni (1810–1822), zullisonayn (2 tilni yoki muayyan adabiy til va uning dialektini mukammal bilish) shoir. **Amiriy** taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan «Majmuai shoiron» to'plamini tuzgan. O'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlarini to'plab, devon tartib bergan. Devoni g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'rni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy xodimlari tomonidan Umarxonning turli davrlarda ko'chirilgan 26 ta qo'lyozma devoni hisobga olinib, ularning ilmiy tavsifi berilgan. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo'lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari, litografik usulda chop etilgan devonlari va shoir she'rlaridan namunalar berilgan bayozlar bor.

**Gulxaniy** (taxallusi; asl ismi Muhammad Sharif, taxm. XVIII asrning oxiri – XIX asrning 20-yillari) – o'zbek mumtoz shoiri, masalnavis. Fazliy Namangoniy





Gulxaniyning «Ko'histon mulkidan» ekanligini ta'kidlasa, Voze' uni namanganlik, deydi. Gulxaniy Namangan va Qo'qonda yashagan, oz vaqt hammomda o't yoquvchi – go'lax vazifasida ishlagan (taxallusi shundan). Qo'qon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmatda bo'lgan (1801–10). Mustaqil mutolaa yo'li bilan mumtoz adabiyotni o'rgangan. Olimxon vafotidan (1811) so'ng taxtga o'tirgan Amir Umarxon (Amiriy) Gulxaniyni saroy shoirlari davrasiga jalb etgan. Shoir xonni maqtagan, uning g'azallariga naziralar bitgan. Umarxon vafotidan so'ng vataniga qaytib, ko'proq oddiy insonlarga manzur bo'luvchi she'rlar yoza boshladi. O'tli hajvlar yaratdi.

Gulxaniy o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan, Fazliy tazkirasida aytilishicha, u Jur'at taxallusi bilan ham she'r yozgan. Shu tazkirada uning 12 g'azali va bir qasidasi yetib kelgan. Bizgacha bir necha g'azalidan tashqari hajviyalari hamda «Zarbulmasal» («Yapaloqqush» hikoyasi) nasriy asari ham yetib kelgan. «Zarbulmasal» nafaqat o'zbek mumtoz adabiyoti, balki butun Sharq adabiyotining ham nodir namunasidir. Shoir unda xalq maqollari (400 ga yaqin maqol), sajlar (qofiyali nasr), masal va rivoyatlardan samarali foydalangan.

**Boqixon to'ra** (XIX asr boshlari – 1888) – o'zbek shoiri, tabib. Mumtoz she'riyatning turli janrlarida ijod qilgan. Qo'qonlik mashhur shaxslar vafotiga bag'ishlab qator tarixlar yozgan. Mushrifning «Ansob us-salotin va ta'vorixi xavoqin» («Sultonlar nasablari va xoqonlar ta'rixlari»), shoir va tabib Hokimiy (1850–1930) ning «Ta'rix ul-iloj» asarlarida Boqixon to'ra haqida qisqa ma'lumot uchraydi.

**Maxmur** (taxallusi; asl ism-sharifi Mahmud Mulla Shermuhammad o'g'li, ?–1844) – o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri. Shoir Mulla Shermuhammad Akmal Ho'qandiyning o'g'li. Mahmurning an'anaviy devon tuzganligi noma'lum. 1950-yilda Po'latjon Qayumov va Asqarali Charxiylar izlanishlari tufayli Qo'qonda Mahmurning o'zbek va forsiy tillardagi she'riy majmuasi topilgan. Maxmur asarlarining deyarli hammasi o'z mazmun va ruhiga ko'ra, hajviy va tanqidiy yo'nalishdadir. Maxmurning ko'pgina hajviy she'rlari zamonasidagi aniq shaxslarga qaratilgan: «Isqotiy», «Amakim», «Xo'ja Mir Asad hajvi», «Hajvi Atoyi poraxo'r», «Qozi Muhammad Rajab Avj sifatleri» va boshqalar.

Shoir qoldirgan adabiy meros ichida «Karimquli Mehtarning sifatleri» deb nomlangan masnaviy alohida o'rin tutadi. Maxmur zullisonayn shoir sifatida fors tili va she'riyatini mukammal bilgan. Bir qancha forsiy asarlar ham yaratgan.



Uning ijodiy faoliyati o'zbek mumtoz adabiyotida tanqidiy yo'nalishning, ayniqsa, hajviyotning taraqqiyotida navbatdagi yuqori bosqich bo'ldi. Maxmurning hajviy she'rlar devoni saqlangan, unda 69 asar (3417 misra) jamlangan, lirik asarlari esa bayozlarda uchraydi.

**Muntazir** (taxallusi; ismi Yusufqori, 1831–1889) – shoir. Muntazir o'zbek va fors-tojik tillarida yozgan zullisonayn shoir sifatida shuhrat qozongan. Mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida ijod qilgan, ko'proq g'azal, muxammas, muvashshah, ruboiylar yozgan. Ularda zamonadan shikoyat, erk va ma'rifat g'oyalari ifodalangan. Muntazirning «Bayozi Muntazir» she'rlar to'plami bizgacha yetib kelgan. Bayozga 800 misradan ko'proq she'rlari kirgan.

**Nodir** (taxallusi; ismi Muhammad Sharif, 1751-yil atrofi – XIX asr o'rtasi) – o'zbek va tojik tillarida ijod etgan «zullisonayn» shoir. U Nodir (Nodiriy), Uzlat (Uzlatiy) taxalluslarida she'r yozgan. Ba'zi she'rlarida Mahjur (Mahjuriy), Sharif (Sharifiy) taxalluslari ham uchraydi. Nodirdan boy adabiy meros qolgan. Uning devoniga g'azal, muxammas, mustazod, musaddas, tarjiband, tarkiband, ruboiy, masnaviy, tarix, o'lan kabi janrlarda yozilgan o'n uch ming misradan ortiq o'zbekcha va tojikcha she'rlar jamlangan. Bu to'liq devon Qo'qon adabiyot muzeyida 693-raqam bilan saqlanmoqda. Nodirning she'r bilan yozilgan «Haft iqlim» (Yetti iqlim) dostoni XVIII–XIX asrlar o'zbek adabiyotining muhim asarlaridandir. Unda xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotga xos an'analar aks etgan. Doston 1824–1825-yillarda yozilgan. Doston shoira Mohlaroyim Nodiraga bag'ishlab yozilgan.

**Fazliy Namangoniy** (taxallusi; asl ismi Abdulkarim, XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarmi) – shoir, adabiyotshunos. XIX asr boshlarida To'raqo'rg'on va Namanganda turli mansablarda ishlagan. Umarxon hukmronligi yillari (1810–1822) Qo'qonga kelgan. She'riy iste'dodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo'lib, tez orada saroy shoirlarining boshlig'i – «malik ush-shuaro» nomini olgan. Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, hukmronligi davridagi voqealarni «Umarnoma» dostonida tasvirlagan. Xon topshirig'iga ko'ra, Fazliy «Majmuai shoiron» («Shoirlar majmuasi», 1821) tazkirasini tuzgan. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she'riy yo'l bilan yaratilgan mazkur tazkirada XIX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitining 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma'lumotlar va asarlaridan namunalar mavjud. Shu jumladan, unda Fazliyning qasida va g'azallari, shoira Mahzuna bilan mushoirasi ham bor. Fazliyning «Devon» tuzgani ma'lum, ammo u topilmagan. Uning o'zbek va tojik tillarida yozilgan g'azal, masnaviy, muxammas, ruboiy va tuyuqlari turli majmua va bayozlarda uchraydi.

**G'oziy**, Muhammadg'oziy (XVIII asrning ikkinchi yarmi – taxm. 1818) – shoir. Akmal Xo'qandiyning yaqin do'sti. O'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Fuzuliyning o'ziga ustoz bilgan. She'rlarining mazmuni bilan ham, dunyoga, atrof-muhitga munosabatini ko'rsatishda, badiiy san'atlardan foydalanishda ham Fuzuliy yo'li, uslubini qo'llagan, uning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Ko'proq lirik g'azallar, ta'rix – she'rlar yozgan, devon tuzgan. G'oziy devonining 4 qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan.

Qo'qon adabiy muhitining yana bir muhim xarakterli jihati shundaki, bu davrda o'zbek va fors-tojik tilida bab-baravar qalam tebratgan bir qator taniqli va mashhur o'zbek shoiralari iste'dodi keng rivoj topdi.

### *Qo'qon xonligining mashhur shoiralari:*



**Uvaysiy** (taxallusi; ismi Jahon, 1779–1845) – shoira, ma'rifatparvar. Uvaysiy oilada xat-savodini chiqarib, avval xalifa, so'ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan she'riyat ilmini o'rgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. Uvaysiy, ayniqsa, aruzni, muammo (she'rda fikrni yashirib ifodalash) san'atini mukammal egallagan. Qo'qon adabiy muhiti bilan yaqinlashib, mushoiralarda qatnashgan. Saroyda Nodira va boshqa xotin-qizlarga she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. Dilshod otinning ma'lumot berishicha, Uvaysiy Nodira bilan Konibodom, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarga borgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullaxon Qo'qonni egallagach, Marg'ilonga qaytib,

umrining oxirigacha shu yerda yashagan.

Uvaysiy 4 devon tuzganligi ma'lum. Lekin bu devonlarning asl qo'lyozmalari topilmagan. U mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqalarning asarlariga muxammaslar bog'lagan. Shoiraning adabiy merosida 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bor. Ijodining g'oyaviy mavzu doirasi teran va ko'p qirrali.

Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Lirik she'rlaridan tashqari, uning «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» kabi liro-epik asarlari va «Voqeoti Muhammad Alixon»

kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liro-epik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan.

➤ **Zinnat** shoir(a), davlat arbobi, dodxoh. V.P. Nalivkin va M.S. Nalivkinlar «*Ocherki byta jenuin osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani*» nomli kitobida «Qo'qonda ikkita shoira yashagan, birining taxallusi Zinnat, ikkinchisi esa Mahzuna taxallusli. Ishontirishib aytishmoqdalarki, ulardan biri ochiq yuz bilan erkaklarcha kiyinib xon saroyiga kelar ekan va uning dodxoh unvoni ham bo'lgan. Ikkalasing ham g'azallari Umarxonni singari «Majmuat ush-shuaro» nomli she'rlar to'plamiga kiritilgan» deb yozganlar.

Qo'qon xonligi tarixida hozircha ma'lum bo'lgan ayol dodxoh (jabrlanuvchilar arzini amirga yetkazish va javobini olib berishga mas'ul shaxs)lardan faqat **Qurbonjon dodxohni** (1811–1907) bilamiz. Ammo Umarxon davrida tuzilgan «Majmuat ush-shuaro» nomli to'plamga uning g'azali kiritilganligini e'tiborga olsak u mahalda Qurbonjon yosh qizcha bo'lgan edi. Zinnat kim bo'lishidan qat'i nazar, uning yozgan she'r va g'azallari mazmundor va yetuk bo'lgan. Ushbu satrlar mualliflaridan birining shaxsiy kutubxonasida bir qo'lyozma bayoz kitob bor. Unga Zinnatning «Bahru odobki...» so'zlari bilan boshlangan she'ri kiritilgan. Bunda u insonni ulug'laydi, odob haqida falsafiy fikr yuritadi, hayotda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar haqida gapirib, ularning biror kun bartaraf bo'lishiga umid qiladi, xalqni esa quyoshga o'xshatadi.

➤ **Nodira** (taxallusi; ismi Mohlaroyim, 1792–1842) – shoira, ma'rifatparvar va davlat arbobi. «Komila» va «Maknuna» taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Otasi Andijon hokimi Rahmonqulbiy – ming qabilasidan, Farg'ona hukmdori Olimxonning tog'asi. Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va uni 1807-yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi, shoira Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush yo'ldoshi Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida ijod qilgan.



1822-yilda Umarxon vafot etib, uning o'g'li, 14 yoshli Muhammad Alixon (Ma'dalixon) taxtga ko'tarildi. Lekin davlatni, asosan, Nodiraning o'zi idora qildi. U madaniyat va san'atni rivojlantirishga intildi.

Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e'tibor bergan. Go'ristoni kalon (katta go'riston)dagi «Madrasai Chalpak», Taqagarlik

rastasidagi «Mohlaroyim madrasasi»ni bino ettirgan. Buxoro amiri Nasrullo 1842-yilda Qo'qonga bostirib kirib, Ma'dalixonni, ukasi Sulton Mahmudxonni, 14 yashar o'g'li Muhammad Aminxonni va Nodirani fojiali ravishda o'ldiradi.

Nodiraning adabiy merosi o'z g'oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtayi nazaridan mumtoz she'riyatning go'zal namunalaridandir.

Hozirda O'zbekiston FA Tarix muzeyi arxivida saqlanayotgan devonda Nodiraning «Komila» taxallusi bilan yozgan 19 (328 misra) g'azali borligi aniqlangan. 1962-yilda Namanganda shoiraning mukammal devoni topildi. Devonda shoiraning «Nodira» taxallusi bilan yozgan 180 she'ri jamlangan (shulardan 136 tasi o'zbek tilida, 44 tasi tojik tilida). Jumladan, 11 muxammas, 2 musaddas, 1 musamman, 1 tarji'band, 1 tarkiband va 1 firoqnoma ham bor. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida Nodiraning «Maknuna» taxallusi bilan yozilgan, 333 g'azaldan iborat bir devoni mavjud (inv. № 7766). Bugungi kunda biz Nodiraning o'zbek va fors-tojik tillarida yaratgan 10 ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz.

➤ **Mohzoda Begim** (XIX asr) – o'zbek shoirasi. Uning yashagan davri va tarjimai holiga oid ma'lumotlar kam saqlangan. Mohzoda Begimning «Jahona hitob» deb ataluvchi she'rini qo'qonlik ma'rifatparvar shoir Ibrohim Davron (1874–1922) bosmadan chiqargan «Ash'ori nisvon» («Ayollarning she'rlari», O'zR FA Sharqshunoslik instituti, inv №16704) kitobiga kiritilgan. Shoira bu she'rida o'z davridagi xotin-qizlarning ayanchli qismati, ularning huquqsizligi va mudhish hayotini tasvirlab, o'zi yashayotgan tuzumning adolatsizligidan shikoyat qiladi.

➤ **Dilshod otin**, Barno, Dilshodi Barno (taxalluslari; asl ism-sharifi Dilshod Rahimqul so'fi qizi, 1800–1905/06) – shoira va marifatparvar. Uning 91 ta o'zbekcha va 51 ta tojikcha she'ri, «Tarixi muhojiron» («Muhojirlar tarixi») badiiy-tarixiy asarining o'zbekcha va tojikcha 3 qo'lyozma nusxasi («Tazkirai Barno», «Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron» – «Inson matonati va muhojirlar tarixi», «Muntaxab al-ash'ori Barno» – «Barnoning tanlangan she'rlari») bizgacha yetib kelgan.

➤ **Mushtariy** (taxallusi; ismi Saodat, 1810/11–?) – shoira. Xudoyorxon saroyida kotibalik, munshiylik qilgan. She'rlarida kishilarni yaxshilik, kamtarlik, poklik va adolatga chaqirgan. Ijodida dostonchilik va qissanavislik yetakchi o'rinda turadi. Shoira xalq og'zaki dostonlarining yozma she'riy namunasini yaratgan. «Malikai Dilorom» dostoni og'zaki adabiyotdagi «Orzigul» dostoniga mazmunan yaqin.

➤ Mahzuna (taxallusi; asl ism-sharifi Mehribon mulla Boshmon qizi, taxm. 1811 – ?) – o'zbek shoirasi. Qo'qonning Qatag'on daha Mulla Boshmon mahallasidan bo'lib, otasi mahalla masjidi imomi Mulla Boshmon Oxunddir. Otanasi qo'lida savod chiqargan, arab, fors tillarini mukammal o'rgangan. Navoiy, Jomiy, Fuzuliy va boshqalarning ijodidan ta'sirlangan, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. Hayoti va ijodi haqida «Majmuai shoiron» (Fazliy), «Tazkirat ushshuaro» (Hashmat) tazkiralarda ayrim ma'lumotlar uchraydi. Fazliy tazkirasida Mahzunaning oqila va hozirjavoblighi, Qo'qonda mashhur shoira ekanligi aytilgan. Uning she'riy qobiliyati, shaxsiy fazilatlariga haqida eng ko'p va iliq fikrlar yozib qoldirgan yagona shoir hozircha Fazliydir. Fazliy: «Garchi ul zaifa bo'lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir», deydi. Fazliy bilan Mahzunaning mashhur mushoirasi, «Oshiq bo'lmisham» (o'zbekcha) muxammasi, «Sahbo» (forscha) g'azaligina bizgacha yetib kelgan. Devoni saqlanmagan.

Qo'qon adabiy muhitining samarali ta'siri o'laroq bu yurtdan keyinchalik Muqimiy (1850–1903), Furqat (1859–1909), Zavqiy (1853–1921) va boshqa yetuk badiiy so'z san'atkorlari yetishib chiqdilar va o'z xalqining erki, hurligi va ozodligi uchun xizmat qildilar.

Umuman olganda, XIX asrning o'rtalariga kelib, O'rta Osiyo xonliklarida adabiyot va tarixshunoslik bilan bir qatorda matematika, tibbiyot, geografiya, astronomiyaga oid hamda diniy asarlar yaratildi. Bu xonliklarda miniatura va xattotlik san'ati ham o'z o'rniga ega. Bu davrning madaniy hayotida dorbozlik, askiya, qo'g'irchoq teatri, masxarabozlik, ayniqsa, bastakorlik birmuncha rivojlandi.

Bu davrda Xiva va Qo'qon xonliklar musiqa va qo'shiqchilik san'atida puflab yoki urib chalinadigan, torli musiqa asboblari, milliy qo'shiqchilik, milliy raqs aholi o'rtasida keng tarqalib bordi. Qo'shiqchilikda terma, lapar, yalla, maqom janrlari keng qo'llanilardi. Hofizlar, baxshi dostonchilar xalq tomonidan e'zozlanar edi. To'y va sayillarda «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Shohsanam va G'arib», «Tohir va Zuhra» kabi o'zida vatanparvalik, mardlik, sevgi, mehr, insof va diyonat g'oyalarini mujassamlashgan dostonlar zo'r maroq bilan kuylanar va tinglanar edi. Shuningdek, xalq orasida o'zbek an'anaviy teatr turi qiziqchilik teatri (ayniqsa, Farg'ona vodiysi va Toshkentda), masxarabozlik, askiyabozlik, qo'g'irchoq o'yini, dorbozlik san'ati ham keng tarqalgan edi.

Shunday qilib, XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyo o'zbek madaniyati tarixiy-geografik hududdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumga mos ravishda rivoj topdi. Feodal tarqoqliklar, o'zaro urushlar, ixtiloflar, tabiiyki, bunga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.



Bu davrga kelib, avval fors-tojik turkiy xalqlar og'zaki ijodi va ikki tillik asosida mavjud bo'lgan san'at turlarida endi mahalliy xususiyatlar ajralib chiqqa boshladi.



#### 4. XIX asrning birinchi yarmida xonliklarning geosiyosiy o'rni, davlat boshqaruvi tizimi va ijtimoiy-siyosiy hayot.

**Buxoro amirligi.** Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqeyiga ega edi. XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etardi.

Amirlikning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'lari, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni ishg'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari,



hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kafarnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoro Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Karmina, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

Buxoro amirligi 27 beklik mavjud bo'lib, har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar – beklar idora qilardi. Hokim huzurida yuzlab mahalliy ma'murlar xizmat qilardi. Manbalar amirlikda mahalliy ma'murlar shtati 30 ming kishini tashkil etganligidan guvohlik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olingan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishardilar.

<i>№</i>	<i>Buxoro amirligida faoliyat ko'rsatgan bekliklar</i>				
1	Karmana	10	G'uzor	19	Darvoz
2	Xatirchi	11	Boysun	20	Baljuvon
3	Ziyovuddin	12	Sherobod	21	Sho'g'non-Rushon
4	Nurota	13	Denov	22	Qo'rg'ontepa
5	Qarshi	14	Karki	23	Qobodiyon
6	Kitob	15	Chorjuy	24	Kalif
7	Shahrisabz	16	Xisor	25	Bo'rdalik
8	Chiroqchi	17	Ko'lob	26	Qoboqli
9	Yakkabog'	18	Qorategin	27	Norazm

Buxoro amirligi monarxiya tipidagi davlat bo'lib, amir cheklanmagan hokimiyatga ega edi. XIX asr boshlariga kelganda, amirlikda xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllandi. Faqat amir saroyining o'zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Bu tabaqa davlat xazinasidan maosh olar, amirga batamom qaram bo'lib, ularni amirning o'zi tayinlar yoki egallab turgan lavozimidan olib tashlar edi.

№	Amirlikdagi eng katta saroy mansablari va unvonlari	
1	<b>Qushbegi</b>	Dargoh vaziri, ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etar edi. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qushbегining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qushbegi xon istiqomat qilib turgan arki oliyda turar edi.
2	<b>Devonbegi</b>	Xonlikning moliya – xazina ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarning undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegi amalga oshirgan. Devonbegi arki oliyning bir chetida yashagan. Devonbegi idorasi arkdan pastda joylashgani uchun uni quyi qushbegi deb ham atashgan.
3	<b>Ko'kaldosh</b>	«Xon bilan bir onadan sut emgan kishi». Butun amirlik hududida amirga va amirlikka nisbatan do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plab hukmdorga yetkazib turgan. Ya'ni mamlakat ichki xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor.
4	<b>Mushrif</b>	Lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olish bilan mashg'ul bo'lgan. Soliq tushumlarini ham maxsus daftarga yozib borgan.
5	<b>Mirshab</b>	Tungi qorovullar boshlig'i vazifasini bajargan.
6	<b>Dodxoh</b>	Fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi mansabdor bo'lgan, bularni kerak bo'lsa xon yoki qushbegiga yetkazib turgan.
7	<b>Inoq</b>	Bu lavozimda ishlagan amaldorlarning vazifasi amir farmoyishlarini bek va boshqa tabaqadagi mahalliy mansabdorlarga yetkazishdan iborat bo'lgan.
8	<b>Miroxo'r</b>	Amirning ovchi qushlarini tasarruf qiluvchilar ustida turgan, xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo'lgan.
9	<b>Dasturxonchi</b>	Amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.
10	<b>To'qsobo</b>	Amirtug'i sohibi bo'lgan harbiy mansabdor. U oliy hukmdor – davlat bayroqdori hisoblansa-da, tantanali marosimlarda ishonchli shaxs sifatida hukmdor oldiga taom tortish kabi mas'uliyatli tadbirlarni ham bajargan. Shu bilan birga unga biron-bir tuman (daromad manbayi sifatida) ham birlashtirib qo'yilgan. Ammo XIX asrga kelib esa mazkur lavozim egasi xuddi dodxoh kabi harbiy vakil darajasiga ko'tarilgan.
11	<b>Parvonachi</b>	Biror shaxsning biror lavozimga tayinlanganligi haqidagi yorliqni o'sha shaxsga yetkazuvchi amaldor.

12	<b>Sadrlar</b>	Vaqf mulklarini boshqaruvchi mansabdorlar. Vaqf muassasasining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayd etib qo'yilgan. Sadrlar vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini olardilar.
13	<b>Shayxulislom</b>	Musulmon jamoasi boshlig'i. Qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi amaldor. Bu lavozim avloddan avlodga meros bo'lib ham o'tgan. Katta qozi (Qozi kalon) Davlatning oliy qozisi (sudyasi). Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozi kalon «Shariat panoh» deb atalardi. Qozi kalon huzurida a'lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni har tomonlama ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan.
14	<b>Muftiy</b>	Qozi kalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha, shariat qonunlariga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqarardi.
15	<b>Otaliq</b>	Amaldorlarga amir nazariga tushgan xizmatlari uchun berilgan unvon. Otaliq asosan Samarqand va Buxoro, ya'ni amirlikning markaziy qismini sug'orish ishlari, suv taqsimoti bilan bog'liq tadbirlarga boshqosh bo'lgan. Xonning, uning o'g'illarining ham otalig'i bo'lgan.

Xon yig'inida amaldorlarning amaliga qarab o'rni bo'lar edi. Shunga ko'ra ular xonning o'ng va so'l tomonida, unga yaqinroq va uzoqroq yerda o'tirardilar. Ba'zilar o'tirishar, ba'zilar esa tik turishardi.

Amirlikda amaldorlardan tashqari diniy ulamolar ham hukmron mavqega ega edi. Ular o'zlarini Muhammad payg'ambarning avlodlarimiz deb hisoblovchi sayyidlar hamda choriyor halifalar – Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlaridanmiz deyuvchi xo'jalardan iborat edi. Ular katta yer-suvga, savdo do'konlariga, hunarmandchilik ustaxonalariga ega edilar. Amirlikda jo'ybor shayxlari alohida mavqega ega bo'lib, XIX asrda ular Buxoroda 16 mahalla bo'lib yashardi.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilardi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300–350 ming, Qashqadaryo vohasida – 500 ming, Surxondaryo vohasida – 200 ming, Sharqiy Buxoroda – 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari – Buxoroda – 60 ming, Samarqandda – 50 mingga yaqin nufus istiqomat qilardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 % o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'iro't, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilargan edilar.

Aholining aksariyat qismi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, jo'xori ekilib, bog' va poliz mahsulotlari ham yetishtirilgan. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l yetishtirish; hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moyjuvuzlik, sovungarlik keng rivojlangan.

### Xiva xonligi. XVI–XIX asrlar davomida

Xiva xonligi hududlari doimo o'zgarib turgan. Dastlab xonlik hududi Xorazm vohasidagina joylashgan bo'lsa, keyinchalik uning chegarasi kengaygan. Xonlik janubda Eron, Sharqda Buxoro amirligi, G'arbda Kaspiy dengizi, Shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Ruslar bosqinidan keyin Amudaryoning chap qirg'og'ida 62237,2 km<sup>2</sup> yer maydoniga ega kichik vassal davlatga aylanib qolgan.

Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi



Chimboy shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri ikki qism – Ichan qal'a (shaharning ichki qismi – Shahriston) va Dishan qal'a (shaharning tashqi qismi) dan iborat edi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. Xivaning rabod qismi Dishan qal'a 1842-yil Olloqulixon davrida (1825 – 42) baland devor o'rab olingan. Dishan qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.



XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligining ma'muriy-hududiy jihatdan bo'linishi viloyat deb atalgan bo'lsa, XVIII asrdan bekklik deb atala boshlagan. Dastlab xonlikda 16 ta viloyat, 2 ta noiblik bo'lgan bo'lsa, keyinchalik xonlikda 20 ta bekklik, ikkita noiblik mavjud edi. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan ko'p mansabdorlar bo'lgan. Bu noiblik va bekkliklarni xon tayinlaydigan beklar va noiblar boshqarar edi.

Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq)ning izmida bo'lgan. Xiva shahri shaxsan xonning va qushbegining izmida bo'lgan. Shahar ichki tartiblari va osoyishtaligi mirshabboshi, jinoiy ishlarni ko'rish va jazo tayinlash shahar qozisi, poytaxtni tasodifiy hujumlardan himoyalash to'pchiboshi va Ichan – qal'a, Dishan – qal'a kutvoli zimmasida bo'lgan.

<i>№</i>	<i>Xiva xonligi faoliyat ko'rsatgan bekklik va noibliklar</i>				
1	Xazorasp	7	G'azovot	13	Urganch
2	Gurlan	8	Qiyot (Kat)	14	Xo'jayli
3	Xonqa	9	Shobboz (Shohabboz)	15	Shumanay
4	Ko'hna Urganch	10	Shovot	16	Qo'ng'iro't bekkliklari
5	Qo'shko'pir	11	Toshhovuz	17	Beshariq
6	Pitnak	12	Ambar – maniq	18	Qiyot–Qo'ng'iro't noibliklari

Xonlikda davlat tili o'zbek tili bo'lib, Buxoro va Qo'qondan farqli o'laroq barcha farmonlar, davlat hujjatlari faqat o'zbek tilida yozilgan.



O'rta Osiyodagi qo'shni davlatlar singari Xiva xonligi ham monarxiya tipidagi davlat edi. Davlat tuzumi Buxoro amirligiga o'xshardi. Oliy hokimiyat xon qo'lida bo'lib, uning huquqi chegaralanmagan – hokimi mutlaq edi. Xiva xonligi boshqaruv tizimi, asosan, Buxoro va Qo'qon xonliklaridek bo'lib, farqi, XIX asr boshlaridan xon huzurida Kengash (Devon) bo'lgan. Eng yuqori amaldorlardan tashkil topgan kengash vakolati cheklangan. Asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, amaldorlarning xonlik boshqaruvidagi mavqeyi baland edi.

Saroyda otaliq, rais, qozikalon, shayxulislom, mirobboshi, mirshabboshi, to'pchiboshi, yasovulboshi kabi mansabdorlar xon xizmatida bo'lgan. Devonbegi xonning oliy devonini idora qilgan. Xazinachi xonlikning kirim va chiqim hamda sarf-xarajatlarini yuritir, bu haqda xon yoki qushbegiga hisob berib turar edi. Saroyda mirzaboshi, munshiy, maxramboshi kabi mansabdorlar ham bo'lgan.

Mansab va unvonlar harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy toifalarga bo'lingan. Xonlikdagi eng katta mansab va unvonlar *inoq, otaliq, biy* hisoblangan. Bunday lavozimga ko'tarilganlar xonga eng yaqin kishilar bo'lib, ular soliqlardan ham ozod qilinganlar. Bunday lavozimga tayinlanganlar xon farmoni orqali e'lon qilingan va ularning qo'liga yorliqlar berilgan.

Inoq, otaliq, biy, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi va boshqa unvon va mansablar xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, harbiy hayotida muhim o'rin tutgan. Xonlik sud ishlari, asosan, diniy ulamolar qo'lida bo'lib, ularning mamlakat hayotida ta'siri kuchli bo'lgan.

Aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismda, kanal bo'ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rt dan birini) turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha so'zlashuvchi mahalliy xalqlar va o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi.

Xiva xonligida qulchilik rasmiy jihatdan hamon mavjud edi. Dishan qal'ada qul bozori bo'lib, sotilguncha qullarni ushlab turuvchi maxsus bino mavjud edi. Qul savdosi ayrim toifadagi odamlar uchun daromadli edi, qul sotish bilan ko'proq turkmanlar shug'ullanardi. Ular Eron, Afg'oniston, Badaxshonga hujum qilib, qishloq aholisini qul qilar, bozorda sotardi.





**Qo'qon xonligi.** XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik shimolda Rossiya bilan (o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari zonasi), sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan.

Qo'qon xonligining janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan.

Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, Uzgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligi 15 beklik (harbiy okrug)ga, ya'ni, *Baliqchi, Novkent, Buloqboshi, Aravon, Koson, Maxram, Sux, Bobodarxon, Xo'jant, O'ratepa, Andijon, Namangan, Turkiston, Toshkent* va boshqa bekliliklariga bo'lingan. Bekliklarning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Bekliklardagi mahalliy hokimlar o'z bekliliklarida cheklanmagan huquqqa ega edilar. Beklar hokim yoki parvonachi deb atalgan. Qo'qon xonligida beklar *begi* hisoblangan. Toshkent *begi yoki qush begi* ham deyilgan va u o'z qo'li ostidagi

yerlarga to'liq hokim bo'lib, hatto xorijiy davlatlar bilan diplomatik va iqtisodiy munosabatlar o'rnatish huquqiga ega bo'lgan.

Qo'qon xonligidagi hokimiyatni boshqaruv tartiblari Buxoro va Xiva xonliklaridagidan deyarli farq qilmagan. Bu yerda ham xon cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, o'zining xohish-irodasiga ko'ra ish yuritgan. Vazir xondan keyingi ikkinchi shaxs hisoblanib, muhim masalalar bo'yicha hukmdor bilan kelishgan holda ish olib borgan. Oliy, o'rta va quyi ma'muriy boshqaruvda quyidagi mansablar mavjud edi: *qushbegi, otaliq, devonbegi, mingboshi, shayxulislom, qozikalon, parvonachi, shig'ovul, sarkor, inoq, dasturxonchi, amin, yasovul, oqsoqol...* *Mingboshi yoki otaliq* oliy harbiy unvon hisoblangan. Saroy qoshida maxsus kengash tuzilgan bo'lib, unga eng oliy mansab vakillari kiritilgan. Xon kengashning raisi va faoliyatini belgilovchi shaxs hisoblangan. Qo'shinda mingboshi, beshyuzboshi, yuzboshi va o'nboshi lavozimlari bo'lgan. Uning muayyan qismi muntazam xizmatni o'tab, ko'pchiligi tinchlik paytida dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa ishlar bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan harbiy unvonlar quyidagicha bo'lgan: mingboshi – odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o'nboshi, zambarakchi va boshqalar. Bulardan tashqari, boshqa harbiy mansablar ham bo'lgan. Qo'qonda yashagan sarboz va to'pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodxohning doimiy tasarrufida bo'lganlar. Urush davrida noib, dodxoh o'z qismiga harakatdagi qo'shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan, unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan amiri lashkar (bosh qo'mondon)ga topshirardi.

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar. Xonlikda tojiklar va qirg'izlar katta mavqega ega edilar. Xon qo'shinlarida ular katta kuch bo'lganlar. 92 o'zbek qabilalaridan biri deb o'zlarini hisoblovchi qipchoqlarning o'rni ham Qo'qon xonligida ancha katta bo'lgan. Ular xonlikning Shahrixon, Baliqchi hududlari, Qoradaryo bilan Norin daryosi oralig'idagi yerlarda yashaganlar. Qirg'izlar esa asosan Farg'ona atrofidagi tog'larda va Ketmontepa, Oloy singari tog' havzalarida ko'chib yurib chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

**5. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketish oqibatlari.** XVI–XIX asrlarda Vatanimiz hududidagi xalqlar hududiy tarqoqlik xo'jalik va iqtisodiy tushkunlik holatida bo'lsalarda fan, madaniyat taraqqiyotida bir qator ijobiy yutuqlar va salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu bilan ular jahon madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib ulushlarini qo'shdilar. Biroq XVII–XIX asrlarda O'rta Osiyo va undagi davlatlar jahon sivilizatsiyasi jarayonidan tobora chetlashib, rivojlanish jihatidan ilg'or davlatlardan orqada qoldi.

Ma'lumki, XVII–XIX asrlar jahon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri bo'lib kirdi. Xususan, G'arbiy Yevropadagi bir qator davlatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi, zavod-fabrikalar qurilib, yangi texnik uskunalar bilan jihozlandi, temir yo'llar qurildi, dengiz yo'llari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi ko'tarildi. O'rta Osiyo xonliklari ana shunday ijobiy jarayonlardan chetda qoldi, qoloqlikka yuz tutdi.

Bunday ahvol yuz berishiga bir qancha tashqi va ichki omillar sabab bo'ldi:

*Birinchi*dan, asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning uchga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasidagi to'xtovsiz o'zaro urushlar, talon-torojlar, har bir xonlik ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, boshboshdoqlik va hokimiyat uchun o'zaro tinimsiz davom etgan ichki nizo va urushlar butun mamlakatni va xalqni qashshoq, nochor holga olib keldi. Natijada hurfiylikka putur yetib, xurofot va diniy mutaassiblik uchun qulay sharoit yaratdi. Bu jarayon guruhbozlikni keltirib chiqaradi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq bo'lib qovushishiga, jipslashishiga xalaqit beradi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi.

*Ikkinchi*dan, O'rta Osiyo davlatlarining asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlat boshqaruv usuli, tizimi, tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga g'ov bo'lib keladi.

*Uchinchi*dan, XV asrning oxiri XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar natijasida XVII–XVIII asrlarga kelib dunyo savdo yo'llari yo'nalishining o'zgarishi O'rta Osiyoda xalqaro savdo aloqalarining asta-sekin so'nishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon Shayboniylar davrida boshlangan bo'lsa, Ashtarxoniylar hukmronligi davriga kelib, ayniqsa, O'rta Osiyo davlatlari iqtisodiy hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, o'zbek xonliklari o'rtasida ichki iqtisodiy va savdo birligi shakllanmadi. Natijada bu davlatlar hududlarida yashagan xalqlar o'rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona vatan his-tuyg'usi shakllanmadi. Aksincha, bunday

olijanob his-tuyg'ularning rivojlanishi va kamol topishiga to'sqinlik qilindi. Bu XVII–XX asrlarda O'rta Osiyoda iqtisodiy va siyosiy hayot turg'unligining eng asosiy sabablaridan biri edi.

**To'rtinchidan,** Yerning asosiy egasi ilgorigidek oliy hukmdorligicha qoldi. Yer barcha boylklarning manbayidir. Unga bo'lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. O'rta Osiyo xonliklarida mulk shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar mobaynida o'zgarmadi, yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarishsiz qolaverdi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan bir egasi bo'lib, yer ishlovchilarga dehqonlarga ijara tarzida hatlab biriktirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan hosilning egasi edi xolos. Shu bois, dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmadi. Hukmdor yerni foydalanish uchun mahalliy yer egalari va masjidlarga ulashardi.

**Beshinchidan,** xonliklarda sanoat rivojiga e'tibor kuchaymadi. Oltinugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi boylklarga serob konlar bo'lsa-da, ularni qazib olish, tog'-kon ishlarini rivojlantirish kabi masalalar hal qilinmadi.

**Oltinchidan,** tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste'mol va qo'shin xarajatlarini zo'rg'a qoplab, kapitalga aylanmadi. Pul, oltin, kumush xon va amaldorlarning xazina to'plash manbayi bo'lib qolgan edi.

**Yettinchidan,** xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

**Sakkizinchidan,** bir necha asrlar davomida saqlanib kelgan ishlab chiqarish usuli XVI–XVIII asrlarga kelib sifat jihatidan o'zgarmadi. U esa iqtisodiy hayotga, u orqali esa butun ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, Turkistonni an'anaviy turg'un munosabatlar hukmron bo'lgan jamiyatga aylantirdi.

**To'qqizinchidan,** XIX asr ikkinchi yarmida Vatan istiqboli uchun qayg'uradigan, odamlarni bir g'oya va bir ezgu maqsad yo'lida birlashtira oladigan hamda ortidan yergashtira oladigan yo'l boshchi – sardor bo'lmadi. Buxoro amirligida ham, Qo'qon va Xiva xonliklarida ham shunday arbob tarix sahnasiga chiqmadi. Bosqinchilarga ko'ksini qalqon qilib ko'hna Turon jangovar shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umummilliy makon, uy deb bilgan yurtboshi topilmadi.

Xullas, O'rta Osiyodagi yuqorida tavsiflangan omillar, bu yerdagi iqtisodiy va harbiy tang holat o'ziga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni o'z mustamlakasiga aylantirish siyosatini avj oldirayotgan Rossiya imperiyasiga juda ham qo'l keldi.

Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy qoloqlik, parokandalik, o'zaro nizo va urushlar pirovard natijada O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishiga olib keldi.

**11-MAVZU: Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi.  
Imperiya istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.  
Jadidchilik**

*Reja:*

1. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi.
2. Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi.
3. Imperiya istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.
4. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va jadidlarning faoliyati.

*Tayanch so'z va iboralar:* Rossiya harbiy ekspeditsiyalari. Angliya – Rossiya raqobati. Harbiy istehkomlar. Oqmasjid qal'asi. Toshkentga hujum. Mulla Alimqul. Turkiston general-gubernatorligi. Fon Kaufman. Zirabuloq jangi. Samarqand qo'zg'oloni. Vassal. Xivaga yurish. Gandimiyon shartnomasi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Po'latxon qo'zg'oloni. Mustamlaka boshqaruv tizimi. Toshkent qo'zg'oloni. Dukchi eshon. 1916-yilgi qo'zg'olon. Jadidchilik harakati. Yangi usul maktablari. Jadidchilik harakatining yetuk siymolari.

*Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Асарлар, 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. *Абдулла Қодирий.* Ўткан кунлар. – Т.: Фафур Фулом, 1993.
4. *Алиев А.* Махмудхўжа Бехбудий. – Т.: Ёзувчи, 1994.
5. Жаидчилиқ: ислохот, янгиланиш, мустикаллиқ ва тараккиёт учун кураш. – Т.: 1999.
6. *Зиёев Ҳ.* Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураши. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 360–363.
7. *Зиёев Ҳ.* Ўзбекистон мустамлақа ва зулм исқанжасида. – Т.: Шарқ, 2006.
8. Исмоилбек Гаспринский ва Туркистон. Масъул муҳаррир Наим Каримов. – Т.: Шарқ, 2005.
9. *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. I-қисм. – Т.: 2002. – Б. 234–243; 249–254.
10. *Фозилбек Отабек ўғли.* Дукчи Эшон воқеаси. – Т.: 1992.



11. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 415–461.
12. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI–XX аср бoshлари). К.2. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 184–203; 225–253; 266–302.
13. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 221–343; 259–318; 426–444.
14. Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 128–172.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1,2,3 ... жилдлар.
16. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 335–359.
17. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспарали. – Т.: 1992.
18. Usmonov Q. Ozbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – Б. 218–247.
19. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI–XX asr boshlari); К.2 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – Т.: Sharq, 2010. – Б. 149–344.
20. Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. – Андижон тарихлари фан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. – Б.121–153.

**1. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi.** Rossiya podsholari Turkiston yerlarini bosib olish borasidagi g'arazli maqsadlarini hali o'lkada shayboniylar hukmronlik qilgan davrlardan boshlagan. Xususan, Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir va O'rta Osiyo ustidan hukmronlik qilish rus podsholarining azaliy va asriy orzusi bo'lgan. Bu orzuni amalga oshirishni «Грозный» («Dahshatli») laqabi bilan atalgan Ivan IV (1530–1584)ning o'zi boshlab beradi. U 1552-yili Qozon va 1556-yilda Ashtarxon (Astraxan) xonliklarini bosib oladi. Sibirni bosib olish 1581-yildan boshlandi va u ham zabt etilgan. Rus davlati O'rta Osiyo mintaqasini bosib olishdan oldin, bu yerdagi mavjud xonliklar haqida keng ko'lamda josuslik ma'lumotlarini to'plashga kirishadi. Shu maqsadda «Moskva savdo kompaniyasi» deb atalgan tashkilotning vakili Antoniy Jenkinson (?–1611) boshchiligidagi elchilarning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Jenkinson boshliq elchilar (Rishard va Robert Jonsonlar hamrohlik qilgan) 1558–1559-yillarda Buxoroga yuborilib, josuslik ma'lumotlari to'plangan. Rossiya hukumati XVII asr davomida O'rta Osiyoga 9 marta elchi yuborgan. Masalan, 1620–1622-yillarda Buxoro xoni Imomqulixon huzuriga boyar Ivan Danilovich Xoxlov boshchiligidagi diplomatik missiya yuborilgan. Ushbu missiyalar asosida Buxoro va Xiva xonliklarining iqtisodiy va harbiy ahvolini o'rganadi va josuslik ma'lumotlari to'planadi.

Biroq Turkistonni Rossiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan to'g'ri amaliy ochiq harakat Pyotr I (1672–1725) davridan boshlanadi. Harbiy tarixchi K. Abaza «Завое-



вание Туркестана» (SPb, 1902) asarida yozishicha, Pyotr I Hindiston boyliklariga suqlanib qarayotgan edi. U faqat qulay vaziyatni kutardi. Bunday vaziyatni 1714-yilda turkman zodagonlarining vakili Xo'ja Nafas Peterburgga borib, Amudaryoda oltinli qumlarning ko'pligi to'g'risida bergan ma'lumoti tezlashtiradi. Oltin va boylik vasvasasi natijasida XVIII asrning boshlariga kelib Rossiyaning Sharqqa bo'lgan qiziqishi ortgan va Pyotr I 1714–1717-yillarda Aleksandr Bekovich – Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga harbiy ekspeditsiya jo'natgan. Xiva xoni Sherg'ozixon (1714–1728) Qayrag'och darasidagi ochiq to'qnashuvda katta talafotga uchragach, harbiy hiyla ishlatib, rus qo'shinlarini 5 ta shaharga bo'lib yuborgan va ularni alohida-alohida qirg'in qilgan.

Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasida dushmanlik vaziyati kuchaydi. Pyotr I O'rta Osiyo yerlariga bo'lgan o'z tajovuzkorligidan voz kechmadi. U Buxoroga elchi sifatida (josuslik maqsadlarida) 1718-yilda italiyalik Florio Beneveni (? –?) jo'natadi. Beneveni Kavkaz va Eron orqali Buxoroga 1721-yilning 6-noyabrda yetib kelgan. U bu yerda 3 yildan ortiq turib, keyin Xivaga ham o'tgan. Bu safar ham muvaffaqiyatsiz chiqadi va Benevenining o'zi zo'rg'a jon saqlab qoladi va faqat Pyotr I o'limidan so'ng 1725-yilda Rossiyaga qaytadi. Beneveni sayohat qilgan davlatlari haqida geografik, etnografik va tarixiy ma'lumotlar to'plagan. Beneveni Pyotr I ga yuborgan xabar va xotira daftarlarida Buxoro va Xivada bo'lgan siyosiy voqealarni ta'riflab bergan.

O'rta Osiyoni bosib olishda Rossiya uchun Qozog'iston hududlarini egallash va unda harbiy qal'alar va istehkomlar qurish muhim strategik ahamiyatga ega edi. Ma'lumki, Qozog'iston hududi XVI asr oxirlarida uch juzga bo'linib, Katta juz (Yettisuv), O'rta juz (Markaziy Qozog'iston) va Kichik juz (G'arbiy Qozog'iston) deb atala boshladi. XVIII asrning boshlarida Qozog'ictonga Jung'ariya xonligi xavf solib turdi (1729-yil jung'arlar Katta juzning talay yerlarini bosib oldi). 1726-yili Abulxayrxon Kichik juz oqsoqollari nomidan Rossiya podshosiga fuqarolikka olishni iltimos qilib murojaat qildi. 1731-yil Kichik juz Rossiya tarkibiga kira boshladi. 1731–1740-yillarda O'rta juzning ayrim xon va sultonlari Rossiya fuqaroligini qabul qildilar. 1747-yilda Katta juz ham Rossiya tobeligiga olindi.

Qozog'iston hududlarida harbiy qal'alar va istehkomlar barpo etish esa Pyotr I zamonidayoq boshlangan edi. 1717-yilda Omsk, 1718-yilda Semipalatinsk, 1720-yilda Ust-Kamenogorsk, 1742-yilda Orenburg qal'alari quriladi. Faqat XVIII asrning o'zida hozirgi Qozog'iston hududlarida o'zbek xonliklariga bostirib borishda foydalanish uchun 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy qal'a va istehkomlar qurdiradi, ularga qo'shinlarini joylashtiradi.

Qozog'iston hududlarini zabt etilishi podsho Rossiyasi ma'murlarining Turkiston yerlarini egallash borasidagi bosqinchilik harakatlariga qulay shart-sharoitlar yaratadi. Biroq XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi rus-turk urushi (1806–1812), rus-shved urushi (1808–1809), rus-fors urushi (1805–1813) va nihoyat Napoleonga qarshi 1805–1812-yillardagi to'qnashuv va urush, qolaversa, podsho Rossiyasining mustabid hokimiyatiga qarshi dekabristlar nomini olgan dvoryanlar qo'zg'oloni va uni bostirish Rossiya hukumatining Turkistonga nisbatan bosqinchilik siyosatini ma'lum muddatga ortga cho'zilishiga sababchi bo'ladi. Biroq 1830-yillardan ma'lum darajada Yevropadagi janjalli voqealardan qo'li bo'shagan imperiya hukumati yana o'zining ayg'oqchilik va yovuzlik niyatlarini O'rta Osiyo hududlariga qaratadi.

Shu maqsad yo'lida imperator Nikolay I (1796–1855) ning 1839-yilda Xiva xonligini bosib olish haqidagi farmoni asosida 1839-yil 14 noyabr – 1840-yil fevralda Orenburg harbiy gubernatori V.A. Perovskiy (1795–1857) katta qo'shin (2 ta zambarak 40 arava, 5325 askar, 10 ming tuya) bilan Xiva xonligiga harbiy ekspeditsiya uyushtiradi. Biroq bu yurish muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi.

Rossiya imperiyasi hukumati XIX asrning o'rtalaridan boshlab o'zbek xonliklarining yerlarini bosib olishga astoydil kirishadi. Buning sabablari:

**Birinchi**dan, o'zbek xonliklari o'zaro mol-dunyo, davlat va yer talashib birlarining tinka-madorlarini shu darajada quritgan edilarki, ular tashqi dushmanga qarshi birlashib kurashish u yoqda tursin, hatto o'zlarini biror bir darajada himoya qilishga ham qodir emas edilar. Bu hol Rossiya imperiyasi ma'murlariga juda qo'l kelar edi.

**Ikkinchi**dan, Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli shuni talab qilar ediki, rivojlanayotgan rus kapitalistlari uchun yangi-yangi bozorlar, foyda manbalari kerak edi. Rossiyaning Yevropa bozorlari bilan raqobat qila olmasligi e'tiborga oladigan bo'lsak, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallash zarur edi. Shuningdek, Rossiya sanoat korxonalariga (ayniqsa uning yengil sanoati uchun) esa tabiiy yerosti boyliklari, xomashyo bazalari, paxta, ipak qorako'l, teri va boshqalar zarur edi. 1861–1862-yillardagi fuqarolar urushi tufayli Amerikadan keladigan paxtaning kamayib ketishi o'zbek paxtasiga bo'lgan talabni haddan tashqari oshirib yubordi.

**Uchinchi**dan, Rossiyada o'tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoq qolgan aholini ko'chirib keltirish va ularni yer bilan ta'minlash.

**To'rtinchi**dan, Qrim urushi (1853–1856) natijasida Qora dengiz bandargohlarining qo'ldan ketishi va uning o'rnini O'rta Osiyoni egallash orqali to'ldirish.

Shu orqali janubdagi muzlamaydigan dengizlarga chiqish, O'rta Osiyo orqali Eron, Afg'oniston Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda Angliyaning ta'sirini yo'qotib, bu davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatish. Turkiston bu bosqinchilik yurishlarida plasdarm vazifasini o'tashi.

**Beshinchidan**, O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus munosabatlarining keskinlashib borishi Rossiya bosqinining tezlashishiga sabab bo'ldi. Rossiya hukmron doiralari XIX asrning boshidanoq ingliz josuslarining o'zbek xonliklaridagi xatti-harakatlarini ziyraklik va shubha bilan kuzatib bordilar. Rossiyaning Turkistonni bosib olish rejalaridan xabardor bo'lgan Angliya hukumati Rossiya rejalarini barbod qilish harakatini qildi. Bunda Angliyaning Ost-Indiya (Ost-Hindiston) kompaniyasi (1600–1858) faoliyati diqqat markazida turgan. Ost-Indiya kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular hind va fors savdogarlaridan keng foydalandi.

Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlari to'plash maqsadida O'rta Osiyoga bir necha marta o'z razvedkachilarini yuborgan. Jumladan, Erondagi rus elchixonasining katta maslahatchisi A.F. Negri (1784–1854) rahbarligida savdo shartnomasi tuzish uchun Buxoroga yuborilgan missiya (*Negri missiyasi*, 1820) tarkibida mazkur kompaniya ayg'oqchisi polkovnik E.K. Meyendorf ham Buxoroda bo'ladi, biroq u qaytish chog'ida yo'lda halok bo'ladi. 1831–1833-yillarda mazkur kompaniya leytenanti Aleksandr Berns (1805–1841) Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga go'yo sayyoh sifatida keladi. 1843-yilda kapitan Ebbot Xivaga yuborildi. 1844-yili Angliya tomonidan Turkiya homiyligida Iosif Volf Buxoroga kelgan edi. U 1838-yildan buyon Buxoro amiri Nasrulloxon zindonida saqlanayotgan polkovnik Stoddart bilan mayyor Konollini (bular 1842-yili qatl etilgan) taqdirini aniqlash niyatida kelgan edi. I. Volf 1844–1845-yillar davomida Buxoroda ish olib borib, Londonga Qo'qondagi voqealar, xonliklarning o'zaro munosabatlari xususida muhim axborotlar yuborib turgan.

Ost-Indiya kompaniyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishni taklif qiladi va birlashib Rossiya tajovuziga qarshi kurashishni tavsiya etadi. Lekin bu takliflar amalga oshmaydi. Inglizlarning O'rta Osiyoni bosib olishdan iborat rejasining amalga oshuviga Hindiston bilan o'zbek xonliklari o'rtasida joylashgan Afg'oniston to'siq bo'ladi. Natijada inglizlar bilan Afg'oniston o'rtasida ikki marta (1838–1842; 1878–1880) urush ham kelib chiqadi. Ammo inglizlar afg'on xalqining qarshiligini bostira olmaydilar.

XIX asr o'rtalarida Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan O'rta Osiyoga josuslik missiyasi ham amalga oshirdi. Masalan, 1841–1842-yillarda Buxoroga elchi K.F. Butenev rahbarligida *Butenev missiyasi* yuborilgan. Uning asosiy vazifasi Afg'oniston va Eron orqali Turkistonga kirishga intilayotgan Angliyaga to'sqinlik qilish, Buxoro xonligida Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy ta'sirini mustahkamlash, Buxoro tuprog'ining geologik tuzilishini o'rganish va yerosti boyliklarini tekshirish, Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida savdo va elchilik munosabatlarini mustahkamlovchi shartnoma tuzish, savdo-sotiqqa oid ma'lumotlar to'plash, Buxoro va unga qo'shni mamlakatlar to'g'risida ma'lumot yig'ish kabilardan iborat edi. Butenev missiyasi 1841-yil 15-mayda Orenburgdan chiqib, 1841-yil 5-avgustda Buxoroga yetib keldi. Butenev missiyasi Zarafshon vodiysida ko'pgina geologik tekshirishlar olib bordi. Butenev missiyasining Buxoro xoni bilan savdo va diplomatik shartnoma tuzish yuzasidan olib borgan muzokaralari uncha natija bermadi. Shunga qaramay, Butenev missiyasi a'zolari Buxoro to'g'risida juda boy geografik, etnografik, tabiiy va tarixiy ma'lumot to'pladilar.

Podsho Rossiyasi Turkistonni bosib olishdan oldin mukammal rejani ishlab chiqqan. Rejada asosiy zarbani mintaqadagi eng zaif va hududi jihatidan kichik Qo'qon xonligiga berish, ayni paytda Buxoro amirligi va Xiva xonligini Qo'qon xonligi bilan o'zaro birlashib qo'shin tuzishiga, o'zbek xonliklarining birgalikda harakat qilishiga imkon bermaslik maqsadida ular o'rtasida turli nizolar chiqarish va mavjud ixtiloflarni kuchaytirish yo'llarini ishlab chiqishga qaratdi. Rossiya harbiy vazirligida harbiy harakatlarga ketadigan xarajatlar, qo'shin miqdori va turi, urush harakatlarida qatnashuvchi qismlar, quruqlik va suvda harakat qiluvchi vositalar, qurol-yarog' miqdori va zaxiralari aniqlandi.

Rossiya imperiyasi qo'shinlari XIX asrning 40-yillari oxiridan boshlab aniq reja asosida shiddat bilan Turkiston yerlariga bostirib kela boshladi.

Turkistonni bosib olishi podsho Aleksandr II (1818–1881) hukmronligi davrida nihoyatda tezlashdi. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi *to'rt bosqichga* bo'linadi. *Birinchi bosqich* – 1847-yildan boshlanib 1865-yilga qadar davom etadi. Bu bosqichda Qo'qon xonligiga qarashli hududlar bosib olinadi. *Ikkinchi bosqich* – 1865-yildan boshlanib 1868-yilga qadar davom etadi. Bu davrda Toshkent va Buxoro amirligi hududlari bosib olinadi. *Uchinchi bosqich* – 1873–1879-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Xiva va Qo'qon xonligi hududlari chor qo'shinlari tomonidan zabt etiladi. *To'rtinchi bosqich* – 1880–1885-yillar bu davrda hozirgi Turkmaniston yerlari bosib olinadi.

**Qo'qon xonligiga hujum** Rossiya davlatining Turkiston yerlarini bosib olishining *birinchi bosqichida*, ya'ni 1847-yili Sirdaryo etagi bosib olinib, Raim qal'asi rus qo'shinlari tomonidan egallandi va bu yerda 1848-yil Kazalinsk harbiy istehkomi qurilgan. Orenburgda «Nikolay» va «Konstantin» degan kemalar qurilib, ular bo'lak-bo'lak holda keltirilib Orol dengiziga tushiriladi.

Bu davrda Oq machit (Qizil O'rda), Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, To'qmoq va boshqa shaharlarda Qo'qon xonligining harbiy istehkomlari mavjud edi. 1852-yilda rus qo'shinlari Oq machitga hujum qiladilar, lekin uni qo'lga kiritmaydilar. 1853-yilda general V.A. Perovskiy boshchiligida ikki ming askardan ortiq qo'shin Oq machitga ikkinchi marta hujum uyushtiradi. 22 kunlik qurshov va jangdan so'ng 1853-yil iyulda rus askarlari istehkomni egalaganlar. Qal'a himoyachilaridan 74 kishi tirik qolgan xolos. Rossiya qo'shinlaridan bor-yo'g'i 25 kishi halok bo'lgan va 46 kishi yarador qilingan. Istehkomga «Perovskiy forti» nomi berilgan. Oq machitdagi mag'lubiyat Qo'qon xonligini qattiq tashvishlantirdi. Tezlik bilan Toshkentda kuch to'planib hokim Sabdalxo'ja boshchiligida 8 ming askarlik qo'shin va ko'ngillilar Oq machitni qaytarib olish uchun yo'lga chiqadi. Lekin ikki o'rtadagi jangda ular yengiladilar. Vatan himoyachilaridan 192 kishi halok bo'ladi. Qo'qon xonligi qo'shinlari yaradorlarni 92 tuyaga ortib orqaga chekinishga majbur bo'ladilar.

1853-yilning dekabr oyida Yoqubbek boshchiligidagi 13 ming kishilik qo'shin Oq machitga kelib yana dushman bilan to'qnashdi. Yurt himoyachilaridan bu jangda mingga yaqin kishi o'ldirildi va yarador qilindi. Bosqinchilar faqat 55 askarlarini yo'qotdilar. Bunday ketma-ket mag'buliyatlar Vatan himoyachilari ruhini tushirmadi. Ular 1855-yilda yana 1500 kishilik qo'shin bilan Oq machitga otlandilar. Ammo Rossiya qo'shinlariga yangi kuchlar kelib qo'shilganini eshitib, orqaga qaytdilar.

Shu o'rinda Yoqubbek haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, uning to'liq ismi Muhammad Yoqubbek Badavlat, Otaliq g'oziy bo'lib, 1820-yil Piskent shahrida tug'ilgan. Qo'qon xonligining harbiy va davlat arbobi, Yetti shahar Uyg'ur davlatining hukmdori (1865–1877). Yoqubbek



General V.A. Perovskiy  
(1795–1857)



Yoqubbek



1845-yili Toshkentda askarlikka chaqirilgan, Xon o'rdasida mahram, keyinchalik ellikboshi, yuzboshi, ponsod (besh yuz boshi) bo'lgan. Chinoz va Avliyo otaga, Oq masjidga bek qilib tayinlangan, Oq masjidda qushbegi lavozimiga ko'tarilib, rus bosqinchilariga qarshi kurashda jasur sarkarda sifatida faoliyat ko'rsatgan, 1877-yili Sharqiy Turkistonning Ko'rla shahrida vafot etgan.

1854-yil Olmaota qishlog'i yonida Verniy harbiy istehkomi (hozirgi Olmaota shahri) ning qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o'rin tutgan istehkomlardan bo'ldi. 1855–1857-yillardagi Qrim urushi munosabati bilan podsho Rossiyasi ma'murlari O'rta Osiyoni zabt etish bo'yicha katta miqiyosdagi harbiy harakatlarni olib bormadilar. Qrim urushidagi mag'lubiyat O'rta Osiyoning Rossiya uchun siyosiy va strategik jihatdan qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.



**Polkovnik  
M.G. Chernyayev  
(1828–1898)**

Qrim urushi tufayli to'xtab qolgan harbiy harakatlar 1860-yil yozida yana jonlandi. Polkovnik Simmerman boshchiligidagi rus qo'shinlari 1862-yilda To'qmoq, so'ngra Pishpak (hozirgi Bishkek), qal'asini egalladi. Avliyoota (hozirgi Taroz shahrining 1938-yilgacha bo'lgan nomi, Qozog'iston Res., Jambul viloyati) qal'asini egallash uchun 1864-yil 1-mayda polkovnik M.G. Chernyayev Verniy (Olmaota) istehkomidan yo'lga chiqqadi. Qattiq jangdan keyin 1864-yil 4-iyunda Avliyoota ham bosib olinadi. M.G. Chernyayev bu qal'ani olganligi uchun general-mayor darajasiga ko'tarildi.

Navbatdagi hujum harakatlari Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlaridan bo'lgan Turkiston va Chimkent shaharlariga qaratiladi. Turkiston va Chimkentni himoya qilish uchun sarkarda Qo'qon xonligining muvaqqat xoni (regenti), mingboshisi, amiri lashkari (1863–1865) – Alimqul (to'liq ismi Mulla Alimqul Husaynboy o'g'li, 1831/32–1865) yetib keldi va shahar mudofaasini tashkil qilishga kirishdi. Ammo polkovnik Veryovkin general M.G. Chernyayevdan yordam olib, 1864-yil 12-iyulda Turkiston shahrini mahalliy xoinlar yordamida bosib oldi. Veryovkin Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasidagi noyob tarixiy asori-atiqalarni talon-taroj qilib, Rossiyaga jo'natib yubordi.

Rus qo'shinlari Chimkent shaharini egallash uchun ikki marta harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Dastlabki hal qiluvchi jang 1864-yil 14-iyun tongda boshlangan. Uch kun davom etgan bu urushda yurt fidoyilari g'alabani qo'lga kiritadi.



Mag'lubiyatga uchragan shtabs-kapitan Meyer va polkovnik Lerx boshchiligidagi rus qo'shinlari Avliyoota va Turkiston tomon chekinadi. General Chernyayev bu mag'lubiyat oqibatlaridan cho'chib, barcha kuchlarini Oqbuloqda jamladi.

Alimqul boshchiligida yurt himoyachilari rus qo'shinlariga qarshi urushni davom ettirish maqsadida tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarxonning Qo'qonga hujum qilganligi to'g'risida xabar oladi. Natijada lashkarboshi Alimqul qo'shinning katta bir qismini Chimkentda qoldirib o'zi Qo'qonga qaytishga majbur bo'ladi. Alimqul Xo'jand va O'ratepada amir Muzaffarning qo'shinlari bilan jang qilayotgan bir paytda, Chernyayev 1864-yilning 14-sentabrda ikkinchi marta Chimkentga yurish boshladi. Harbiy-texnik ustunlikka ega bo'lgan dushman 1864-yil 22-sentabrda Chimkentni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Turkiston va Chimkent rus qo'shinlari tomonidan egallangandan so'ng Qo'qon xonligining muhim strategik shahri Toshkentni egallashga kirishiladi. Shu maqsad yo'lida 1864-yil 27-sentabrda general Chernyayev Chimkentdan yo'lga chiqdi. 1864-yilning 1-oktabrida u katta harbiy qo'shinlari bilan birga Toshkentning sharqidagi Darvishak qopqa degan joyga yetib keladi. 2-oktabrda ertalabdan dastlabki hujum boshlandi. Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyayev qattiq mag'lubiyatga uchradi, 72 zobit va askarni yo'qotdi. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi.

1865-yildan Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishining *ikkinchi bosqichi* boshlandi. Shu yilning 28-aprelida Chernyayev Chirchiq yonidagi Niyozbek qal'asini jang bilan egalladi. Toshkentlik bir xoinning (Abdurahmonbek Shodmon o'g'li) maslahatiga ko'ra Chernyayev Kaykovus arig'i (Bo'zsuvi kanali) to'g'onini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuboradi. Natijada toshkentliklar suvsiz qolib, og'ir ahvolga tushadilar. Shunga qaramay, aholi mudofaani mustahkamlashga kuch-g'ayratini ayamaydi. Ko'p o'tmay rus qo'shinlari Toshkentga yaqinlashganligi haqida xabar topgan Alimqul qo'shin bilan Qo'qondan chiqib, 1865-yil 7-mayda ertalab Toshkentga yetib kelishdi. Shu kuni Alimqul va xon qarorgohi Afrosiyob tepaligida joylashdi. Shu kuni Mingo'rik mavzesida shahar himoyachilari ishtirokida katta mashvarat o'tkazilib, g'azavot e'lon qilindi. 8-mayda Salor kanali bilan Darxon arig'i oralig'i (hozirgi Pushkin ko'chasi)da Alimqul qo'shinlari va shahar himoyachilari bilan rus qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Rus qo'shinlari yengilib, Sho'rtepagaga chekindi. 1865-yil 9-mayda Alimqul qo'mondonligidagi qo'qonlik askarlar va shahar himoyachilari Sho'rtepadagi rus qo'shinlariga qarshi

hujumga o'tdi. Nihoyatda qattiq jang bo'lib, Alimqul og'ir yaralandi va o'sha kuni vafot etdi. 1865-yil 10-mayda u Toshkentdagi Shayxontohur qabristoniga dafn etildi.

Alimqulning halok bo'lishi bilan Toshkentliklar orasida sarosima boshlandi. General Chernyayev 14-iyunda qattiq janglardan so'ng shaharga yorib kiradi. 1865-yil 17-iyunda qarshilik ko'rsatishning foydasizligini hisobga olgach shahar himoyachilari shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlaydi. Shu tariqa Toshkent shahri egallandi.

Rossiya imperiyasi bosib olingan hududlarda 1865-yil 12-fevralda Orenburg general-gubernatorligiga bo'ysunuvchi Turkiston viloyatini tuzgan. Turkiston viloyati harbiy gubernatori yetib M.G. Chernyayev tayinlandi.

**Buxoro amirligigi qarshi** Rus qo'shinlarining Toshkentni bosib olishi natijasida  
**harbiy yurishlar** Podsho Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida bevosita to'qnashuv yuzaga kelgan. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda – 1866 va 1868-yillarda o'tkazdilar.

1866-yil yanvarida general Chernyayev Jizzaxga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi. O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi, o'rniga general D. Romanovskiy tayinlanadi. U Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladi. Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligi hududlari bosib olinayotgan paytda Buxoro amiri tomoshabin bo'lib turgan bo'lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qo'qon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turdi. Modomiki u amir Muzaffar homiyligida Qo'qon taxtini uchinchi marta egallagan edi. 1866-yil 8-may kuni Erjarda (hozirgi Jan. Qozog'iston viloyati hududi) rus qo'shinlari bilan bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari yengildi, amir Jizzaxga qochdi. D. Romanovskiy yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirdi. 1866-yil 24-mayda Xo'jand shahri va Nav qal'asi egallandi. Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan 1866-yil olib borilgan harbiy yurishlari natijasida O'ratepa (2-oktabr), Jizzax (18-oktabr) bosib olindi. 1867-yil 7-iyunda Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan Yangiqo'rg'onda Buxoro qo'shini va xalq ko'ngillilari dushman tomonidan tor-mor keltirildi.

1867-yil 11-iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligi tashkil qildi. Ushbu gubernatorlikning markazi Toshkent bo'lib, uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham kirgan edi.

Birinchi general-gubernator va okrug qo'mondoni qilib general-adyutant K.P. fon Kaufman (1818–1882) tayinlandi. Fon Kaufman rus imperatori tomonidan

katta vakolatlar bitilgan «Oltin yorliq» olgan. Unga ko'ra u mustaqil ravishda urush e'lon qilish, sulh tuzish harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini hal qilish kabi huquqlarga ega bo'lgan. Shuning uchun fon Kaufman xalq o'rtasida istehzo bilan «yarim podsho» deb atalgan.

K.P. fon Kaufman 1868-yil 21-mayda Kattaqo'rg'onda Buxoro xonligi elchisi bilan uchrashib, amirdan urush xarajatlarini qoplash uchun 125.000 tilla miqdorida tovon to'lashni talab qiladi. Buxoro amiri Said Muzaffar bilan olib borilgan muzokaralar natijasiz tugagach, fon Kaufman Samarqand shahrini egallash maqsadida harbiy yurish boshladi. 1868-yil 1-may kuni shahar yaqinidagi Cho'ponota tepaligida Buxoro amiri qo'shinlari bilan jang qilib, ularni osongina mag'lubiyatga uchratdi. Samarqand 2-may kuniyoq deyarlik jangsiz dushmanga taslim bo'ldi. 18-mayda Kattaqo'rg'on ham taslim bo'ldi. Buxoro amiri o'z qo'shinlarini to'plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurdi. Fon Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurdi. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868-yil 2-iyunda to'qnashdi. Biroq 2–3-iyun kunlari bo'lib o'tgan bu jangda amir qo'shinlari tor-mor etildi. Amir Qizilqum tarafga qochib ketadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Zirabuloq jangi boshlanishidan bir kun oldin, ya'ni 1868-yil 1-iyun kuni Samarqandda xalq qo'zg'olon ko'tardi. K.P. fon Kaufman o'zining esdaliklarida: «...1–8 iyunda Samarqand mudofaasi nomi bilan mashhur hafta boshlandi», deb ta'kidlagan. Shahar atrofiga Qarshi, Kitob va Shahrisabz beklklaridan kelgan madad kuchlari yig'ila boshlaydi. Bu qo'zg'olonga amirning o'g'li Abdulmalik (Katta To'ra, 1848–1909), Kitob hokimi Jo'rabek, Shahrisabz hokimi Bobobek va boshqa o'zbek, tojik, turkman, qoraqolpoq, qozoq qavmlari boshliqlari boshchilik qilib, 8-iyunga qadar Samarqanddagi ruslar garnizoniga hujum qilgan.

Samarqand qamali haqida xabar topgan fon Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib, 8-iyunda shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga va shaharni batamom yoqib yuborishga buyruq beradi. 9-iyunda Samarqandda fojiali qirg'in boshlanadi. Qirg'in uch kun davom etadi. Yuzlab odamlar hech qanday so'roqsiz, tergovsiz otib tashlanadi. Muvaffaqiyatsiz tugagan Samarqand qamali yakunlariga ko'ra uning boshliqlaridan 19 kishi o'limga va 19 kishi Sibirga umrbod surgunga hukm qilinadi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 kishi o'ldirildi va yarador bo'ladi.



**General K.P. fon Kaufman (1818–1882)**



**General  
A.K. Abramov**



**Jo'rabek dodxoh  
Qalandar o'g'li (taxm.  
1840–1906). 1861-  
yildan Kitob hokimi**



**Bobobek Hakimbek  
o'g'li (1833–1898)  
Shahrisabz hokimi  
(1865–1770)**

1868-yil 23-iyunda amir Said Muzaffarning elchilari Samarqandga K.P. Kaufman huzuriga kelib, sulh tuzishga rozilik bildiradi. Rossiya–Buxoro o'rtasida **birinchi sulh shartnomasi** imzolandi va unga ko'ra, Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir oltin hisobida 125 ming tilla (500 ming rubl) tovon to'lash, rus savdogarlari uchun amirlikda qulay sharoit yaratish majburiyatini oldi. Rus mollaridan ular qiymatning atigi 2,5% miqdorida boj oladigan bo'lgan. 1868-yilning 24-iyunida Samarqand va Kattaqo'rg'onni o'z ichiga olgan Zarafshon okrugi tuzilib, unga general-mayor A.K. Abramov boshliq etib tayinlandi. 1868-yil Samarqand egallangach, musulmon dunyosiga mashhur halifa Usmon Qur'oni general Abramov tomonidan o'lja qilinib, Sankt-Peterburgga jo'natilgan.

Amir Muzaffar tomonidan amirlik mustaqilligini amalda yo'qotuvchi va katta iqtisodiy talafotlarga sabab bo'luvchi sulhga qo'l qo'yilishidan norozi bo'lgan ruhoniylar, hukmron harbiy mulkdor tabaqa va fuqarolar amirning to'ng'ich o'g'li amirzoda Abdulmalik atrofiga to'plana boshladilar va Shahrisabzda uni amir deb e'lon qildilar. Natijada amir Muzaffar o'g'luga qarshi qo'shin tortdi, biroq Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchradi.

Abdulmalik va Jo'rabek, Bobobek hamda Sulton Sodiq birgalikda ozodlik kurashini davom ettirdilar. Vatanparvar kuchlar amir Muzaffarga qarshi urushib, davlatning uch qismini, jumladan, Qarshini egallaydilar. Karmana, Chiroqchi ham tez orada ularning qo'lga o'tdi.

1868-yilning kuzida amir Muzaffar fon Kaufmandan yordam so'radi. Bunga javoban Kaufman general Abramov boshchiligidagi harbiy qo'shnlarni qo'zg'olonni bostirish

uchun yubordi. Abramov boshchiligidagi rus qo'shinlari 1868-yil 23-oktabrda Qarshini Abdulmalikdan tortib olib, amir Muzaffarga topshirdi. Abdulmalik atrof-tevarakdan kuch to'plashga kirishgan, xususan Xiva xoni Muhammad Rahimdan madad istab borgan, so'ngra Hisor viloyatidan va turkmanlardan qo'shin to'plab, Qarshini otasidan tortib oldi. 1870-yilning avgustida general Abramov qo'shinlari Abdulmalikning kuchlarini tor-mor keltirib, Shahrisabz, Kitob va Qarshini amir Muzaffarga qayta olib berdi. Abdulmalik Afg'onistonga, so'ng Qashqarga (1873) o'tdi. Qashqar Xitoy tomonidan bosib olingach, Abdulmalik Hindistonning Kalkutta shahrida, so'ng umrining so'ngi kunlarigacha Peshovarda istiqomat qildi. 1909-yilda vafot etdi.

1870-yil 14-avgustda Shahrisabz va Kitob shahri rus qo'shinlari tomonidan bosib olingandan keyin Jo'rabek va Bobobek Qo'qon xonligi orqali Qashqarga qochishga urinadi. Biroq ular Mahram ostonalaridagi Qo'qon sarbozlari tomonidan hibsga olinadi va Xudoyorxon amri bilan fon Kaufmanga topshiriladi. General Kaufman esa ularni o'z xizmatiga olib rus qo'shini zobitlari unvonini beradi. Sulton Sodiq esa Qizilqum orqali Xiva xonligi hududiga o'tib ketadi.

1873-yil 28-sentabrda Buxoro amirligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida imzolangan navbatdagi **ikkinchi shartnoma** natijasida Buxoro amirligi Rossiyaning protektorati deb e'lon qilingan. Amirlik yerlarining uchdan bir qismi podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi. Xo'jand, O'ratepa, Panjkent, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan tortib Zirabuloqqacha bo'lgan yerlar, Sharqiy Buxoroda esa Shug'on, Vohon, Ro'shon viloyatlari, ayniqsa Zarafshon daryosi yuqori havzasining qo'ldan ketishi amirlikdagi xalqlarni asosiy hayot manbayi – suvdan mahrum etdi, bu hol Buxoro amirligini Rossiyaga iqtisodiy jihatdan qaramligini yanada oshirdi. Amudaryoning chap sohilidagi yerlar esa (Balx, Mozori Sharif, Shibirg'on, Qunduz va boshqalar) Rossiya va Buyuk Britaniyaning talabi bilan Afg'onistonga berilgan. Buxoro amirligining xorijiy davlatlar bilan aloqa yuritishi taqiqlangan.

#### Xiva xonligining qarshi harbiy yurishlari

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Rossiya imperiyasining Turkistonni zabt etishining **uchinchi bosqichi** – 1873-yildan boshlandi. Navbatdagi harbiy harakatlar Xiva xonligini zabt yetishga qaratildi. Ma'lumki, 1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko'ra Turkiston general-gubernatorligiga oid kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibligiga oid harbiy kuchlar



g'arbdan va shimoliy g'arb tomondan yurishi kerak edi. Rossiyaning tajovuzkor niyati Xiva xoni va uning amaldorlariga sir bo'lmagan. Said Muhammad Rahimxon II ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so'ragandi. Lekin bunday harakatlar natija bermadi. Endi Xiva xonligi o'z kuchiga tayangan holda urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Xonlik qo'shinida 27 eski zambarak, 2 ming otliq, 4 ming navkardan iborat harbiy kuch bo'lib, ular ham, asosan, poytaxtda jamlangan edi. Rus qo'shinining umumiy soni esa 13 ming kishidan ziyod bo'lib, 56 ta to'p bor edi.

1873-yil bahorida Rossiya imperiyasi Xiva xonligiga qarshi qo'shin tortdi. Rossiya imperiyasi qo'shini 3 yo'nalishda harakat qilgan. Birinchi yo'nalishdagi rus qo'shinlari general-ad'yutant fon Kaufman qo'mondonligidagi Turkiston otryadi (22 rota, 1800 kazak va 18 to'p) va general-mayor Golovachyov qo'mondonligi ostida Toshkent tarafdin, ikkinchi yo'nalishdagilar general Vervovkin qo'mondonligidagi Orenburg otryadi (15 rota, 600 kazak, 8 to'p) va uchinchi yo'nalishdagilar polkovnik Lomakin qo'mondonligidagi Mangqishloq otryadi (12 rota, 800 kazak, 8 to'p) Kaspiy dengizi tarafdin Xiva xonligiga hujum qilgan. Ularning ixtiyoriga Orol flotilyasi ham berilgan.



Rossiya armiyasi Xiva ostonasida



1873-yil 18-may kuni general fon Kaufman otryadlari Amudaryodan kechib o'tib 23 may kuni Hazorasp qal'asini bosib oladi. Veryovkin qo'mondonligidagi qo'shinlar esa Qo'ng'iro't, Xo'jayli shaharlarini egallaydi. Mang'it va uning atrofidagi ovullar dahshatli tarzda qirg'in qilinadi. 1873-yil 29-mayda ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldilar.

Xiva xoni ortiqcha qon to'kilishini istamay, muzokaralar boshlash haqida o'z vakillarini fon Kaufman huzuriga jo'natdi. Biroq general xonning taklifini qabul qilmay hujumga kirishgan. Muhammad Rahimxon II Xivani o'z ixtiyoridagi kuchlar bilan mudofaa qilib bo'lmasligiga ko'zi yetib, Izmiqsho'r tarafidagi turkman ovuliga ketishga majbur bo'ldi. Natijada 1873-yil 29-may kuni Xiva xonligining poytaxti Xiva shahari egallandi. Shunday qaltis bir paytda Amir To'ra va Otaxon to'ra xon nomidan fon Kaufmandan Xiva shahrini vayron etmaslikni so'radi. Ammo Kaufman ulardan xonni topishni talab qildi va muzokaralarni faqat u bilan olib borish mumkinligini bildirdi. Muhammad Rahimxon II Xivaga qaytib kelguncha bosqinchilar saroyini talab, barcha qimmatbaho buyumlarni, 300 ta qo'lyozma asarni Peterburgga jo'natdilar.

Muhammad Rahimxon II taxtni saqlab qolish ilinjida Xiva yaqinidagi Gandimiyon (Gandumkon) qishlog'ida yozgi bog'iga yetib kelgan. 1873-yil 12 avgustda Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida fon Kaufman qo'ygan shartlar asosida *Gandimiyon shartnomasi* imzolandi. 18 moddadan iborat bo'lgan ushbu shartnomaga ko'ra, Xiva xonligi Rossiyaga qaram bo'ldi, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) mustaqil ravishda tashqi siyosat yuritishdan mahrum qilindi. Amudaryoning o'ng sohilidagi xonlikka qarashli hududni Rossiya o'ziniki qilib oldi va u yerda Amudaryo okrugi (1883-yildan Amudaryo bo'limi) tashkil etilib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Bo'lim boshlig'iga Xiva xonining faoliyatini nazorat qilib borish topshirildi. Xiva xonligi 20 yil davomida Rossiya imperiyasiga oltin hisobida 2,2 mln. 200 ming so'm tovon to'lashga majbur etildi. Undan har yili 5% ni to'lab turish belglandi. Birinchi to'lov 1873-yil 1-dekabrda boshlanadi. Shu asosda birinchi ikki yillikda 100.000 so'mdan, keyingi ikki yillikda 125.000 so'mdan tovon xalqdan soliq olish hisobiga Rossiya xazinasiga yuborildi. Bundan tashqari turkmanlarga 310500 so'm va yovmudlarga maxsus 106 ming so'm kumush hisobida tovon yuklatiladi. Rus savdogarlari va sanoatchilari xonlik hududida boj to'lamasdan savdo qilish, yer-mulk sotib olish va sanoat korxonalarini ochish huquqini oldi.

**Qo'qon xonligini  
tugatilishi**

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligi qarshi olib borilgan bosqin davrida xonlikda o'zaro taxt uchun kurashlar tinchimagan edi. Qisqa vaqt ichida xonlar bir necha marta almashgan: 1852–1862-yillarda Sheralixonning o'g'li Mallaxon, 1862–1863-yilda Shohmurodxon, 1863-yil may–iyunda yana Xudoyorxon (ikkinchi marta), 1863-yil iyul – 1865-yillarda Mallaxonning o'g'li Sulton Sayidxon xon bo'lgan. 1865-yil Qo'qonda qipchoq va qirg'izlar Xudoyqulbekni («Belboqchixon» degan laqabi ham mavjud) tantanavor ravishda xon deb e'lon qiladilar. U atigi 14 kungina xonlik qiladi, so'ngra barcha xazinani va qimmatbaho narsalarni olib, Qashqarga qochib ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon hech qanday qarshiliksiz Qo'qon taxtini qayta uchinchi marta egallagan (1865–1875).



**Xudoyorxon  
(1832–1884)**

Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman bunday qulay vaziyatdan foydalana oldi. U Qo'qon xonligidan bosib olingan yerlarning Rossiya tarkibiga kiritilganligini rasmiy qonunlashtirib olish uchun Qo'qon xoni bilan shartnoma tuzishga harakat qildi. Shu maqsadda polkovnik Shaufusni Xudoyorxon huzuriga yubordi va xon 1868-yil 13-fevral kuni uni qabul qilib, shartnomaga muhr bosdi. Fon Kaufman bilan tuzilgan ushbu sharmandali shartnomaga ko'ra xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Shuningdek, rus savdogarlari qo'qonlik savdogarlar bilan bir miqdorda boj to'laydigan bo'lib, ularga xonlikdagi barcha shaharlar va qishloqlarda istagan karvonsaroyga

ega bo'lish va qurish, savdo agentlarini tayinlash huquqi berildi. Qo'qon xonligi savdogarlari esa faqat Turkiston general-gubernatorligi tasarrufidagi shahar va qishloqlardagina, ya'ni o'z yurtidagina shunday huquqqa ega bo'ldi, xolos. Bu mahalliy savdogarlar tabaqasining noroziligiga sabab bo'ldi. Xudoyorxonning rus hukumatiga yon bosib tuzgan shartnomasidan qoniqmagan keng xalq ommasining ham noroziligi ortib bordi.

Rossiya imperiyasi bosqini va 1868-yilgi shartnoma tufayli Qo'qon xonligining ahvoli og'irlashdi. Tashqi olamdan uzilgan Qo'qon xonligi chegaralari ancha qisqarib ketdi. Asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lgan xonlik xazinaga tushadigan daromadlar ham kamaygan. Uning o'rmini to'ldirish uchun turli soliq va majburiyatlar joriy etildi. Bularning hammasi xalq noroziligi va qo'zg'oloni

uchun asosiy omil bo'ldi. Dastlab 1871-yil So'xda g'alayon ko'taradi. Bu g'alayon qurolli qo'zg'olonga aylandi. Xon qo'zg'olonni osongina tinchitdi. Ammo xon bundan o'ziga saboq chiqarmadi va soliq miqdorini yanada oshirdi. Buning oqibatida xalq g'azabining yanada alanga olishiga olib keldi va 1873-yilda Farg'ona vodiysida Xudoyorxonga qarshi qo'zg'olon boshlandi. Bunda birinchi bo'lib qo'zg'olonni tog'da yashovchi ko'chmanchi aholi boshlaydi. Bu qo'zg'olonni tinch yo'l bilan to'xtatish uchun Abdurahmon Oftobachi (taxm. 1844–1884) harakat qildi, Ammo Xudoyorxon buni qo'llab-quvvatlamadi. Oqibatda bu g'alayon qurolli qo'zg'olonga aylandi.

Xonlikda Xudoyorxonni taxtdan mahrum etish harakatlari boshlangan edi. Buning uchun xonlar avlodidan nomzod kerak edi. Shu maqsadda 1872-yilda Sherdodxoh boshchiligidagi bir guruh qirg'izlar Samarqandda istiqomat qilayotgan Po'latbekni (Olimxonning nevarasi) Qo'qonga taklif qilib, uni xon qilib ko'tarishga va'da qilishadi. Lekin Po'latbek bu taklifni rad etadi. Shundan so'ng ular Toshkentga kelib, Abdulmo'min otaliq bilan uchrashganlar. Musulmonqul qirg'iz, Mullo Abdulmo'minning maslahatiga ko'ra, qirg'iz Is'hoq Hasan o'g'li «Po'latxon» nomi bilan qo'zg'olonga boshchilik qilishga rozi bo'lgan va Namanganga kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlagan. 1873-yilda qirg'izlar Loimxonning nabirasi deb «Po'latxon»ni Qo'qon xoni deb e'lon qilgan.

Mullo Is'hoq Hasan o'g'li (soxta Po'latxon) 1844-yilda Marg'ilon shahriga yaqin O'hna degan qishlog'ida istiqomat qiluvchi Bo'ston qabilasiga mansub oilada tug'ilgan. Otasi Marg'ilondagi Oqmadrasada mudarrislik qilgan. Mullo Is'hoq dastlabki ma'lumotni Qo'qondagi Tunqator madrasasida, keyin otasi huzurida olgan. 1867-yili o'qishni tashlab, So'x atrofida ko'chmanchi qirg'izlar orasida ikki yil yashab, so'ngra o'z qishlog'ida, keyin Andijondagi masjidlardan birida imomlik qilgan. Savdogarlik bilan ham shug'ullangan. U Toshkentga kelib, Abdulmo'min otaliq bilan tanishgach, shu yerda vaqtincha yashab qoladi. Soxta Po'latxon bo'lish taklifini u shu yerda qabul qiladi.

O'rta Osiyo tarixida eng uzoq davom etgan Po'latxon qo'zg'oloni Qo'qon xonligida xon va uning amaldorlari zulmiga va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni edi. Qo'zg'olon goh kuchayib, goh pasayib, 1873–1876-yillar davomida 3 davr va 6 bosqichda bo'lib o'tadi. Qo'zg'olonning barcha bosqichlarida uni harakatlantiruvchi kuch mehnatkash aholi bo'ldi. Umumxalq tusini olgan bu qo'zg'olonda yirik boy va harbiylar, hatto Xudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek, Muhammad Aminbek, qarindoshlaridan

Abdulkarimbek va boshqalar ham qatnashgan. Qo'zg'olon asosiy rahbari Is'hoq Hasan o'g'li bo'lsa-da, Musulmonqul qirg'iz, Abdurahmon Oftobachi, Qurbonjon dodxoh va uning farzandlari, ayniqsa, Abdullabek va boshqalar boshchiligida kurash davom ettirilgan.

<i>«Po'latxon qo'zg'oloni»</i>			
<b>№</b>	<b><i>1-davr.</i></b> 1873-yilning bahori – 1875-yilning avgust oyi.	<b><i>2-davr.</i></b> 1875-yilning avgust oyi – 1876-yilning fevral oyi.	<b><i>3-davr.</i></b> 1876-yilning mart – dekabr oylari.
<b>1</b>	<b><i>Birinchi bosqich:</i></b> 1873-yilning bahori – 1873-yilning sentabr oyi.	<b><i>To'rtinchi bosqich:</i></b> 1875-yilning avgust oyi – 1875-yilning 22 sentabri.	<b><i>Oltinchi bosqich:</i></b> 1876-yilning mart oyi – 1876-yilning dekabr oyi.
<b>2</b>	<b><i>Ikkinchi bosqich:</i></b> 1874-yilning mart oyi – 1874-yilning noyabr oyi.	<b><i>Beshinchi bosqich:</i></b> 1875-yil sentabr oyining oxiri – 1876-yil mart oyining boshi.	Uchinchi davrining siyosiy g'oyasi Farg'ona vodiysi, hech bo'lmasa Oloyning mustaqilligini saqlab qolish edi. «Po'latxon» qo'zg'oloni bostirilgandan keyin 1876-yilning mart-dekabr oylarida Olay vohasidagi aholi «Olay malikasi» sifatida mashhur bo'lgan Qurbonjon dodxoh (Qurmonjon Mamatqizi, 1811–1907) boshchiligida kurashni davom ettirdi.
<b>3</b>	<b><i>Uchinchi bosqich:</i></b> 1875-yilning iyun va avgust oylari.	Ikkinchi davrining siyosiy g'oyasi va maqsadi Turkiston general-gubernatorligi timsolida mustamlakachilarni haydab, Qo'qon xonligining mustaqilligi va eski chegaralarini tiklashdan iborat edi. Bu xalq ozodlik harakati «g'azovot» bayrog'i ostida olib boriladi.	
<b>4</b>	Birinchi davrining asosiy g'oyasi va maqsadi Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, qo'shimcha soliqlarni bekor qilib, yangi «yaxshi, rahimdil» xonni saylash edi.		

1875-yilda atrofiga 200 dan ziyod kishini to'plagan Po'latxon O'zgangga kelib, xonga qarshi katta xavf tug'dirdi. Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish uchun Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi va Sarimsoq eshik og'asi boshchiligida 4000 kishilik askar yubordi. Biroq bu qo'shin 1875-yil 17-iyulda qo'zg'olonchilar tomoniga o'tgan. Xonning o'g'li (Andijon hokimi) Nasriddinbek ham 18-iyulda 5000 kishilik qo'shini bilan qo'zg'olonchilar tomonga o'tib, birlashdi. Bundan oldin Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbek ham shunday ishni qilgan edi. Xonlikning asosiy harbiy qismlari va lashkarboshilarining qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketishi Xudoyorxon taqdirini hal etgan omil bo'ldi. Bu orada qo'zg'olonchilar O'sh, Namangan, Andijon va Asakani olganlar. Ular Marg'ilonni ham egallab, Oltiariqqa yaqinlashadilar. Qo'zg'olonning bu tarzda rivojlanishini kuzatib turgan Rossiya

hukumati qo'zg'olonni bostirish uchun M.D. Skobelev boshchiligidagi jazo qo'shini Turkiston o'lkasiga jo'natadi. Qo'qonga 1875-yil 13-iyulda yetib kelgan.

Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish uchun Turkiston general-gubernatorligidan yordam so'ragan. Xon rus harbiylarining himoyasi ostida poytaxtni tark etishni 1875-yil 22-iyulda belgilaydi. Xudoyorxon dastlab Xo'jandga kelib, bu yerda 10 kun istiqomat qiladi. 1875-yil avgustda uni Turkiston general-gubernatori Toshkentga chaqirtiradi. Xon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga fon Kaufman huzuriga panoz izlab keladi. Kaufman 40 arava xalq boyligini olib Xudoyorxonning o'zini Orenburgga surgun qilgan. U bu yerdan qochib Makkaga borgan. Keyinchalik, Qo'qon xonligining qolgan hududlarini ham Rossiya bosib olgandan

so'ng Xudoyorxon K.P. Kaufmanga rasman murojaat qilib siyosiy ishlarga aralashmaslikni va'da qilib Qo'qonga qaytishga ruxsat so'ragan, ammo rad javobini olgan. Xudoyorxon 2 marta murojaat qilgan. Bu ariza senatda ko'rib chiqilib, Xudoyorxonga Qo'qonga qaytishga ruxsat berilgan. Ammo bundan xabarsiz Xudoyorxon yashirin holda Qo'qonga qaytmoqchi bo'lgan. Ammo 1884-yil yo'lda vafot etdi.

Xudoyorxonning Toshkentga qochgandan keyin Qo'qon xonligi taxtiga «Po'latxon» va Xudoyorxonning katta o'g'li Nasriddinbeklar asosiy da'vogarlar edi. Qo'zg'olonchilar 1873-yildayoq Po'latxonni xon deb e'lon qilganlariga qaramay 1875-yil 28-iyulda Abdurahmon Oftobachi boshchiligidagi guruhning yordami bilan Nasriddinbek xon deb e'lon qilinib, taxtni egalladi. Shu sababli «Po'latxon» Abdurahmon Oftobachi va Nasriddinxonlarga qarshi kurashni boshlab yuboradi. Oqibatda, Qo'qon xonligida ikki hokimiyatchilik paydo bo'ladi. Buning oldini olib, kuchlarni birlashtirish maqsadida Abdurahmon Oftobachi 1875-yil 7-avgustda Rossiya imperiyasi mustamlakachilariga qarshi g'azavot (arabcha, jihad) e'lon qiladi va xalq ozodlik harakatini boshlab yuboradi. «Po'latxon» bu harakatni qo'llab-quvvatlaydi, ammo qo'shinini jangga olib kirmaydi.



**Xudoyorxon  
surgundan qochish  
arafasida «Orenburg  
shahri» 1877-yil**



**Nasriddinbek  
(1850–1876)**



Endilikda vaziyat murakkab tus olayotganligi sababli fon Kaufman Peterburgga shoshilinch xabar yo'llagan. Bu xabarda Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni Rossiya imperiyasi hukumati harbiy vaziridan Qo'qon xonligiga qarshi chinakamiga urush ochishga to'g'ri kelayotganini bildirib, bu urushni moddiy va siyosiy jihatdan ta'minlashni so'radi. Imperator Aleksandr II vazir axborotini ko'rib, bu urushga roziligini bildiradi va 100 000 rublni ana shu tadbirga ajratadi. Shunday qilib 1875-yil 9 avgustda Kaufmanning bo'yrug'i bilan urush boshlanib ketdi. Birinchi harbiy to'qnashuv O'rg'ozi dasarida yuz beradi. Bu yerda turgan 800 qo'zg'olonchiga qarshi polkovnik Egashtin yaxshi qurollangan 100 askari bilan hujum qiladi.

Fon Kaufman 1875-yil 13-avgustda Toshkentdan chiqib, 18-avgust kuni Xo'jandga yetib boradi. Bundan avval polkovnik Efimovich boshchiligida 200 kazak artilleriya divizioni bilan Samarqanddan Xo'jandga yetib kelgan edi. Turkiston general-gubernatorligiga qarashli harbiy kuchlar Qo'qonga hujum qilish uchun Xo'jandda to'planadi. Xo'jandda 16 rota piyoda askar, shu jumladan, bitta sapyor rotasi, 20 to'p, 900 otliq askar va 8 raketa moslamasi jangga shay bo'lib turardi. Qo'shin shaxsan fon Kaufmanning umumiy qo'mondonligi ostida 1875-yil 20-avgust kuni Xo'janddan Qo'qon yo'li bo'ylab yurish boshladi. 40 chaqirim yo'l bosilgach, Mahram qal'asi yoniga kelishadi va shu yerda 22-avgustda ruslar bilan Abdurahmon Oftobachining qo'shini o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Qo'qonliklar mag'lubiyatga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, Abdurahmon Oftobachi ruslarga qarshi kurashni davom ettirdi, lekin keyingi janglar ham mag'lubiyatlar bilan tugadi. Xususan, 1875-yilning 8-9 sentabrda uning 5 ming kishilik lashkari M.D. Skobelev qo'shini bilan Mingtepa qishlog'ida jang qilib mag'lubiyatga uchragan. Abdurahmon Oftobachi 25 yigiti bilan O'zganga qochgan. Bu janglarda Po'latxon Abdurahmon Oftobachiga yordam bermagan. Abdurahmon Oftobachi va Po'latxonlarning o'zaro raqobatidan foydalangan rus qo'shinlari Qo'qon, Marg'ilon va O'shni jangsiz egallaydi.

1875-yil 26-avgustda K.P. Kaufman o'z qo'shinlari bilan Mahramdan chiqib, Qo'qon tomon yuradi va 29 avgustda shahriga g'olib sifatida kirib keldi. Qo'qon a'yonlari Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligida undan kechirim so'raydilar. 1875-yil 5-sentabrda esa fon Kaufman Marg'ilon sari yo'l oladi. Bu vaqtda Marg'ilon himoyachilari orasida Abdurahmon Oftobachi ham bor edi. U, dushmanga qarshi turishning foydasi yo'qligini anglaydi va Marg'ilonni tashlab chiqib ketadi. Kaufman 8 sentabrda Marg'ilonga yetib keladi. Rus qo'shini Abdurahmon Oftobachi boshliq vatan himoyachilarining izidan borib, Mingtepa



yaqinlashadilar. Bu vaqtda ular tarqalib tog'larga qochishga ulgurgan edilar. Rus askarlari vatan himoyachilarining ketishga ulgurmagan oxirgi qismlari bilan to'qnashadilar.

Qo'zg'olonchilar xavfi biroz tugashi bilan 1875-yil 22-sentabrda fon Kaufman Marg'ilon shahriga Nasriddinxonni taklif qilib, aholi uchun juda og'ir bo'lgan tahqirli va sharmandali bitimga imzo chektiradi. Bitimga ko'ra, Qo'qon xoni o'zini Rossiya vassali deb tan oladi, qo'shni xonliklar bilan hech qanday aloqalar va munosabatlar o'rnatmaslikka va'da beradi. Sirdaryoning o'ng sohilidagi barcha yerlar Namangan va Chust shaharlari bilan birga Rossiya ixtiyoriga o'tadi. Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan urushda rus armiyasi ko'rgan 600 ming so'm hajmidagi zararni to'lash Qo'qon xonligi zimmasiga yuklatiladi. Ayni paytda shartnomada 1876-yil 1-noyabrdan boshlab Qo'qon xonligi Rossiya xazinasiga har yili 500 ming so'mdan to'lab turishi shart qilib qo'yildi. Qo'zg'olonning asosiy «aybdori» Abdurahmon Oftobachini qo'llab-quvvatlaganliklari uchun marg'ilonliklarga 125 ming tillo hajmida tovon to'lash majburiyati belgilandi. Xalqning og'ir ahvolda yashayotganligini e'tiborga olib, 60 ming tilloni 1875-yil 21-oktabrgacha, qolgan 65 mingini esa 1876-yil 21-oktabrgacha to'lashga ijozat berildi.

Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasida tuzilgan tengsiz va haqoratli bitim xalq ommasining katta kuch bilan qaytadan qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Bu galgi qo'zg'olon markazi Andijon bo'ldi. 1875-yil 26-sentabrda fon Kaufman Namanganga kelgan. Bu yerda unga Andijon shahrida va unga yaqin bo'lgan joylarda Po'latxon va Abdurahmon Oftobachi boshchiligida katta qo'shin to'planganligi haqidagi xabar yetkazilgan. Qo'zg'olonchilar Nasriddinxondan nafratlanib, Andijonning Bo'taqora qishlog'ida Po'latxonni xon qilib ko'tardilar.

Fon Kaufman Andijonga qo'zg'olonni bostirish uchun general Troskiy va M.D. Skobelev boshchiligida katta qurolli kuchlarni yubordi. 1875-yil 1-oktabrda general Troskiy Andijonga hujum qilish haqida buyruq berdi. Rus qo'shinlari shaharga yaqinlashganlarida Po'latxonning otliqlari hujumga o'tdilar. Biroq dushman qo'li baland kelib, vatan himoyachilarining hujumi qaytarildi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 1–2 oktabr kunlari birgina Andijon shahrining o'ziga to'plardan 200 dan ziyod snaryad otilgan. 1875-yil 3-oktabrda general Troskiy Andijondan Namanganga ketish yo'lida vatan himoyachilari bilan to'qnashgan. Bunday



**General M.D. Skobelev**  
(1843–1882)

to'qnashuvlarda qatnashgan, deb ko'plab qishloqlar yondirib, xonadonlar vayronaga aylantirilgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Andijonda shaxsan Skobelev boshchiligida 20 ming kishi o'ldirilgan. General M.D. Skobelev Andijonning kulini ko'kka sovurish bilan kifoyalanmay, andijonliklarni tovon to'lashga majbur etib, 33 ming so'm undirib ham oladi.

Bunday fojearalar yuz berayotgan paytda Qo'qon shahrida ham qo'zg'olon boshlanadi. 1875-yil 7-oktabrda qo'zg'olonchilar xon qo'shinini tor-mor keltirib, 9-oktabrda Qo'qonni egallaydilar. Qo'zg'olonchilar O'rdaga hujum qiladilar. Xonning eng yaqin kishilari ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketadilar. Hatto, ular qo'zg'olonchilarga O'rda darvozasini ochib berdilar. Buni ko'rib turgan Nasriddinxon orqa darvozadan chiqib qochadi va uni qo'zg'olonchilar Sirdaryogacha quvib boradilar. Nasriddinxon daryo kechuvidan o'tib, Xo'jandga, ruslar panohiga qochadi. «Po'latxon» rasman Qo'qon xoni deb e'lon qilinadi. Abdurahmon Oftobachi ham uni tan oladi. «Po'latxon» bilan yarashib harbiy kuchlarini birlashtiradi.

1875-yil 26-oktabrda general M.D. Skobelev Namangan ostonalariga qaytib kelib, 27-oktabrda 26 ta to'p bilan shaharni o'qqa tutadi. Qo'zg'olonchilar tor-mor etiladilar. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, ulardan 3800 kishi halok bo'ladi. Ruslardan esa 6 kishi o'lib, 38 tasi yarador bo'ladi. Aslida halok bo'lgan qo'zg'olonchilar bundan ham ko'p edi. Skobelev 1875-yil 30-noyabrda Sirdaryoning chap sohilidagi To'ytepa qishlog'ida turgan 1500 qo'zg'olonchiga qarshi hujum qilib, qishloqni yoqib yuboradi. 11 noyabrda Skobelev qo'mondonligidagi rus askarlari qo'zg'olonchilarni Baliqchi yaqinida zarbaga uchratdilar. 2 dekabrda esa Botir to'raning otliq otryadini Norindan nariga chekinishga majbur qilib, O'ljaboy qishlog'ida joylashgan qo'zg'olonchilarning bir batalon keladigan odamlarini qirib tashlaydi.

General Troskiy Namanganga yaqinlashganda Po'latxon lashkarlari bilan to'qnashib, qo'zg'olonchilarni mag'lubiyatga uchratgan. Po'latxon qochib ketayotganda otdan yiqilib, oyog'i sinadi. Shunga qaramay, kurashni davom ettirib, Asakaga kelib bo'lajak janglarga hozirlik ko'radi. Bu vaqtda uning qo'l ostida 12 ming lashkar to'plangan edi. Bu qo'shin birin-ketin bir necha g'alabaga erishadi. O'sh, Andijon va Marg'ilonni egallaydi

1876-yil 8 yanvarda general Skobelev boshchiligidagi qo'shin Andijonga hujum qildi. Bu jangda ham qo'zg'olonchilar yana mag'lubiyatga uchraganlar. Abdurahmon Oftobachi qo'zg'olonchilarning katta qismi bilan Asakaga chekinadi. 1876-yil

9-yanvarda Skobelev vayrona va kultepaga aylangan Andijonga kirib boradi. 1876-yil 13-yanvarda esa Asakaga hujum qilgan. Shiddatli janglardan so'ng 18-yanvarda Abdurahmon Oftobachi boshchiligidagi lashkar Asakada yengilib, shaharni tashlab chiqqan. 19-yanvarda Po'latxon sulh taklif etib Xo'jandga K.P. Kaufman huzuriga elchilarini yuborgan. Bundan Abdurahmon Oftobachini rus ayg'oqchilari ogoh etadilar. Abdurahmon Oftobachi o'z hayotini saqlab qolish va mavqega ega bo'lish ilinjida 1876-yil 20-yanvarda taslim bo'lishi haqida muzokaralar olib borish uchun ishonchli kishilarini jo'natdi. 24-yanvarda general M.D. Skobelev bilan shaxsan uchrashganidan so'ng o'z safdoshlari (12 safdoshi va 700 jangchi) bilan taslim bo'lgan. Abdurahmon Oftobachi o'z tasarrufidagi qo'zg'olonchilarni tarqatib yuborgan.

Abdurahmon Oftobachi taslim bo'lgach, Nasriddinxon 1876-yilning 21-yanvarida Qo'qon taxtini qaytadan egallash uchun Mahramdan yo'lga chiqadi. Naymancha qishlog'iga kelganida unga Po'latxon tarafdorlaridan Qo'qon hokimi o'rnida turgan Abdullobek o'z askarlari bilan hujum qiladi. Xon urushda 200 kishisini yo'qotib, Mahramga chekinadi. Ammo 1876-yil 28-yanvarda xon tarafdorlari Abdullobekni yengib, Nasriddinxonni Qo'qonga taklif etadilar va 29-yanvarda uni taxtga o'tqazadilar.

Rus qo'shini Po'latxonning izidan borib, 1876-yilning 28-yanvarida Uch-qo'rg'onni qurshab oladi. Bu yerda ham qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan. Shundan keyin Po'latxon bir guruh ishonchli kishilari bilan Chavay degan joyga qochadi va shu yerda 1876-yil 18-fevraldan 19-fevralga o'tar kechasi xoinlar tomonidan ushlanib, rus hukumati vakillariga topshiriladi. Bunda uning ashaddiy dushmanlaridan biri Mirzoqulning «xizmati» katta bo'ldi. 1876-yil 1-mart kuni Marg'ilon shahrida Po'latxon (Mullo Is'hoq) dorga osib o'ldirildi. U bilan birga erk, ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan 33 nafar yaqin safdoshlari ham o'ldirildi. Ruslar bu bilan cheklanmay, bosqinchilikka sarflangan xarajatlarni aholidan undirib olish-gacha borib yetdilar. Faqat birgina Marg'ilon bekligiga fon Kaufman tomonidan Po'latxonning yonini olganliklari uchun 500 ming so'm tovon solig'i solindi.

1876-yil 30-yanvarda Nasriddinbekning Qo'qon shahriga kelishi va bu yerda uning



Qo'zg'olonchilarni jazolash



**Nasriddinbek surgunda.  
Vladimir shahri, 1877-yil**

rasman xon deb e'lon qilinishi rus ma'muriyatini sarosimaga solib qo'ydi. Qo'qon xonligini zudlik bilan to'liq bosib olishga kirishdi. Shaxsan imperator Aleksandr II tomonidan Qo'qon xonligini to'la bosib olish haqidagi buyruqni rus qo'shinlariga bergan. Rossiya imperiyasi qo'shini Qo'qon xonligiga yalpi hujum qilib, 1876-yil 7-fevralda Yakkamulla qishlog'iga yetib keldilar. Nasriddinbek hech qanday qarshilik ko'rsata olmay, taslim bo'ldi. 1876-yil 8-fevralda general Skobelev qo'shin bilan Qo'qonga kelib, Nasriddinxonni va uning tarafdorlarini Toshkentga jo'natdi. So'ngra u Vladimir guberniyasiga surgun qilindi. Shu tarzda Abdurahmon Oftobachi ham Rossiyaga jo'natilgan.

1876-yilning 19-fevralida harbiy vazir D.A. Milyutin (1816–1912) Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi tashkil qilinganligini e'lon qildi. Shu kuni general M.D. Skobelev imperator Aleksandr II farmoni bilan yangidan tashkil etilgan Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori etib tayinlandi. 1877-yilning 27-aprelida M.D. Skobelev tomonidan viloyat markazi Qo'qon shahridan Yangi Marg'ilonga ko'chiriladi. Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahri 1907–1924-yillarda Skobelev nomi bilan atalib, mahalliy tilda «Iskobil» deb yuritildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Rossiya imperiyasi «Po'latxon» qo'zg'olonini bostirishi va xonlikni tugatgani bilan bosqinchilikka qarshi ko'tarilgan xalq harakatlariga barham bera olmadi. Endilikda vatan ozodligi va mustaqilligi uchun bo'lgan bu kurash markazi Oloy tog'lari hududlariga ko'chadi. 1876-yilning mart-dekabr oylarida mag'lubiyatga uchrab tarqalib ketgan ayrim qo'zg'olonchilar guruhlari Oloy vohasidagi aholi bilan «Oloy malikasi» sifatida mashhur bo'lgan Qurbonjon dodxoh (Qurmonjon Mamat qizi, 1811–1907) boshchiligida kurashni davom ettirdi. Ular hech bo'lmaganda Oloyning mustaqilligini saqlab qolishga intildilar va imkoniyat bo'lib qolsa, Qo'qon xonligini tiklamoqchi bo'ldilar. Bu qo'zg'olonda Qurbonjon dodxohning farzandlaridan – Abdullabek Mahmudbek, Hasanbek, Botirbek va Qamchibek ham qatnashgan. Rossiya qo'shiniga qarshi kurashda Abdullabekning harbiy jasorati nihoyatda muhim bo'lgan.

1876-yil mart oyida Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman Olay vohasiga yangi hududlarni bosib olish va qo'zg'olonni bostirish uchun general

M.D. Skobelevni yubordi. Rossiya qo'shini 1876-yil 21-martda O'shga keladi. Skobelev aylanma yo'l orqali hujumga o'tib, qo'zg'olonchilarni So'fiqo'rg'ongacha surib tashlagan. Abdullabek qolgan yigitlari bilan Qizilort dovoni tomonga chekinib, Pomir tog'lariga chiqib ketgan. Fon Kaufman buyrug'i bilan 1876-yil yozida Oloy vohasiga jazo otryadi jo'natilgan. Skobelev boshchiligidagi qo'shin 15-iyulda Olayga uch tomonlama –



**Qurbonjon dodxoh (1811 – O'sh yaqindagi  
Modi qishlog'i – 1907.1.2)**

O'sh, Uchqo'rg'on va Gulchadan yo'lga chiqishgan. Abdullabek 2 ming kishilik qo'shini bilan O'shdan 40 chaqirim naridagi Shoti degan joyda pistirma qo'yib, rus qo'shinlarini Olayga o'tkazmaslikka harakat qilgan. Ikki o'rtada ayovsiz janglar bo'lib o'tgan. 31-iyulda qirg'izlarning bir necha biyi Skobelevga taslim bo'lgan. Rossiya qo'shini 1876-yil avgustda Abdullabek yigitlari ortidan quvib, Pomirga kirib borgan.

1876-yil 8-sentabr So'xga yaqin Aylanma degan joyda vatan himoyachilari va Rossiya qo'shini o'rtasida so'nggi to'qnashuv bo'lib, unda Abdullabek boshchiligidagi qo'zg'olonchilar yengiladi. Abdullabek ukalari va safdoshlari bilan Qorako'ldan Cho'ngsuv darasiga o'tib, so'ngra Tuyuqsuv darasi orqali Qashqar va Shug'onon tarafga, keyinchalik Afg'onistonga o'tib ketgan. Abdullabek o'sha yiliyoq Makkaga haj safariga jo'nab, yo'lda vafot etgan (uning jasadi keyinchalik Gulchaga olib kelinib, dafn etilgan).

Farg'ona viloyati harbiy gubernatori M.D. Skobelev O'sh tumani hokimi M.E. Ionov vositachiligida Qurbonjon dodxoh bilan muzokaralar o'tkazishga harakat qilgan. Ammo M.E. Ionov qabul qilinmaydi. Muzokaralarda shaxsan general M.D. Skobelevning ishtirok etilishi talab qilingan. Natijada general Skobelev bilan Qurbonjon dodxoh Oloyda shaxsan uchrashishgan va o'rtada sulh tuzilib, Rossiya imperiyasi hukumatiga ko'rsatayotgan qurolli qarshilik to'xtatilgan (1876-yil oxiri). 1876-yilda qo'zg'olon bostirilgach, Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman



**Farg'ona viloyatining  
O'sh tumani hokimi  
M.E. Ionov**



tomonidan Qurbonjon dodxoh afv qilinadi. Oloy vohasidagi ichki boshqaruvda Qurbonjon dodxoh o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Oloy malikasining dovruqi hatto Sankt-Peterburgdagi imperator saroyigacha yetib borgan. Qurbonjon Mamat qizi Oloy vohasida, so'ngra O'sh yaqinidagi qishlog'ida umrining oxirigacha yashagan.

Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Oloy hududlarni bosib olingandan so'ng, asosiy diqqat-e'tibor Turkmaniston hududlarini istilo qilishga qaratildi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun 1869-yilda Krasnovodsk qal'asi qurilgan. Shu davrdan boshlab turkman yerlarini bosib olish uchun faol harakatlar boshlanib ketadi. 1877-yilda Axaltaka vohasidagi yirik manzilgoh Qizil Arvat egallanadi. 1879-yili esa Lazerev qo'mondonligidagi qismlar Ko'ktepa (hozirgi Ashxobod) ga hujum qilgan. Biroq turkmanlar bu zarbani qaytara olgan. 1881-yili Skobelev tomonidan Ko'ktepaga ikkinchi marotaba qilingan hujum natijasida u bo'ysundirildi. 1881-yil bosib olingan turkman yerlarda Kaspiyorti harbiy bo'limi tuzildi. 1882-yilda esa bu bo'lim Kaspiyorti viloyati sifatida qayta tashkil etilgan. Bu viloyat Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. 1884-yilda rus qo'shinlari Marv vohasida o'z hukmronligini o'rnatdilar va shu bilan amalda Turkiston hududining

### O'RTA OSIYO ROSSIYA TOMONIDAN BOSIB OLINISHI



Rossiya tomonidan bosib olinishi asosan yakunlandi. Biroq rus qo'shinlari 1895-yilga qadar Turkistonning janubiy hududlarida bosqinchilik urushlarini olib bordilar. Bir necha bor Afg'oniston qo'shinlari bilan chegara to'qnashuvlari bo'lib o'tdi. Faqat 1895-yilda tuzilgan bitimlardan so'nggina mojarolarga chek qo'yildi.


Shunday qilib, Rossiya imperiyasi 20 yil davom etgan qonli urush bilan butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Bosib olingan o'lkada mustahkam va batamom o'rtnashib olish maqsadida chet mamlakatlar bilan chegaralarni aniqlash choralarini ham ko'rgan.

**2. Turkistonni boshqarishning mustamlaka tizimi.** Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan bosib olinishi, imperiya uchun tabiiy resurslarga nihoyatda boy bo'lgan hududga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Rossiya harbiy vaziri, graf D.Milyutin, podshoh maslahatchisi V. Girs 1867-yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida Nizom» qonun loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va amalda kuchga kirdi. Nizomga ko'ra, o'lka hokimiyati «harbiy-xalq boshqaruvi» deb nomlandi. 1898-yildan keyin esa «ma'muriy-politsiya boshqaruvi» deb atalgan bo'lsa ham uning mohiyati mazmunan o'zgarmagan, barcha vakolatlar rus ma'muriyati qo'lida jamlangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 1867-yil 11-iyulda G'arbiy Turkiston hududida Turkiston general-gubernatorligi ta'sis etiladi va uning bundan keyingi ma'muriy hududiy tuzilishi harbiy yurishlar natijasida shakllandi. Ya'ni, dastlab 2 viloyatdan iborat general-gubernatorlikka 1868–1880-yillar davomida olib borilgan harbiy istilolar asosida yana 3 viloyat qo'shildi. XIX asrning oxirlarida Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Kaspiyorti kabi 5 viloyatdan iborat bo'ldi. Uning barcha hududi 1.779.618 chaqirimga teng bo'lgan. Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy hududiy tuzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, u viloyatlar (oblast), tuman (uezd), bo'lislar (volost), jabhalar (uchastka) va oqsoqolliklarga bo'lingan.

Turkistonda mustamlakachilik boshqaruv tizimi va idora etish usullari esa Rossiya hukumatning Turkiston uchun 1865–1916-yillar davomida ishlab chiqqan va amalga tatbiq etilgan o'nta qonun loyihasi (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916)da o'z aksini topgan edi. Ushbu qonun loyihalari birinchi navbatda Rossiya manfaatlarini har tomonlama himoya qilishi, Turkistonni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi. O'lka idorasi markaziy, viloyat, tuman, uchastka, qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi.

## Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy hududiy tuzilishi




Turkiston general-gubernatoriligida markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator, uning Kengashi va mahkamasidan iborat bo'lgan. O'lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo'lida to'plangan. 1867-yildan 1917-yilgacha bo'lgan davr ichida Turkistonda quyidagi general-gubernator faoliyat ko'rsatgan.

№	1867-yildan 1917-yilgacha Turkiston General-gubernatorligini boshqarganlar				
1	K.P. fon Kaufman	(1867–1881)	9	D.I. Subbotich	(1905–1906)
2	G.A. Kolpakovskiy	(1881–1882)	10	N.I. Grodekov	(1906–1908)
3	M.G. Chernyayev	(1882–1884)	11	P.I. Mishchenko	(1908–1909)
4	N.O. Rozenbax	(1884–1888)	12	A.V. Samsonov	(1909–1913)
5	A.B. Vrevskiy	(1889–1898)	13	I.O. Flug	(1913–1915)
6	S.M. Duxovskoy	(1898–1901)	14	A.I. Martson	(1915–1916)
7	N.A. Ivanov	(1901–1904)	15	A.N. Kuropatkin	(1916–1917)
8	P.N. Tevyashov	(1904–1905)			

Turkiston o'lkasi markaziy bosh boshqarmasi tarkibida general-gubernatorga bo'ysunmaydigan markaz vakillari – adliya, moliya va davlat mulklari vazirliklari ham bo'lgan.

Quyida Rossiya imperiyasining Turkistonda amalga oshirgan hukmronlik boshqaruv tizimi maxsus jadvallarda berildi.

### I. Markaziy boshqaruv



**Vakolatlari:** u o'z qo'lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o'zida u podsho noibi (yarim podsho; oq podsho), harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror vazifalarini ham o'tagan. General-gubernator Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi (1885–1917), Ziva xonini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i (1873–1918) orqali nazorat qilib turgan

**General-gubernator Kengashining** tarkibi harbiy gubernator, sud palatasi raisi, prokuror, okrug shtabi boshlig'i, general-gubernator yordamchisi a'zolaridan iborat bo'lgan

**General-gubernator mahkamasi 4 bo'limdan iborat bo'lgan**

Birinci bo'limi, ma'muriy va nazorat ishlarini boshqargan


Ikkinchi bo'lim, bosh boshqarmaning Moliyaviy-xo'jalik ishlariga qaragan

Uchinchi bo'lim, soliqlar, shaharlar mablag'lari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash bilan shug'ullangan

To'rtinchi bo'lim, maxsus bo'lim. 1886-yilgacha mustaqil ish ko'rgan bu bo'lim harbiy va adliya vazirlari ko'rsatmalaridan mustasno ravishda sud qarorlarini ham qayta ko'rish huquqiga ega bo'lgan.



## II. Viloyat boshqaruvi




## III. Rayon boshqaruvi




## IV. Shahar boshqaruvi a) rayon shaharlari idorasi




### b) Toshkent shahri idorasi



### V. Qishloq boshqaruvi




### VI. Shariyat qozisi («xalq sudi»)




## VII. Mirshablik boshqaruvi

### a) Mustabid idora usulining mirshablik amaliyoti




### b) Rus imperiyasi Ichki ishlar vazirligi departamenti organi – Turkiston rayon muhofaza bo'limi (maxfiy siyosiy politsiya – oxranka) – TRMB

#### 1. Shaxsiy tarkib



#### 2. Turkiston o'lkasi TRMBga bo'ysunuvchi politsiya-jandarm boshqarmasi bo'limi



### VIII. Aleksandr II tomonidan 1864-yilda sud nizomlarining joriy etilishidan so'nggi umumsaltanat sudi (XX asr boshlari)



Rossiya imperiyasi Turkistonda olib borgan ma'muriy-boshqaruv apparati tizimida «harbiy-xalq boshqaruvi»igi amal qilinib, xodimlar masalasiga katta e'tibor qaratilgan. O'z navbatida xodimlarning asosan ruslardan tashkil topganligi ham imperiya olib borgan siyosatning mohiyatini ochiq-oydin ko'rsatib berdi. Bunda viloyat harbiy gubernatorligiga general darajasidagi, tuman (uyezd) boshlig'iga asosan mayor, rotmistrdan to polkovnik unvonigacha darajasidagi, jabha (uchastka)-larni kichik unvondagi – poruchik, shtabskapitan harbiy darajasidagi zobitlar (uchastka pristavi) tayinlangan. Bo'lis (volost) va oqsoqolliklarni esa mahalliy xalq vakillari boshqargan.

Viloyat hokimlari – harbiy gubernatorlar imperator tomonidan tayinlangan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini o'z qo'lida tutishgan. Harbiy sohada ular viloyatlardagi qo'shinlar (diviziya yoki korpus) qo'mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo'lishgan. Barcha ma'muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ularning izmida bo'lgan. Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo'lib, ular guberniya boshqarmasi huquqlariga ega bo'lishgan. Viloyat ijtimoiy hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko'rilgan.

Viloyatlar o'z navbatida tuman (uyezd)larga bo'lingan. Tumanlar Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy tuzilmasining o'zagini tashkil etdi. Har bir tu-

man o'z tarkibidagi shahar va qishloqlari bilan tuman hokimi – tumanboshiga bo'ysungan. Tumanboshi viloyat harbiy gubernatori tavsiyasi bilan bevosita gubernator tomonidan tayinlangan va katta vakolatga ega bo'lgan. Turkistondagi tumanboshilarning Rossiyadagi hamkasblaridan farqli tomonlari shu ediki, ular ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatlarni o'zida birlashtirgan, odamlarga jarima solish, 7 kungacha hibsdan saqlashi mumkin bo'lgan, shu boisdan uni «hokim to'ra» deb ham atashgan.

Tuman (rayon)lar bir necha jabha (uchastka)larga bo'linib idora qilingan. Jabhalarni boshqaruvchi harbiy zobitlar jabha pristavlari nomi ostida «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom»da tilga olinadi. Imperator tomonidan 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan bu «Nizom»da qasaba pristavlariga mahalliy aholidan istalgan odamga jarima solish (5 so'mdan 10 so'mgacha) va 3 kungacha hibsdan saqlab turish huquqi berilgan edi. Qasaba pristavlari «harbiy-xalq boshqaruv»dagi harbiy bo'g'inning eng quyisi bo'lib, ularga «mahalliy o'z-o'zini boshqaruv», ya'ni «xalq boshqaruv» amaldorlari – volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari, yuzboshi hamda ellikboshilar bo'ysunishgan.

Turkiston o'lkasida podsho ma'muriyati qishloq boshqaruvini «yerli» (тыземное) va «rus» kabi ikki toifaga ajratgan. Rus amaldorlari «yerlilar» (тыземец) atamasi bilan Turkistondagi barcha o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, qoraqalpoq, arab, uyg'ur va dunganlarni tushungan. Turmush tarziga ko'ra esa, rus amaldorlari barcha aholini ikkiga: «qirg'izlar» va «sartlar»ga bo'lishgan. Qirg'izlar deganda ko'chmanchi, sartlar deganda o'troq aholi nazarda tutilgan.

Rossiya hukumati siyosiy nuqtayi nazardan kelib chiqib, qishloq, uning boshqaruvini mahalliy va rus boshqaruvini sifatida ajratib, uni asta-sekin umumimperiya turidagi ruscha idoraga o'tkazishni ko'zladi. Shu maqsadda O'rta Osiyoga mutlaq yot bo'lgan geografik islohn boshlab, volost, qishloq yig'ini kabilarni joriy qildi. 1867-yildagi «Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini boshqarish haqidagi Vaqtli Nizom loyihasi» deb atalgan qonunlar majmuasiga ko'ra ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tarzi joriy qilindi.

Volost (bo'lis) asosini 1 mingdan 2 ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa 100 o'tovdan 200 o'tovgacha aholi tashkil etgan. Mahalliy aholi orasidan (xonadon yoki o'tovdan) volost boshqaruvchisi (mingboshi), qishloq oqsoqollari (yuzboshi, ellikboshi, o'nbooshi) hamda ovul starshinasi (oqsoqoli) uch yilga saylanar, ularning nomzodlari esa rus ma'muriyati tomonidan tasdiqdan o'tgan. 1886-yilda kuchga



kirgan yangi qonunlar majmuasi – «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'troq aholining bir bosqichli boshqaruvini ikki bosqichliga aylantirib, oqsoqolliklarni volostlarga birlashtirdi. «Nizom» avvalgidek aholini «qirg'izlar va sartlar» sifatida emas, balki «o'troq va ko'chmanchi» degan atama bilan ajratdi.

Turkiston o'lkasida viloyat va tuman boshqarmalari shaharlarda joylashgan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan va Ashxobod o'lkaning asosiy shaharlari hisoblangan. Rus ma'muriyati Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi etib, shahar boshqaruviga alohida e'tibor berdi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1870-yilda Toshkentda 80 mingga yaqin aholi yashagan. XIX asr oxirlarida Toshkentda 20 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta hammom, 15 ta karvonsaroy, 11 mingta loy suvoqli pahsa uylar bo'lib, shahar aholisining soni tobora oshib borgan. Ruslar Toshkentning sharqiy qismidan joy tanlab, tanlangan joydagi mahalliy aholini ko'chirib, Rossiyadan kelganlar yashaydigan uylar, ko'chalar, oromgohlar qurdilar. Shaharning bu qismi Yangi shahar deb ataldi. Shaharni hokim boshqargan.

Rus hukumatining ma'muriyati tomonidan Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqiladi va u 1877-yilda Sankt-Peterburgda tasdiqlangach kuchga kirdi. Nizomga ko'ra Toshkent shahar Dumasi va boshqarma saylash nazarda tutilgan. Shaharning o'zini o'zi boshqarish organlari – shahar Dumasi Toshkentda, so'ngra boshqa shaharlarda tashkil etiladi. 1877-yilda maxsus Muvaqqat komissiya tuzilib, saylovlar, saylovchilar mulkdorlik darajasiga qarab uch toifaga ajratiladi. 3000 so'mdan ortiq qo'zg'almas mulkka ega bo'lganlar birinchi, 1000 so'mdan ortiqlari ikkinchi, 500 so'mdan ziyod mulk egalari uchinchi toifaga kiritildi. Mustamlakachilik nuqtayi nazaridan yangi shahar qismida mulk seni mulk qiymatuning bir foizi sifatida belgilandi. Shahar ziyolilari, ishchilar va hunarmandlarning qo'zg'almas mulkka ega bo'lmaganlari saylov huquqidan mahrum etildi. Har bir toifa shahar boshlig'i – hokim to'ra raisligida saylov yig'inini tuzdi. 2400 saylovchi ishtirokida o'tgan yig'inda shahar dumasi va boshqarmasi saylanadi. Ruslar uchun noiblarning uchdan ikki qismi miqdorida o'rin ajratiladi. Shahar dumasi farmoyish beruvchi, noiblardan (гласный) saylanuvchi boshqarma (управа) esa ijroiya hokimiyatga ega bo'ldi.

Shahar boshqaruvi faoliyatini nazorat qiluvchi viloyat idorasi tuziladi. Uning raisi Sirdaryo harbiy gubernatori edi. 1888-yilda rus imperatori Toshkentni boshqarish ishini ma'qullagani holda uni nazorat qilishni general-gubernatorga topshiradi. Ichki ishlar vaziri huquqi harbiy okrug qo'mondoni zimmasiga yuklanadi. Duma oqsoqoli harbiy vazir tomonidan tayinlanadi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi asosiy tayanch ma'muriy va majbur qiluvchi tashkiloti – bu politsiya idorasi edi. U juda katta vakolatlarga ega bo'lgan. Politsiya ma'muriyati mustamlakachilik qonun-qoidalariga amal etishni nazorat qilar, mahalliy xalqning istalgan shubhali shaxsni istalgan paytda hibsga olar edi. Amaliy hayotda esa politsiyaning o'zi inson huquqlarini qo'pol ravishda buzardi.

Podsho hukumati politsiyaga suyangan holda Turkiston o'lkasi idorasini eng quyi bo'g'inidan oliy bug'inigacha o'z qo'lida tutgan. General-gubernatorning o'zi bosh mirshab vazifasini o'tagan. Hokimi mutlaq general-gubernator o'lkadagi istagan odamini, xoh o'zbek xoh rus bo'lishidan qat'i nazar, imperiyaning chekkalariga 5 yil muddatga surgun qilishi huquqi qonunan mustahkamlangan edi. U harbiy bo'lmagan fuqarolar ustidan harbiy sudlar hukmini tasdiqlashdek ichki ishlar vaziri vakolatlarini ham o'z qo'lida jamlagan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari, tumanboshilar, qasaba pristavlari ham politsiya generallari va zobitlari vakolatlariga ega bo'lganlar. Bundan tashqari, o'lkada ichki ishlar vazirligining idoralari, uning vakillari ham shunga muvofiq ish ko'rishgan.

Turkiston shaharlarida polismeyster lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari ham tumanboshilar huquqlari bilan tenglashtiriladi. Toshkentda yangi va eski shahar polismeysterlari ish olib borgan. Ularga politsiya pristavlari bo'ysungan. Mahalliy ma'muriyat – volost boshqaruvchilari va oqsoqollar ham quyi mirshablik zobitlari vakolotlariga ega bo'lib, ularga yollangan mirshablar xizmat qilgan.

Mustamlakachilik ma'muriyatining muhim huquqiy bo'g'ini sud organlari hisoblangan. 1867–1886-yillar mobaynida o'lkada umumsaltanat rus sudlari va xalq sudlari, ya'ni shariat asosida ish ko'ruvchi qozi sudlari faoliyat ko'rsatar edi.

Rus sudlari	Xalq sudlari (qozi sudlari)
<p>Rus sudlari hududiy bo'linishga ko'ra tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, mirovoy sudyalar qurultoylari, harbiy sud komissiyalaridan iborat bo'lgan.</p>	<p>Turkiston o'lkasida uch turdagi «xalq sudlari» mavjud bo'lib, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Yettisuv viloyatlarining o'troq aholisi uchun shariat, ko'chmanchilar uchun odat, ya'ni <i>biy sudlari</i> va Kaspiyorti viloyati uchun ulardan farqli maxsus «xalq» sudlari faoliyat ko'rsatgan.</p>

1886-yildagi «Nizom»ga ko'ra mavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O'lkada viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat prokurori va uning yordamchisi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etiladi. Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir

etilgan «jinoyat»lar ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini ag'darish maqsadida harakat qilgan siyosiy «jinoyat»chilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi.

Rus imperiyasi Davlat Kengashi tomonidan sud islohoti tizimlari 1893-yil 2-iyunda tasdiqlandi. Toshkent shahrida sud palatasi, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlarida bittadan okrug sudlari ta'sis qilinadi.

1899-yil 14-may Toshkent sud palatasining tantanali ochilish marosimi bo'ldi. U o'lkaning barcha sud organlari faoliyatini boshqarar va nazorat qilar edi.

Rossiya hukumatining siyosiy tushga ega bo'lmagan barcha fuqarolik ishlari xalq sudlariga topshirilgan edi. Xalq sudlari shariat qonunlari asosida mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining fuqarolik va jinoiy ishlarini ko'rishgan.

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilganidek, Turkiston general-gubernatorligiga Buxoro amiri va Xiva xoni vassal sifatida bo'yundirilgan. Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi olib borgan bosqinchilik siyosati natijasida 5 marta (1868, 1873, 1885, 1894, 1900) Rossiya – Buxoro shartnomalari imzolangan. Ushbu shartnomalarning shartlariga ko'ra podsho Rossiyasiga Buxoro amirligi hududidan har tomonlama foydalanish imkoniyati berilgan.

**1885-yil 25-iyul shartnomasida** Buxoro amirligi hududidan temiryo'l o'tkazishga kelishilgan. Yo'l qurilishi uchun 6 ming desyatina yer ajratilib, rus ma'murlari ixtiyoriga topshirilgan. Buxoro – Rossiya siyosiy, iqtisodiy munosabatlari jonlanib ketganligi, bu munosabatlarda Rossiya manfaatlarini himoya qilish maqsadida podsho Aleksandr III ning 1885-yil 12-noyabrdagi farmoni bilan 1886-yil 1-yanvardan boshlab Buxoroda «**Rossiya imperatorligining siyosiy agentligi**» – vakolatxonasi ta'sis etildi. 1903-yil 6-mayda podsho Nikolay II vakolatxona huquqlarini kengaytirdi. Mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishga xizmat qilgan bu muassasaga barcha siyosiy-iqtisodiy, harbiy masalalar yuzasidan amir hukumati bilan munosabatda bo'lish, amir va uning vazirlari ustidan nazorat o'rnatish, Zarafshon daryosining suv taqsimoti bilan shug'ullanish, Buxoro – Afg'oniston chegaralarini kuzatib turish, Buxorodagi rus qarorgohlarida gazetalar va teatr pyesalari ustidan nazorat o'rnatish huquqlari berilgan. 1917-yil Rossiyadagi Fevral inqilobidan so'ng agentlik nomi o'zgartirilib – Rossiya vakolatxonasiga aylantirildi. **1894-yil 27-may shartnomasi** iqtisodiy xususiyatga ega bo'lib, unga ko'ra har yili 15-noyabridan 10-martgacha Zarafshon daryosining suvi amirlik yerlariga to'liq, 10-iyundan 15-avgustgacha (dehqonchilik uchun suv eng kerak paytda) esa faqat 40% oqiziladigan bo'lgan. **1900-yil 27-yanvar shartnomasiga**



**Buxoro amiri Olimxon (1881–1944) mulozimlari va rus zobitlari davrasida**

ko'ra Amudaryo qirg'og'idagi 10514 desyatina yer (Termiz va uning atroflari) harbiy istehkomlar va chegara to'siqlari qurilishi uchun ajratilib, mustamlakachilar qo'liga berildi. Yangi Termiz shahri Rossiya ixtiyoriga o'tdi.

1873-yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Amudaryo okrugi, 1874-yildan markazi Petroaleksandrovsk (To'rtko'l) bo'lgan Amudaryo bo'limi tuzilgan. Gubernator vakolatiga ega bo'lgan *Amudaryo bo'limi boshlig'i* Xiva xonligida Rossiya imperiyasining siyosiy nazoratini 1918-yilgacha amalga oshirgan.

Muhammad Rahimxon II (1865–1910) amirdan farqli o'laroq mustaqil bo'lishga intilgan. Zukko davlat arbobi va ma'rifatparvar inson bo'lgan, xalq o'rtasida Feruz shoir sifatida shuhrat qozongan Muhammad Rahimxon II Afg'oniston amiri, Turkiya va Angliya vakillarini yashirin qabul qilgan hamda muzokaralar olib borgan.

Xivada o'tkazilgan boj islohoti (1885) xonlikni rus mollari bozoriga aylantirgani, pul islohoti esa (1900–1907) iqtisodni mushkul ahvolga solgani xonni ana shunday harakatlarga undagan edi. Rossiya xonlikning ichki mustaqilligiga ham raxna solib tanga zarb etishni man etgani Muhammad Rahimxonni jiddiy tashvishga solgan edi.

XX asr boshlarida imperiya hukmron doiralarda Buxoro va Xivaning ichki mustaqilligini yo'qotib ularni butunlay Rossiyaga qo'shib olish masalasi 1909-yildagi ikki kengashda, 1910-yil 28-yanvarda Bosh vazir P. Stolipin boshchiligidagi Vazirlar Kengashi Maxsus majlisida, 1916-yilda imperator huzuridagi maxfiy kengashda atroficha muhokama etilgan edi. Rossiya imperiyasining Turkistonda



Xiva xoni Muhammad Rahimxon II  
(1845–1910) saroy amaldorlari davrasida

yuritgan ma'muriy-boshqaruv tizimi o'zbek xalqining davlatchilik borasidagi azaliy boy tajribalariga barham berish va ruscha idora uslubini qat'iy joriy yetishga qaratilgan bo'lib, Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya guberniyalariga aylinishi uchun barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy choralar ko'rilgan edi. Shunday qilib, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining oqibatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

**Birinchidan**, mahalliy xalqning siyosiy va fuqarolik huquqlari poymol etildi; **ikkinchidan**, ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlanib, iqtisodiy muvozanat buzildi va mustabid davlatga qaramlik kuchaydi; **uchinchidan**, mahalliy xalqning turmush darajasi pasayib ketdi; **to'rtinchidan**, O'rta Osiyo Rossyaning xomashyo bazasiga aylantirildi; Dastlab harbiy maqsadda keyin esa Rossiya sanoatini arzon xomashyo bilan uzluksiz ta'minlab turish uchun Turkistonga temiryo'llar yotqiziladi. Xususan, temiryo'llar 1881-yil Qizil Arvot, 1885-yil Ashxobod, 1886-yil Marv, Chorjo'y (hoz. Turkmanobod), Amudaryogacha yetgan. 1887-yil temiryo'llar Yangi Buxoro (hoz. Kogon) va Samarqandga qadar qurildi. 1899-yilda Farg'ona vodiysi va Toshkent temiryo'l bilan o'zaro bog'landi. 1906-yilda Toshkent – Orenburg temiryo'li qurib bitkazildi. 1915-yil Buxoro – Qarshi – Termiz, Buxoro – Qarshi – Shaxrisabz – Kitob temiryo'llari qurib, foydalanishga topshirildi. **Beshinchidan**, mustamlaka hudud jahon taraqqiyoti va madaniyatidan chetda qoldi.

**3. Imperiya istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.** Rossiya imperiyasining Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati albatta qonuniy suratda mahalliy aholining o'z milliy ozodligi, erki va insoniy xaq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas jangga otlantiradi. Imperiya tomonidan asoratga solingan, mustamlaka qilingan xalqlar dastlabki kunlardan boshlab o'z milliy mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun muqaddas kurashib keldilar. Quyidagi jadvalga e'tibor bering:



№	Mustamlakachilik zulmiga qarshi qo'zg'olonlar va harakatlar	Sanasi
1	Sirdaryoda Jonxo'ja Nurmuhammad qo'zg'oloni	1856
2	Samarqand mudofaasi va Buxoro amirligi Buxoro shahri, Shahrisabz bekligidagi harakatlar	1868
3	Mang'ishloq qirg'izlarining isyonlari	1870
4	Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar	1871
5	Farg'ona (Mingtepa)da Yetimxon qo'zg'oloni	1871
6	Chirchiqdagi isyonlar	1872
7	Qo'qon xonligida Mullo Is'hoq Hasan o'g'li boshchiligidagi «Po'latxon qo'zg'oloni»	1873–1876
8	Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon	1885–1886
9	Toshkent qo'zg'oloni («Vabo isyoni» yoki «Toshotar voqeasi»)	1892
10	Muhammad Ali xalfa Sobir o'g'li – Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo'zg'oloni	1898
11	Sirdaryo viloyatidagi harakatlar	1899
12	Jizzax qo'zg'oloni	1916

Rossiya imperiyasi hukumatining olib borgan siyosatiga qarshi milliy ozodlik kurashlari juda ko'p bo'lgan. Biz yuqorida ularning ba'zilarinigina sanab o'tdik. 1887–1897-yillar mobaynida Farg'ona, Samarqand va Sirdaryoda, mustamlakachilar idoralariga qarshi 668 marta hujum bo'lgan. 1897–1917-yillar orasida Turkistonda Rossiya bosqinchilariga qarshi 4922 marta isyon bo'lgan. Ana shu qo'zg'olonlar va milliy ozodlik kurashlaridan ba'zilarini eslash joizdir.

**Toshkent qo'zg'oloni** 1892-yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda ham rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga «Vabo isyoni» yoki «Toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon boshlandi. Rasmiy doiralar bu qo'zg'olon vaboga qarshi rus amaldorlari qo'llagan tadbirlardan norozilik tufayli kelib chiqqan, deb izohlashga urindilar. Shuning uchun ham uni «Vabo isyoni» deb nomlashdi. Shunchaki qaraganda, chindan ham shunday bo'lgan. 1892-yilda Afg'onistonda tarqagan vabo kasali o'sha yili O'rta Osiyoga ham tarqaldi. Ushbu yilning may oyida Jizzaxda vabo bilan og'rigan kishilar haqidagi xabar butun o'lkaga tarqaldi va Sirdaryo viloyatiga o'tadigan kechuv oldida ehtiyot yuzasidan kuzatish bekati tashkil qilindi. Iyun oyida Toshkentda ham vabo tarqalgani ma'lum bo'ldi. Yangi shaharda 417, Eski shaharda 1462 bemor aniqlandi.

1892-yil 7-iyunda Toshkent shahar ma'muriyati 12 eski qabristonni yopadi va yangi 4 qabriston ochilishini, shahardan chiqish cheklanganini e'lon qildi. Ammo mustamlaka ma'muriyati tibbiyot nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lgan bu tadbirlarni o'tkazishda aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olmadı. Vabodan o'lganlarni vrachning ruxsatisiz ko'mmaslik buyurildi hamda ularni shahar ichidagi mozorlarga dafn etish taqiqlandi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Epidemiya stansiyasi ruxsatisiz dafn etilgan musulmon mayyitlar qabrlaridan qazib olinib boshqa joyga tashib ketilardi. Shahar murdalarga to'lib ketganligidan ruxsat olish uchun 3–4 kunlab kutish kerak edi, chunki bittagina stansiya ishlar va u ham butun shahar bo'ylab kezib yurardi. Odamlar noiloj o'likni yashirincha eski mozorlarga ko'ma boshladilar. Bundan xabar topgan politsiya pristavi «gunohkor» marhumlar qarindoshlarini topib hibsga ola boshladi. Qabrlarni ochib, o'lganlarning ruhi haqorat qilindi. Bu musulmonchilik urf-odatiga mutlaqo to'g'ri kelmas edi. Qo'zg'olon chiqishiga bu hol faqat bir bahona bo'ldi, xolos. Aslida esa bunga mahalliy mehnat ahlining og'ir ahvoli, amaldorlarning suiiste'molliklari, har xil tovlamachiliklar va boshqalar sabab bo'lgan edi.

**Qo'zg'olon 1892-yil 24-iyunda boshlandi.** Mingga yaqin kishi eshonlardan Azizyor, Abulqosim, bozor oqsoqoli Ziyo Muhammad va boshqa taniqli kishilar rahbarligida shahar boshlig'i mahkamasiga bostirib bordi. Bu yerda Toshkent hokimi S.R. Putinsev va shaharning katta oqsoqoli Muhammad Yoqubga qarshi hujum qildilar. Oqsoqol xalqqa dag'dag'a qila boshlagach, uning boshiga toshlar yog'ilgan. Mashhur «Toshotar voqeasi» boshlangan. Oqsoqol hokimning idorasiga yashiringan. Xalq Putinsevdan oqsoqolni tutib berishni talab qilgan. Putinsev to'pponchasini chiqarib dag'dag'a qilishga o'tgan. Sabr kosasi to'lgan xalq bunga javoban Putinsev va uning mirshablarini do'pposlagan, mahkamani vayron qilgan. Shu paytda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I. Grodekov boshchiligidagi askarlar kelishi tufayli qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ldilar. Rus askarlar qo'zg'olonchilarning orqasidan quva boshlagach, noiloj qolgan olomon Anhor suviga o'zini tashladi. Ertasiga Anhordan 80 kishining o'ligi topildi.

Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Eski shaharga qochib bordi. Jome masjidi oldida to'plangan olomon bu yerga ketma-ket yetib kelgan Grodekov boshchiligidagi askarlarni toshbo'ron qildi. Bunga javoban o'q uzildi va 10 kishi halok bo'ldi, ko'pchiligi yaralandi. Shu ravishda qo'zg'olon bostirildi. Qo'zg'olonchilarning bir qismi oqsoqol Muhammad Yoqubning shahar hovlisini va bog'ini yoqib yubordi.

Mustamlakachi ma'murlar qo'zg'olonchilarni shafqatsiz jazoladilar. Qo'zg'olon qatnashchilaridan 60 kishini sudga berib, 3 kishini o'limga va 20 kishini turli muddatlar bilan qamoq jazosiga hukm qildi. Qo'zg'olon sodir bo'lgan bu joy Toshkentda «Jangob» nomi bilan mashhur.

Rus mustamlakachilari qo'zg'olonchilarni jazolash bahonasida o'zlariga yoq-magan mahalliy ziyolilarni, xalqni ko'tarishga qodir ma'rifatparvar va millatparvarlarni ham qatag'on qildi. Xususan, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I. Grodekov 1892-yil 1-iyulda general-gubernatorga yo'llagan axborotida qo'zg'olonning tasodifiy bo'lganini ta'kidlab, uning asosiy tashkilotchilarini hibsga olganini va Turkistonda imperiyaning mustamlaka hukmronligi qaror topganini bayon etgan. Axborotda 24-iyun voqealariga olib kelgan harakatning asosiy rahbari va haqiqiy sababchisi deb shaharning osiyoliklar yashaydigan qismi oqsoqoli In'omxo'ja Umarxo'jaev (1833–1896)ni va uning eng yaqin kishilari (yuzboshi Ahmadxo'ja Abdurashidxo'jaev, qudasi Usmonxo'ja, Shayxovandtahur dahasining qozisi Sharifxo'ja Poshshoxo'jaev)ni ko'rsatgan.

In'omxo'ja Umarxo'jaev 1892-yilgi qo'zgoning asosiy tashkilotchilari qatorida Turkiston harbiy okrugi sudi tomonidan shafqatsiz jazoga mahkum etiladi. 12 yil muddat katorgaga hukm qilingan. Sobiq bosh oqsoqolning xalq o'rtasidagi e'tiboridan cho'chigan Turkiston general-gubernatori bu jazoni 4 yil qamoq bilan almashtiradi. Oltmishni qoralab qolgan In'omxo'ja Qo'qon turmasida vafot etadi. Shoir Muqimiyning «Tarixi favti noibi Toshkandiy» marsiyasi uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan.

Yuzboshi Ahmadxo'ja Abdurashidxo'jaev ham millatparvar ziyolilardan bo'lib, mustamlakachilarga nisbatan muxolif kishilardan edi. Sud uni osib o'ldirishga hukm qiladi, ammo keyinchalik bu jazo 15 yillik katorga bilan almashtiriladi. Jazo muddatini o'tash davomida Ahmadxo'janing sog'ligi yomonlashib Toshkentga qaytadi va 1907-yili vafot etadi.

Shariat qozisi Sharifxo'ja Poshshoxo'jaev (1814–1904)ning taqdiri ham ayanhli kechdi. Uni podsho ma'murlari 1892-yilgi qo'zg'olonning asosiy tashkilotchisi sifatida to'rt o'g'li bilan birga qamoqqa oladi. Harbiy sud 80 yoshdagi Sharifxo'jani 3 yil muddatga Ashtarxon guberniyasiga surgun qiladi. Ammo shahar jamoatchiligining ariza-iltimoslari bilan bu jazo muddati bir yilga qisqartiriladi.

Bu qo'zg'olon Toshkent shahrining o'zida yuz bergan bo'lsa-da, uning aks sadosi butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqaldi.

**Andijon qo'zg'oloni** XIX asr oxirlarida Rossiyaning siyosatiga qarshi o'lka xalqlarining milliy ozodlik harakatining yana bir yorqin namunasi 1898-yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan Dukchi Eshon qo'zg'oloni orqali namoyon bo'ldi. Bu qo'zg'olonga Andijondagi poytug'lik Eshon Sultonxon To'raning muridi, «Dukchi Eshon» nomi bilan mashhur bo'lgan 42 yasharlik Muhammad Ali xalfa (Madali Eshon, 1856–1898) boshchilik qiladi. Muhammad Ali 1856-yilda Farg'ona shahridan 25 chaqirim janubiy g'arbdagi Chimyon qishlog'ida o'rtahol dehqon va hunarmand Muhammad Sobir oilasida tug'ilgan. Uning avlodlari asli qashqarlik bo'lishgan.

Muhammad Ali juda aqlli va odobli bola bo'lgan. Oilasining nochor hayoti tufayli maktabda o'qiy olmagan. Lekin mustaqil o'qib savodxon bo'lgan. Otasi yonida yurib beshik, keyinchalik esa paxsa urish kasblarini egallagan. Shu bois uni «usta» ham deyishgan. Oilasi bilan 10 yoshida Mingtepadagi Tojik qishloqqa ko'chib ketgan. Muhammad Ali shu atrof yaqinda nom chiqargan va hatto Qo'qon xonligida ham hurmati bo'lgan mashhur Sultonxon to'ra xizmatiga kiradi va o'zining mehnatsevarligi, aqli, odobi va taqvodorligi bilan Eshonning o'g'illari qatoridan joy oladi. Sultonxon to'raning Qoradaryoning o'ng sohilida – Poytug'da ham yerlari bo'lgan. U shu yerga ko'chib borib 3–4 yil yashaganda Muhammad Alini ham o'zi bilan bu yerga olib keladi. 1882-yilda Sultonxon to'ra vafot etadi. Vafoti oldidan u o'z shogirdi Muhammad Aliga «eshonlik» to'g'risida xati irshodni (yo'llanma xatni) yozib imzo qo'yib muhrlab bergan edi. 1887–1893-yillarda u Makka-yu Madinaga borib haj qilib, Hindiston va Rossiya shaharlarida bo'lib qaytadi. 30 yoshida Muhammad Ali Makkai Mukarramaga borib kelgach, o'zini Eshon deb e'lon qiladi. Uning muxlislari Mingtepa qishlog'ida unga mos hovli-joy olib berishgan.

Andijon qo'zg'olonining tub mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, qo'zg'olon xarakteri va yo'nalishiga ko'ra xalq ozodlik kurashi edi. U diniy bayroq ostida olib borildi. Qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab va bahonalar ko'p bo'lib, asosan 1886-yilda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom» tufayli o'lkada yanada kuchaygan mustamlakachilik zulmi siyosatidan norozilik edi. Bu «Nizom»ga ko'ra mustamlakachilik siyosati va mustamlaka rejimi qonun yo'li bilan mustahkamlangan edi. Uning asosida rus ma'murlari o'lka mehnatkash aholisi yerlarining ancha qismini majburan tortib olib, rus oilalariga berish uchun yer fondini tuzdilar. Soliqlar ko'paytirildi, dehqonlar daromadining 10 foizi hajmida yer solig'i va umumiy o'lponlarning 35 foiz hajmida zemstvo yig'imi joriy etildi. Bunday vaziyatda xalqning ahvoli yanada og'irlashdi.

Eshonning zamondoshi Fozilbek Otabek o'g'li «Dukchi eshon voqeasi» kitobida qo'zg'olon boshlanib ketishining quyidagi sabablarini keltiradi:

- ma'muriyat oq podshoning nomini xutbaga qo'shib o'qishga majburlaydi, Qur'ondan kofirlar to'g'risidagi ba'zi oyatlarni chiqarib tashlashga farmoyish qiladi;
- pristavning qayerda bo'lmasin o'tganini beixtiyor ko'rmay qolib o'rnidan turmagan musulmonlar kaltaklandi, qamaldi;
- qora qirg'izlarning yerlari tortib olinib, rus dehqonlariga berildi, o'zlari esa tog'larga haydab yuborildi;
- cho'b, og'iz, tuyoq puli kabi bir qancha jarimalar o'ylab topilib, mehnatkashlarning mollari tortib olindi va h.k. (Qarang: Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi. – T.: 1992. – 30–31-b.)

Rossiya imperiyasining xalqqa qarshi mustamlakachilik, zo'rlik va adolatsiz siyosatidan ezilgan xalq Dukchi Eshonga murojaat qilib erk uchun muqaddas kurashga fatvo berishini hamda bu kurashga rahnamolik qilishini so'raydi. 1898-yil 14 may kechqurun Muhammad Ali (Dukchi Eshon) uyida Farg'ona viloyatining turli bo'lislaridan kelgan vakillar ishtirokida maxsus kengash bo'ladi. Shu kengashda Muhammad Ali yig'ilganlarni mustamlakachilarga qarshi bosh ko'tarishga, ularni yurtdan haydab, ona-Vatan mustaqilligini tiklash uchun kurashga chaqiradi. Ko'pchilik bu taklifni ma'qullaydi. Kengashda Muhammad Ali ma'lum qilgan rejaga binoan mustabid hukumatning vodiydagi 3 shahar – Andijon, Marg'ilon va O'shda joylashgan harbiy lagerlariga bir kunda hujum qilishga, bu hujum muvaffaqiyatli tugasa, Qo'qonda ham qo'zg'olon ko'tarishga kelishiladi. Marg'ilondagi harbiy lagerga Inoyatxon To'ra, O'shdagi harbiy lagerga Umarbek dodxoh, Andijondagi harbiy lagerga esa Muhammad Ali eshon boshchiligida hujum qilinishi kerak edi.

16-may kuni kechqurun yana Eshon xonadonida kengash bo'lib, unda mingga yaqin odam qatnashadi. Shu kengashda Eshonning 14 yoshli jiyani Abdulaziz (Musulmonqul) xon qilib ko'tarilajagi kelishildi. 17-mayda esa to'satdan Dukchi Eshonning hovlisiga 200 dan ortiq kishi bostirib keladi va undan darhol qo'zg'olonni boshlash talab qilinadi. Butun rejalar barbod bo'ladi. Shu kuni jiyani Abdulazizni emas, balki eshonni oq kigizga o'tkazilib, xon deb ko'tariladi. Qo'zg'olon stixiyali ravishda boshlanib ketadi.

1898-yil 17-may shom nomozida Tojik qishlog'idagi masjidga juda ko'p odam to'plangan. Namoz paytida Muhammad Ali xalqqa murojaat kilib, ularni mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga da'vat etadi. Qo'zg'olonchilar Muhammad Ali eshon boshchiligida Mingtepadan Andijon shahri tomon yo'l



olishadi. Yo'l-yo'lakay qo'zg'olonchilar safi to'lib borib, shaharga yaqinlashganlarida ularning soni 2000 ga yetadi. Shahar yaqinida Muhammad Ali eshon o'z jangchilarini oxirgi marta ko'rikdan o'tkazadi. U qo'zg'olonchilarni 5 qismga bo'lib, har qaysi qismga bittadan bayroq beradi. Harbiy lagerga qilinadigan hujum oldidan so'nggi nutqini so'zlaydi. U qo'zg'olonchilarni oxirgi daqiqalargacha o'z qasamyodiga sodiq qolishga, Vatan ozodligi uchun muqaddas kurashga da'vat etdi. So'ngra qo'zg'olonchilar Andijon harbiy lageriga hujum qiladilar. To'qnashuv paytida harbiy garnizon jangchilaridan 22 kishi o'ldirildi, 24 askar yarador bo'lgan. Yarim soat davom etgan qattiq jangdan so'ng jangovar tayyorgarligi durust bo'lmagan va qurol-yarog'i nochor qo'zg'olonchilar guruhi to'qnashuv joyida o'lgan 11 nafar va yarador bo'lgan 8 nafar odamlarini qoldirib chekinishadi.

Marg'ilon va O'sh uyezdlaridagi harbiy garnizonlarga hujum uyushtirish rejaları esa amalga oshmay qoladi, chunki rus amaldorlari bundan xabar topib, mudofaa uchun zarur choralarni ko'rib ulguradilar. O'sh uyezdida mustabid hukumatga sotilgan xoin – uyezd mingboshisi Qorabek Hasanov o'z xalqiga xiyonat qilib, mustamlakachilarning harbiy kuchlariga qarshi tayyorlanayotgan hujum haqida podpolkovnik Zaysevga xabar yetkazadi. Bu voqeadan xabar topgan Umarbek dodxoh yaxshi qurollanmagan xalqni qurollangan, shay turgan harbiylarga qarshi qo'zg'olonga boshlashga jur'at etmaydi.

Marg'ilon harbiy lageriga hujum ham amalga oshmadi. 17-may kuni kechqurun belgilangan joyga odam to'planmadi. Buning ustiga shu kuni yakshanba, ya'ni dam olish kuni bo'lib, harbiy lagerda qandaydir marosim bo'layotgandi. Bunday vaziyatda hujum boshlash xatarli edi. Shu bois Inoyatxon To'ra o'z odamlari bilan Andijonga jo'nab ketgan qo'zg'olonchilarni quvib yetib, ular safiga qo'shiladi.

Qo'zg'olon haqidagi xabarlar Namangan uyezdi, Yettisuv va Sirdaryo viloyatlariga ham yetib bordi va bu yerdagi aholi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Biroq bu harakatlar ham bostiriladi.

Andijondagi qo'zg'olondan xabar topgan Rossiya imperiyasi hukmdori Nikolay II qo'zg'olonchilardan shafqatsiz bostirish uchun rahbarlik qilishga Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori A.I. Korolkovni tayinlaydi. Natijada qo'zg'olon vahshiylik bilan bostirildi. Qo'zg'olon olib borish usullaridan bexabarlik, birlikning yo'qligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi qo'zg'olonning tezda mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi, ayniqsa qo'zg'olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi, harakat mag'lubiyatining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Lekin mag'lubiyatiga qaramay qo'zg'olonning aks sadosi

butun Farg'ona vodiysiga taraldi. Asaka, Quva, Shahrixon, O'sh, Marg'ilon kabi shaharlar va qishloqlarda harakatlar keng yoyildi. Bu harakatlar ham rus qo'shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi. Andijon qo'zg'oloni munosabati bilan butun Farg'ona vodiysida dahshatli qatag'on uyushtirdilar. Muhammad Ali 19-mayda kechqurun Arslonbob qishlog'ida qo'lga olinadi.

Podsho Nikolay II qo'zg'olonchilarni «namuna» bo'ladigan darajada qattiq jazolash uchun ko'rsatma berdi. Ana shu ko'rsatma asosida qo'zg'olonchilar ustidan olib borilgan sud jarayoni 3 oy davom etadi. General-mayor Terentyev raisligida o'tgan harbiy sud materiallari «Андижанское дело» 20 jildni tashkil qilgan. Dastlab 447 kishi sud qilinadi va 800 ga yaqin kishi guvohlikka chaqiriladi. 1898-yil 12-iyunda qo'zg'olon rahbari bo'lgan Muhammad Ali va uning yaqin maslakdoshlaridan 5 nafari Andijon shahri markazida butun vodiy jamoatchiligining 8 mingga yaqin vakili ko'z o'ngida osib o'ldirildi.

Shundan so'ng qo'zg'olonning boshqa qatnashchilari jazolandi. Ulardan 18 nafari osib o'ldirishga hukm qilindi. 344 nafari 4 yildan 20 yilgacha muddatga, 3 nafari umrbod katorgaga, 8 nafari turli muddatga qamoq jazosiga hukm qilindilar. 18 kishi Sibirga surgun qilindi. Jami 388 kishi jazolandi. Qo'zg'olon markazi bo'lgan Mingtepa, Qashg'ar, Tojik qishloqlari 3 kun to'plardan o'qqa tutilib, kultepaga aylantirildi.



**Muhammad Ali xalfa  
Sobir o'g'li Do'kchi  
Eshon (1856–1898)**

**Qo'zg'olonchilar ustidan  
chiqarilgan hukm**

**Andijon qo'zg'oloni va uning  
ishtirokchilari haqida rasmiy  
axborot**

Andijonda ko'tarilgan qo'zg'olon podsho hukumatini dahshatga soldi. Qo'zg'olon natijasida Farg'ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi. O'lkada harbiy-siyosiy va ma'muriy tartiblarni zo'r berib shafqatsiz ravishda amalga oshirishga kirishildi. Eshon xonaqohini cherkov qilishga qaror qilindi. Mingtepaning nomi ataylab «Marhamat» deb o'zgartirildi. Rus aholisi bu yerlarga ko'plab ko'chirib olib kelindi. Majburiy ravishda masjid va madrasalarda rus tilini o'qitishga kirishildi va uni o'lkada davlat tiliga aylantirish yo'llari belgilandi.

**Jizzax qo'zg'oloni** Jizzax va uning atrofi aholisining chor mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakatidir. Ma'lumki, XX asr boshlariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'lka hududida demokratik-inqilobiy harakatlar avj ola boshladi. Bu harakatlarni biz nafaqat rus aholisi orasida, balki mahalliy mehnatkashlar orasida ham kuzatamiz.

Turkiston o'lkasi hududida temiryo'llarning qurilishi, zavod va fabrikalarning ishga tushirilishi Rossiya markaziga ko'plab o'lka boyliklarini chiqib ketishini osonlashtirdi. Bu jarayon mahalliy aholi ahvolini yanada og'irlashuviga sabab bo'ldi. Turkiston o'lkasi hududida dehqonlar g'alayonlari, norozilik chiqishlari ortib bordi.

1914-yili boshlagan birinchi jahon urushida Rossiya Germaniya va Turkiyaga qarshi kurashga kirishdi. O'zining uquvsizligi tufayli urushda katta talafotlarni ko'rdi. Rus qo'mondonligi urush og'irligini mustamlakalar yelkasiga ortib, ularni ayovsiz ezish siyosatiga o'tdi. Natijada mahalliy xalqdan olinadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Turkiston o'lkasi hududida yersiz dehqonlarning soni ham ko'paydi. Shu bilan birga, imperator Nikolay II 1916-yil 25-iyunda «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholining harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida» farmon chiqardi. Unga ko'ra, Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni safarbar qilish ko'zlangan edi. Ushbu farmonga muvofiq hozirgi O'zbekiston hududlaridan 19 – 43 yoshgacha bo'lgan 250 mingdan ziyod erkak aholi front ortidagi ishlarga (mardikorlikka) chaqiriladigan bo'ldi. Mardikorlikka olish haqidagi farmon 3-iyulda e'lon qilingan.

Turkiston general-gubernatoriga Farmonni tezlikda amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Farg'onaga 50 ming

mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Farg'ona viloyati boshqalarga qaraganda ancha yengil majburiyat oldi – har besh xonadondan bir mardikor beradigan bo'ldi. Bunday imtiyozning sababi shunda ediki, vodiy rus to'qimachilik sanoati uchun boy xomashyo makoni bo'lib, u bilan yirik rus sanoatchilari manfaati bog'liq edi. Farg'onadan ko'p ishchi kuchining safarbar qilinishi rus sanoatchilari uchun zarur paxta tolasining kamayib ketishi va mustamlakadan olinuvchi ustama foydaning pasayib ketishi mumkin edi. Paxta yakkahokimligi o'z kuchini 1916-yil 2-iyuldagi Toshkentda bo'lib o'tgan oliy amaldorlar kengashida ham ko'rsatdi.

Mardikorlikka ketadiganlar 3 oyda qaytib kelishlari va bungacha ularning oilalari hukumat tomonidan ta'minlanishi va'da qilindi. Ro'yxatga olish davomida amaldorlar boylik orttirish payida bo'lishib, boylarning bolalarini pul evaziga ro'yxatga kiritishmadi. Bu xalq noroziligining ortib borishiga sabab bo'ldi. 1916-yil iyul oyidan mahalliy aholining qo'zg'oloni boshlandi. Birinchi bo'lib 4-iyulda Xo'jand xalqi qo'zg'olon ko'tardi, ayni paytda, Samarqand, Jizzax va Kattaqo'rg'on tumanlarida ham g'alayonlar boshlandi. 5-iyul Samarqand viloyatida, 9-iyul Farg'ona viloyatining Andijon shahrida, 10-iyul Marg'ilonda, 11-iyul esa Namangan, Samarqand va Toshkentda mardikorlikka olishga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi. Mustamlakachilar voqealarning bunday borishidan tashvishga tushib qoldilar. 1916-yil 17-iyulda Nikolay II ning farmoni bilan Turkiston harbiy okrugida harbiy holat joriy etilib, fuqarolik boshqaruvi to'la ravishda harbiy qo'mondonlik ixtiyoriga topshirildi. General-gubernatorga ham bosh qo'mondon sifatida katta vakolatlar berildi. 18-iyul kuni Turkistonda harbiy holat e'lon qilinadi.

Barcha viloyatlarida avj olgan g'alayonlar keskinlashib xalq qo'zg'oloniga aylandi. Ayniqsa, Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida bu voqealar uyushgan va oshkora tus oldi. Ma'muriyat taqsimotiga ko'ra Jizzax uyezdi 11 ming mardikor berishi kerak edi. Halokat yoqasiga kelib qolgan aholi 5-iyul kuniyoq dastlabki noroziliklar va g'alayonlarni amalga oshirdi. **Jizzaxda qo'zg'olon 1916-yil 13-iyulning erta tongida boshlandi.** 8 kun davom etgan qonli to'qnashuvlarda qo'zg'olonni harakatga keltirgan asosiy kuch dehqonlar



1916-yilgi milliy ozodlik qo'zg'oloni qatnashchilari

va hunarmand kambag'allar bo'ldi. Bu qo'zg'olon aniq maqsadlar – Rossiyadan ajralib, mustaqil bo'lish maqsadi ostida, uyushgan tarzda olib borilgan edi. Nazirxo'ja Abdusalomov, Abdurahmon jevachi, Mulla Mahamad Rahim, Ziyoqori Abdullayev, Mamasharif Husanov, M. O'rinxo'jayev, Musabek To'rabekov, Abdulla Ochilov kabi xalq yo'lboshchilari qo'zg'olonga boshchilik qildi.

Jizzax shahri aholisi 13-iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro'yxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'plandilar. Tumanboshi podpolkovnik Rukin, bosh oqsoqol Yo'ldashev, pristav, tilmochlar o'ldirildi. Mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro'yxatni topib olib yondirib tashladilar. Nazirxo'ja eshon Jizzax beki deb e'lon qilinadi. Qo'zg'olonni bostirishga yetib kelgan podpolkovnik Afanasevning jazo otryadi katta zarbaga uchradi. Qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. Nazir Hoji eshon boshchiligida qo'zg'olonchilar yangi shaharga tomon yurdilar. Jazo otryadi bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi. Qo'zg'olonchilar telefon simlarini uzib, neftli baklarni yondirib, binolarni vayron qildilar. Lomakino bekatida temiryo'l ko'prigi, relslar buzib tashlandi. Obruchevo, Kurapotkino, Rostovsovo temiryo'l bekatlari ham vayron qilindi, 6 ta temiryo'l ko'prigi buzib tashlandi. Abdurahmon jevachi boshchiligidagi kuchlarning Bog'don volostida ham g'alayonlari boshlanib, Jizzax tomon yuradilar.

1916-yil 15-iyulda Jizzaxga polkovnik Ivanov boshchiligidagi jazo otryadi yuboriladi. Butun uyezdga polkovnik Ivanov tayyorlagan e'lonlar tarqatiladi. Unda barcha qo'zg'olonchilar qirib tashlanishi, ularning mol-mulki xazinaga (davlat ixtiyoriga) o'tkazilishi ta'kidlanadi. 18-iyulda Jizzaxda qo'zg'olon shu qadar katta bo'ldiki, tarixchilar 1916-yilgi qo'zg'olonni Jizzax qo'zg'oloni deb ataydilar. Rus qo'shinlari bilan so'nggi to'qnashuv 1916-yil 21-iyulda Qilich qishlog'ida bo'lib o'tdi. Ivanov boshchiligidagi katta harbiy kuchlarga ega bo'lgan jazo otryadi qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho'lga haydaladi. Mingga yaqin kishi hibsga olindi.

Qo'zg'olon bostirilgach, uning yo'lboshchilari jazoga tortilib, o'limga mahkum etildi. Jumladan, Jizzax qo'zg'olonining rahbari Nazirxo'ja Abdusalomov boshchiligida 76 kishi ustidan 1916-yil 23-avgustda Zakomolskiy raisligida yopiq harbiy sud majlisi bo'ldi. Sud ishi yakuniga ko'ra 32 kishi otuvga hukm qilindi. 1916-yil 10-sentabrda hukm ijro etilib, Nazirxo'ja Abdusalomov, Jaynoq Abdurahmonov, Ziyoqori Abdullayev, Muhammadrahim Abdurahimov va boshqalar osib o'ldirildi.



Ushbu qo'zg'olon Turkiston xalqiga juda katta talafotlarni olib keldi. Turkiya olimi Ibrohim Yorqinning hisobiga ko'ra 1916-yil 25-iyunda Nikolay II farmoyishi bilan boshlangan «mardikorlar qo'zg'oloni» deb atalmish qo'zg'olonda 1917-yil boshiga qadar taxminan 1,5 million kishi qatl qilindi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda 1916-yilgi qo'zg'olon oqibatida Turkiston aholisidan 673 ming kishi o'ldirildi, 300 mingdan ziyod aholi xorijga chiqib ketdi. 1 million kishining mol-mulki musodara qilinib, talon-toroj etildi. Aholidagi otlarning 50%i, sigirlarning 39% i, tuyalarning 55% i, qo'y-echkilarning 50% i o'lgan va musodara qilingan edi.

1916-yil 23-avgustida Turkiston general-gubernatori A. Kuropatkin mardikorlikka safarbarlik tadbirlari to'g'risida buyruq chiqardi. Buyruqda mardikorlikka olinadigan odamlar soni aniq ko'rsatildi: Sirdaryo viloyati 60 ming, Samarqand viloyati 32407, Farg'ona viloyati 51233, Yettisuv viloyati 43 ming va Kaspiyorti viloyati 13830 kishi. Safarbarlik 1916-yil 18-sentabrdan to 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi g'alabasiga qadar davom etdi.

Xullas, 1916-yilgi qo'zg'olon butun mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng qudratli va uyushgan qo'zg'olon edi. Jizzax qo'zg'oloni tarixda «Jizzax fojiasi» degan nom qoldirdi. U Fozil Yo'ldosh o'g'lining «Jizzax qo'zg'oloni» nomli dostonida o'zining to'liq aksini topgan.

**4. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va jadidlarning faoliyati.** Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Krimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. U 1884-yil martda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va u «usuli savtiya tadrijiya» («rivojlanuvchi tovush usuli») maktabi bo'lgan. Yangicha usul – «usuli jadid» – savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o'qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. Ismoilbek 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo'ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va Mo'minxo'ja Vobkendiy va g'ijduvonlik Domla Fozil sa'y-harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga «Muzaffariya» degan nom berilgan.

Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini tashkil yetishga kirishdilar. Birinchi bo'lib (Husaynov mablag'i hisobiga) 1893-yili Samarqandda, 1898-yili Qo'qonda Salohiddin domla tomonidan, o'sha yili To'qmoqda (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni «no'g'oy maktab»

deb atagan), 1899-yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900-yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903-yili M. Behbudiy o'z mablag'i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. 1907-yili To'raqo'rg'on (Namangan viloyati)da Is'hoqxon to'ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabini ochgan. 1908-yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911-yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib, ularda 4106 bola o'qigan. Toshkentning o'zida 24 ta bunday maktablarda 1740 bola o'qigan. 1917-yil boshlarida o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o'quvchi bo'lgan.

Jadid maktablari, ya'ni yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uyg'unlashtirilib, maktabxonadagi yakka o'qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o'tildi, sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar paydo bo'ldi. Ularda xat-savod bolalarning ona tilida tovush usuli – usuli savtiyada o'rgatildi. Jadid maktablarida Qur'oni karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o'qitila boshlandi.

Maktablar asosan 1–4-sinfdan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913/14 o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahziriy (boshlang'ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M. Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevning Qo'qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5–6 sinf) ham ish boshlagan.

Jadid maktablari pullik va pulsiz edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat, bir so'mdan bir yarim so'mgacha pul to'ladi. Bu o'rinda har ota-ona o'zlarining boylik va kambag'allik darajalarini shariat asosida belgilab pul beradilar. 20–35% gacha kambag'al va nochorlarning bolalari tekin o'qitilib, o'quv qurollari bilan ham ta'minlangan. O'ziga to'q oilalar esa o'z xohishi bilan uch so'mdan va undan ham ko'p pul bergan. Bulardan tashqari jadidlar shaxsiy va ularning o'zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag' bilan ta'minlab turgan.

Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar.

Jadid maktablari qat'iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar.

Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar.

№	Yangi usul maktablari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalar	
1	Saidrasul Saidazizov (1866–1933)	1902-yilda «Ustodi avval» darsligi yaratdi. Bu darslik 17 marta nashr etilgan
2	Mahmudxo'ja Behbudiy	«Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiasiga kirish», 1905), «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettirgan
3	Abduqodir Shukuriy	«Jomi' ul-hikoyat» (1907), «Zubdat ul-ash'or» (1907) kabi o'quv qo'llanmalarini yaratgan
4	Munavvarqori Abdurashidxonov	«Alibi avval» va «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk» va Qur'onni qiroat bilan o'qish usuliga oid qo'llanmasi – «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya» (Shariat qonunlari to'plami), «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912), «Yer yuzi», ya'ni «Jug'rofiya» (1916–1917), 4 qismdan iborat «O'zbekcha til saboqligi» darsliklari bir necha marta chop etilgan
5	Abdulla Avloniy	«Birinchi muallim» (1911), «Ikkinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913) va boshqa qo'llanma va o'qish kitoblar yozib, nashr qildirgan

Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma'rifiy harakatning, ya'ni eski maktablarning qiyin o'qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o'qitishga o'tishdangina iborat emasdi, ayni chog'da turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga o'rgatilishi, milliy-ma'rifiy, taraqqiyot va milliy istiqloq muammolarini ham o'z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloqchilik yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta'siri katta bo'ldi.

Jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar,

keyinchalik jadidlar deb atashgan. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. U o'sha davrda Turkistondagi milliy ozodlik harakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Jadidchilik o'z tarixida ikki bosqichni o'tgan. Birinchisi – ma'rifatchilik bosqichi va ikkinchisi – siyosiy bosqich. Ammo jadidlarinig davlatchilik masalasiga nisbatan qarashlari birinchi davrdanoq shakllangan edi.

№	<i>Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari</i>
1	Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish
2	«Usuli qadim»ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo'lga olib chiqish
3	Milliy davlat bunyod etish
4	Konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish
5	Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish
6	Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish

Bu g'oya va maqsadlar 1917–1920-yillarda «Turkiston muxtoriyati», Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida qisqa muddatda va qisman bo'lsa-da amalga oshirildi.

№	<i>Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy tarixiy shakllari</i>	
1	Hududi	Yetakchilar
2	Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi – Bulg'or va Janubiy O'rol	Ismoilbek Gasprinskiy, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloh Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin rahnamolik qildi
3	Turkiston	Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar
4	Buxoro	«Yosh buxoroliklar» hukumati, Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmon Xo'ja (Po'latxo'jayev Usmon xo'ja), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va boshqalar
5	Xiva	«Yosh xivaliklar» hukumati, partiyaning asoschisi Polvonniyoz Hoji Yusupov, Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar



**Mahmudxo'ja Behbudiy**  
(1875, Samarqand –  
1919.25.3, Qarshi)



**Abduqodir Shukuriy**  
**Abdushukur o'g'li**  
(Abdushukur, 1875–1943)



**Munavvarqori**  
**Abdurashidxonov** (1878,  
Toshkent – 1931.23.4,  
Moskva)



**Abdulla Avloniy**  
(1878, Toshkent –  
1934.24.8)



**Ubaydullaxo'ja**  
**Asadullaxo'jayev**  
(Xo'ja Ybaydulla, 1878,  
Toshkent – 1973)



**To'lagan Xo'jamiyorov –**  
**Tavallo** (1883,  
Toshkent – 1937.10.11)



**Abdurauf Abdurahim o'g'li**  
**Fitrat** (1886, Buxoro –  
1938.4.10, Toshkent)



**Obidjon Mahmudov**  
(1858 – Qo'qon – 1936)



**Is'hoqjon Junaydullaxo'ja**  
**o'g'li Ibrat** (1861,  
Namangan, To'raqo'rg'on  
tumani – 1937, Andijon)



**Cho'lpon – Abdulhamid**  
**Sulaymon o'g'li Yunusov**  
(1898, Andijon –  
1938.4.10, Toshkent)



**Ashurali Zohiriy**  
(1885, Andijon –  
1938.4.10, Toshkent)



**Polvonniyoz Hoji**  
**Yusupov**  
(1861 – Xiva – 1936.14.3)



Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltirishda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Tavallo (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Is'hoqxon to'ra Ibrat, Hamza, Cho'lpon, Muhammadsharif So'fizoda, Ashurali Zohiriy (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) muhim rol o'ynadi. Ushbu siymolarning sa'y-harakati bilan jadidchilik harakati taraqqiy etdi.

### Jadidchilikning Turkistondagi tadrijoti

I. 1885–1895-yillar: G. Ismoilbekning «Tarjumon» gazetasi ta'sirida Qo'qonda yangi – jadid usulidagi maktablar ochish harakatlari boshlanib, ular asta-sekin rustuzem maktablari bilan raqobatlasha boshlagan.

II. 1896–1904-yillar: Qrimdagi Gaspra shahridan G. Ismoilbekning Buxoro va Samarqandga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashishi natijasida 1895-yilda jadid maktablarini tashkil etish davri – Buxoroda Jo'raboy, Samarqandda A. Shakuriy, S. Aziziy, A. Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, A. Avloniy, Qo'qonda Hamza, Namanganda I. Ibrat, So'fizoda va boshqa siymolarimiz ochgan jadid maktablari o'z faoliyatlarini olib boradilar.

III. 1905–1914-yillar: jadidchilikning maktab-maorifdan kengroq gazetchilik, ya'ni ro'znomalar va jaridalar chop etish, matbaa ishlarini yo'lga qo'yish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat-maorifni milliy lashtirish bosqichi.

IV. 1914–1917-yillar: jadidchilikning o'ta ijtimoiy-siyosiy yo'nalish kasb etishi, jadidchilik siyosiy firqalarining tuzilishi va ularning uch xil turli talablar qo'yishi: 1) Rossiyadan to'la ajralib chiqish; 2) Rossiya Federatsiyasi tarkibida «milliy-hududiy muxtoriyat» tuzish; 3) Rossiya unitarizmi tarkibida faqat ma'naviy-diniy muxtoriyat huquqlari kafolatiga ega bo'lish.

V. 1917-yil oktabr – 1918-yil: Qo'qonda «Turkiston Muxtoriyati»ning tuzilishi va uning tugatilishi davri.

VI. 1918–1924-yillar: sovet tizimi tarkibida maorif-matbaa ishlarida «Chig'atoy gurungi»ni tuzish bilan ajralib turadi. «Chig'atoy gurungi» – Turkiston jadidlari tomonidan tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy tashkilot (1919–21). Fitrat boshchiligida Toshkentda tuzilgan.

VII. 1925–1930-yillar: jadidchilikning keyingi taraqqiyoti «milliy jumhuriyatlar» doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida «Chig'atoy gurungi» g'oyalari zimdan amalga oshirishga, milliy ozodlik harakatini jonlantirishga urinishda namoyon bo'ldi.

VIII. 1931-yildan to 50-yillarning birinchi yarmigacha qatag'on siyosati orqali jadidchilik harakatiga to'la barham berildi.

№	<i>Turkiston mintaqasidagi jadidchilikning shakllanishiga ko'ra o'ziga xos tomonlari</i>	
1	<b>Turkiston jadidchiligi (Toshkent, Samarqand, Farg'ona)</b>	O'lkadagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, imperiyaning xomashyo manbayiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar
2	<b>Buxoro jadidchiligi</b>	Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlar kirgan. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo'lingan edi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida «Yosh buxoroliklar» (1910–1920) partiya tashkil topdi
3	<b>Xiva jadidchiligi</b>	XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacha-roq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning <b>o'ng oqimi</b> xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning <b>so'l oqimi</b> esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi

3	<p style="text-align: center;"><b>Xiva jadidchiligi</b></p>	<p>Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalaniq qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lgan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda jadidchilik «Yosh xivaliklar» partiya shaklini olgan. U o'z faoliyatini 1921-yilda yakunladi</p>
---	---	--

Har qanday harakatda bo'lgani kabi bu harakat ham o'z iqtisodiy asosiga ega. Aks holda u, bu darajada rivojlanmagan bo'lur edi. Jadidlar har xil xayriya va boshqa madaniy-ma'rifiy jamiyatlarini tashkil etish, boy va badavlat kishilarning ortiqcha mablag'larini millat va Vatan manfaati yo'lida sarflashga ham katta e'tibor berdilar. Toshkentlik Sayidkarim Sayidazimboy o'g'li, turkistonlik Saidnosir Mirjalilov (taniqli yozuvchi Oybekning qaynotasi, 1884–1937), andijonlik Mirkomil

Mirmo'minboyev (1882–1918) va boshqa boylar jadidchilik harakati rivojlanshiga katta iqtisodiy hissa qo'shdilar.



Mirkomilboy Mirmo'minboyev  
tijoratchi do'sti Yoqubjon Eshon  
Yahyoxo'ja Eshon bilan

Jadidlar xayriya jamg'armalari orqali iste'dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish, usuli jadid maktablarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu maktablar uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratish, xorijdagi talabalarga moddiy yordam ko'rsatish ishlari bilan shug'ullangan.

1904-yil Xivada «Jamiyati xayriya» tuzilib, uning ko'magi bilan 1904-yil 10-noyabrda Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. 1908-yil «Buxoroi sharif shirkati» tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Shu yili jadidlari tomonidan Buxoroda ma'rifiy jamiyat – «*Tarbiyai atfob*» («Bolalar tarbiyasi») tashkil etgan. Bu jamiyatning asoschilari Abduvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Hamidxo'ja Meqriy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar. Jamiyat

a'zolari soni 100 ga yaqin bo'lib, ularni Muhiddin Mansurov, Sadr Ziyo moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Jamiyatning sa'y-harakati va yordami bilan 1908-yilda 14 ta, 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta buxorolik va turkistonlik yoshlar Istanbulda tahsil olgan. «Tarbiyai atfol»ning ko'magi asosida Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti» va «Sayha» asarlari, shuningdek, S. Ayniy, A. Burhonov, Ikrom domla va boshqalarning kitoblari Turkiyada nashr etilib, Turkistonda tarqatilgan.

1909-yilda xayriya jamg'armalarini tashkil etish faollashdi. Abdulla Avloniy ham «*Jamiyati xayriya*» tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. 1909-yili Toshkentda Munavvarqori tomonidan «*Jamiyati Imdodiya*» tuzgan. U ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o'qishga yuborishga yordamlashigan. «*Ko'mak*» xayriya jamiyati ham Toshkentda 1909-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning ta'assischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo'jayev va Toshxo'ja Tuyuqboyevlar bo'ldi. «*Ko'mak*» jadid maktablariga katta yordam ko'rsatadi va iste'dodli yoshlarni xorijga o'qishga yuborishga ko'maklashgan. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi.

Jadidchilik harkatida faol ish olib borganlarning aksariyati shoir-u yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyotda ma'rifat va ozodlik g'oyalari markaziy mavzuga aylanib, davr voqealari o'z aksini topdi. Adabiyotga «millat» va «vatan» tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga e'tibor va rag'bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publisistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi.

Jadid adabiyotida dramaturgiya, ya'ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko'zga tashlanadi. Jadid g'oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san'atining ta'sir ko'rsatishi kuchli bo'ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayandalari o'z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog'liq holda olib bordilar.

Jadidlar o'zbek xalqi hayotiga tom ma'nodagi milliy teatrni olib kirdi. O'zbek milliy teatrni shakllantirishda Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari nihoyatda kattadir. 1912-yilda yozilib 1913-yilda bosilgan «Padarkush» dramasi Behbudiyga juda katta shuhrat keltirdi. Garchi birinchi o'zbek dramasi («Mahramlar») xronologiyaga ko'ra bir yilcha oldin Namanganda Abdulrauf Shahidiy tomonidan e'lon qilingan bo'lsa-da, bu sohada ham karvonboshi bo'lib Behbudiy tarixga kiradi. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo'yiladi.



«Turon» truppasi a'zolari

Munavvarqori Abdurashidxonov homiyligida 1913-yil Toshkentda musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati – «Turon» nomli birinchi teatr truppasi ochilgan.

Truppaning badiiy rahbari Abdulla Avloniy edi. Truppa o'z faoliyatini 1914-yil 27-fevalida Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosi (2000 tomoshabinli) da «Padarkush» (M. Behbudiy) spektakli bilan boshlagan. Tadqiqotchilarning ma'lumotiga qaraganda, «Padarkush» pyesasidan keyin 1917-yilgacha o'zbek dramalarining soni 40 ga yetgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon shaharlarida turli truppalarda vujudga kelgan. Shunday qilib, milliy jadid adabiyoti dramaturgiyasi va teatri paydo bo'ldi.

Jadidlar xorijga qilgan safarlari asosida olingan bilimlari ta'sirida, o'zbek an'anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga, ya'ni Yevropa ko'p ovoqli musiqa san'atining yutuqlaridan unumli foydalanishga da'vat yetishgan. 1919-yilda Toshkentning Eski shahar qismi (hozirgi «Turon» kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (Eski shahar) bo'limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san'at vositasi bilan millat qadrini ko'tarish, san'atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar.

Jadidchilik harakatining yana bir muhim tomoni bu milliy matbuot va jurnalistikasiga asos solinishi edi. Turkiston jadidlari rus demokratik va inqilobiy harakatining yutuqlaridan ham samarali foydalandilar. Imperator Nikolay II inqilobiy-demokratik harakat bosimi ostida 1905-yil 17-oktabrda maxsus manifestga imzo chekib, demokratiya, matbuot va so'z, har xil yig'inlar o'tkazish erkinligini joriy qilishga majbur bo'ldi. Buni jadidlar katta quvonch bilan kutib oldilar. Mana



shundan so'ng jadidlar millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzam minbar bo'lgan gazeta va jurnallarni tashkil etish uchun juda shaxdam kurashdilar.

<i>Jadidchilar faoliyati asosida shakllangan matbuot</i>		
<b>№</b>	<b>Toshkent</b>	
1	1906-yil 14(27)-iyun	« <b>Taraqqiy</b> » gazetasi – muharriri Ismoil Obiliy. «Taraqqiy» tom ma'nodagi ilk milliy nashr hisoblanadi. 19-soni chiqqanidan so'ng «Taraqqiy» yopib qo'yilgan. Muharriri qamoqqa olinib, nashriyotning moi-mulki musodara qilingan. «Taraqqiy»ning ilk soni chiqqan 27-iyun 1993-yildan buyon mamlakatimizda «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni» sifatida nishonlanadi
2	1906-yil 7-sentabr	« <b>Xurshid</b> » («Quyosh») – ilk o'zbek gazetalaridan biri. Muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov. Haftada 1 marta nashr etilgan.
3	1907-yil 1-dekabr	« <b>Shuhrat</b> » gazetasi. Haftada 2 marta chiqarila boshlangan bu gazetada rasmiy muharrir Abdulla Avloniy deb yozilsa-da, ammo amalda unga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan.
4	1908-yil 9-aprel	« <b>Osyo</b> » gazetasi – muharriri Ahmadjon Bektemirov. Jami 5 soni chiqqan, mustamlakachi ma'murlari tomonidan yopilgan.
5	1914-yil 4-aprel–1915-yil 10-aprel	« <b>Sadoi Turkiston</b> » («Turkiston ovozi») – gazetasi muharriri Asadul-laxo'jayev Ubaydullaxo'ja
6	1915–1918- yillarda	« <b>Al-isloh</b> » – turkistonlik jadidlar va so'l ulamolar jurnali. Muharriri Abdurahmon Sodiq o'g'li (Sayyoh). Islom dinini isloh qilishga urinilgan. 5-soni chiqqach, faoliyati to'xtatilgan
7	1917-yil fevral	« <b>Najot</b> » gazetasi – muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov. Jami 20 soni chiqqan
8	1917-yil iyun – sentabr	« <b>Kengash</b> » gazetasi. Turkiston musulmonlari Markaziy sho'rosining nashri. «Najot» gazetasining (1917-yil mart – iyun) o'rniga chop etilgan. Gazetaga dastlab tarixchi olim Ahmad Zakiy Validiy, keyinchalik Munavvarqori Abdurashidxonov muharrirlik qilgan. «Kengash» Turkiston muxtoriyati g'oyasini keng targ'ib qilgan. Jami 16 soni chiqqan. 1917-yil oktabrda «Turon» gazetasi bilan birlashib, «Turk eli» nomi bilan nashr etilgan
9	1917-yil	« <b>Turon</b> » gazetasi – muharrirlari A. Avloniy va M. Afandizoda. Haftasiga 3 marta chop etilgan. 1917-yilning iyulida nashr ishlari to'xtatilgan bo'lsa-da, yana bir qancha muddat nashr etilgan

10	1917-yil 25-aprel	«Ulug' Turkiston» gazetasi – muharrirlari Sodiq Abdusattorov, Kabir Bakirov, P. Domogatskiy. Gazeta dastlab (41 soniga qadar) «Туркестанские ведомости» matbaasida, keyinchalik «Umid» matbaasida chop etilgan (jami 155 soni chiqqan). 137-sonidan boshlab gazetaning oxirgi sahifasi kiril imlosi (ruscha)da berilgan
11	1917-yil 16-may	«Sho'roi islom» gazetasi. «Sho'roi islomiya» jamiyatining nashri. Haftada 2–3 marta chop etilgan. Muharriri A. Battol. Gazeta 1917-yil iyunda moddiy muammolar tufayli o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan
12	1917-yil sentabr	«Turk eli» gazetasi. «Turkiston Musulmon Markaziyat sho'rosi» va «Turk Adam Markaziyat firqasi»ning nashr organi sifatida chiqa boshlagan. Siyosiy tuzum o'zgarishi bilan gazeta faoliyati tez orada to'xtatilgan
13	1918-yil May	«Turk so'zi» gazetasi – muharriri Temurbek Xudoyorxonov. Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida Saidalixo'ja Eshonxo'ja o'g'li boloxonasida chop qilingan. Haftada 2 marta chiqqan. Gazeta «Birlashgan turk o'rtoqligi» jamiyati nashri hisoblangan
№	<b>Buxoro</b>	
1	1912-yil 11-mart – 1913-yil 12-yanvar	«Buxoroyi sharif» gazetasi – muharriri Mirzo Jalol Yusufzoda. Gezeta Kogon shahrida 1913-yilning 2-yanvarigacha tojik tilida chiqqan. Dastlab haftasiga 6 marta, keyin 3 marta nashr etilgan. Jami 153 soni chiqqan. «Buxoroyi sharif» Rossiya bosh siyosiy boshqarmasi tomonidan taqiqlangan
2	1912-yil 14- iyuldan 1913-yil 2-yanvarigacha	«Turon» gazetasi – muharriri buxorolik G'iyos maxsum Husayniy. Yangi Buxoro (hoz. Kogon) shahrida nashr etilgan mazkur gazeta o'zbek tilida dastlab haftasiga 2 marta, so'ngra 3 marta nashr qilingan. Jami 49 soni nashr etilgan
№	<b>Samarqand</b>	
1	1913-yil 15-aprel	«Samarqand» gazetasi – muharriri M. Behbudiy. Haftada 2 marta o'zbek, fors va rus tillarida chiqqan. 1913-yil 17-sentabrda 45-soni chiqqach, moddiy qiyinchilik sababli to'xtagan
2	1913-yil 20-avgustda 1-soni chiqqan	«Oyna» – o'zbek tilidagi to'ng'ich jurnal muharriri M. Behbudiy. 2 tilda – o'zbek va fors tillarida chop etilgan. Jurnal avvaliga haftada 1 marta 24 sahifada, keyinroq 15 kunda 1 marta 35 sahifada chiqarilgan. «Oyna» 1915-yilning 15-iyuniga qadar nashr qilingan. Jami 68 ta soni chiqqan

3	1917-yil 16-aprel	« <b>Hurriyat</b> » gazetasi – muharrirlari Akobir Shomansurov, Mardonqul Shomammedov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin Shukrullo. Haftada 2 marta chiqib turgan. Gazeta milliy ishlar komissarligi tomonidan 1918-yil aprelda to'xtatildi
№	<b>Qo'qon</b>	
1	1914-yil 3-aprel 1915-yil 26-may	« <b>Sadoi Farg'ona</b> » («Farg'ona ovozi») gazetasi – muharriri qo'qonlik Obidjon Mahmudov (taxallusi Obid Chatoq). Gezeta asosan o'zbek tilida nashr qilingan. 1914-yilning 17 iyuldan «Ферганское эхо» nomi bilan haftada 3 marta rus tilida ham chiqqan. Jami 122 soni chiqib, so'ng to'xtatilgan
2	1917-yil 8-sentabr	« <b>El bayrog'ib</b> » milliy gazetasi – muharriri dastlab Bulat Solinev, keyinroq Ashurali Zohiriy. Qo'qon shahrida «G'ayrat» kutubxonasi tomonidan nashr etila boshlagan. 1917-yil 13-dekabrda keyin Turkiston muxtoriyatining rasmiy gazetasiga aylangan. 20-soni chiqib to'xtagan
3	1917-yil	« <b>Kengash</b> » taraqqiyparvar adabiy jurnali – muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy, keyinchalik M. Rizoiy. Jurnal 2 haftada 1 marta chiqqan. Jami 6 soni nashr etilgan
4	1917-yil	« <b>Yurt</b> » jurnali – muharriri Ashurali Zohiriy

Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo'lga qo'yila boshlandi. Toshkentda Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar 1911-yilda tashkil etgan ko'p tarmoqli «Turon» nomli jamiyat sovet hokimiyatining dastlabki yillarigacha samarali faoliyat yuritadi. Uning qoshida yuqorida ta'kidlangan teatr truppasi «Turon» nomli kutubxona va nashriyot (1913) ham tashkil etiladi. Bular butun Turkiston bo'ylab ma'rifat va ziyo, ilm-fan tarqalishi, kitob chop etish va bosmaxona ishlari rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Qo'qonda «G'ayrat» (1913), Samarqandda «Zarafshon», To'raqo'rg'onda (Namangan viloyati) «Kutubxonayi Is'hoqiya» (1908) nomli kutubxonalar tashkil topadi. Shuningdek, jadid bosmaxonasi va kitob do'konlari ancha keng tarmoq otdi.

Turkiston jadidlari, ayniqsa, birinchi jahon urushi davrida o'z faoliyatini kuchaytirdi. Taraqqiyparvar o'zbek ziyolilarining yetakchisi A. Ubaydullaxo'ja 1913-yil Andijonda «Taraqqiyparvar» deb nom olgan ziyolilarning firqasini tuzdi va 1914-yildan nashr etilgan «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» gazetalari firqaning asosiy targ'ibot kuchi edi.

Jadidlarning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g'oyatda e'tiborga molikdir. Mardikorlikka jo'natish haqidagi oq podsho farmoni (1916-yil 25-iyun)ni bekor qildirish uchun Asadullaxo'jayev Ubaydullaxo'ja rus revolyutsioneri-demokrati V.A. Chaykin bilan birga mahalliy millatparvar boy Mirkomil Mirmo'minboyevning mablag'i, xomiyligida Peterburgga bordi.

Davlat dumasining 1916-yil dekabrda majlisida farmon Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani isbotlab berildi. Farmon Dumada muhokama kilingunga qadar iyun – avgust oyida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to'xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to'la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro'sini ko'tardi. Mazkur holat jadidlar ma'rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o'tganliklarini bildirar edi. 1917-yildan jadidchilik harakati o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ygan edi. Shunday qilib, jadidlar xalq milliy-ozodlik harakatiga g'oyaviy-mafkuraviy va tashkiliy rahbarlik qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu esa jadidchilik, bu davrga kelib Turkistonda katta ta'sirchan ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanganligidan dalolat beradi.

## **12-MAVZU: Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat**

### *Reja:*

- 1. 1917-yil fevral inqilobining Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri.**
- 2. Oktabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi.**
- 3. Milliy hukumat – Turkiston Muxtoriyati va sovetlar andozasidagi avtonomiya – Turkiston ASSR.**
- 4. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining tuzilishi.**
- 5. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.**

Tayanch so'z va iboralar: 1917-yil fevral inqilobi, Sho'roi Islomiya, Sho'roi Ulamo, Ittifoqi musulmin. Oktabr to'ntarishi, Turkiston Muxtoriyati, Turkiston ASSR, «Yosh xivaliklar», Xiva xonligining ag'darilishi, «Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)», «Yosh buxoroliklar», Buxoro amirligining ag'darilishi, «Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР)». Istiqloqchilik harakati, Farg'ona, Buxoro va Xorazm qo'rboshilari.

### *Adabiyotlar ro'yxati:*

- Каримов И.А. Ўзбекистон халқи ўз йўлидан қайтмайди. Асарлар, 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 302–320.*

2. *Аззамхўжаев С.* История Туркестанской автономии: (Туркистон мухторияти). – Т.: Тошкент ислом университети, 2006.
3. *Аззамхўжаев С.* Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.
4. *Зиёева Д.* Туркистон миллий озодлик харакати: (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918–1924 йиллардаги халқ курашлари тарихшунослиги) / Д. Алимова таҳрири остида. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 2000.
5. *Иброҳим Карим.* Мадаминбек. – Т.: Ёзувчи, 1993.
6. *Потапова Н.Ю.* История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.). – Т.: УМЭД, 2011.
7. *Ражабов Қ., Хайдаров М.* Туркистон тарихи (1917–1924 йй.). Ўқув кўлланма. – Т.: Университет, 2002.
8. *Ражабов Қ., Хайитов Ш.* Усмон Хўжа (рисола). – Т.: 2011.
9. *Ражабов Қ.* Файзулла Хўжаев (тарихий эссе). – Т.: 2011.
10. *Ражабов Қ.* Мадаминбек (рисола). – Т.: 2011.
11. *Ражабов Қ.* Шермухаммадбек (рисола). – Т.: 2011.
12. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т.: Шарқ, 2000. – С. 80–112.
13. *Усмонов Қ., Содиқов М.* Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). – Т.: Шарқ, 2001.
14. *Хўжаев Мансурхўжа.* Шермухаммадбек кўрбоши: (Тарихий, хужжатли, бадний-публистик кисса). Масъул муҳаррирлар: Р.Шамсутдинов, Қ.Ражабов. – Т.: Шарқ, 2008.
15. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 462–494.
16. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 51–102.
17. Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.172–185.
18. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 381–426.
19. *Қўшжонов О., Полвонов Н.* Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва харакатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги) / Масъул муҳар. Қ. Ражабов. – Т.: 2007.
20. *Usmonov Q.* Ozbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – В. 218–247.
21. *Shamsutdinov R.* va boshq. Vatan tarixi. (XVI–XX asr boshlari); K.2 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – Т.: Sharq, 2010. – В.10–185.

**1. 1917-yil fevral inqilobining Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri.** Rossiya imperiyasining Antanta tarkibida turib birinchi jahon urushi (1914–1918)-da ishtirok etishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarga olib keldi.



Bu urush 1917-yil 27-fevral inqilobining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Mazkur inqilob natijasida imperator Nikolay II taxtdan ag'darildi va u 2 (15) martda taxtdan voz kechdi. Bu bilan Rossiyadagi Romanovlar sulolasining uch yuz yillik monarxistik hokimiyati barham topadi. Monarxiya siyosiy tuzumining barham topishi Rossiya imperiyasi va uning turli hududlarida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskin o'zgarishiga olib keldi. Buning natijasida Rossiyada ikki hokimiyatchilik vujudga keldi:

➤ Birinchisi, knyaz G.E. Lvov boshchiligida burjua-pomeshchiklar vakillaridan iborat – Muvaqqat hukumat. Davlat dumasi bu hukumatga mamlakatni boshqarish va Ta'sis majlisini chaqirib hokimiyat masalasini uzil-kesil hal qilish vazifasini topshiradi. Muvaqqat hukumat 1917-yil 2(15)-martdan 25-oktabr (7-noyabr) gacha faoliyat yuritgan.

➤ Ikkinchisi, Ishchi, askar, dehqon deputatlari Sovetlari. Bu hukumat ishchi va dehqonlarning demokratik diktatura organi bo'lgan, unga mensheviklar, kadetlar va eserlar boshchilik qildilar.

Agar burjuaziya Muvaqqat hukumati mamlakatni yuqoridan turib boshqaradigan organ sifatida faoliyat yuritib, asta-sekinlik bilan hokimiyat muruvvatlarini o'z qo'lga olib borgan bo'lsa, ishchi, askar, dehqon deputatlari sovetlari esa hokimiyatni quyidan boshqarishda qatnashib bordilar. Ularning hokimiyat organi – Petrograd Soveti huddi shu yo'nalishda faoliyat yuritdi.

Podsho Nikolay II ning taxtdan ketganligi to'g'risidagi xabar Toshkentga 28-fevralda kechasi yetib keldi. Ammo Turkiston general-gubernatori Kuropatkin monarxiyaning qayta tiklanishidan umidvor bo'lib bu xabarni xalqqa bildirishni istamadi. 3 martda fevral inqilobining g'alabasi to'g'risidagi telegramma matbuotda bosilgach, uning siri fosh bo'ldi. Bu inqilobga nisbatan mamlakatimiz jadidchilari ham xayrixohlik hissi bilan qarab baho beradilar. Jumladan, Abdulhamid Cho'lpon fevral inqilobini 1789–1793-yillardagi buyuk fransuz respublikasiga o'xshatgan edi.

1917-yil fevral inqilobi o'lka tub yerli xalqlari uchun hurriyat, mustaqillik va milliy muxtoriyatga yo'l ochdi. Uning ta'siri ostida Turkiston o'lkasida ommaviy milliy ozodlik harakatlari avj olib ketdi. Turkistonning yirik shaharlari hisoblangan Toshkent, Samarqand, Skobelev (Farg'ona), Andijon, Kogon (Buxoro), Namangan, Qo'qon, Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) va boshqa joylarda ko'p ming kishilik miting va namoyishlar bo'ldi. Masalan, 5-mart kuni Samarqand shahrida ko'p ming kishilik miting uyushtirildi. Kogondagi namoyishchilar soni 6 ming kishiga yetdi. 7-mart Petro-Aleksandrovskda bo'lgan ommaviy mitingda Amudaryo garnizoni askarlari ham qatnashdilar.

Ushbu miting va namoyishlarning tashabbuskorlari va qatnashchilari asosan Rossiyadan Turkistonga kelgan o'zga millatlarning vakillari bo'lsa-da, tub yerli mahalliy xalqlari ham bunday miting va namoyishlarni uyushtirganlar. Turkiston o'lkasining bir qator uyezd va shaharlarida jadidlar va ulamolalar rahbarligida tub yerli aholi qatnashgan miting va namoyishlar bo'lib o'tdi. Jumladan, 6, 9 va 13-mart kunlarida Toshkentning Eski Juva, Shayxontohur va boshqa mavzalarida jadidlar tashabbusi bilan musulmon ahlining ko'p ming kishilik miting va namoyishlari uyushtirildi. Demokratik inqilob va uning maqsad-vazifalariga katta umidvorlik bilan qaragan jadidlar, mehnatkashlar ommasini milliy istiqloq, erk va ozodlik uchun milliy birlik, jipslik va ahillikka chaqirdilar. Ana shunday mitinglardan biri 1917-yilning 9-martida Toshkentning Chorsu maydonida bo'lib o'tdi. Jome masjidi oldida to'plangan 20 ming kishilik mitingni jadidlarning «Turon» jamiyati uyushtirdi va unga Munavvarqori Abdurashidxonov, Islombek Xudoyorxonov va boshqa jadidlar rahnamolik qildilar. Ana shunday miting Andijonda, Jome masjidi oldida bo'ldi. Unda «Taraqqiyparvar»chi 27 yoshli Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev nutq so'zlab fevral inqilobi mohiyatini tushuntirib berdi.



Sa'dullaxo'ja  
Tursunxo'jayev  
(1891 – Toshkent –  
1938.4.10)

Inqilobning ta'siri ostida Turkistonda yangi siyosiy kuchlarning hokimiyat tuzilmalarini barpo qilish yuzasidan raqobat jarayoni boshlanib ketdi.

1917-yil 31-martda Turkiston general-gubernatorligi ag'darib tashlangandan so'ng uning o'rnida asosiy boshkaruv 7-aprelda Petrograddagi Muvaqqat hukumat-qarori bilan tasdiqlangan Turkiston qo'mitasi (komiteti) qo'lida jamlangan edi. Turkiston qo'mitasi bilan bir qatorda hamma joyda Muvaqqat hukumatning mahalliy organlari – ijroiya qo'mitalar, jamoat xavfsizligi qo'mitalari ham tuzilgan. Muvaqqat hukumatning viloyat va uyezd komissarlari esa ijroiya qo'mitalarga tayanib ish olib borgan. Kadet N.N. Shchepkin raisligida Turkiston qo'mitasi Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlari, shuningdek, Xiva va Buxoro doirasida vakolatga ega bo'lib, unga «mustahkam tartib o'rnatish va Turkiston o'lkasini tuzish» vazifasi yuklandi. Qo'mita tarkibiga 9 kishi kirgan bo'lib, ularning 4 nafari Alixon Bukeyxonov, M. Tinishboyev, Sadri Maqsudov, A. Davletshinlar turkiy xalqlar vakillari edi. Keyinchalik Turkiston qo'mitaning tarkibi o'zgartirildi.

1917-yil bahoridan Moskva va Petrograd ishchi va askar deputatlari sovetining da'vatiga muvofiq, butun Turkistonda ishchi va askar deputatlari Sovetlari tuzila

boshlandi. Turkistonda ishchi deputatlarining birinchi soveti Toshkentda 2-martda O'rta Osiyo temiryo'li bosh ustaxonasida rus ishchilari tashabbusi bilan tashkil etiladi. Shu kuni bo'lib o'tgan mitingda sovet tarkibiga 12 kishi saylandi. 3-martda Toshkent ishchi deputatlari soveti, 4-martda esa Toshkent garnizoni askarlarining deputatlari soveti tashkil topdi. 28-martda bo'lib o'tgan majlisda ular ishchi va askar deputatlari yagona Toshkent Sovetiga birlashdilar. Ana shu sovetning chaqirig'i bilan Turkiston o'lkasining Toshkent, Samarqand, Skobelev, Asxobod, Chimkent, Qo'qon kabi yirik shaharlari va ishchi posyolkalarida ana shunday sovetlar tuzila boshladi. 1917-yil martning oxiriga borib, o'lka hududida ishchi va askar deputatlarining 75 soveti bor edi. Lekin sovetlarning saylangan deputatlari asosan yevropalik millatlar vakillarini tashkil etardi. Sovetlarda dastlab eserlar, kadetlar va mensheviklar partiyalari a'zolari ko'pchilikni tashkil qiltan bo'lsa, keyinchalik so'l siyosiy ekstremistik kuchlar: bolsheviklar va so'l eserlar yetakchi mavqeni egallay boshlashdi. 1917-yil aprel-oktabr oylarida Turkiston ishchi va askar deputatlari Sovetlarining 2 ta o'lka syezdi (birinchisi, 7-15-aprelda, ikkinchisi, 30-sentabr - 10-oktabr kunlari) Toshkentda bo'lib o'tgan.

Turkistonda ishchi va askar deputatlari Sovetlaridan tashqari dehqon deputatlari Soveti ham tuzilgan. 1917-yil 16-noyabr ishchi va askar deputatlari sovetlarning III o'lka syezdida dehqon deputatlari Soveti qo'shildi va ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlari nomini olgan.

Mahalliy tub erli aholi tili, dini, urf-odati, maqsad-muddaosi boshqa bo'lgan bunday sovetlarga yergashmadi, ularga ishonmadi va kofirlar deya begonasirab qaradi. Mahalliy aholi asosan musulmon ulamolari va jadidlar tashabbusi va rahbarligida tashkil etilgan musulmonlar ishchi, dehqon deputatlari sovetlariga yergashdilar va ularni qo'llab-quvvatladilar. Bunday sovetlar Toshkentning Eski shaharida, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Andijon va boshqa viloyatlarda tashkil topdi. Musulmon ishchi-dehqon sovetlari o'z majlislarida harakat birligini ta'minlash va ommaning siyosiy kurashiga boshchilik qilish maqsadida siyosiy tashkilot tuzishga kirishdilar. Ana shunday tashkilotlardan dastlabkisi «*Sho'roi Islomiya*» («*Islom kengashi*») edi. Ushbu tashkilot (jamiyati) 1917-yil 14-mart kuni Toshkentda xalq vakillarining birinchi majlisida tuzilgan. Majlisda tashkilot faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi 15 kishidan iborat rayosat ham saylandi. Rayosatni jadidlarning rahbarlaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov boshqardi.

1918-yil bahorigacha faoliyat olib borgan «*Sho'roi Islomiya*»ga dastlab Abdulvohidqori Abduraufqori o'g'li, keyinchalik Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev

rais qilib saylangan. Tashkilot faoliyatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Mustaf Cho'qay, Ahmad Zakiy Validiy, Islom Sulton Shoahmedov, Toshpo'lat Norbo'tabekov kabi ma'rifatparvarlar faol qatnashgan. 1917-yil aprel oyidayoq tashkilotning Samarqand, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Skobelev (Farg'ona), Marv, Turkiston, O'sh va boshqa shaharlarda shu'balari (bo'lim) tuzilib, ular aholi orasida qizg'in faoliyat yuritdilar. 1917-yil 16-maydan tashkilotning «Sho'roi islom» nomli gazetasi ham chiqarilgan. «Sho'roi Islomiya» ta'sirida joylarda turli nomlarda tashkilotlar tuzildi. Ular:

- Toshkentda – «Turon», «Ittihodi taraqqiy»;
- Andijonda – «Ozod xalq», «Hurriyat», «Ma'rifat», «Muftaxul maorif»;
- Samarqandda – «Mirvaj-ul Islom», «Klub Islomiya», «Musulmon mehnatkashlari ittifoqi»;
- Kattaqo'rg'onda – «Ravnaq-ul Islom», «Guliston»;
- Xo'jandda – «Muayin at-tolbin» kabi tashkilot va to'garaklar.

M. Behbudiyning «Xaq olinur, berilmas», Munavvarqorining «Hurriyat berilmas, olinur» shiorlari ularning chinakam kurash bayrog'iga aylangan edi.

Jadidlari, milliy ziyolilari va islom ulamolarining yetakchilari, ayniqsa «Sho'roi Islomiya» tashkiloti sa'y-harakati bilan 1917-yilning o'zida 4 marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi (syezd) o'tkazildi. «Sho'roi Islomiya»ning tashabbusi bilan **Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi** 1917-yil 16–23-aprelda bo'lib o'tdi. Unda Turkiston o'lkasi mahalliy aholisi vakillaridan 150 kishi ishtirok etdi. Qurultoy hay'ati tarkibida Mustaf Cho'qayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Sherali Lyapin, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sobirjon Yusupov, Ahmad Zaki Validiy, Sodiq Sattarov, Islom Shoahmedov, Serikboy Akayev, Ahmadbek Qo'yboqarov, Abdurahmon O'razayev, Mulla Abduljabbor Mahmudovlar a'zo edi. Qurultoy ishida muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi rahbari N. Shchepkin va qo'mita a'zolari A. Davletshin, S. Maqsudiy, M. Tinishboyevlar ham ishtirok etdilar. Qurultoyning kun tartibiga 16 masala qo'yilgan.

Qurultoy Rossiyada boshqarishning bo'lajak shakli va Turkiston musulmonlarining tashkiliy birdamligi masalasiga alohida ahamiyat berdi. Ahmad Zaki



**Ahmad Zaki  
Ahmetshaxovich  
Valiy muhojirlikda –  
Ahmad Zakiy Validiy  
To'g'on (1890.10.12,  
Ufa guberniyasi,  
Boshqirdiston –  
1970.26.7, Istanbul,  
Turkiya)**

Validiy «Davlatni boshqarish va uni tashkil etish haqida»gi ma'ruzasi bilan qatnashib, federatsiya g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oyani taniqli jadidchilar Mahmudxo'ja Behbudiy, Obidjon Mahmudov, Muhammadjon Tinishboyev va Vadim Chaykinlar qo'lladilar. Ammo bundan keyingi so'z olgan jadid Sadri Maqsudiy, Kabir Bakir va boshqalar esa federatsiyaga qarshi so'zlab, «Demokratik Rossiya Respublikasi» degan jumlaning ishlatishni ishlatishni ilgari surdilar. Bu g'oyani Munavvarqori Abdurashidxonov va Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevlar quvvatlagan bo'lsalar-da, biroq keyin ular o'z g'oyaviy munosabatlarini o'zgartirib, federalistlar qatoriga o'tgan.

Qurultoy Turkistonning bo'lajak davlat qurilishi masalasiga katta e'tibor berdi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mustafo Cho'qayev va Sadri Maqsudiy milliy-hududiy boshqarish g'oyasi talabiga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, musulmonlar yer-suv ishlarini boshqarishni o'zlariga uddalay olmaydilar. Shu bois hozircha madaniy-ma'rifiy masalalardagina muxtoriyatga erishishning o'zi yetarlidir. Umuman ushbu masalada yakdillik bo'lmadi: Turkiston, Qirg'iziston, Kavkaz va Qrim musulmonlari vakillari qurultoyda federativ jumhuriyat tarafdorlari bo'ldilar. Shu boisdan ular o'zlarini «federalistlar» deb atadilar. Volgabo'yi musulmonlari vakillari esa unitar, ya'ni yagona, bir butun qo'shma respublika tarafdori bo'lganliklaridan ular tarixda «unitaristlar» nomini oldilar.

Qurultoy qatnashchilari demokratik va federativ tamoyillar asosida tayyorlanadigan Rossiyaning bo'lajak konstitutsiyasida musulmonlar uchun teng huquqlilik ta'minlanishini talab etdilar. Mazkur konstitutsiyada barcha viloyatlar qatorida Turkiston o'lkasiga ham keng muxtoriyat huquqini beradigan Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi asoslanishini ilgari surdilar.

Butunturkiston musulmonlari I qurultoyining so'nggi majlisida markaziy rahbar organ – **Turkiston o'lka musulmonlar soveti (Kraymussovet)**ni tuzish to'g'risida g'oyatda muhim qaror qabul qilindi. Turkiston o'lka musulmonlar sovetining birinchi yig'ilishida uning markaziy organi – **Markaziy Sovet** (ba'zi adabiyotlarda **Milliy markaz**) tuzildi. Mustafo Cho'qayev Markaziy raisi, Munavvarqori Abdurashidxonov rais muovini, Ahmad Zaki Validiy To'g'on kotib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va boshqalar a'zo etib saylandilar. Markaziy Sovet zimmasiga o'lkadagi barcha tarqoq, biri-biri bilan bog'lanmagan, nizom va dasturga ega bo'lmagan jamiyat va tashkilotlarni birlashtirish vazifasi yuklandi. Zaki Validiy To'g'on ma'lumotiga ko'ra, faqat Toshkent shahrining o'zida 20 ga yaqin jamiyat va tashkilotlar bo'lgan. Andijonda shunday jamiyatlar soni 47



taga yetgan. Bu tarqoq jamiyat va tashkilotlarni birlashtirib, boshini qovushtirishda qurultoy qaroriga asosan Markaziy Sovetning joylarda shu'ba (bo'lim)larining tashkil etilishi g'oyat muhim o'rin tutdi. Samarqand shu'basini Mahmudxo'ja Behbudiy, Farg'ona shu'basini Nosirxon To'ra, Toshkent shu'basini Munavvarqori Abdurashidxonov boshqardi.

1917-yil 12-iyunda Turkiston o'lka musulmonlar sovetining majlisi bo'lib o'tdi. Unda hukumat Nizomi qabul qilindi. Mazkur nizomga ko'ra barcha shahar, uyezd, volost, musulmon sovetlari va «Sho'roi Islomiya», «Ravnaqul islom», «Mirvaj ul-islom», «Muallimlar jamiyati», «Talabalar jamiyati» kabi musulmon jamiyat va tashkilotlari milliy va sinfiy tafovutlariga qaramasdan musulmon deputatlari volost, uyezd va shahar Sovetlariga birlashishlari, ularning hammasi birgalikda musulmon deputatlari Turkiston Markaziy Sovetiga bo'ysunishlari lozim edi. Markaziy Sovetning organi sifatida «Najot» (muharriri – Munavvarqori), keyinchalik «Kengash» (muharriri – Validiy) gazetalar chiqa boshladi. Shuningdek, 1917-yilda nashr qilingan «Ulug' Turkiston», «Turon» gazetalarida muxtoriyatchilik g'oyasi bilan sug'orilgan maqolalar chop qilindi.

Shunday qilib, 1917-yil bahorida Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. «Sho'roi Islomiya» atrofida uyushgan vatanparvar jadidchilarning bir qismi «Qadimchilar» edi. Taraqqiyparvar ziyolilar (jadidlar) bilan eskilik tarafdorlari bo'lgan ayrim ulamolar (qadimchilar) o'rtasidagi kelishmovchiliklar «Sho'roi Islomiya» tashkiloti safida tarafkashlik yuz berishiga olib keldi. 1917-yil iyun oyida Munavvarqori boshchiligidagi «Sho'roi Islomiya» tashkilotidan *«Sho'roi Ulamo» («Ulamolar kengashi»)* ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent shu'basiga asos soldi. 1917-yil 28-avgustda Qo'qon shahridagi Jome madrasasida «Sho'roi Ulamo» jamiyatining yig'ini bo'ldi. «Sho'roi Ulamo» tashkiloti a'zolarining 1917-yil 1-sentabrda qabul qilingan bayonnomasiga asosan Qo'qonda ham «Sho'roi Ulamo» jamiyati tuzildi (raisi Mulla Muhiddinxon Mulla Ulug'xon To'rayev, kotibi Imom Nazar Ernazar Mirzayev). 1918-yil 13-maygacha ish olib borgan bu jamiyat dasturi va nizomiga ko'ra ichki siyosiy tuzilmada shariat qonunlariga qat'iy rioya qilish, milliy-diniy qadriyatlarni yuksaltirishga da'vat etilgan va madrasalarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash aytilgan. Biroq dasturda maishiy turmush va ayollar masalasida konservativ qarashlar ustunlik qilgan. Ulamo-chilarning orasida ham hokimiyat masalasida turli qarashlar mavjud bo'lgan. Jamiyatning dasturida islom dinining an'anaviy asoslari bo'yicha ish ko'rish belgilangan bo'lsa-da, ammo

Sh. Lapin boshchiligidagi Toshkent ulamochilari avval rus monarxiyasi, so'ngra bolshevizm g'oyalari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirishga behuda urindilar. Toshkentlik ulamochilardan farqli ravishda Qo'qondagi «Sho'roi Ulamo» a'zolari bolsheviklarga qarshi chiqqan va Turkiston muxtoriyati hukumatni qo'llab-quvvatlagan. Jamiyatning «al-Izoh» (muharrir Abdumalik Hoji Abdunabiyev; 1917-yil iyun – 1918-yil may), «al-Isloh» (muharrir Abdurahmon Sayyoh; 1917–1918) jurnallarini nashr etilgan. Ularda davrning dolzarb muammolari: diniy, axloqiy, ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalar yoritib borildi.

1917-yil 12–14-iyulda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida viloyat musulmon tashkilotlarining qurultoyi bo'lib o'tgan. Unda dasturiy masalalar ham ko'rib chiqilib, unda «*Turk adami markaziyati (Turkiston federalistlari)*» firqasi (partiya) tuzilganligi e'lon qilindi va firqaning Dasturi (maromnomasi) va 22 moddadan iborat Nizomi qabul qilingan. Dastur va Nizomda Rossiya tarkibida musulmonlar ijtimoiy hayotining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda Turkistonda milliy-hududiy muxtoriyat prinsiplari negizida demokratik respublika tuzish g'oyasi chuqur asoslangan edi.

Maromnoma va nizomnoma 1917-yili Toshkentda G'ulomhasan Orifjonov bosmaxonasida litografiya usulida risola holida chop etilgan. Har ikki hujjat 1917-yil sentabrda Toshkentda Turkiston o'lkasi Musulmonlari III qurultoyida qabul qilingan, ularda bo'lajak Turkiston Xalq Respublikasining butun bir maqomi, tizilmasi o'z ifodasini topgandi. Bu konstitutsiyaviy qonunlarni birgalashib jadidlardan 14 kishi yozgan. Ular orasida Turkiston jadidlarining sardorlari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mullo Maxmudxo'ja Behbudiydek zotlar ham bor edi. Shuningdek, ular safida andijonliklardan Mullo Muhiddin, Mahmud a'lam Mullo Muhammad, Mullo Boqi oxun domla Odilboy o'g'li, mudarris Mullo Nuriddin a'lam Yo'ldoshxo'ja Eshon o'g'li, Mullo Muhammadjon boybachcha Kamoljonboyev, Mirzo Abdulqodirbek Mirzoahmad Qushbegiyev bor edi.

1917-yil 10(7) – 11-sentabr **Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi** bo'lgan. «Sho'roi Islomiy» tashabbusi bilan qurultoy ochildi. Unda quyidagi mazmunda qaror qabul qilindi: «Qurultoy (syezd) ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlariga hokimiyatni berishga qarshi chiqadilar. Hokimiyat koalitsiyaviy bo'lmog'i va mamalakatning barcha kuchlariga tayanmog'i, ya'ni umumxalqniki bo'lmog'i lozim».

1917-yil 17–20-sentabr kunlari «Sho'roy ulamo» tashabbusi bilan Toshkentda Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining III qurultoyi o'z ishini olib bordi. Unda

500 nafar xalq vakillari qatnashdilar. Qurultoyda davlat hokimiyatning nomilliy ishchi, askar va dehqon sovetlari qo'liga o'tishiga qat'iy norozilik bildirib, barcha millat, idora, tabaqa vakillaridan iborat muxtor hukumat tuzilishi haqida qaror qabul qildi. Bu qarorda Rossiya demokratik respublikasi tarkibida Turkiston Federativ Respublikasini tashkil etish belgilanib, uning tarkibi 12 kishilik Turkiston o'lka qo'mitasi, 5 yillik muddatga saylanuvchi 24 kishilik «Mahkamai Shariya» (Parlament) hamda hamda «Shayxul islom» (Bosh prokuror) tuzish va ular Rossiya Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirilgan shariat qonunlari asosida faoliyat yuritishi ko'rsatildi.

Qurultoyda «Sho'roi islomiya», «Sho'roi ulamo», «Turon» va boshqa siyosiy tashkilotlar birlashtirilib, Turkiston va Qozog'iston uchun umumiy bo'lgan «*Ittifoqi musulmin*» degan siyosiy partiya tuzildi. Ulamochilar va sho'roi islomchilar o'zaro birlashtirilgan bo'lsa ham, aslida tom ma'nodagi birlashuv bo'lmagan. Oktabr to'ntarishidan so'ng «Sho'roi Islomiya» o'z qarorgohini Toshkentdan Qo'qonga ko'chirishga majbur bo'lgan (1917-yil noyabr).

Mazkur qurultoyda siyosiy masalalar bilan bir qatorda iqtisodiy muammolar ham hal qilinadi. Jumladan, aholi o'rtasida kuchayib borayotgan ocharchilik balosini oldini olish uchun Turkiston o'lkasida paxta ekishni to'xtatib, faqat bug'doy va boshqa boshqoqli ekinlar ekishni maqsadga muvofiq deb topdi.

Shu tariqa, Turkistonda Rossiyadagi kabi ikki hokimiyatchilik emas, balki quyidagi uch hokimiyatchilik paydo bo'ldi:

- Birinchisi, Rossiya Muvaqqat hukumatining vaqfli Turkiston qo'mitasi;
- Ikkinchisi, Turkistondagi ishchi va askar (keyinroq dehqon) deputatlarining mahalliy va markaziy Sovetlari.
- Uchinchisi, jadidlarning «Sho'roi islomiya» tashkiloti (jamiyati) va uning joylardagi shubalari, Toshkentda Turkiston o'lka musulmonlari soveti (Kraymussovet) – Markaziy Sovet (ba'zi adabiyotlarda Milliy markaz);

Turkiston jadidlari va ziyolilari o'z faoliyatida boshqa mintaqalardagi musulmonlar ommasi va ularning ilg'or vakillari bilan ham yaqindan hamjihat bo'lishga intildilar. Bunda Butunrossiya musulmonlari qurultoylari muhim ahamiyat kasb etdi. 1917-yil 1–2-may kunlari Moskvada Butunrossiya musulmonlari I qurultoyi bo'lib o'tgan. Unda Turkiston, Buxoro va Xivadan ham delegatlar qatnashdi. Ko'rilgan asosiy masalalardan biri – mustamlaka bo'lgan musulmon o'lkalarning davlat tuzilishi va boshqaruvi qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi masala bo'ldi. Unda musulmonlar manfaatini himoya qiluvchi davlat qurilishi shaklan milliy-hududiy, federatsiya asosidagi demokratik respublika bo'lishi

ta'kidlandi. *Qurultoyda Butunrossiya Musulmonlari Soveti*, uning *Ijroiya Qo'mitasi* ta'sis etildi. Ijroiya Qo'mitaga Turkiston vakillaridan U. Asadullaxo'jayev va I. Shoahmedovlar a'zo etib saylandilar.

Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyi 260 delegat ishtirokida 1917-yil 21–31-iyul kunlari Qozon shahrida bo'lib o'tdi. Unda Turkiston, Qozog'iston, Kavkaz va Qrimda davlat boshqaruvini mahalliy xalqlarning o'zi hal etishi, musulmon harbiy qo'shinlarini tashkil etish uchun *Butunrossiya Markaziy Harbiy Sovetini* ta'sis etish to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Bu qurultoylar Rossiya qo'li ostidagi barcha musulmon o'lkalari, jumladan, Turkistonda milliy muxtor hukumat tuzilishiga katta yordam berdi. Shuningdek, umummusulmon ijtimoiy-siyosiy, milliy istiqbol va jadidchilik harakati birligi, o'zaro hamkorligi yanada rivojlandi.

**2. Oktabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi.** Rossiya Muvaqqat hukumati fevral inqilobidan keyin o'zining mamlakatdagi ta'sirini kuchaytirish borasida ko'plab tadbirlarni amalga oshirdi. Biroq Rossiyaning urushda ishtirok etishini to'xtatish o'rniga uni g'alabagacha davom ettirish borasidagi qarori, shuningdek, dehqonlarga yerni, ishchilarga zavod-fabrikalarni berish talablari va milliy masalalarni hal qilishdagi sustkashligi va qat'iyatsizligi umummilliy inqirozni avj oldirdi. Bunday vaziyatdan bolsheviklar ustamonlik bilan foydalandilar. 1917-yil 24-oktabrda qurol kuchiga tayangan V.I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) Petrogradga davlat to'ntarilishini amalga oshirishga kirishdi. 25-oktabrda (yangi sana bilan 7-noyabrda) bolsheviklar partiyasi zo'ravonlik yo'li bilan Muvaqqat hukumatni ag'darib tashladi. Huddi shu kuni kechqurun bolsheviklar tomonidan Petrogradga Butunrossiya Sovetlarining II syezdi (qurultoyi) chaqirildi. Unda yer va sulh to'g'risida dekretlar qabul qilib, Lenin boshliq Sovet hukumati – Xalq Komissarlar Soveti tuzildi va Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi saylandi. Sovet hukumati nafaqat Markazda, balki shu bilan birga sobiq Rossiya imperiyasi tasarrufidagi barcha hududlarda ham o'z hokimiyatini qaror toptirishga intildilar.

1917-yil kuzida Turkistonda hokimiyatning Sovetlar qo'liga o'tishi uchun obyektiv shart-sharoitlar yo'q edi, Negaki, bu zamin aholisi bolsheviklar partiyasi dasturida nazarda tutilgan sotsialistik o'zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliyalashtirishni yoqtirmasdi. Mahalliy xalq o'zining tarixan tarkib topgan, asrlar davomida shakllangan o'ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo'jalik yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamasdi. Bu narsa uning ongi, tafakkuriga, milliy o'zligi va

ma'naviy qiyofasiga mos kelmasdi. Ayniqsa, bolsheviklarning ateistik ruhdagi mafkurasi, uning hujumkor yo'nalishi islom qadriyatlari doimo e'zozlanib kelingan bu yurt odamlarining ruhiyati va dunyoqarashi bilan singisha olmasdi. Bir so'z bilan aytganda, mahalliy tub yerli aholi tabiiy ravishda oktabr g'oyalarini qabul qilmadi va unga moyillik ko'rsatmadi. Turkistonda asosiy siyosiy kuchlar eserlar va milliy partiyalar edi. Oktabr to'ntarishi haqidagi xabar 27-oktabrda Toshkentga yetib kelgan. Bu xabarni Butunrossiya Sovetlarining II qurultoyida Turkiston nomidan vakil bo'lib qatnashgan A. Frolov va D. Dekanov (Samarqand) telegraf orqali yuborgan edi. Bunday xabar F. Kolesov orqali ham o'lkaga uzatilgan edi. Bu xabarning yetib kelishi bilan bolsheviklar va so'l eserlar hokimiyatni zo'ravonlik yo'li bilan egallash uchun kurash boshladilar.

Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan, asosiy tarkibi yevropalik aholi vakillaridan iborat harbiy qismlar, ishchi otryadlari mahalliy bolshevistik tashkilotlar boshchiligida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan sovet hokimiyatini qaror toptirishga kirishdilar. Bolshevik V.S. Lyapin boshchiligida inqilobiy qo'mita tuzildi va qo'zg'olon boshlandi. 1917-yil 28-oktabr kuni ertalab Toshkentda yevropalik qurollangan ishchilardan iborat bir necha ming kishi ishtirokida qo'zg'olon boshlangan. To'rt kunlik janglardan so'ng 1-noyabrga kelib Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi ag'darildi. General Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. Toshkentning yangi shahar qismida sovet hokimiyati o'rnatildi. Biroq qurolli to'qnashuvda mahalliy aholi ishtirok etmadi. Hokimiyatning sovetlar tomonidan bosib olinishini taraqqiyparvar kuchlar (Fitrat, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Munavvarqori, Mustafo Cho'qay, Sherali Lapin va b.) keskin qoralashgan. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bog'liq holda kechdi. Jumladan, Farg'ona viloyatida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida, Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirg'in qilindi.

Shu tariqa birin-ketin Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati o'rnatildi. Xususan, 1917-yil 1-noyabrda Termiz va Kattaqo'rg'onda, 8-noyabrda Sirdaryo viloyatida, 25-noyabrda Yangi Buxoro (Kogon)da, 28-noyabrda Samarqandda, 30-noyabrda Jizzaxda, 13-dekabrda Samarqand viloyatida, dekabr oyi davomida Kaspiyorti viloyatida, Farg'ona viloyatida esa dekabr oyi oxiri 1918-yil yanvar oyining boshlarida sovetlar hokimiyati qaror topadi.

1917-yil 12–15-noyabrda Toshkent shahrida «Sho'roi Ulamo» tashkilotining yetakchisi Sherali Lapin raisligida «Turli musulmon guruhlarining birlashgan



kengashi» o'tkazilgan. Kengashda ko'zda tutilganidan ko'p ishtirokchilar qatnashgani uchun unga **III o'lka musulmonlarining qurultoyi** maqomini berish zarur deb topildi. Qurultoyning asosiy vazifasi «*Turkiston hokimiyatini tashkil etish to'g'risida*»gi masalani ko'rib chiqish edi. Bu masalani hal qilish chog'ida birinchi o'ringa mahalliy aholi manfaatlarini qo'ydi va ayni vaqtda o'lkadagi «yevropalik» aholi manfaatlarini ham kamsitmadi. Musulmonlarning III o'lka qurultoyi millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilashlari va ularning umuminsoniy taraqqiyotga erishishlari Qur'oni karimda aytilganidek va shariatda ko'rsatilganidek bo'lmog'i kerakligini qayd etadi. U Turkistonda hokimiyatini tashkil etish bo'yicha rezolutsiya qabul qilgan. Rezolutsiyada ko'rsatilishicha, o'lkada hokimiyat 12 kishidan iborat vakillardan tashkil topgan «Turkiston hukumati qo'mitasi (Turkiston Ijroiya Komiteti)»ga topshirilib, uning organi bo'lgan «Turkiston o'lka kengashi»ni nazorat qilishi lozim edi. Turkiston hukumati tarkibiga ishchi va soldat deputatlari Sovetlari syezdidan 3 ta, shahar o'z-o'zini boshqarish tashkilotlaridan 3 ta vakil va musulmonlar qurultoyidan 6 vakil kiritilishi ko'zda tutilgan edi. Turkiston o'lka kengashi esa musulmonlar qurultoyining 10 vakili va sovetlar hamda shahar o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarining 5 tadan vakilidan iborat bo'lishi lozim edi. O'lka hokimiyat organlaridagi joylarning mazkur taqsimoti mahalliy millat vakillarining birmuncha ko'pchilikni tashkil qilganligi mahalliy aholining o'lkada ko'pchilik ekanligini hisobga olinganida edi. Mazkur rezolutsiya mazmunini musulmon tashkilotlari qurultoyi sovetlarning III syezdi delegatlari e'tiboriga yetkazish maqsadida Sherali Lapin boshchiligida komissiya tuzdi.

Turkiston o'lka musulmonlari ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlarining III o'lka qurultoyida hal qiluvchi ovoz bilan qatnashish huquqini talab qiladilar.

1917-yil 15–22-noyabr kunlari Toshkentda ishchi va askar deputatlari Sovetlarining III o'lka syezdi faoliyat ko'rsatdi. Syezdi asosiy e'tiborini Turkistonda sovet hokimiyatini tashkil etish va belgilash masalasiga qaratdi. Unda Sherali Lapin («Sho'roi Ulamo» etikchisi) boshliq to'rt kishilik maxsus komissiya ishtirok etib, 18-noyabrda musulmon tashkilotlari qurultoyining rezolutsiyasini e'lon qildi. Rezolutsiyada koalitsion hukumat tuzish (ya'ni o'lkani boshqarishda musulmonlarga joylarning  $\frac{3}{4}$  qismi tegishi) ko'rsatilgan edi. Lekin bu syezdi o'lkani idora qilishni tashkil qilish bo'yicha bunday taklifini butunlay inkor etdi. Syezdi 1917-yil 19-noyabrda 97 ovoz bilan bolsheviklar va maksimalistlar fraksiyasining hokimiyat to'g'risidagi rezolutsiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolutsiyaga ko'ra, ishchi soldat va dehqon deputatlarining o'lka Sovetini Turkiston o'lkasining oliy hokimiyat organi

deb hisoblangan. Bu organ qayta nomlanib, Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS) deb nomlandi. 1917-yil 20-noyabrda XKS tuzilgan bo'lib, u o'lka Sovetlarining syezdi oldida javobgar bo'lib, har 2 oyda chaqirilishi belgilangan. XKS ning tarkibi 15 kishidan (8 so'l eserlar va 5 bolshevik hamda 2 maksimalist) iborat bo'lib, unga mahalliy aholining vakillari kiritilmadi. Turkiston o'lkasi XKS raisi lavozimini bolshevik F.I. Kolesov egalladi. Birinchi o'lka sovet hokimiyatining farq qiluvchi xususiyatlaridan biri shu ediki, mazkur syezdda qonun chiqaruvchi organ – Markaziy Ijroiya Qo'mita (MIQ) saylanmadi. 1917-yilning 22-noyabrda bo'lib o'tgan syezdning oxirgi majlisida joylarda hokimiyatni tashkil etish masalasi muhokama qilinib, joylarda butun hokimiyat ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlariga berilishini ko'rsatib o'tadi. XKS o'z faoliyatida 1917-yil 23-noyabrdan boshlab, mintaqadagi demokratik va milliy kuchlarga qarshi ayovsiz kurashdi.

**3. Milliy hukumat – Turkiston Muxtoriyati va sovetlar andozasidagi avtonomiya – Turkiston ASSR.** Turkiston ishchi, askar va dehqon daputatlari Sovetlarining III qurultoyi qarorlari asosida nomilliy mustamlakachi hukumatning tuzilishi nafaqat musulmonlar o'rtasida, balki boshqa nomusulmon aholi orasida ham jiddiy norozilikka sabab bo'ldi. Natijada tub yerli musulmon aholi vakillari Turkiston taraqqiy-parvarlari boshchiligida Turkistondagi bolsheviklarning shovinistik siyosatiga javoban milliy istiqloq muammosi – muxtoriyat masalasini hal qilishga kirishdilar. Bunda Sovet Rossiyasidagi markaziy hokimiyat rahbari V.I. Lenin e'lon qilgan «Rossiya xalqlari huquqlari deklarasiyasi» (1917-yil 2-noyabr), «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatnoma (1917-yil 20-noyabr) kabi rasmiy hujjatlarida bayon qilingan fikrlar muxtoriyatning tuzilishiga qo'shimcha asos bo'ldi. Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirildi. Qurultoy 1917-yil 26–28-noyabr (9–11-dekabr)da Ko'qon shahrida faoliyat olib bordi. Unda Turkistonning



ياشاشمۇن تۇركىستان مختار بىچى!  
 تۇركىستان مىللەتلەرى كىت دور تۇپى قۇلغا دە قۇرغۇ  
 تۇركىستان اوكلەسىتە بولغان خلق لار كىت خواش  
 لرى پۇتچى بويك روسىيە قۇلغا بولغان بولغان بولغان  
 بىنا فېدېراتسىيە قۇرغان روسىيە مېمورىيى ايد  
 بىر كىل قانغانى حالده تۇركىستانى بىر كىت مختارىتىلى سىنە  
 «تۇر تۇر ياشاش قانۇن بىك» «هلان قىلادور»  
 ۱۰ نۇمبىر كىت سورتە دەمۇد قۇلغا شىنى باقن ارادۇ  
 بىنلا دەمۇقان موم تۇركىستان نى تۇك چىرە شىنى سار بويك  
 دىك تۇركىستان بىلەن سىنى گنا بوشادور  
 شۇنەك بىلەن تۇركىستان اوكلەسىتە قۇلغا شىنى تۇك شىكىل قىلغان  
 لىت تۇك شىنى قۇلغا شىنى بولغان شىنى بولغان شىنى  
 سورتە بىلان ايتە دور  
 «شەرق قۇد»  
 ۱۲۳۶ نۇمبىر ۱۵ سىنغۇر مىللەت ۱۹۱۷ ۲۷ قۇلغا

Turkiston Muxtoriyati tashkil topganligi to'g'risidagi bayonoma

barcha viloyatlari va Buxoro amirligidan kelgan 250 delegat qatnashdi. Uning kun tartibiga quyidagi masalalar qo'yildi: 1. O'lkani boshqarish shakli; 2. Turkistonning «Kazak askarlari, Kazak tog'liklari va erkin cho'l odamlarining Janubiy-Sharqiy Ittifoqi (YVS)»ga kirish masalasi; 3. Ijroiya qo'mitani saylash, unga beriladigan topshiriq (nakaz)lar; 4. Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini qayta saylash; 5. Bugungi ahvol; 6. Turkiston ta'sis majlisi; 7. Militsiya; 8. Moliya va boshqa masalalar.

Qurultoy 27-noyabr kuni kechki soat 12 da 2 kishi qarshi bo'lib qabul qilgan qarorida Turkiston o'lkasini Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi. 28-noyabrda (yangi hisob bilan 11-dekabr) tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, «**Turkiston Muxtoriyati**» deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kuni yig'ilishda Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat **Turkiston Muvaqqat Kengashi** va **Turkiston Xalq (Millat) Majlisi** (parlament) qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qiladi. Muxtoriyatning markazi – Qo'qon shahri deb belgilandi.

Turkiston Muvaqqat Kengashi tarkibi 12 kishidan iborat Turkiston muxtoriyati hukumati tuzildi. Dastlabki Muvaqqat Kengash tarkibiga quyidagi 8 nomzodlar saylandi:

1. Muhammadjon Tinishboyev – Bosh vazir va ichki ishlar vaziri, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston qo'mitasining a'zosi, temiryo'l muhandisi.

2. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov (Shagiahmedov) – Bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafu Cho'qayev – tashqi ishlar vaziri, Muvaqqat Hukumat Turkiston Komitetining a'zosi, Turkiston Musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining raisi, huquqshunos.

4. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev – harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

5. Hidoyatbek Yurg'uli (Yurali) Agayev – yer va suv boyliklari vaziri, agranom.

6. Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri, Qo'qon shahar dumasining rais o'rinbosari, jamoat arbobi, tog'-kon sanoati mutaxassisi.

7. Abdurahmon O'razayev – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld – moliya vaziri, huquqshunos.

Muvaqqat Kengashning tarkibiga 12 a'zo o'rniga 8 kishi saylanganligining sababi yana 4 kishi – yevropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd etilishi ko'zda tutilgan edi.



**Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zolari. Qo'qon shahri.  
1917-yil noyabr – 1918-yil fevral**

Keyinchalik uning tarkibida ayrim o'zgarishlar yuz berdi. M. Tinishboyev Alash O'rda Muxtoriyati faoliyatida qatnashish uchun Orenburgga jo'nab ketgach (1917-yil dekabr) Mustafó Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. I. Shoahmedov moliya vaziri (S. Gersfeld o'rniga), Potelyaxov oziq-ovqat vaziri (O. Mahmudov o'rniga), O. Mahmudov adliya vaziri, Nosirxon To'ra Komolxonto'ra o'g'li maorif vaziri, Saidnosir Mirjalilov hukumat xazinachisi lavozimlarini egallashdi.

Turkiston Millat Majlisi 54 nafar (36 musulmon, 18 yevropalik) a'zodan iborat bo'lishi kerakligi belgilandi. Qurultoy jarayonida 32 kishidan iborat Millat Majlisi saylanib, uning raisi lavozimiga «Sho'roi Ulamo» rahbari Sherali Lapin saylangan. Ammo u bu taklifni rad etgan. Milliy Majlis tarkibiga Muvaqqat Kengash a'zolaridan tashqari o'sha davrning atoqli arboblari: T. Norbo'tabekov, S. Sharifxo'jayev, J. Qorabekov, M. Behbudiy, Alimxonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov va boshqa yurt peshvolari ham saylangan edilar.

Qurultoy iqtisodiy masalalarga ham katta e'tibor berdi. Muxtor jumhuriyat Angliya hukumatidan harbiy yordam bilan bir qatorda iqtisodiy yordam olishi ham ta'kidlandi. Bu holni Turkistonda yuz bergan ochlik taqozo etar edi. Non mahsulotlarini paxta va junga almashtirish masalasida bir fikrga kelindi. Shu munosabat bilan qurultoy o'lkani «Janubiy-Sharqiy Ittifoq»qa kirish masalasiga nisbatan o'zining munosabatini bildirib, bo'lg'usi davlatning iqtisodiy holatini

e'tiborga olingan holda Ittifoqqa kirish haqida qaror qabul qilindi. Chunki o'lka Shimoliy Kavkaz va Orenburgdan g'alla mahsulotlari olardi. Ayni chog'da Turkiston o'z paxtasini ularga sotishi ham mumkin edi. Qolaversa, «Janubiy-Sharqiy Ittifoq» hududi aholisining katta qismi musulmonlardan iborat edi.

Oradan ko'p o'tmay Turkiston Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar tez orada e'lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. «El bayrog'i», «Birlik tug'i», «Свободный Туркестан», «Известия Временного Правительства Автономного Туркестана» kabi hukumat gazetaları o'zbek, qozoq, rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan «Ulug' Turkiston» va «Hurriyat» gazetaları ham o'z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin ajrata boshladi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O. Mahmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o'tdi.

Hukumatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash maqsadida muxtor hukumat shoshilinch ravishda 30 million so'mlik zayom chiqaradi. Turkiston Muxtoriyati milliy qo'shinni tashkil qilishga ham kirishildi. Avval boshda hukumat ixtiyorida 60 yollanma askar bo'lgan bo'lsa, 1918-yil boshida ularning soni 2000 askarga yetdi. Milliy armiyada xorijdan chaqirilgan harbiy kishilar, aksariyat holda turk zobitlari yo'riqchilik ishlarini olib bordilar. Ayni vaqtda miltisiya qismlarini tuzishga ham kirishildi. Bu borada Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev bosh bo'lgan ichki ishlar vazirligi xalq militsiyasining tashkil bo'lishi katta voqea bo'ldi. 1917-yil 26-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Milliy bayrog'i qabul qilindi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati mustaqil ichki siyosat yuritib bilan bir qatorda tashqi siyosatda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilishga intilgan. Xususan, Qozog'istonda faoliyat ko'rsatgan Alash O'rda muxtor hukumati (u 1917-yil 13-dekabrda tashkil topgan) bilan Turkiston muxtoriyati o'rtasida aloqalar mavjud bo'lgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Turkiston Muxtoriyatini e'lon qilinishi o'lka xalqlarini ruhlantirib yubordi. O'lkaning millionlab fuqarolari muxtoriyatni qo'llab-quvvatlab mitinglar, yig'inlar uyushtirgan. Jumladan, 1917-yil 1-dekabrda Namangan uyezdida 100 mingga qadar kishi ishtirokida namoyish bo'lib o'tdi. 6-dekabrda Jalolobod volostiga qarashli Xonobod qishlog'ida muxtoriyat e'lon etilishi munosabati bilan namoyish o'tkazildi. Shu kuni Toshkent shahridagi Jome' masjidida o'tkazilgan mitingda jami 60 ming kishi qatnashgan edi. 7-dekabrda Qo'qon shahriining 42 jamoat tashkilotlari nomidan yig'ilgan vakillarning qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda qabul qilingan qarorda ko'p millionli Turkiston xalqiga



tabriklar yo'llandi. Samarqanda bo'lib o'tgan viloyat Soveti syezdida yig'ilganlar Turkiston Muxtoriyatiga qo'shilishga qaror qildilar va Xalq Majlisi tarkibiga 5 vakil sayladilar. Kaspiyorti viloyatida ham syezd chaqirilib, unda Turkiston Muxtoriyatiga qo'shilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Milliy matbuotda Turkistonning taniqli ma'rifatchilari, siyosiy va jamoat arboblari o'z maqolalarida muxtoriyatni tabrikladilar. Ular orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhammad o'g'li, Abdulhamid Cho'lpon, Islom Shoahmedov, Munavvar Qori va boshqalar bor edi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917-yil 13-dekabrda bo'lib o'tgan fojiali voqealar muhim o'rin tutadi. Muvaqqat Kengash 13-dekabrni «Turkiston Muxtoriyatining milliy jamg'armasiga pul yig'ish kuni» deb e'lon qildi hamda bu mablag' mustaqillik va ozoddikni mustahkamlashga xizmat qilishini bildirdi. Ushbu kunda Toshkentning eski shahar aholisi «Muxtor Turkiston uchun» shiori ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdilar. Ammo, Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan «tartib» o'rnatishga buyruq beradilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi. Bu muxtoriyatga nisbatan uyushtirilgan dastlabki suiqaqd edi.

Turkiston Muxtoriyatini himoya qilishda 25-dekabr kuni Qo'qonda o'z ishini boshlagan musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlarining I favqulodda qurultoyi (syezdi) qabul qilgan qarorlarining ahamiyati katta bo'ldi. Unda 200 ga yaqin vakil qatnashdi. Qurultoy muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish shiori ostida o'tdi. Unda Turkiston Muvaqqat Kengashi tarkibiga musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari qurultoyi vakillarini kiritishga qaror qildi. Qurultoy o'zining so'nggi ish kuni – 27-dekabrda Petrograd Xalq Komissarlari Sovetiga telegramma yo'lladi. Unda Turkiston muxtoriyatini e'tirof etish, Toshkent Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat Kengashiga topshirish to'g'risida farmoyish berish so'ralgan edi.

Butunrossiya musulmonlari Milliy Soveti ham muxtoriyatchilarning bu adolatli talablarini qo'llab-quvvatladi. Lekin markaziy sovet hukumati millatlar ishlari bo'yicha komissari I.V. Stalin 1918-yil 5-yanvarda bu talab xatiga yuborgan javobida: «Toshkentdagi Sovet komissariatini yo'q qilish haqida Petrogradga murojaat qilishning ehtiyoji yo'q, agar komissariatni istamasangiz, uni kuch bilan yo'qota bilasiz», deb yozdi. Stalin Turkiston Muxtoriyatining qo'lida kuch yo'qligini yaxshi bilardi.

Toshkentdagi sovet hukumati Turkiston Muxtoriyatini o'zi uchun xavfli deb bildi va qanday bo'lmasin uni yo'qotishga kirishdi. Bu boradagi amaliy harakatlar sovetlarning IV syezdida Turkiston Muxtoriyati masalasini muhokama qilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi. Ishchi va soldat deputatlari Sovetlari IV (favqulodda) o'lka syezdi 1918-yil 19–26-yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tdi. Syezdi boshlanishidan oldin ishchi va soldat deputatlari Sovetlari bilan dehqon deputatlari Sovetlarini qo'shib yuborish masalasi muhokama qilingan edi. Lekin mandat komissiyasi ko'plab dehqon deputatlari mandatlarini haqiqiy emas deb topishi natijasida ular syezdni tark etadilar. Turkiston XKS ning raisi F.I. Kolesov syezdning birinchi majlisida qilgan ma'ruzasida Qo'qonda tuzilgan «muxtoriyat hukumati»ni darhol tugatish va Sovet avtonomiyasini tuzish zaruratini taklif etadi. Syezdi Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb topdi va hukumat a'zolarini qamoqqa olish to'g'risida qaror chiqardi.

1918-yil 30-yanvarda o'lka XKS Turkiston Muxtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Toshkentdagi bolsheviklar buning uchun harbiy harakatlarga qizil askarlar otryadlaridan tashqari armanlarning «Dashnoqsutyun» (arman partiyasi hisoblanib, 1890-yilda tashkil topgan) partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli drujinalarini jalb etilishi natijasida vaziyat yanada murakkablashdi. Milliy matbuotning yozishicha, 31-yanvar (yangi hisob bilan 13-fevral)da janglar boshlandi. Turkiston o'lkasi XKS 1918-yil 14-fevralda (yangi hisob bilan) Farg'ona viloyatida harbiy holat e'lon qildi.

Dastlabki jangda muxtoriyatning milliy qo'shinidan tashqari qo'qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Ularning soni 10000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo'qon shahriga qilgan hujumini uch kun davomida mardonavor qaytardilar. Shu orada muxtoriyatchilar safida parokandalik yuz berdi. 18-fevralda «Ulamu» jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish yuz beradi. Mustafu Cho'qayev boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag'dariladi. Ayrim vazirlar (H. Agayev va b.) jangda halok bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan Nosirxon To'ra Namanganda, O. Mahmudov Buxoroda, S. Gersfeld Samarqanda, keyinchalik U. Asadullaxo'jayev, I. Shoahmedovlar ham qo'lga olindi.

Qo'qon shahri qo'rboshi mirshablari (militsiya) boshlig'i Kichik Ergash 18-fevraldan boshlab amalda Turkiston Muxtoriyati hukumatning rahbariga aylandi. 19-fevralga o'tar kechasi Toshkentdan Turkiston o'lkasi harbiy komissari E. Perfilov boshchiligidagi piyoda, otlq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshlon

qo'shin yetib keldi. 19-fevraldan boshlab 3 kun davomida qizil askarlar shahar ustiga to'plardan yondiruvchi snaryadlar otgan. Shahar butunlay vayron qilinadi. Qo'qonning o'zida 3 kun davomida 10 mingdan ziyod kishi o'ldirildi. Muxtoriyat qo'shinining tirik qolgan qismi Kichik Ergash boshchiligida (200–300 yigit) Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'iga chekindi va mudofaa istehkomlarini qurib, dushman hujumini qaytardi. Qizil gvardiyachilar Qo'qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o'ldirishni avj oldirishdi. Sovet rejimi Turkiston Muxtoriyati hukumatni 19-fevralda qurol kuchi bilan ag'darib tashladi.

1918-yil 22-fevralda Qo'qon shahridagi Rus – Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan «tinchlik shartnomasi» imzolandi.



**Turkiston Muxtoriyati qizil askar tomonidan tor-mor qilingandan so'ng  
Qo'qon shahrining ko'rinishi, 1918-yil fevral**

Shartnomaning birinchi maddasida: «Aholi Xalq komissarlari sovetining hokimiyati va mahalliy sovet muassasalarini tan oladi», – deyilgan edi. Shu bilan Turkiston mintaqasidagi dastlabki demokratik hukumat – Turkiston Muxtoriyati tugatildi. U atigi 72 kun faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramasdan o'zbek xalqining milliy mustaqillik va istiqolol yo'lida amalga oshirgan muhim qadamlaridan biri sifatida O'zbekiston tarixining unutilmas sahifalaridan o'rin oldi. Bu hukumatning ag'darilishi turkistonliklar tomonidan sovet Rossiyasining Turkistonga nisbatan tajovuzkor rejaları mavjudligining yana bir dalili sifatida qabul qilindi. Turkistonliklar tinch yo'l bilan milliy davlatchilikni qayta tiklash mumkin emasligini tushunib, 1918-yil fevrel oyining oxirida qo'llariga qurol olgan holatda Turkistonda sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi qurolli harakatni boshlab yubordilar. Sovet

tuzumi davrida Turkiston Muxtoriyatining mohiyati soxtalashtirilib, u tor ma'nodagi Qo'qon muxtoriyati bilan almashtirildi.

Sovet hukumati Turkiston Muxtoriyati tajribasidan muhim xulosa chiqarib, bu Turkiston hududida o'ziga xos sovetlar andozasidagi avtonomiya (muxtoriyat)ni tashkil yetishga kirishgan edi. Bundan ko'zda tutilgan bosh maqsad – Turkistonning kelajakda mustaqil, suveren davlat bo'lib, ajralib chiqib ketishiga izn bermaslik edi. Bolsheviklar 1918-yil yanvar oyidayoq Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini ko'tarishgan edi. Bu muammo faqat Turkiston Sovetlarining V syezdida hal qilindi. Syezd 1918-yil 20-aprel Toshkentda ochildi. Uning ish faoliyati 1-maygacha davom etdi. Sovetlarning IV o'lka syezdidan farq qilib, u birinchi marta yakka tartibda faoliyat ko'rsatayotgan dehqon deputatlari Sovetlari, musulmon deputatlari Sovetlari hamda ishchi va soldat deputatlari Sovetlarini birlashtirdi. Unda 263 mandatga ega bo'lgan vakillar qatnashdi. Shulardan 86 bolshevik, 70 so'l eser, 87 partiyasiz edi. Syezdda tub yerli mahalliy xalq vakillaridan 50 kishi qatnashdi.

27-aprelda syezd «Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining navbatdagi vazifalari to'g'risida»gi deklarasiyani qabul qildi. Bu hujjatda Turkiston Rossiya Federatsiyasining tarkibiy qismi bo'lib qolishi ko'rsatilgan edi.

30-aprelda esa syezd delegatlari «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqida Nizom»ni qabul qildi. Mazkur nizomda Turkiston o'lkasi hududi Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi (qisqacha TSR nomi bilan tashkil topgan) deb e'lon qilindi hamda Turkiston Sovet Federativ Respublikasi avtonomiya (muxtoriyat) sifatida idora etilishi ta'kidlab o'tilgan. Yangi tashkil topgan bu respublika avtonom tarzida boshqarilib, sovet sotsialistik respublikasi sifatida faoliyat ko'rsatganligi uchun tarixiy adabiyotlarda Turkiston ASSR – deb ko'rsatiladi. Shu bilan birga ushbu hujjatga ko'ra (dekabr oyining birinchi kunidan chaqiriladigan) ishchi, soldat, krestyan va musulmon-dehqon deputatlari Sovetlari syezdi Turkiston ASSRning – oliy qonun chiqaruvchi organi hisoblendi. U yilda ikki marta hamda muhim deb belgilanganda favqulodda chaqirilishi mumkin edi. 1918-yil 30-apreldan Toshkent Turkiston ASSRning poytaxti deb e'lon qilindi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Sovetlarning III va IV o'lka syezdlari orasida (1917-yildan 1918-yil aprelgacha) Turkiston Xalq Komissarlar Soveti oliy qonun chiqaruvchi va ijroiya organi hisoblangan va Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tuzilmagan. Butun Turkiston Sovetlarining V syezdida esa Turkiston ASSR ning doimiy oliy qonun chiqaruvchi organi – Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) va

ijroiya organi – Xalq Komissarlari Soveti saylandi. MIQ tarkibi 36 kishidan (ulardan 7 kishi mahalliy aholi vakili) tashkil topdi. U ishchi, soldat, krestyan va musulmon – dehqon deputatlari o'lka Sovetlari syezdi oldida javobgar bo'lib, ularni chaqirish va syezdlar oralig'ida oliy qonun chiqaruvchi organ hisoblangan. MIQ ning raisi etib bolshevik P.A. Kazakov, ikkinchi raisi etib bolshevik A.F. Solkin saylandi. Xalq Komissarlari Soveti 16 kishi (4 kishi mahalliy aholi vakili)dan iborat bo'lib, u 9 bolshevik, 7 so'l eserni tashkil etgan. XKS ning raisi etib bolshevik F.I. Kolesov tayillandi. Syezd qaroriga ko'ra Sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari – joylardagi hokimiyat deb e'lon qilindi.

Turkiston Sovet Respublikasi ma'muriy jihatdan Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv, Kaspiyorti, keyinchalik Amudaryo (Turkman) viloyatlariga bo'lingan. Respublika hududi BXS, XXSR, Qozog'iston ASSR, Afg'oniston, Eron, Xitoy davlatlari bilan chegaradosh bo'lgan. 1918-yilning 5–14-oktabr kunlari Toshkentda Turkiston ASSR Sovetlarining Favqulodda VI syezdi ish olib borgan. 14-oktabrda syezd RSFSR Konstitutsiyasi andozasi asosida Turkiston Sovet Respublikasi birinchi Konstitutsiyasini qabul qildi.

Turkistonda sovet hokimiyatining tobora kuchayishi, uning yakkahukmronligining ortib borishi, o'lka hayotining hamma jabhalarining qattiq markazlash-tirilishi natijasida sovetlarga qarshi siyosiy muxolifatchi kuchlarini yuzaga keltirdi. Bunday siyosiy kuchlarga Turkiston ASSR harbiy komissari K. Osipov boshchilik qildi. 1918-yil oxirida uning rahbarligida sovetlar rejimiga qarshi faoliyat ko'rsatuvchi Muvaqqat komitet tuzilgan. K. Osipovning bosh maqsadi Turkistonda harbiy diktaturani o'rnatishdan iborat edi. U o'lkada butun hokimiyatni o'z qo'lga olish maqsadida 1919-yil 18-yanvar kuni Toshkentda isyon ko'tardi. 19-yanvarga o'tar kechasi K. Osipov buyrug'i bilan Turkiston ASSR MIQ raisi V. Votinsev, Turkiston ASSR XKS raisi V. Figelskiy, ChK (favqulodda komissiya) raisi I. Fomenko, Toshkent Soveti raisi N. Shumilov va boshqa, jami 14 komissarlar otib tashlangan. Toshkent shahri deyarli to'liq isyonchilar qo'lga o'tgan. Bu harbiy mojarolarga mahalliy aholi qatnashmadi. Biroq, tez orada kommunistlar Qo'qon, Samarqand, Perovskdan qizil askar otryadlarini chaqirib, 21-yanvarda bu isyonni bostirishgan. K. Osipov avval Farg'ona vodiysiga (Madaminbek huzuriga), so'ngra Buxoro amirligiga qochib ketdi. Sovet rejimi Osipov isyonini bostirish bahonasida sovet tuzumidan norozi bo'lgan ko'plab kishilarni terror va qatag'on qilgan. Partiya va sovet idoralarida tozalashlar o'tkazilgan. Bolsheviklar 1919-yil mart oyi boshida so'l eserlarni hukumatdan siqib chiqarib, yakka o'zlari hukmron bo'lib oldilar.



Bu davrga kelib bolsheviklar hukumati Turkistonda komfirqa (kommunistik pariya)ning yakka diktaturasini o'rnatish va kuchaytirish, uni har tomonlama o'ziga qaram qilish yo'lidan bordi. Shu maqsadda 1919-yil 8-fevralda Butun Rossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo'yicha komissiya (Turkkommissiya) tashkil etildi. Turkkommissiya tarkibi Sh.Z. Eliava (rais), V.V. Kuybishev (rais muovini), M.V. Frunze, G.I. Bokiy, F.I. Goloshchekin, Y.E. Rudzutakdan iborat bo'ldi. 1919-yilning 4-noyabrida Turkkommissiyaning asosiy tarkibi Toshkentga yetib keldi. Bu komissiya amalda mintaqadagi barcha partiya, sovet, xo'jalik va harbiy tashkilotlarga rahbarlik qilib, markazdagi bolshevistik siyosatni qat'iy ravishda amalga oshirishga kirishdi. TASSR hayotida kechayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq eng asosiy masalalarning birortasi ham Turkkommissiya a'zolarining izmisiz hal etilmas edi.

1920-yil 24-sentabrda Turkiston ASSR Sovetlarining IX syezdi Turkiston ASSRning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi, shuningdek, «Turkiston Sovet Respublikasi»ning nomi «Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR)» deb o'zgartirildi. 1921-yil 11-aprelda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi «Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to'g'risida» dekret qabul qildi. Bu hujjatda Turkiston SSR ning ma'muriy-hududiy tuzilishi va siyosiy davlat boshqaruvi masalalari belgilandi.

Sovet hukumati Turkistonda hokimiyat organlarini yangi kadrlar bilan to'ldirishda juda ham ehtiyotkorlik bilan ish olib borgan. 1920-yilgacha respublika oliy rahbarlik lavozimlariga mahalliy millat vakillari kiritilmadi. Lekin keyinchalik ular ham oliy rahbariyat tarkibiga jalb etiladi. Masalan, T. Risqulov, N. To'raqulov, Q. Otaboyev, A. Rahimboyev, I. Xidiraliyev, R. Islomov, N. Aytoqov TSSR rahbarlari bo'lishgan.

1924-yil noyabr oyining oxirida O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida Turkiston ASSR tugatilib, uning hududi yangi tuzilgan respublikalar tarkibiga kiritilgan.



**Turar Pisqulov boshchiligidagi  
Turkiston Avtonom Respublikasi  
hukumati, Toshkent, 1923 yil**

**4. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari.** 1917-yilda yuz bergan fevral inqilobi natijasida yuz bergan o'zgarishlar Rossiya imperiyasining yarim mustamlaka vassallari hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham o'zining aks sadosini bermay qolmadi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o'zgarishlarning sodir bo'lishi jadidchilik harakatiga ham ta'sir qildi. Har ikki davlatda o'sib borayotgan xalq kurashining mafkuraviy asosini ham jadidchilik harakati tashkil etdi. Bu davrga kelib ular ochiq siyosiy kurash maydoniga chiqib, xon va amir hokimiyatiga muxolifatda bo'ldi.

Hududiy jihatdan yagona bo'lgan O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkiston jadidlari o'z oldilariga bosh maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, Buxoro va Xiva jadidlari hokimi mutlaq, o'z monarxlari bo'lgan amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb belgiladi.

Buxoro va Xiva xalqlari mustamlakachilik zulmini o'z boshidan to'liq kechirmadilar. Chunki Rossiyaga yarim mustamlaka, qaram bo'lsa-da, Buxoro bilan Xiva o'z ichki mustaqilligini saqlab qolgan edi. Bu yerda mahalliy boylar va amaldorlar zulmi kuchli edi. Ular amir va xon himoyasida turgan. Shu bilan birga, ko'p hollarda amir va xon zulmi hammasidan ham oshib tushar edi. Mehnatkash xalqning arz-dodini eshitadigan bir kimsa yo'q edi. Xalq ommasi hokimi mutlaq monarx – amir va xon o'rniga insofliroq va adolatliroq hukmdorga ega bo'lishni xohlar edi. Xalqning bu intilishi va qiziqishini Buxoro va Xiva jadidlari idrok etdilar va uni yoqlab chiqdilar. Ular shu boisdan ham amir va xonga qarshi qurashni bosh maqsad deb bildilar.

Turkiyada yuzaga kelgan «Yosh turklar» faoliyati Buxoro va Xiva jadidlari faoliyati uchun namuna va o'lchov mezoni bo'ldi. Shuning uchun ular «Yosh turklar»ga taqlid etib o'zlarini «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» deb atay boshladilar. Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklarning pirovard maqsadlari mavjud siyosiy tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish yo'li bilan xonliklarning kapitalizm va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida rivojlanishini ta'minlash, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali xon va amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yishning tarafdori bo'ldi.

Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi taqozosiga ko'ra xalq ommasi o'rtasida mustahkam tayanch bazaga ega emas edilar. Ular o'zlariga ittifoqchilarni chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan fikrga borib katta siyosiy xatoga yo'l qo'ydilar.

**Xiva xonligining  
tugatilishi**

1917-yilda Petrogradda Fevral inqilobi bo'lib, podsho taxtdan ag'darilgan vaqtda Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan edi. Bu xabarni eshitib, u Toshkentga, undan Chorjo'y orqali general Mirbadalov hamrohligida Xivaga qaytib keldi. Uni kutib olishga chiqqanlar orasida bo'lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov «Vaqt» gazetasidan podshoning taxtdan ag'darilganligi va Muvaqqat hukumat tuzulganligi haqidagi xabarini bilib oldi. Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o'z sovetlarini tashkil qilishgan edilar. Ana shu sovetlarning faollaridan Shokir Tenisov,



**Polvonniyoz  
Hoji Yusupov  
(1931–1936)**

Abdushukur Latipov va boshqalarning tashviqotlari bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq yosh xivaliklar 1917-yil 4-aprelda rus askarlari Muvaqqat hukumatga qasamyod qilgani to'plangan paytda garnizonga mingga yaqin odamlar bilan borishadi. Shokir Tenisov yosh xivaliklarga talabnoma nima ekanligini tushuntirib, o'zi yosh xivaliklar nomidan talabnoma yozadi. Garnizon boshlig'i polkovnik Merzlyakov ularning nima maqsadda kelganligini eshitgach, agar xonga daxl qilmay faqat idorai mashruta qilsalaringiz, u vaqtda askarlardan yordam bo'ladi, deydi. Yosh xivaliklar agar rozi bo'lmasalar xonning ta'qibiga uchrashlarini his qilib, bu taklifga rozi bo'ladilar.

1917-yil 5-aprelda Husaynbek Matmurodov boshliq yosh xivaliklar delegatsiyasi Nurullaboy saroyiga keladi. Bu yerda shoshilinch tarzda yosh xivaliklarnir.g talablari manifest loyihasi sifatida yozilib, Xiva xoniga topshiriladi. Manifestni Asfandiyorxon va uchta qozi – domulla Ibrohim oxun alam, qozi-ul-quzot domulla Hikmatulla Xo'ja oxun, qozi-ul-quzot domulla Xudoybergan oxunlar imzoladi.

***Manifest 7-moddadan iborat bo'lib, uning mazmuni  
quyidagilardan iborat bo'ldi:***

«Hijriy 1335-yil 25-jumad-us-soniy yoki Iso tug'ilishining 1917-yil 5-aprelida, men – Xiva xoni Said Asfandiyor Bahodirxon quyidagi xohishimni e'lon qilaman:

1. Men o'z fuqarolarimga konstitutsiyaviy boshqaruvni shuning uchun berdimki, ular davlatni o'z xohishlari, muqaddas shariat qonunlari va zamon talabi bilan umumxalq kengashi orqali saylangan va davlat ishlarini boshqarishga tayinlangan adolatparvar va loyiq kishilar boshqarsinlar.

2. Menning fuqarolarim davlatni boshqarish ishida muqaddas shariat bilan kelishilgan holda adolatli harakat qilishlari shart.

3. Men fuqarolarimga birlik, tinchlik va ozodlikni shuning uchun berdimki, ular bir-birlari bilan aka-uka bo'lib, tinch yashasinlar.

4. Xiva davlatida vazirlik va amaldorlik vazifalarini aholi tomonidan saylangan va tayinlangan vijdonli va adolatparvar kishilar bajarsinlar. Xalq xohlamagan vazir, amaldor va hokimlar ishdan olinib, jinoyati isbotlansa, muqaddas shariat qonunlari asosida jazoga tortilsin.

5. Barcha amaldor va vazirlarga, davlat xizmatchilariga vazifalariga yarasha xazinadan maosh ajratilsin.

6. Xiva davlatining moliya ishlari uchun xazinachi joriy qilib, kirim-chiqimlarni nazorat qilish topshirilsin.

7. Vazirlar va amaldorlarni nazorat qilish hamda mening yuqoridagi buyrug'imni bajarish uchun aholi o'z vakillarini saylagunga qadar 30 kishidan iborat vaqtli qo'mita tayinlansin. Xiva fuqarolari tinchlikni saqlab, o'z ishlarini amalga oshirsinlar va boshqa madaniyatli xalqlar qatoridan o'rin olish uchun bor kuchlarini sarflasinlar»...

*(Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragi) / Mas'ul muhar. Q. Rajabov. – T.: 2007. – 287–288-b.)*

Ushbu manifestda xon hokimiyati cheklangan edi. Xonlikda islohotlar amalga oshirilishini nazorat qilish uchun 30 vakildan iborat Idorai mashrutiya (Muvaqqat ko'mita) tashkil topdi. 8 aprelda mamlakatni boshqarish uchun Xivada xon huzurida **Majlis** (raisi Bobooxun Salimov) va **Nozirlar kengashi** (Bosh vazir Husaynbek devonbegi Matmurodov) tuzildi. Lekin bu g'alaba uzoqqa cho'zilmadi. 1917-yil iyun oyining birinchi yarmida Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili, general Mirbadalovning yordamiga tayan-gan Asfandiyorxon Majlisni tarqatib yubordi. Xon o'ziga ma'qul kishilardan yangi tarkibdagi Majlis (raisi – Ortiq Oxun) va Nozirlar Kengashi (raisi – Is'hoqxo'ja Xo'jaev) ni tayinladi. H. Matmurodov boshliq sobiq Majlisning 17 a'zosi hibsga olindi va yosh xivaliklar partiyasining barcha a'zolarini dindan qaytgan, deb e'lon qilib, ularga qarshi qatag'on boshladi. Xonning yosh xivaliklar ustidan g'alabasini mustahkamlash, xonlikda mavjud bo'lgan tuzumga qarshi yangi chiqishlarga barham berish uchun Muvaqqat hukumat 25-iyulda Xivada komissar lavozimini ta'sis qildi.



**Bobooxun Salimov**  
(1874–1929)

Bu komissarga Xiva xonligini boshqarishni tashkil etish qoidalarini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan edi. Ayni vaqtda Muvaqqat hukumat tomonidan xonlikka Rossiya imperiyasi qo'shinlarining yangi qismlari, asosan kazak qo'shinlari yuborildi. Oktabr to'ntarishidan so'ng xonlikda vaziyat keskinlashdi. 1918-yil yanvar oyida Zaysev boshchiligidagi rus qo'shinlari Xiva xonligi hududidan chiqib ketdi. Natijada xon o'zining asosiy harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, xonlikda kazak otryadlari qolishgan. Asfandiyorxon kazaklar yordamida 1917-yil noyabr oxirida Majlisni butunlay tugatdi. Yosh xivaliklar xonlik hududidan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. 1918-yil boshlarida Toshkentda Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida yosh xivaliklar qo'mitasi tuzilgan. Yosh xivaliklar taktik maqsadlarni ko'zlab, bolsheviklar bilan yaqinlashdi.



**Junaidxon  
Qurbon Mamedni  
(Muhammad)  
(1857–1938)**

Bu paytda sovet Rossiyasi va uning harbiy kuchlari hisoblangan qizil armiyaning Xiva xonligiga nisbatan tahdidi ortib bordi. Mamlakatda xonga qarshi noroziliklar ortib bordi. Bunday qaltis vaziyatda davlatni boshqara olmay qolgan Asfandiyorxon 1918-yil 10-yanvarda turkmanlar sardori Junaidxon Qurbon Mamedni Xivaga taklif qildi. 22-yanvarda esa xonni yuqori martabali amaldorlar va din ahllari ishtirokida davlatni birga boshqarish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish uchun Junaidxon bilan Xivada muzokara olib bordi. Junaidxon va uning tarafdorlari xonning oliy amaldorlari oldida eski qabila va urug'chilik asoslaridagi adovatlarini unutib, sidqidildan xizmat qilishga qasam ichdilar. Shundan so'ng Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim» (qo'shinlar qo'mondoni) qilib tayinladi. Shu bilan o'zi Junaidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanib qoldi.

1918-yil bahorida Toshkentga yetib kelgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar sovet hokimiyatining faollaridan biri bo'lgan Yusuf Ibragimovning (favqulodda komissar) maslahati bilan o'zlari to'rt kishi bo'lishiga qaramasdan Yosh xivaliklar partiyasining Markaziy Qo'mitasini tashkil qildilar.

Xonlikdagi hokimiyat esa to'la ravishda Junaidxon qo'liga o'tgan bo'lishiga qaramasdan, 1918-yil 30-sentabrda xon saroyiga katta o'g'li Eshshi rahbarligida harbiy qo'shinni yuboradi. 1-oktabr kuni qabul marosimi vaqtida Asfandiyorxon o'ldiriladi, uning o'rniga taxtga xonning tog'asi, irodasiz Said Abdullaxon (1918-yil oktabr – 1920-yil 2-fevral) chiqarilgan. Abdullaxon ham nomigagina xon edi,



1918-yildan boshlab butun hokimiyat to'raligicha Junaidxon qo'liga o'tdi. 1918-yil yozida Junaidxon o'ziga qarshi bo'lgan Shommikal boshchiligidagi kuchlarni jangda yengdi, Shommikal 1918-yil iyul oyi oxirlaridagi jangda halok bo'ldi. Qurolli chiqishlar qisman bostirildi. Junaidxon o'z yakka hukmronligini mustahkamlash uchun qattiqqo'llik va zo'rvonlik bilan olib borgan siyosati, aksincha, u xohlamagan holda muxolifatning – yosh xivaliklar partiyasining mavqeyini kuchaytirdi.

Junaidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo'lgan davlatni saqlab qolishga intildi. 1918-yil noyabr oyida Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda tashkil qilingan sovet hukumatiga qarshi Junaidxon bir necha marotaba muvaffaqiyatsiz urush olib bordi. Junaidxon vaqtdan foydalanish uchun 1919-yilning aprelida sovet hukumatiga sulh tuzish to'g'risida taklif kiritdi. 9-aprelda Junaidxon Xiva yaqinidagi Taxta qal'asida joylashgan qarorgohida RSFSR bilan Xiva xonligi o'rtasida yarash bitim – shartnomasini imzoladi. Bu bitimni tuzish uchun kelgan sovet hay'ati a'zolari Lusenko, Golub, Xristoforov, Fedko va Turkiya kapitani Muhammad Kozimbekdan iborat edi. Shartnomaga binoan, xonlikdagi xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi tan olindi, ikkala tomon har qanday harbiy harakatlarni to'xtatish, bir-birlariga vakillar yuborishni yo'lga qo'yish, ikkala mamlakat fuqarolarining suv va quruqlikdagi barcha yo'llarda erkin va xavf-xatarsiz harakat qilishini, o'z hududlarida tijorat maqsadlarida aloqa o'rnatishlarini kafolatlash majburiyatini olgan. Biroq shartnoma shartlari amalda bajarilmadi.

To'rtko'ldagi yosh xivaliklardan Jumaniyoz Sultonmurodov boshchiligidagi 10–15 kishidan iborat bir guruh inqilobchilar bilan ajralib, To'rtko'l qo'mitasi (komiteti) tuzilgan. Bu yosh xivaliklar 1919-yil boshida kommunistik guruh (fraksiya) tuzganligini e'lon qildi. Bolsheviklar mana shu yosh xivaliklarning talablari va Junaidxonga qarshi bo'lgan turkman urug'lari orasida Qo'shmamedxon va G'ulomalixon kabi urug' sardorlarining raqobatidan unumli foydalangan. G.B. Skalov buyrug'i bilan sovet qo'shinlari 1919-yil 25-dekabrda mustaqil davlat – Xiva xonligi hududiga bostirib kirdilar. Qizil armiyaning katta kuchlari N. Shaydakov va N. Shcherbakov qo'mondonligida Xiva xonligining shimoliy va janubiy chegaralaridan hujum qilib, 1920-yil boshlarida shahar va qishloqlarni bosib olgan. Junaidxon qo'shinlari G'ozovot tumanida mag'lubiyatga uchradi va Qoraqum cho'liga chekindi. 1-fevralda xonlik poytaxti Xiva jangsiz ishg'ol qilingan. Bu paytda Said Abdullaxon va uning amaldorlari biron qarshilik ko'rsatmadilar.

1920-yil 1 fevralida Said Abdullaxon qizil askarlar va yosh xivaliklar talabi bilan taxtdan voz kechganligi to'g'risidagi manifestni imzoladi. 2-fevralda manifest

xalqqa o'qib eshittirildi va majlis chaqirilgunga qadar hokimiyat **Muvaqqat inqilobiy hukumat (qo'mita)** qo'liga o'tganligi e'lon qilindi. Yangi Muvaqqat hukumat tarkibi quyidagi tarkibda tuzildi:

1. Jumaniyoz Sultonmurodov – Yosh xivaliklar firqasi To'rtko'l qo'mitasining raisi, zavod egasi bo'lgan, Muvaqqat inqilobiy hukumat raisi.

2. Matpanoboy Madrahimov – shahar xalqi va savdogarlar nomidan a'zo, Yosh xivaliklar partiyasi a'zosi.

3. Odamoxun Ortiqov – ulamolar tomonidan a'zo.

4. Mulla Uroz Xo'jamammedov – Qo'shmamedxon Sapiyev (Turkman qabila sardori) tomonidan a'zo.

5. Mulla Navro'z Ro'ziboyev – G'ulom Alixon Bahodir (Turkman qabila sardori) tomonidan a'zo.

Muvaqqat inqilobiy hukumat har haftada kamida ikkitadan majlis chaqirib, eng muhim masalalarni ko'rib, muhokama qilib bordi. Bu qo'mita 2 oy davomida ham qonun chiqaruvchi, ham ijro qiluvchi hokimiyat vazifasini rasmiy ravishda bajardi. 1920-yil 9-aprel kuni muvaqqat inqilobiy hukumat ishini yaxshilash maqsadida uning tarkibida 10 kishidan iborat dastlabki xalq hukumati – Nozirlar Soveti tashkil qilindi.

1920-yil 8-yanvarda Toshkentdagi «Известия» gazetasida «Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari» nomi bilan yosh xivaliklarning 1918-yil iyul oyida ishlab chiqilgan dasturi nashr etildi. Bunda ular o'zlarini Xiva inqilobiy partiyasi, deb ataganlar.

*«Manifest» tarzidagi bu dastur 12 moddadan iborat edi:*

1. Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatdagi yakka boshqaruvni butunlay tugatish.

2. Xiva xoni, to'ralar, beklar va vazirlarning boyligi, har xil ko'rinishdagi mol-mulkklarini xalq boyligi deb e'lon qilish.

3. Yirik yer egalari mulklaridan kambag'allar hayotini yaxshilashda foydalanish.

4. Shariat hukmi bilan vaqflarning barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash.

5. Xivadagi yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish.

6. Bolalarni bepul o'qitish uchun Xivada maktablar ochish.

7. Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi kasalxona va davolash muassasalarini ochish.

8. Xiva xoni tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va boshqa boyliklarni o'z egalariga qaytarish.

9. Asfandiyorxon hukmronligi davrida xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganligini aniqlashtirish.

10. Ko'priklar va aloqa yo'llarini yaxshilashga kirishish.

11. Beklar tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va mulklarni o'z egalariga qaytarish.

12. Majburiy tekin mehnat (begor)ni butunlay tugatish va boshqa vazifalar belgilangan.

### **Xorazm Xalq Sovet Respublikasi**

Xonlikda amal qilgan monarxiya tuzumi o'rniga davlatchilikning demokratik tamoyillarini shakllantirishda

Butun Xorazm xalq vakillarining qurultoylari o'ziga xos o'rinni egalladi. Birinchi qurultoy 1920-yil 26–30-aprel kunlari Xiva shahrida bo'lib o'tadi. Unda 200 ga yaqin delegat qatnashgan. Qurultoyda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi – XXSR tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilinib, 15 kishidan iborat XXSR hukumati – Xalq Nozirlar Kengashi (rais Polvonniyoz Hoji Yusupov) tuzildi.

1920-yil 30-aprel qurultoyning oxirgi majlisida XXSRning muvaqqat konstitutsiyasi (kirish so'zi, 13 bob, 37-moddadan iborat bo'lgan) qabul qilinadi. Konstitutsiya Xorazm tarixidagi birinchi konstitutsiya bo'lib, unda ilk marotaba keng xalq ommasining siyosiy huquqlari tenglashtirildi. Respublikada demokratik erkinliklar qonuniy tus oldi.



**Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida tuzilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hukumati – Xalq Nozirlar Kengashi a'zolari. Xiva, 1920-yil**

Sovet Rossiyasi ayni paytda yangi tuzilgan XXSRni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida 1920-yil 13-sentabrda XXSR bilan ittifoq shartnomasini tuzadi. Bu shartnoma bilan birga ikkala respublika o'rtasida imzolangan harbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar asosida Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga sovet Rossiyasi tomonidan tegishli harbiy, iqtisodiy va madaniy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi. Lekin bunday yordami zamirida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining ichki ishlariga aralashish, uning siyosatini o'z manfaatlariga bo'ysundirish maqsadlari yotardi.

Sovet davlatining turli ig'vogarlik va harbiy xurujlariga qaramay yosh xivaliklar hukumati bir yilcha faoliyat ko'rsatdi. 1921-yil 6-martda qizil askarlar Xiva shahrida namoyish uyushtirib, davlat to'ntarishini yasadi. Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq yosh xivaliklar hukumati ag'darib tashlandi va inqilobiy qo'mita tuzildi. Bolsheviklar xalq nozirlarini qamoqqa olib, ko'pchiligini otib tashladi. Umuman olganda, XXSP mavjud bo'lgan qariyb 5 yil davomida bolsheviklar tomonidan XXSR MIQ raislari va hukumat boshliqlari bir necha martadan o'zgartirildi. Xorazmda o'tkazilgan bunday davlat to'ntarishlari oqibatida o'zbek xalqining ko'plab asl farzandlari qatag'on qilindi.



Butun Xorazm xalq vakillarining IV qurultoyi esa 1923-yil 17–20-oktabrda Xiva shahrida o'tkazildi. Unga hal qilish ovozi bilan 234 delegat keladi. Ushbu IV qurultoy XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. 20-oktabrda XSSRning 5 bo'lim, 12 bob, 46 moddadan iborat yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu holat

respublikaning qonun yo'li bilan sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini mustahkamladi. Unga ko'ra yerning xususiy mulk ekanligi bekor qilindi, vaqf yerlar butunlay tugatildi. Mavjud yerlar umumxalq mulki deb e'lon qilinishi natijasida barcha vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga o'tdi. Qozixonalar faoliyati taqiqlanib, sovet sudlari tashkil etildi. Shu tarzda 1923-yil oktabr oyidan boshlab sovet hukumatning taziqi ostida mamlakatdagi demokratik o'zgarishlarga chek qo'yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. 1924-yil 29-oktabr – 2-noyabrda Butun Xorazm xalq vakillarining V qurultoyi Xiva shahrida o'tkazildi. Unda O'rta Osiyo milliy hududiy chegaralanish o'tkazilishi munosabati bilan XSSR tugatilishi e'lon qilindi.

### Buxoro amirligining ag'darilishi

Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat Xiva xonligidagiga o'xshash tarzda kechdi. Amirlik ham Rossiyaga tobe yarim mustamlaka sifatida vassal davlat edi. Ichki siyosatda mustaqil bo'lgan amirning mutlaq hokimiyati hukm surib, bundan oddiy xalq ommasini behad zulm tortib kelardi. XX asr boshlarida bu yerda

ham amirlik tuzumiga qarshi demokratik harakatlar shakllana boshladi. Bu davrda Buxoroda jadidchilik harakati va zimdan o'sib chiqqan yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati kuchaydi. Yosh buxoroliklar harakati 1908-yilda tuzilgan «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida 1910-yildan boshlab tashkiliy tus olib partiyaga aylangan edi. Abdulvohid Burhonov, Mukomil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Otaula Xo'jayev va boshqalar yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lgan.



«Yosh buxoroliklari» firqa a'zolaridan bir guruhi. O'rtada o'tirgan Fayzulla Xo'jayev

1917-yil fevral inqilobi yosh buxoroliklar ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini tezlashtirdi. Asta-sekin isloh qilish tarafdorlari bo'lgan jadidlarga Abdulvohid Burhonov, islohot sohasida faol harakatlarni qo'llovchi, nisbatan oz sonli yosh jadidlarga Fitrat yetakchilik qildi. Yosh buxoroliklar Petrogradagi Muvaqqat hukumatga amirlikda demokratik islohotlar o'tkazishni so'rab, 2 marta telegramma yubordi, Fitrat va U. Po'latxo'jayev Petrogradga jo'natildi. Ular Rossiyadan maxsus komissiya kelayotgani sababli Orenburgdan Buxoroga qaytishdi. Rossiyaning Buxorodagi regenti A.Y. Miller Buxoroda U. Po'latxo'jayev, A. Burhonov va boshqalar bilan uchrashib, yosh buxoroliklar talablari bilan tanishdi. Ular yangi usul



Buxoro amiri  
Olimxon (1881–1844)  
hukmronlik davri  
1910–1920-yillar



maktablari ochish, matbuotga erkinlik berish, xalq hukumati tuzish talablarini ilgari surdi. Muhokamalardan so'ng A.Y. Miller va uning yordamchisi Shulga tomonidan amirlikda o'tkaziladigan islohotlar loyihasi ishlab chiqildi. Buxoro amiri Sayd Olimxon bu manifest matnini ayrim tuzatishlar bilan farmoni oliy tarzida 1917-yil 7-aprelda e'lon qildi.

***Manifestda quyidagi talablar va'da qilingan:***

1. Nufuzli kishilardan iborat Majlis tashkil qilish.
2. Davlat xazinasini ta'sis etish va mamlakat budjetini belgilash.
3. Poytaxtda bosmaxona ochish.
4. Sanoat va savdoni rivojlantirish.
5. Soliqlarni tartibga solish.
6. Amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish.
7. Maorif, tibbiyot, sud tizimlarini yaxshilash.
8. Ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish.

Yosh buxoroliklarning Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Usmon Xo'jayev boshchiligidagi so'l qanoti 8-aprelda amirning e'lon qilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun Buxoro shahrida katta namoyish uyushtirdi. Bu manifestning e'lon qilinishi demokratik hamda konservativ kayfiyatdagi namoyishchilarning ko'chaga chiqishiga sabab bo'ldi. Demokratik namoyishchilar Registonda miting o'tkazdi. Demokratik doiralar amir manifesti mamlakatda tinch yo'l bilan ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun dastlabki qadam, deb qaradilar. Shu kuni konservatorlar va mutaassib guruhlar esa Registonda to'planib islohotga, yangiliklarga qarshi jangarilik va murosasizlik kayfiyatlarini ko'rsatdilar. Ikki o'rtadagi munosabatlar keskinlashdi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvni oldini olish maqsadida demokratik namoyishchilar boshliqlari Registonga borish niyatidan qaytdilar, namoyishchilarni tarqalib ketishga da'vat qildilar. Bu tadbir oxirigacha yetkazilmagan bo'lsa-da, u Buxoro amirligi demokratik o'zgarishlar, islohotlar uchun yetilganligini yaqqol ko'rsatdi. 8-aprel voqealarining yakuni shu bo'ldiki, hukumatda konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Bu voqealardan so'ng amir qozikalon Sharifjon Mahdumni lavozimidan bo'shatdi, g'azablangan mutaassiblar rais Abdusamadxo'jani olomon qilib o'ldirdilar, qushbegi Nasrullobek buyrug'i bilan shoir S. Ayniy, yosh buxoroliklar Mirbobo, Mirzo Nazrullo 75–150 kaltak urib jazolandilar. Islohotchilik harakatining bu bosqichi shunday noxush yakunlandi.

Amir Olimxon 1917-yil 14-aprelda o'z farmonini bekor qilib, yosh buxoroliklarni yoppasiga ta'qib eta boshladi. Ular amirning zulmidan qochib xorijga ketishga majbur bo'ldilar. Yosh buxoroliklar endi amir hokimiyatiga qarshi yashirin kurash yo'liga o'tdi.

Oktabr to'ntarishidan keyin sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Turkiston Respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turdi. Xususan, 1918-yil martida «*Kolesov voqeasi*» nomi bilan tarixga kirgan qonli voqeadan keyin bu munosabatlar o'ta yomonlashdi. F. Xo'jayev boshchiligidagi yosh buxorolik jadidlarning bir qismi, Buxoroda demokratik tartibotlarni o'rnatish uchun inqilobiy kurash yo'lini tanladi. Ular amirlikni ag'darish uchun 1917-yilning dekabrda Turkiston XKS raisi F.I. Kolesov (1891–1940)dan harbiy yordam so'raydilar. U harbiy yordam ko'rsatishga va'da berdi, lekin Buxoro amirligiga hujum qilishga shoshilmagan. Dastlab Turkiston Muxtoriyati hukumati tor-mor etilgach, bu ishga kirishdi.

Yosh buxoroliklarning markaziy qo'mitasi (1917-yil tuzilgan) hujumga tayyorlanib, F. Xo'jayev raisligida 7 kishilik **Inqilobiy qo'mita** tuzdi. 1918-yil 1-martda Yangi Buxoroga F. Kolesov boshchiligidagi 3500 kishilik kizil askarlar otryadi zambarak va pulemyotlar bilan qurollangan holatda yetib keldi. Kolesov bilan inqilobiy qo'mita a'zolari o'zaro maslahatlashib, amir Sayd Olimxon nomiga talabnoma matni tayyorlandi. Kolesov va F. Xo'jayev imzolari bilan Olimxonga jo'natilgan talabnoma javobidan qanoatlanmagan Kolesov harbiy harakatlarni boshlashga buyruq berdi. 2-martda Buxoroga hujum boshlandi. Harbiy harakatlar 1918-yil 25-martda sovet Turkistoni bilan Buxoro amirligi o'rtasida **Qiziltepa bitimini** imzolanishi bilan yakun topdi. Buxoro Rossiya vassalligidan chiqadi. 9 band-



Fayzulla Xo'jaev  
(1896–1938)



Amir Sayyid Olimxon va Nasurullo qushbegi,  
O'rganjilar saroy mulozimlari va chet ellik  
harbiylar. 1920-yil avgust

dan iborat bitim shartiga ko'ra, mustaqilligini himoya qilgan Buxoro amirligi o'z hududidagi harbiy harakatlar uchun javobgar deb hisoblandi va tovon to'lashi lozimligi belgilandi. Amir o'z sarbozlari miqdorini 12000 kishidan oshirmaslik majburiyatini oldi. Qizil askarlar amirlik hududidan chaqirib olindi. F. Kolesovning Buxoroga qarshi harbiy xuruji barbod bo'lsa ham, Buxorodagi siyosiy tuzumni o'zgartirish uchun harakatlar to'xtamadi. Afsuski, Amir Olimxon mamlakat taqdiri hal qilinayotgan ushbu fursatda muxolifatdagi yosh buxoroliklarni yo'qotish yo'lini tutdi. U amirlik hududidagi 3 ming kishini jadidchilikda nohaq ayblab, ularni qatl qildirdi va mol-mulkini musodara ettirdi. Fayzulla Xo'jayev va Fitrat boshchiligidagi ko'plab yosh buxoroliklar mamlakatni tark yetishga majbur bo'ldilar. Muhojirlikning dastlabki davrida (1918-yil mart – iyun) F. Xo'jayev o'zining safdoshlarini ishga joylashtirish va moddiy jihatdan ta'minlash bilan faol shug'ullandi.

Bu davrda sovet mutasaddilari Buxoroda sun'iy inqilob tayyorlash, buning uchun Turkistondan panohtopgan ko'p sonli buxorolik muhojirlarni ishga solish, ulardan ko'plab inqilobchi kuchlar yetishtirish va ularni tashkillashtirish harakatida bo'ldilar. Natijada yosh buxoroliklar harakati yanada tashkiliy tus oldi. Toshkentda 1918-yil aprel–may oylarida Usmon Xo'ja boshchiligida Yosh buxoroliklarning *so'f eserlar guruhi* tuzilgan. Samarqanddagi shunday guruhga Usmon Xo'janing ukasi Otaulla Xo'jayev boshchilik qilgan (bu guruh 1918-yil 25-sentabrgacha ishladi). 1918-yil sentabrida Toshkentda Buxoro muhojirlari tomonidan Buxoro kompartiyasi va uning Markaziy Qo'mitasi tuziladi (uning raisi A. Yoqubov, o'rinbosari M. Qulmuhammedov). Fayzulla Xo'jayev esa Turkiston Respublikasining RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakolatxonasida Moskvada 1918-yil oktabrda Yosh buxoroliklar partiyasining bo'limini tashkil qilgan. 1920-yil yanvarda Toshkentda F. Xo'jayev boshchiligida Yosh buxoroliklar partiyasining **Turkiston Markaziy byurosi** tashkil etilgan. Ushbu tashkilotlar sovet Rossiyasining harbiy kuchlariga tayangan holda Buxoroda amirlik tuzumini ag'darish uchun kurashga jiddiy kirishdi. Bolsheviklar ham strategik maqsadlarni ko'zlagan holda yosh buxoroliklardan amirlik hokimiyatini ag'darishda foydalandi.


1920-yil yozida Buxoro amirligida siyosiy vaziyat juda ham keskinlashdi. Moskva va Toshkentda ishlab chiqilgan rejaga asosan qizil armiyaning Buxoro xonligini tugatish va uning hududida sovetlar hokimiyatini barpo etish maqsadida «Buxoro operatsiyasi», ya'ni Buxoro bosqinini amalga oshirishga kirishdi. 1920-yil 23-avgustda Beshim Sardor boshchiligidagi yollanma turkman otliqlar isyon

ko'tarib, Chorjo'y yaqinidagi Saqor bozorni ishg'ol qilishdi va keyin Eski Chorjo'yni bosib oladi. Yuzdan ortiq amaldorlar qamoqqa olingan. Chorjo'y bekligi xazinasi qo'lga kiritildi, shundan so'ng Beshim Sardor boshchiligida Chorjo'y inqilobiy qo'mitasi (revkomi) tashkil qilindi. Oldindan kelishilganidek bu qo'mita o'sha kuniyoq sovet hukumatiga yordam so'rab murojaat qildi.

Turkiston fronti qo'mondoni M.V. Frunze «yordam» to'g'risidagi murojaatni olgandan so'ng qo'shinlarini 4 ta zarbdor guruh (Samarqand, Kattaqo'rg'on, Chorjo'y va Kogon)ga bo'lib, 1920-yil 28-avgustdan 29-avgustga o'tar kechasi Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshladi.

Bolsheviklar rejimining harbiy jihatdan ancha ustun qo'shinlari Qarshi, Kitob, Shahrisabzni bosib olib, amirlik poytaxtiga yaqinlashib qoldilar. Lekin bu yerda bosqinchilar amir qo'shinlarining qat'iy qarshiligiga duch keldilar. Amir qo'shinlari bilan yelkama-yelka tinch aholi ham shaharni himoya qilishga otlandi. Turkfront qo'mondonligi buyrug'i bilan Eski Buxoro samolyotlardan bombardimon qilindi, to'plar va bronepoyezdlardan turib qattiq o'qqa tutildi. Hal qiluvchi janglar Buxoro darvozalari yaqinida ro'y berib, qonli jang 4 kecha-kunduz davom etdi. 1920-yil 2-sentabrda bosqinchilarning to'xtovsiz zarbalari ostida amirlikning so'nggi tayanchi – Ark mag'lub bo'ldi. Shundan keyin Buxoro shahri egallandi. Amirlik tuzumi ag'darib tashlandi. Buxorodan so'ng qizillar amirlik tarkibidagi 27 bekligni ham birin-ketin egallashgan va bu bilan Buxoro amirligiga barham berildi.

1920-yil 14-sentabrda bo'lgan yig'ilishda 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi Abdulqodir Muhitdinov) va 11 kishidan iborat respublika hukumati – Xalq Nozirlar Kengashi (Soveti) tuzildi. Butun Buxoro Inqilobiy qo'mitasi (Markaziy Revkom) tarkibiga A. Muhitdinov, A. Abdusaidov, A. Oripov, M. Burhonov, S. Yusupov, M. Aminov, O. Oqchurin, H. Ibrohimov, F. Xo'jayev va M. Qulmuhammedov kirgan. Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy – tashqi ishlar (nozir – F. Xo'jayev), maorif (Qori Yo'ldosh







ruhda qabul qilingan bu konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustahkamlab, xususiy mulk shakli saqlanib qolindi. Konstitutsiyaga ko'ra, BXSРning oliy hokimiyat organi – Butun Buxoro xalq vakillari qurultoyi (Butun Buxoro xalq deputatlarining Sovet syezdlari) hisoblangan.

Qurultoy 1921-yil 23-sentabrda 85 kishidan iborat bo'lgan Butun Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasini (raisi – Usmonxo'ja Po'latxo'jayev) sayladi. Konstitutsiyaga binoan, Xalq Nozirlar Kengashi davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi sifatidagi o'z vazifasini saqlab qoldi. Hukumat 10 nozirlikdan iborat bo'lishi ko'rsatilgan.

1923-yil 11–17-oktabr kunlari Butun Buxoro xalq vakillarining IV qurultoyi Eski Buxoro shahrida bo'lib o'tdi. Bu qurultoyda BXSР Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qaror tasdiqlandi. Unga ko'ra, barcha savdogar, mulk egalari va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ishchi, dehqon va boshqalarning saylov huquqi kengaytirildi. Shuningdek, qurultoyda «Sovet qurilishi to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirdi. Siyosiy jarayonlar keng avj olib bordi. Buxoroda olib borilayotgan demokratik islohotlar cheklana boshladi. Ya'ni, BXSР demokratiya yo'lidan tobora uzoqlashib, markazning sun'iy ravishda kiritayotgan sotsialistik qayta qurishlarni amalga oshira boshladi.

1924-yil 18–20-sentabr kunlari Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyi Eski Buxoro shahrida bo'lib o'tdi. Qurultoy 19-sentabrda BXSРni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga (BSSР) aylantirish haqidagi qarorni qabul qildi. BSSРning tuzilishi Buxoro taraqqiyotida demokratiya tamoyillarini tugatilganligini va uning o'rniga rasmiy ravishda sotsializm yo'li egallaganligini anglatar edi. 1924-yil 18-noyabr Buxoro SSR Turkiston ASSР va Xorazm SSR MIKlari bilan birgalikdagi qo'shma qarori asosida o'z vakolatlarini (F. Xo'jayev rais) O'zbekiston SSR Muvaqqat Inqilobiy Komitetiga topshirdilar. Shu tariqa, O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanish natijasida Buxoro SSR tugatildi va uning hududi yangi tashkil etilgan respublikalarning tarkibiga majburan kiritildi.



**Fayzulla Xo'jayev boshchiligida tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati – Xalq Nozirlar Kengashi a'zolari. Buxoro, 1923 yil**

**5. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.** Hozirgi kunda tarixchilar tomonidan Turkiston o'lkasi xalqlarining sovet hokimiyati va bolsheviklarning rejimiga qarshi olib borilgan kurashga goh istiqloqlchilik, goh qurolli harakat sifatida ta'rif berilmoqda. Shunday bo'lsa-da, bu kurashning zamirida mustaqillik va milliy ozodlik g'oyasi turishini esdan chiqarmaslik lozim.

Tarixiy manbalarda Turkiston mintaqasida sovetlar bosqiniga qarshi olib borilgan qurolli harakatning boshlanish va uni davrlashtirish bo'yicha har xil fikr – xulosalar ilgari surildi. Jumladan, sovetlar tarixshunosligida Turkiston xalqlarining ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurashi davrini ko'r-ko'rona grajdanlar urushi davri deb qaraldi, Rossiyadagi fuqarolar urushi davridan andozalar aynan ko'chirib olindi va 1918–1920-yillar bilan belgilandi. Holbuki, bu tarixiy haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmaydi, chunki, mazkur harakat 1918-yil fevral oyining oxirlarida boshlanib, 1935-yilgacha davom etgan edi.

Sovet mustabid tuzumi mafkurasi hukmronligi yillarida milliy ozodlik uchun olib borilgan qurolli harakatning mohiyati buzib, soxtalashtirilib «bosmachilik» deb ataldi va sabablari bir yoqlama yoki juda toraytirilib ko'rsatildi. Ushbu «bosmachilik» atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston milliy ensiklopediyasining 2-jildida unga quyidagi ta'rif berilgan: «**Bosmachilik** – Turkistonda sovet hokimiyati va bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borilgan qurolli harakatga sovet hukumati davrida berilgan rasmiy nom. «Bosmachi» so'zi aslida turkiy «bosmoq» (hujum qilmoq) fe'lidan yasalgan. Xalq o'rtasida «bosmachi» deb harbiy birlikka aloqasi bo'lmagan jinoyatchi unsurlar, o'g'ri va bezorilar tushunilgan. Shuningdek, birovlarining yurtini bosib olgan bosqinchilarni ham «bosmachilar» deyish mantiqan to'g'ri keladi. 1918-yilning boshidan 1919-yil o'rtalarigacha bo'lgan arxiv hujjatlarida «bosmachi» so'zi uchramasdan, uning o'rniga «qaroqchi», «bosqinchi» iboralari qo'llanilgan. 1919-yilning o'rtalaridan boshlab avval vaqtli matbuotda, so'ngra rasmiy hujjatlarda «bosmachi» va «bosmachilik» iboralari keng ishlatilgan. Bu iboralar milliy ozodlik harakatining mohiyatini soxtalashtirish, ajdodlarimizning sovet rejimi va bolsheviklar hukmronligi hamda qizil armiyaning bosqinchilik siyosatiga qarshi olib borgan milliy kurashlarini niqoblash uchun buyuk davlat shovinistlari tomonidan o'ylab topilgan hamda «banditlik», «qaroqchilik» degan so'zlar bilan asossiz ravishda bir qatorga qo'yilgan ...».

Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat deyarli barcha tarixchilarning asarlarida «Turkiston Muxtoriyati hukumatning tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi» e'tirof etiladi. Ammo bu harakatning tub mohiyatiga e'tibor

qaratadigan bo'lsak, Qo'qonda faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston muxtoriyati hukumatning sovetlar tomonidan yo'q qilinishi ham, yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo'lmaganida ham bu harakatning vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zero, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat qurolli harakatning boshlanishini muqarrar qilib qo'ygan edi. Chunki Turkistonda qurolli harakatning boshlanishi uchun muxtoriyatning tor-mor qilinishi bilan birga boshqa bir qator jiddiy sabablar ham mavjud edi.

*Birinchi*dan, 1917-yilda sodir bo'lgan oktabr to'ntarishi va buning natijasida hokimiyatni qo'lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g'oyani avval boshdanoq o'ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

*Ikkinchi*dan, sovet hukumati o'rnatilgan dastlabki kundanoq mahalliy xalq vakillari hokimiyatni boshqarishga jalb qilinmadi, ularning milliy g'ururi va haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda o'rnatilgan bolsheviklar tuzumi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi o'sha dastlabki kunlardanoq oshkor bo'lgan edi.

*Uchinchi*dan, yangi tuzum o'rnatilgan kundanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini toptaldi. Qozi sudlovi bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qo'yildi. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi qurolli harakatning butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadi, xolos. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi qurolli harakat 1918-yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi. Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi.

Turkiston mintaqasidagi qurolli kurash o'z hududiy doirasiga ko'ra 3 ga bo'linadi: Turkiston ASSR, BXR va XXSR hududlari. U keyinchalik O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston ASSR, Qozog'iston ASSRda ham davom etdi.

Turkiston mintaqasida sovet hokimiyati va bolsheviklar rejimiga qarshi (qurolli) harakat o'z rivojlanish jarayoniga ko'ra 2 katta davrni bosib o'tdi. Har bir davr harakat qatnashchilarining miqdori, qo'rboshilar, kurash taktikasi va janglar amaliyotiga ko'ra, shuningdek, alohida xususiyatlari bilan bir-biridan o'zaro farqlanuvchi mustaqil bir nechta bosqichlarga ham bo'linadi.

*Turkiston mintaqasida sovet hokimiyati va  
Bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli harakat*

№	1918–1924-yillar	1925–1935-yillar
1	1918-yil fevral – 1918-yilning kuzi	10 yil davomida olib borilgan, biroq ommaviy jang harakatlari bo'lmagan
2	1918-yilning kech kuzi – 1920-yilning erta bahori	
3	1920-yilning bahori – 1922-yil oxiri	
4	1923–1924-yillar	



**Madaminbek  
Muhammad Aminbek  
Ahmadbek o'g'li  
(1892–1920)**



**Shermuhammadbek.  
Kobul sh.**

Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning birinchi davrining *1-bosqichida* sovet rejimiga qarshi qurolli harakat dastlab Farg'ona vodiysida boshlandi va u qisqa muddat ichida tashkiliy va harbiy jihatdan shakllandi. Harakatning vujudga kelishida Kichik Ergash (taxm. 1885–1918) va Katta Ergash (taxm. 1882–1921) qo'rboshilarning katta tashkilotchilik qobiliyati muhim rol o'ynagan bo'lsa, uning keyingi taraqqiyoti va rivojlanishida Marg'ilon militsiyasining sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li – Madaminbek (1892–1920)-ning xizmatlari ko'p bo'ldi. U 1918-yilning erta bahoridan qurolli harakat ishtirokchilarining safiga kirdi.

Bu bosqichning o'ziga xos tomoni shuki, sovetlar rejimiga qarshi qurolli harakat ishtirokchilarining soni ortib bordi va tashkiliy jihatdan uyushtirish boshlandi. Masalan, 1918-yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, Shermuhammadbek (1893–1970) va Nurmuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Umar – Choli Urganji qishlog'ida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edi.

Bu tarqoq holda bo'lgan qurolli harakatni yagona qo'mondonlikka bo'ysundirish va birgalikda harakat qilish maqsadida «Sho'roi Islom» va «Sho'roi Ulamo» tashkilotlari a'zolarining tashabbusi bilan 1918-yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog'ida Farg'onadagi butun qo'rboshilarning birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda 40 dan ortiq yirik qo'rboshilar qatnashdi. Farg'ona vodiysidagi qurolli harakatning boshlig'i qilib Katta Mulla Ergash saylandi va unga butun musulmon qo'shinlarining oliy bosh qo'mondoni – «Amir al-muslimin» unvoni berildi. Ergash qo'rboshining o'rinbosarlari qilib Madaminbek va Shermuhammadbek tayinlandi. Umuman olganda, Farg'ona vodiysida 1918-yilning o'rtalariga kelib, taxminan yuzga yaqin qo'rboshi o'z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bormoqda edi.

Biroq shuni tan olish kerakki, barcha qo'rboshi dastalari ham milliy mustaqillik uchun kurashdilar deb bo'lmaydi. Ba'zi guruhlar o'z manfaatlari yo'lida to'ntarishdan keyingi tartibsizliklar va boshboshdoqlikdan foydalanib xalqni talash, boylik orttirish maqsadida harakat qilib aholi orasida obro'sizlandilar. Bular kichik-kichik guruhlar bo'lib, ular umumiy istiqlolchilik harakatiga qo'shilmas, o'zlari mustaqil harakat qilar edilar. Sovet hukumati esa bundan ustalik bilan foydalanib, Turkiston xalqlari o'rtasida haqiqiy istiqlolchilarni obro'sizlantirishga, ularga «bosmachilar» deb tamg'a bosishga harakat qilar edi.

**2-bosqichda** (1918-yilning kech kuzi–1920-yilning erta bahori) qurolli muxolifat harakati shiddat bilan rivojlandi. Bu davrda kurash ko'lami allaqachon Farg'ona vodiysi hududidan chiqib, asosan, Samarqand viloyati, qisman Sirdaryo va Amudaryo viloyatlarini ham qamrab olgan edi. Bu bosqichda Farg'ona vodiysida sovet hokimiyati, asosan, tugatildi. U faqat yirik shaharlarning bir qismi va temiryo'l bekatlarida saqlanib qoldi. Bu bosqichning eng muhim yutug'i Madaminbek boshchiligida «**Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati**»ning tuzilishi edi. Bu hukumat 1919-yil 22-oktabrda Ergashtom (Irkeshtam)da bo'lib o'tgan anjumani-da tashkil topgan. Uning tarkibiga 24 kishi kirgan (16 musulmon va 8 rus). Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lishi bilan bir qatorda bosh qo'mondan qilib ham tayinlandi.

Oradan sal o'tmay, ya'ni 1919-yil oktabr oyining so'nggi kunlarida Farg'ona vodiysidagi barcha yirik qo'rboshilar Oyimqishloqda to'plandi. Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha, bu harakat tarixida eng yirigi bo'lgan bu qurultoyda, Farg'ona vodiysida harakat qilayotgan 150 tacha qo'rboshi dastalari to'rtta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'mondonligi ostida birlashtirildi. Qurultoyda islom qo'shinlarining oliy bosh qo'mondoni – «Amir al-muslimin» qilib Madaminbek saylandi. Ammo bu birlashuv kutilgan natijani





ham katta mag'lubiyatga uchradi. Fevral oyining oxirida Garboboni qizil armiya jangchilari ishg'ol qildilar.

Albatta, vatanparvar kuchlarga berilgan surunkali, shiddatli bunday zarbalar jangchilarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Madaminbek vujudga kelgan obyektiv va subyektiv vaziyatni oqilona hisobga olib, o'z yigitlari hayotini saqlab qolish maqsadida 2-Turkiston diviziyasining qo'mondonligi bilan yarash bitimi muzokaralarini boshlashga qaror qildi. Natijada Madaminbek bilan

2-Turkiston o'qchi diviziyasining boshlig'i Veryovkin-Raxalskiy o'rtasida 1920-yil 6-martda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning o'nlab qo'rboshilari va 3500 yigitlari o'tgan edi.



**Madaminbek Farg'ona harbiy fronti qo'mondoni Veryovkin-Raxalskiy bilan sulh borgan holati. 1920-yil, mart**

***Bu bitimning mazmuni quyidagilardan iborat:***

«Men Muhammad Aminbek o'z qo'shinim hamda o'zlarining batamom roziliklarini shaxsan menga izhor qilgan qo'rboshi va a'zolarim bilan birgalikda tantanali qasamyod qilamanki, endilikda sovet hokimiyatini tan olaman, sodiq xizmatkor bo'lishga so'z beraman, uning barcha buyruq va topshiriqlariga quyidagi shart-sharoitlarda amal qilaman:

1) Sovet hukumati Turkiston fuqarolari hayotini yo'lga qo'yishda shariat asoslarini saqlab qolib, mehnatkashlarning manfaatlarini himoya etib, ahli islomga mavjud shariat, ya'ni musulmonlarning mahalliy shart-sharoiti va urf-odatlariga huquq berganida;

2) Otryadimning doimiy qarorgohi Namangan shahri etib tayinlanganida;

3) Men, boshqa frontlarga chiqmasdan, vaqtincha Farg'ona tasarrufida, sovet hokimiyatini har tomonlama ham ichki, ham tashqi dushmanlardan himoya qilishga va'da beraman;

4) Otryadimda xizmat qilayotgan barcha ruslar to'la ozod etiladi va xohishlariga binoan otryadimda xizmatda qolishlari mumkin;

5) Shu yilning 13-martidan kechikmay o'z vakillarim bilan Turkfront Harbiy Inqilobiy Kengashi va Turkiston Markaziy hokimiyatiga sodiq ekanimni bildirish uchun Toshkentga borishga so'z beraman.

2-Turkiston o'qchi diviziyasining boshlig'i Veryovkin-Raxalskiy, «Harbiy siyosiy komissari Slepchenko.

Islom qo'shinining qo'mondoni Madaminbek» (*«Sharq yulduzi», 1991, 3-soni*)

Sovetlar tarafiga o'tgan Madaminbek qizil askarlarning katta kuchga ega ekanligini, qurolli harakatning ishtirokchilari bu kuchga bardosh bera olmasliklarini o'sha davrdayoq yaxshi tushungan edi. Qo'rboshilarga ishonib o'z hayotlarini ozodlikka tikkan yigitlar behuda qurbon bo'lib ketishini istamagan Madaminbek ularning qurolini tashlab, tinch hayotga qaytishga undash uchun sovetlar tomonida turib harakat qildi. Lekin Madaminbekning diplomatik tadbirlari samarasiz tugadi. Sovetlar tomonidan muzokaralar o'tkazish uchun qo'rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek qizillarga sotilgan Soyib qori va Lutfullo Mahdumlar tomonidan 1920-yil 14-mayda Qorovul qishlog'ida o'ldirildi. Uning qabri hozirgi Qirg'iziston Respublikasi hududi – Oloy vodiysidagi Shig'ay qishlog'ida.

1920-yilning may oyidan boshlab kurash bayrog'ini vodiya Madaminbek o'rniga endi Shermuhammadbek ko'tardi. Farg'ona vodiysidagi butun qo'rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanidagi G'ayibota qishlog'ida o'zlarining navbatdagi qurultoylariga to'plandilar. Qurultoy 1920-yil 3-mayda «**Turkiston** –



**Shermuhammadbek sovet hukumati vakillari bilan muzokara o'tkazmoqda. Farg'ona shahri, 1921 yil**

**turk mustaqil islom jumhuriyati**», ya'ni Turkiston muvaqqat hukumatni tuzdi. Mazkur qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va islom qo'shinlarining oliy bosh qo'mondoni – «Amir al-muslimin» qilib saylandi. Bu hukumat 1922-yilning dekabrigacha faoliyat olib borgan.

Sovet hukumati qurolli harakatlarni to'xtatish maqsadida istiqlolchilarga va birinchi o'rinda Shermuhammadbek qo'rboshiga murojaat qilib, ulardan taslim bo'lishni talab qildi. Xususan, Farg'ona viloyati inqilobiy qo'mitasi (revkomi) o'zining 1921-yil 9-martdagi qarori bilan «1-apredan 1-maygacha bir oylik muddat ichida bosmachilarni qurollari bilan kelib, ixtiyoriy taslim bo'lish»ga chaqirdi. Natijada qo'rboshilar bilan sovet hokimiyati vakillari o'rtasida muzokaralar boshlandi.

Muzokaralarda Shermuhammadbekning eng obro'li qo'rboshilaridan biri Aliyorbek istiqlolchilar nomidan quyidagi shartlarni o'rta qo'ydi: «1. Shariatiga rioya qilish; 2. Mustaqil qozilar saylash; 3. Oziq-ovqat taqsimotini bekor qilish». Tabiiyki, sovet qo'mondonligi bu takliflarni rad etdi.

**4-bosqichga** (1923–1924-yillar) kelib, Turkiston mintaqasidagi harbiy va siyosiy vaziyat kuchlar nisbatini bolsheviklar foydasiga o'zgartirib yubordi. Sovet Rossiyasi markazidan muntazam ravishda yuborilgan SSSRning qurolli kuchlari muxolifatchilarga qarshi ommaviy hujumga o'tib, ularga kuchli zarbalar berishga muvaffaq bo'ldi. Bu davrda Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi muxolifatchilar yirik janglarda mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar ham biroq Buxoro, xususan, Xorazmda ular ayrim yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Ayniqsa, 1923-yil oxiri – 1924-yil boshlarida Xorazm vohasida ko'tarilgan katta qo'zg'olon, Junaidxon qo'shini tomonidan poytaxt Xivaning qamal qilinishi, hatto bir qismining egallanishi (1922-yil mart oyida Mulla Abdulqahhor qo'shini Buxoro shahrining bir qismini qizil askarlardan ozod qilgan edi) bu bosqichdagi muhim voqealar sirasiga kiradi. Lekin, aynan, 4-bosqichning yakuni–1924-yil oxirlariga kelib Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat, asosan, mag'lubiyatga uchradi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat mintaqa xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan va turli oqibatlarni keltirib chiqargan. Urush harakatlari natijasida iqtisodiyot izdan chiqqan, tub xalqlarning turmush darajasi og'irlashgan.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning mag'lubiyatga uchrashining ichki va tashqi omillari, ko'plab sabablari bo'lgan. Bu sabablar, eng avvalo, qurolli muxolifat harakatining hamma payt ham yagona harbiy kuch sifatida

uyusha olmaganligida, kurash jarayonida ba'zi qo'rboshilar o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro nizolar va kelishmovchiliklarda ko'rinadi. Qizil armiyaning harbiy jihatdan ustunligi, pirovardida, kurash taqdirini hal qilgan.

Bolsheviklar muxolifatchilar ustidan yirik g'alabalarga erishgach, nihoyat, 1924-yil oxirida Turkiston mintaqasini parchalab tashlashga, ya'ni O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Tub xalqlar nomi bilan ataluvchi 6 ta milliy respublika tuzilib, ular SSSR yoxud RSFSR tarkibiga kiritildi. Lekin bu respublikalar sovet andozasi asosida tuzilganligi va SSSR tarkibida bo'lganligi uchun ham milliy davlat vazifasini o'tay olmasligi ravshan edi. Shuning uchun sovet rejimiga qarshi qurolli harakat 1925-yil va undan keyingi yillarda ham davom etdi. Harakatning ikkinchi davri 1925–1935-yillarni o'z ichiga olib, u ham o'z navbatida turli bosqichlarga bo'linadi. Kurashning 2-davri 10 yil davom etib, o'zining xususiyati va kuchlar nisbati bo'yicha birinchi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Lekin kurashning birinchi davridan farqli ravishda bu yillarda ommaviy jang harakatlari deyarli yuz bermadi. Kurash ko'lam va xususiyati ham bu davrda ancha o'zgargan edi.

### 13-MAVZU: Sovet tuzumining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati va uning salbiy oqibatlari

#### *Reja:*

1. Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va totalitar tuzumning qaror topishi. Milliy respublikalar huquqlarining cheklanishi.

2. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati (XX asrning 20–30-yillari).

3. O'zbekistonda «Katta terror» yoki «Quloqlar operatsiyasi» va uning oqibatlari.

4. Urushdan keyingi yillarda milliy ziyolilarni qatag'on qilishning yangi to'liqini.

5. Mustamlakachilik davri qurbonlari – shahidlar xotirasiga avlodlar ehtiromi.

Tayanch so'z va iboralar: Ma'muriy-buyruqbozlik, totalitar tizim. Repressiya. Qatag'on, «18 lar guruhi». «Inog'omovchilar». «Qosimovchilar». Ziyolilar qatag'onligi. Diniy ta'qiblar. Qatag'onlikning yangi to'liqini. Fan va madaniyatga bosim.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. *Каримов Ислом.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.



3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қатагон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида» Фармони (ПФ – 2837-сонли), 2001 йил 1 май.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ватан ва халқ озодлиги йўлида қурбон бўлган фидойилар хотирасини абадийлаштириш тўғрисида»ги Қарори, 1999 йил 22 июль.
5. *Ишанходжаева З.Р.* Репрессивная политика Советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925–1953 гг.). – Т.: Tafakkur, 2011.
6. *Равшанов П.* Қизил салтанат исканжасида. Тажовуз. (Хужжатлардаги тарих) Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Sharq, 2011.
7. *Равшанов П.* Қизил салтанат исканжасида. Истибдод (Хужжатлардаги тарих). Уч жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Sharq, 2011.
8. *Равшанов П.* Қизил салтанат исканжасида. Қатагон (Хужжатлардаги тарих). Уч жилдлик. Учинчи жилд. – Т.: Sharq, 2011.
9. *Расулов Б.* Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929–1959 йиллар). – Т.: Sharq, 2012.
10. Репрессия: 1937–1938 гг. Документи и материалы. Вип., I. – Т.: Шарк, 2005.
11. Репрессия: 1937–1938 гг. Документи и материалы. Вип., 4. / Сост: Р.Т. Шамсутдинов, М. Абдуллаев, Э. Дусматов, Х. Курбанов. – Т.: Шарк, 2008.
12. Среднеазиатский кишлак в годы Большого террора. Документи и материалы. Сост: Р.Т. Шамсутдинов, Э.Ю. Юсупов, С. Хошимов, Э.П. Дусматов. – Андижан: 2007.
13. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Хужжат ва материаллар. Биринчи китоб. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009.
14. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар. Хужжат ва материаллар. Хотиралар. Иккинчи китоб. – Т.: O'qituvchi, 2010.
15. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар. Хужжат ва материаллар. Хотиралар. Учинчи китоб. – Т.: O'zbekiston, 2012.
16. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссилка, 1929–1955 гг.: Документи и материалы. Т. I–III / Сост: Р.Т. Шамсутдинов, Б.М. Расулов; Под. ред. Д.А. Алимовой; – Т.: Шарк, 2006.
17. *Усмонов Қ., Содиқов М.* Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). – Т.: Шарк, 2001.
18. Ўзбекистонда совет давлатининг қатагон сиёсати: келиб чиқиши сабаблари ва фожиали оқибатлари. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2012.
19. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарк, 2000. – Б. 312–325.
20. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. – Т.: Янги аср

- авлоди, 2003. – Б. 464–471; 516–528.
21. Шамсутдинов Рустамбек. Истиклол йўлида шахид кетганлар / Маъсул муҳаррир: И. Каримов. – Т.: Шарқ, 2001.
  22. Шамсутдинов Р. Катта террор айбдорлари ҳақида янгича талқинлар. – Андижон: 2007.
  23. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август – 5 ноябрь) / Маъсул муҳаррир Н. Каримов. – Т.: Шарқ, 2007.
  24. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. (1938 йил февраль, сентябрь). Бешинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2009.
  25. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб) Т.: Sharq, 2012.
  26. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – В. 337–343.
  27. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – Т.: Sharq, 2010. – В.310–335.
  28. <http://www.uzmeros.uz/meros.php>

**1. Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va totalitar tuzumning qaror topishi. Milliy respublikalar huquqlarining cheklanishi.** Ma'lumki, 1918-yilning o'rtalaridan sovet hukumati butun Rossiyada bo'lgani singari Turkiston respublikasida ham harbiy chora-tadbirlar bilan bir qatorda favqulodda iqtisodiy chora-tadbirlarni ham belgiladi. Ya'ni iqtisodiy sohada «oziq-ovqat jarimasi (razvyorstkasi)» joriy qilindi. Bu tarixda «harbiy kommunizm» siyosati deb nomlandi. Ushbu siyosatning amalga oshirilishi sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining dastlabki ko'rinishi edi. Bu siyosat o'z mohiyatiga ko'ra xalqqa qarshi qaratilgan bo'lib, unga ko'ra tovar-pul munosabatlariga barham berish, bolsheviklar hukumati qo'lida barcha resurslarni markazlashtirish asosida butun Rossiya kabi Turkistondagi dehqonlar qo'lidagi «ortiqcha» g'alla boyliklarini davlat ixtiyoriga tortib olish, yirik sanoat bilan bir qatorda o'rta va mayda korxonalarini ham davlat qo'lida umumlashtirish, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan barcha erkak va ayollar uchun umumiy mehnat majburiyatini joriy etish singari chora-tadbirlar belgilangan. Ammo bu siyosat nafaqat o'zining samarasizligini ko'rsatdi, balki og'ir oqibatlariga ham olib keldi. Shuning uchun RKP(b) ning X syezdida (1921-yil mart) **yangi iqtisodiy siyosatga**, boshqacha aytganda, pul-tovar munosabatlariga o'tishga majbur bo'ldi. Oziq-ovqat jarimasi oziq-ovqat solig'i bilan almashtirildi. Tez kunda yangi iqtisodiy siyosat o'zining natijalarini bera boshladi. Ittifoq miqyosida, xususan O'zbekistonda ham sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqaror o'sib bordi. Sovet hukumati bu siyosatni uzoq cho'zmadi. 1929-yillarning oxirlaridan

yangi iqtisodiy siyosatga barham berildi va kommunistik partiya o'z siyosatini tubdan o'zgartirdi. Ma'muriy – boshqaruv tizimining o'zagini kommunistik partiya, aniqrog'i, uning uncha katta bo'lmagan siyosiy byurosi va boshqaruv apparati tashkil qildi. Boshqaruv apparati esa bir shaxsning, ya'ni partiya bosh kotibining irodasiga bo'ysundirildi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan yana bir xususiyat – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning (Stalin davrida ular ko'proq jazolovchi, qatag'on qiluvchi organ sifatida namoyon bo'ldi) hattoki partiya tashkilotlaridan ham xoli qilinib, bevosita partiya bosh kotibiga bo'ysundirilib qo'yilganligidir. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z faoliyati davomida faqat markazning manfaatlarini inobatga olganligi uchun ittifoqdosh respublikalarning huquqlarini poymol qildi, ularning ehtiyojlari bilan hisoblashmadi. Natijada respublikalarning rivojlanishida nomutanosiblik va bir tomonlamalik avj oldi.

Xullas, 1930–1940-yillarda shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ayrim juz'iy o'zgarishlarni nazarga olmaganida, to SSSR tarqalib ketgunga qadar saqlanib qoldi. Shu asosda ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror topa boshladi va totalitar tuzumning mustahkamlanishiga zamin tayyorladi. Ayni chog'da totalitar tuzum tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, u davlat boshqaruv shakllaridan biri (totalitar davlat) bo'lib, **totalitarizm** (lot. totalis – yaxlit, to'liq) tayanch atamasidan kelib chiqadi. Totalitar boshqaruv joriy qilingan davlatda jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi, to'la (total) nazorati o'rnatiladi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar tugatiladi, bir shaxs, ijtimoiy guruhning (masalan, harbiylarning yoki bir partiyaning) yakkahokimligiga so'zsiz bo'ysuniladi, muxolifat va o'zgacha fikrlovchilar esa qatag'on qilinadi.

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarimiga kelib sobiq Ittifoqning ijtimoiy-siyosiy hayotida, ayniqsa, hokimiyat boshqaruv – idora tizimida keskin o'zgarishlar yuz berib bordi. 1925-yil dekabrda Butunittifoq kommunistik (bolsheviklar) partiyasi – VKP(b) deb nomlangan Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi – KPSS (1952-yildan oktabrdan) bu paytga kelib, jamiyatning barcha jabhalarida o'zining hukumronligini o'rnatishga kirishdi. Bunda I.V. Stalin (1879–1953)ning xizmatlari katta bo'ldi.

I.V. Stalin 1922-yildan RKP(b) Markaziy Qo'mitasining (MQ) Bosh kotibi lavozimini egallab, asta-sekinlik bilan o'zining yakka hokimligini butun choralar bilan qaror toptirish harakatida bo'ldi. Shu maqsadga erishish yo'lida u o'z atrofiga bir guruh rahbar kadrlarni to'plab, ularni ishga solib, partiyaning ko'plab tajribali, inqilobiy kurashlar jarayonida g'oyaviy va siyosiy jihatdan katta tajribaga ega bo'lgan nufuzli arboblarni obro'sizlantirishga intildi. O'z davrida kompartiya

va sovet hokimiyati rahbariyatining o'zak – negizini tashkil etgan L.D. Trotskiy, N.I. Buxarin, L.B. Kamenev, G.E. Zinovyev, A.I. Rikov kabilar shunday muxo-lifatchi guruh vakillari edi.

20-yillarda atayin avj oldirilib, odatiy tusga kirgan «partiyaviy tozalashlar» bahonasida mamlakat hayotining u yoki bu muhim masalasida sog'lom, xolis fikr bildirgan kadrlarni egallab turgan yuqori vazifalaridan chetlattirib borildi. Rossiyada yuz berayotgan barcha o'zgarishlar, yangilanishlar I.V. Stalin nomiga nisbat berildi. Hukmron kommunistik partiya mafkurasi bu nomni zo'r berib ko'klarga ko'tarib maqtash, madh qilishga yo'naltirildi. 20-yillar oxirlariga kelib I.V. Stalin tomonidan yangi nazariy qarash sifatida ilgari surilgan «Sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib boradi», degan soxta g'oya butun mamlakat uchun halokatli oqibatlariga olib keldi. Bu «g'oya»ni ittifoqdosh respublika partiya tashkilotlari o'zlariga dasturilamal qilib olishga majbur edilar, aks holda, sinfiy dushmanning borligini inkor qilganlarning o'zlari sotsializmning dushmaniga aylanib qolishlari aniq edi. Stalin va uning yaqinlari mamlakat va partiya hayotiga oid har bir masalada o'z irodasi, hukmini boshqalarga majbur etib bordilar.

20-yillarning oxiri – 30-yillarning boshlarida I.V. Stalin guruhi partiyaning Trotskiy va Zinovyev, Buxarin va Rikov singari boshqa rahbarlari ustidan keskin kurashlarda g'alaba qozonishi oqibatida sobiq Ittifoqda bir partiyalik tizim mustahkamlandi. Buning natijasida bolsheviklardan tuzilgan kommunistlar partiyasi I.V. Stalin boshchiligida davlat totalitar rejimining tayanchi bo'lib qoldi.

Shu tariqa, sobiq Ittifoqda 1917-yildan boshlab shakllanana boshlagan totalitar siyosiy rejim 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshlarida to'liq qaror topdi.

### **Totalitar rejimning mazmun-mohiyati, belgilari quyidagilardan iborat:**

➤ ko'ppartiyaviylik tugatiladi, bitta partiya (VKP(b)) butun mamlakatda yagona hukmron partiyaga aylanadi, uning qarorlari, ko'rsatmalari barcha hokimiyat organlari tomonidan so'zsiz bajarilishi majburiy bo'ladi;

➤ davlat boshqaruvi markazdan, diktator tomonidan ma'muriy-buyruqbozlik tarzida amalga oshiriladi, mahalliy hokimiyat organlari amalda qo'g'irchoq bo'lib qoladi;

➤ ijtimoiy munosabatlar siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, jismoniy zo'rovonlik asosida tartibga solinadi, xususiy mulkni milliy lashtirish orqali shaxsning iqtisodiy erkinligi tugatiladi, rejali iqtisodiyot qaror topadi;

oqibatlaridir. Turkistonda sovetlar hokimiyatining o'rnatilishidan boshlab to sobiq Ittifoqning parchalanib ketguniga qadar sovetlarning repressiya – qatag'on siyosati amalga oshirilib kelingan. Chunki qatag'onlik o'sha mustabid sovet tuzumining ichki mohiyatidan kelib chiqqan va uning tabiatida mavjud bo'lgan ijtimoiy ofat edi. Qatag'onlik komfirqa va Sovetlarning ajralmas yo'ldoshi edi.

Repressiya atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu so'z lotincha repressio – bosim, tazyiq ma'nosini anglatadi. Bu so'zning o'zbekcha ma'nosi qatag'on tushunchasiga to'g'ri keladi. Repressiya, qatag'on – bu partiya, davlat va uning kuch ishlatish organlari qo'llaydigan jazo chorasidir. Qatag'on mustabid totalitar, mustamlakachi davlat tomonidan xalqqa nisbatan qo'llaniladigan jazolash, qatli om, qatli nufus, ommaviy tarzda zulm o'tkazish tushunchalarini o'zida mujassam etadi. Qatag'on ommaviy jazolash, qiynoqqa solish choralari mustabid davlatlarning xalqni asoratda, tutqunlikda ushlab turish, qo'rqitish, bosim, tazyiq o'tkazish qurolidir.

Sovetlar hukmronligining dastlabki kunlaridan boshlab o'zbek xalqining millatparvar ziyolilari, atoqli davlat arboblari va yetuk milliy kadrlarini qatag'on qilish mustamlakachilik tartiblarini mustahkam saqlab turishning eng makkorona, tarix sinovidan o'tgan yo'llaridan biri sifatida qatag'on siyosatini qo'lladi. Bu siyosat ayrim shaxslargagina emas, balki hurfikrlilikka, milliylikka, inson farovonligiga, qolaversa, demokratiyaga, jamiyatdagi bir qancha toifa va sinflarga qarshi qaratilganligini tan olish kerak bo'ladi. Qatag'on qilish milliy kadrlarni yo'q qilishga, xalqlarning milliy ongi va diniy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglab yetishi va milliy g'ururini o'sishiga yo'l bermaslikka qaratilgan davlat siyosati edi. Sovet hokimiyati qatag'onlikning eng dahshatli yo'llarini ixtiro qildi va izga soldi. Rossiya imperiyasi davrida ko'pincha ayrim «xavfli shaxslar» tazyiq ostiga olingan, surgun qilingan bo'lsa, sovetlar zamonida butun-butun xalqlar o'z yurtlaridan badarg'a qilindi.

20-yillarning ikkichi yarmida O'zbekistonda mavjud tuzumga muxolifatda turganlar va unga qarshilik bildirganlar ta'qib ostiga olindi. Natijada ommaviy qatag'onlar va bedodlikning dastlabki kuchli to'liqini O'zbekiston bo'ylab yuz berdi. Ayni shu paytda «18 lar guruhi», «inog'omovchilik», «qosimovchilik», «badriddinovchilik» kabi siyosiy ishlar to'qib chiqarilgan edi. Sovet rejimi 30-yillardan boshlab o'z xalqiga nisbatan ommaviy terror qo'lladi.

«18 lar guruhi». 1925-yil 19-noyabrda Samarqandda chaqirilgan O'zbekiston KP (b) MQning plenumi yig'ilishi bir kun emas, to'rt kun davom etadi. Buning asosiy sababi, respublikadagi yuqori mas'uliyatli vazifalarni egallab turgan 18 shaxsning o'z lavozimlaridan ketishi haqidagi arizasi bo'ldi. Ular o'z iste'folari



sababini xususiy mulkni yo'qotish hisobiga o'tkazilgan yer-suv islohoti usullariga norozilik sifatida izohlashadi. Shuningdek, bu guruhni eski xodimlarga noto'g'ri munosabatda bo'layotgani, rahbarlarni tanlash faqat sinfiy nuqtayi nazardan amalga oshirilayotgani qoniqtirmaydi. Ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. «18 lar guruhi» ga Muxtor Saidjonov (Zarafshon viloyat ijroiya qo'mitasi kotibi), Rahmat Rafiqov (O'zbekiston ichki ishlar xalq komissari), Inomjon Xidiraliyev (O'zbekiston yer-suv ishlari xalq komissari), M. O'rinxo'jayev, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, Eshonov, Muzaffarov, Maxsumov va boshqa O'zbekiston SSRning 18 ta taniqli milliy rahbar xodimlari kirgan. Ularga «yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalariining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan» degan soxta aybnoma qo'yildi. Shu bois, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi, egallab turgan lavozimlaridan chetlashtiriladi.

Yer-suv islohotini o'tkazish davrida (1925–1929) «18 lar guruhi» ushbu jarayon va MQ ga qarshi faoliyat yuritishda ayblanishgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tgach esa, O'rta Osiyo byurosining plenumida (1927-yil oktabr) ularga boy-quloqlarning manfaatini himoya qilgan, yer-suv islohoti hamda ayollarning ozodlikka chiqishiga qarshi bo'lgan, savdogar va hunarmandlardan olinadigan soliqlarni kamaytirish va davlat apparatini milliy lashtirish tarafdori bo'lgan degan, soxta aybnomalar qo'yiladi.

«*Inog'omovchilik*» – Sovet davlatining jazo organlari tomonidan ataylab to'qib chiqarilgan va 1926–1931-yillarda bir qator milliy rahbar kadrlar va ziyolilarni aybsiz qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan bolsheviklar rejimining bo'htonidir. «Inog'omovchilik»ning sababchisi O'z KP(b) MQ Ijroiya byurosi a'zozligiga nomzod, O'z KP(b) MQ Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komissari Inog'omov Rahim Oxunjonovich (1902-yilda tug'ilgan) edi.

R. Inog'omov 1926-yil oxirida «O'zbekiston ziyolilari» risolasini matbuotda e'lon qiladi. Unda «Oktabrdagi o'zgarish o'zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va unga o'zbek mehnatkashlari tayyor emas edi». Oktabrgacha bo'lgan davrda «...rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rol ni ziyolilar o'ynagan», degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, R. Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda, Markazning Sredazbyuro, SredazEKOSO kabi

«nazoratchi» organlarini zo'rvonlikda ayblaydi. Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N. Mavlonbekov, I. Isamuhammedov, M. Aliyev, Bobonazarov singari hammaslklar Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqandilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois O'zbekiston Kompartiyasining III syezdi (1927-yil noyabr) R. Inog'omovni «g'oyaviy jihatdan» tor-mor qilindi deb hisoblab, uni Qashqadaryo okrugining eng chekka qishlog'iga ishlash uchun jo'natdi. 1930-yil 30 mayda «Pravda Vostoka» gazetasida Inog'omovning «ochiq xati» uyushtirilib, u tavba-tazarru qildirildi.

R. Inog'omov 1937-yil 25-avgustda qamoqqa olindi va sovet rejimi tomonidan 1938-yil 5-oktabrda Toshkentda otib tashlandi.

«*Qosimovchilik*» – 1929–1930-yillarda sovetlar rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish maqsadida ataylab uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. 1929-yilning ikkinchi yarmida O'zSSR Oliy sudining raisi Qosimov Sa'dulla Rashidovich (1901–1930) qamaladi. Bolsheviklar hukumatning jazo organlari tomonidan «to'qib chiqarilgan» ayblov asosida bu ishga ataylab siyosiy tus beriladi. S. Qosimov bilan birga tarix o'qituvchisi Olimov, sud idorasi xodimlari Musaboyev va Spiridonov ham qamaladi.

Samarqand (1930-yil mart–iyun)da bo'lib o'tgan sud jarayonida (sud raisi M.I. Vasilev-Yujin, qoralovchi R.P. Katanyan) S. Qosimov va uning tarafdorlari (7 kishi) «burjua millatchilari» sifatida, «bosmachilar»ni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblangan. Ularga «qosimovchilik» tamg'asi bosilgan. Bolsheviklar rejimining «odil sudi» soxta ayblov va soxta guvohlar bergan ko'rsatmaga asoslanib S. Qosimov, Sharipov, Olimov, Musabekov va Spridonovlarni otishga, qolganlarini esa 10 yildan qamoq jazosiga hukm qiladi.

Oradan ko'p o'tmay navbatdagi ish – «*badriddinovchilik*» o'ylab topildi. 1932-yil 5-may – 15-iyunda Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi Shamsutdin Badriddinov va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayonini o'tkazdi. Sh. Badriddinov 1929-yilda Farg'ona okrugi prokurori, keyinchalik O'zbekiston SSR Oliy sudining prokurori lavozimlarida ishlagan bo'lib, u va tarafdorlari 1931-yilda qamoqqa olingan edi. Sh. Badriddinovga «Milliy Ittihad» tashkiloti a'zolari va «bosmachilar» bilan aloqa bog'lagan, Munavvarqori va S. Qosimovning yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan, degan ayblar qo'yildi. Bu sud jarayonida ham prokuror R. Katanyan edi. Sh. Badriddinov avval otishga hukm qilinib, so'ngra o'lim hukmi 10-yil qamoq muddati bilan almashtiriladi. Uning

M. Xo'jayev, A. Rahmonov, M. Ahmadjonov, M. Sadixonov, I. Musaxonovlardan iborat 5 ta tarafdori ham uzoq muddat qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Sovet rejimi sud organlaridagi milliy rahbar xodimlarni qatag'on qilish bilan birgalikda jazo qilichini maorif jabhasidagi ziyolilarga ham qarshi ko'targan edi. 1929-yil 5-noyabrda Toshkentda atoqli jadidchi ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi 38 kishi qamoqqa olinadi. Oradan ko'p o'tmay qamoqqa olinganlarning miqdori 87 kishiga yetdi. Ularga «Milliy Ittihod» va «Milliy Istiqlol» tashkilotlarining a'zosi degan ayb qo'yildi. Tergov jarayoni keyinchalik Moskvaga ko'chirildi. Bu holat sovet rejimini o'zbek ziyolilarining «millatchiligi»ni fosh qilishga jon-jahdi bilan kirishganligidan dalolat beradi.

1931-yil aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisida Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa 15 millat fidoyisi – «Milliy Istiqlol» a'zolari otishga, qolgan 72 kishi esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. Lekin qamoqdan deyarli hech kim qaytib kelmagan. 1930-yil avgust oyida O'zbekiston xalq maorif komissarligidagi bir guruh rahbar xodimlar hibsga olinadi. Ular ichida maorif komissari Mannon Ramziy (Abdullayev, 1896–1938), uning o'rinbosari Botu – Mahmud Hodiyev (1904–1938), shuningdek, Oltoy – Bois Qoriyev (1903–1976), Nosir Saidiy va boshqalar bor edi. Ular maorif tizimini «millatchilik og'usi» bilan zaharlaganlikda ayblanib, bu holat «maorif frontida qosimovchilikning namoyon bo'lishi» deb qoralandi. Botu va uning tarafdorlari 10-yil qamoq jazosiga hukm qilinadi.

1930-yili Davlat banki apparatida «tozalash» o'tkazilib, ko'plab rahbar xodimlar gamaldi. Boshqa sud ishlari ham o'tkazildi. Bu ishlarning hammasi O'zbekistondagi yetuk milliy rahbar xodimlar va ziyolilarni tugatishga, xalqimizni totalitar rejim asorati ostida tutib turishga qaratilgan edi.

Qatag'on balosi faqat ziyolilarnigina o'z komiga tortmadi, istibdodning olovida barcha baravar yondi. 20-yillar oxiri – 30-yillar boshlarida dehqonlarga nisbatan ham misli ko'rilmagan qatag'onlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish davrida O'zbekistonda 40 mingdan ortiq dehqon xo'jaligi «quloq» qilinib, ulardan 31,7 mingi qatag'on qilingan edi.

Qatag'onlik siyosatining yana bir mudhish ko'rinishlaridan biri dinga, ruhoniylarga va umuman, har qanday insonning diniy e'tiqodiga qaratilgan tajovuz bo'ldi. Kommunistik partiyaning islom diniga munosabati O'zbekiston Kompartiyasining 1927-yilda bo'lib o'tgan VI plenumi qabul qilgan «Musulmon ruhoniylari va maktab to'g'risida»gi Qarorida qayd qilingan. Uning mohiyatini quyidagi ko'rsatmalar ifodalaydi:

➤ islom o'zga dinlar kabi madaniyat, proletariat g'oyalarini rivojlantirish va sotsializm qurilishini taraqqiyotga erishtirish yo'lidagi to'siqdir;

➤ ruhoniylarning tinch islohotchi yoki taraqqiychi deb atalmish qismi o'zga guruhlar kabi partiya va sovet hokimiyatining asosiy tadbirlarini amalga oshirishga qarshilik qiladigan antisovet kuchdir;

➤ ruhoniylar islom dinini va uning tashkilotlarini yo'qsillar diktaturasiga qarshi qurolga aylantirish, ularni mavjud sharoitga moslashtirish uchun barcha choralarni ko'ryaptilar;

➤ kommunizm va din bir-biriga butunlay qarama-qarshi ekanligini va ularni hech qachon birlashtirish mumkin emasligini kommunistlar, ayniqsa, faollar tushunib yetishlari kerak.

Ushbu ko'rsatma joylardagi partiya va sovet tashkilotlarining dinni tugatish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishlari uchun asos bo'ldi. 30-yillarning boshi dindor va e'tiqodli kishilarga nisbatan zo'ravonlik siyosiy qatag'onlikning cho'qqisi bo'ldi. Juda katta miqdordagi islom, xristian, budda diniga taalluqli asarlar yo'q qilindi. Bu davrda O'zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. O'tmishda nafaqat diniy rusumlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san'at markazlari, xalqning ko'p asrlik merosini saqlovchisi bo'lgan machit va madrasalarning deyarli barchasi yopib qo'yildi, ayrimlari buzib tashlandi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, 1917-yilgacha Samarqandda 150 ta, Toshkentda 387 ta masjid va madrasa bo'lgan bo'lsa, 30-yillarning o'rtalariga kelib ular deyarli qolmadi.

**3. O'zbekistonda «Katta terror» yoki «Quloqlar operatsiyasi» va uning oqibatlari.** Ijtimoiy adolatsizlikning buzilishi 1937–38-yillarda eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Bu davrga kelib sobiq Ittifoq respublikalari singari O'zbekiston ham siyosiy qatag'onning eng yuqori bosqichi mudhish «Katta terror» fojialarini o'z boshidan kechirdi. Respublika jamiyatning hamma tabaqalariga yoyilgan hibsga olish to'liqini ostida qoldi. Olimlar, muhandislar, shoir-u yozuvchilar, maorifchilar, san'atkorlar, jurnalistlar, hattoki ishchi va dehqonlar ham ta'qib ostiga olindi va qatag'on qilindi. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining ichki turmasi va boshqa qamoqxonalarida mahbuslar jismoniy jazolarga mahkum qilindilar. Mahbuslarning ko'plari bu holatdan chiqish, qutulishning yagona yo'li o'z joniga qasd qilish deb bildilar. Ayrimlari esa qilmagan jinoyatlarini bo'yniga olishga majbur bo'lganlar.

Ma'lumki, 1937-yilning may–iyun, ayniqsa so'nggi bir yarim oyi davrida, «harbiy-fashistik isyonchilar» otilganidan so'ng bo'lajak ommaviy qatag'on

kampaniyasini intensiv rejalashtirish amalga oshiriladi. Iyul oyining boshlarida bo'lajak terrorning yuz minglab qurbonlari taqdirini aniqlovchi qarorlar qabul qilingan. Ulardan eng muhimi – Siyosiy byuroning 2-iyuldagi «Sovetlarga qarshi unsurlar to'g'risida»gi Qarori bo'lib u «Katta terror» davrining eng ko'lamli qatag'on operatsiyasini o'tkazish uchun o'ziga xos start edi. Ana shu qaror asosida 1937-yil 30-iyulda SSSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi (NKVD)ning «Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag'on qilish operatsiyasi to'g'risida»gi mutlaqo maxfiy 00447-sonli tezkor buyrug'iga («Quloqlar to'g'risidagi buyruq» deb atalgan) SSSR Ichki ishlar Xalq Komissari, «temir narkom» nomini olgan N.I. Ejov qo'l qo'yadi.



Ejoy Nikolay  
Ivanovich (1895–1940)

Mazkur buyruqda antisovet uyushmalarni tergov qilish materiallarida avvalida qatag'on qilingan, qatag'on bo'lishdan yashirinib yurgan, lagerlardan, surgunlardan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda o'rnatilgan qolgan qayd etilgan.

Buyruqda operatsiyani o'tkazish bo'yicha 7 punktdan iborat yo'riqnoma va tartiblari ham belgilab berilgan. Barcha respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda sobiq quloqlar, faol antisovet elementlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkazish 1937-yil 5-avgustdan boshlash va to'rt oy muddatda yakunlash ko'rsatib o'tilgan. Bu operatsiya O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRda 1937-yil 10-avgustdan boshlanishi belgilandi. Sharqiy Sibir viloyatida, Krasnoyarsk, Uzoq Sharq o'lkalarida esa 15-avgustdan boshlash ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo respublikalari Ichki ishlar xalq komissarliklarining SSSR NKVDga og'zaki bergan ma'lumotlari bo'yicha qatag'on (repressiya) qilinadiganlar miqdori quyidagicha belgilab berilgan:

№	Respublikalar	1-toifa	2-toifa	Jami
1	Qirg'iziston SSR	250	500	750
2	Tojikiston SSR	500	1300	1800
3	Turkmaniston SSR	500	1500	2000
4	O'zbekiston SSR	750	4000	4750



Shu o‘rinda respublikalarda «Katta terror»ning amalga oshirishda «uchlik» faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, sovet jamiyatida siyosiy qatag‘onlar eng avjiga chiqqan davrlarda «nomaqbul shaxslarni» «antisovet» harakatlari uchun javobgarlikka tortish jarayonini tezlashtirish maqsadida jahon yuridik amaliyotida umuman uchramagan yangi usul joriy qilindi, ya‘ni «uchlik» tashkil qilindi. «Uchlik»ning terrorni amalga oshirishda Moskvadan jo‘natilgan O‘zbekiston ichki ishlar xalq komissari D.Z. Apresyan, uning o‘rinbosari L.I. Leonov-Nemirovskiy, Tojikiston ichki ishlar xalq komissari N.A. Zagvozdin, chekistlar Trig‘ulov, Akjigitov mash‘um rol o‘ynadi.



**Akmal Ikromov**  
(1898–1938)

O‘zbekiston SSR bo‘yicha «uchlik» N.A. Zagvozdin (respublika Ichki ishlar xalq komissari), A. Ikromov (O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi), Jo‘rabek To‘rabekov (Xalq Komissarlari Soveti raisining o‘rinbosari)lardan iborat tasdiqlangan. Keyinchalik uchlik tarkibi D.Z. Apresyan, Yakovlev, Sulton Segizboyevlardan tashkil topgan. Uchlikning yig‘ilishlarida O‘zbekiston SSR prokurori Sheyndlin, kotib sifatida esa O‘zSSR NKVD Davlat xavfsizlik boshqarmasi 8-bo‘lim boshlig‘i leytenanti Yakovlev ishtirok etgan.

Sovet rejimi o‘zining bu gumashtalarini ham o‘sha yillari otib tashladi. Ularning qanchalik jadallik bilan ish olib borganligini quyidagi misolda ko‘rsatish mumkin. Ushbu organda kotiblik vazifasini bajargan shaxsning keyinchalik tan olishicha, «uchlik» har soatda 100 ga yaqin ishni ko‘rgan. «Uchlik» qamoqdagi mahbusning ijtimoiy xavfliligi darajasiga qarab 2 toifa bo‘yicha qatag‘on qilingan. 1-toifaga oliy jazo – otib o‘ldirish va 2-toifa yozishma olib borish cheklangan holda, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish bo‘lgan. Qaror chiqqanidan so‘ng, hukm darhol ijro etilgan. «Uchlik»da aksariyat vaqtda Ichki ishlar xalq komissarligi vakilining fikri katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ana shu organning tashabbusi bilan olimlarning guvohlik berishicha, O‘zbekistonda 1937–1939-yillarning o‘zida 41 ming nafar shaxs qamalgan, ulardan 37 mingi jazoga hukm qilingan, 6 ming 920 kishi otib tashlangan.

«Katta terror» davrida, ya‘ni 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo‘lgan vaqtda O‘zbekiston bo‘yicha faqat sobiq «quloqlar»dan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, «sovetlarga qarshi unsurlar»dan 3097 kishi, jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Ulardan 3613 kishi 1-toifa bo‘yicha otuvga,

7087 kishi, 2-toifa bo'yicha 8–10 yil muddat bilan qamoq jazosiga, mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1-toifa bo'yicha otuvga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan. 2-toifa bo'yicha hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan.

1938-yil 4–15-oktabr kunlari Toshkentda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor yig'ilishlarida ko'plab partiya, davlat, jamoat arboblari, ayniqsa ziyolilar, adib va shoirlar, fan va oliy o'quv yurtlari xodimlari otuvga 8 yil, 10 yil, 12 yil qamoq jazosiga hukm qilinganlar. Oliy jazoga hukm etilgan 371 kishi hukm e'lon qilingan kunning o'zidayoq otib yuborilgan. Ular orasida Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Rahim Inog'omov, Usmonxon Eshonxo'jayev, partiya xodimlaridan Islombek Arslonbekov, Sulton Segizboev, Bo'taboy Dadaboyev va boshqalar bo'lgan.

Qatag'onlik siyosatidan eng katta zahmat chekkanlar qatoriga ziyolilarni kiritish lozim. 1936–1937-yillarda O'zbekistonning turli viloyatlaridan ilm-fan, adabiyot, jurnalistika, maorif va boshqa sohaning ziyolilari hibsga olinib qatag'on qilinganlar. Xususan, bugun hammaga ma'lum bo'lgan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon), Abdulla Qodiriy (Julqinboy) 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan.

1937-yildan «antisovet», «xalq dushmanlari»ni qidirib topish va jazolash keng tus oldi. Xususan, davlat siyosiy boshqaruv tashkilotining (Организация Государственного политического управления – ОГПУ) faoliyati asosan ana shunday «tamg'a» olgan shaxslarni qidirish va tekshirish bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, F. Xo'jayev (1938.15.3), A. Ikromov (1938.13.3), D. Manjara, A. Karimov kabi partiya va davlat rahbarlari hibsga olindi va otib tashlandilar.

**4. Urushdan keyingi-yillarda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va milliy ziyolilarni qatag'on qilishning yangi to'liqini.** Urushdan keyin mamlakatda rahbarlik qilish usullari normal holatga o'tadi, tinch qurilishga moslashtiriladi, ijtimoiy-siyosiy hayot demokratlashtiriladi, degan orzu-niyatlar ro'yobga chiqmadi. Aksincha iqtisodiyotda, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda ma'muriyatchilik kuchaydi. Mamlakatni boshqarish partiya-davlat apparatida rahbarlik lavozimlarini egallagan tor doiradagi xodimlar tomonidan tayyorlanadigan, shaxsan Stalin imzosi bilan matbuotda e'lon qilinadigan farmon va qarorlar orqali amalga oshiriladigan bo'lib qoldi. Hammani, xususan joylardagi rahbarlarni nazorat ostiga olgan totalitar tuzum Kremlida o'tirganlarga mamlakatni farmon va qarorlar bilan boshqarish imkoniyatini berar edi.

Respublikalarning, jumladan, O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohadagi muammolarni hal qilish huquqlari yanada cheklanib bordi. Stalinning g'alabani ta'minlashda rus xalqi asosiy rol o'ynadi, degan mash'um g'oyasi butun malakatni ruslashtirish siyosatiga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, Kompartiya va komsomol tashkilotlari ruslarni «katta», «ulug' og'amiz» deb baralla targ'ib qila boshladi.

Markaz mutasaddilari, mafkurachilari rahnamoligida o'tgan asrlarning 50-yillari boshlarida O'zbekistonda boshlanib ketgan ilg'or ziyolilar, ilm-fan, adabiyot, san'at, ma'rifat namoyadalarini quvg'in va ta'qib qilishlar, ular ijodidan kir izlash, ayb topishga urinishlar, shubhasiz, respublika ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. U ko'plab olimu ijodkorlar, shoir-u adiblar, iste'dod sohiblari hayotini tahlikali holatga duchor etdi. O'zbekiston Kompartiyasi MQ ning 1949-yil 25-iyundagi «O'zbekiston Sovet yozuvchilar soyuzining ishi to'g'risida»gi Qarorida A. Qahorning «Qo'shchinor chiroqlari» romani tanqid qilindi. Yozuvchilardan Oybek, Mirtemir, G'. G'ulom, O'. Rashidov, M. Shayxzoda, M. Boboyev, A. Qayumov va boshqalar badnom qilindi. «Sharq yulduzi», «Звезда востока» jurnallarining tahririyatlariga bir qator «yaramas» asarlarni chop yetishga yo'l qo'ygan, degan jiddiy ayblar qo'yildi.

1948–1949-yillarda 20 dan ortiq yirik talantli olimlar, yozuvchi va shoirlar qamoqqa olinib, yopiq ravishda so'roq qilinib, millatchilikda ayblanib, 15–25-yilga ozodlikdan mahrum etiladi va surgun qilinadi. O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1950-yil 1-sentabrda qabul qilgan «O'zbekiston Fanlar Akademiyasining ishi to'g'risida»gi Qarorida bir qator iqtisodiyot, til va adabiyot sohasidagi olimlar millatchilikda ayblandi.

O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1951-yil 8-apreldagi «O'zbekiston SSRda musiqa sa'natining ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlari, «Tohir va Zuhra», «Alpomish» xalq dostonlarining afsonaviy folklor sujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda ko'rsatish «zararli» ish deb baholandi. Bunday spektakllarni sahnalashtirgan ijodiy xodimlar qattiq tanqid ostiga olindi. Shuningdek, ko'pgina konsert tashkilotlari va musiqali teatr xodimlari «Eski, arxaiik musiqani va juda g'amgin, mungli maqom namunalari»ni tarqatganligi uchun qoralandi. Qarorda: «O'zbekistonning musiqa san'ati hayotdan orqada qolmoqda, o'zbek xalqini kommunistik ruhda tarbiyalash maqsad va vazifalariga to'la-to'kis xizmat qilmayotir», – deb ta'kidlandi.

1951-yil 10-avgustda respublika matbuotida «Ba'zi shoirlarning ijodidagi mafkuraviy buzg'unliklar to'g'risida» degan maqola e'lon qilindi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A. Bobojonov, Sobir Abdulla, Habibiylarning asarlari kommunistik mafkuraga, xalqlar do'stligiga zid g'oyalarni ilgari suruvchi asarlar sifatida tanqid qilindi, ular millatchilikda ayblandi.

1951-yil 24-avgustda matbuotda e'lon qilingan «O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda» nomli maqolada Oybek, X. Zaripov, H. Yoqubov, I. Sultonov va boshqa adiblar mafkuraviy og'ishlarda qoralandi. M.Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, G'ulom Alimov (Shuhrat)lar 1951-yilda «sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati»da ayblanib qamoqqa olindi va keyinchalik 25 yil ozodlikdan mahrum yetishga hukm qilindilar.

1952-yil fevralida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MQ ning X Plenumi ilmiy va ijodiy ziyolilarni quvg'in, ta'qib ostiga olishda yana bir turtki bo'ldi. Plenumda «Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida»gi masala muhokama qilindi va tegishli qaror qabul qilindi. Plenumda faylasuf V.Zohidovning ilmiy ishlariga burjua-millatchilik xatolari yuklandi. Tarixchi A. Boboxo'jayev va iqtisodchi O.Aminov panturkizmni targ'ib qilishda ayblandi. Ular «siyosiy va ishchanlik sifatleri jihatidan egallab turgan lavozimlariga to'g'ri kelmaydigan shaxslardir», deb hisoblandi va ishdan bo'shatildi. T. To'la va M. Shayhzodalarning she'r va qo'shiqlari «g'oyasiz va axloqsiz» asarlar, deb baholandi.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi, milliy qadriyatleri yana bir bor oyoqosti qilindi, bu sohada faoliyat yuritgan ijodkorlar qatag'on qilindi. Tarixiy o'tmish ham, zamonaviy hayot ham kommunistik mafkura, sinfiylik nuqtayi nazardan turib qo'pol ravishda buzib baholandi. Natijada ma'naviy hayotga, falsafiy va badiiy tafakkurga, madaniyatga katta zarar yetdi.

Stalin vafotidan keyin butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham shaxsga sig'inish oqibatlarini tugatish tadbirlari ko'rildi. 1956-yil KPSS ning XX syezdida N.S. Xrushchyov boshliq partiya rahbarligining bir qismi Stalin shaxsiga sig'inishni, nohaq qatag'onlar va rahbarlikning avtoritar usullarini fosh qilib chiqdi. Qatag'on qilinganlar ishini qaytadan ko'rib chiqishga kirishildi. Ko'pgina jinoiy ishlar to'qib chiqarilgani, minglab odamlar nohaq qamalib, ozodlikdan mahrum etilgani aniqlandi va ular oqlandi. A. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ko'plab yozuvchi va shoirlar oqlandi. Minglab partiya, sovet, komsomol xodimlari nomlari poklandi. 50-yillarning boshlarida shubha ostiga olingan, har bir qadami nazorat qilinayotgan

60 nafardan ziyod yirik olimlar, adiblardan «millatchi, sovetlarning dushmani» degan yorliqlar olib tashlandi, tuhmatlardan xalos bo'ldi.

Biroq, afsuski, jamiyat ma'naviy hayotida voqe bo'lgan bu bir qadar ilqlik muhiti uncha uzoq davom etmadi. Odamlar xohish-erkinligi bo'g'ilib, ixtiyorini o'ziga bo'ysundirib, hamma narsani hukmron tuzum manfaatlariga xizmat qildirib kelgan kommunistik mafkura va uning maddohlari ko'p o'tmay o'z zulmkorligini qaytadan kuchaytirishga kirishdi. Uning tig'i avvalo ijodkorlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. Buning natijasida respublikaning ilm-fani, madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan taniqli allomalar, iste'dodli ijodkorlar ko'proq aziyat chekkanligi, taqdirning kutilmagan zarbalariga uchraganligi ayni haqiqatdir.

Umuman, 1939–1953-yillarda 61 ming 799 kishi qamaldi. Shulardan 56 ming 112 kishi turli muddatlarga ozodlikdan mahrum yetishga hukm qilingan, 7 ming 100 kishi esa otib tashlangan. G'ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortilganlar orasida olimlarni ham, harbiylarni ham, ziyolilardan tortib oddiy ishchilar-u dehqonlarni, hatto kasb-hunarmandlarni ham istagancha topish mumkin edi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'onlik siyosatining tub maqsadi va asosiy sabablari quyidagilar edi:

➤ unchalik katta bo'lmagan muayyan guruhga kirgan shaxslarning hokimiyatni o'z shaxsiy manfaatiga xizmat qildirish uchun yaratilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini mustahkamlash;

➤ jamiyatni boshqarishda yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni o'zga shaxs va guruhlarning zimmasiga yuklash;

➤ jamiyat a'zolarini qo'rquvda, tobelikda saqlash, ularni manqurtga aylantirish.

**5. Mustamlakachilik davri qurbonlari – shahidlar xotirasiga avlodlar ehtiromi.** Asossiz qatag'on qilinganlarni oqlash aslida Stalin vafotidan so'ng – 50-yillar o'rtalarida boshlangan edi. Natijada o'shanda O'zbekiston bo'yicha qatag'on qilinganlardan 40000 kishi oqlandi. 80-yillarning oxirida yana bir guruh kishilar oqlandi. Lekin ularni oqlash kommunistik mafkura talablari ostida amalga oshirilib, bu jarayon oxiriga yerkazilmadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qatag'on qilinganlarning ko'pchiligi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning porloq nomlari tiklandi. Bunda Prezidentimiz Islom Karimov va hukumatimizning xizmatlari muhim hisoblandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-mayda e'lon qilingan farmoyishi va 22-iyulda O'zR Vazirlar Mahkamasining «**Vatan va**



xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyillar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi Qarorida sovet tuzumi davrida qatag'on qurbonlari bo'lgan minglab fidoi insonlar, shahid ketgan ziyolilar xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini o'rganish zarurligi alohida ko'rsatib o'tildi.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahridagi Yunusobod mavzesida – Bo'zsuv bo'yida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui ochildi. U mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan bo'lib, millat fidoyillarining aksariyati shu yerda otib tashlangan edi.

Sovet tuzumi davrida qatag'on etilgan fidoi vatandoshlarimizni aniqlash, nomini abadiy saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida 1999-yil 21-sentabrda «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi tuzildi. 2001-yil 1-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida»gi farmoyishi ham qatag'on qurbonlari taqdirini o'rganish uchun katta imkoniyatlar ufqini ochib berdi.

2001-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida har yili 31-avgust – Mustaqillik e'lon qilingan kun qatag'on qurbonlari xotirasi kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu minnatdor avlodlarning o'z ajdodlari xotirasiga ehtiromidir. 2002-yil 31-avgustda mamlakatimiz poytaxti Toshkentdagi «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuida «Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi» bunyod etildi.



## 14-MAVZU: Sovetlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy qaramligi va uning oqibatlari

### *Reja:*

1. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish. O'zbekiston SSRning tuzilishi.
2. XX asrning 20–30-yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish va dehqon xo'jaliklarini kollektivlashtirish siyosati va uning asoratli oqibatlari.
3. XX asrning 46–85-yillarda O'zbekiston iqtisodiy hayoti.
4. «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat»ning oqibatlari.
5. Ekologik muammolar. Orol fojiasi.
6. Sobiq Ittifoqda turg'unlik holati. XX asrning 80–90-yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti.

Tayanch so'z va iboralar: O'zbekiston SSR. Yer-suv islohoti. Sanoatlashtirish (industrialashtirish) siyosati. Kollektivlashtirish (jamoalashtirish) siyosati. Xalq xo'jaligini qayta tiklash. Paxta yakkahokimligi. Sanoat. Transport. Ijtimoiy hayot. Orol fojiasi. Qayta qurish. Paxta ishi.

### *Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Асарлар, 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 36–86.
2. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. *Алимова Д.А., Голованов А.А.* Ўзбекистон мустақил совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйик оқибатлари (1917–1990 йиллар). – Т.: Ўзбекистон 2000.
5. *Алимова Д.А., Голованов А.А.* Узбекистан в 1917–1990 годы: противоборство идей и идеологий. – Т.: 2002.
6. *Азизхўжаев А.* Чин ўзбеклар иши. – Т.: O'zbekiston, 2011.
7. *Усмонов Қ., Содиқов М.* Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). – Т.: Шарқ, 2001.
8. *Хўжамбердиев Ё.* Ўзбеклар иши. – Т.: Ёзувчи, 1990.
9. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 495–511.
10. *Шамсутдинов Р.* Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001.
11. *Шамсутдинов Р.* Қишлоқ фожiasi: жамоалаштириш, кулоқлаштиш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Т.: Шарқ, 2003.
12. *Шамсутдинов Р., Акбарова М.* Шимолий Қозоғистон сурғунидаги юртдошлар қисмати. – Т.: Шарқ, 2009.

13. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлақачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 339–358; 501–562, 624–676.
14. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тахрири остида. – Т.: Янги аспавлоди, 2003. – Б. 427–463; 502–515.
15. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIIYA, 2006. – В. 292–328; 335–345.
16. *Shamsutdinov R.* va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – Т.: Sharq, 2010. – В. 258–282; 379–459.

**1. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish. O'zbekiston SSRning tuzilishi.** O'rta Osiyoni «milliy belgilarga qarab» bo'lib tashlash g'oyasi 1924-yilda ko'tarilgan emas. Bu g'oya 1920-yilning boshidayoq Turkkomissiya raisi Y.E. Rudzutak (1887–1938) tashabbusi bilan e'lon qilingan tezislarda Turkiston ASSRni milliy belgilarga qarab, bo'lib tashlash va muxtor (avtonom) respublikalar tuzish taklif qilingan edi. Mazkur tezislar shu yilning iyun oyida RKP(b) MQ sining partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida deb nomlangan qarori loyihasiga kiritildi. V.I. Lenin 1920-yil 13-iyunda Turkkomissiya qarori loyihasini shaxsan ko'rib chiqdi va o'sha paytdayoq Turkistonni «Uzbekiya», «Kirgiziya», «Turkmeniya» va boshqa etnik guruhlariga bo'lib parchalab tashlashni, ularning xaritasini tuzish zarurligini ko'rsatgan edi. U keyinchalik 1920-yil 22-iyunda ustamonlik bilan oqibatini o'ylab «...respublikani 3 qismga bo'lish oldindan hal qilinmasin» deb ogohlantirib ham qo'ydi.

1922–1923-yillarda yerli millatlarning bir qator rahbar xodimlari sovet hokimiyatining Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida olib borilayotgan milliy siyosatiga ochiqdan ochiq norozilik bildira boshladilar. Ammo ularning fikr-qarashlari noto'g'ri topilib, o'zlari faol siyosiy hayotdan chetlatib borildi. RKP(b) MQ, uning O'rta Osiyo Byurosi Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari faoliyatiga tazyiq o'tkazib, milliy-hududiy chegaralash o'tkazish siyosatini ma'qullab, qaror qabul qilishlariga erishib bordi. Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash markaz va RKP(b) O'rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqildi va 1924-yilda qat'iylik bilan amalga oshirildi.

1924-yilning 31-yanvarida RKP(b) MKning Tashkiliy byurosi Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi masalasini ko'rib chiqdi va Y.E. Rudzutakka mazkur respublikalarning ma'sul xodimlari bilan birgalikda bu g'oyani amalda qanday ro'yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilishni topshirdi. 1924-yilning fevralida esa Fayzulla Xo'jayevning

milliy chegaralanish masalasi bo'yicha tezislari markaz turkiy xalqlarning ildizi birligini hisobga olmayotganligi, chegaralash g'oyalari o'tmish istilochilari siyosatidan farq qilmayotganligi aytilgan edi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil 5-aprelda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosida, 11-mayda RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosida ko'rib chiqildi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) O'rta Osiyo Byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig'ilishida muhokama etilib, asosan ma'qullandi.

Bundan norozi bo'lgan mahalliy aholi vakillari, xususan Xorazm respublikasining bir guruh mas'ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi Odinayev, ichki ishlar noziri Abdusalomov, Turkiston va Buxoro vakillari: S. Xo'janov, S. Asfandiyorov va boshqalar yagona Turkistonni bo'lib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb e'tiroz bildirgan. Shuningdek, 1924-yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qo'mitasiga «Xorazmda milliy masalani hal etish to'g'risida xat» kelib tushdi. Bu xatda ham Xorazm respublikasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiq emas, deyilgan edi. Ha, o'lka xalqlari milliy chegaralanish siyosatiga qat'iy qarshi edilar, biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadi. Aksincha, 1924-yil 12-iyulda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi «**O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish to'g'risida**»gi masalaga yana qaytib, uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

1924-yil 25-sentabrda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi, 9 va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi. Bu qaror 14-oktabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan ham ma'qullanadi. Shu tariqa, Sovet hukumati, RKP(b) MQ va uning joylardagi mahalliy tashkilotlarining 1920–1924-yillar davomida O'rta Osiyoda olib borgan, xalqqa katta va'dalar berishni ko'zda tutgan «lenincha milliy siyosat»ni hayotga tadbiiq etish bobidagi amaliy ishlari yakun topdi. Nihoyat, **1924-yilning 27-oktabrida** bo'lib o'tgan SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi II sessiyasida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishi o'tkazish tadbirlari to'la ma'qullandi. Shunday qilib, hukmron Markaz sa'y-harakatlari orqasida O'rta Osiyoning siyosiy geografiyasi sun'iy ravishda o'zgartirildi. O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rni oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi.

- O'zbekiston SSR;
- Turkmaniston SSR;







**Milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng  
O'rta Osiyo respublikalari**

«ixtiyoriy» ravishda SSSRning tarkibiga kirganligini e'lon qildi. 1925-yil 13-mayda esa O'zSSR Butunittifoq sovetlarining III syezdida SSSR tarkibiga kiritilgan. Shu tariqa, O'zbekiston SSRning qonunan rasmiylashtirish jarayoni tugallandi. Uning tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

- sobiq Turkiston ASSR dan 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi;
- sobiq Buxoro respublikasining 9 ta tumani;
- sobiq Xorazm respublikasining 23 ta tumani.



**Yo'ldosh Oxunboboyev  
(1885–1943)**

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312394 km<sup>2</sup>. Keyinchalik uning maydoni 447 400 km<sup>2</sup> tashkil etgan. 1926-yilda respublikaning aholisi 5 mln dan ortiq edi. Poytaxti 1925-yil fevraldan to may oyigacha Buxoro, 1925-yil maydan to 1930-yil dekabrgacha Samarqand, 1930-yil oxiridan Toshkent shahri.

1925-yil fevralda O'zbekiston SSR Sovetlari MIQ Raisi lavozimiga farg'onalik dehqon, «Qo'shchi» uyushmasi rahbarlaridan biri Yo'ldosh Oxunboboyev (1885–1943) saylandi. O'zbekiston SSR hukumati – Xalq Komissarlari Kengashi Raisi lavozimiga Fayzulla Xo'jayev tasdiqlandi.

ichki va tashqi siyosatini hal etgan. 1924-yil 5-dekabrda O'zSSRning Inqilobiy Komiteti O'zbekiston SSRni tashkil topganini e'lon qilgan.

O'zSSR Sovetlarining I Ta'sis syezdi 1925-yil 13-fevral Buxorodagi «Xalq uyi»da ochilgan. Syezdi 17-fevralda «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topgani to'g'risidagi deklaratsiya»ni qabul qildi. Deklaratsiya O'zSSR tashkil topganligini qonuniy rasmiylashtirdi va O'zbekiston SSRning

<b>O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raislari</b>				
1	F. Xo'jayev (1925–1937)	A. Karimov (1937)	S. Segizboyev (1937–1938)	A. Abdurahmonov (1938–1946)
<b>O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raislari</b>				
1	A. Abdurahmonov (1946–1950)	A. Mavlonov (1950–1951)	N. Muhitdinov (1951–1953; 1954–1955)	U. Yusupov (1953–1954)
2	S. Kamolov (1955–1957)	M. Mirzaahmedov (1957–1959)	O. Alimov (1959–1961)	R. Qurbonov (1961–1971)
3	N. Xudoyberdiyev (1971–1984)	G. Qodirov (1984–1989)	M. Mirqosimov (1989–1990)	
<b>O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining raisi</b>				
1	I.A. Karimov 1990-yil 1-noyabrdan			
<b>O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotiblari</b>				
1	V. Ivanov (1925–1927)	N. Gikalo (1927–1929)	A. Ikromov (1929–1937)	U. Yusupov (1937–1950)
2	A. Niyozov (1950–1955)	N. Muhitdinov (1955–1957)	S. Kamolov (1957–1959)	Sh. Rashidov (1959–1983)
3	I. Usmonxo'jayev (1983–1988)	R. Nishonov (1988–1989)	I.A. Karimov (1989–1991)	
<b>O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi</b>				
1	Y. Oxunboboyev (1925–1937)			
<b>O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raislari</b>				
1	Y. Oxunboboyev (1937–1943)	A. Mo'minov (1943–1947)	A. Niyozov (1947–1950)	Sh. Rashidov (1950–1959)
2	Yo. Nasriddinova (1959–1970)	N. Matchonov (1970–1978)	I. Usmonxo'jayev (1978–1983)	O. Salimov (1983–1986)
3	R. Nishonov (1986–1988)	P. Habibullayev (1988–1989)	M. Ibrohimov (1989–1991)	
<b>O'zbekiston SSR Oliy Soveti raisi</b>				
1	Sh. Yo'ldoshev (1991-yil 12-iyundan)			

**2. XX asrning 20–30-yillarida O'zbekistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish va dehqon xo'jaliklarini kollektivlashtirish siyosati va uning asoratli oqibatlari.** XX asrning 20-yillarining o'rtalariga kelib Sovet davlatida xalq xo'jaligini tiklash

asosan tugallandi. Yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish iqtisodiyotning aksariyat sohaslarida ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. XX asrning 20-yillaridan boshlab O'zbekistonda sanoatlashtirish I-jahon urushi va fuqarolar urushi natijasida inqirozga uchragan mayda, kustar korxonalarni tiklash asosida rivojlana boshladi. Paxta tozalash zavodlari, pillachilik, yigiruv-to'quv, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari qurila boshladi.

**Sanoatlashtirish siyosati** Tiklash davrining muvaffaqiyatli tugallanishi kun tartibiga sanoat qurilishi ko'lamini jiddiy ravishda kengaytirishdan iborat yangi vazifani qo'ydi. Chunki SSSR ko'proq agrar mamlakat bo'lib qolayotgan edi. Har qanday milliy mustaqil davlatning asosiy yashash sharti o'zining zamonaviy rivojlangan sanoatiga, og'ir industriyaga ega bo'lishiga bog'liq. Buni yaxshi tushungan bolsheviklar yetakchisi Stalin sovetlar Rossiyasini sanoati rivoj topgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasini qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda amalga oshirildi.

1925-yil dekabrda VKP(b) XIV syezdi «sotsialistik industrilashtirish (*sanoatlashtirish*)» yo'lini avj oldirishni e'lon qildi. Shu asosda sovetlar hukumati tomonidan **sanoatlashtirish siyosati O'zbekistonda 1925–1940-yillarda** amalga oshirildi. Bu siyosat sovetlar hukumati va kompartiyaning shovinistik, mustamlakachilik siyosatining tarkibiy, ajralmas qismi edi.

Sanoatlashtirish siyosati qishloq hisobidan amalga oshirildi. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xarid narxlari pasaytirildi. Bu dehqonlarning qashshoq bo'lishiga olib keldi. O'z navbatida respublikada oziq-ovqat muammosi keskinlashdi. Qishloq xo'jaligi 1928-yil kuzigacha bir yillik rejalar asosida boshqarilgan bo'lsa, endi **besh yillik rejalar** joriy etildi. 1-chi besh yillik davri – 1928-yil oktabr – 1932-yil dekabr oylarini o'z ichiga oldi. Bu siyosatni oqlash maqsadida «SSSR yagona xo'jalik kompleksi» g'oyasi ilgari surildi. Ushbu g'oyadan kelib chiqqan holda O'zbekistonda xalq xo'jaligining qaysi tarmog'ini rivojlantirish masalasini markaz hal qildi. Sovetlar hukumati «ixtisoslashtirish» bahonasida Rossiyaning o'zida Ukraina, Belorussiya va boshqa asosan slavyan respublikalarida og'ir sanoat korxonalarini qurishga asosiy diqqat-e'tiborni qaratdi.

O'zbekistonda esa asosan ko'proq xomashyoni qayta ishlaydigan sanoat korxonalari, tog'-kon sanoatini rivojlantirishga asosiy urg'u berilgandi. Negaki, bu hudud Markaz uchun ko'proq xomashyo mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashtirilishi kerak edi. Shu bois ham muhim e'tibor paxtachilikning rivojlanishi

bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari, aholining yashashi va turmush kechirishi bilan bevosita aloqador bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazolar ishlab chiqaradigan yengil sanoat korxonalari bunyod etildi. 1925–1940-yillarda qurilib ishga tushirilgan bunday korxonalar jumlasiga Bo'zsuv GESi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Asaka shaharlaridagi issiqlik elektrostantsiyalari, Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Buxorodagi to'qimachilik fabrikalari, Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Farg'ona konserva, Xilkovo sement zavodlari, Toshkent «O'rtoq» tamaki fabrikasi, Samarqand, Buxoro va Marg'ilon ipak yigiruv fabrikalari, «Chimyon» va «Santo» neft konlari bazasida tashkil etilgan neft zavodlari, «Toshtram», «Qizil Sharq» va «Birinchi may ustaxonalari», ko'plab paxta tozalash, sut-yog' tayyorlash, sovun pishirish kabi zavodlarni kiritish mumkin.

Sanoatlashtirish O'zbekistonda dastlab sekinlik bilan amalga oshirildi. O'sha davr rasmiy ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928–1932) da 289 ta va ikkinchi besh-yillik (1933–1937) davrida 189 ta sanoat korxonalari barpo etilgan. Ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham yil sayin ortib bordi. Chirchiq, Olmaliq, Bekobod, Angren, Yangiyo'l, Quvasoy kabi sanoat shaharlari vujudga keldi.

Sanoatning rivojlantirilishi energetika bazasini kengaytirishni talab qilardi. Yangi elektr stansiyalari Farg'ona, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda qurildi. 1932-yilda barcha elektr stansiyalarining (GESlar) soni 1928-yildagi 16 ta o'rniga 49 taga yetdi, elektr quvvati ishlab chiqarish esa 7 baravardan ziyodroqqa oshdi. Toshkent – Angren temiryo'li, Toshkent – Termiz katta avtomobil yo'li qurildi.

Ikkinchi jahon urushiga qadar O'zbekistonning sanoat salohiyati 1445 ta yirik va o'rtacha sanoat korxonalari va 19 mingga yaqin mayda korxonalarni o'z ichiga olardi. Garchand sanoat qurilishi ancha ko'zga ko'rinarli tarzda rivojlanib, muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, biroq bu sohada ko'plab jiddiy muammolar, nuqsonlar mavjud edi. Avvalo, yuqoridan tazyiq qilish amaliyoti, rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlik usullari O'zbekiston sanoati tarmoqlarida chuqur ildiz otgan edi. Jumladan, respublika metropoliyaning rangli va nodir metallar, oltingugurt, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta'minlovchi mintaqasiga aylantirildi.

Markaz amri bilan respublikaning xomashyo, tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilingan holda uning o'ziga xos iqtisodiy manfaatdorligi hech qanday nazar-pisand qilinmasdi. O'zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining talay qismi to'lig'icha ittifoq ixtiyoriga bo'ysunardi. Binobarin, ularning ishlab chiqargan mahsulotlari va undan keladigan tushumlar ham Markaz xazinasini boyitishga xizmat qilardi.

Respublikada sanoatlashtirishning muhim bir xarakterli tomoni shundaki, bu jarayon davomida malakali ishchi kuchi yetishmaganligidan, xususan RSFSR hududidan bu yerga juda ko'plab odamlar oqimi kirib keldi. Ular hisobiga respublikaning ishchilar sinfi saflari to'ldirilib borildi. Natijada respublikada ishchilar soni ko'payib bordi. Jumladan, 1926-yildan to 1940-yilga qadar O'zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10% dan ortiqroqqa ko'paydi. Sanoatni sanoatlashtirish rejasiga muvofiq malakali ishchilar va texnik xodimlar tayyorlaydigan hunar-texnika ta'limi va fabrika, zavod maktablari tashkil qilindi. Biroq sanoat korxonalariga malakali xodimlar va tajribali ishchilar RSFSRning markaziy shaharlaridan olib kelinadigan bo'ldi. Markazning bu usuli O'zbekistonning butun sovet davri tarixida muttasil ravishda davom ettirildi.

Xullas, 1925–1940-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining bosh maqsadi respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan iqtisodiy poydevordan mahrum qilish va uni sovetlar xo'jalik mexanizmining bir yacheykasiga aylantirishdan iborat edi.

#### Yer-suv islohoti

Yer-suv islohoti – sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish maqsadida O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar (1921–1929)-dan biri hisoblanadi. O'rta Osiyoda amalga oshirilgan yer-suv islohoti tarixiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, bu islohot 2 bosqichda: *Birinchisi*, 1921–1922-yillarda Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSRda; *Ikkinchisi*, 1925–1929-yillarda O'zbekiston SSR da amalga oshirildi.

Dastlabki, yer-suv islohotining xarakteri 1920-yil sentabrda bo'lib o'tgan Turkiston Sovetlari IX qurultoyining qarorlarida aks etdi. Islohotni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish 1921-yil bahorida boshlanib, dastlab u Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari va Qozog'iston ASSRning Oqmo'la, Ural, Semipalatinsk gubernyalarida amalga oshirildi. Islohotni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – mahalliy hamda Turkistondagi boy rus dehqonlarining yer va suvga bo'lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Chunki o'z vaqtida mustamlakachi ma'murlari tomonidan rus dehqonlariga eng yaxshi va hosildor yerlar ajratilgan edi. Ushbu islohotning asosida mehnat bilan shug'ullanmaydigan boy-quloq xo'jaliklarini tugatish va ko'chmanchilarni o'troq hayotga o'tkazish, yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlash va eng asosiysi rus kelgindilarning ortiqcha yerlarini musodara qilish orqali Rossiya imperiyasi mustamlakachlik sarqitlarini yengish edi. Lekin vaqt o'tishi bilan ko'chirib keltirilgan ruslardan yerlarni musodara qilish bilan bir qatorda



vaqf yerlari tortib olindi, boylar, savdogarlar, diniy xizmatchilar va qishloq hamda ovullarning mehnat bilan shug'ullanmaydigan yuqori tabaqalari degan boshqa vakillarining yerlari kamaytirildi. Yer va suvni taqsimlash jarayoni bir tomondan yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan qishloqdagi siyosiy vaziyatni o'ta keskinlashtirib, sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Shuningdek, islohot davomida Yettisuv va Jalolobod tumanlarining ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholisini o'troq hayotga o'tkazish siyosati salbiy oqibatlarga olib keldi. Zero, ko'chmanchilikdan o'troqchilikka o'tish, nafaqat xo'jalik faoliyat shakllarini o'zgartiribgina qolmay, balki asrlar davomida shakllanib kelgan ushbu ijtimoiy guruhning turmush tarzi hamda kasb-hunarining tamomila o'zgartirib yuborishi muqarrar edi. Islohotni o'tkazishning inqilobiy – zo'rovonlik usullari Turkiston qishloqlarida ijtimoiy va millatlararo tanglikni vujudga keltirdi.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng **1925–29-yillarda navbatdagi ikkinchi yer-suv islohoti** amalga oshirildi. 1925-yil noyabrda O'zbekiston Kompartiyasining II syezdi «Agrar inqilob»ning strategiya va taktikasi tasdiqlandi. 1925-yil 2-dekabrda esa O'zSSR MIKning «Suv va suvni natsionalizasiya qilish to'g'risida» va «Yer-suv islohoti to'g'risida» dekretlari va boshqa qarorlar bilan islohotning 2-bosqichi boshlandi.

Mazkur islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab 3 bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich, 1925–1926-yillarda Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo'ldi. Ikkinchi bosqichda 1927-yil Zarafshon viloyati (Buxoro va O'rta Zarafshon okruglari)da yer-suv islohoti o'tkazildi. Uchinchi bosqich, 1928–1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida islohot amalga oshirildi.

Jami bo'lib butun O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan «yer-suv islohoti» natijasida 4801 ta xo'jalik quloq xo'jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo'jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer qo'shildi. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolar va boshqa mulkdorlarning yerlari bilan birga ot-ulov va asbob-uskunalari ham musodara qilingan edi. Islohotning 2-bosqichi birinchisidan farqli o'laroq katta yer egaligi va o'ziga to'q dehqon xo'jaliklarini (rasmiy hujjatlarda quloqlar – «mushtumzo'r»lar) butunlay cheklash va ularni sinf sifatida tugatish siyosatini olib borgan. Yer-suv islohoti yakunlangach ommaviy kollektivlashtirish avj oldi.

**Kollektivlashtirish  
siyosati**

**Kollektivlashtirish** – «lenincha sotsializm qurish rejasini»ning tarkibiy qismidir. Taniqli olimi Rahima Aminova bu mudhish kollektivlashtirishga baho berib

shunday degan edi: «Kollektivlashtirish – ishlab chiqarishga davlat monopoliyasi o'rnatilishining naq o'zginasidir. Partiyaviy-g'oyaviy siyosat hukmronligi tufayli yuzaga kelgan kollektivlashtirish nazariyasi va tajribasi bugunga kelib chilparchin bo'ldi. Kishining ishlab chiqarishdagi mehnatiga haq to'lov o'zaro tenglik asosiga qurilganidan bu siyosat o'zini oqlamadi. Tabiiyki, moddiy manfaatdorlik bo'lmagan joyda tashabbuslar ham so'nadi. Tashabbus, izlanish bo'lmagan joyda esa ish orqaga ketadi. Buning ustiga hayotning o'zi kollektivlashtirish muammosini ko'tarib chiqmagan edi. Nazariyachilar asrlar osha shakllanib kelgan ishlab chiqarish usullariga bepisand qaradilar. Zo'ravonlik bilan o'tkazilgan siyosat ko'plab ishbilarmon, tadbirkor odamlarning ishga, yerga bo'lgan munosabatini sovitdi. E'tirof etmoq joizki, bugungi dasturxonimizning g'aribligi ham ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish «samarasidir».

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish sobiq Ittifoqda bo'lgani singari 1927-yil 2–19-dekabrda bo'lib o'tgan VKP(b) XV qurultoyidan so'ng rasmiy tus oldi. Kollektivlashtirishni ommaviy yalpi ravishda sun'iy tezlashtirish 1929-yildan e'tiboran boshlandi. Bunga I. Stalinning 1929-yil 7-noyabrida «Pravda» gazetasida e'lon qilingan «Buyuk burilish yili» maqolasida jadal kollektivlashtirishni «nazariy» jihatdan asoslab berishi o'ziga xos bir turtki bo'ldi. Maqolada, keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb aytilgan edi. VKP(b) MQning 1929-yilgi noyabr plenumi Stalin fikrini partiya direktivasiga aylantirdi. Plenum kollektivlashtirish sur'atlarini haddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani qo'ydi.

Hokimiyat organlari Stalinning ko'rsatmasini bajarish uchun jadal kollektivlashtirishning boshida turib asosan zo'ravonlik usullariga e'tiborni kuchaytirdilar. Qishloqda an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni yoppasiga buzish avj oldirildi. Davlat qishloq mehnatkashlariga qancha va nima ekishni, yetishtirilgan mahsulotni qanday narx bilan topshirishni aytib turadigan bo'ldi. Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg'inlar uyushtirildi, qishloq ahlini zo'rlik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi.

Yoppasiga kollektivlashtirish, shu asosda quloqlarni sinf sifatida tugatish va ularni kollektivlashtirish hududlaridan surgun va qatag'on qilishlar asosan 1930-yilning boshlaridan boshlangan. Kollektivlashtirishni sun'iy tezlashtirish va bu borada «sotsialistik musobaqa»ni avj oldirishda ayniqsa VKP(b) MQning 1930-yil 5 yanvardagi «Kollektivlashtirish sur'ati va jamoa qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ham hal qiluvchi o'rin tutdi. Mazkur

qarorda sobiq SSSR hududi uch guruh tumanlarga bo'lingi va qaysi hudud qachon kollektivlashtirishni tugallashi rejalashtirildi. O'zbekiston uchinchi guruhga kiritildi va u kollektivlashtirishni 1933-yil bahorida tugallashi kerak edi. Biroq VKP(b) MQning Siyosiy Byurosi mamlakatda kollektivlashtirish tajribasini o'rganib chiqib, O'zbekistonda kollektivlashtirish juda sekin rivojlanib borayotganligini tanqid qilgan edi.

SSSR Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti 1930-yil 4-fevralda quloq xo'jaliklarni surgun qilish va joylashtirish to'g'risida maxfiy yo'riqnomaga qabul qilib, uni joylarga qo'llash uchun yuboradi. 1930-yil 17-fevralda esa O'zbekiston Kompartiyasi MK «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi. Markazning «tanqidiy xulosalari» asosida sovet hukumati va komfirqasi respublikada kollektivlashtirishni yuqori sur'atlarda va «safarbarlik» asosida olib bordi. Natijada 1932-yilda butun O'zbekistondagi boy va o'rta hol hamda sovet davrida yer olgan dehqonlarning 91,7 foizi kollektivlashtirildi, kollektiv va davlat xo'jaliklariga birlashtirildi.

Butunittifoq komfirqa Markaziy Qo'mitasi qarori bilan kollektivlashtirishga yordam ko'rsatish uchun qishloq xo'jaligi ishidan bexabar «25 mingchilar» nomini olgan ishchilar, shuningdek, texnik xodimlar qishloqlarga yuborildi. Shu «yordam» bahonasida O'zbekiston qishloqlariga ham Rossiyadan 433 ta, O'zbekistonning o'zidan 250 ta rus ishchisi yuborildi. Ular firqa ko'rsatmasi bilan rahbar lavozimlarga tayinlandilar. Ularga Markaz siyosatini amalga oshirish uchun katta huquq va imkoniyatlar berildi. Ularga qarshi bo'lgan ko'pgina mahalliy rahbarlar ishdan olinib, javobgarlikka tortildi.

### **Quloqlashtirish**

Kollektivlashtirish bilan parallel ravishda quloqlashtirish olib borildi. Shu o'rinda «quloq»lar, quloqlashtirish atamasiga izoh beradigan bo'lsak quloqlashtirish – «quloqlar» (rus. кулачество – mushtumzo'r) – mustabid sovet rejimining badavlat va o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati (1929–1933) dir. O'rta Osiyoda yer-suv islohoti o'tkazilishi jarayonida qishloqlardagi badavlat xonadonlarni «mushtumzo'r» («quloq») sifatida badarg'a qilish boshlangan. Bu islohot davridayoq 28 ming yirik va o'rta mulkdorlarning xo'jaliklari tugatilgan va ularning yerlari musodara qilingan edi. Sovet hukumati qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish davridan boshlab quloqlarni sinf sifatida tugatishga jiddiy tayyorgarlik ko'rgan. VKP(b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi 1930-yil 28-yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida qaror qabul qiladi.



**Majburiy tashkil qilingan jamoa xo'jaliklarida yer haydash. Xiva, 1960-yil.**

Kollektivlashni jadallashtirish «quloq» deb atalgan o'ziga to'q xo'jaliklarni tugatish, ularning mulklarini musodara qilish ishiga aylanib qoldi. «Quloq» xo'jaliklarini tugatish ishlari ostida hatto o'rtahol va kambag'al xo'jaliklar ham musodara qilinardi. Natijada O'zbekistonda birgina 1930-yil 2648 ta xo'jaliklar tugatildi. Bu hol dehqonlarda xavotirlik o'yg'otdi. Ko'pchilik odamlar o'z xo'jaliklarini tashlab qochdilar, chorvalarini so'yib sotib yubordilar. Jadal

kollektivlashtirish, o'rtahol dehqonlarga nisbatan zo'rlik siyosati o'tkazish respublikadagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi.

Quloq va o'rtahol dehqonlarga nisbatan zo'rlik qilish respublikadagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Dehqonlarning noroziligi kuchayib, Farg'ona va Zarafshon vodiylari, boshqa hududlarda ommaviy norozilik namoyishlari, sovet tuzumiga qarshi isyonlar va qurolli chiqishlar yuz berdi. Ba'zi isyonlar qurolli qo'zg'olon darajasiga ko'tarilgan. Faqat Qashqadaryo okrugida 1930-yil boshlarida dehqonlarning 14 ta norozilik chiqishlari yuz berib, ularda 3700 kishi ishtirok etgan. 1930-yil mart oyida O'zSSRda 240 ta, SSSRda 2 mingdan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan. 1937-yilning 15–20-fevral kunlari Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Andijon, Xorazm, Surxondaryo okruglarida 18 ta chiqish bo'lib, ularda 11290 kishi qatnashgan. Chust-Popdagi qo'zg'olonni bostirish uchun O'zK(B)P MK kotibi A.K. Lepa, O'zSSR XKS raisi F.Xo'jayev 22-fevralda Samarqanddan yetib keladilar, qo'zg'olon bostiriladi, uning ishtirokchilaridan bir qismi qo'lga olinadi.

**Muhojirlik va surgun.** Kollektivlashtirish va quloqqa tortish siyosatidan norozi bo'lgan dehqonlar, hunarmand va dindorlar yurtni tark etib muhojir bo'lib chiqib ketishga majbur bo'lganlar. Muhojirlik asosan Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi davlatlarga kambag'al va o'rtahol dehqon xo'jaliklari o'tib ketgan.

«Quloqlar» sifatida ro'yxatga olingan badavlat xo'jaliklarning mol-mulki to'liq musodara qilinib, ularning oilalari o'zga yurtlar (Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog'iston, Uzoq Sharq va h.k.) ga surgun qilingan. Shuningdek, respublikaning o'zida quloqlar uchun majburiy mehnat posyolkalari (17 ta) tashkil qilingan. Sovet

hokimiyatiga qarshilik qilgan «quloqlar» esa qamoqqa olingan va otib tashlangan. «Quloqlar»ga qarshi kurash O'zSSRda kun sayin kengayib borgan. 1931-yil avgustda 3828 ta «quloq» xo'jaliklari tugatilgan, 6 ming xo'jalik «quloq oilasi» sifatida Ukraina va Shimoliy Kavkazga surgun qilingan. 1933-yil iyulida Shimoliy Qozog'istonga 500 oila surgun qilingan.

O'rta Osiyo respublikalaridagi majburiy mehnat ko'chkindilarining soni 1934-yil 1-yanvar holatida 29559 kishi bo'lsa, oradan bir-yil o'tgach, ularning soni 12039 kishiga tushib qolgan (kamayish, asosan, vafot etganlar va qochib ketganlar hisobidan).

1933-yilda quloqlashtirish siyosati, asosan, amalga oshirib bo'lingan. Biroq 1934–1937-yillarda ham ko'plab badavlat dehqon xo'jaliklari «quloq» qilingan. Sovet rejimi qishloqda o'z hokimiyatini to'la o'rnatib, kollektivlashtirishni amalga oshirib bo'lgach, surgun qilingan «quloq» xo'jaliklariga nisbatan o'z siyosatini bir oz «yumshatgan». Masalan, SSSR MIQ 1934-yil 27-mayda «Sobiq quloqlarning grajdanlik huquqlarini tiklash tartibi to'g'risida» qaror qabul qilib, unda «quloqlar»ning saylov huquqlari tiklangan.

Ikkinchi jahon urushi davrida majburiy mehnat ko'chkindilari tarkibida katta o'zgarishlar yuz bergan. Urushgacha va urushning dastlabki davrida «quloqlar» va ularning chaqiriq yoshidagi farzandlarini mehnat surgunidan ozod qilish boshlangan edi. Urush boshlangach, bu jarayon ham to'xtatildi. 1942-yilda SSSR hududida mehnat surgunida bo'lgan 100 ming kishi (O'zSSRda 1152 kishi) – «quloqlar» harakatdagi armiya safiga chaqirilib, frontga jo'natilgan. Sovet tuzumi davrida quloqlikka tortilib, surgun qilinganlardan tirik qolganlarining erkin fuqarolik maqomini olib, o'z yurtiga qaytish jarayoni juda og'ir kechib, u taxminan 20 yildan ko'proq vaqt (1934–1956)ni o'z ichiga oladi.

**3. 1946–1985-yillarda O'zbekiston iqtisodiy hayoti.** 1941–45-yillardagi urush davrida O'zbekistonga 90 ta sanoat korxonasi ko'chirib keltirildi, ularning ko'pi mashinasozlik, asbobsozlik korxonalari edi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda sanoatni tiklash va rivojlantirish hukmron Markaz oliy manfaatlaridan kelib chiqilib, uning «sotsializm va kommunistik jamiyati» qurishdan iborat bosh strategik vazifalari, dasturiy rejalariga asoslanib hamda O'zbekistonning boy xomashyo va mineral resurslaridan maksimum foyda olishni ko'zlab bu sohaga e'tibor qaratib borilgan.

1946–1985-yillar O'zbekiston tarixidagi murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan, O'zbekiston xalqining fidokorona, bunyodkorlik mehnati tufayli



respublika iqtisodiyoti anchagina rivojlandi. Ikkinchi tomondan, sobiq Ittifoqda hukmron bo'lgan totalitar tuzum, ma'muriy-buyruqbozlikning kuchayishi natijasida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda bir qator muammolar, noxush holatlar to'planib borib pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi.

O'zbekiston iqtisodiyoti va uning muhim bo'g'ini sanalgan sanoati urushdan keyingi 1946–1950-yillarda tiklandi va rivojlanib bordi. Bu davrda 150 dan ziyod yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Xususan, respublikada ko'pgina korxonalar qurilishi natijasida mashinasozlik tarmoqlari ko'paydi, samolyotsozlik, asbobsozlik, motorsozlik, elektroapparat, elektr dvigatel, ekskavator, kompressor zavodlari qurildi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda *energetika va yoqilg'i sanoatini* rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Quvvatiga ko'ra SSSRda uchinchi o'rinda turuvchi Farhod GESning 1-gidroagregati 1948-yilda ishga tushirilgan. 1949-yil iyun oyidan o'rnatilgan umumiy quvvati 126 MVt bo'lgan 4 ta gidroagregatli stansiya to'la quvvat bilan ishlay boshladi, 1951-yilda sanoat foydalanishiga qabul qilindi. 50–80-yillar elektr energiyasi tarmog'i kengaytirildi. 7-Shahrixon GESi, ikkita Namangan GESlari, ikkita Bo'zsuv GESlari, Chorvoq GESi, Xojikent GESi qurilib ishga tushirildi. Gaz bilan ishlaydigan Angren, Taxiatosh, Navoiy, Sirdaryo, 2-Angren GESlari qurilib ishga tushirildi. Gaz bilan ishlaydigan Angren, Taxiatosh, Navoiy, Sirdaryo, 2-Angren GESlari qurilib ishga tushirildi.

Shuningdek, *yoqilg'i sanoati* tiklandi va rivojlandi. 50-yillarda Surxondaryo viloyatidagi Sharg'un toshko'mir koni o'zlashtirildi va yuqori sifatli qo'ng'ir ko'mir qazib chiqarila boshlandi. 60-yillarda Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi Gazli, Jarqoq, Sho'rtepa, Sho'rchi neft konlari o'zlashtirildi. 1959-yili qurilib foydalanishga topshirilgan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ancha kengaytirildi. Zavodda texnika moylari, benzin, dizil yoqilg'isi, parafin va boshqa 35 xil mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 70-yillarda Farg'ona vodiysida yangi neft konlari ochilib foydalanishga topshirildi.

O'zbekistonda *gaz sanoati* Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik gaz konlarining izlab topilishi va o'zlashtirilishi bilan bog'liq ravishda yuksalib bordi. 1956-yili (Buxoroda) Gazli gaz-neft koni ochildi. Shuningdek, geologik-qidiruv ishlari natijasida Muborak, O'rtabuloq, Qultog', Shapatti, Uchqir, Jarqoq, Qoravulbozor, jami 100 dan ortiq neft va gaz konlari topildi. 1959-yili Buxoroda neft va gaz qazib olishni yo'lga qo'yish maqsadida «Buxoroneftegaz» boshqarmasi tuzildi.

1962-yilga kelib *Gazli gaz-neft konining* ochilishi bilan O'zbekistonda ulkan magistral gaz quvurlari yaratishga asos solindi (Jarqoq – Buxoro – Samarqand–Toshkent gazoprovodi, 1960; Buxoro – Ural gazoprovodi, 1963; Buxoro–Toshkent–Bishkek – Olmaota gazoprovodi, 1965; O'rta Osiyo – Markaz gazoprovodi, 1967 va boshqalar).

O'zbekiston hududida ko'plab boy tabiiy gaz konlari topilib, o'zlashtirilgan bo'lsa-da, lekin o'zbek xalqi bu boyliklarga xo'jayin emas edi. Ulardan qanday foydalanishni Markaziy hokimiyat hal qilgan. Markaziy hokimiyat O'zbekiston gazidan, avvalo, Uraldagi, SSSRning Yevropa qismidagi shahar va posyolkalarni, korxonalar va xonadonlarda foydalanishga kirishdi.

*Kimyo sanoatini* rivojlantirishda gaz, neft, oltingugurt, ozokrit, oshtuzi, ohak, grafit, rangli metallurgiya chiqindilari, paxta va kanopni qayta ishlashdan hosil bo'ladigan chiqindilar boy xomashyo bo'lib xizmat qildi. 50-yillarda mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi Samarqand superfosfat zavodi, 1962-yilda Farg'ona azot o'g'iti zavodi, 1965-yilda Navoiy kimyo kombinati, 1969-yilda Olmaliq kimyo zavodi qurilib ishga tushirildi. 1985-yilda respublika kimyo korxonalarida 7,8 mln tonna mineral o'g'itlar ishlab chiqarildi, bu 1960-yildagidan 7 marta, 1950-yildagiga nisbatan 15 marta ortiq edi. Respublika qishloq xo'jaligi mineral o'g'itlar bilan ta'minlandi va boshqa respublika, viloyatlarga o'g'itlar chiqarildi. 1946–1950-yillarda Toshkent, Olmaliq, Chirchiq, Samarqand, Navoiy, Farg'ona, Yangiyo'l, Namangan, Sho'rsuv va boshqa shaharlar kimyo industriyasi markaziga aylandi.

Ammo bu sohada katta yutuqlarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan Markaziy hokimiyat tomonidan zaharli kimyo vositalari ishlab chiqarish respublikaga tiqishtirildi. 1985-yilda 47,9 ming tonna turli zaharli ximikatlar ishlab chiqarildi. Zaharli vositalarining respublika paxta maydonlarida haddan tashqari keng qo'llanilishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat buzildi, odamlar turli-tuman kasalliklarga chalindi. Odamlar sog'lig'i hisobiga paxta xomashyosiga ko'rsatilgan «g'amxo'rlik» xalqqa qimmatga tushdi.

O'zbekistonda *metallurgiya sanoati* ham rivojlandi. Masalan, Bekobod, Chirchiq, Toshkent shaharlarida qora metallurgiya, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq, Uchquduq shaharlari rangli metallurgiya markazlari sifatida rivojlandi. 1962-yilda «O'zbekiston metallurgiya kombinati»da uzluksiz po'lat quyuv qurilmasi ishga tushirildi. 50-yillarda Olmaliq – Angren tog' sanoati rayonida mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden va boshqa nodir metallar koni topildi, ularni o'zlashtirish jarayonida yirik Olmaliq kon-metallurgiya kombinati bunyod etildi. Kombinatda ishlab chiqarish obyektlarini rivojlantirish 80-yillarda ham faol davom ettirildi.

O'zbekistonda 60-yillarda *oltin qazib olish sanoati* bunyod etildi. Muruntov, Chodak, Konbuloq oltin konlari, Farg'ona vodiysidagi daryo o'zanlaridan sochma oltin, Nurota, Qurama, Zarafshon, Hisor, Pomir tog'larida oltin tarkibli kvars tomirlari va rudalar mavjudligi aniqlandi. Respublika hududida 30 ta oltin koni aniqlandi. Oltin qazib oluvchi Muruntov tog' boyitish kombinati, Marjonbuloq kombinati qurildi. «O'zbek oltin» birlashmasi tuzilgach, uning tarkibida Chodak boyitish kombinati (1965), Angrenda oltin saralash fabrikasi qurilib ishga tushirildi.

O'zbekiston hukumati respublika hududidagi rangli metall konlariga, shuningdek, oltin konlariga, ulardan noyob va nodir metallar qazib olishga mustaqil ravishda egalik qilmasdi, ular faqat Ittifoq hukumati ixtiyoriga topshirilgan edi.

*O'zbekiston mashinasozlik sanoati* 50–80-yillarda ko'p tarmoqli sohaga aylandi. 1985-yilda respublika sanoatida faoliyat ko'rsatgan 1549 ta ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlari va korxonalarining 100 dan ortig'i mashinasozlik tarmog'iga tegishli bo'lib, ularda tayyorlangan mashinalar salmog'i butun sanoat mahsulotining 16%ni tashkil etardi. Biroq respublikada bu soha asosan paxtachilikka, ya'ni birinchi navbatda, paxtachilikka xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'ini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Masalan, «Toshselmash», «O'zbekselmash», «Chirchiqselmash», Samarqandagi «Красный двигатель» va boshqa zavodlar paxtachilik bilan bog'liq mashinalar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ydilar. 1950-yilda 4803 ta chigit seyalkalari, 7784 ta traktor kultivatorlari tayyorlandi. 1950-yilda 4641 ta SX-40 paxta terish mashinalari tayyorlandi. Paxta tozalovchi mashinalar ishlab chiqarish 1946-yilda 363 ta bo'lgan bo'lsa, 1950-yilga kelib ularning soni 1251 taga yetdi.

50–80-yillarda O'zbekistonda *qurilish materiallari sanoati* rivojlandi. 1985-yilda qurilish materiallari sanoatining 1851 korxonasi, 11ta yirik panelli uysozlik kombinatlarida turli xil qurilish materiallari ishlab chiqarildi.

Bu davrda O'zbekistonda *yengil sanoat* bir tomonlama rivojlanishga yo'naltirildi. Asosiy e'tibor paxta qabul qilish, paxta tozalash, pillakashlik, qorako'l teriga va kanop tolasiga dastlabki ishlov berish, jun yuvish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi. O'zbekiston bunday xomashyolardan tayyor mahsulotlar tayyorlash imkoniyatiga ham, huquqiga ham ega emas edi. Bu masalani markaziy hokimiyat hal qilardi. Tayyor xomashyo Ittifoqning boshqa shaharlariga olib ketilardi va tayyor mahsulotga aylantirilardi, ortib qolgan xomashyo boshqa mamlakatlarga sotilardi va undan katta daromad olinardi.

O'zbekistonda 80-yillarda 107 ta paxta tozalash zavodi, ko'pchiligi quritish tozalash sexlariga ega bo'lgan 490 paxta manzillari ishladi. 70–80-yillarning boshlarida respublika to'qimachilik sanoati korxonalari – Buxoro to'qimachilik kombinati (1973), Andijon ip-gazlama kombinati (1979), Nukus ip-gazlama kombinati (1983), Jizzax paxta yigiruv fabrikasi, yirik to'qimachilik kombinatlarining Qo'rg'ontepa, Marhamat, Yangiqo'rg'on, Beshariq, Rishton, Vobkent, G'ijduvon filiallari qurildi. Toshkent va Farg'ona to'qimachilik kombinatlari tarkibidagi bir qator fabrikalar qayta jihozlandi. Ip-gazlama ishlab chiqarish 1960-yildagi 234,7 million metrdan 1985-yilda 395,7 million metrga ko'paydi. O'zbekistonda yiliga 1,5 million tonna paxta tolasi yetishtirib berilardi. Respublika to'qimachilik sanoati yetishtirilgan paxta tolasining atigi 10%ni qabul qilish va tayyor mahsulotlarga aylantirish imkoniyatiga ega edi. 90 foizi esa olib ketilardi.

Xullas, XX asrning 46–85-yillarda O'zbekistonda ko'plab sanoat korxonalari qurildi. Shunday bo'lsa-da, ammo ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlanishga yo'naltirilib, mustaqil ravishda tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Yirik sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan Respublikaning Ittifoqqa bog'lanishi yana ham kuchaydi. Prezident I.A. Karimov: «...u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi», deydi.

Ishlab chiqarishda miqdor ko'rsatkichlari muhim bo'lib, sifat jihatidan xalqaro raqobatga bardosh bo'lgan talab ikkinchi darajada edi. Respublikamizdagi korxonalari asosan butlovchi xarakterdagi korxonalariga aylantirildi. Mavjud korxonalarda tayyorlanadigan mashinalar, asbob-uskunalar uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlar chetdan keltirilardi. O'zbekiston korxonalari sobiq Ittifoqning g'arbiy respublikalaridagi korxonalariga qaram edi. 70-yillarga kelib chuqur turg'unlik holatiga mahkum bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotining tahlili shundan dalolat beradiki, bunda sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishda ilmiy aniqlik, real yondashuv, mantiqiy izchillikning yo'qligi asosiy sabablardan biri bo'lganligi shubhasizdir.

Sovet hokimiyati belgilagan 8, 9, 10, 11, 12-besh yilliklar rejalarining norealligi, noizchilligi, yetarli ilmiy asoslanmaganligi, konkret hayot amaliyoti bilan bog'lanmaganligi oxir-oqibatda ularning oldindan barbod bo'lishiga olib keldi. Buning oqibatida xo'jalik tarmoqlarida zo'riqish, uzilish holatlari yuz berdi, ishlab chiqarish quvvatlari to'la ishga solinmadi, mehnat unumdorligi muttasil kamayib bordi, milliy daromad salmog'i 3–4 baravarga kamayib ketdi.

80-yillarga kelib O'zbekistonning eksport salohiyati keskin pasaydi. Buning natijasida respublikaning eksport balansida sanoat mahsulotining salmog'i atigi 11% ni tashkil etardi, xolos. Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi bunday turg'unlik, nomutonositlik holatlarining yuzaga kelishi, ishlab chiqarish quvvatlari qisqarib, uning salohiyat darajasi pasayib borishi oqibatida O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy holatiga, aholi keng ijtimoiy qatlamlarining turmush darajasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmadi.

1985-yilning bahorida qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimiga o'zgartirish kiritilib, mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara singari yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan holda ko'rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan iqtisodiyotda inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb boshlangan quruq kompaniya Prezident I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o'g'rilik, qotillikni kuchaytirdi».

O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlarning ijtimoiy oqibatlari nihoyatda og'ir bo'ldi. O'lkaning o'ziga xos demografik holati hisobga olinmasdan davlat budjetidan ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag' qoldiq prinsipiga asoslanib yildan yilga qisqarib bordi. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish masalalarida miqdoriy o'sishlar ko'zga tashlanganligi bilan, aslida bular inson talabini qondirmas edi. Respublika bu sohalaridagi ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi 15 respublika o'rtasida 13-14 o'rinlarda turdi.

XX asrning 80-yillarda fan, madaniyat va xalq ta'limiga ajratilgan xarajatlar davlat budjetining atigi 2,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989-yili Yevropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashkil qilgan. Bolalar o'limi, oshqozon-ichak va yuqumli kasalliklar bo'yicha O'zbekiston SSSRda birinchilar qatorini egalladi. Aholining o'rtacha yoshi 1970-yilda 72 yosh bo'lsa, 1980-yili bu ko'rsatkich 67,7 yoshni tashkil qildi. Bunga asosiy sabab ekologik vaziyatning keskinlashuvi bo'ldi. Jafokash o'zbek xalqining turmush darajasi achinarli ahvolda bo'lib, boshqa respublikalar bilan qiyoslanganda oxirgi o'rinlarda edi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi.

**4. «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat»ning oqibatlari.** Totalitar tizim jarayonida o'lkadagi madaniy-ma'rifiy ishlar e'tibordan chetda qolmadi. 20-30-yillarda savodsizlikni tugatish, ta'lim-tarbiya ishlari astoydil qo'lga olindi. 1941-yili O'zbekistonda 5.504 maktab bo'lib, ularda 42.000 o'qituvchilar



dars berdi, 1 mln. 315 ming o'quvchi ta'lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishining ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o'quv yurtlari ochildi.

O'rta Osiyoda oliy ta'limning beshigi, hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti bir qancha oliy o'quv yurtlariga asos bo'ldi, 1940-yili respublikada 30 ta oliy, 100ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari ishlab turdi.

1943-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi (O'z FA) respublikada ilm-fanning markazi bo'lib qoldi. 1945–85-yillarda ko'plab yangi ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, ilmiy stansiyalar tashkil etildi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi va uning ilmiy tekshirish institutlarida fanning turli sohalarini ayniqsa kimyo, fizika, elektronika, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar rivojlandi. 80-yillarning boshlariga kelib akademiya tarkibida Qoraqalpog'iston ASSR filiali va 35 ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatdi. 38 ming ilmiy xodim, shu jumladan, 1215 fan doktori, 15664 fan nomzodi fanning turli sohalarida tadqiqot ishlari olib bordi.

Respublikada madaniy-oqartuv muassasalarining soni 20–30-yillarda ortib bordi. Achinarlisi shundaki, respublikada ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy ishlar «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» shiori ostida olib borildiki, asl maqsad «baynalmilalchilik» niqobi bilan pardalanib, o'lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo'ldi. 1938-yil 19-martda O'zbekiston rahbariyati milliy maktablarda majburan rus tilini o'qitish to'g'risida qaror qabul qildi. O'qishlar va idoralarda ish yuritishlar 1929-yildan boshlab lotin, 1940-yildan boshlab kirill alifbosida olib boriladi. Bularning oqibatida ko'p asrlar davomida arab alifbosida yaratilgan tariximiz, madaniyatimizni o'rganishdan respublikaning tub aholisi mahrum bo'ldi.

1927–1928-yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarni «ozodlikka chiqarish» baho-nasida «Hujum» kompaniyasi o'tkazildi. Xotin-qizlar faolligini oshirish bobi-da ma'lum ma'noda bu harakat ijobiy baholansa-da, biroq uni tashkil etishdan ko'zlangan bosh maqsad reaksion edi. Avvalo bu harakat mahalliy xalqlarning asrlar osha tarixan shakllangan milliy an'ana va qadriyatlarini hisobga olmagan holda o'tkazildi, xotin-qizlarning ayollik sha'ni, qadr-qimmatlari oyoqosti qilindi. Ko'p hollarda paranji chachvonni tashlash zo'rlik bilan amalga oshirildi. Ikkinchidan «xotin-qizlar ozodligi» uchun kurash baho-nasida islom diniga qarshi kurash avj oldirildi. Chunki «xotin-qizlar ozodligi»ning asosiy dushmanlari qilib islom ruhoniylari ko'rsatildi.

Sovet hukumati va komfirqa «Hujum» kompaniyasini o'tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: *Birinchi*dan, o'zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy axloqiy sharqona an'ana va qadriyatlarini g'orat qilish va ma'naviyatimizga zarba berish; *Ikkinchi*dan, «xotin-qizlarni ozod qilish», bahonasida sanoat korxonalari, kolhoz va sovxozlarda arzon garovda ishlaydigan qo'shimcha ishchi kuchlari sifatida ulardan foydalanish, amalda ularni sho'ro qullariga aylantirish edi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning g'oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o'rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi. Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'lim-tarbiya ishlari, madaniy-oqartuv muassasalari urushdan keyingi-yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970-yili respublikada 2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirib ko'rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko'ra qoniqarsiz bo'lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa, qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Qanday bo'lmasin bu muassasalar marksizm-leninizm soxta g'oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotini tashviqot-targ'ibot qilishning quroli bo'lib xizmat qildi.

Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959-yildan 8 yillik, 1970-yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlanadi. 1980-yillarda o'rta va oliy ta'lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990-yil O'zbekistonda maktablar soni 9.000 ga yetdi, lekin ulardan 1.700 tasi vayrona ahvolda bo'lib, kapital ta'mirlashni talab qilar edi. 1978–1979-o'quv yilida respublikada 43 ta oliy o'quv yurti bo'lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlarida 26.000 talabalar o'qidi. Respublika Fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining qatori kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar.

Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10.000 kishiga hisoblaganda O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham kadrlar tayyorlash tizimida qo'pol nuqsonlar bor edi. Oliy o'quv yurtlariga viloyatlardan qat'iyan reja asosida qabul qilish: qanday o'qimasin, ularni bitirtirib chiqarish natijasida ko'pincha malakasi yetarli bo'lmagan mutaxassislarga diplom berishga to'g'ri keldi.

Ta'lim-tarbiya, ilmiy-tadqiqot ishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lmasin, ular Markazga qaramligi sababli o'zlarining ish faoliyatida kompartiya mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi. O'tmishda dunyoga mashhur

bo'lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz nomi esga tilga ham olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o'qitilmadi. Chunki, maktab, oliy ta'lim tizimining asl maqsadi O'zbekiston misolida butun jahonga sovet davlati milliy siyosatining tantanasini ko'rsatishdan boshqa hech narsa emas edi. Bu tizim respublikaning Markazga qaramligini yana ham kuchaytirdi.

Markazning baynalmilalchilik siyosati aslida mamlakatda istiqomat qiluvchi 120 dan ortiq millatlar va elatlardan yagona sovet xalqini shakllantirish siyosatini ro'yobga chiqarish uchun jadal ishlarni olib bordi. Shu maqsadda rus tilini hayotga kiritish faollashdi. 1969-yildan boshlab O'zbekistonning barcha bolalar bog'chalarida rus tilini o'rgatish boshlandiki, butun harakat yagona baynalmilal til yaratishga qaratildi. Bunday siyosatning oqibatida o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni, milliy, diniy qadriyatlari yo'qola bordi.

Sovet hukumati dastlabki kunlardan boshlab dinga, diniy tashkilotlarga qarshi keng miqyosda kurash olib borib, ateistik jamiyat qurish tomon yo'l tutgan edi. Masjid va madrasalarni yopib, ularning binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanildi. Navro'z kabi umumxalq bayrami, diniy marosimlar bekor qilindi. Haj safariga boradigan musulmonlarning soni har-yili butun O'zbekistonda 2–3 kishidan oshmasdi. Ruhoniylarning ko'pchiligi har xil bahonalar bilan qamoqqa olindi, surgun qilindilar. Din va diniy tashkilotlarni ta'qib qilib, dindorlarga nisbatan ko'r-ko'rona munosabat qanchalik faol olib borilmasin, ularning e'tiqodini deyarli o'zgartira olmadi.

XX asrning 20–30-yillar *o'zbek adabiyoti va san'atida* izlanishlar, uyg'onish va yo'qotish yillari bo'ldi. 20-yillarda ma'rifatchilik harakatining samarali-yillari bo'lib, A. Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Botu, Elbek, S. Ayniy, so'ngroq yangi yosh ijodkorlar Oybek, G'. G'ulom, H. Olimjon, A. Qahhor kabi o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari faoliyat ko'rsatdi. 50–80-yillarda adabiyotda roman va povest janrlari rivojlandi. Urush voqealari, mehnatkashlarning front orqasidagi mehnati Oybekning «Nur qidirib» va «Quyosh qoraymas», Sh.Rashidovning «Qudratli to'lqin», Shuhratning «Shinelli yillar», Said Ahmadning «Ufq», O. Yoqubovning «El boshiga ish tushsa», H. G'ulomning «Toshkentliklar» romanlarida aks ettirildi.

XX asrning 50–80-yillarida O'zbekistonda *teatr va musiqa san'ati* bir muncha o'sdi. Hamza nomidagi teatr jamoasi Shekspirning «Otello» va «Yuliy Sezar», Uyg'unning «Navbahor», Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana», N. Hikmatning «Sevgi afsonasi», Uyg'un va I. Sultonning «Alisher Navoiy» asarlarini sahnalashtirdi. O'zbek davlat filarmoniyasining musiqiy jamoalari samarali faoliyat

ko'rsatdi. Faqat T. Jalilov nomidagi O'zbek davlat orkestri repertuaridan 1300 ga yaqin asarlar o'rin oldi. «Lazgi», «Shodlik», «Go'zal» xoreografik ansambllari ham o'zbek va boshqa qardosh xalqlar ashula va raqslarini namoyish etdilar. «Bahor» xalq raqs ansambli, «Yalla» vokal cholg'u ansambllari jamoalarining konsertlari xalqqa manzur bo'ldi.

XX asrning 30-yillarida sahna san'atida *opera va balet sohasida* dastlabki yutuqlarga erishildi. Kino san'ati ham qaror topdi. 1946–1985-yillar O'zbekiston kino san'atining yuksalish yillari bo'ldi. N. G'aniyev yaratgan «Tohir va Zuhra» (1945), «Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari», «Farg'ona qizi» kabi kinofilmlar xalq olqishiga sazovor bo'ldi. Ayni shu davrda adabiyot va san'atda sotsialistik realizm deb atalmish yo'nalish hukmron bo'la boshladi va respublikada madaniy hayot kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi.

Urushdan keyingi 50–60-yillarda respublika ijodiy ziyolilarining yangi avlodi shakllandi. Shaxsga sig'inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan ilqlik shamoli bilan badiiy adabiyotda ko'pgina salmoqli asarlar yaratildi, bir qancha yangi o'zbek teatr va konsert san'atining dong'ini taratgan jamoalar tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarni kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. Chirib borayotgan sotsializm g'oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar yorug'lik ko'rmaydigan bo'ldi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g'oyalari va amaliyotining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi.

Sovet hukumati tomonidan kishilar onggiga majburan singdirilgan kommunistik mafkura odamlarni ma'naviy qashshoqlikka olib keldi. «Ijtimoiy tenglik» to'g'risidagi sotsializm g'oyasi kishilarni ishyoqmas, boqimanda qilgan bo'lsa, «davlat mulki», «umumxalq mulki» degan aqidasi insonni mulkdorlik, egalik tuyg'ularidan begona qildi. «Davlat mulkiga» «egasiz mulk» deb qarash natijasida tashmachilik ommaviy tus oldi.

O'zbek xalqi uchun eng dahshatlisi milliy, diniy, tarixiy qadriyatlardan judo bo'lganligida edi. «Yagona sovet xalqi», «internatsional til» to'g'risidagi uydirma nazariyalar adabiyot va san'atdagi «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» asarlarning yaratilishi xalqimizni azaliy qadriyatlaridan mahrum etdi.

**5. Ekologik muammolar. Orol fojeasi.** Sovetlar hukumatining O'zbekistonda 70 yildan ko'proq olib borgan mustamlakachilik siyosati, uning O'zbekiston va O'rta Osiyo mintaqasidagi boshqa respublikalarning tabiiy xomashyo resurslaridan o'ylamay-netmay foydalanishi, ishlab chiqarishning ekstensiv yo'ldan

rivojlantirilishi, paxta yakkahokimligining izchillik bilan joriy etilishi, turli xildagi kimyoviy zaharli moddalarning ishlab chiqarilishi va ularning qishloq xo'jaligida haddan ziyod ishlatilishi bu yerda ko'p asrlar mobaynida vujudga kelgan va mavjud bo'lgan tabiiy muvozanatni izdan chiqardi. Mamlakatimizda ayniqsa, 80-yillarda halokatli tus olgan juda murakkab ekologik muammolarni vujudga keltirdi, shular sababli Orol muammosi halokatli tus oldi.

Urbanizatsiya jarayoni kuchayib sug'orma qishloq xo'jalik ekinlari maydonlari kengaydi, kommunikatsiyalar o'tkazildi, o'rmonlar kesib yuborildi, suv resurslaridan oqilona foydalanilmadi, yerosti qazilma boyliklari ochiq usulda qazib olindi. Bu ishlar amalda tabiatga nisbatan shafqatsizlik, zug'um edi. Uzbekiston shaharlarining deyarli hammasida havoning ifloslanish darajasi sanitariya talablari darajasidan ancha oshib ketgan edi. Bu ayniqsa O'zbekistonning sanoat markazlarida xavfli tus oldi. 1990 yilda respublika aholisining har biriga hisoblaganda zaharli moddalar chiqiti 203 km ni tashkil etdi. Ular tarkibida 100 xildan ortiq zaharli moddalar mavjud edi.

Zaharlanish faqat shaharlargagina xos bo'lmasdan O'zbekiston qishloqlarida ham xavfli tus oldi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan zaharli ximikatlarning tabiatni xarob qildi. Ahvol shu darajada fojeali tus oldiki, g'o'zalarni defoliatsiya qilish bahonasida ming-ming tonnalab zaharli ximikatlarning odamlar boshi uzra samolyotlarda sepildi. Bu har qanday xavf-xatardan ham dahshatliroq fojia edi.

O'zbekiston ekologiyasi buzilishining *ikkinchi sababi* – suvga bo'lgan munosabat bilan bog'likdir. Sovetlar hukumatining Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari suvlaridan hisob-kitobsiz foydalanishi oxir-oqibatda Orol fojeasini keltirib chiqardi.

**Orol dengizi** – O'rta Osiyodagi eng katta berk sho'r ko'l bo'lib, uning paydo bo'lishi – Amudaryo va Sirdaryo tufayli bundan 2–2,5 mln. yil muqaddam ro'y bergan. Ma'muriy jihatdan Orol dengizning yarmidan ko'proq janubiy-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston), shimoliy-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan.

1960-yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryo havzalarida yangi yerlarni o'zlashtirish sohasida keng miqyosli ishlar boshlab yuborildi, bular uchun daryo suvini qo'shimcha ravishda tortib olish talab qilinardi. Natijada, Qoraqalpog'istonda paxtachilik bilan bir qatorda sholichilik ham yuksak sur'atlar bilan rivojlandi. Biroq yerlarni o'zlashtirish ilmiy asosda olib borilmadi. Dehqonchilikni rivojlantirish ham ekstensiv usulda amalga oshirilganligi sababli, suv resurslarining asossiz ravishda



haddan ortiq darajada isrof qilinishiga olib keldi. Orolga esa uning «ulushi» berib turilmadi, bu esa dengizning qurib borishiga sabab bo'ldi. 80-yillar o'rtalariga kelib Orol dengizining sathi 13,8 metr pasayib ketdi, suv hajmi 390 mln kub. metr, maydoni 40 ming kv m kamaydi. Natijada Orol va Orolbo'yi muammosi jiddiy ravishda paydo bo'ldi. Havoga, yerga sochilgan tonnalab qum-tuzlar Orolbo'yi atrofida ham jonli, ham jonsiz tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Aholi dengiz atrofidagi o'z makonlarini tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Endilikda yuzaga kelgan ana shu ekologik va iqtisodiy muammolar faqat Orolbo'yi uchun emas, balki butun Markaziy Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlar uchun ham yaqqol ko'zga tashlanib turgan muammo bo'lib qoldi.

### ***Orol dengizining qurib borishi bir qator salbiy hodisalarga olib keldi:***

Birinchidan, suvdan foydalanishda va yerlarni o'zlashtirishda ilmiy asoslarning mavjud emasligi, suvning talon-toroj qilinishiga, qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlanishi ekin maydonlarining sho'rlanishiga, bu maydonlar bir qismining qishloq xo'jalik oborotidan butunlay tushib qolishiga sabab bo'ldi. Masalan, O'zbekistondagi butun ekin maydonlarining 60 foizi, Turkmanistondagi ekin maydonlarining 80 foizi o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan.

Ikkinchidan, dengiz suvining shiddat bilan pasayib borishi natijasida 3 mln ga dan ortiq qurigan dengiz tubini qumli sahroga aylantirdi. Kuchli bo'ronlar paydo bo'lib, tuzli qumlarni 4 km yuqoriga va 200 km kenglikka tarqata boshladi. Bunday bo'ronlar har yili 6–9 marta, keyingi vaqtlarda esa 15 martagacha bo'lmoqda. Janubiy Orolbo'yidagi tuzli changlar esa 500 km gacha bo'lgan masofaga yoyilmoqda. Bu tuzli chang bo'ronlari sharqqa tomon 800 km gacha, ya'ni deyarli Toshkent shahrigacha yetib kelishi mumkin.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borishi sahro maydonlarining ortib, to'qayzorlarning, ko'pgina o'simlik turlari, qushlar va hayvonlarning qirilib ketishiga sabab bo'ldi.

To'rtinchidan, dengiz suvi sathining muntazam pasayib borishi mintaqaning iqlim sharoitlarining o'zgarishiga olib keldi. Orolbo'yining iqlimi yanada keskin kontinentalroq bo'lib qoldi. Sovuq bo'lmaydigan kunlar soni ortib ketdi, yozda esa havo harorati 2 daraja issiqroq bo'lib, qishda 2 daraja sovuqroq bo'lib turibdi, atmosferaning qurg'oq bo'lishi kuchaydi. Bahor cho'zilib ketadigan bo'lib qoldi. Natijada keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda paxtaning pishishi qiyinlashdi.

Beshinchidan, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida daryolarga foydalanilgan kollektor suvlarining tashlanishi natijasida suvning tarkibi yomonlashib bordi.

Oltinchidan, yerlarning kuchli sho'rlanishi tarixiy-madaniy muhitga va uning tarkibiy qismi bo'lgan madaniyat yodgorliklariga tuzatib bo'lmaz darajada zarar yetkazmoqda. Masalan, Xorazmshohlarning qadimgi qarorgohi bo'lgan Tuproqqal'a (milodiy I–IV asrlar) ham halokat yoqasida turibdi. Xuddi shunday ahvolni Xorazm va Toshhovuz viloyatlarida ham ko'rish mumkin.

Ekologik muammoning *uchinchi sababi* – tuproq tarkibining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda 1990-yilga kelib o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar 853 ming gektarni tashkil etdi. Tuproq tarkibining o'zgarishiga hisob-kitobsiz ishlatilgan mineral o'g'itlarning halokatli ta'siri ham katta bo'ldi. Chunki mutaxassis olimlarning xulosalariga ko'ra fosfor o'g'iti bilan birgalikda tuproqqa fluor, uran, toriy, og'ir metall tuzlar ham o'tar ekan.

Ekologiya buzilishining *to'rtinchi sababi*, bu respublika hayvonot va o'simlik olamining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda yovvoyi hayvonlarning – 99, parrandalarning – 410, baliqlarning – 79 turi mavjud. 1990-yilga kelib 32 hayvon, 31 parranda, 5 baliq turi respublika «Qizil kitobi»ga kiritilgan. «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklarning soni esa 163 taga yetdi.

Mamlakatdagi ekologik muammolar aholi o'rtasida har xil kasalliklarning ko'payishiga olib keldi va katta fojealarga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham Orol dengizi atrofidagi muammolar zudlik bilan qarorlar qabul qilishni taqozo qiladi. Bu sohadagi loqaydlik Orolbo'yi davlatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Shu sababli Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin Orol dengizi hududlari bo'yicha umumiy davlatlararo dasturini qabul qilib, uni hayotga tatbiq qilish uchun harakat qilmoqdalar. Bu dasturning birinchi sharti davlatlararo kooperatsiyaning huquqiy asoslarini tasdiqlash edi.

Shu maqsadda 1993-yil 30-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O'rda shahrida (Qozog'iston) bo'lib o'tgan anjumanida qatnashdi. Mazkur uchrashuvda Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal yetishga umumiy yondashuvlar ishlab chiqildi. Shu asosda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston



Orol dengizining hozirgi ko'rinishi

va O'zbekiston davlat boshliqlari tomonidan Orol basseyni bo'yicha tashkil qilingan kengashning ustavi (MCAM – межгосударственный совет Аральского моря) qabul qilindi. Kengashning 25 ta a'zosi bor, ya'ni kengashga har bir davlatdan 5 kishi a'zo bo'lib kirgan. Bu kengash bir yilda ikki marta yig'iladi. Kengashning xalqaro Orol fondi va Ijrqo'mi ham tuzildi.

1993-yilning mayida Toshkentda Orol va Orolbo'yi muammolari bo'yicha dastlabki Xalqaro tadqiqotlar loyihasi imzolandi. 1994-yil 11-yanvarda Nukusda Orol dengizi muammolari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Rossiya Federatsiyasi hukumati delegatsiyasi ishtirokida ikkinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Orol muammosiga bag'ishlangan loyiha ma'qullandi, bu loyiha Orol dengizi degan nom oldi. 1997-yil 18-iyunda esa Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tuzildi.

O'zbekiston hukumati ekologik halokat oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Orol dengizi bo'yidagi mintaqalarda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarni yetishtirishga kirishgan. Hozirda dengiz atrofida 30 mingga yaqin ana shunday o'simlik ekilgani xabar qilinmoqda.

**6. Sobiq Ittifoqda turg'unlik holati. XX asrning 80–90-yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti.** XX asrning 70–80-yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati tobora pasayib, sarf-xarajatlari ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi.

Sobiq Ittifoqda yuzaga kelgan *turg'unlik holati* sabablariga quyidagilarni aytish mumkin. Xususan, XX asr ikkinchi yarmidan dunyoda ilmiy-texnikaviy yangiliklar sodir bo'ldi. Bundan jahonning taraqqiy topgan davlatlari samarali foydalana boshladi. Ishlab chiqarishga hisob-kitoblar, yechimlar, nazorat va boshqarish vazifalarini bajaradigan elektron-hisoblash apparatlari, axborot texnikasi, robotlar kirib keldi va keng qo'llanila boshlandi. Odamlar bajarib kelgan oddiy texnik, mexanik, og'ir jismoniy ishlarni texnika vositalari bajaradigan bo'ldi. Fan ishlab chiqarish kuchiga aylandi. Natijada ilg'or mamlakatlarda ishlab chiqarishning samarasi oshib, intensiv taraqqiyot yo'liga kirdi. Moddiy ishlab chiqarishda ishlovchilar soni qisqarib, xizmat ko'rsatish sohasida, tibbiyot, ta'lim, ilmiy faoliyatda band bo'lganlar soni oshib bordi. Axborot texnikasi tibbiyot, fan, ta'lim va boshqa xizmat ko'rsatish sohaslarida keng qo'llanila bordi. Inson texnik, mexanik va og'ir jismoniy ishlarni bajarishdan ozod bo'lib, o'zini mazmunli, ijodiy ishlarga bag'ishladi. Pirovardida turmush saviyasi tobora yaxshilanib bordi.

Bu davrda sovet davlatida esa ilmiy-texnika inqilobidan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmadi. Mamlakat katta tabiiy resurslarga ega bo'lsa-da, xo'jaliklar ularning yetishmovchiligiga duch keldi. Ko'pgina mamlakatlar fan-texnika inqilobi tufayli xalq turmushida jiddiy ijobiy burilishga erishgan bir paytda SSSR bu jarayondan orqada qolib ketdi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi eskirgan, mahsulotlarning sifati past, ular sotilmasdan omborlarda to'planib qolayotgan edi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlik va uning mafkuralashtirilishi iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi urinishlarni yo'qqa chiqarar edi. Ijtimoiy ehtiyojlarga mablag' ajratishda qoldiq prinsipi va taqsimotda tekislik hukmron edi. Bular aholining mehnatga qiziqishi va faolligini susaytirdi, boqimandalik, ichkilikbozlik, gijohvandlik, chayqovchilik, poraxo'rlik kabi yaramas illatlarni keltirib chiqardi.

Buyruqbozlik boshqaruv usuli, mamlakatda keng tarqalgan qog'ozbozlik, majlisbozlik illatlari iqtisodiyotning o'z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda edi. Odamlar mulkdan begonalashtirilgan, shu tufayli loqaydlik yuzaga keldi.

#### «Qayta qurish» siyosati va uning barbod bo'lishi

«Qayta qurish» – XX asrning 80-yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha. Qayta qurish – Moskvada KPSS Markaziy Komitetining 1985-yil 23-aprelda bo'lib o'tgan plenumi va unda KPSS MK Bosh kotibi Mixail Sergeyevich Gorbachyov «KPSSning navbatdagi XXVII syezdini chaqirish, unga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq vazifalar to'g'risida» ma'ruza bilan bevosita bog'liqdir. Bu siyosat SSSRda totalitar tizimni islohot yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakatni anglatgan. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalaridagi muammolarni «qayta qurish» yo'li bilan hal etishdan iborat bo'lgan.

Qayta qurish 1985–1990-yillarni o'z ichiga olib, ikki bosqichga bo'linadi. *Birinchi bosqich (1985–1987)* ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlandi. Ushbu bosqichda asosiy vazifalar ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirishga qaratilgan edi.



Gorbachyov M.S.  
(1931-yil 2-mart)

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirildi. Biroq bunday jarayonning rivoji ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishni talab qildi. Shuning uchun 1986-yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berildi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi. Natijada jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida ma'lum o'zgarishlar ro'y bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari qadam tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni yuz berdi. Ammo tub o'zgarishlarni, barcha sohalarida haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. 1986-yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987-yil yanvaridan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lubiyat bilan yakun topdi.

*1987–1990-yillar esa qayta qurishning ikkinchi bosqichi* bo'lib, endilikda jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Jumldan, bu davrda sovet jamiyatini demokratlashtirish masalasi asosiy vazifa deb ta'kidlandi. Demokratlashtirish jarayoni jamiyatni ma'lum darajada uyg'otdi, ijtimoiy faollik ortdi. Saylovlarning muqobil nomzodlar ishtirokida, alternativ asosda olib borilishi ijobiy holat edi, bundan tashqari SSSRda saylov tizimini o'zgartirish to'g'risidagi Qonun (1988-yil dekabri) ning qabul qilinishi ham jamiyat a'zolari ijtimoiy faolligini oshirishda ma'lum ahamiyat kasb etdi. Biroq Ittifoqda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo'lmadi. Bu ikki sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, partiya rahbarlari bundan manfaatdor emasdilar.

Xullas, M.S. Gorbachyov boshchiligida KPSS rahbariyatining bir qismi tomonidan boshlangan qayta qurish siyosati mamlakat hayoti va umuman jahonda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi (oshkoralik, siyosiy plyuralizm, «sovuq urush»ning tugashi va h.k.). Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchiliklar natijasida 80-yillarning oxiri – 90-yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'hronlar kuchayib ketdi. Qayta qurish sobiq SSSRda to'planib qolgan muammolarni to'la hal yetishga xizmat qilmadi. Mustaqillik, demokratiya va erkinlik g'oyalari to'g'ri kelmaganligi tufayli ham amaliy samara bermadi. Oxir-oqibatda KPSS ning halokati va SSSR ning tugashiga muhim turki bo'ldi.



**«Paxta ishi» va uning  
oqibatlari**

XX asrning 80–90-yillarda sovet hokimiyati tomonidan mavjud turg'unlik holatidan chiqish, shuningdek, sobiq ittifoqdosh respublikalarning mustaqillik yo'lidagi harakatlarini bartaraf etish, sobiq SSSRda yuzaga kelgan inqirozli harakatlar sabablarini ittifoqdosh respublikalardan qidirish, ularni ayblash uchun turli nayranglar, «siyosiy o'yinlar» o'ylab chiqdilar.

1983-yilning oxirida O'zbekistonda juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlar bo'yicha maxsus 12 kishilik tergovchilar guruhi tuzilib, O'zSSRga yuboriladi. Ular O'zSSRda paxta tayyorlash va uni qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlardagi «qo'shib yozish», «o'g'irlik», «ko'zbo'yamachilik», «poraxo'rlik»ni (aslida bunday moliyaviy jinoyatlar va qing'irliklar butun SSSR hududidagi iqtisodiyotda chuqur ildiz otib kelgan edi) tergov qilish bilan shug'ullandilar. Buning natijasida «paxta ishi» paydo bo'ldi. Tergovlar jarayonida Moskvadan yuborilgan T.X. Gdlyan va N.V. Ivanov guruhining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60%, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45%, paxtachilik brigada boshliqlarining 35%, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi.

O'zSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MK XVI plenumi mash'um rol o'ynagan. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zSSRda o'zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. Markazning tazyiqi ostida 1984-yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. 1984–1987-yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy-xo'jalik organlariga ishga yuborilgan. Xususan, 1984–1989-yillarda O'zSSR IIVga sobiq sovetlar mamlakatidan hammasi bo'lib 150 ta xodim kelgan. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984-yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta, 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta.

Respublikada kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi. Markaziy matbuotda e'lon qilingan maqolalarda o'zbek xalqi badnom etilib, «paxta ishi»ga ataylab siyosiy tus berildi va u keyinroq atay «o'zbek ishi»ga aylantirilib, xalqimizning nafsoniyatini toptash yo'liga o'tildi. 1983–1990-yillarda O'zSSRda



**Sh.R. Rashidov**  
(1917.6.11–1983.31.10)

«paxta ishi» degan uydirma bo'yicha jami 40 ming kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolatorlarida prokuror sanksiyasiz o'tirdi, 5 ming kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi.

Bu davrda Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari vafot etib ketgan partiya va davlat arboblari yuklanib, 80-yillar qatag'onida nohaq qoralandi. Eng avvalo qatag'on qilichi Sharof Rashidovga qarshi ko'tarilib, uning nomi ham badnom qilindi. 1959–1983-yillarda Sh.R. Rashidov O'zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi bo'lib ishlagan va rahbarlik yillarda qator bunyodkorlik ishlari bilan birga qishloq xo'jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Albatta bunday holatlarni uning faoliyati natijasida yuzaga kelgan deb bo'lmaydi, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

«Paxta ishi» oqibatida butun mamlakatimizda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi. O'zbekiston fuqarolari o'z haq-huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar. 1986–1987-yillarda faqat O'zbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi. 20 mingdan ortiq kishi Markazqo'm kotiblari va bo'lim boshliqlari qabulida bo'lib, o'zlarining talablarini bildirdilar.

Norozilik ayniqsa xotin-qizlar orasida ko'paydi. 1986–1987-yillarda respublikada 270 ayol o'zini o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadr-qiyamatning toptalashi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan ko'rsatilgan norozilik edi. Haqiqat, adolat keyinroq Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi afv etildi.

#### **Farg'na fojiasi**

Qayta qurish millatlararo munosabatlarning keskinlashuvida ham o'z aksini topdi. Uzoq yillar davomida to'planib, shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohadagi muammolarning millatlararo munosabatlarga ta'sir etmasligi mumkin emas edi.

1989-yil may-iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda

g'oyat darajada katta shov-shuvga sabab bo'ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Ma'lumki, ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo'lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan, buning oqibatida esa ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolar yuzaga kelgan edi. Bu muammoga sovet davlati o'z vaqtida e'tibor bermadi. Aksincha, «rivojlangan sotsializm» davriga kelib SSSRda «milliy masala butunlay hal qilindi» deb «tantana» qilindi.

Ammo 1989-yil 24-mayda Quvasoy shahrida yoshlar o'rtasida (O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi Rafiq Nishonovning ta'rificha, «bir banka qulupnay» uchun) bo'lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmadi. Natijada, oddiy mojaro Farg'ona, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkentda aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga, millatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'ldi.

Farg'ona fojialari haqida respublika matbuotida va boshqa ommaviy axborot vositalarida to'g'ri ma'lumot berilmaganligi, bu mojarolarning kelib chiqishida asosan «mahalliy aholi aybdor» deb bir tomonlama va noxolis baholanishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. 11-iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan farg'onalik yoshlardan 100 ga yaqini «qizil maydonda» namoyish uyushtirib, Farg'ona voqealari haqida «noto'g'ri» ma'lumot berishlarga qarshi fikr bildirdilar va boshqa bir qator talablar qo'ydilar. Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga «ko'nikmagan» mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989-yil 8-iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi, natijada 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo'ldi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilindi. Umuman 3–12-iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan.

Islom Karimov Respublika rahbari sifatida Farg'ona voqealarini o'z ish kabinetida o'tirib kuzatish, tahlil qilish, tegishli chora ko'rishni o'ziga ep ko'rmadi. Yurtboshi 25-iyun kuniyoq o't ichida qolgan Farg'onaga yo'l oldi. Katta qalb sohibi

va jasoratli bu inson lovullab yonayotgan uylar, tahluka va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib kelgan. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashgan. I. Karimov insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan oh-u nolalarini tinglaydi, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek his etadi, ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartib-intizomni tiklash, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, aniq chora-tadbir ko'rishga kirishadi. O'sha tahlikali kunlarda Farg'ona qonli fojiasi hisobidan obro' topish, o'zining g'arazli manfaatlariga erishishga, xalqni badnom qilishga urungan kimsalar talaygina edi. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qiladi, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi. Yurtboshi anjumanlarda, matbuotdagi chiqishlarida Farg'ona fojiasi bo'yicha qat'iy pozisiyada mustahkam turgan. U otashin chiqishlaridan birida shunday ta'kidlagan: «O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmaydi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan»<sup>1</sup>.

Farg'ona fojialariga taalluqli ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mesxeti turklari uchun bu mojarro mustabid tuzum aybi bilan urush davrida majburan tashlab chiqilgan ona vatanlariga qaytib borishlari uchun bahona sifatida kerak bo'lgan. Mahalliy aholi esa bu mojarroga tabiiy ravishda qo'shilib ketgan. Voqealarning keng miqyos va fojiali tus olganligi sababli sovet va ma'muriy organlar mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning Leninobod viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga shoshilinch ko'chiriladi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmas edi. Shuning uchun 16.282 kishi Farg'ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko'chirib olib borib joylashtirildi.

Farg'onada uyushtirilgan siyosiy ig'vogarlik Tbilisi, Tog'li Qorabog', Bokuda tashkil etilgan ig'vogarliklardan biri edi. Keyinchalik 1990-yil fevral-mart oylarida

<sup>1</sup> I. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. «O'zbekiston», Toshkent. 2011, 9–10-betlar.

Bo'ka va Parkent, 1990-yil iyunda O'sh va O'zganda ham shunday urinishlar bo'ldi. Yovuz kuchlar o'z maqsadiga erisha olmadilar. O'zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

### 15 -MAVZU: O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati

#### *Reja:*

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi.
2. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi.
3. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

*Tayanch so'z va iboralar:* Mustaqillik deklaratsiyasi. Prezident saylovlari. Mustaqillik. Davlat ramzlari. O'zbekiston Konstitutsiyasi. «O'zbek modeli».

#### *Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. *Каримов И.А.* Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
3. *Каримов И.А.* Ўзбекистон: Миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
4. *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; – 2012.
7. *Бобобеков Ҳ.* Фарғона фожиалари кундалиги // «Фан ва турмуш». 1990, № 4
8. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Р. Рўзиев ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2006.
9. *Салимов О., Усмонов Қ., Ғаниев Д.* Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йили. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 9–20, 40–46.
10. *Эшов Б.* Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 516–546.
12. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 7–75.
13. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 529–554.



14. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. –T.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – B. 374–400.
15. *Shamsutdinov R.* va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010. – B. 440–472.
16. Халқ сўзи. 2013 йил 14 июнь.
17. <http://www.gov.uz>
18. <http://www.press-service.uz>

### **1. O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi.**

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq ittifoqdagi o'zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi. Bu o'rinda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 23-iyundagi plenumi va unda Islom Karimovning birinchi kotib etib saylanishi juda katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu anjumanda I. Karimov O'zbekistonning sobiq Ittifoqda tutgan o'rni va rolini aniq-ravshan belgilab berdi, madaniy merosni va tarix haqiqatini tiklash, milliy urf-odatlar va an'analarni rivojlantirish obyektiv zarurat ekanligini isbotladi.

O'zbekistonning yangi hukumati Markaz bilan bo'ladigan munosabatlarni o'zgartirmay turib, ijobiy siljishlarga erishib bo'lmashligini va buning uchun respublikaning to'liq mustaqilligini ta'minlash zarurligini tushunib yetdi. I.A. Karimovning tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan 1989-yil 15-avgustda «Kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu g'oya ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo'lsa ham, I.A. Karimov o'z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha yilning 4 oyida aholi qo'shimcha 90,7 ming gektar yer oldi. «G'oyat og'ir ayni o'sha sharoitda aholiga qo'shimcha tomorqa yerlari ajratish haqidagi Farmon va qarorlar qabul qilingani shu asosda, O'zbekiston bo'yicha 2,5 million oilaga hammasi bo'lib 700 ming gektar sug'oriladigan yer tomorqa sifatida xususiy mulk qilib berilgani qishloqlarimizda ijtimoiy muammolarni yechish, aytish mumkinki, jar yoqasida turgan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishda ulkan tarixiy qadam bo'lgan...»<sup>1</sup> Ana shunday o'zgarishlar tufayli odamlar dunyoda adolat va haqiqat borligiga, mustaqillik har qaysi oila, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan bebaho ne'mat ekaniga chin dildan ishonch hosil qilgan edilar.

XX asr 80-yillarining o'rtalariga kelib SSSRning parchalanishi real obyektiv haqiqatga aylanib qoldi. 1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Oliy Sovetining

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 14-iyun.

XI sessiyasi «O'zbekiston SSRning davlat tili haqida»gi Qonunini qabul qildi. O'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Ish yuritish sekin-asta o'zbek tiliga o'tkazila boshlandi, uni o'rganishni yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ayni vaqtda rus tilini va respublikada yashovchi boshqa xalqlarning tillarini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim edi, tilni o'rganishning ixtiyoriyligi va uni tanlash huquqi qonunda belgilab qo'yildi. Bu qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqi, shu xalq milliy o'z-o'zini anglashining o'sishi, respublikada millatlararo hamjihatlikning saqlanib qolishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam qo'yildi.

1990-yil 23-martda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumida respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. Unda O'zbekistonda hokimiyatning *Prezidentlik boshqaruvi* shakliga o'tishi respublika suvereniteti va davlatchiligida mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta'kidlandi.

1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq 1-sessiyasi SSSR doirasida birinchi bo'lgan siyosiy hujjatni – «*O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi ta'sis etish to'g'risida*»gi qarorni qabul qildi va O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa, O'zbekiston – SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib o'zining milliy-huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri bu – 1990-yil 20-iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan 12 moddadan iborat bo'lgan «*Mustaqillik Deklaratsiyasi*»ning qabul qilinishi edi. Mazkur hujjat O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta'minladi. Shu bilan birga, «Mustaqillik Deklaratsiyasi» O'zbekistonning 1991-yil 31-avgustga qadar mavjud bo'lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta'minladi, barcha sohada mustaqil siyosat olib borish imkonini berdi. Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi. Deklaratsiyaning



**Karimov Islom  
Abdug'aniyevich**

qabul qilinishi bilan O'zbekistonda respublikaning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshlandi.

Shunday bir tarixiy sharoitda sobiq SSSRdagi siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. XX asrning 90-yillari boshlarida Ittifoq tarkibidagi ko'pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o'zgartirishni talab qila boshladi. 1990-yil bahorida Sovet Sotsialistik Respublikalari hisoblangan Boltiqbo'yidagi Litva (11-mart), Latviya (4-mayda), Estoniya (8-may), keyinroq Gruziya (oktabr) va Ozarbayjon (1991-yil fevral) Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e'lon qildi. Bu holat SSSR ning davlat butunligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Moskva 1990-yil kuzida Markaz bilan respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni yangilash yuzasidan muzokaralar jarayonini boshlab yubordi. Shu asosda markaziy hokimiyat jamoatchilikning talablari ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zaruratini e'tirof yetishga majbur bo'ldi.

SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991-yil 17-mart kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 1991-yil 20-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashning Rayosati referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi.

Qo'shimcha byulletenga *«Siz O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?»* degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93% bu savolga *«Ha»* deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida federativ ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar.

1991-yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo'ldi.

1991-yilga kelib O'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlarini tayyorlash va qabul qilish borasida dadil ishlar qilina boshlandi. 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi *«O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida»* maxsus qaror qabul qildi.

O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq

qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaati ifoda etilganligi bilan ajralib tura boshladi. Xususan, 1991-yilning 22-iyulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining *«O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish»* to'g'risida qabul qilgan qarori ham O'zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimov, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar tashlaganligining isbotidir.

**2. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi.** 1991-yilning aprel oyiga kelib, Markaz o'zining ta'sir doirasini saqlab qolish maqsadida mustaqil davlatlar ittifoqini tuzishga intildi. 1991-yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S. Gorbachevning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan *«Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf yetishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida»* qo'shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat *«9 + 1»* (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning yon berganini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi.

1991-yil 3-iyunda Novo-Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda Mustaqil davlatlar ittifoqi (MDI) tuzish masalasi muhokama qilindi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin munozara bo'ldi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan *«Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma»* loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Sovetlariga muhokama uchun jo'natildi.

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Oliy Sovetida 1991-yil 14-iyunda muhokama qilindi. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga u Respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.

1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun Markaz vakillari va Respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, Respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan *«Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma»* loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda *«Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma»*ni imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M.S. Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi.

Biroq ittifoqning kompartiya va markaziy davlat apparatidagi bir necha nufuzli rahbarlar markazning yakkahokimligini cheklaydigan va kamida oltita respublikani Ittifoqdan chetda qoldiradigan bu shartnomaga qo'shila olmadi. Bu rahbarlar oliy hokimiyat mahkamalaridagi asosiy lavozimlarni egallab turar edi. Prezident M. Gorbachev dam olishga ketganidan foydalanib, ular 1991-yil 18-avgust kuni tayyorlangan va 19-avgustda matbuotda e'lon qilingan «Sovet rahbariyatining Bayonoti»da M.S. Gorbachevning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse-prezident G.I. Yanaevga o'tkazilganligi e'lon qilindi. Aslida esa Prezident M.S. Gorbachyov sog'-salomat edi, ammo o'zini himoya qila olmadi. Fitnachilar noqonuniy ravishda uni o'z vazifasidan chetlashtirdi va mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, 72 soat qamal qilib qo'ygan edi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun SSSRda Favqulodda holat davlat qo'mitasi (GKCHP) tuzildi.

1991-yil 18-avgustda mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatiga qarshi B.N. Yelsin boshchilik qildi. Uning farmoni bilan 1991-yil 22-avgustda KPSS faoliyati to'xtatildi, keyinchalik taqiqlab qo'yildi. Ammo KPSS Markaziy Qo'mitasi joylardagi partiya qo'mitalaridan to'ntarishni qo'llab-quvvatlashni talab qildi. Moskva va boshqa bir necha yirik shahar ko'chalariga qo'shinlar, shu jumladan tanklar kiritildi, deyarli barcha markaziy gazetalar taqiqlab qo'yildi, markaziy televideniyaning birinchi kanalidan boshqa barcha kanallari, deyarli barcha radiostansiyalar ishi to'xtatildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat aholisining ko'pchiligi Favqulodda holat davlat qo'mitasidan yuz o'girdi, armiya payt poylash pozitsiyasida turdi. 20-avgustdayoq qarshilik markaziga aylangan RSFSR Oliy Kengashi binosi atrofida barrikadalar paydo bo'ldi, ularda o'n minglab kishilar himoyada turdi. Harbiy bo'linmalarning bir qismi mudofaachilar tarafiga o'tdi. 21-avgustda fitnachilar mag'lubiyatga uchradi, 22-avgustda esa Favqulodda holat davlat qo'mitasi (GKCHP) a'zolari qamoqqa olindi. Shundan so'ng to'ntarishni qo'llab-quvvatlagan KPSS rahbariyati bu partiyaning obro'sini uzil-kesil yerga urdi. Favqulodda holat davlat qo'mitasining mag'lubiyatidan so'ng mamlakatda kommunizmga qarshi ommaviy namoyishlar bo'lib o'tdi. KPSSning faoliyati to'xtatib qo'yilgach, partiyaning qariyb 15 million a'zosidan birontasi bu qarorga qarshi norozilik bildirish uchun ko'chaga chiqmadi. Bu mazkur partiya 1991-yil yozidagi qiyofasida umri tugaganidan dalolat beruvchi ramziy holat edi.



Moskvada fojiali hodisalar ro'y bergan paytda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov rasmiy safar bilan Hindistonda edi. Prezidentimiz 1991-yil 19-avgustda safardan qaytib keldi va shu kuni kechqurun Toshkent shahrining faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtayi nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati Markazdan beriladigan qonunga xilof bo'lgan har qanday ko'rsatmalarni bajarishni man etdi. 20-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

1991-yil 21-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning Farmoni bilan Favqulodda holat davlat qo'mitasining O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

Islom Karimov Favqulodda holat Davlat Qo'mitasi faoliyatiga o'z munosabatini bildirmagan, qo'rqqoq va prinsipsiz mavqeda turgan KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosi va Kotibiyati yuz minglab kommunistlarning sha'ni va qadr-qimmatini zarba ostiga qo'rganini qoraladi. Buning ustiga respublika kommunistlarini chalg'itishga va davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlashga majbur qilishga urinish bo'lganini oshkora aytdi. I. Karimov bundan buyon KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining tarkibida qola olmasligi to'g'risida bayonot berdi. Mazkur bayonotni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi rayosati ma'qulladi.

O'zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi.

Sobiq Ittifoqning rasmiy jihatdan tugatilishida 1991-yil 8-dekabrda Belorussiyaning Belaya Veja Pushchasida Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari tomonidan imzolangan o'zaro bitim muhim ahamiyat kasb etdi. Bitimda 1922-yil 30 dekabrda tashkil topgan SSSR tugatilganligi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkil etilganligini rasman e'lon qildilar. 1991-yil 25-dekabrda SSSR

xalqaro huquq subyekti sifatida barham topdi va M.S. Gorbachyov Bosh kotib va Prezident lavozimlaridan iste'foga chiqdi.

**3. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.** Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi.

**O'zbekiston – mustaqil davlat** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda

Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va Markaziy nazorat qo'mitasining 28-avgustda bo'lgan qo'shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

Ana shunday vaziyatda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim. Unda *«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»* hamda *«O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»*gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'ngi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi.

Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng *«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»*gi qonunni qabul qildilar.

So'ngra *«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti»* qabul qilindi. Bayonotda bunday deyilgan edi: ...*«Mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi»*.

Oliy Kengash sessiyasi *«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»* qaror qabul qilindi. Mazkur qarorda:

1) Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin;

2) 1 sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

*«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»*gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lib, bu qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat ushbu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi. Qonunning birinchi moddasida: *«O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir»*, – deb qonunlashtirib quyildi.

Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mazkur Qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabrda bo'lib o'tgan VII sessiyasida qabul qilingan qarori bilan Konstitutsiyaviy Qonun maqomi berildi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. *«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»* 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalariga *«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»*gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin», – deb belgilab qo'yildi.

Shu tariqa, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqloq davri boshlandi. O'zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zlari uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

**Umumxalq referendumi** O'zbekiston erishgan istiqloolni mustahkamlash uchun, avvalo, xalqning fikrini bilish, mustaqillikka munosabatini aniqlash zarur edi. Shu maqsadda 1991-yilning 18-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasi *«O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida»* qaror qabul qildi. Qarorda quyidagilar belgilandi:

1. 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazilsin.

2. Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagi ta'rifda kiritilsin: *«O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?»*

Referendumga katta tayyorgarlik ko'rildi. Referendumni uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi, 13 okrug, 7 ming uchastka saylov komissiyalari tuzildi. 1991-yil 29-dekabr kuni bo'lib o'tgan referendumda 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1% qatnashdi. Ularning 98,2% referendumda qo'yilgan savolni ma'qullab ovoz berdi. Demak, O'zbekistonning Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma'qullandi. Shuni ta'kidlash lozimki, referendum butun respublika hududida qonun asosida tashkiliy jihatdan uyushqoqlik, fuqarolarning yuksak siyosiy faolligi bilan o'tdi. Buni referendumda AQSH, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan mustaqil kuzatuvchilar ham tasdiqladilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi,

**Islom Karimov –  
O'zbekistonning birinchi  
Prezidenti**

zamonaviy va samarali tizimi – Prezidentlik respublika boshqaruvi shakli rivojlantirishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18 noyabridagi VIII sessiyasida umumxalq referendumini o'tkazish qarori

bilan birga *«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»*gi Qonuni, shuningdek, *«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida»* qaror qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuniga belgilandi. Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, 13 ta okrug va qariyb 7 mingta uchastka saylov komissiyalari tuzildi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi I.A. Karimov va «Erk» Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

1991-yil 29-dekabrda bo'lib o'tgan saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini,

1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

1991-yil 30-dekabrda Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Shunday qilib mamlakatimizda birinchi marta yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan to'g'ridan to'g'ri umumiy va alternativ asosdagi saylovda I.A. Karimov 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 4-yanvarda bo'lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida Prezident Islom Karimov qasamyod qildi.

1995-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumini bo'lib o'tdi. Unda 11 mln. 245 028 kishi yoki ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 99,3% ishtirok etdi.

*«O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishga siz rozimisiz»* degan savolga 11 mln. 199 ming 415 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 99,6% ijobiy javob berdi.

Shunday qilib, mamlakat fuqarolarining mutlaq ko'pchiligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning vakolat muddatini 2000 yilgacha uzaytirishni ma'qulladilar va referendum natijalari Markaziy saylov komissiyasi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qarori bilan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 19–20-avgust kunlari bo'lib o'tgan XV sessiyasi I.A. Karimovning Prezidentlik vakolati muddati 1999-yil oxirlarida tugashini e'tiborga olib, 2000-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga qaror qildi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug'aniyevich Karimovni hamda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolovni Prezidentlikka nomzod etib ro'yxatga oldi, yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi.

2000-yil 9-yanvarda muqobillik va demokratik tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda ro'yxatga olingan saylovchilarning 95,10 foizi, 12 mln. 123 ming 199 saylovchi qatnashdi. Saylovda



qatnashganlarning 91,90 foizi Islom Karimov uchun, 4,17 foizi A. Jalolov uchun ovoz berdi. 3,93 foiz byulleten haqiqiy emas deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi. I.A. Karimovning ikkinchi bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Ma'lumki, 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga o'zgarishlar kiritildi.

2007-yil 23-dekabrda muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, I.A. Karimov 7-yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

**4. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.** O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini mustahkamlashga dadillik bilan kirishdi. Birinchi bo'lib, davlat ramzlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabr VIII sessiyasida 13 moddadan iborat bo'lgan «*O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida*»gi Qonuni qabul qilindi. Davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o'zligini ham aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 8 moddadan iborat bo'lgan «*O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida*»gi Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumush rangda, quyosh, boshog'lar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuvlar tilla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog'lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan.

1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida «*O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida*»gi (12 moddadan iborat) Qonun qabul qilindi. Davlat madhiyasining matni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, musiqasi O'zbekiston xalq bastakori Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan.

**O'zbekiston  
Respublikasining  
milliy valutasini**

Har bir mustaqil davlatning asosiy belgisi, asl poydevori – milliy valutasidir. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib o'zining milliy valutani muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O'zbekiston 1991–1993-yillarda sobiq ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Ammo sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi.

O'zbekiston muomalaga yangi milliy valuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992-yildayoq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan so'm-kupon nusxalari tayyorlanadi. Nihoyat, 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e'lon qilingan *«O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to'g'risida»*gi Farmoniga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida milliy valutasini – so'm muomalaga chiqarilgan.

Muomalaga 1994-yilda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik, 1997-yil 1-martdan 200 so'mlik, 2000-yil 1-iyuldan 500 so'mlik, 2001-yil 1-sentabrdan 1000 so'mlik banknotlar chiqarilgan. Keyinchalik, 1, 5, 10, 25, 50 so'm qiymatidagi tangalar muomalaga kiritilgan.

**O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi**

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritilgach, tabiiy ravishda davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi dastlab I.A. Karimov tomonidan 1990-yilni mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi.

Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari,

demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobiga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktabr–noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'limga bo'lingan 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyihaning 149-moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Prezident I.A. Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning XI sessiyasi bo'ldi. Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi *«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida»*, *«O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida»* va *«O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida»*gi Qonunlarni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 128 moddadan iborat. U *«Mustaqillik Deklaratsiyasi»*, *«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»*gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi quyidagi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berish zarur:

*O'zbekiston Konstitutsiyasining birinchi tamoyili* – davlat suverenitetidir. 1–6-moddalarda O'zbekiston – suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, o'zbek tili davlat tilidir,

deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi, deb belgilab qo'yilgan.

**Ikkinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – xalq hokimiyatchiligidir. 7–14-moddalarda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshiradi, deb ko'rsatilgan.

**Uchinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi.

**To'rtinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – bu demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat e'lon qilinadi hamda insonparvar demokratik-huquqiy davlat barpo etish nazarda tutiladi.

**Beshinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar», deb belgilab qo'yilgan.

**Oltinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – xalqaro andozalar darajasida ifodalangan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi va daxlsizligidir. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari muhim xalqaro hujjatlar – «Inson huquqlari butun jahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro akt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro akt» va boshqalar asosida bayon etilgan.

Konstitutsiyaning 18–52-moddalari inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekiston davlati tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida tan olingan va ular himoya qilinadi. Konstitutsiya bo'yicha har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi kafolatlanadi.

**Yettinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – qonuniylikdir. Qonuniylik jamiyatning bir maromda hayot kechirishini, davlat organlarining maromli faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo'ladi.

**Sakkizinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalarini aniq belgilab qo'yilganligidadir. Asosiy Qonunning 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati aks etgan.

Konstitutsiyada davlat xalqning manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa davlatlar bilan ittifoq va do'stona aloqalar o'rnatishi hamda davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkinligi qonunlashtirilgan.

**To'qqizinchi Konstitutsiyaviy tamoyil** – mahalliy o'zini o'zi boshqarishdir. O'zbekistonda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda mahalliy hokimiyat boshlig'i bo'lgan hokim instituti joriy etildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari bo'lib, ularga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladilar. Konstitutsiyaning 99–104-moddalarida mahalliy davlat hokimiyati asoslari, hokimlarni tayinlash va tasdiqlash tartiblari, ularning vazifalari belgilab berilgan.

**Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish – islohotlar ehtiyoji** O'zbekiston Konstitutsiyasining barqarorligini va uzoq muddat amal qilishini ta'minlash maqsadida unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Bu jarayon tabiiy va o'tish davriga xos hodisadir.

Mamlakatimizda islohotlar chuqurlashib, jamiyatni modernizatsiyalash, butun ijtimoiy hayotni yangilash jarayoni ko'lami va miqyosi kengaygani sayin, ular butun salmog'i bilan Konstitutsiyada o'z ifodasini topishi va huquqiy asosiga ega bo'lishi lozim.

Ma'lumki, 2002-yil 27-yanvarda umumxalq referendumini o'tkazildi. Referendumda O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini 5-yildan 7-yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi masalalarga bag'ishlangan edi. Referendum qarorlariga ko'ra, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish uchun asos bo'lib hisoblandi.

Referendum yakunlariga ko'ra 2003-yil 24-aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XI sessiyasi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qildi. Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi), XIX (O'zbekiston Respublikasining Prezidenti), XX (Vazirlar Mahkamasi), XXIII (Saylov tizimi) boblariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan.



O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasiga, 93-moddasining 15 bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 18-aprelda qabul qilgan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-dekabrda qabul qilgan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga (O'zbekiston Respublikasida Prezidentni besh yil muddatga saylash) tuzatish kiritilgan.

<i>No</i>	<i>Dastlab shakli (2003-yil 24-aprel)</i>	<i>Tuzatilgan shakli (2007-yil 11-aprel)</i>
<b>89-modda</b>	O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir	O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi
<b>93-moddaning 15 bandi</b>	15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod yetishga haqli	15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod yetishga haqli
<b>102-moddaning 2 qismi</b>	... Viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi	...Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilgan.

<i>№</i>	<i>Dastlab shakli (2003-yil 24-aprel)</i>	<i>Tuzatilgan shakli (2008-yil 25-aprel)</i>
<b>77- modda-ning 1-qismi</b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan bu o'zgartirishlar va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining, hukumatning mas'uliyatini kuchaytirishga, jamiyat siyosiy hayotining faollashuviga, saylov tizimining yanada takomillashuviga xizmat qilmoqda.

### **16-MAVZU: O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi**

#### *Reja:*

- 1. O'zbekistonda milliy davlat boshqaruv tizimining barpo etilishi.**
- 2. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. Demokratik saylov tizimining yaratilishi.**
- 3. Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi.**

*Tayanch so'z va iboralar:* Siyosiy islohotlar. Huquqiy davlat qurilishi. Fuqarolik jamiyati. Oliy Majlis. Senat va Qonunchilik palatasi. Vazirlar Mahkamasi. Sud hokimiyati. Mahalliy boshqaruv. Siyosiy partiyalar. Jamoat birlashmalari. «To'rtinchi hokimiyat».

#### *Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
3. *Каримов И.А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
4. *И.А. Каримов.* Инсон, унинг ҳуқук ва эркинликлари олий қадрият. Асарлар, 14-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2006.

5. *Каримов. И.А.* Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.: Ўзбекистон, 2005.
  6. *Каримов. И.А.* Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
  7. *Каримов. И.А.* «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси» номли маърузаси // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь.
  8. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
  9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; – 2012.
  10. Қорақалпоғистон Республикасининг Конституцияси. – Нукус: Қорақалпоғистон, 1998.
  11. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Конституциявий қонун // Халқ сўзи, 2003 йил 21 май.
  12. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида»ги Конституциявий қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002. №12.
  13. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида»ги Конституциявий қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002. №12.
  14. «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида»ги Қонун (1993 йил 2 сентябрь). // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 9-сон. – Т.: Адолат, 1995.
  15. «Фуқароларни ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонун. (1993 йил 2 сентябрь). // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 21-сон. – Т.: Адолат, 1999.
  16. *Лебедева С.В.* Формирование Сената. – Т.: ТГЮИ. 2004.
  17. Мустақиллик: Изоҳли илмий – оммабоп луғат // Р. Рўзиев ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2006.
  18. *Усмонов Қ.* Ўзбекистонда парламент тараққиётининг янги босқичи. – Т.: Ғ. Фулом номидаги нашр., 2004.
  19. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1, 2, 3 ... 12 жилдлар.
  20. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.76–118.
  21. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 547–575.
  22. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / Қ. Ражабов [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: O'zbekiston, 2012.
  23. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – В. 401–417.
- www.gov.uz; www.parliament.gov.uz; www.senat.gov.uz; http://eco.uz

5. *Каримов. И.А.* Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.: Ўзбекистон, 2005.
  6. *Каримов. И.А.* Асосий вазифамиз – ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
  7. *Каримов. И.А.* «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси» номли маърузаси // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь.
  8. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
  9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; – 2012.
  10. Қорақалпоғистон Республикасининг Конституцияси. – Нукус: Қорақалпоғистон, 1998.
  11. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Конституциявий қонун // Халқ сўзи, 2003 йил 21 май.
  12. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида»ги Конституциявий қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002. №12.
  13. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида»ги Конституциявий қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002. №12.
  14. «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида»ги Қонун (1993 йил 2 сентябрь). // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 9-сон. – Т.: Адолат, 1995.
  15. «Фуқароларни ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонун. (1993 йил 2 сентябрь). // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 21-сон. – Т.: Адолат, 1999.
  16. *Лебедева С.В.* Формирование Сената. – Т.: ТГЮИ. 2004.
  17. Мустақиллик: Изоҳли илмий – оммабоп луғат // Р. Рўзиев ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т.: Шарк, 2006.
  18. *Усмонов Қ.* Ўзбекистонда парламент тараққиётининг янги босқичи. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашр., 2004.
  19. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1, 2, 3 ...12 жилдлар.
  20. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарк, 2000. – Б.76–118.
  21. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 547–575.
  22. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / Қ. Ражабов [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: O'zbekiston, 2012.
  23. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – В. 401–417.
- www.gov.uz; www.parliament.gov.uz; www.senat.gov.uz; http://eco.uz

**1. O'zbekistonda milliy davlat boshqaruv tizimining barpo etilishi.** Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilish, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. O'tish davrida O'zbekiston o'zining mustaqil siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Demokratik tamoyillar asosida O'zbekistonda amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida davlat hokimiyatining turli tuzilmalarida o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy sohada, xususan milliy davlat hokimiyati organlarini barpo etish va shakllantirish borasida katta yutuqlarga erishdi.

O'tish davrining dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan chuqur siyosiy islohotlar o'tkazish yo'lidan borilmoqda.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning kafolati – O'zbekiston Konstitutsiyasidir. Xususan, respublikada davlat hokimiyati tashkil etishning muhim demokratik tamoyillari Konstitutsiyada qayd qilingan bo'lib, unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb ko'rsatilgan. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo'lib, ayni vaqtda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Prezident Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini quyidagicha ta'riflaydi: «Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi» (Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – b.16).

O'zbekistonda *qonun chiqaruvchi hokimiyat* – Oliy Majlis, *ijro etuvchi hokimiyat* – Vazirlar Mahkamasi, *sud hokimiyati* – Konstitutsiyaviy Sud, O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari va xo'jalik sudlaridan iborat.

**Oliy Majlis** O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida davlat hokimiyati organlari ichida qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi – Oliy Majlisning o'rni va ahamiyati kattadir. O'tish davrining mashaqqatli bosqichlarida respublika siyosiy hayotini yangilash va demokratlashtirish jarayonida Oliy Majlis o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda.





### O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida qonunlar qabul qilish jarayoni

Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umume'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi. Birinchi davr: 1991–1994-yillar, ikkinchi davr: 1995–2004-yillar va uchinchi davr: 2005-yildan hozirgi paytgacha.

**Birinchi davr:** O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990-yil 18-fevralida saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U 1990–1994-yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'z faoliyatini boshlagan paytda sobiq Ittifoq tuzumining qonunlari amalda bo'lgan. Mustaqil O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti dastlab ana shu qonunlar doirasida boshlandi. Shunday bo'lsa-da, Oliy Kengash O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'lidan bordi va uni qadambaqadam shakllantira boshladi. 1990–1994-yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi, mamlakatimiz tarixida birinchi bor mamlakat Prezidentini sayladi, Mustaqillik Deklaratsiyasini



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisining binosi

qabul qilib, yosh davlatimizning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan tarixiy qonunlarni, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyani qabul qilganligi ham yurtimiz tarixidagi ulkan hodisalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Uning 76-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi», – deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasida bir palatali parlament – Oliy Majlisi shakllantirishga kirishildi.

1993-yil 28-dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida «*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida*» va 1994-yil 22-sentabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyada «*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida*» qonunlar qabul qilindi. Bular qonunlar Oliy Majlisning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan (*O'zbekiston SSRning 1978-yildagi Konstitutsiyasiga binoan o'n ikkinchi chaqiriq Respublika Oliy Soveti deputatlarining soni 500 kishidan iborat edi*) iborat bo'ladi, deb belgilab qo'yildi. Ayni paytda mazkur qonunlarda Oliy Kengash – Oliy Majlis deb nomlash asosida tub islohotlarni qonunchilik sohasida amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil sentabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyasi 1994-yil 25-dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazishga qaror qildi. 1994-yil 25-dekabr hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tdi. Nomzodlardan birontasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995-yil 8 va 25-yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Uch bosqichda bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan 250 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko'p partiyaviylik asosida o'tkazildi. Shu tariqa, mamlakatimizda ilk bor yangi parlamentga bo'lgan saylovlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Oliy Majlisi demokratik yo'l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi bo'ldi.

1995-yil 23–24-fevral kunlari yangi saylangan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada I.A. Karimov «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» to'g'risida keng qamrovli ma'ruza qildi: «*Vakillik hokimiyatini vujudga keltirish-*

*ning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti – Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi»,* – dedi Prezident Islom Karimov.

Ushbu sessiyada parlamentchilikning demokratak asoslarini yanada rivojlantirishga e'tibor berilib, rahbariyat kengaytirilib rais va to'rt kishidan iborat rais o'rinbosarlari saylandi. E.X. Xalilov yakdillik bilan Oliy Majlis raisi, B.J. Bugrov, B.A. Shodiyeva, A.Q. Qosimovlar ham bir ovozdan rais o'rinbosarlari qilib saylandilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili – Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi Raisi U. Ashirbekov ham yakdillik bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi o'rinbosari qilib saylandi. Qonunlarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda Mandat Komissiyasi tuzildi. Qonunlarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda Oliy Majlisning quyidagi 12 ta qo'mitasi tashkil etildi:

- Budjet, bank va moliyaviy masalalar qo'mitasi;
- Iqtisodiy islohotlar va ishbilarmonlikni rivojlantirish qo'mitasi;
- Qonunchilik va sud – huquq masalalari qo'mitasi;
- Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi;
- Fan, ta'lim, madaniyat va sport qo'mitasi;
- Sanoat, energetika, transport, aloqa va aholiga xizmat ko'rsatish qo'mitasi;
- Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat qo'mitasi;
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish qo'mitasi;
- Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi;
- Qurilish va uy-joy xo'jaligi qo'mitasi;
- Matbuot va axborot b qo'mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi.

Oliy Majlisining mazkur birinchi sessiyasida *«O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida»*gi Qonun qabul qilindi, Oliy Majlis Raisi rahbarligida *«Oliy Majlis Qo'mitalari va Komissiyalari to'g'risidagi Nizom»* qabul qilindi. Parlamentning ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Kengashi tuzilib, uning tarkibiga Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, Mandat komissiyasi raisi, parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalarning rahbarlari kiritildi.

O'zbekiston parlamentining birinchi sessiyasida «Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)» instituti ta'sis etildi.

O'tgan davr shuni ko'rsatdiki, Oliy Majlis qabul qilayotgan qonunlar sifatini oshirishda ularning loyihalarini oldindan matbuotda chop etib, umumxalq muhokamasidan o'tkazish ijobiy samara berdi. Qonunlar loyihalarini deputatlarga oldindan yuborish tartibi joriy qilindi hamda ularning takliflari va fikr-mulohazalari har bir qonunni uzil-kesil ishlab chiqish chog'ida albatta e'tiborga olinadigan bo'ldi. Qonunlar loyihalarini nazariy va amaliy jihatdan yanada teranroq, puxtaroq ishlab chiqish maqsadida ular tegishli vazirliklar va idoralar, konsernlar, uyushmalar va mehnat jamoalariga yuboriladigan bo'ldi. Xalqaro tashkilotlarning ekspertizasidan o'tkazish yo'lga qo'yildi. 1995–1997-yillarda Oliy Majlis 100 ga yaqin qonun va 120 dan ortiq qarorlar qabul qildi.

Mustaqillik yillarida Oliy Majlisning xalqaro parlament tashkilotlari bilan aloqalari kengaydi va chuqurlashdi. O'zbekiston Milliy parlament guruhi tuzildi, respublikaning Parlamentlararo Ittifoqdagi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament Assambleyasidagi va Yevroparlament bilan aloqalar bo'yicha parlament guruhlarining rahbarlari tasdiqlandi. Oliy Majlis hay'atlari Parlamentlararo Ittifoq 93 va 94-konferensiyalarida ishtirok etdi. Bunday tadbirlar hozirda ham davom etmoqda.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995–1999-yillarda 15 ta sessiya o'tkazdi. Sessiyalarda 10 ta kodeks, 2 ta Milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga jami 216 ta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Shuningdek, Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya (tasdiqladi) qildi, xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi.

Yuqorida qayd etilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, respublika parlamenti bir palatali bo'lsa-da, qonun chiqarish jarayoni ancha jadallik bilan bordi. Birinchi navbatda hayotning o'zi talab qilayotgan eng kerakli qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Natijada, mustaqillik munosabati bilan dastlabki paytda vujudga kelgan huquqiy vakuum tezroq to'ldirildi.

1999-yil 19–20-avgust kunlari bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasida Prezident Islom Karimov ma'ruza qilib, uning faoliyatiga yuksak baho berdi.

Mazkur Oliy Majlisning yakunlovchi XV sessiyasi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini 1999-yil 5-dekabr kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. Saylov byulletenlariga 5 ta siyosiy partiya, hokimiyat

vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan 1010 nafar nomzod kiritildi. 66 ta saylov okrugida 19-dekabr kuni takroriy saylovlar bo'lib o'tdi. Qizg'in siyosiy kurash asosida o'tgan saylovlarda 250 nafar deputat saylandi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasining birinchi majlisi 2000-yil 22-yanvar kuni bo'lib o'tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari 13 ta qo'mita ham faoliyat ko'rsatdi. Bu qo'mitalar tarkibiga yuqorida aytib o'tilgan ko'mitalar bilan birga yangi tuzilgan *Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi* va *Yoshlar ishlari komissiyasi* (mazkur komissiya ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 30–31-avgust kunlari bo'lgan uchinchi sessiyasi qarori bilan «*Yoshlar ishlari qo'mitasi*» shaklida qayta tuzildi) kirgan.

Parlamentda, shuningdek 3 ta doimiy komissiya ishlagan: Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta'minoti komissiyasi; Oila va ayollar muammolari komissiyasi; Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ham bir palatali parlament sifatida shakllantirildi. Mamlakatimizda bir palatali parlamentning 2000–2004-yillarda bo'lib o'tgan 16-sessiyasida 101 ta qonun, 300 dan ortiq qaror qabul qilindi, 55 ta xalqaro shartnoma va bitimlar ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasining 329 ta qonun hujjatiga 1357 ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

#### O'zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi

Xalqaro huquqiy tamoyillar va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda davr talabi bilan siyosiy islohotlar kengaytirilib, O'zbekistonda bir palatali parlament tizimidan ikki palatali parlament tizimiga o'tish

yo'lga qo'yildi. Lekin bu jarayon muayyan davrni tashkil etdi.

2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida **ikki palatali parlament tuzish g'oyasini** ilgari surdi. Bunda Prezident Islom Karimov o'zining «O'zgarish va yangilanish – hayot talabi» nomli ma'ruzasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi.

Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir.

2001-yil 6–7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida ikki palatali parlament tuzish



masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib etilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi.

Ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi hayotning o'zidan, hokimiyat tarmoqlarini aniq ajratish asosida milliy davlatchilik institutlarini yanada mustahkamlash zaruratidan kelib chiqadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendensiyasiga aylandi. Agar XX asrning 70-yillarida ikki palatali parlamentlar 45 ta davlatda bo'lgan bo'lsa, bu son 70 ga chiqdi. Hozirda yana o'n ta davlatda ikki palatali parlament tashkil qilishga tayyorgarlik ko'rayapti. Bu ko'rsatkichlar ikki palatali parlamentning ahamiyatini oshib borayotganligidan dalolat beradi.

2002-yil 27-yanvar kuni «*Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?*» degan masalada referendum bo'lib o'tdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65% i rozi ekanligini bildirib ovoz berdilar.

2002-yil 4–5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida «*Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida*»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Bu qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali – quyi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Quyi palata – Qonunchilik palatasi, yuqori palata – Senat deb ataladi, ularning vakolat muddati – 5 yil deb belgilangan.

VIII sessiyada Oliy Majlisining «*2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida*»gi Qarorini ham qabul qildi.

Xullas, bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

2002-yil 12–13-dekabr kunlari Oliy Majlisning X sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda xalqimizning xohish-irodasi bilan «*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida*» va «*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida*» Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda ularni amalga kiritish to'g'risida qarorlarni qabul qildi.

Qonunchilik palatasi 120 nafar deputatdan, Senat 100 nafar senatoridan iborat etib shakllantirildi. Bu o'zgarishlar 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida*»gi Qonunda ham o'z ifodasini topdi. 2003-yil 29-avgustda «*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida*»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Shu tariqa ikki palatali professional parlamentni shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. 2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazildi. Jumladan, 2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi. 2005-yil 17–20-yanvar kunlari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi.

2005-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palata: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib shakllantirildi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri qilib Erkin Xalilov saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatga respublikaning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Konstitutsiyaning 77-moddasiga muvofiq, Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. Jami bo'lib, Senat 100 ta senatoridan iborat bo'ladi. Senatning Raisi qilib Murod Sharifxo'jayev saylandi.

Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarning ana shu tarixiy anjumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir», – degan dasturiy ma'ruza qilib, unda jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilashning aniq va teran asoslantirilgan konsepsiyasini, shuningdek mamlakatimizni 2005-yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilishning asosiy vazifalarini ilgari surdi.

2009-yil 27-dekabr va 2010-yil 10-yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi.

2010-yilning 20–22-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari saylandi. Shu yilning 22-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri qilib Dilorom G'ofurjonovna Toshmuhamedova saylandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari qilib Bahtiyor Yoqubov (O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi fraksiyasining rahbari), Ulug'bek Vafoev (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining rahbari), Ulug'bek Muhammadiyev (O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining rahbari), Ismoil Saifnazarov (O'zbekiston «Adolat» sosial-demokratik partiyasi fraksiyasining rahbari), Boriy Alixonov (O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi rahbari) saylandi.

#### O'zbekiston ekologik harakati

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda atrof-muhit muhofazasi, ekologik holatni sog'lomlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston ekologik harakatini yuridik jihatdan yangi bosqichga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda 2008-yil 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining *«Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»*gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga besh yil muddatga 135 deputat saylanib, Qonunchilik palatasining 15 deputati O'zbekiston ekologik harakatidan saylanishi belgilandi.

Ushbu Qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilib, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlarining soni 150 deputatdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston ekologik harakati haqida to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston ekologik harakati 2008-yilning 2-avgustida tashkil topgan. 2008-yilning 20-sentabrida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan.

Bu harakatning rahbar organlari: Markaziy kengash, uning Ijroiya qo'mitasi, Markaziy nazorat – taftish komissiyasidir.

O'zbekiston ekologik harakati o'z faoliyatini fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha



tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga qaratgan.

**Ijro etuvchi hokimiyat –  
Vazirlar Mahkamasi**

Istiqlol yillarida davlat boshqaruv hokimiyati tubdan isloh qilindi. Avvalo, sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O'zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi – Ministrlar Sovetining maqomi tubdan o'zgartirildi. 1990-yil 24-martda O'zbekistonda prezidentlik lavozimi ta'sis etilgandan keyin hayotning o'zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o'zgartirishni talab qildi. 1990-yil 15-noyabrda O'zbekiston Prezidentining *«O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida»* Farmoni chiqdi. Unga muvofiq ravishda O'zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo'ldi. Respublikada vitse-Prezident lavozimi ta'sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi.

1992-yil 4-yanvarda vise-prezident lavozimi tugatildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi.



**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

O'zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo'ldi. Konstitutsiyaning XX bobida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyavi-huquqiy maqomi, uning tashkil etilishi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vakolatlari belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaning 89-moddasiga muvofiq *«O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi»*, – deb belgilandi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan № 818-XII sonli *«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar*

**Mahkamasi to'g'risida»**gi (yangi tahriri 2003-yil 29-avgust) Qonuni asosida olib boradi.

Mazkur qonunning 1-moddasining birinchi bandiga ko'ra «Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining Hukumati – iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi».

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Reglamentida yanada rivojlantirilgan va mazmunan boyitilgan. Unga ko'ra Vazirlar Mahkamasining ishi choraklik rejalarga muvofiq olib boriladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida 1 marta o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir (2003-yil 11-dekabrda Shavkat Miromonovich Mirziyoyev) va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib borildi. Agar 1990-yil 30-martda Respublika ijroiya hokimiyati 41 kishidan iborat etib tuzilgan bo'lsa, 1995-yil 5-mayda Vazirlar Mahkamasi 35 kishidan iborat etib tuzildi. 2000-yil 11-fevralda bo'lgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini 34 kishidan – Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari, 8 nafar Bosh vazir o'rinbosarlari, 15 nafar vazir va 9 nafar Davlat qo'mitalari raislaridan iborat etib tasdiqladi.

2003-yil 24–25-aprel kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan **«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»**gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi, uni tuzish va tasdiqlash tartibi o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89-moddasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» deyilgan 2-qismi olib tashlandi. Vazirlar Mahkamasi tarkibida Rais lavozimi bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari nomzodlarini avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimi-



ga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Bu holat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida quyidagi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanadi:

- kollegiallik;
- demokratiya;
- qonuniylik;
- O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish.

Hozirda Vazirlar Mahkamasining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat qo'mitalarining raislari, (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi kiradi. 2003-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimini – Mirziyoyev Shavkat Miromonovich egallab kelmoqda.

№	Vazirliklar
1	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
2	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
3	O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
4	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi
5	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
6	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
7	O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi
8	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
9	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
11	O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi
12	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
13	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
14	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

<i>O'zbekiston Respublikasi davlat qo'mitalari</i>	
1	O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi
2	O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi
3	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
4	O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi
5	O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi
6	O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi
7	O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasi
8	O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
9	O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi

#### **O'zbekistonda sud hokimiyati**

Sud hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **XXII bob, 106-moddasiga** ko'ra O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O'tish davrida sud sohasida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993-yil 2-sentabr Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan «*Sudlar to'g'risida*»gi Qonuni (yangi tahrirda 2000-yil 14-dekabr) sud islohotlarining huquqiy asosidir. O'zbekiston Prezidentining farmonlari ham bu sohani isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil 1-avgustdagi «*O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida*»gi (2008-yil 1-yanvar – O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi bekor qilindi) hamda 2005-yil 8-avgustdagi «*Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida*»gi farmonlari har bir sudya zimmasiga alohida mas'uliyat yuklashi ta'kidlanib, bu borada sudya kadrlarni tayyorlash va yagona sud amaliyotini shakllantirish mexanizmini barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab chiqildi.

Sud tizimiga kirgan barcha sudlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida va «*Sudlar to'g'risida*»gi Qonunida ko'rsatilgan. Bunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga besh yil muddatga saylanadigan quyidagi sudlar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudlari;
- harbiy sudlar.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

### *Umumiy yurisdiksiya sudlari:*

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi.
3. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudi.
4. Harbiy sudlar.

O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sudlovi doirasining oliy sudlov hokimiyati organidir.

#### **Mahalliy davlat hokimiyati organlari**

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalarni belgilagan edi. Eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo yetishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. *«Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay»*, degan tamoyilga amal qilib, amalda mavjud bo'lgan vakillik organlarining viloyat,

tuman va shahar bo'g'inlari saqlanib qolindi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy va-killik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Ma'lumki, sobiq sovetlar davrida amalda bo'lgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan to'g'ri ularning ishiga aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.

1990–1992-yillari O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi – Konstitutsiyasining qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish maqsadida bir necha Qonunlar qabul qilindi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin:

➤ *«O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlarining maqomi to'g'risida»*gi Qonun, 1990-yil 31-oktabr.

➤ *«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»*gi Qonun, 1991-yil 31-avgust.

➤ *«O'zbekiston Respublikasi Ijroiya hokimiyati – boshqarma idoralarini tuzilishini takomillashtirish to'g'risida»*gi Qonun, 1990-yil 3-noyabr.

➤ O'zbekiston Respublikasi *«Toshkent shahar hokimini saylash tartibi to'g'risida»* muvaqqat Nizomni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Riyosatining Qarori, 1991-yil 25-noyabr va boshqalar.

1992-yil 4-yanvarda *«O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»*gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – *vakillik* va *ijro organlari* tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992-yil 14-yanvarda ushbu qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Konstitutsiyaviy qonun maqomini berdi. 1992-yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati – hokimiyatlar tuzildi.

1992-yildan O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish sohasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu hujjatlar orasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan *«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»*gi va *«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»*gi Qonunlar, 1994-yil 5-mayda qabul qilingan *«Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to'g'risida»*gi Qonun va boshqalar muhim o'rin egallaydi.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, mavqeyi, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko'ra avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomini Kengashlar deb o'zgartildi. Ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, amaldagi O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinchu mahalliy vakillik organlarining uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib, ular:

1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) – yuqori bo'g'in hisoblanardi.

2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o'rta bo'g'in;

3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo'g'in;



Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi, ya'ni quyi bo'g'in olib tashlandi. Ular o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi. Bu qoida «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – *vakillik* va *ijroiya* hokimiyatiga bo'lindi.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, *mahalliy vakillik organlariga* – xalq deputatlari Kengashlari kiradi. Ular o'z faoliyatini jamoaviy (kollegial) asosda olib boradi. Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiya hisoblanadi.



*«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»* gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

*Ijroiya hokimiyatiga* – hokim va uning ijroiya apparati kiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101-moddasiga ko'ra hokimlarning vakolat muddati – besh yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102-moddasiga ko'ra, «Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.


Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi».

Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati – hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu organlar sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorat speksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Mazkur davlat organlarini ikki toifaga bo'lish mumkin:

1) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunuvchi organlar: ichki ishlar, nazorat inspeksiyasi va adliya organlari.




2) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunmaydigan sud, prokuratura organlari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu sohada o'z vakolatlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko'rsatishi bilan birga ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari** O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga kimgach, milliy davlatchilik an'analariga, qadriyatlariga mos keluvchi va xalq xohish-irodasini to'la aks ettiruvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini barpo etishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Bunda xorijiy mamlakatlarning e'tiborli tajribalarini chuqur o'rganildi va yurtimiz sharoiti e'tiborga olindi. Natijada O'zbekistonga xos va mos fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vujudga keldi. Xususan, hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkmaniston va boshqa) bu institut mahalliy o'zini o'zi boshqarish deb atalsa, O'zbekistonda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining huquqiy zamini mustahkamlandi. Konstitutsiyaning 105-moddasiga ko'ra, «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi».



Shunday qilib, fuqarolar yig'ini ma'lum muddatda to'planib ish yuritadigan o'zini o'zi boshqarish vositasi bo'lsa, rais, uning maslahatchilari doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmadir.

1993-yil 2-sentabrda «*Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida*»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq uchinchi sessiyasida qabul qilingan. Ushbu qonun bu organlar faoliyatiga bag'ishlangan ilk normativ-huquqiy hujjat bo'lib, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifasi, vakolatlari, fuqarolar yig'ini va rais (oqsoqol)ning vakolatlari, ularning davlat hokimiyati organlari bilan munosabat asoslari belgilab berildi. Bu qonun yurtimiz mahallalari taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

1995-yil 21-dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqida alohida modda kiritilgan bo'lib (78-modda), unda qayd etilganidek, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir».

«Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Nodavlat-notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida»gi, «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunlarda ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqidagi qoidalar mavjud.


O'zbekisnonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib ushbu qonun hujjatlari muntazam

ravishda takomillashtirib borilyapti. Xususan, 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi qariyb o'nta moddaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Muhim o'zgarishlardan biri – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maqomining yanada aniqlashtirilganligidir. Qonunning 7-moddasi Konstitutsiyaning 105-moddasiga moslashtirildi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi quyidagicha konkretlashtirildi: «Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig'ini deb yuritiladi) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir».

Xuddi shu moddaning ikkinchi bandida belgilanganidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi. Fuqarolar yig'ini o'zining organlariga ega. Ular sirasiga fuqarolar yig'ini kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, taftish komissiyasi, shuningdek ayrim o'rinlarda ma'muriy komissiyalar kiradi. Gap shundaki, ilgari bu kengash va barcha komissiyalar ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deb yuritilardi. Endilikda esa bunday maqom faqat fuqarolar yig'iniga xos sanaladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishining eng quyi pog'onasida davlat organlari o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil qilindi. Shuningdek, shaharlardagi mahalla va mavzelarda ham



fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuzildi. Bu organlar zimmasiga avval davlat organlari amalga oshirib kelgan ko'pgina vazifalar yuklatildi.

Xulosa qilib aytganda, hukumatimiz tomonidan ilgari surilayotgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» siyosiy qurilish dasturining bosh yo'nalishlaridan biri davlatning bir qancha vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish chora-tadbirlari hayotga tatbiq etilmoqda.

**2. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. Demokratik saylov tizimining yaratilishi.** «Mustaqillik – bu avvalo huquq ekanini, faqat mustaqillik orqaligina shaxs o'z qadr-qimmatini, or-nomusi va g'ururini anglaydi. Istiqloq yurtimizda yashayotgan, millati, tili, dinidan qat'i nazar barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy omilidir»<sup>1</sup>. Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bu inson, uning huquqi va erkinligi masalasi bo'lib, u davlat va jamiyatning qay darajada rivojlanganini ko'rsatuvchi mezondir. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini shakllantirishga kirishdi.

Bunda O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy normalarni tan olishi va ularga qo'shilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklariga doir Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarni tan oldi va ularga sadoqat bilan amal qilinmoqda. Bunga quyidagilarni aytish mumkin:

➤ 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «*Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi*»ga 1991-yil 30-sentabrda qo'shilgan. Ushbu Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir.

➤ 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan «*Inson huquqlari to'g'risida Paktlar*»ga 1995-yil 31-avgustda qo'shilgan. «Inson huquqlari to'g'risida Paktlar» 1966-yil 19-dekabrda qabul qilingan «*Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt*» va «*Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt*»dan iborat. Bu xalqaro hujjatlar ham O'zbekiston tomonidan tan olindi.

O'zbekiston BMT kotibiyatining inson huquqlari va erkinliklariga doir 21 ta deklaratsiya, pakt va konvensiyalariga qo'shildi. Shuningdek, O'zbekiston Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti hujjatlarini tan oldi va uning demokratik

<sup>1</sup> Xalq so'zi. 2013-yil 14-iyun.



institut va inson huquqlari bo'yicha Byurosi bilan inson huquqlarini himoya qilish sohasida hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi», – deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolik qabul qilingan, ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning «**Shaxsiy huquq va erkinliklar**» deb nomlangan VII bobida respublika fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklari quyidagicha ta'riflab berilgan:

- yashash huquqi;
- erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- aybsizlik prezumpsiya (lot. praesumptio – gumon, taxmin)si;
- shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish va uy-joy daxlsizligi huquqi;
- bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi;
- fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi;
- fuqarolarning o'z huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi;
- vijdon erkinligi.

Mazkur huquq va erkinliklarga har bir shaxs ega bo'ladi, hamda o'zi tomonidan mustaqil amalga oshirilib, davlat tomonidan himoya qilinadi.

Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «*Fuqarolik kodeksi*» (1995-yil 21-dekabr), «*Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida*» (1994-yil 6-may), «*Fuqarolar muhofazasi to'g'risida*» (2000-yil 26-may), «*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*» (1998-yil 1-may kuni yangi tahrirda qabul qilingan) va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan.

1997-yil – «**Inson manfaatlarini yili**» deb e'lon qilindi.

#### Siyosiy hukumatlar, ularning kafolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida fuqarolarning siyosiy huquqlari ham mustahkamlangan. Ular quyidagilardan iborat:

- davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashish;
- o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, namoyishlar va yig'ilishlar shaklida amalga oshirish;

➤ kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish;

➤ vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari Konstitutsiya, «Jamoat tashkilotlari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida» va boshqa qonunlar bilan himoya qilinadi.

#### **Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida respublika fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari mustahkamlanib qo'yilgan:

- uy-joyga ega bo'lish;
- mulkdor bo'lish va undan erkin foydalanish;
- mehnat qilish, erkin kasb tanlash, ishsizlikdan himoyalanih;
- yollanib ishlaganda dam olish;
- qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish;
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish;
- bilim olish;
- ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi qonunlari bilan kafolatlangan. Kafolat deganda, fuqarolarga belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishni ta'minlaydigan vositalar, usullar va shart-sharoitlar tushuniladi. Zarur bo'lgan hollarda inson huquqlari sudga himoya qilinadi yoki tiklanadi. 1995-yil 30-avgust qabul qilingan «*Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida*»gi Qonun ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

#### **Fuqarolarning burchlari va majburiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va mavjud qonunlari asosida respublika fuqarolarining huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan mamlakat ichida va uning tashqarisida himoya qilib, ularga homiylik qiladi.

O'z navbatida barcha fuqarolar ham davlat, jamiyat va boshqa fuqarolar oldida muayyan burchlar va majburiyatlarni ham o'taydi. Fuqarolarning burchlari, majburiyatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning burchlari:

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;
- Vatanni himoya qilish;
- harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash.
- boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
- O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlarini avaylab asrash;
- qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash;
- tabiat va atrof-muhitni saqlash, tabiiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (50-, 54-, 55- va 100-moddalarida) shuningdek, «*Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida*» (1992-yil 9-dekabr), «*Suv va suvdan foydalanish to'g'risida*» (1993-yil 6-may), «*Yerosti boyliklari to'g'risida*» (1994-yil 23-sentabr; 2002-yil 12-dekabrda yangi tahrirdagi), «*Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida*» (1996-yil 27-dekabr), «*O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida*» va «*Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida*» (1997-yil 26-dekabr) va boshqa qonunlarida fuqarolarning tabiat bilan bo'ladigan muloqotdagi majburiyatlari belgilab berilgan.

#### Inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlarning ta'sis etilishi

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qiluvchi tizimga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz kiradi.

Yuqorida takidlab o'tilganidek, 1995-yil 23-fevralda birinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) lavozimi ta'sis etiladi va bu lavozimga Rashidova Sayyora saylandi. Dastlab ombudsman (*shvedcha, ombudsman* – biron kishi manfaatlarining vakili) xalqaro amaliyotni o'rganish asosida ishlab chiqilgan va Oliy Majlis Rayosati tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bordi.

O'zbekistonda ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari 1997-yil 24-aprelda Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan «Oliy Majlisning Inson huquqlari vakili (ombudsman) to'g'risida»gi qonunda belgilab berildi. Mazkur qonunga ko'ra, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) – mansabdor shaxs bo'lib,



Rashidova Sayyora  
Sharofovna

unga O'zbekistonda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi. Vakil BMTning inson huquqlari bo'yicha markazi, EHXTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, hozirda 1995-yilda Oliy Majlis vakili huzurida tuzilgan Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha maxsus komissiyasi faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida 1996-yil 31 oktabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «*Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida*»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi tashkil etildi.

Markaz davlatga qarashli, taxlil, maslahat, idoralararo va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. *Asosiy vazifalari:* inson huquqlari bo'yicha milliy harakat rejasini ishlab chiqish; shu sohaga oid milliy ma'ruzalar tayyorlash; tegishli o'quv-uslubiy adabiyotlar nashr etish, tadqiqotlar o'tkazish.


Respublikamizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlarga muvofiqligini, xalqaro huquqiy me'yorlarini mamlakatimizning amaldagi qonun hujjatlariga joriy etilishini ta'minlashda 1996-yil dekabrda tashkil etilgan Oliy Majlis huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ham ijobiy tadbirlarni amalga oshirmoqda.

**Saylov tizimi** O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etilishda xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Dastlab saylov tizimini yo'lga qo'yish maqsadida «*O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida*» va «*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida*» (1991-yil 18-noyabr) Qonunlari qabul qilindi. Saylovlar

haqida, saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» gi (1993-yil 28-dekabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi (1994-yil 5-may) va «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi (1994-yil 5-may) Qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan.



Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.



**3. Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi.** Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Respublika parlamenti tomonidan qabul qilingan «*Jamoat tashkilotlari to'g'risida*», «*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*» (1998-yil 28-aprel), «*Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risida*» (1992-yil 2-iyul), «*Siyosiy partiyalar to'g'risida*»gi Qonunlar shular jumlasidandir.

**Jamoat birlashmalari** Jamoat birlashmalari haqidagi qonun-qoidalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIII bobida va «*O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida*»gi (1991-yil 15-fevral) Qonunda belgilab berilgan.

Jamoat birlashmalari tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak – bu fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan birlashmalari hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 56-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoa birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.

«Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4, 9-moddalarida jamoat birlashmalariga shunday ta'rif beriladi: «O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assosiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi».

«Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasida jamoat birlashmasining turlari to'g'risida normalar bo'lib, uni hududiy tuzilishiga ko'ra belgilanganligini ko'rish mumkin:

– *birinchidan*, faoliyati butun respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari «*respublika jamoat birlashmasi*» ekanligi;

– *ikkinchidan*, viloyat, nohiya, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari «*mahalliy jamoat birlashmasi*» ekanligi belgilangan.

Bundan tashqari, amaldagi qonunning 24-moddasida xalqaro jamoat birlashmalari to'grisida ham norma mavjud. Demak, jamoat birlashmalarini uch turga, ya'ni **xalqaro** miqyosdagi jamoat birlashmalari, **respublika** miqyosidagi jamoat birlashmalari, **mahalliy** miqyosdagi jamoat birlashmalari.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida jamoat birlashmalarining o'zni va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Ular sonining oshib borayotgani buning isbotidir. Masalan, statistik ma'lumotlarga ko'ra 2000-yilda respublika va xalqaro ahamiyatga molik, davlat ro'yxatidan o'tgan jamoat birlashmalari soni 1500 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilda esa ularning soni 5277 tani tashkil etgan. Shulardan 60 tasi xalqaro va 336 tasi Respublika ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari edi. Hozirda bu jamoat birlashmalarining soni yanada oshib bormoqda. Bunga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan turli jamoat birlashmalari, ya'ni jamiyatlar, assosiatsiyalar, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, harakatlar, jamg'armalar, federatsiyalar, markazlar, uyushmalar va boshqalarni misol qilish mumkin.

<i>O'zbekistonda hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar (2010)</i>		
<b>№</b>	<b>Umumiy soni</b>	<b>5000 dan ortiq</b>
1	<b>Jamg'armalar</b>	48 ta
2	<b>Jamiyatlar</b>	78 ta
3	<b>Siyosiy partiyalar</b>	4 ta
4	<b>Federatsiyalar</b>	42 ta
5	<b>Kasaba uyushmalar</b>	16 ta
6	<b>Harakatlar</b>	2 ta
7	<b>Markazlar</b>	20 ta
8	<b>Assosiatsiyalar</b>	48 ta
9	<b>Uyushmalar</b>	20 ta
10	<b>Qo'mitalar</b>	5 ta

**O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va harakatlar** Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ko'p partiyaviylik prinsipi asosida partiyalar tizimi shakllantirildi.

Partiya so'zi – lot. partio – bo'laman, ajrataman degan manoni anglatadi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasining «**Siyosiy partiyalar to'g'risida**»gi (1996-yil 25-dekabr) Qonunida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi va mustahkamlandi.

### *Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:*

➤ o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

➤ qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mahalliy vakillik hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

➤ partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

➤ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

➤ O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish;

➤ O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan huquqlarga ham ega.

Musaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'p partiyaviylik tizimi shakllandi, jamiyat tashkilotlari tubdan yangilandi. Hozirda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya, 2 ta ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Quyidagi siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.



**1. «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zbekiston XDP)»** – 1991-yil 14-sentabr kuni Toshkentda O'zbekiston Kommunistik partiyasining oxirgi favqulodda XXIII syezdi bo'lib, unda KPSS tarkibidan chiqish va sifat jihatidan yangi siyosiy tashkilot – «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi»ni tuzish haqidagi Bayonot qabul qilindi. 1991-yil 1-noyabr Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida **O'zbekiston XDP** ga

asos solingan. Bu qurultoyida partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston XDPsining «O'zbekiston ovozi», «Голос Узбекистана» gazetalari nashr etilmoqda.

2. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi (VTP) – 1992-yil 24-mayda Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Uzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1992-yil 10-iyulda Vatan taraqqiyoti partiyasini ro'yxatga olgan.

O'zbekiston Vatan taraqqiyoti partiyasining nashri «Vatan» gazetasiga ega edi. VTP 2000-yil 14-aprelda Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi bilan birlashib, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi nomini oldi.

3. O'zbekiston «Adolat» sosial-demokratik partiyasi («Adolat» SDP) – 1995-yil 18-fevralda Toshkentda bo'lgan I ta'sis qurultoyida tuzildi, uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Adliya vazirligi 1995-yil 18-fevralda «Adolat» SDP ni ro'yxatga olgan.

Partiyaning «Adolat» nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

4. O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O'zMTDP) – 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1995-yil 9-iyunda O'zMTDP ni ro'yxatga olgan.

O'zbekiston MTDP sining «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

5. O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi (FMDP) – 1998-yil 28-dekabrda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi. Qurultoyda partiyaning Dasturi va Nizomi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1999-yil 4-yanvarda O'zMTDP ni ro'yxatga olgan.

Partiyaning «Fidokorlar» nomli gazetasi nashr etilgan. 2008-yil 20-iyun Toshkentda O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi va O'zbekiston «Milliy tiklanish» partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasini birlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Markaziy kengash, Markaziy nazorat-taftish komissiyasi a'zolari saylandi, birlashgan partiyaning bosma organi tasdiqlandi. Shu asosda «Fidokorlar» va «Milliy tiklanish» demokratik partiyalari birlashdi.

6. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) – 2003-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi. Unda partiya Nizomi va Dasturi ham tasdiqlandi.



Partiyaning asosiy maqsadi tadbirkorlar va ishbiarmonlar manfaatini himoya qilishdan iborat. O'zLDP ning «XXI asr» haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

**O'zbekistondagi  
ijtimoiy harakatlar**

O'zbekistonda 1995-yil 27-mayda jamoatchilikning tashabbusi bilan O'zbekiston «*Xalq birligi*» harakati tashkil etildi. Adliya vazirligi mazkur harakatni 1995-yil

9-iyunda ro'yxatga olgan.

Harakatning asosiy maqsadi ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklarining kafolatlarini to'la-to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat edi. O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining oliy organi Qurultoy bo'lib, u 4 yilda bir marta chaqirilgan.

O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi farmoniga muvofiq respublika yoshlarining «*Kamolot*» jamg'armasi nodavlat xayriya-jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. Bu jamg'armaning vazifasi yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo «Kamolot» yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi yetakchisiga aylana olmadi.



Prezident Islom Karimov 2001-yil 24-yanvar kuni

Toshkentda yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning chinakam suyanchi bo'la oladigan yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. 2001-yil 25-aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan

nodavlat, notijorat tashkilot— O'zbekiston Respublikasi «*Kamolot*» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rinni egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo'lishdan iboratdir. Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, huquq-tartibot organlarida boshlang'ich tashkilotlari tuzildi. Ular 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini o'z saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

**Ommaviy axborot  
vositalari**

Ommaviy axborot vositalari xalqqa ilmiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy bilimlar,



ma'lumotlar tarqatuvchi manbadir. Ular tarkibiga gazeta va jurnallar, radio va televideniya hamda boshqa axborot tarqatuvchi vositalar kiradi.

Ommaviy axborot vositalarini «**To'rtinchi hokimiyat**» ham deyishadi. «To'rtinchi hokimiyat» hokimiyatning uchta asosiy tarmog'i – Qonun chiqaruvchi, Ijro qiluvchi va Sud tizimi hokimiyatlaridan farqli o'laroq, militsiya, prokuratura, milliy davlat xavfsizlik xizmatiga o'xshash o'z fikr-qarorini majburan amalga oshiradigan organlarga ega emas. Shu jihatdan «To'rtinchi hokimiyat» to'g'ri ma'noda emas, balki ko'chma ma'nodagi hokimiyatdir. Shunday bo'lsa-da, u jamiyatning turli sohalari faoliyatini tahlil etadi, nazorat qiladi, boshqaruv organlaridagi kamchiliklar va xatolarga ommaning, hokimiyat tarmoqlarining e'tiborini jalb qiladi, mamlakat rahbariyatiga ichki va tashqi siyosat sohasida to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun zamin tayyorlaydi.

Islohotlar davrida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini yaratish tadbirlari amalga oshirildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkin va qonunga muvofiq ishlaydi. 29-moddasida esa har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida 1997-yil 24-aprelda «*Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida*» va «*Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida*», 1997-yil 26-dekabrda «*Ommaviy axborot vositalari to'g'risida*» Qonunlar qabul qilindi. Davlat organlari, muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzurani amalga oshirganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik, uning professional faoliyatiga aralashganlik uchun javobgar bo'lishlari qonunan mustahkamlab qo'yildi. Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida tuzilgan Axborot markazi, Milliy matbuot klubi ommaviy axborot vositalariga moddiy jihatdan ko'maklashmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra 1996-yil avgust oyida ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi. Respublika Prezidentining 1997-yil 7-maydagi «*O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniya va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi Farmoniga ko'ra O'zbekiston Davlat televideniya va radioeshittirish qo'mitasi O'zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi va uning joylarda hududiy bo'linmalari tuzildi. Bu tadbir o'ztele-

radiokompaniyasining aholi va jamiyatning xolisona, haqqoniy axborotlarga ehtiyojini o'rganish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va o'zgarishlar to'g'risida aholini, chet el jamoatchiligini keng xabardor qilish sohasidagi faoliyatini demokratlashtirish va rivojlantirishga salmoqli turtki berdi.

Mustaqillik yillarida respublika ommaviy axborot vositalarining soni ko'paydi, sifati yaxshilandi. 1990-yilda 376 nomda gazeta va jurnallar chop etilgan bo'lsa, 2008-yilda 870 dan ziyod nomda gazeta va jurnal chop etildi, 4 ta axborot agentligi 55 ta nashriyot, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari va uning hududiy bo'linmalari, 100 dan ortiq elektron axborot vositalari faoliyat ko'rsatdi. Ko'p millatli O'zbekiston Respublikasida gazetalar, jurnallar, teleradiostudiyasi 12 tilda – o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq va boshqa tillarda chop etiladi, eshittiriladi. 6 ta gazeta va 8 ta jurnalda o'zbek tili bilan birga ingliz, arab, turk, urdu, forsiy, hind tillaridan foydalaniladi. Ommaviy axborot vositalari, ularning muassislari, mazmuni va yo'nalishiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi. Bular, davlat tomonidan nashr etiladigan; siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari, tijorat va xususiy gazeta va jurnallardir. Shuningdek, diniy tashkilotlarning gazeta va jurnallari, adabiy-badiiy, ixtisoslikka yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy nashrlar mavjud. 1996-yilda respublikamiz AQSHda joylashgan kompyuter tizimi «Internet» bilan bog'landi va jahon yangiliklarini qabul qilib olish va axborotlar uzatish yo'lga qo'yildi.

## 17-MAVZU: Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti

### *Reja:*

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning O'zbekistonga xos yo'li.
2. Mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashuvi va taraqqiyoti.

*Tayanch so'z va iboralar:* Iqtisodiy islohotlar. Strategik maqsadlar. Xususiylashtirish. Kichik va o'rta biznes. Agrar islohotlar. Bozor infratuzilmasi. Mashinasozlik sanoati. Yoqilg'i mustaqilligi. G'alla mustaqilligi.

### *Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. *Каримов И.А.* Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
3. *Каримов И.А.* Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1994.

4. *Каримов И.А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд, – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
6. *Каримов И.А.* Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
7. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; – 2012.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 47–56; 298–238, 298–364.
10. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 575-592.
11. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / Қ. Ражабов [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: O'zbekiston, 2012.
12. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD - MOLIYA, 2006. – В. 418–432.

**1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning O'zbekistonga xos yo'li.** Istiqloq yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar iqtisodiy hayotimizni ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan kelib chiqib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi.

#### **Bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurati**

O'tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o'tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbekiston yo'li» kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb masalalardan biri edi.

Ma'lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya)ning deyarli barchasi bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan bo'lib, shu asosda iqtisodiy taraqqiyotini belgilab kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan umumjahon voqealigidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilarning xohish-irodasi emas, balki obyektiv zaruratdir.

**Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisod tushuniladi.** Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar doirasida

saqlanib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish – bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo'lidir, ya'ni iqtisodiy faoliyat erkinligiga, mulkchilikning xilma-xilligiga, narx erkinligiga, raqobat kurashiga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir. Faqat bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko'plab sifatli mahsulotlar yaratish, ularga bo'lgan talabni qondirish, tejamli xo'jalik yuritish, to'kinchilik yaratib, xalqning farovon turmushini ta'minlash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolat o'rnatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmuidir. Tarixan, bozor iqtisodiyotiga o'tish eng so'nggi navbatda «sotsialistik» mamlakatlar o'tmoqda. Xalqaro tajribada bozor iqtisodiyotiga o'tishning bir qancha modellari mavjud bo'lib, ularni umumlashtirib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch turga yoki modelga bo'lishimiz mumkin:

1. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li.
2. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika, Login Amerikasi mamlakatlarining yo'li.
3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari, boshqacha aytganda, «sotsialistik» rivojlanish yo'lidan borgan va hozirda bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan mamlakatlar yo'li.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda davlatlashtirilgan, o'ta markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan – bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni taqozo etdi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya'ni uni ta'minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish.
2. Bozor infrastrukturasi shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o'rnatishga ko'mak beruvchi, ya'ni bozorga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxonalar va muassasalarni yaratish.
3. Mulchilik va xo'jalik yuritish usullarini privatizatsiyalash.
4. Narx-navoni liberallashtirish, narxlarni erkin qo'yib yuborish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiyliigi, masalan, xususiy mulchilik, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xilligi bo'lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi yo'li mavjuddir. Bunda uning xo'jalik tuzilishi va shart-sharoitlari,

joylashgan yeri, tabiati va iqlimi, milliy kelib chiqishi, rasm-rusumlari, an'ana va milliy xarakteri va boshqa omillar sabab bo'ladi.

**Milliy taraqqiyotning  
«O'zbek modeli»**

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari mavjud bo'lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sosial-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi. Natijada o'ziga xos yo'lni tanlash muhim hisoblanadi.

Sobiq tuzumda amal qilgan va markazlashgan ma'muriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot o'zining hayotiy emasligini, aholining o'sib boruvchi ehtiyojlarini ta'minlay olmasligini aniq ko'rsatdi. Natijada mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyot uchun O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va bu yo'lda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga Prezidentimiz I.A. Karimov boshchilik qildi.

Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992-yil 4-yanvardagi IX sessiyasida so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab berdi.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilni o'z ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993-yilda nashr etilgan «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida asoslab berildi. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «*o'zbek modeli*» deb qabul qilindi. O'zbek modelini ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Quyidagi keltirilgan jadval orqali besh tamoyilning mohiyatini ko'rishimiz mumkin:



№	Asosiy tamoyillar	Asosiy tamoyillarning mohiyati
1	<b>Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi</b>	Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur
2	<b>Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgartirishlarning tashabbuskori</b>	Davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart
3	<b>Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi</b>	Qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan Yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim
4	<b>Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish</b>	Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi
5	<b>Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borish</b>	Bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartirishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o'tdi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadal-lashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999-yil 14-aprel) quyidagi oltita ustuvor yo'nalish bilan to'ldirildi:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.

2. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish.

3. Kadrlar masalasi.

4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.

5. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash.

6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sardahlaramiz daxlsizligini, mamlakatimiz yaxlitligini ta'minlash (*Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 5–19-b.*).

#### **Islohotlarning strategik maqsadlari**

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti O'zbekiston davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo'lib qoldi. Bu yo'lni shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

➤ ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini bosqichma-bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim yaratish;

➤ ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o'sishi uchun asos boladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

➤ korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yo'q qilish, iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlarni keng qo'llash;

➤ moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishni ta'minlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

➤ iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

➤ jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;

➤ kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini qo'llash sohalari va shakllarini o'zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy islohotlarning asosiy va muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal yetishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

➤ mulkiy islohotlar;

- institutsional va moliya-kredit islohotlari;
- agrar islohotlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari;
- ijtimoiy sohadagi islohotlar.

#### **Islohotlarning huquqiy asoslari**

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Shu bo'sdan islohotlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir». Shu nuqtayi nazardan dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Bu qonunlarni mazmun-mohiyati jihatidan quyidagi yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. O'zbekistonning davlat va uning iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqaruv qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar. Ana shu yo'nalishda «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida», «Yerosti boyliklari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida», «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida», «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, yer to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

3. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni xususiylashtirish, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati, pul tizimi, tadbirkorlik, sug'urta, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi qonunlar, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, Xo'jalik-prosessual kodeksi ishlab chiqildi, xo'jalik sudi tuzildi.

4. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixda yangi sahifa ochdi.

Respublika iqtisodiyotining huquqiy asoslari Prezident farmonlarida, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda yanada takomillashtirib borildi.

**Bozor infratuzilmasining yaratilishi** Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorining ko'p bo'g'inli infratuzilmasini yaratishni talab qiladi. Chunki muayyan infratuzilmaga ega bo'lmasdan bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmaydi. O'tish davrida bozor infratuzilmasi shakllantirish va kengaytirish borasida ko'plab amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va ularni samarali yuritishga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi.

№	Infratuzilma turlari	Infratuzilma tarmoqlari
1	<b>Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ transport</li> <li>➤ aloqa</li> <li>➤ ombor xo'jaligi</li> <li>➤ yo'l xo'jaligi</li> <li>➤ suv va energetika ta'minoti va boshqalar</li> </ul>
2	<b>Tovar va xomashyo bozorida xizmat qiluvchi infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ birjalar</li> <li>➤ savdo uylari</li> <li>➤ auksionlar</li> <li>➤ tijoratchilik idoralari</li> <li>➤ reklama firmalari</li> <li>➤ savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari</li> </ul>
3	<b>Moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ banklar</li> <li>➤ o'zini o'zi kreditlash idoralari</li> <li>➤ sug'urta kompaniyalari</li> <li>➤ moliya kompaniyalari</li> <li>➤ soliq undirish idoralari</li> <li>➤ pul jamg'armalari</li> </ul>
4	<b>Aholiga xizmat qiluvchi (ijtimoiy) infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ uy-joy va kommunal xizmati</li> <li>➤ madaniyat</li> <li>➤ sog'liqni saqlash</li> <li>➤ aholini ishga joylashtirish xizmati (mehnat birjalari)</li> </ul>
5	<b>Axborot infratuzilmasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar</li> <li>➤ sotish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari, davlat muassasalari</li> </ul>

Isloholar davrida respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari – turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi vujudga keldi. Avvalambor, **ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi** – transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi.

**Tovar va xomashyo bozorida xizmat qiluvchi** – tovarlar va xomashyo birjalari, biznes inkubator, auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bu sohadagi dastlabki qadam – mahsulot yetkazib berishga majburiy davlat buyurtmasining tugatilishi bo'ldi. Davlat buyurtmasi tugatilgach, tovar resurslarini markazlashgan tartibda taqsimlashga mutasaddi ta'minot tashkilotlari ham tugatildi. Ularning o'rniga tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi. O'zbekistonda 1991-yilning avgustidan «O'zbekiston» respublikasi universal agrosanoat birjasi, «O'zulgurjibirjasavdo» – O'zbekistonda ulgurji va birja savdosi bo'yicha Respublika davlat aksiyadorlik uyushmasi (1994-yil mart), «Toshkent» Respublika tovar-xomashyo birjasi (1994-yil 8-aprel) va boshqa birjalar faoliyat ko'rsatmoqdi. 1992-yil 12-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida» Qaror qabul qildi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishda **axborot infratuzilmasi** alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keldi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni **moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi** infratuzilma – yangi bank tizimi, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg'armalari yaratildi.

Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ehtimoli bo'lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug'urta bozori vujudga keldi. Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «**O'zbekinvest**» (1994-yil 13-aprel), «**O'zagrosug'urta**» (1997-yil 25-fevral), «**Kafolat**» (1997-yil 14-mart) kabi uchta yirik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko'plab xususiy sug'urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo'shma sug'urta kompaniyalari ham vujudga keldi. 2002-yilda sug'urta kompaniyalarining soni 28 taga etdi, ular moliya bozorida mamlakatimiz fuqarolari va tashkilotlariga 150 turdan ortiq yo'nalish bo'yicha sug'urta xizmati ko'rsatmoqdalar. «**Sug'urta faoliyati**



**to'g'risida»**gi Qonunning qabul qilinishi (2002-yil 5-aprel), Prezident farmoni bilan 2002-yil 1-fevralidan boshlab sug'urta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2006-yil 1-yanvardagi holatiga ko'ra O'zbekiston sug'urta bozorida 25 ta sug'urtalovchi kompaniya va 1 ta sug'urta brokeri faoliyat ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida **ish bilan bandlik** masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim o'zgarayotgan paytda malakasiz kishilargagina emas, ma'lum ixtisosga ega bo'lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi. 1993-yildan O'zbekistonda Mehnat birjalari paydo bo'ldi. Respublika «Mehnat birjasi» va joylardagi 225 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Yangi ish o'rinlarini tashkil yetishga e'tibor berildi. 1993-yilda Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 185,1 ming yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 1998-yilda bu ko'rsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta ko'p yangi ish o'rinlari yaratildi. 2000-yilda faqat kichik va xususiy biznes rivoji hisobiga 192,5 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2004-yilda 425 mingdan oshdi. 2003-yil 1-yanvarda iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 76,6% nodavlat sektor hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq, narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensasiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar muntazam suratda oshirib borildi.

Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1992-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasining **«Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»**gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tizilgan antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi.

Iqtisodiy islohotlar borasida qo'yilgan yana bir muhim qadam—1994-yil 1-iyuldan milliy valutamiz – so'mning muomalaga kiritilishi bo'ldi. Bu tadbir katta

siyosiy ahamiyatga, e'tiborga molikdir, chunki o'z milliy valutasiga ega bo'lmagan davlat chinakam mustaqil bo'la olmaydi. Respublika hukumati milliy valuta qadrini mustahkamlash, uning erkin aylanishini taminlash choralari amalga oshirib bordi. 2003-yil 15-oktabrdan boshlab so'm qisman konvertatsiyalanadigan valuta maqomiga ko'tarildi.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyoti asoslari shakllandi. Ko'p ukladli iqtisodiyotni, mulkdorlar tabaqani shakllantirishdan iborat strategik vazifa amalda ro'yobga chiqdi. 2004-yil boshlarida respublikamizda mulkchilikning nodavlat sektori (xususiy mulk egalari, fermer, shirkat va dehqon xo'jaliklari, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar, kooperativlar, jamoa mulki, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, h.k.)ning ulushi 90,2% ga yetdi. Davlat tasarrufidagi korxonalar ulushi esa 9,2%ga tushdi.

#### Xususiylashtirish

Bozor iqtisodiyoti, avvalo, turli xil mulk shakllariga, ko'p ukladli iqtisodiyotga asoslanadi. Shu boisdan O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, mulkdorlar tabaqasini shakllantirish iqtisodiy islohotlarda birinchi o'rinda turdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida iqtisodiyot xilma-xil mulk shakllaridan iborat bo'lishi, har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat tomonidan himoya qilinadi.

O'zbekistonda chek (vaucher) asosida xususiylashtirishga yo'l qo'yilmadi. Davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish yo'li tutildi. Shu bilan birga xususiylashtirish chog'ida imtiyozlar tizimi yaratildi. Xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasining xodimlariga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniyati berildi. Eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari yangi mulkdorga tekinga topshirildi. Qishloq xo'jaligi davlat xo'jaliklarining mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirildi.

Xususiylashtirishga davlat boshchilik qildi. Bu jarayonni tashkil etish va rahbarlik qilish uchun 1992-yil 10-fevralda **O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasi (Davlat mulk qo'mitasi)** tuzildi, 1994-yilda uning funksiyalari kengaytirilib, **Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi** sifatida qayta tashkil etildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish 1991-yil 18-noyabrda

qabul qilingan mulkni «*Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida*»gi va «*Davlat uy-joy*» fondini xususiylashtirish to'g'risidagi (1993-yil 7-may) qonunlar va 20 dan ortiq maxsus davlat dasturlari asosida amalga oshirildi.

Xususiylashtirish savdo, xizmat ko'rsatish va mahalliy sanoat korxonalarini, uy-joy fondini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu kichik xususiylashtirish deb nom oldi.

1993–1994-yillarda davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95% dan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2002-yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98% ga yaqini xususiylashtirildi.

1994-yil 21-yanvarda e'lon qilingan «*Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi va 1994-yil 16-martda e'lon qilingan «*Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida*»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayonida yangi turtki bo'ldi.

1992–1994-yillarda 54 mingga yaqin savdo, xizmat ko'rsatish, avtomobil transporti, qurilish, qishloq xo'jalik korxonasi va obyektlari davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi. Qishloq xo'jaligida bog'larning yarmi, uzumzorlarning 40%i xususiy foydalanish uchun berildi. 14 mingdan ortiqroq fermer xo'jaliklari tashkil topdi, ularga 193 ming gektar yer ajratib berildi. Xususiy tadbirkor subyektlarining soni 300 mingga yetdi, ulaming 250 mingtasini patent asosida yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan kishilar tashkil etdi. 1994-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo'ldi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar tabaqasini paydo bo'lishi demakdir. Kichik biznes, tadbirkorlik bozorni zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishga hamda daromad va foyda olishga qaratilgan faoliyatdir. Bu – yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash, aholi daromadlarining asosiy manbayidir.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekistonda kichik biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirishga iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor berildi.

O'zbekistonning har bir fuqarosi korxonalar va tashkilotlar tuzish, sotib olish, sotish, qayta qurish yo'li bilan tadbirkorlik faoliyati yuritish huquqiga ega. Tadbirkor ish yuritish uchun boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, pul mablag'larini ixtiyoriylik asosida jalb qilish, mustaqil ravishda ishchilar yollash va bo'shatishga haqlidir, tadbirkorlik daromadlaridan soliq to'lab turadi.

### **Kichik biznesni quyidagilar tashkil etadi:**

1. Mulq shaklidan qat'i nazar, yiliga sanoat korxonalarida o'rta hisobda 10 nafargacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan mikrofirmalar;

2. Ishlab chiqarish sohasida yiliga o'rta hisobda 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarda 20 nafargacha, ilm-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan kichik korxonalar kiradi.

### **Tadbirkorlik shakllari:**

1. Xususiy (shaxsiy) tadbirkorlik;
2. Yollanma mehnatni jalb qilib amalga oshiriladigan tadbirkorlik;
3. Bir necha fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

1995-yil 5-yanvarda e'lon qilingan «*Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida*»gi Prezident farmoni mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishga yangi turtki berdi. Farmonga binoan davlat mulkini xususiylashtirishdan tushayotgan mablag'larning 50% i kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirildi.

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «*Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida*»gi Qonuni iqtisodiyotning mazkur sektoriga davlat va mintaqaviy darajada rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Davlat darajasida xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun huquqiy-normativ asoslar, zarur infratuzilma va shart-sharoitlar yaratildi. Mintaqaviy (viloyat, shahar, tuman) darajada esa tadbirkorlarga mahalliy soliq va yig'img'lar solishda

yengilliklar berildi, bu sektorni rivojlantirish uchun hududiy dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirish tadbirlari ko'rildi.

Kichik biznesga ko'maklashish maqsadida respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi – Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes – fond, 1995-yil iyul), «Madad» sug'urta agentligi (1995-yil 26-iyun), O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi (1996-yil martda) ularning hududiy bo'limlari tashkil etildi. O'rta va kichik biznesning rivojlanishiga **Dehqon va fermer xo'jaliklari assosiatsiyasi, «Hunarmand» assosiatsiyasi, Tadbirkor ayollar assosiatsiyasi** ham ko'maklashmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishga chet ellik investorlarning va dunyodagi nufuzli banklarning, jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining kredit resurslari jalb etilmoqda. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash markazini, Yevropa hamjamiyati komissiyasi esa amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi o'zbekistonlik tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar.

1998-yil 9-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon e'lon qilindi. 2001-yil 22-avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi *«Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazib va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»* Qaror qabul qildi. Qarorga binoan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojtitirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Kichik va o'rta biznes subyektlariga Respublika tovar-xomashyo birjasi, Agrosanoat birjasi, «O'zulgurjisavdo» orqali moddiy-texnika resurslari sotildi.

Tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida xo'jalik subyektlarida *«Tekshirishlarni ro'yxatga olish daftari»* joriy etildi. Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi, ular o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni naqd xorijiy valutaga eksport qilishga ruxsat berildi.

Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilgan tadbirlar natijasida ularning soni yildan yilga ko'payib bordi. Xususan, 2010-yil 7-dekabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2011-yilni – mamlakatimizda «*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*» yili deb nomlashni taklif qilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

## **2. Mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashuvi va taraqqiyoti.**

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekistonga sobiq tuzumdan barbod bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy tizim, izdan chiqqan iqtisodiy boshqaruv mexanizmi va iqtisodiy munosabatlar meros bo'lib qolgan edi. Respublika korxonalari sobiq Ittifoqning boshqa mintaqalaridagi korxonalar bilan bog'langan bo'lib, Ittifoq parchalangach, ular o'rtasidagi aloqalar uzildi. Mustaqil Respublikalardagi islohotlar jarayonida korxonalar xususiylashtirildi, mulk egaligi, mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishlari o'zgardi. Natijada korxonalarning bir-biriga xomashyo, asbob-uskunalar yetkazib berish jarayoni to'xtab qoldi. Bu barcha respublikalar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonning sanoat korxonalarida xomashyo va asbob-uskunalar taqchilligi vujudga kelib, xo'jalik yuritish murakkablashib qoldi. Masalan, O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodlari, to'qimachilik va kimyo sanoati korxonalari, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish keskin pasaydi. O'zbekiston oldida iqtisodiyotdagi tanglik holatlarini oldini olish, inqirozga yo'l qo'ymaslik, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish vazifasi ko'ndalang bo'lib turdi. Shuning uchun iqtisodiy sohada O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasi asosan eng muhim uch vazifani hal yetishga yo'naltirildi:

1. Ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatish;
2. Iqtisodiy yuksalishning asosi sifatida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish;
3. Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish.

O'zbekistonda islohotlar endigina boshlangan 1992-yildayoq Prezident Islom Karimov O'zbekistondagi iqtisodiy o'zgarishlar barqarorlik vaziyatida o'tishi kerakligini alohida ta'kidlagan edi.

Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun O'zbekiston iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar qurish va buning uchun zarur investitsiyalar ajratish yo'llaridan bordi.

O'zbekistonda islohotlarning dastlabki yillaridanoq iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari ko'rila bordi:

➤ o'zak tarmoqlarni – neft va gaz sanoatini, energetikani, oltin qazib olish, rangli metallurgiya tarmoqlarini modernizatsiyalash, yangilash;

- transport va aloqa tizimini, muhandislik kommunikatsiyalarini va ishlab chiqarish infratuzilma tizimini yangilash;
- qora metall va metall mahsulotlari ishlab chiqaruvchi Bekobod metallurgiya kombinatini tubdan ta'mirlash;
- qishloq xo'jalik mashinasozligini, paxtachilik uchun chigit ekish, g'o'zaga ishlov berish va paxta terish mashinalari ishlab chiqaruvchi korxonalarni tarkiban qayta qurish va yangilash;
- samolyotsozlik, radioelektronika, elektrotexnika sohasini rivojlantirish;
- O'zbekiston uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoatini barpo etish;
- kimyo sanoati kompleksini qayta qurish;
- qishloq xo'jaligida va umuman agrosanoat kompleksida chuqur tarkibiy o'zgarishlar va progressiv siljishlarga erishish;
- paxta, pilla, meva va sabzavot, uzumni qayta ishlovchi tarmoqlarni yangi texnika bilan qayta qurollantirish, ip yigirish va to'qimachilik sanoatida tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yangi korxonalar qurish va boshqalar.

**Iqtisodiyotga sarmoya  
ajratish va chet el  
investitsiyani jalb etish**

Iqtisodiyot tarkibini qayta qurish, yangi korxonalar barpo etish katta mablag'larni talab qilishi tabiiydir. Shu boisdan islohot yillarida iqtisodiyotga mablag' – sarmoya jalb qilishning turli manbalari ishga solindi. Ular

quyidagilardan iborat:

- davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- respublika banklaridan olinadigan kreditlar;
- korxonalarining o'z sarmoyalari;
- aholi sarmoyalari;
- qarz beruvchi mamlakatlardan olinadigan davlat qarzlari;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan olinadigan moliya-kredit resurslari;
- chet el firmalari va kompaniyalarining kiritayotgan bevosita investitsiyalari.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish uchun barcha mablag'lar hisobiga sarmoya solish yildan yilga o'sib bordi. O'zbekistonda xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, imtiyozli investitsiya muhiti yaratildi. Natijada mustaqil taraqqiyot yillarida iqtisodiyotga 100 mlrd dollardan ortiq investitsiya jalb qilindi. Buning 25 mlrd dollaridan ziyodini xorijiy sarmoyadorlarning mablag'lari tashkil etadi. Bu mablag'lar yuksak texnologiyalar bilan ishlaydigan yangi korxonalar qurishga, ishlab chiqarish tarmoqlarini

zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar bilan jihozlashga, sotsial sohalarni rivojlantirishga sarflandi.

Xalq xo'jaligi tarkibini qayta qurish maqsadida chet el investitsiyasini jalb qilish choralari ko'rildi. 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «*Chet ellik investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida*»gi Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar chet ellik investorlarning respublikamizda yaratiladigan mulklarining daxlsizligi va erkin faoliyati uchun huquqiy zaminlarni mustahkamlab berdi. Chet ellik tadbirkorlarga O'zbekistonda qo'shma korxonalar barpo etish, o'z kompaniya va firmalarining bo'linmalari, shu'balarini ochish imkoniyati yaratildi. Ularga soliq va bojxona to'lovlari yuzasidan imtiyozlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti, 1995-yilda Prezident farmoni bilan tashkil etilgan xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlik respublika tadbirkorlariga xorijiy hamkorlar izlab topish, qo'shma korxonalar barpo etish, investitsiya loyihalarini tuzish va amalga oshirish ishlariga ko'maklashmoqda. Chet el investitsiyalarini siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bo'yicha «**O'zbekinvest Interneynshnl**» qo'shma kompaniyasi tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Chet el investitsiyasini O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiya yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida amalga oshirildi. Respublikamizda yaratilgan qulay vaziyat va rag'batlantirish tadbirlari natijasida iqtisodiyotga kiritilayotgan xorijiy investitsiya salmog'i yildan yilga o'sib bormoqda. O'zbekistonga eng ko'p sarmoya kiritayotgan mamlakatlar qatoriga Rossiya, Yaponiya, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin.

Dastlab chet el investitsiyalari davlatga qarashli yoki davlat ishtirokidagi og'ir sanoat korxonalariga jalb qilindi. Iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlarida chet el investitsiyalari kichik va o'rta biznesga, xususiy sektorga keng jalb etildi. Chet el investitsiyalari ishtirokida barpo etilgan va faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar soni 2002-yil boshlarida 2087 taga yetdi. Ularning ish va xizmat hajmi 2002-yilda 1044 mlrd so'mni tashkil etdi.

Islohot yillarida kiritilgan investitsiyalar respublikaning energetika, metallurgiya, mashinasozlik, qurilish materiallari va boshqa sanoat tarmoqlarining tanglikdan chiqib o'zini o'nlab olishga, xalq xo'jaligi uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarish sur'atlarini izchil o'sishiga ko'maklashdi.

**Yoqilg'i mustaqilligi**

Mustaqillikning davtlabki yillaridan boshlab iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirish bilan bir qatorda mamlakatning yoqilgi mustaqilligiga erishishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston hududida 2 trillion kubometrغا yaqin gaz zaxiralari, 160 dan ortiq neft koni mavjud. Biroq mamlakat neft mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qaram bo'lgan. Xususan, XX asrning 90-yillari boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi.

O'zbekistonning neft mustaqilligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida ilgari surildi. Respublikada tarqoq holda faoliyat yuritayotgan neft hamda gazni qazib chiqarish va qayta ishlash korxonalari 1992-yilda tashkil etilgan «O'zbekneftgaz» konserniga birlashtirildi. 1998-yilda esa u «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga aylantirildi. Mazkur kompaniya rivojlangan davlatlardagi kompaniyalar bilan hamkorlik o'rnatib, 1995–2000-yillarda tarmoqqa 1,5 mlrd AQSH dollari miqdorida xorij sarmoyasini jalb etdi. Natijada respublikamizning Ustyurt, Buxoro – Xiva, janubi g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalarida gaz, neft va gaz kondensati qazib oluvchi 92 ta korxonaga kengaytirildi, yangi texnik uskunalar bilan jihozlandi.



Yaponiyaning «Mitsui» firmasi bilan hamkorlikda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi jahon andozalari darajasida ta'mirlandi. Mazkur korxonaning dizel yoqilg'isi uskunasi zamonaviy qismlar bilan jihozlashga 178 mln AQSH dollari sarflandi. u korxonada 50 dan ortiq turdagi yoqilg'i mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Neft mustaqilligiga erishishda AQSHning «Dresser» va «M.Y.Kollogg» hamda Yaponiyaning «Nisho Ivali» kompaniyalari ishtirokida 1997-yilda barpo etilgan, yiliga 2,5 mlrd kubometr gaz haydash quvvatiga ega bo'lgan Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor shahrida barpo etilgan neftni qayta ishlash zavodining o'rni katta bo'ldi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodini bunyod etishda Fransiyaning «Texnip» kompaniyasi hamda «Kredi Kommersial de Frans» va «Pariba» banklari, Yaponiyaning «Marubeni» va «Jey-Ji-Si» kompaniyalari va «Eksport – import banki» AQSHning «Cheyz

**Manxetten»** banki, Turkiyaning «**Gama**» kompaniyasi o'z sarmoyalari, texnik asbob-uskunalari, mutaxassis-quruvchilari bilan faol qatnashdi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi 1997-yil 22-avgust kuni ishga tushirildi va benzin, aviakerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida 262 mln AQSH dollari o'zlashtirildi. Zavod qurilishiga «**O'zbekneftgaz**», «**O'zmontajmaxsusqurilish**», «**Neftgazqurilish**» va boshqa sanoat, transport korxonalari, tegishli vazirliklar ulkan hissa qo'shdilar.

Respublikada neft mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, chetdan neft mahsulotlari sotib olish to'xtildi. O'zbekiston neft mustaqilligiga erishdi, neft mahsulotlarini chetdan sotib oladigan mamlakatdan uni chetga sotadigan davlatga aylandi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish ham o'sib bordi.

#### **Kimyo sanoati**

O'zbekistonda neft va gaz ishlab chiqarish bilan bir qatorda kimyo sanoati ham rivojlandi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Chirchiq, Navoiy, Olmaliq kabi shaharlardagi kimyo sanoati korxonalari qayta ta'mirlandi. Qizilqum fosforit kombinati, Qo'ng'iro't soda zavodi, Qo'qon va Yangiyo'l biokimyoviy zavodlari barpo etildi. Respublika kimyo sanoati qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar, ekinlarni zararkunandalardan saqlovchi kimyoviy moddalar, sun'iy tolalar, bo'yoqlar, polietilen, aholining kundalik turmushida kerak bo'ladigan mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

**Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi** O'zbekiston kimyo sanoatining faxri hisoblanadi. 1995-yil oktabrda O'zbekiston bilan AQSHning «**ABB Lummus Global**» kompaniyasi o'rtasida Sho'rtan gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha bitim tuzilgan edi. Tezda qurilish-montaj ishlari loyihasi ishlab chiqildi. 1997–2001-yillarda AQSH, Germaniya, Yaponiya, Italiya va boshqa davlatlarning nufuzli kompaniyalari ishtirokida qurilish ishlari amalga oshirildi.

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi qurilishida 1 mlrd AQSH dollari hajmida investitsiya o'zlashtirildi. 2001-yil 21-dekabr Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi (Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida) ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan dunyodagi eng yirik korxonalardan biridir.

#### **Mashinasozlik sanoati**

Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. Respublikamizdagi mavjud bo'lgan bir necha o'nlab mashinasozlik korxonalarini tarkibiy jihatdan qayta qurish maqsadida 1993-yilda O'zbekiston davlat mashinasozlik korxonalari uyushmasi – «**O'zmashsanoat**»,



1996-yilda «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding», 1998-yilda «O'zneftgazmash» korporatsiyasi, «O'zbekto'qimachimash» birlashmasi tashkil etildi.

Islohotlar davrida «O'zmashsanoat» uyushmasi tasarrufidagi 35 ta korxonaning 26 tasi ta'mirlanib, yangi texnik uskunalar bilan qayta qurildi. Toshkentdagi ekskavator, podyomnik, zenit, kompressor, asbobsozlik, agregat va abraziv zavodlari, Andijondagi «Andijonirmash» va Topoz, Samarqanddagi Kinop, Sino va boshqalar shular jumlasidandir. Ularda ekskavatorlar, ko'tarma kranlar, kompressorlar, paxtani qayta ishlash agregatlari, to'qimachilik dastgohlari, avtomatika vositalari, muzlatkichlar, mebelga ishlov berish uskunalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa texnik jihozlar ishlab chiqarilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mashinasozlik sanoatini rivojlantirish maqsadida xorijiy davlatlarning nufuzli kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. 1998-yilda O'zbekiston «**Amerika mobil grupp**» firmasi bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar barpo etib, O'zbekiston – Xitoy loyihasi asosida 22 va 23 ot kuchiga ega bo'lgan ikki turdagi mini traktorlar va ularga uskunalar komplektlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirdi. Bu ixcham traktorlar fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatida keng qo'llanilmoqda.

1994-yilda «UzLzmash» O'zbekiston – Isroil qo'shma korxonasi barpo etilib paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi avlodi yaratildi. Bu mashinalar tik shpindelli mashinalarga nisbatan paxta terishga qulay va samarador, tannarxi arzon bo'lib, jahon mashinasozligining eng yangi yutug'i bo'ldi. Qishloq xo'jalik mashinalarini «Keys» rusumidagi traktor va g'alla o'rish kombaynlari bilan to'ldirish maqsadida AQSH «Keys Nyu-Xolland» kompaniyasi sarmoyalari ishtirokida «O'zKeysmash» va «O'zKeystraktor» qo'shma korxonalari barpo etildi. Ularda zamonaviy traktorlar va kombaynlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» kompaniyasi 2001-yilda 48,2 mlrd. so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqardi.

Aviatsiya ishlab chiqarish davlat aksiyadorlik jamiyatiga birlashgan korxonalar ham rivojlanmoqda. Uning bosh korxonasi V. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya zavodida 4 ta rusumdagi yuk va yo'lovchi tashiydigan «II-114», «II-114T», «II-76MF», «II-76TF» samolyotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Yuk tashish bo'yicha dunyoda eng qulay deb e'tirof etilgan «II-76» rusumli 900 ta samolyot ishlab chiqarildi.

Mustaqillik yillarida metallurgiya, oltin qazib olish sanoati ildam qadamlar bilan o'sdi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Bekoboddagi metallurgiya zavodi, Zarafshondagi 2-gidrometallurgiya zavodi, Chirchiqdagi qiyin eruvchan

va o'tga chidamli metallar kombinati qayta ta'mirlandi. Bekobod metallurgiya kombinatida yiliga 100 ming tonna po'lat shar va metall prokat tayyorlovchi yangi quvvatlar ishga tushirildi. Uchquduqda 3-gidrometallurgiya zavodi barpo etildi. Amerikaning «Nyumont mayning» kompaniyasi ishtirokida Navoiy tog'-metallurgiya kombinati chiqitlaridan oltin ajratib olish bo'yicha «Zarafshon – Nyumont» qo'shma korxonasi qurilib, 1995-yil 25-mayda ishga tushirildi. 1991–2001-yillarda respublikada oltin qazib olish hajmi 1,7 baravar o'sdi. Birgina «Zarafshon – Nyumont» qo'shma korxonasi 1995–2003-yillarda 113 million tonna rudani qayta ishlab, 110 tonna yuqori sifatli oltin ishlab chiqardi. Korxonaning O'zbekiston iqtisodiyotiga bergan samarasi 500 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Elektroenergetika sanoati ancha rivojlandi. «O'zbekenergo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi mustaqillik yillarida issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarini ta'mirlash va ular tarkibida yangi bloklar barpo etish ishlarini amalga oshirdi. Sirdaryo, Yangi Angren, Toshkent, Navoiy GRES lari energetika bloklarida texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari ishga tushirildi.

Germaniyaning «Simens» firmasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ajratgan kredit hisobidan Sirdaryo GRESining 8 ta bloki ta'mirlandi. 2001-yilda 37 ta issiqlik va gidravlik elektr stansiyalaridan iborat O'zbekiston energetika tizimi 55 mlrd kilovatt-soat yoki 1992-yilga nisbatan 10% ko'p elektr energiya ishlab chiqardi. O'zbekiston energetika tizimi respublika xalq xo'jaligi va aholisini elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis ta'minlamoqda, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shmoqda. Shuningdek, O'zbekiston elektr energiyasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'onistonga ham uzatilmoqda.

**Avtomobilsozlik sanoati** Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar barpo etish maqsadida Janubiy Koreya Respublikasining «DAEWOO» korporatsiyasi raisi Kim U Jung bilan muzokaralar olib borildi. 1992-yil 24-avgustda Toshkentda Janubiy Koreyaning «DAEWOOMotors» korporatsiyasi va O'zbekistonning «Avtoqishxo'jmarsh» davlat konserni O'rtasida Andijon viloyatining Asaka shahrida yiliga 180 ming avtomobil ishlab chiqaradigan «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 5-noyabrda Asaka shahrida «O'zDAEWOOavto» korxonasi tashkil qilish to'g'risida Qaror qabul qildi. Uni ta'sischilari etib «DAEWOOMotors» korparatsiyasi va «O'zavtosanoat» uyushmasi, har ikki



UZ-DAEWOO

tarafning qo'shma korxonadagi ulushi teng miqdorda 50% dan iborat qilib belgilandi. 1993-yil mart oyida «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasi ro'yxatga olindi va umumiy miqdori 658 mln AQSH dollari hajmidagi qurilish ishlari boshlandi. Korxonada qurilishiga ilg'or texnologiyalar, tajribali muhandislar, o'zbekistonlik yoshlar jalb qilindi. 1000 dan ortiq O'zbekistonlik yoshlar Janubiy Koreyaga borib «DAEWOO» kompaniyasida ishlab, avtomobil ishlab chiqarish tajribalarini o'rganib qaytib keldilar. «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasi birinchi navbati 1996-yil mart oyida ishga tushirildi. 1996-yil mart oyida «Damas», iyun oyida «Tico», iyul oyida «Neksiya» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish boshlandi. 1996-yil 19-iyulda korxonaning rasmiy ochilish marosimi bo'ldi, unda Prezident Islom Karimov qatnashdi va «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasi qurilishida faol qatnashganlarga minnatdorchilik bildirdi.



«O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasiga ishlab chiqarilgan yangi avtomashinalar

O'zbekiston hukumati «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasiga butlovchi qismlar tayyorlovchi korxonalar qurish tadbirlarini amalga oshirdi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 30-mayda qabul qilingan «Avtomobillar uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaradigan O'zbekiston – Koreya qo'shma korxonalarini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorga muvofiq «O'zDAEWOOavto» uchun butlovchi qismlar tayyorlaydigan korxonalar tizimini yaratishni mahalliyashtirish dasturi ishlab chiqildi va qurilish ishlari boshlandi. 1996–2006-yillarda lak-bo'yoqlar, avtomobil o'rindiqlari, ichki jihozlari, elektr kabellari, shinalar, diskalar, toblangan oynalar, tovush pasaytirgichlari, yoqilg'i baki, bamperlar va boshqa butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi «O'z-Dong Ko», «Yan Ko», «O'z-Sem Yun Ko», «O'z-Dong Von Ko», «O'z-Tong Xong

**Ko», «O'z-Karam Ko», «Elektromash», «Meridian» kabi 75 ta yangi qo'shma korxonalar, ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi.**

1999-yil oktabrda Janubiy Koreyadagi yirik «Eksimbank» bilan «O'zDAEWOOavto» zavodini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha bitim tuzildi va «DAEWOOMotors» kompaniyasi bilan hamkorlikda «O'zDAEWOOavto» zavodida «Matiz» va «Neksiya-2» rusumli avtomobillar ishlab chiqarishga kirishildi. «O'zDAEWOOavto» zavodiga 2000-yil yanvarda «ISO-9001» sertifikatini berildi.

2013-yil yanvarga kelib avtomobil sanoatida Germaniyaning «MAN» kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand viloyatida yiliga 3 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi kompleksning buniyod etishning ikkinchi bosqichi yakunlandi. Bu korxonada jahondagi eng yuksak standartlari



«Lasetti»



«Captiva»



«Epika»



«Takuma»

asosida jihozlangan yuqori texnologik ishlab chiqarish tashkil etildi. Mazkur korxonada nafaqat O'zbekiston ehtiyojini qoplaydi, balki bu mashinalarni eksport qilishni ham ta'minlaydi<sup>1</sup>.



«Spark»

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar.

2001-yil avgustda «O'zDAEWOOavto» zavodida yangi liniya barpo etilib, xalqaro andozalarga to'la javob beradigan, har tomonlama qulay, ilg'or dizayn va texnik afzalliklari bilan ajralib turadigan «Matiz» rusumli yangi avtomobil ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2003-yilda yana bir liniya barpo etilib, «Lasetti» avtomobili ishlab chiqarish boshlandi. 2004-yilda 70070 dona avtomobil ishlab chiqarildi. 2007-yil oktabr oyida «O'zDAEWOO» avto negizida «General Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlikda «GM O'zbekiston» qo'shma korxonasi tashkil etildi. Natijada Asakada dunyoda mashhur «Shevrале» avtomobillari – «Captive», «Epika», «Takuma» rusumli yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

2010-yilda «Shevrале» avtomobili – «Spark» rusumi, 2012-yilning oxiridan esa «Shevrале» avtomobilining – «Cobalt» rusumli yangi avtomobil ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Shunday qilib, «O'zDAEWOOavto» qo'shma korxonasi mustahkam poydevori yaratildi. «O'zDAEWOOavto» zavodi MDH mamlakatlaridagi yengil avtomashina ishlab chiqaruvchilar orasida Xalqaro sifat tizimidan foydalanuvchi birinchi korxonaga bo'ldi.

Samarqand shahrida yana bir avtomobil zavodini qurishga kirishildi. 1995-yilda «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning «Kocholding» kompaniyasi o'rtasida avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqaruvchi «SamKochavto» qo'shma korxonasi barpo etish haqida bitim tuzildi. 1996-yilda «SamKochavto» qo'shma korxonasi ro'yxatga olindi va qurilish ishlari boshlandi. Mashinalar loyihasini ishlab chiqishda xalq xo'jaligining barcha sohalarida foydalanish uchun qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida Italiya–Ispaniya qo'shma korxonasi «Iveko»ning ixcham konstruksiyalari asos qilib olindi va «Kocholding» kompaniyasi a'zosi – «Otayo'l» zavodida O'zbekiston sharoitiga moslab takomillashtirildi.

1999-yil mart oyida «SamKochavto» qo'shma korxonasi ishga tushirildi. O'sha yili foydalanishga qulay, ixcham 163 ta avtobus va 302 ta yuk avtomobili, 2000-yilda esa 483 avtobus va 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqarildi. Respublika aholisi uchun «Otayo'l» rusumli avtobuslar asosiy transport vositasiga aylandi.



2001-yilda O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatida band bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 14 mingtaga yetdi. Eng muhimi, o'zbek avtomobilsozlarining butun bir avlodi shakllandi.



**Yengil sanoati**

1991-yil maydan Toshkent, Farg'ona, Buxoro to'qimachilik kombinatlari, Andijon va Nukus ip-gazlama kombinatlari, ular tasarrufidagi kichik va o'rta korxonalarni birlashtirgan «O'zbekiyengilsanoat» davlat uyushmasi tashkil etildi. Bu uyushma, bir tomondan, mavjud korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlari sifatida qayta tashkil etdi, ularni ta'mirlash, yangi texnik jihozlar bilan qayta qurish orqali mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirdi. Masalan: «Buxoroteks» aksiyadorlik jamiyati 1994-yilda o'z mablag'lari hisobidan Shveysariyaning «Riter» firmasidan 2592 ta yigiruv g'altagi quvvatiga ega bo'lgan uskunalarni sotib oldi. 1996-yilda esa Shveysariyadan jalb etilgan 5 mln shved frankiga ikkinchi yigiruv majmui sotib olib korxonani jihozladi. Natijada 1997-yildayoq 1000 tonna kalava ip ishlab chiqarishga erishdi.

Ikkinchidan, davlat uyushmasi tomonidan respublikamizdagi boy xomashyolarni, birinchi navbatda paxta tolasini qayta ishlab tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yangi korxonalar barpo etish har tomonlama qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996-yil aprel oyida «Mahalliy va yengil sanoatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida» Qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq tarmoq bo'yicha 35 ta investitsiya loyihalari ishlab chiqildi va ularni amalga oshirish jarayonida 152 mlrd so'm, shu jumladan, 644,4 mln AQSH dollari hajmida chet el sarmoyalari o'zlashtirildi. Natijada 1996–2001-yillarda Janubiy Koreya ishtirokida «**Kobul – Uzbek Ko**» qo'shma korxonasi birlashgan To'ytepa va Toshkent shahrining Ko'kcha mavzesida 2 ta yirik qo'shma korxonalar, «**Kobul – Farg'ona Ko**» qo'shma korxonalarini qurilib ishga tushirildi. Turkiya to'qimachilik kompaniyalari ishtirokida Nukus shahrida «**Kateks**» to'qimachilik majmuasi, Namangan viloyatida «**Asnamtekstil**», «**Tap – fen**», «**Kosonsoy – Tekmen**», «**Atlas – Men**», Qashqadaryo viloyatida «**Qashteks**», «**Oqsaroy – to'qimachi**» qo'shma korxonalarini barpo etildi. Germaniya sarmoyadorlari bilan hamkorlikda 1998-yilda Andijonda «**Anteks**», Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanida «**Pfaff-Zinger**» qo'shma korxonalarini qurildi. 1999-yilda Xo'jaobod tumanida tikuv va trikotaj buyumlar ishlab chiqaradigan «**Tyan-Din-Du**» O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasi, 2000-yilda-yiliga 3800 tonna kalava ip ishlab chiqaradigan «**Qorako'lteks**» O'zbekiston – Amerika qo'shma korxonasi barpo etildi. 2002-yilda Respublika to'qimachilik sanoatida 17 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatdi. Tarmoq bo'yicha 32 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. 2004-yilda 17 ta to'qimachilik korxonalarini, jumladan «**Beruniy teks**», «**Baliqchiteks**», «**Bursel – Toshkent**» kabi yirik qo'shma korxonalar qurilib foydalanishga topshirildi.

2002-yil boshlarida «O'zbekyengilsanoat» davlat uyushmasiga birlashgan 15 ta kichik va 102 ta yirik korxonalar paxta tolasini qayta ishlab, yiliga 130 ming tonna yigirilgan ip, 50 mln kvadrat metr gazlama, 2,5 mln kvadrat metr gilam, 62 mln dona trikotaj mahsulotlari, 32 mln juft paypoq, turli xil tikuvchilik buyumlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ldi.

Agar 1991-yilda respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12% ni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda bu raqam 30% ga yetdi. Chet ellarga kalava ip, paxta va shoyi gazlamalar eksport qilishga erishildi.

Respublikamizda qog'oz tanqisligi muammosini hal qilishga qaratilgan zavodlar qurildi. Namanganda barpo etilgan «**Namangan qog'oz**», Yangiyo'lda qurilgan «**O'zbek qog'oz**» qo'shma korxonalari shular jumlasidandir. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 20-iyundagi «Respublika qog'oz sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan «**O'zbekqog'ozsanoat**» uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibiga «**Sanoat-qalinqog'ozsavdo**», «**O'zbek qog'oz**» ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, Yangiyo'l selluloza-qog'oz fabrikasi, «**Namanganqog'oz**» qo'shma korxonasi va boshqalar kiradi. «**O'zbek qog'oz**» korxonasi yiliga 11 ming tonna qog'oz, 3,5 ming tonna karton, 7,5 mln dona umumiy va 65 millionta o'quv daftari ishlab chiqarmoqda. Yangiyo'l selluloza-qog'oz fabrikasi yiliga 20 ming tonna paxta sellulozasi, 12 ming tonna yuqori sifatli yozuv qog'ozini ishlab chiqarmoqda.

Mamlakatimizda poyabzal mahsulotlari va chinni idishlar, turli xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda. Qurilish materiallari sanoati bazasi mustahkamlanib, baland binolar, uy-joy qurilishi kengaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda transport tizimi – temiryo'li, avtomobil yo'li, havo, quvur va suv transporti rivojlandi.

**Qishloq xo'jaligi.  
Don mustaqilligi**

O'zbekistonda paxtachilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yiliga 2 mln tonna paxta tolasini yetishtirilsa, uning 1,4 mln tonnasi o'zbek paxtasi tolasidir. O'zbekiston paxta tolasini yetishtirish bo'yicha dunyoda to'rtinchi, uni eksport qilish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi.

Respublikamizda paxta hosildorligi va sifatini yaxshilashga katta e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda qator suv omborlari va sun'iy kanallar qurilmoqda, yerning meleorativ holatini yaxshilash tadbirlari amalga oshirildi. Suv tanqisligi hisobga olinib, 1998-yildan boshlab paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usulidan foydalanilmoqda.

Andijonlik paxtakorlar tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtani erta ekish, qisqa muddatlarda undirib olish, yuqori hosil yetishtirishga mustahkam zamin yaratdi. Paxta ekiladigan yerlar qisqartirilishiga qaramasdan respublikamizda yiliga 3,5 mln tonnadan ortiq paxta xomashyosi tayyorlanmoqda. Shuningdek, O'zbekiston kanop, tamaki yetishtirish sohasida ham dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi.

Mustaqillik yillarida don mustaqilligiga erishish vazifasi qo'yildi. Ekin ekiladigan maydonlarda tarkibiy o'zgarishlar qilinib, xo'jaliklar qanday ekin ekish sohasida mustaqil bo'ldilar. Sug'oriladigan yerlarda g'alla ekish kengaydi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991-yilda 18,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda 36% ga o'sdi, natijada g'alla yetishtirish sezilarli darajada oshdi. Agar 1991-yilda 1,9 mln tonna don, shu jumladan 600 ming tonna bug'doy yetishtirilgan bo'lsa, 2002-yilda 5,4 mln tonnaga yaqin don, shu jumladan 5,0 mln tonnadan ortiq bug'doy, 2007-yilda 6,25 mln tonna g'alla yetishtirildi. Sug'oriladigan yerlarda o'rtacha hosildorlik gektariga 48,0 sentnerni tashkil etdi. Andijon viloyatida esa rekord natijaga erishildi – har gektardan 75 sentnerdan ortiq xirmon ko'tarildi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadbir tufayli tom ma'noda mamlakatimizning g'alla mustaqilligiga erishildi, mamlakatimiz va xalqimizni o'z g'allamiz, o'zimizning nonimiz bilan ta'minlashdek tarixiy vazifa bajarildi. Bu yutuq qishloq hayotini yangilash, amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning natijasidir.

Respublikamizda un va un mahsulotlari, go'sht va sut mahsulotlari, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish izchil o'sib bormoqda. Shuningdek, sabzavot, meva, uzum yetishtirish bo'yicha ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Yiliga 5 mln tonnaga yaqin sabzavot-meva mahsulotlari yetishtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qishloq xo'jaligida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo'jaliklari jamoa, shirkat xo'jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo'jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiyashtirildi, dehqon va chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari tashkil etila boshladi.

Chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 15 martda *«Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»*gi, 1994-yil 23-fevralda *«Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiyashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari*

to'g'risida», 1995-yil 24-martdagi «*Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida*» Qarorlar qabul qilindi. Bu qarorlarga ko'ra, 1995-yilda jamoa xo'jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75% ni xususiy sektor bera boshladi. Chorvachilik sohasi bilan bir qatorda asalarichilik, pillachilik ham rivojlanmoqda.

Hozirgi davrda sanoatning 80 foizidan ko'pi, qurilishning 88,4 foizi, aloqaning 96,6 foizi, qishloq xo'jaligining 99,9 foizi, savdoning deyarli 100 fozi nodavlat sektoriga to'g'ri kelmoqda. Yalpi ichki mahsulotning 75 foizdan ko'prog'i xususiy sektor ulushiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18-yanvardagi majlisida ta'kidlanganidek, 2012-yilning o'zida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

2012-yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o'sdi.<sup>1</sup>

Bunday iqtisodiy o'sishni viloyatlar misolida ham ko'rish mumkin. 2013-yil 26-aprel kuni bo'lib o'tgan xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sesiyasida so'zlagan nutqida Prezident Islom Karimov keyingi etti yil mobaynida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 2 barobar, sanoat 2,3 barobar, qishloq xo'jaligi 1,6 barobar pullik xizmatlar 2,7 barobar, qurilish ishlari 3,4 barobar oshganini ta'kidlab o'tdi.

Viloyatda 2005–2012-yillarda 224,5 million dollarga yaqin chet el investitsiyasi, jumladan, 174 million 200 ming dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 86 tani tashkil etdi. Yalpi sanoat mahsulotining qariyb 79 foizi, jami eksport hajmining esa salkam 89 foizi ana shu korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar.

Andijonlik dehqon va fermerlar 2012-yilda birinchilar qatori shartnoma majburiyatlarini bajarib, 293 ming tonna paxta, 508 ming tonna boshoqli don yetishtirib berdilar.

2013-yildan Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 22 ming 200 tani tashkil etib, ushbu sohaga aholining 80 foizidan ortig'i jalb etildi.

«Agarki Andijon xalqining 80 foizi tadbirkorlik hisobidan yashayotgan bo'lsa, – deb aytdi I.A.Karimov, – qani, aytinglar, bu sohaga odamlarni jalb etish uchun yana qanday da'vat bo'lishi mumkin?»

Prezidentimiz Andijon tajribasini butun respublikaga keng targ'ib etish lozimligini ta'kidlab, shunday dedi: **«E'tiborli tomoni shundaki, bunday ijobiy o'zgarishlarni bugungi kunda butun Andijon viloyatida, qishloqlarda ham, shaharlarda ham ko'rish, kuzatish mumkin. Sizlarning bunday yutuqlardan g'ururlanib, lekin ularga mahliyo bo'lmasdan, yana yangi marralarni egallaymiz, doimo oldinga intilamiz, degan kayfiyat bilan yashayotganingizni barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Shu borada bir fikrni alohida ta'kidlab aytmoqchiman: kimki bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarni ko'rmoqchi, ulardan to'liq xabardor bo'lmoqchi bo'lsa, birinchi galda Andijonga kelsin, o'zini andijonlik deb ataydigan odamlarning mehnati, hayoti, bugungi yutuqlari bilan yaqindan tanishsin»**<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqaruv tizimi tubdan o'zgartirildi, xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga mos yangi tizimi yaratildi. Bozor infratuzilmasi asoslari barpo qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiy tanazzul davridan o'tib oldi. 1995-yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1996-yildan boshlab barqaror o'sish ta'minlanmoqda. Mamlakatda o'tkazilgan tub islohotlar natijasida iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning huquqiy asoslari yaratildi.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi. Shunday qilib, iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonlarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi.

---

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 27-aprel.



## 18-MAVZU: O'zbekistonning ma'naviy va madaniy taraqqiyoti

**Reja:**

1. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot.
2. Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi.
3. Milliy istiqlol g'oyasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Ma'naviy islohotlar. Ma'naviy merosning tiklanishi. Diniy qatriyatlar. Madaniyat ravnaqi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Milliy istiqlol g'oyasi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. *Каримов И.А.* Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Асарлар, 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлар. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
5. *Каримов И.А.* Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
6. *Каримов И.А.* Миллий истиклол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир: «FIDOKOR» газетаси мухбири саволларига жавоблар. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
7. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Ўзбекистон, 2008
8. *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; – 2012.
10. Барқамол авлод орзуси. – Т.: ЎМЭ, 2000.
11. Жамиятни ислох қилиш йўлида. – Т.: Шарқ, 1998.
12. Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: 2001.
13. Миллий ғояси: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: Akademiya, 2007.
14. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Р. Рўзиев ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2006.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1, 2, 3 ...12 жилдлар.
16. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.366–495.
17. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 593–613.

18. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / Қ. Ражабов [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: О'zbekiston, 2012.
19. *Jo'rayev N.* O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – To'ldirilgan, qayta nashr. – T.: G'afur G'ulom, 2009. – B. 411–580.
20. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. – T.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – B. 432–452.

**1. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot.** O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda. O'tish davri mashaqqatli va sinovli yillar bo'lib, barcha sohalarda islohotlar olib borildi va davom etmoqda. Ayniqsa ma'naviy hayotimizda asrlarga barobar ulkan ezgulik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, «*Eng buyuk jasorat nima degan savolga, hech ikkilanmasdan ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, adashmagan bo'lamiz*», – dedi Islom Karimov. «*Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin*» (Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: *Ma'naviyat*, 2008. – 159-b).

Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoqosti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «*Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod*

*bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda» (Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Asarlar, 1-jild. – 202-b.).*

Shu o'rinda «ma'naviy meros» haqida to'xtalish muhimdir. «Ma'naviy meros» – qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuyidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, mavjud ma'naviy merosga tayanadi, biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtayi nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'lishga muyassar bo'ldi. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – UNESCO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Masalan:

- 1991-yil (28-sentabr) – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
- 1992-yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
- 1993-yil (18-dekabr) – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
- 1994-yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997-yil (28-noyabr) – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tavalludining 100 yilligi;
- 1998-yil (24-oktabr) – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1999-yil (6-noyabr) – «Alpomish» dostonining 1000 yilligi (Termizda milliy epos qahramoni Alpomish xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmui barpo etildi);
- 2000-yil (16-noyabr) – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi;

➤ 2000-yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;  
➤ 2001-yil (3-noyabr) – «Avesto» yaratilganligining 2700 yillik yubileyiga bag‘ishlab tantanali marosim o‘tkazildi va yodgorlik majmuyi bunyod etildi.

Respublika miqyosida ham bunday tadbirlar amalga oshirildi. Masalan:

➤ 1993-yil 16-sentabr – Buxoroda buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi;

➤ 1994-yil 24–25-sentabr – Xorazmda davlat arbobi va shoir Feruz taval-ludining 150 yilligi;

➤ 1995-yil – ulug‘ shayx, tasavvufning taniqli vakillaridan biri Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi;

➤ 1998-yil 23-oktabr – Farg‘ona shahrida buyuk alloma Ahmad al-Farg‘o-niyning 1200 yilligi;

➤ 1998-yil 23-oktabr – Samarqandda ulug‘ vatandoshimiz, hadis ilmining sul-toni Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi (mazkur marosimda dunyoning 40 ta mamlakatidan mehmonlar ishtirok etdi. Shu kuni Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuining ochilish marosimi bo‘ldi);

➤ 1999-yil yanvar – Xorazm viloyatida shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmudning 750 yilligi;

➤ 1999-yil 17-dekabr – Xorazmda o‘zbek shoiri, tarixchi Ogahiyning 190 yilligi;

➤ 2000-yil 17-noyabr – Samarqandda buyuk fiqh olimi, kalom ilmining moturudiylik oqimi asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiyning 1130 yilligi (ushbu yubiley munosabati bilan Samarqand shahrida Moturidiy yodgorlik majmui ochildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta‘limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi);

➤ 2003-yil 10-may – taniqli o‘zbek shoiri G‘afur G‘ulom tavalludining 100-yilligi (yubiley munosabati bilan Toshkent shahri markazidagi madaniyat va istirohat bog‘iga G‘afur G‘ulom nomi berildi va bog‘da shoir haykali ochildi);

➤ 2003-yil 27-noyabr – Buxoro va G‘ijduvon shaharlarida tasavvuf ilmining yirik namoyandasi Abdulxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi tantanali ravishda nishonlandi.

Yurtimizning buyuk allomalari va davlat arbobilarining nomlarini ulug‘lash maqsadida yillarga ularning nomi berildi. Masalan:

➤ 1991-yil – Alisher Navoiy yili deb e‘lon qilindi;

➤ 1993-yil – Ahmad Yassaviy yili deb e‘lon qilindi;

➤ 1994-yil – Mirzo Ulug‘bek yili deb e‘lon qilindi;

- 1996-yil – «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi.
- Bundan keyingi yillar ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratildi.
- 1997-yil – «Inson manfaatlari yili»;
- 1998-yil – «Oila yili»;
- 1999-yil – «Ayollar yili»;
- 2000-yil – «Sog'lom avlod yili»;
- 2001-yil – «Onalar va bolalar yili»;
- 2002-yil – «Qariyalarni qadrlash yili»;
- 2003-yil – «Obod mahalla yili»;
- 2004-yil – «Mehr va muruvvat yili»;
- 2005-yil – «Sihat va salomatlik yili»;
- 2006-yil – «Homiylar va shifokorlar yili»;
- 2007-yil – «Ijtimoiy himoya yili»;
- 2008-yil – «Yoshlar yili»;
- 2009-yil – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»;
- 2010-yil – «Barkamol avlod yili»;
- 2011-yil – «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»;
- 2012-yil – «Mustahkam oila yili»;
- 2013-yil – «Obod turmish yili» deb e'lon qilindi.

Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileylari munosabati bilan ularning o'nlab nodir va noyob asarlari o'zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o'rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog'lar yaratildi.

1991-yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Yubiley yilida «Lison ut-tayr», «Sab'ayi sayyor», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat-ul Abror» asarlari nashr qilindi,



**Alisher Navoiy  
nomidagi Davlat  
mukofoti faxriy  
nishoni**



**Toshkent. Alisher  
Navoiy haykali**





**Toshkent. Amir  
Temur haykali**

**Mirzo Ulug'bek  
haykali**

Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubileyi tantanalari bo'lib o'tdi. Toshkentda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlangan «Mirzo Ulug'bek va uning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi» mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

Ulug'bek madrasasi, Ulug'bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug'bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yil 24-oktabrda Parijda UNESKoning majlislar zalida «Ulug'bek va temuriylar davri» mavzusida Xalqaro konferensiya hamda «Ulug'bek va an'anaviy san'at» ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug'bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko'maklashdi.

Hozirda mamlakatimizning turli shahar va viloyatlarida buyuk allomalarimiz nomida istirohat bog'lari va kinoteatrlar, maktab va kutubxonalar, ko'chalar va jamoa xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

**Tarixiy xotiraning  
tiklanishi va milliy  
o'zlikni anglash**

O'tish davrida O'zbekistonning uzoq va yaqin o'tmishi hamda mustaqillik yillari tarixini o'rganish, tadqiq etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublkasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek,

«Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini

shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda» (*Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 140-b.*)

Istiqlol yillari Vatanimiz tarixi va uning milliy davlatchiligi poydevorini o'rganish borasida puxta va jiddiy ish olib borildi. 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarix markazi» tashkil etildi.

1998-yil iyun oyida Prezident I. A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan bo'lgan suhbatida o'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari belgilab berildi.

1998-yil 27-iyulda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda Respublika tarixchilari oldiga o'zbek xalqining o'zligini anglash bilan bog'liq bo'lgan muhim tarixiy muammolar, xususan, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi, o'zbek davlatchiligi tarixi kabi boshqa ko'plab masalalarni ilmiy asoslangan holda xalqqa yetkazish vazifasi qo'yildi.

O'tmish merosimizni puxta o'rganish, ochilmagan qirralarini izlab topish, mavjud manbalar asosida tarix sahifalarini ro'yirost yoritish tarixshunosligimizning dolzarb masalasiga aylandi. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlaridan, hukmron kommunistik mafkuraga xizmatkor bo'lishdan xalos etildi. Necha o'n yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z ochilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Milliy davlatchiligimiz tajribasi, Amir Temur tuzuklari, Forobiy, Alisher Navoiylarning odil davlat qurish haqidagi dono fikr-mulohazalari mustaqillik davrida demokratik huquqiy davlat qurilishida katta madad berdi.

1995-yilda Amir Temur xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Shu yili Sohibqiron 660 yilligiga bag'ishlangan yubileyi mamlakatimizda va UNESKO qarori bilan jahon miqyosida nishonlandi. UNESKoning Parijdagi bosh qarorgohida Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi (1996-yil 20–26-aprel), «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuida ilmiy konferensiya va ko'rgazma bo'lib o'tdi. Amir Temurning shaxsi butun ma'rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi.



**Samarqand. Amir  
Temur haykali**



**Shahrisabz. Amir  
Temur haykali**



**Temuriyalar tarixi davlat muzeyi**

Amir Temur yubileyi munosabati bilan o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bog'lar yaratildi. 1996-yil 18-oktabrda Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko'rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va ulug'vor haykal o'rnatildi. 28-avgustda har ikki shaharga «Amir Temur» ordeni topshirildi. 1996-yil 18-oktabr – Toshkentda Temuriyalar tarixi davlat muzeyi tantanali ravishda ochildi.

1996-yil 23–26-oktabr Toshkent shahrida «Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni» mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. 2001-yil 18-may – Shahrisabzda Amir Temur nomidagi madaniyat muzeyida ramziy Tinchlik ustunining o'rnatilishiga bag'ishlangan marosim bo'ldi. 2002-yil 12–13-avgust –

Temuriyalar tarixi davlat muzeyida «Markaziy Osiyo tarix ko'zgasida: eng qadimdan hozirgacha» mavzuida xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlardan kelgan taniqli olimlar ishtirok etdi.



**Urganch. Jaloliddin  
Manguberdi haykali**

1999-yil 5-noyabrda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi. Shu kuni Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmui barpo etildi.

Istiqlol yillarida o'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan qadimiy shaharlarning yubileyleri ham respublika miqyosida keng nishonlandi. Masalan:

➤ 1993-yil 11-dekabr – UNESCO ning qarori bilan Buxoroning tarixiy markazi Umumjahon madaniy merosi

ro'yxatiga kiritildi. 1997-yil 18–19-oktabr kunlari Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. «Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikka» mavzuida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi.

➤ 1997-yil 20-oktabr – Xiva shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

➤ 2002-yil 2-aprel – Termiz shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

➤ 2002-yil 1-noyabr – Shahrisabz shahrining 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'ldi.

➤ 2003-yil 12-sentabr – Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

➤ 2006-yil 27-oktabr – Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'ldi.

➤ 2006-yil 2-noyabr – Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi Xivada tantanali nishonlandi.

➤ 2007-yil 24–26-may – Samarqandning 2750 yilligiga bag'ishlangan «Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni» mavzuida xalqaro ilmiy simpozium o'tkazildi.

➤ 2007-yil 25-avgust – Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. Bu marosim Samarqandda 1997-yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Sharq taronalari» VI xalqaro musiqa festivaliga ulanib ketdi.

➤ 2007-yil 7-sentabr – Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

➤ 2009-yil 26–27-may – Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan «O'zbekiston poytaxti Toshkent – 2200 yoshda» mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

➤ 2009-yil 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. Bu marosim O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18-yillik tantanalariga ulanib ketdi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari nashr etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000-yil 12-mayda Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv bo'yida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui ochildi. 2001-yil 31-avgust –

qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazildi. 2002-yil 31-avgust – Toshkentning «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuida «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi bunyod etildi. 2008-yil 31-avgustda muzeyning qo‘shimcha binosi va yangi ekspozitsiyasi ham ochildi.

Yurtimizda davlat tomonidan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish va bu urush yillarida fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini tiklanishini abadiylashtirish masalasiga ham katta e‘tibor berilmoqda. 1999-yil 2-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e‘lon qilish to‘g‘risida» Farmoni e‘lon qilindi. Farmonning ijrosi sifatida 1999-yil 9-mayda O‘zbekiston Respublikasida birinchi bor 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlandi. Shu yilda Toshkentda Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira va qadrlash maydoni» majmuasi barpo etildi va 9-may kuni uning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1996-yil 4-dekabrda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasining «Nuroniylar jamg‘armasi tashabbusi bilan janglarda halok bo‘lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida 34 jildlik «Xotira» kitobi tayyorlandi va nashr etildi.

Mazkur tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



**Toshkent. Motamsaro ona monumenti**



**Milliy va diniy  
qadriyatlarning tiklanishi**

Har bir xalqning o'ziga xos milliy qadriyatlari mavjud. Shu jumladan o'zbek xalqi ham o'ziga xos betakror milliy qadriyatlariga egadir. Milliy qadriyatlar deganda – millat uchun muhim va zarur bo'lgan jahatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklarga aytiladi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Negaki, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biridir. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros qolib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Qadriyatlarimiz tarixi 3 ming yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan O'rta Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga xos jihatlardan bilan, ya'ni tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi. Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar ham mavjud.

O'zbek xalqiga xos quyidagi jihatlardan uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan e'tirof etilgan:

- tug'ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo'stlik;
- bolajonlik;
- ma'naviyat – axloq-odob – ma'rifat;
- muomalada mulozamat, hayo, andishalilik;
- og'ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo. Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish yo'lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri «Navro'z» bayramidir. Navro'z qadimdan O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy an'anaviy bayrami sifatida nishonlanib kelingan. Biroq, sobiq sovet tuzumi davrida (XX asrning 80-yillar o'rtalaridan) asossiz ravishda Navro'z diniy bayram va marosimlar qatorida man qilindi. 1990-yildan boshlab O'zbekiston hukumatining qarori bilan 21-mart «Navro'z» milliy xalq bayrami kuni sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi. 1992-yilda esa Navro'z bayramiga rasmiy maqom berilib, u tiklandi.



«Navro'z» bayrami

Hozir O'zbekistonda Navro'z umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro'zga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi, sumalak, halim va boshqa taniq taomlar pishiriladi. Navro'z kunlari hokimliklar, mahallalarning faollari, xayr-hon tashkilotlari – mehribonlik uylari bolalari, urush va mehnat faxriylari, yolg'iz keksalar huzuriga tashrif buyurib, ularni qutlab, sovg'a-salomlar ulashadi.

O'zbekistonda o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosini tiklash va bu sohadagi muhim tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 1994-yil 23-aprelda «Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Bu markaz o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g'oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo'naltirishga qaratilgan muhim tadbirlar, anjumanlar, ko'rgazmalar tashkil etishni yo'lga qo'ydi. Markaz tomonidan aholi orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar asosida ishlab chiqilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy-axborot vositalarining ma'naviy-tarbiyaviy faoliyati saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi. 1996-yil 9-sentabrda qabul qilingan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi ishini yanada takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

1996-yil yanvarda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi huzurida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi. 1996-yil 27-sentabrda Respublika Vazirlar Mahkamasining «Oltin meros» xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Qaroriga binoan mazkur jamg'arma davlat tomonidan

moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Bu qarorida o'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaxo madaniy-ma'rifiy merosini ko'z karochigiday asrab-avvaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan hissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ'ib etish, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirib borish kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar beriladi.

«Oltin meros» xayriya jamg'armasi «Xalq merosi durdonalari» ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san'at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko'rik tanlovlar o'tkazish bilan shug'ullanmoqda. 1996–2002-yillarda «Oltin meros» jamg'armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. Shuningdek, u xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma'no-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo'shmoqda.

2006-yil 25-avgust – Respublika «**Ma'naviyat va ma'rifat**» markazi Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markaziga aylantirildi.

Hozirda mamlkatimizda O'zbekiston kutubxonachilik pedagoglari assotsiatsiyasi, «**Shaxidlar xotirasi**» xayriya jamg'armasi, «**Oltin meros**» xalqaro xayriya jamg'armasi, Amir Temur xalqaro xayriya jamg'armasi, Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, «**Ijtimoiy fikr**» jamoatchilik markazi, O'zbekiston ma'rifatparvarlar jamiyati, bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Xalqimiz ma'naviy jihatdan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan islom dinini qadrlaydi. Barchamizga ma'lumki, ona diyormizda islom sivilizatsiyasi rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan islomshunos allomalar yashab o'tgan. Masalan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Qur'oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanuvchi «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam») deb nomlangan («Sahih Buxoriy» nomi bilan ham ataladi) 4 jild (juz)-dan iborat hadislar to'plamini yaratib, islom dinini boyitdi. Bobokalonlarimiz Imom

Abu Mansur al-Moturidiy, shayxulislom Burhoniddin al-Marg'ioniy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Xo'ja Ahmad Yassaviylar insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlarning ijodkoridirlar.

Ammo sovetlar hokimiyati davrida jamiyatni batamom milliy va diniy qadriyatlardan uzoqlashtirishga harakat qilindi. Dinga qarshi keng miqyosda tashviqot-targ'ibot ishlari olib borildi. Ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechish yo'ldan borildi. Masjid va madrasalarni yopib, binolardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish yoki ataylab qarovsiz qoldirildi. Ruhoniylar qatag'on qilindi. 1927, 1936–37, 1949-yillarda uch karra «katta tozalashlar» o'tkazildi. Buning oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talafotlar yetkazildi. Bu fuqarolarning e'tiqod erkinligi huquqiga qilingan oshkora tajovuz edi. 1990-yillarda dinga bo'lgan munosabat ancha erkinlashdi. Xususan, 1990-yil 14–17-sentabr kunlari Toshkentda islom dini arboblardan Muhammad Iso Termiziyning tug'ilganiga 1200-yil to'lishiga bag'ishlangan Butunjahon islom konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda diniy qadriyatlar to'la tiklana boshladi. Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug' nomi va ilmiy merosi tiklandi.

1993-yil sentabrda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675-yilligi tantanalari bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag'ishlangan qator risolalar chop etildi.

1998-yil 23-oktabrda Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui ochildi. 2002-yil 5-iyun – Imom Buxoriy yodgorlik majmuida «Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat» mavzuida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman ochildi.

2000-yil 16–17-noyabr kunlari Marg'ilonda islom huquqining asoschilaridan biri Burhoniddin al-Marg'ioniy tavalludining 910 yilligi, Samarqandda islomshunos olim Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi (2000-yil). Burhoniddin al-Marg'ioniyning islom huquqiga bag'ishlangan «Hidoya» kitobi nashr etildi. Shuningdek, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Abduxoliq G'ijduvoniyni 900 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xoja Ahrori Valiy tavalludining 600 yilligi keng ko'lamda nishonlandi.

Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Qur'oni karim va hadislarini chop etish imkoniyati qo'lga kiritildi. Jumladan, 1991-yilda Qur'oni karim ilk bor o'zbek tilida Alouddin Mansur tarjimasi va Imom al-Buxoriyning «Sahibi Buxoriy» – 4 jildli hadislarini to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib, uning 1-jildi ilk bor nashr etilgan edi (2-jildi – 1996, 3-jildi–1994, 4-jildi – 1992-yilda chiqdi; kitobning ikkinchi nashri 1997-yilda chop etildi).



2001-yilda Qur'oni karimning Abdulaziz Mansur tarjimasi, 2004-yilda esa ilmiy-tarixiy izohlari bilan Mutallib Usmon va boshqalar tarjimasi chop etildi. Hozirgi kunda Mo'yi muborak madrasasida O'zbekiston Musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanayotgan XII asrga oid «Usmoni Qur'on» musxafi va nodir qo'lyozmalar saqlanmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va xayrixohlik munosabatlari qaror topdi. 1991-yil 14-iyulda O'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach vijdon erkinligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solinda. 1998-yil 1-mayda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

1992-yil 27-mart O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida»gi Farmoni imzolandi. O'zbekiston Prezidentining 1990-yil 2-iyundagi «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida»gi Farmoniga binoan O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarida 32 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safariga berishdi. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. «Islom nuri» gazetasi chiqmoqda. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

Prezident Islom Karimovning 1992-yil 7-martdagi farmoni bilan Islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Respublika



Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba-yoshlar ta'lim olmoqda.

Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida 1999-yil 7-aprelda Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

2007-yil – Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasi – ISESSO (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar (Senegal) shaharlari qatorida Islom madaniyatining 2007-yildagi poytaxti deb e'lon qilindi.

2007-yil 14–15-avgust – Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahri-ning 2007-yildagi Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan «O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi.

Bugungi kunda respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi.

**2. Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi.** Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo ilm-fan, adabiyot, teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

**Ta'lim ravnaqi** Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namayon bo'lmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda 1991–1996-yillarda e'lon qilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta'lim sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda ta'lim tizimlari faoliyati bevosita boshqaruvini ikki vazirlik – Xalq Ta'limi Vazirligi (XTV) va Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi (OO'MTV) – amalga oshiradi.



Mustqillik yillarida xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2004-yil 21-may – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.

Oliy ta'lim tizimidagi 16 universitetning 12 tasi mustaqillik yillarida tashkil etildi. Masalan, 1992-yil 15-martda viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida Andijon Davlat universiteti, Buxoro Davlat universiteti, Termiz Davlat universiteti, Urganch Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari – Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviasiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi.

1997-yil 29–30-avgust kunlari Toshkentda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi bo'lib o'tdi. 27-avgustda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (yangi tahrirda) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Ularda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berildi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiylik;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademiya litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli boiishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilandi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dasturda, hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta'lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan.

**Birinchi bosqich** (1997–2001-yillar)da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro'yobga chiqariladi.

**Ikkinchi bosqich** (2001–2005-yillar)da Milliy dastur to'liq ro'yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi.

**Uchinchi bosqich** (2005 va undan keyingi yillar)da to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

Bugunga kelib ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etish borasida katta natijalarga erishildi. Bu sohaning yaxlit, uzluksiz tizimi shakllandi va mustahkam-

landi. Umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilayotganining shohidimiz. 2012–2013 o'quv yilida mamlakatimizda 12 yillik majburiy ta'limga o'tish to'liq ta'minlandi. 2012-yilning o'zida kollejlarni tugatgan 450 ming nafardan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi, ularning 43 foizi o'zlari ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan korxonalariga ishga joylashdi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda O'zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o'rganib yanada boyitmoqdalar. Ular o'z milliy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-iyuldagi «Ilm-fan va innovatsiya faoliyati rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur farmonning ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan qarori ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika Fanlar akademiyasi qoshida Ilmiy ishlanmalarni ichki va tashqi bozorda targ'ib etuvchi va tarqatuvchi innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar Akademiyasining mavqeyi ortdi. 1997-yilda Prezident farmoni bilan Xorazm Fanlar akademiyasi qayta tiklandi.

Respublikamizda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining faolligi yanada takomillashtirildi, shuningdek, Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi, Nukus va Samarqandda O'zbekiston Respublikasi FAning bo'limlari ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar Akademiyasi tizimida ham, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'lim tizimida ham tayyorlanmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. Xalq xo'jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar.

etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-aprelidagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangi Nizomi tasdiqlandi.

O'zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O'zbekiston balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi va ko'pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo'ldilar va xorijiy davlatlar akademiyalariga ham haqiqiy ham faxriy a'zolikka saylandilar. Yurtimizda ilm-fan sohasini rivojlantirishga o'zining hissasini qo'shgan olimlarni taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallari ham ta'sis etildi.

Hozirda Respublika ilmiy-tadqiqot majmuasi 362 ta akademik, oliy o'quv yurtlari va tarmoq muassasalaridan iborat. Ularning 101 tasi ilmiy-tadqiqot instituti, 55 tasi oliy o'quv yurtlari tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot laboratoriya va bo'limlari, 32 tasi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va eksperimental korxonalari, 30 tasi axborot-hisoblash markazlaridir. Fan sohasida 46 mingga yaqin kishi, jumladan, 2,8 ming fan doktori va 16,1 ming fan nomzodi tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda.

Bu o'rinda 2013-yil 1-yanvaridan boshlab mamlakatimiz uchun yangi bo'lgan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimini joriy etish boshlandi. Bunga muvofiq ilmiy kengashlar, asosan, nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash maskani, ayni vaqtda ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylanishi lozim bo'lgan yetakchi oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining tashkiliy tuzilishi va uning nizomi tubdan qayta ko'rib chiqildi.

2013-yil 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etilmoqda. Reyting tuzish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi zimmasiga yuklatiladi. Ushbu markaz reyting baholarini tuzishning hozircha vaqtinchalik tasdiqlangan metodikasi asosida Hukumatga mamlakatimizda oliy ta'limning qanday rivojlanayotgani to'g'risida har yili tahliliy ma'lumotlar taqdim etadi<sup>1</sup>.

Yurtboshimiz aytganlaridek, XXI asrda quroli, qo'shini bo'lgan davlatgina emas, balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassislari bo'lgan davlatgina qudratli

---

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar.



davlat hisoblanadi. Zeroki, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan buyukdir.

### **Badiiy adabiyot**

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming-yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Mamlakat o'z hayotini Vatanga, xalqqa, millatga bag'ishlagan o'zbek milliy madaniyat va adabiyot arboblarning ulkan xizmatlarini yuqori baholadi. Buning yorqin misoli G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Muhiddin Qori Yoqubov, Yunus Rajabiy, Abror Hidayatov va boshqalarni «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlanishi bo'ldi. O'zbek xalqining ardoqli farzandi, yozuvchi va shoira Zulfiyaning, O'zbekiston Qahramoni yozuvchi Said Ahmad xotirasiga atab Toshkent shahrida bu ikki siymoning haykali o'rnatildi.

Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o'rin egalladi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M. Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o'zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o'z o'rnini egalladilar. Ma'rifatparvarlar faoliyatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'yirost ko'rsatish boshlandi. O'tmishda diniy va saroy adabiyoti vakili deb tamg'a bosilgan buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqlari O'zbekiston qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa'dulla kabilar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqlol davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Nayim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. T.Malikning romanlari, O. Matjon, O. Hojiyeva, X. Sultonov, A. Suyun, Y. Eshbek, H. Do'stmuhammad, Sh. Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari o'zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

#### Teatr

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi.

1991–1994-yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi.

1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan «Turkiston» saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhleri va atoqli artistlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1995-yil 20-oktabrdagi «O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998-yil 26-martdagi «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda, iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda bosh-qosh bo'lmoqda. Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995-yilda bepul ajratilgan 47 mln iyen (1500 ming AQSH dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 41 ta professional teatr faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilayapti.

2001-yilda respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqea sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e'tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama

teatri jamoalari «Sohibqiron», Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri «Jaloliddin Manguberdi», Abror Hidoyatov nomli o'zbek davlat teatri «Buyuk Ipak yo'li» kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'ydilar.

Teatrlarning 90-yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy pyesalar keng o'rin oldi. 1996-yili Amir Temurning 660-yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar sahnalashtirildi. «Navro'z – 97» teatr festivali munosabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14 spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Farg'oniy, al-Buxoriylarni yubileylariga bag'ishlangan asarlar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni yetakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qo'yildi.

Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san'ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ular ongiga Milliy istiqlol g'oyasini singdira borish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Nafaqat poytaxt, hatto viloyatlar teatrlarida O'zbekiston madaniyatining chuqur tarixiy ildizlarini, uning xalqining bosqinchilarga qarshi kurashini aks ettiruvchi spektakllar qo'yildi. Adabiyot va san'atning asarlarida bugungi obod va farovon hayot, Respublikada tinchlik va osoyishtalik uchun kurash aks ettirilmoqda. Yosh avlodni ma'naviy va estetik tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Buning uchun hamma joyda yosh bolalar teatrlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bir qator teatrlar jamoalari Amerika, Osiyo va Yevropa mamlakatlarida gastrollarda bo'lishdi. Dunyo O'zbekiston va o'zbek xalqini yaqindan bildi. Xalq artistlari Munojot Yo'lchiyeva, Farrux Zokirov rahbarligidagi Yalla ansambli, Xalq artisti Ozodbek Nazarbekov xorij tomoshabinlarining olqishlariga sazovor bo'lishdi. Ular Angliya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Turkiya, Markaziy Osiyo va boshqa mamlakatlarida qizg'in kutib olinmoqdalar. Xalq artisti Munojat Yo'lchiyevaning saylanma ashulalarining diski 100 ming nusxada dunyoning ko'plab mamlakatlariga tarqatildi. Xalq artisti Qizlarxon Do'stmuhammedova rahbarligida amerikalik qizlar o'zbekcha raqsga tushishni o'rganmoqdalar.

**Musiq va raqs san'ati** O'zbekistonda musiq va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida 1996-yilda «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi (2001-yildan «O'zbeknavo» estrada birlashmasi nomini olgan) tashkil etildi. Unda musiq va raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi. San'atni barcha sohalari, madaniy-ma'rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika

Prezidentning doimo e'tibor markazida bo'lib keldi. Xususan, Prezident I. Karimovning 1996-yil 31-dekabrda «Musiqqa tahsilini yaxshilash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, o'quv yurtlariga 6,5 ming dona musiqa anjomlari ajratildi.

Islohotlar davrida sovetlar davridagi madaniyat o'quv ishlari qayta tuzilib ko'plab yangi o'quv maskanlari tashkil etildi. 90-yillar oxirida mamlakatda 27 ta maxsus o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi. Shundan bittasi oliy o'quv yurtlari, 20 ta o'rta maxsus bilim yurtlari, 2 ta maktab-internat.

Mustaqillik yillarida milliy qo'shiqchilik san'ati ham rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika Markazi», uning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar, festival-lar tashkil etdilar. 1992-yilda Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar» va «Boqiy ovozlari», Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va mas-xarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. 1994-yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan «Sharq musiqasi» festivalida Munojot Yo'lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar.

Respublika Prezidentining 1996-yil 27-avgustdagi «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiqlar bayrami to'g'risidagi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996-yilda o'tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarida «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Bunday ko'rik-tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi. «O'zbekiston – Vatanim manim», «Men seni sevaman, O'zbekiston», «Vatan yagonadir», «Mustaqillik gullari», «Ona yurtim», «O'zbekiston askarlari» qo'shiqlari shular jumlasidandir.

1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatning ««Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25 avgust – 2 sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan «Sharq taronalari» birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi.

O'zbekistonda musiqa, raqs va qo'shiqchilik san'atini rivojiga har yili 31-avgust va 21-mart kunlari o'tkazilayotgan Mustaqillik va Navro'z kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2013-yil 26–30-avgust kunlari o'tkazilgan IX xalqaro musiqa festivali butun dunyo miqyosida e'tirof etilganligi, bu tantananing nufuzi naqadar oshganini ko'rsatadi.

### Muzey

Millatimizning o'zligini anglashda milliy, tarixiy qadriyatlarmizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi.

Moddiy madaniyatimizning asosiy sohalaridan bittasi muzeylar hisoblanadi. Muzeylar tarixiy yodgorliklar maskani, adabiyot, san'at, urf-odatlarini, hayot obrazlarimizning moddiy va maishiy jihatdan bir ko'rinishi, kuzgusi, tasviri. Muzeylar qadimiy san'at, madaniyat asarlarining yig'indisi, asrab saqlanadigan go'zal saroyidir. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish mumkin. Muzey hozirgi kunimizni ham, kelajak rejamizni ham tasvirlaydi. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo yetishga alohida e'tibor berildi.

1992-yilda Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, 1993-yilda Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olim Xadicha Sulaymonova muzeyi, O'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat Qahramoni Jaboy Balimanov muzeyi, 1994-yilda Toshkentda xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996-yilda O'zbekiston Gidrometeorologiya muzeyi, 1997-yilda Buxoroda mashhur zarb qiluvchi Salim Hamidov muzeyi, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996-yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalaridagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatining rivojini rag'batlantiradigan markaz bo'lib qoldi.

1996-yil Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil bo'lishi ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda, o'zbek davlatchiligi tarixini, an'anasini anglashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muzeyga har yili 100 mingdan ziyod tomoshabin kirmoqda.



O'zbekiston Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan respublika hukumatning «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollari belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, «Oltin meros» jamg'armasi, Badiiy akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda «O'zbekmuzey» Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. 1999-yilda davlat qaramog'idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy san'at koshonasi, 20 ta memorial muassasa, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylaridir. Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yil boshlarida O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylar 1.350 ming eksponantlarga ega bo'lgan. Hozirda ularning soni yana boyitib borilmoqda.

**Me'morchilik va  
amaliy san'at**

Mustaqillik yillarida shaharsozlik va arxitektura qurilishi misli ko'rilmagan darajada avj oldi. O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahrining qiyofasi tubdan o'zgardi, yuzlab zamonaviy, ko'rkam, osmono'par binolar bunyod etildi. Oliy Majlis, Prezident qarorgohi – Oqsaroy, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimligi, Turkiston saroyi, Respublika birja markazi, Biznes markaz, Markaziy bank, Milliy bank, Banklararo moliyaviy xizmatlar markazi, Xalqaro savdo-ko'rgazma xizmatlar majmuasi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Tata, Interkontinental



**Zamonaviy me'morchilik namunalari.**

va Toshkent–Sheraton mehmonxonalari muhtasham Anjumanlar saroyi, Alisher Navoiy nomi milliy kutubxona binosi, Simpoziumlar uyi shular jumlasidandir.

O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'la oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at sohalarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda. O'zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan.

Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston rassomlari xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura

san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga huzur-halovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi.

Xulosa, O'zbekiston o'zining qisqa vaqtdagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga ham e'tiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarmoqda.

**3. Milliy istiqlol g'oyasi.** Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir.

1993-yil 23-aprel kuni Prezident Islom Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruratini asoslab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993-yil 7-may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi:

➤ Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim.

➤ Shu bilan birga bu g'oya xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy topgan davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

«Tafakkur» jurnalining 1998-yil 2-sonida jurnal bosh muxbirining savollariga Prezident I. Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, taqiq qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», – degan haq fikrni ilgari surdi Islom Karimov.

### ***Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima?***

«Maqsad degani – xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir... Toki bu maqsad xalqni – xalq, millatni – millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin» (*I.A. Karimov. «Tafakkur» jurnali. 1998-yil, 2-soni*).

***I.A. Karimov jamiyat mafkurasini qanday tushunasiz degan savolga quyidagicha javob berdi:***

«Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman» (*I.A. Karimov. «Tafakkur» jurnali. 1998-yil, 2-soni*).

***Milliy mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari va qarashlari yuzaga chiqishi kerak?***

«Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish, oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim». (*I.A. Karimov. «Tafakkur» jurnali. 1998-yil, 2-soni*).

Prezident I. A. Karimov suhbatda «Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?» degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni, vazifalarni ilgari suradi:

➤ Milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

➤ ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – mafkura bo'lishi kerak;

➤ uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;

➤ to'rtinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur;

➤ beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajakni uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Jamiyat ma'naviyatini yangilash va yanada yuksaltirish bugungi kunda ham mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Yurtboshimiz o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» ma'ruzalarida islohotlarning yangi bosqichida ma'naviyat sohasidagi vazifalarni asoslab berdi.

Yurtboshimiz hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash bo'layotganligi, ko'p narsalarni mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar hal qilish mumkinligi, O'zbekistonda ham ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itadigan diniy ekstremizm xavfi mavjudligi haqida ogohlantirib kelmoqda. 80-yillarning oxirlarida mamlakatimizga o'zini «do'st», «dindosh», «millatdosh» qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofligi uchun kurashishga «da'vat» etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma'lum. Ular muqaddas islom dinimizni asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bizga begona bo'lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o'ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog'iga tortishga ulgurishdi ham. 1991-yil 8-dekabrda Namangan shahrida va 1999-yil 16-fevral Toshkent shahrida sodir etilgan qonli voqealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimiyat uchun kurash bo'lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining O'zbekistondagi bir to'dasi ekani oshkor bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliq vaziyatida begona g'oyalarning O'zbekistonga xuruji kuchaydi.

### ***Bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmaslik uchun nima qilish kerak?***

«Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash... Farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz boisa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur» (I.A. Karimov. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi. 2000-yil 8-iyun).



Shunday qilib, Islom Karimov O'zbekistonning milliy istiqloq g'oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo'ldi. **Milliy istiqloq g'oyasining** ma'no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'ri kenglikni ta'minlash kabi insonparvar tamoyillarni o'zida uyg'unlashtirgan holda shakllandi. **Milliy istiqloq mafkurasining asosiy maqsadi:** ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishi, – deb belgilandi.

Mamlakatimizda milliy istiqloq g'oyasining asosiy tamoyillari ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda. Barcha ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini o'qitish joriy etildi.

Islom Karimovning 2008-yilning nashr etgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», 2011-yili chop qilingan «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» nomli kitoblarida ilgari surilgan purma'no g'oyalar, fikrlar, ulardan kelib chiqarilgan xulosalar, amaliy ishlar haqida ta'lim tizimining barcha bosqich va yo'naltirishlaridagi talablarga keng va katta tushuncha berildi. Bu har ikki haqida joylari ilmiy anjumanlar o'tkazildi, gazeta va jurnallarda. Ko'plab maqolalar e'lon qilindi, televideniya, radio ko'plab ko'rsatuv hamda eshittirishlar bo'lib o'tdi.

## 19-MAVZU: O'zbekiston va jahon hamjamiyati

### *Reja:*

1. XXI asr bo'sag'asida xalqaro vaziyat. Mustaqil O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo'shilishi.
2. O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi.
3. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari.
4. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari.
5. O'zbekistonning AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi.

*Tayanch so'z va iboralar:* Xalqaro ahvol. Tinchlikka xavf soluvchi tahdidlar. O'zbekistonning geosiyosiy o'rni. Tashqi siyosat tamoyillari. O'zbekiston va BMT. O'zbekiston va EXHT. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi. O'zbekiston va MDH. MOIH. MOH. O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari. O'zbekiston va AQSH. O'zbekiston va Yevropa mamlakatlari hamkorligi.

*Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. *Каримов И.А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
3. *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. *Каримов И.А.* Жаҳон молиявий – иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; –2012.
6. Мустақиллик: Изоҳли илмий – оммабоп луғат // Р. Рўзиев ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. Тўлдирилган учинчи нашри. –Т.: Шарқ, 2006.
7. *Саидов А.Х.* Халқаро ҳуқуқ: Дарслик. – Т.: Адолат, 2001. – Б. 283–304.
8. *Салимов О., Усмонов Қ., Фаниев Д.* Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йили. – Т.: Шарқ, 1999. – Б.180–217.
9. *Юнусова М., Мўминов Х.* Ўзбекистонда геосиёсат ва геосиёий вазият асослари. – Андижон: 2007.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1, 2, 3 ...12 жилдлар.
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 496–551.
12. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б.593–613.
13. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) / Қ. Ражабов [ва бошқ.]; масъул муҳаррир: Р. Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашри. – Т.: O'zbekiston, 2012.
14. *Ҳакимов Р.* Ўзбекистон ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. – Т.: Ғафур Ғуллом, 2001.
15. *Usmonov Q.* O'zbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006. – В. 453–496.
16. Халқ сўзи. 2013 йил 14 июнь.  
<http://www.gov.uz>; <http://www.ursu.uz/ursulib/taqdimot/khiva/Viza/uz/embassy.htm>  
[www.mfa.uz](http://www.mfa.uz); [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz); <http://www.sectesco.org/>;

**1. XXI аср бо'сag'асида халқаро вазият. Муσταқил О'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo'shilishi.** XX аsrning 90-yillariga qadar dunyo ikki qutbli bo'lib, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kuchlar nisbati ikki joyda – SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy kuchlarning qo'lida edi. Xalqaro vaziyatning

tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki tomonning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda «sovuq urush» siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi. Biroq sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida uning tarkibidagi 15 ta mustaqil davlat, jumladan mustaqil O'zbekiston davlati vujudga keldi. «Sovuq urush» siyosati barham topdi. XXI asr bo'sag'asida xalqaro vaziyatning o'zgarishi jahon tapaqqiyotininir holatini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Endi dunyo ko'p qutbli bo'lib qoldi. Dunyoning geosiyosiy holati yangi pallaga ko'tarildi. Hozirgi o'ta murakkab va tahlikali bir sharoitda dunyoning turli mintaqalari, yaqin va uzoq hududlarida, yon-atrofimizda qarama-qarshilik o'choqlari kuchayib, bir so'z bilan aytganda, xavf-xatar tobora o'sib borayotganini nazarda tutmoq kerak. Shu bois O'zbekistonning xalqaro maydonda olib borayotgan tashqi siyosatini, uning mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan strategik ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab olish nihoyatda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu maqsadda 2012-yil sentabr oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonunda belgilab berilgan asosiy prinsiplar muhim voqea bo'ldi. Bu prinsiplar quyidagilardan iboratdir:

1. O'zbekistonning turli harbiy bloklardan uzoq bo'lishi;
2. O'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishi va o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalarini joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi;
3. Ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borish<sup>1</sup>.

Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o'z taraqqiyot ko'lamini bilan jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O'zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishga kirishdi.

**O'zbekistonning geosiyosiy imkoniyatlari** O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyodagi yirik suv yo'llari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Mamlakat maydoni 448,9 ming km<sup>2</sup> tashkil qiladi. Bu Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Avstriya va Shveysariya hududlarini qo'shib hisoblaganda ulardan ko'pdir. Markaziy Osiyo mintaqasida muhim o'rin tutgan O'zbekiston qadimda ham, hozir va kelajakda ham Sharq va G'arb, Shimol va Janub orasidagi aloqalarini bir-biri bilan bog'lovchi mamlakatdir. 2005-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston o'zining ma'muriy-hududiy tuzilishi jihatdan 12

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida». Xalq so'zi, 2013-yil 14-iyun.

viloyat, 164 ta tuman, viloyat va respublikaga bo'ysunuvchi 51 shahar, tumanga bo'ysunuvchi 91 ta shahar, 108 ta shaharchalar, 1451 tadan oshiq bo'lgan qishloq va ovullarga ega.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos geografik tuzilishi bilan O'rta Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida alohida ajralib turadi. Bunday geografik joylashuvning qulay va noqulay tomonlari mavjud bo'lib, ular respublikaning geosiyosiy vaziyati va geostrategik manfaatlari hamda uning ichki va tashqi siyosatini tanlash va belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Mustaqil O'zbekistonning qulay geosiyosiy imkoniyatlari quyidagicha:**

➤ Uzoq o'tmishdan Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, tijorat, madaniy-ilmiy va diplomatik aloqalar yo'li bo'lgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududidan o'tgan. Hozirda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo–Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar O'rta Osiyodan, uning o'rtasida joylashgan O'zbekistondan o'tadi;

➤ O'rta Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston o'zining geosiyosiy holatidan kelib chiqib, mazkur mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirish, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni



davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'tab kelmoqda. Mintaqa doirasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati O'zbekiston orqali ochiladi. O'rta Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlikni va kuchlar muvozanatini ta'minlash jarayonida O'zbekiston sezilarli rol o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega;

➤ O'zbekiston o'zining joylashuviga ko'ra O'rta Osiyoning transport, energetika, kommunikatsiya, suv tizimi markazida joylashgan. Respublikaning muhim xususiyati shundan iboratki, bu yerda aholining o'sish sur'atlari yuqori. Mustahkam mehnat salohiyati, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa davlatlardan ma'lum darajada ustun turadi;

➤ tabiiy – iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral – xom ashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir. O'zbekistonda sanoatining bazaviy va zamonaviy tarmoqlari mavjud. O'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay ularni eksport qilish imkoniyatiga ega. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining yer ostida amaldagi Mendeleyev davriy tizimining barcha elementlar mavjud. Hozirga qadar davlatimiz hududida 2700 dan ortiq kon va foydali qazilmalarining istiqbolli ruda hosillari topilgan. Ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shulardan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. Topilgan va ishlov berishga tayyorlangan 900 ta kondagi mineral – xomashyoning zaxiralari 970 milliarddan ortiq AQSH dollari bilan, mamlakatning umumiy mineral xomashyo salohiyati 3,3 trillion AQSH dollari bilan baholanadi. O'zbekiston oltin zaxirasi bo'yicha dunyoda 4-o'rinda, uni qazib chiqarish bo'yicha 7-o'rinda, mis zaxirasi bo'yicha 10–11-o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7–8-o'rinda turadi. Markaziy Qizilqumda joylashgan Murontovdagi noyob kon Yevrosiyo qit'asida ma'lum bo'lgan konlarning eng kattasi bo'lib, asr kashfiyoti deb atalgan. Hozir yiliga millionlab kub metr tog' jinsi chiqarilib, undan «to'rta-to'qqizlik» softligidagi oltin olinayotgan Murontov ochiq koni oltin qazib chiqarish sanoatida beqiyosdir. Respublikada marmarning 20 ta konlari aniqlangan bo'lib, ularga ishlov berish yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda 160 dan ortiq gaz, neft, ko'mir konlari qidirib topilgan va ochilgan, ularning ko'pi ishlatishga topshirilgan. O'zbekistonda Markaziy Osiyodagi yagona Angren kaolin-ko'mir koni joylashgan bo'lib, undan kaolion tuprog'i qazib olinadi. O'ta muhim strategik manbalar deb hisoblangan qimmatbaho metallar bo'yicha – 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha – 40, konchilik – kimyo xomashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan.



Mamlakatimiz katta gidroenergiya salohiyatiga ega. Chirchiq, G'azalkent, Farhod GESlari, jami 28 ta gidroelektroenergetik stansiyalari ishlamoqda;

➤ O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'ringa ega. Yurtimizning dunyoga mashhur boy ma'naviy va tarixiy merosi bor, shu tufayli u dunyoning ma'naviy va siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazib kelgan.

Mazkur imkoniyatlar orqali O'zbekiston geosiyosiy joylashuvining noqulayliklardan mustasno deb bo'lmaydi, bunday kamchiliklar barcha joyda mavjud. Geosiyosiy jihatdan O'zbekiston Respublikasiga qiyinchiliklar tug'diruvchi quyidagi omillar ham mavjud:

➤ O'zbekiston o'zining geosiyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimini o'rnatishga intilayotgan, lekin bu jarayon hali izchil yo'lga qo'yilmagan O'rta Osiyo mintaqasida joylashgan. Respublikamiz Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazida joylashgan. Shuning uchun bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko'pgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o'zaro to'qnashmoqda. Dunyodagi kuchli davlatlar mazkur mintaqada o'z manfaatlarini izlamoqda;

➤ O'rta Osiyoda joylashgan davlatlarning imkoniyatlari bir xil bo'lmay, ularning rivojlanish holati ham har xil. Ya'ni O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan respublikalar qurshab turibdi. Shu bilan birga O'zbekiston mintaqadagi etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirilib kelinayotgan, ichki mojarolar hali ham tugatilmagan Afg'oniston kabi davlat bilan chegaradoshdir. Bu yerda 2001-yilning oktabr oyidan AQSH tomonidan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaltis harbiy harakatlar olib borilishi natijasida Afg'onistondagi vaziyat qisman o'zgardi;

➤ sobiq sovet hukumati davrida O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirildi. Janubiy yo'nalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmadi. Sobiq Ittifoq parchalangach, kommunikatsiyalar muammosi O'zbekiston uchun yanada keskinlashdi. O'zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat hisoblanadi. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temiryo'li qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Bu masofani kesib o'tish uchun esa bir necha davlatlar hududidan o'tish lozim. Mazkur holat katta sarf-xarajat talab qilib, O'zbekistonning iqtisodiy aloqalarini cheklaydi, yuk tashishini qimmatlashtirib, mahsulotlarni raqobatga bardosh berolmaydigan qilib qo'yadi;

➤ Mustaqil O'zbekistonning umuman hamma daryolari hamda respublika hududini kesib o'tadigan, uzunligi 150 va undan ko'p kilometrli daryolar 50 tadan oshgan bo'lishiga qaramasdan, uning suv resurslari cheklangan va ekologik muammolari ham bor. Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omilidir. Uni saqlab qolish borasida amaliy tadbirlar o'tkazilgan bo'lishiga qaramasdan, so'nggi yillarda Orol dengizining sathi pasayib ketdi. Uning maydoni ancha qisqarib, qirg'og'i o'nlab kilometr qochib ketgan.

O'tish davrida bu qiyinchiliklarni bartaraf etish, yurtimizning geosiyosiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirilmogda.

#### **O'zbekiston siyosati va diplomatiyasi**

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi uning xalqining asriy orzu maqsadlarini to'la ma'noda ro'yobga chiqarish tomon keng ufqlar ochibgina qolmay, ayni paytda mustaqil yosh davlatimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun ham imkoniyat yaratdi. Shu boisdan mamlakatimiz rahbariyati istiqlolning ilk kunlaridan e'tiboran O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy davlatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ana shu vazifalarning hal etilishiga bog'liq bo'lib qolgan edi.

Ma'lumki, 130 yil davom etgan istibdod davrida mamlakatimiz to'la mustaqil ravishda tashqi siyosat va diplomatik faoliyat yuritish, xorijiy davlatlar va xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish kabi huquqlaridan mahrum etilgan edi.

Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish – davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi» (*Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.:O'zbekiston, 1992. – 24-b.*).

Sobiq sovet davrida, Ittifoq konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston teng huquqli suveren davlat hisoblanib, mustaqil tashqi siyosat yurgizish, xorijiy mamlakatlar bilan shartnomalar tuzish va diplomatik vakolatlarini ayirboshlash va boshqa huquqlarga ega bo'lgan suveren respublika hisoblanardi. Ammo real hayotda esa buni aksini ko'rish mumkin edi. O'zbekiston o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatik vakillariga va tashqi iqtisodiy faoliyat

sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi. O'zbekistonda Markaz ko'rsatmasi bilan 1944-yil 27-sentabrda Tashqi ishlar vazirligi ochilgan. Biroq u kichikkina bir idoracha bo'lib, hech qanday vakolatlarga ega emas edi. Bu vazirlik markazning ko'rsatmalarini bajarar, chet ellardan kelgan mehmonlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish bilan cheklanardi. Tashqi ishlar va diplomatik soha Markaziy Osiyo mintaqasi mahalliy millatlari, shu jumladan o'zbek millati, eng kamsitilgan tarmoqlardan biri edi. Sobiq SSSR Tashqi ishlar vazirligi tizimida rasmiy ravishda ishlaydiganlar-ning 92% i bir millatning vakillari edi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'nggi 45 yil ichida (1945–1990-yillar) O'zbekistonning faqat 7 vakili SSSRning chet eldagi favqulodda va muxtor elchisi bo'lib ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi (A. Abdullayev, B. Abdurazzoqov, S. Azimov, L. Maqsudov, N. Muhiddinov, R. Nishonov va A. Qo'chqorov). Shulardan faqat uchasi (A. Abdullayev, B. Abdurazzoqov va L. Maqsudov) maxsus diplomatik oliy ma'lumotga ega edilar xolos. Markaziy Osiyo respublikalari vakillari jahonning yetakchi davlatlariga mas'ul lavozimlarda belgilanmas, ularni odatda, «o'rtacha» davlatlarga ishga belgilar edilar (Somali, Pokiston, Livan, Shri Lanka, Gabon, Suriya va boshqalar). Oqibatda o'zbek millatining farzandlari xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi yo'nalishlaridan chetlatilgan edilar. Holbuki, ular jiddiy ahamiyatga ega qator takliflarni kiritib, tashqi ishlar va munosabatlarda asosli va mustaqil fikrlarni olg'a surganlar.

Bu holatga sobiq SSSRning parchalanishi bilan barham berildi. Tarixan o'ta qisqa davr ichida o'tmishdan qolgan «kamchiliklar»ni bartaraf etish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari, prinsiplari, mazmuni, maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bob, 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topdi. Konstitutsiya 17-moddaga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin».

Konstitutsiyaning boshqa bo'limlarida esa hukumat idoralari va davlat boshlig'ining (93-moddasida) tashqi siyosiy vakolati belgilangan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi siyosat va diplomatiya sohasida ko'plab ishlar amalga oshirildi va davr talabi bilan konstitutsiya asosida bu sohaga oid bir necha hujjatlar qabul qilindi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi Qarori, 1992-yil 25-may.

2. «O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi to'g'risida»gi Qonun, 1992-yil 2-iyun.

3. «O'zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalarini belgilash to'g'risida»gi Qonun, 1992-yil 3-iyul.

4. Prezident I.A. Karimovning «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni, 1994-yil 25-fevral.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori, 1994-yil 16-mart.

6. «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlari tartibini va O'zbekiston Respublikasining diplomatik pasporti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qonun, 1995-yil 6-yanvar.

7. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonun, 1995-yil 22 dekabr.

8. «O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonun, 1996-yil 29-avgust.

9. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Qonun, 1996-yil 26-dekabr va boshqa qonunlar ana shular jumlasidandir.

Ushbu qonunlar mustaqil O'zbekistonning xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqli asosda munosabat o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o'z ifodasini topmoqda. O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, bevosita davlatlararo munosabatlarda qatnashmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlab beruvchi davlat organlari shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi **Tashqi ishlar** vazirligining funksiyalari

va faoliyatining yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi. 1991-yil 7-sentabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoniga binoan ***O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki*** tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida 1990-yil 12-iyulda tashkil etilgan O'zbekiston SSR Tashqi savdo va xorijiy aloqalar davlat ko'mitasi 1992-yil 12-fevralda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga aylantirildi. 1992-yil 21-fevralda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «***O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini tashkil etish to'g'risida***»gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 21-oktabrdagi «Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida boshqaruv tizimini yanada erkinlashtirish va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan bu vazirlik ***O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi*** etib qayta tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 21-iyuldagi «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi ***O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi*** etib qayta tashkil qilindi.

O'zbekistonda tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi ham shakllantirildi. Respublikada diplomatik ishlar uchun, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy aloqalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berildi. Shu maqsadda 1992-yil 23-sentabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra Toshkentda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi muhimdir. Mamlakatimiz mana shu muhim sohani o'zlashtira borib, o'z mustaqilligini uning eng jiddiy yo'nalishi bo'lgan iqtisodiyotida mustahkamlanmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko'maklashmoqdalar. Xalqaro savdo markazi (UNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

Istiqlolning ilk yillaridan boshlab tashqi aloqalar muassasalari tomonidan xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarning umume'tirof etilgan qoida va normalari asosida



respublikaning diplomatik faoliyati turli yo'nalishlarda olib borildi. Bu *birinchidan*, siyosiy munosabat va iqtisodiy aloqalar; *ikkinchidan*, ilmiy-texnikaviy aloqalar; *uchinchidan*, madaniy aloqalar, turizm, sport va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalardir. Respublika tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi.

### **O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:**

- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum-e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini 165 ta davlat tan oldi. 1991-yil 26-sentabrda respublikamizda birinchi diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. Mazkur sanada mustaqil O'zbekiston bilan Avstraliya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiya sohasidagi faoliyati yanada kengayib birin-ketin Xitoy, Yaponiya, Angliya, AQSH, Fransiya, Turkiya, Germaniya singari jahonning rivojlangan yetakchi davlatlari bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar yo'lga qo'yildi. Ushbu davlatlar bilan hamkorlik aloqalarimiz hozirda yuqori darajaga ko'tarildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning 142 ta davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi (Vengriya, Belgiya, AQSH savdo palatasi), 10 ta xalqaro tashkilotning vakolatxonasi ishlab turibdi. Mamlakatimizda 7 ta faxriy konsullar ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalarining soni esa 30 tani tashkil etadi. Shuningdek, 11 ta bosh konsulxonasi mavjud. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. O'zbekiston 41 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a'zosi. Hozirda ulardan beshtasining vakolatxonasi respublikada faoliyat ko'rsatmoqda.

**O'zbekistonning chet mamlakatlardagi elchixonalari**

Avstriya	Gretsiya	Koreya	Tojikiston
Ozarbayjon	Hindiston	Qirg'iziston	Turkiya
Belgiya	Indoneziya	Latviya	Turkmaniston
Xitoy	Eron	Niderlandiya	Ukraina
Misr	Isroil	Pokiston	Birlashgan Arab Amirligi
Fransiya	Italiya	Rossiya	Amerika Qo'shma Shtatlari
Germaniya	Yaponiya	Saudiya Arabistoni	
Buyuk Britaniya	Qozog'iston	Tayland	

**O'zbekistondagi chet mamalakatlar elchixonalari**

Afg'oniston	Germaniya	Janubiy Koreya	Slovakiya
Al-jazoir	Buyuk Britaniya	Qirg'iziston	Shveysariya
Ozarbayjon	Hindiston	Latviya	Tojikiston
Bangladesh	Indoneziya	Malayziya	Turkiya
Bolgariya	Eron	Moldova	Turkmaniston
Belorussiya	Isroil	Pokiston	Ukraina
Xitoy	Italiya	Falastin	Amerika Qo'shma Shtatlari
Chechnya	Yaponiya	Polsha	Vyetnam
Misr	Iordaniya	Ruminiya	Vatikan
Fransiya	Qozog'iston	Rossiya	Yugoslaviya
Gruziya	Shimoliy Koreya	Saudiya Arabistoni	

**O'zbekistonning  
BMTga a'zo bo'lishi**

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyati doirasida munosib o'rin olishida xalqaro nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lishi va ular bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi katta ahamiyatga ega edi. 1992-yil 29-yanvarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi o'zining 737-sonli Qarorini ovozga qo'ymasdan qabul qildi va Bosh Assambleyaga O'zbekiston Respublikasini BMTga qabul qilishni tavsiya etdi.

1992-yil 2-martda BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi ovozga qo'yilmasdan, yakdillik bilan ma'qullash asosida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. 1993-yil 24-avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi.



O'zbekiston BMTning to'laqonli a'zosi sifatida bu tashkilotning yig'ilishlarida ishtirok etishi bilan o'zining xalqaro hamjamiyatga kirish jarayonini davom ettirdi. O'zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarga jahon miqyosida e'tiborini qaratishi O'zbekistonning tashqi siyosatda tutgan aniq o'rnini belgilab berdi. Chunonchi, 1993-yil 28-sentabrda Prezident Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida BMT minbaridan turib so'zlagan nutqida bir qator aniq takliflar kiritdi:

➤ Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirilishini;

➤ BMT Xavfsizlik Kengashi huzurida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo'yicha maxsus guruh tuzish;

➤ Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e'lon qilish;

➤ Markaziy Osiyo mintaqasida kimyoviy hamda bakteriologik qurolini taqiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish;

➤ Yadroviy qurolni tarqatmaslik;

➤ Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish;

➤ Orol muammosi bo'yicha BMT ning maxsus komissiyasini tuzish;

➤ Xavfsizlik Kengashi hozirgi dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy, etnik-madaniy, diniy, ma'naviy jihatdan g'oyat xilma-xilligini bab-baravar tarzda aks ettirsin.

1995-yilning 24-oktabr Nyu-Yorkda BMT ning 50-yiligi munosabati bilan bo'lib o'tgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida Prezident I.A. Karimov nutq so'zlab, Afg'onistondagi urush afg'on xalqi boshiga mislsiz kulfatlar solganligini qayd etib, uni bartaraf yetishga doir quyidagi takliflarni ilgari surdi:

➤ Afg'onistondagi keskinlikni hal etish kaliti eng avvalo tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish;

➤ BMT xavfsizlik Kengashiga kim tomonidan bo'lmasin Afg'onistonga qurol olib kirishni taqiqlab qo'yish;

➤ Afg'oniston urush emas, tinchlik va barqarorlik obyekti bo'lishi lozim degan taklifni kiritdi.

Mazkur tantanali yig'ilishda Prezident Islom Karimov BMT tuzilmalarini isloh qilish, uning faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida to'xtalib quyidagi takliflarni zarur deb qayd etdi:

➤ **birinchidan**, Xavfsizlik Kengashi safini kengaytirish, unga misol uchun bugungi kunda jahon siyosatida muhim o'rin egallagan Germaniya va Yaponiya singari davlatlarni doimiy a'zo sifatida kiritish lozim;

➤ **ikkinchidan**, BMT qabul qilgan qarorlarni tezkorlik bilan amalga oshirish uchun BMT Bosh Kotibi vakolatlarini kuchaytirish lozim;

➤ **uchinchidan**, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish manfaatlarini ko'zlab, BMTning xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatini kuchaytirish zarurligi ham, bu tashkilotning o'ziga qarshi mintaqaviy tuzilmalarini yanada rivojlantirish zarurligi ham tobora ayon bo'lib qolmoqda.

2000-yil 8-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur «Ming yillik sammiti» muhim global chaqiriqlarga e'tiborni qaratish uchun 189 mamlakat rahbarlarini to'pladi. Ular ushbu dunyoni butun insoniyat uchun yaxshiroq qilish majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Davlatlar qashshoqlikka qarshi kurashish, asosiy xizmatlarning asosiy turlaridan bahramand bo'lishni yaxshilash, kasalliklar tarqalishini kamaytirish va atrof-muhitni himoyalash uchun kuch -g'ayratni birlashtirish borasida noyob imkoniyatga ega bo'ldilar. Prezident Islom Karimov BMT minbaridan turib nutq so'zlab, quyidagi takliflarni ilgari surdi:

Ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikka ko'mak berish, xalqaro tuzilmalar va donor davlatlarning moliyaviy mablag'larini jalb etish maqsadida BMT ning atrof-muhit bo'yicha dasturi huzurida Orol va Orolbo'yi muammolari kengashini tuzishni taklif qildi.

BMT ni isloh qilish, uning mintaqaviy va global muammolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinishi jihatdan quyidagilarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi:

➤ **birinchidan**, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish darkor. Uning doimiy a'zolari tarkibi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar hisobidan ham kengaytirilishi lozim. Xavfsizlik Kengashining ham doimiy, ham muvaqqat a'zolari sonini oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchi qadam sifatida Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari tarkibiga jahon siyosatida muhim rol o'ynayotgan Germaniya va Yaponiyani kiritishni taklif qilaman. Ushbu davlatlar bugungi kunda BMT faoliyatini, shuningdek,

insonparvarlik va xayriya yo'nalishidagi boshqa ko'plab loyiha va dasturlarni moliyalovchi asosiy homiylar hisoblanadi;

➤ *ikkinchidan*, global va mintaqaviy tahdidlarga munosabat bidsirishda tezkorlikni oshirish uchun Bosh Kotib vakolatlarini kengaytirish zarur;

➤ *uchinchidan*, Xavfsizlik Kengashining qurolli mojarolarning oldini olish, ziddiyatlar va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalari hamda mexanizmlaridan, shu jumladan, uzoq vaqt davom etayotgan mojarolarni bartaraf etishda «tinchlikka majbur qilish» deb ataluvchi mexanizmdan samarali foydalanish masalalaridagi o'rni va mas'uliyatini kuchaytirish lozim.

2000-yil 8-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Mingyillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Bu deklaratsiya 21 asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan sakkizta konkret maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'ydi. Shunday qilib, «Mingyillik Deklaratsiyasi» jahon yetakchilarining azm-u qarorlarini aks ettiradi, 2015-yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning «yo'l xaritasi» hisoblanadi.

2010-yil 20-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu sessiya mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlandi. Unda Prezident Islom Karimov nutq so'zlab, quyidagi global muammolar ko'tarildi:

➤ 30 yildan buyon harbiy harakatlar davom etayotgan jafokash Afg'oniston muammosi va bu muammoni hal etishni harbiy yo'l bilan emas balki uning muqobil yo'llarini topish masalasi;

➤ 2010-yilning iyunida Qirg'izistonda ro'y bergan fojiali voqealar Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatni izdan chiqarishga jiddiy xavf solmoqda. Buni oldini olish uchun xolis va mustaqil xalqaro tekshiruvlarni o'z vaqtida o'tkazish, xalqaro hamjamiyatning bu boradagi qat'iy prinsipial pozitsiyasi Qirg'iziston janubida qirg'iz va kam sonli o'zbeklarning murosaga kelishi va totuvligini ta'minlash uchun yo'l ochib berishi mumkin;

➤ Markaziy Osiyoda ekologik muvozanatni buzilishiga olib kelayotgan Orol muammosi. Orol bo'yi hududi ikkita asosiy manba – Amudaryo va Sirdaryo hisobidan suv bilan ta'minlanadi, ushbu daryolar oqimining kamayishi mazkur keng mintaqaning shundoq ham zaif ekologik muvozanatini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. «Qurib borayotgan Orol muammosi – ushbu mintaqada yashayotgan BMT-dek nufuzli tashkilotlarga umid bilan yordam so'rab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir»;

➤ O'zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirilishining tahlili.



Prezident Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida soʻzlagan nutqi jahon hamjamiyatining eʼtiborini yana bir bor Markaziy Osiyodagi murakkab muammolarni hal etish yoʻllariga qaratdi. Oʻzbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga doir muhim koʻrsatkichlarini tahlil etib berdi.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston bilan BMT oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari yaxshi yoʻlga qoʻyildi. Oʻzbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining saʼy-harakatlari natijasida Oʻzbekiston BMT ning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi boʻyicha oliy qoʻmitasi, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamgʻarmasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat, qishloq xoʻjaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga aʼzo boʻldi.

Oʻzbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yil 15–16-sentabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bagʻishlangan Toshkent kengash-seminari boʻlib oʻtdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan oʻz fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo yetishga chaqirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Markaziy Osiyoning yadro qurolidan xoli hudud maqomini olishida ham BMT bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. Butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga koʻmaklashish, yadro quroli tarqalishining oldini olish yoʻlida jahon hamjamiyatini birlashtirishga intilayotgan BMT bu xayrli gʻoyani keng qoʻllab-quvvatladi.

1997-yil 15–16-sentabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona» mavzuida xalqaro konferensiya boʻlib oʻtdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlaydi.

2000-yil oktabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga

qarshi kurash mavzusida xalqaroo konferensiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. 2002-yil 18–20-oktabr kunlari BMTning o'sha vaqtdagi Bosh kotibi Kofi Annan O'zbekistonga keldi.

2010-yilning aprel oyida amaldagi Bosh kotib Pan Gi Mun mamlakatimizga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif asnosida BMT Bosh kotibi ilk bor Orolbo'yida bo'ldi va u yerdagi butun dunyoga ta'sir ko'rsatayotgan ekologik buhron bilan bevosita tanishdi. Bu Markaziy Osiyodagi global ekologik muammoga jahon hamjamiyati e'tiborini yanada kuchaytirishda muhim omil bo'ldi.

Hozirgi kunda O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YuNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a'zosi, ular bilan hamkorlik qilmoqda.

#### **O'zbekistonning UNESKO bilan hamkorligi**

O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – UNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktabrda UNESKO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni UNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600-yilini nishonlash UNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktabrida Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro UNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor.

1994-yil dekabrda respublikamizda UNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo'lib, tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a'zo bo'ldi.



UNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. «Ipak yo'li – muloqot yo'li» deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995-yil iyul oyida UNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. UNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida 1995-yil iyul oyida mazkur institut ochildi.

UNESKO Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri UNESKOning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.

1997-yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti UNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997-yil 19–20-oktabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, UNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

**YXHT bilan hamkorlik** O'zbekiston BMTga a'zo qilinish arafasida, ya'ni 1992-yil 30-yanvarda Pragada Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti – (OBSE)ning katta mansabdor xodimlari qo'mitasining majlisida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (SNG) tarkibiga kiruvchi davlatlarni, jumladan O'zbekistonni YXHT ning teng huquqli a'zolari qilib qabul qilishni Xelsinki prosessida ishtirok etuvchi mamlakatlarning Tashqi ishlar vazirlari Kengashi (SMID)ga tavsiya qilishga qaror qilindi. Shu tariqa O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 30-yanvarda YXHTga qabul qilindi. 1992-yil 26-fevralda esa Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining yakunlovchi hujjatiga mustaqil O'zbekiston ham imzo chekdi.

O'zbekistonning YXHTga a'zo bo'lishi bilan respublikamizning Yevropa davlatlari, shuningdek, AQSH, Kanada bilan har tomonlama hamkorlik qilishiga yangi yo'l ochildi. Prezident I.A. Karimovning 1992-yil 9–10-iyulda bo'lgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallayotganligining dalilidir. Islom Karimov o'z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo'lgan mojarolar yaqinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo'l qo'ymaslik muammolari bilan shug'ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta'sirchanligini oshirish, hujjatlar mojarolarning oldini olish, unda yo'l qo'ymaslik ruhida bo'lishini ta'minlash takliflarini ilgari surdi.

1994-yil 28-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Vilgelm Xoinkni ham-

da ushbu tashkilot katta mansabdor shaxslari Qo'mitasi ijrochi raisi Paulo Brunini qabul qildi. 28–30-sentabr kunlari esa YXHTning umumiy muammolariga bag'ishlangan Xalqaro seminar bo'lib o'tdi. Unda tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko'rib chiqildi. YXHT Toshkentda va Urganchda atrof muhitni qayta tiklash bo'yicha seminarlar o'tkazdi, Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. 1995-yil iyulda Toshkentda YXHTning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar bo'yicha mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

1996-yilning 2–3-dekabr kunlari Lissabonda YXHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda XXI asr arafasida yalpi xavfsizlik modelini yaratish xususida munozara bo'ldi. O'zbekistonning mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish, YXHTning Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma'qullandi va Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi.

1999-yil 18–19-noyabr Istanbulda YXHTga a'zo 54 davlat boshliqlarining oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi qatnashdi. Ushbu sammitida Prezidentimiz terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tuzish haqida taklif bilan chiqdi. Istanbul sammitida Yevropa Xavfsizlik Xartiyasi, Istanbul Deklaratsiyasi, Yevropada oddiy qurollar to'g'risidagi yangilangan Shartnoma, YXHTga a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi Vena hujjati imzolandi.

O'zbekiston YXHT rahnamoligidagi ko'plab anjumanlarga mezbonlik qilib kelmoqda. O'zbekistonning YXHT bilan hamkorligi mustahkamlanib, o'sib borayotganligiga 2002-yil 6–7-aprel kunlari YXHT Bosh kotibi Y. Kubishning mamlakatimizga tashrifi ham yaqqol misol bo'la oladi.

#### **O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar**

O'zbekistonning tashqi siyosatida mintaqalararo xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanishi istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO (NATO – ing. North Atlantic Treaty Organization – Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti so'zlarining qisqartmasi), EKO, Islom konfrensiyasi, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston 1992-yil 10-martda Shimoliy Atlantika hamkorligi kengashi (1991-yil tuzilgan)ga a'zo bo'lib kirdi. 1994-yil iyul oyida O'zbekiston NATO-

ning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga qo'shildi. Bu dasturiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatning O'zbekiston tomonidan imzolanishi 1994-yil respublikaning xalqaro tuzilmalarga integratsiyalashuvi jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. 1995-yil 16-avgustda O'zbekiston NATO bilan xavfsizlik to'g'risidagi bitimni imzoladi.

NATO ning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» dasturga ko'ra, O'zbekiston harbiy qismlari Shimoliy Korolina (AQSH)dagi Kemp Lejyup dengiz piyodalari poligonida o'tkazilgan harbiy mashqlarda, O'zbekiston hududida amerikaliklar bilan o'tkazilgan desantchilarning «Ultrabalans – 96» harbiy mashqlarida qatnashdilar. Shuningdek, Respublika harbiy bilim yurti talabalari 1997-yil Norvegiyada o'tkazilgan «Kooperativ bankers – 97» mashqlarida ham qatnashdilar. Bu kabi hamkorliklar jangchilarimiz uchun o'ziga xos mahorat maktabi, tajriba bo'lib, ularning jangovarlik qobiliyatini oshirishlariga yordam berdi. 1999-yil 23–25-aprel kunlari I.A. Karimov Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi. O'zbekistonning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqealardan xabardor bo'lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo'lish uchun imkon berar edi». NATO Bosh kotibi X. Solana va AQSHning NATO dagi doimiy vakili R. Xanterning O'zbekistonga tashriflari O'zbekiston va mazkur tashkilot o'rtasidagi tinchlik yo'lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko'rsatdi. Hozirda O'zbekistonning NATO bilan o'zaro aloqalari har yili ikkala tomondan tasdiqlanadigan **Individual hamkorlik dasturi** orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qo'shilmaslik harakati, Islom konferensiyasi tashkiloti (1996-yil 2-oktabrda a'zo bo'lgan) kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan ham samarali aloqalar o'rnatdi. Bular orasida, ayniqsa, yuzdan ortiq a'zoga ega Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan Qo'shilmaslik harakati tomonidan olib borilayotgan siyosat O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, turli harbiy-siyosiy bloklar faoliyatida qatnashmaslik, tinchliksevarlik kabi yo'nalishlarga to'la mos keladi. 1992-yil 1-sentabrda O'zbekiston bu tashkilotning 105-a'zosi bo'lib kirdi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida **Yevropa Ittifoqi** bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur ittifoq bilan hamkorlik uchun



tuziladigan bitim bo'yicha ishlar respublikada 1995-yildan boshlangan bo'lib, bu muzokaralar 1996-yilga qadar davom etdi. Bu muzokaralarning natijasi o'laroq O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida «Sheriklik va hamkorlik to'g'risida»gi bitim 1996-yil 21-iyunda Italiyaning Florensiya shahrining «Fortezza de basso» qal'asida Yevropa Ittifoqiga kiruvchi olti davlat rahbarlarining yig'ilishida O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tomonidan imzolandi. Mazkur bitim 1999-yil 1-iyulda ratifikatsiya qilinib kuchga kirdi. Bu bitim O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan 15 ta mamlakat bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negizi bo'lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi. Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi TESIS dasturi doirasida O'zbekistonga texnikaviy yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena Konvensiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar haqidagi Monreal Protokoliga, atrof-muhitga ta'sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo'llashni taqiqlovchi Konvensiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaga qo'shilgan.

Ushbu xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi siyosiy mavqeyiga, keng hamkorliklar yo'lidan ilgarilab borishiga shubhasiz ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu xalqaro tashkilotlarning ko'plab vakillik organlarining poytaxtimiz Toshkentda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotganligi ham shundan dalolat beradi.

#### **O'zbekiston va Shanxay Hamkorlik Tashkiloni**

***Shanxay Hamkorlik Tashkiloti*** – submintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib, uning tarkibiga dastlab asoschilar sifatida 6 ta davlat (Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya,

Tojikiston va O'zbekiston) kirdi. SHHT tarkibiga kirgan davlatlarning hududi Yevrosiyo hududining 61% ini egallaydi. Uning iqtisodiy imkoniyatlari AQSH va Xitoydan keyingi o'rinda. SHHTning rasmiy tili rus va xitoy tili, ramzi esa oq bayroq bo'lib, uning markazida tashkilotning gerbi joylashgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Pekinda joylashgan.

1996-yil Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda chegara hududlari bo'yicha harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq shartnomani (1996-yil 26-aprel) imzolanishi natijasida *Shanxay Hamkorlik Tashkiloti* vujudga keldi. Lekin u «*Shanxay beshligi*» nomi bilan shakllandi. 1997-yil Moskvada yuqorida nomlari

ko'rsatilgan besh davlat rahbarlarining ishtirokida sammit bo'lib o'tgan. Sammitda chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida Bitim (1997-yil 24-aprel) imzolanadi. Almati (1998), Bishkek (1999)da bo'lib o'tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bocqichga ko'tarildi. 2000-yil 5-iyun Dushanbeda «Shanxay beshligi» davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'lgan. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. Shuni aytish lozimki, «Shanxay beshligi» Dushanbeda «*Shanxay forumi*»ga aylantiriladi.

2001-yil 14–15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tadi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etadi va O'zbekistonning ««Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida» Bayonot imzolanadi. O'zbekiston «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi «*Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – SHHT*», deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biriga aylandi. Sammit yakunida «**SHHT ni tuzish to'g'risida»gi Deklaratsiya** hamda «Terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Shanxay konvensiyasi» imzolangan.

Hozirga kunga qadar SHHT doirasida ko'plab amaliy tadbirlar bo'lib o'tdi. Jumladan, davlat va hukumat, tashqi ishlar va mudofaa vazirlari, huquq-tartibot, xavfsizlik organlari rahbarlari va ekspertlarining uchrashuvlari, muhokamalari va maslahatlashuvlari muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Hamkorlik faoliyatini mustahkamlash, tegishli organlarning bahamjihat harakatini ta'minlash maqsadida a'zo davlatlarning «*Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi (MMK)*» tashkil etilgan. MMK 2001-yilning iyun oyidan Tashqi ishlar vazirlari imzolagan Nizom asosida faoliyat yuritmoqda.

2002-yilning 6–7-iyunida SHHTga a'zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi Sankt-Peterburg sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakuniga ko'ra uchta hujjat: **SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi**, **SHHT Xartiyasi**, SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida **Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT)** haqidagi Bitim imzolangan. Mintaqaviy antiterror tuzilmasi SHHTning doimiy ravishda ishlaydigan organi bo'lgan ushbu tuzilma huquq-tartibot idoralari va maxsus xizmatlarning terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

2003-yil 28–29-may kunlari Moskvada bo'lib o'tgan sammitda SHHT oliy organlari: Davlat boshliqlar Kengashi, Hukumat boshliqlari Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, vazirlik va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi, Kotibiyat, shuningdek, MATT hamda SHHT kotibiyati

qoshidagi a'zo davlatlarning doimiy vakillari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi. Shu bilan birga tashkilotning gerbi va bayrog'i qabul qilinadi. SHHTning birinchi ijro etuvchi kotibi Xitoy Xalq Respublikasining Rossiyadagi elchisi Chjan Deguan saylangan.

2003-yil sentabr oyida SHHTning Pekin sammiti bo'lib o'tgan. Unda «*SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi*» qabul qilinib, mahsulot, sarmoya, texnologiya va xizmatlar erkin aylanishi shartlari belgilab olinadi, tashkilotning moliyaviy budjeti ko'riladi.

2004-yil 17-iyunda SHHTning Toshkent sammiti tashkilot faoliyatidagi muhim bosqich bo'ldi. SHHTning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini rag'batlantirishga kelishib olindi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- tabiiy mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish;
- suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish;
- ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish;
- fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohalarida integratsiyalashish;
- investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish, bu

sohadagi to'siq va muammolarni bartaraf etish.

Sammit yakunida Toshkent Deklaratsiyasi, SHHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, «Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida»gi Bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar – jami o'nta hujjat imzolandi.




**Ko'k rangli davlatlar – a'zo davlatlar**  
**Yashil rangdagi davlatlar – kuzatuvchi davlatlar**



**Shanxay Hamkorlik**  
**Tashkiloti emblemasi**

2005-yil 5-iyul SHHTning Ostona sammitida **Eron, Pokiston, Hindiston** va **Mo'g'iliston** kuzatuvchi maqomga ega bo'lib tashkilot tarkibiga kirdi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, uning iqtisodiy infratuzilmasini birgalikda tiklash yuzasidan fikr almashilgan.

2007-yil 1-yanvargacha SHHTning ijro etuvchi kotibi lavozimida Xitoy Xalq Respublikasi vakili Chjan Deguan turdi. 2007-yil 1-yanvardan SHHTning bosh kotibi lavozimi joriy etildi. Bu lavozimni Qozog'iston Respublikasi vakili Bulat Nurgaliyev egalladi.



### **Shanxay Hamkorlik Tashkilotining asosiy maqsad va vazifalari:**

> a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash;

> mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy hamda iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko'maklashish maqsadida turli yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish;

> terrorism, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

➤ siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, tabiatni muhofaza etish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetik, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

➤ a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluksiz yaxshilash maqsadida teng sherikchilik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga ko'maklashish;

➤ jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda yondashuvlarni muvofiqlashtirish;

➤ a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari hamda milliy qonunchiligiga mos ravishda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashga ko'maklashish;

➤ boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

➤ xalqaro nizolarni oldini olish hamda ularni tinch yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash;

➤ XXI asrda vujudga keladigan muammolarning yechimini birgalikda izlab topish.

### **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari:**

➤ mintaqada tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash;

➤ barcha a'zo davlatlar umumiy manfaatlari mos bo'lgan tashqi siyosiy masalalar yuzasidan xalqaro tashkilot va xalqaro forumlarda yaxlit nuqtayi nazarni izlab topish;

➤ terrorizm, separatizm va ekstremizm, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoyi faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ qurolsizlanish va qurol-yarog' ustidan nazorat qilish masalalarida sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish;

➤ mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning turli shakllarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mahsulot, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakat qilishini ta'minlaydigan savdo hamda investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratilishiga ko'maklashish;

➤ transport va kommunikatsiya sohasidagi infratuzilmadan samarali foydalanish, a'zo davlatlar tranzit imkoniyatlarini takomillashtirish, energetika tizimini rivojlantirish;



➤ tabiatdan, xususan, mintaqa suv zaxiralaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, tabiatni muhofaza etish borasida maxsus dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish;

➤ tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishda o'zaro yordam ko'rsatish;

➤ SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan huquqiy ma'lumotlar bilan almashish;

➤ fan, texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohalarida o'zaro munosabatlarni kengaytirish.

Hozirda tinchlik, barqarorlik va mintaqaviy hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti roli va ahamiyati yildan yilga oshmoqda. Bevosita bu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlarning soni ham oshdi. Ularning soni 10 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu tashkilot doirasida mustaqil harakat qilib, SHHTning faoliyatida faol qatnashib kelmoqda.

2010-yilning birinchi yarim yilligida Toshkentda O'zbekiston Respublikasi vakolati doirasida tashqi ishlar vazirlarining Kengash yig'ilishi (2010-yil 10–11-iyun), Xavfsizlik kengashlari kotiblarining uchrashuvi (2010-yil 23-aprel), Milliy koordinatorlar kengashi yig'ilishi (2010-yil may, iyun), Favqulodda vaziyatlar vazirlarining kengashi (2010-yil 21-aprel) hamda SHHTning Toshkent sammiti jarayonida hujjatlarni kelishib olish bo'yicha ekspertlar uchrashuvi bo'lib o'tdi.

2013-yil 12–13-sentabr Bishkekda SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atanboyev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon ishtirok etdi.

Majlisda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shuningdek, SHHT ni yanada rivojlantirish istiqbollari fikr almashildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'z nutqida Suriya va Afg'onistonda ro'y berayotgan voqealarga to'xtalib, xunrezliklar Suriyadan tashqariga yoyilishiga yo'l qo'ymaslik, Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan bartaraf etib bo'lmasligi, uning siyosiy yechimini topish, BMT shafeyligida muzokaralar o'tkazish va qarama-qarshi kuchlarning murosaga kelishiga erishish birdan bir to'g'ri yo'l ekanini uqtirib o'tdi. Islom Karimov O'zbekiston Afg'oniston bilan munosabatlarni faqat ikki tomonlama asosdagina yo'lga qo'yilishini ma'lum qildi.

Muzokaralar chog'ida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikka doir masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi<sup>1</sup>.

#### **GUUAM tashkiloti**

**GUUAM** – mintaqaviy tashkilot (atama tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar ruscha nomlari bosh harflarini bildiradi).

Unga 1996-yilda Avstriyaning Vena shahrida Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlat rahbarlari tomonidan asos solingan. 1999-yil aprel oyida O'zbekiston ham unga qo'shildi va bu tashkilot uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM deb yuritiladi.

Tuzilmaning asosiy maqsadi 1993-yilda Bryusselda asos solingan **Osiyo – Kavkaz – Yevropa** transport yo'lagini barpo etishni ko'zda tutuvchi TRASEKA loyihasini amalga oshirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir. TRASEKA dasturining amalga oshishi xalqaro yuk tashishning global tizimini shakllantirish, Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lovchi Buyuk Ipak yo'lini tiklash, mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston mazkur tuzilma tarkibiga kirishi tufayli Turkmanboshi (Turkmaniston) portidan Kaspiy dengizi orqali Bokuga, undan temiryo'llar vositasida Gruziya g'arbiy portlariga chiqish va nihoyat, Qora dengiz orkali Bolgariya, Rumuniya, Turkiya, Gretsiya hamda Yevropaning boshqa mamlakatlari bilan savdo qilish, mahsulotlarni kam chiqim bilan xorijiy sheriklarga yetkazib berish imkoniyatidan foydalanadi. GUUAM hech qanday siyosiy yoxud harbiy-siyosiy maqsadlarni ko'zda tutmaydi va hech bir davlatga yoki xalqaro tashkilotga qarshi qaratilgan emas.

Tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlarining 2001-yil iyun oyida Yalta uchrashuvida GUUAM xartiyasi qabul qilindi. GUUAM doirasida yagona axborot makonini, erkin savdo zonasini vujudga keltirish masalalari, transport kommunikatsiyasi, savdo-iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari to'g'risida kelishib olingan.

**2. O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi.** Hozirda halqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha jahonda turli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning orasida «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)» o'ziga xos ko'rinishga ega. MDH mintaqaviy tashkiloti – bir butun davlat yoki federatsiya emas, harbiy blok ham emas. Balki u o'zining mohiyatiga ko'ra ixtiyoriy iqtisodiy uyushma sifatida vujudga kelgan davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli va ko'rinishidir.

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 14-sentabr.

1991-yil 8-dekabr Belorussiyaning poytaxti Minsk shahrida uch slavyan respublikasi – Rossiya, Ukraina, Belorus rahbarlari – B. Elsin, L. Kravchuk S. Shushkevichlarning uchrashuvi bo'ldi. O'sha kuni Minskga yaqin Belovejskoye Pushchyeda uch slavyan davlatlari boshliqlari «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ni tuzish to'g'risida»gi Shartnomani imzoladilar. Shartnomada yagona iqtisodiy makon, yagona valuta va moliya-bank sistemasi bo'ladi, fan, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat, armiya sohasidagi siyosat kelishilgan holda yuritiladi, deb belgilangan edi. Hujjatda SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi.

Ukraina, Belorussiya, Rossiya parlamentlari MDH ni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qildilar va 1922-yil 30-dekabrda SSSR ni tuzish to'g'risidagi shartnomani bekor etdilar.

1991-yil 21-dekabrda Almatida 11 davlat – Rossiya, (B. Elsin), Ukraina (L. Kravchuk), Belorussiya (S. Shushkevich), Qozog'iston (N. Nazarboyev), O'zbekiston (I. Karimov), Qirg'iziston (A. Akayev), Tojikiston (R. Nabiyev), Turkmaniston (S. Niyazov), Ozarbayjon (A. Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M. Snegur) davlat boshliqlarining Kengashi bo'lib o'tdi. O'sha kuni ular Belovejskoye Pujshchye shartnomasi yuzasidan protokol imzolab, «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo'ldilar. Kengashda **Almati Deklaratsiyasi** qabul qilindi. Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi:

➤ hamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi;

➤ MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas;

➤ xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;

➤ MDH ochiqdir, uning barcha a'zolari roziligi bilan sobiq SSSR ning a'zolari va boshqa davlatlar ham unga qo'shilishi mumkin;

➤ umumiy iqtisodiy makonni, umumiy bozorni vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi;

➤ MDH ning tuzilishi bilan SSSR ning mavjudligi to'xtatiladi;

➤ Hamdo'stlik qatnashchilari o'z Konstitutsiyalaridagi tartib, qoidalarga binoan sobiq SSSR ning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarini bajarilishiga kafolat beradilar;

➤ MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og'ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

MDH kengashlarini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhini tuzish to'g'risida protokol imzolandi. Shu tariqa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil topdi.

1993-yil yanvarda Minskda MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda MDH ning Nizomi (1993-yil 22-yanvar) qabul qilingan bo'lib, unda davlatlarning o'zaro hamkorlik aloqalarining holati va yo'nalishlari belgilab qo'yildi. 1996-yil 19-yanvarda MDH ning bayrog'i qabul qilindi.

1993-yil 24-dekabrda Ashxobotda bo'lib o'tgan MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Unda Gruziya Prezidenti E. Shevernadze qatnashdi va Gruziya MDH ga a'zo etib qabul qilindi. Shu munosabat bilan MDH ning tarkibi 12 davlatga yetdi.



**Mustaqil Davlatlar  
Hamdo'stligi bayrog'i.  
Bayroqning markazida  
tashkilotning emblemasi  
joylashgan**

MDH ning raisi lovozimi navbat bilan bir davlat rahbaridan keyingi davlat rahbariga o'tadi. Davlat boshliqlari Kengashi bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladi. Bundan tashqari Kengashning navbatdan tashqari majlisi ham o'tkazilishi mumkin. U MDH a'zosi bo'lgan har qanday davlat tashabbusi bilan chaqiriladi. Davlat boshliqlari Kengashida ayrim davlatlar kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Organlarning faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi. MDH da faoliyat ko'rsatayotgan a'zolar bilan bir qatorda, uning muayyan bir faoliyati bilan shug'ullanuvchi a'zolar ham mavjud. MDH organlarining faoliyatini mablag' bilan ta'minlash (xarajatlari) a'zo davlatlarning xizmat yuzasidan bo'lgan ishtiroki tartibi bo'yicha taqsimlanadi va MDH organlari budjeti to'g'risidagi maxsus bitim asosida o'rnatiladi.

### **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Oliy organlari**

- «Davlat boshliqlari Kengashi»;
- «Hukumat boshliqlari Kengashi»;
- «Tashqi ishlar vaziri Kengashi»;
- «Davlatlararo iqtisodiy Kengash»;
- Markazi Sankt-Peterburgda bo'lgan «Parlamentlararo Assambleya» (uning tarkibiga 1995-yildan Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston, 1997-yildan Ozarbayjon, Moldaviya, Gruziya, 1999-yildan Ukraina kirgan);
- «Mudofaa vazirlari Kengashi». Uning qoshida doimiy sekretariat va MDHning harbiy hamjamiyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Shtabi (SHKVS) joylashgan;
- «Chegara qo'shinlariga boshchilik qiluvchi Kengash»;
- «Iqtisodiy sud»;
- «Davlatlararo statistik komitet»;
- «Inson huquqlari komissiyasi»;
- MDHning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi «Muvofiqlashtiruvchi – konsultativ qo'mita»si (Minskda joylashgan);
- 2000-yil hamdo'stlik davlatlari «MDHning terrorchilikka qarshi kurash Markazi»ni tuzish to'g'risida shartnoma imzoladilar.

### **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari**

- tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;
- umumiy iqtisodiy muhitni shakllantirish va rivojlantirish, Umumevropa va Yevrosiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohotlarni o'tkazish;
- bojxona siyosatini birga olib borish;
- transport va aloqa hamda energetika tizimini rivojlantirish;
- salomatlik, atrof-muhit va ekologik xavfsizligini saqlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash.

MDHning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun hamdo'stlik davlatlari o'zaro munosabatlarida quyidagi qoidalarga rioya qiladilar:

- davlat suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish;



- teng huquqlilik va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik;
- iqtisodiy kuch yoki boshqa tazyiq uslublarini qo'llashdan voz kechish;
- bahsli muammolarni kelishtiruvchi vositalar va xalqaro huquqning boshqa hamma e'tirof etgan tamoyil va normalari asosida hal qilish.

Shuni ta'kidlash lozimki, MDH a'zolari xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy xarajat va qurollarni qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda hamkorlik qilishga kelishib olganlar. Shu bilan birga, tomonlar bir-birining yadrosiz zona va betaraf davlat statusiga erishish uchun olib beriladigan harakatlarini qo'llab-quvvatlaydilar.

MDHning 1991–2000-yillardagi holatini kuzatadigan bo'lsak, bu davr davomida davlat boshliqlarining 30 ga yaqin kengashi bo'lib o'tgan. Ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, texnikaviy, tashkiliy va boshqa sohalarga doir 1400 dan ortiq masalalar muhokama etilib, tegishli normativ va tavsifiy hujjatlar, bitimlar, shartnomalar qabul qilingan. MDHda hamjihatlikni mustahkamlash va rivojlantirish jarayoni davom ettirilib, yilda bir necha bor sammitlar o'tkazilib kelinmoqda. 2000 yilning o'zida Moskvada ikki marta, ya'ni 24–25-yanvar hamda 21-iyun kunlari MDH davlat boshliqlarining sammiti bo'lib o'tdi. 2001-yil 29–30-noyabr kunlari Moskvada MDH tashkil etilgan kunning 10 yilligiga bag'ishlangan yubiley sammiti bo'lib o'tdi. Sammit qatnashchilari Afg'oniston voqealari to'g'risida bayonot qabul qildilar. 2004-yil sentabr oyida Qozog'iston poytaxti Astanada bo'lib o'tgan MDHning sammitida hamdo'stlikning strukturasi o'zgartirish masalasi ko'rilgan. Bunda terrorizmga qarshi kurash bo'yicha MDHning «Xavfsizlik Kengashi»ni tuzishga qaror qilinadi.

Shu bilan bir qatorda, MDH a'zolari hamkorlikning boshqa yo'llarini topmoqdalar. MDH doirasida bir necha tashkilotlar vujudga keldiki, ularning faoliyati umumiy maqsadlar va muammolarga qaratildi. Bunga Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB) va Yevrosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES)ni misol qilish mumkin.

Lekin MDH a'zo davlatlarning barchasi va har birining milliy manfaatlariga umuman mos kelgan bu tashkilot o'z rivojlanishi va mustahkamlanishi mobaynida jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Shuni ta'kidlash kerakki, hamdo'stlik mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasi, madaniy aloqalari sekinlik bilan shakllanmoqda. Hamdo'stlik doirasida ko'plab hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, ammo ularning aksariyat ko'pchiligi qog'ozdagina aks etib qolmoqda. Bu holatni keltirib chiqarayotgan sabab tomonlarning muammolarni yechishni istamayotgani

emas, aksincha, o'zaro hamkorlikni teng huquqli asosida, har bir mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda yuritilishiga intilayotgani bilan bog'liq. MDHning zaiflashtirishga uning ayrim a'zolari o'rtasida «to'rtlar shartnomasi», «ikkilar ittifoqi» tarzida qayta guruhlanish ham sabab bo'lmoqda. Boshqa so'z bilan izohlanganda hamdo'stlik doirasida guruhbozlik, mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan kelishuvlarga va bitimlarga to'liq amal qilmaslik holati kuzatilmoqda. Shu bilan birga masalaning boshqa tomonlari ham mavjud. Xususan, Moldaviya va Ukraina hamda Turkmaniston MDH Nizomini ratifikatsiya (tasdiqlash) qilmagan. Bu esa mazkur davlatlarning rasmiy jihatdan hamdo'stlik a'zosi emasligini bildiradi. Biroq Ukraina MDHni tashkil etgan davlat darajasiga ega. 2005-yil avgustda Turkmaniston MDHning rasmiy a'zosi darajasidan chiqib, hamdo'stlikning tashkiliy a'zosi – kuzatuvchi maqomini oladi. MDHda kuzatuvchi davlat sifatida Mo'g'iliston ham ishtirok etadi. Parlament ratifikatsiyasiga qadar Ozarbayjon (1993-yilning sentabrigacha) va Moldaviya (1994-yilning apreliyigacha) MDHning tashkiliy a'zosi edi. 2008-yilning avgust oyida Gruziya Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan chiqish haqidagi istagini bildirdi. 2008-yil oktabrda MDH Tashqi ishlar vaziri Kengashi tomonidan 2009-yilning avgust oyidan Gruziyaning MDH ga a'zolik maqomini to'xtatish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Bugungi kunda MDHning tarkibi 10 ta a'zo davlatlar: Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya va bitta kuzatuvchi Turkmaniston kiradi.

Shunday bo'lsa-da, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. MDH yon-atrofdagi voqealarga munosabat bildirishda yakkilik ko'rsatish, xususan, terror, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, ekstre-

mizm kabi balolarga qarshi turishda hamjihatlikni mustahkamlash, bahamjihat harakat qilishda muhim o'ringa ega. Hamdo'stlikning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, globalizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga tayyor turish, turli inqirozlarni yengishda barcha a'zo davlatlar uchun kerakli va foydali tashkilotdir.



Binafsharang davlatlar – a'zo davlatlar (Gruziyadan tashqari)  
Och qizil rangdagi – kuzatuvchi davlat (Turkmaniston)

**«Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB)**

O'zbekiston milliy xavfsizlik strategiyasida **«Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB)»**-ning o'rni muhimdir. 1992-yil 15-mayda Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston Toshkentda «Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma»ga imzo qo'yadilar. 1993-yilda shartnomaga Ozarbayjon (24-sentabr), Gruziya (9-sentabr), Belorussiya (31-dekabr) ham imzo qo'yadi. 1994-yil 20-apreldan shartnoma kuchga kirgan. Shartnoma 5 yilga mo'ljallangan bo'lib, uni uzaytirish ham mumkin edi. 1999-yil 2-aprelda Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston shartnomani keyingi besh yilga uzaytirish taklifi bilan Protokol imzolaydilar. Lekin Ozarbayjon, Gruziya va O'zbekiston shartnomani davom ettirishdan voz kechdi. Mazkur yilning o'zida O'zbekiston GUUAM ga a'zo bo'ldi.

2002-yil 14-may «Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma»sining Moskvada bo'lib o'tgan sessiyasidagi kelishuvga ko'ra uni yaxlit xalqaro tashkilotga – **«Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB)»** aylantirishga qaror qilinadi. 2002-yil 7-oktabr Kishinyovda ODKB Nizomi va uning huquqiy statusi to'g'risidagi Ahdnoma imzolangan. Bu hujjatlar tashkilotga a'zo bo'lgan barcha davlatlarda ratifikatsiya qilingan va 2003-yil 18-sentabrdan kuchga kirgan.

2006-yil 16-avgust Sochida bo'lgan uchrashuvda teng huquqli asosda «Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB)»ga O'zbekistonning kirishi (a'zolikning qayta tiklanishi) to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Bugungi kunda Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston «Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti (ODKB)» tarkibiga kiradi.

Tashkilotning tarkibiy tuzilishi:

- Tashkilotning oliy organi – «Kollektiv xavfsizlik Kengashi» hisoblanadi.
- «Tashqi ishlar vizirlarining Kengashi»;
- «Mudofaa vazirlari Kengashi»;
- «Xavfsizlik kegashlarining kotibiyatlar qo'mitasi»;
- «Bosh Kotib»;
- «Tashkilot Kotibiyati» (doimiy faoliyat yurituvchi organ);
- «ODKBning birlashgan shtabi» (doimiy faoliyat yurituvchi organ);



**ODKB emblemasi**

ODKBning faoliyati xalqaro terrorizm va ekstremizm, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasini bartaraf yetishga qaratilgan.

**Yevrosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES)** – 1992-yil bojxona to'vsiqlarni pasaytirish maqsadida «Bojxona ittifoqi» shaklida vujudga kelgan. 2000-yilning 10-oktabr kuni Qozog'iston poytaxti Ostonada u bojxona ittifoqidan MDH davlatlarining beshta a'zosi, ya'ni Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston davlat rahbarlarining o'zaro shartnomasi asosida (jumladan, bu uyushmada Moldaviya va Ukraina kuzatuvchi a'zo maqomiga ega) hamjamiyat darajasiga yetdi.

2005-yil 6-oktabrda YevrAzES tarkibiga – O'zbekiston Respublikasi kiradi. Hamjamiyatning oliy organlari: «Davlatlararo Kengash», «Integratsion komitet», «Parlamentlararo Assambleya», «Hamjamiyat Sudi» hisoblanadi.

Hozirgi kunda YevrAzES tarkibiga Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, O'zbekiston kirgan. Tashkilotning kuzatuvchi maqomidagi a'zolari: Moldaviya, Ukraina (2002) va Armeniya (2003).

**O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligi** Mustaqil O'zbekistonning bugungi xavfsizligi, barqarorligi, taraqqiyotida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik aloqalari muhimdir. Zotan, Rossiya va O'zbekistonning bugungi manfaatlari har qachongidan ham o'zaro uyg'unlik va tutashlik kasb etmoqdaki, bu holat uzoq istiqbolni qamrab olishi tabiiy.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ikki davlat o'rtasida diplomatik, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalar o'rnatildi. 1992-yil 20-martda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar o'rnatildi. Istiqloq yillarida



To'q sariq rangdagi davlatlar – a'zo davlatlar  
Och sariq rangdagi davlatlar – kuzatuvchi davlatlar



YevrAzES  
emblemasi

ikki davlat rahbari hamda hukumat boshliqlarining do'stona, rasmiy va amaliy safarlarini uyushtirish keng yo'lga qo'yildi. 1992-yil 30-mayda esa I.A. Karimov boshchiligida O'zbekiston delegatsiyasining Rossiya Federatsiyasiga tashrifi amalga oshiriladi. Tashrif paytida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolanadi. Shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi. 1993-yil mart oyida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.N. Yelsinning O'zbekistonga tashrifi paytida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash choralari ko'rishga ahdlashilgan. 1993-yil 19-martda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohalarida hamkorlik qilish to'g'risida Bitimlar imzolanadi. 1994-yil mart oyida I.A. Karimov rasmiy tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lgan. Muzokaralar yakunida 1994-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya imzolanadi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida hamda harbiy sohadagi hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolanadi. 1995-yil 26–28-iyul kunlari Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi V.S. Chernomirdin rasmiy safar bilan O'zbekistonda bo'ldi.

1998-yilning 11–12-oktabrda Prezident I.A. Karimov taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.N. Yelsin davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Davlat rahbarlarining muzokaralari davomida Rossiya–O'zbekiston munosabatlarining ahvoli va rivojlanish istiqbollari, shuningdek, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar ko'rib chiqilgan.

V.V. Putinning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti etib saylanishi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. U qisqa muddatda O'zbekistonga ikki marta 1999-yil 10–11-dekabrda va 2000-yil 18–19-may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat prezidentlari va hukumat delegatsiyalari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurash kabi masalalar muhokama qilindi va bunga doir bitimlar, shartnomalar imzolangan. Bu davrga kelib ikki davlat o'rtasida turli sohalarga yo'naltirilgan 150 ta hujjat imzolandi.

O'zaro teng huquqlik asosida olib borilayotgan hamkorlik natijasida hozirda mamlakatimizda 520 ta O'zbekiston–Rossiya qo'shma korxonasi, shuningdek,



Rossiya Federatsiyasi firma va kompaniyalari ro'yxatga olingan. Rossiyaning 40 ga yaqin kompaniyasi, xususan, «Aeroflot», «Avtovaz», «Zarubejneftgaz», «Lukoil» kabilarning vakolatxonalari bor. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi asosida tashkil etilgan 250 ga yaqin qo'shma korxonalar mavjud. O'zbekiston Rossiyadan turli ko'rinishdagi mexanik va elektrik jihozlar, transport vositalari, kimyo mahsulotlari va plastmassa, qora metall va boshqa tovarlar sotib olib, Rossiyaga turli mashina va jihozlar, paxta tolasi, oziq-ovqat mollarini eksport qiladi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning 2001-yil 3–5-may kunlari davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tashrif chog'ida harbiy-texnikaviy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarga oid masalalar muhokama qilinadi. Muzokaralar yakunida Islom Karimov va Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlarining qo'shma Bayonoti hamda chegara masalasi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shuningdek, iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya, o'zaro savdoda bilvosita soliq olish tamoyillari, kontrabanda va bojxona qonunbuzarligiga qarshi kurashda hamkorlik, bojxonaga oid hujjatlar va tartib-qoidalarni o'zaro tan olish, bojxonadan o'tish tartibini yengillashtirish va soddalashtirish, madaniy sohada 2001–2003-yillarga mo'ljallangan hamkorlik to'g'risida hujjatlar qabul qilindi.

2005-yil 6–7-oktabr kunlari Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida «Markaziy Osiyo Hamkorligi» tashkilotining navbatdagi majlisida I.A. Karimovning Rossiya Prezidenti V.V. Putin bilan uchrashuvi bo'lib o'tgan. Mazkur uchrashuvda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ahvoli va istiqboliga oid masalalar muhokama etilgan.

2005-yil 11-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasining sanoat bo'yicha Federal agentligi rahbari Boris Alyoshin O'zbekistonga keldi. B. Alyoshin iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston–Rossiya hukumatlararo komissiyasining raisi hisoblanadi. Uchrashuvda savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. O'sha yili 21-oktabr kuni I.A. Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi. Uchrashuvda O'zbekiston va Rossiya qurolli kuchlarining Jizzax viloyatidagi «Forish» poligonida o'tkazilgan qo'shma aksilterror mashqlari, iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning majlisi haqida muhokamalar bo'lgan.

2005-yil 14-noyabrda rasmiy tashrif bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi. Uchrashuv chog'ida oldingi aloqalar

muhokama qilindi. Rossiyadan O'zbekistonga turli maqomdagi 32 delegatsiya kelgan. Muzokaralarda iqtisodiy doiralarda o'zaro manfaatli yirik loyihalar rejalashtirilayotgani qayd etildi. Tashrif yakunida ikki davlat rahbari O'zbekiston va Rossiya o'rtasida ittifoqchilik to'g'risidagi shartnoma imzoladilar. Shuningdek, ikki mamlakat Savdo-sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Bitim, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda prekursorlarni nazorat qilishda hamkorlik to'g'risidagi Bitim imzolanadi.

2006-yil 10-aprelda Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi raisi Sergey Mironov O'zbekistonga keldi. Uning tashrifi davomida ikki mamlakat parlamentining yuqori palatalari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida hujjat imzolanganligi diqqatga sazovordir. 2006-yil 6-may I.A. Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o'rinbosari Dmitriy Medvedevni qabul qildi. Muzokaralarda hamkorlikni yanada kengaytirish, isloh qilish to'g'risida fikr almashiladi. U tashrifi davomida turli muassasalarda bo'ldi, ularning faoliyati bilan tanishib chiqadi.

2006-yil 12-may kuni Rossiyaning Sochi shahrida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V. Putin va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov uchrashdi. Unda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalari, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik muammolar yuzasidan fikr almashiladi. Uchrashuvda «O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqida»gi qonunni kuchga kiritish to'g'risida fikr almashildi.

Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda oliy darajadagi uchrashuvlarning muntazamlik kasb etgani ham muhim omil bo'lmoqda. 2008-yilning fevral oyida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiyaga bordi. Iyun oyida MDHning Sankt-Peterburgda o'tgan norasmiy sammiti doirasida O'zbekiston va Rossiya Prezidentlari yana uchrashdilar. Sentabr oyida esa Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi Vladimir Putin Toshkentga keldi.

Iqtisodiy hamkorlik borasida O'zbekiston va Rossiya ishonchli sheriklardir. O'zbekiston tashqi savdosining beshdan bir qismi Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. 2008-yil yakunlariga ko'ra, bu boradagi ko'rsatkich qariyb 4 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. O'zbekiston eksportida sanoat mahsulotlarining, xususan, avtomobillarning ulushi (jami eksportning 28.6 foizi) ortib borayotgani diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, O'zbekiston Rossiyaga xizmatlar (26.3 foiz), meva va poliz mahsulotlari (16.3), tabiiy gaz (11.3), to'qimachilik buyumlari (5.7), kimyo sanoati mahsulotlarini (4.1) eksport qiladi. Rossiyadan esa, asosan,

uskunalar, yog'och, qora va rangli metallar, tibbiyot, mikrobiologiya va oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar import qilinadi. Aslida eksport-import operatsiyalarida qayd etiladigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati yanada katta va xilma-xil. Masalan, O'zbekiston Rossiya to'qimachilik sanoati korxonalariga paxta tolasi yetkazib beruvchi asosiy eksportchi sanaladi. O'z navbatida, Rossiya O'zbekiston avtomobillarining eng yirik importchisidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev 2009-yil 22-yanvar kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. O'zbekiston va Rossiya mamlakatlari BMT, SHHT, MDH kabi xalqaro tashkilot va tuzilmalar doirasida ko'p tomonlama asosda ham hamkorlikni izchil rivojlantirayotgani qayt etildi. Prezidentlar mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro iqtisodiy inqirozning salbiy ta'sirini kamaytirish borasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Shuningdek, Afg'onistondagi vaziyat muhokama qilindi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida sarmoya sohasidagi aloqalar izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda Rossiyaning 127 ta firma va kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan. Rossiyada o'zbekistonlik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda tuzilgan 349 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston tabiiy gaz qazib olish bo'yicha MDH mamlakatlari orasida uchinchi o'rinda turadi, dunyo bo'yicha esa yetakchi o'nlikka kiradi. «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bilan Rossiyaning «Lukoil», «Gazprom» kabi yirik energetik kompaniyalari o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib bormoqda. Bunday energetik hamkorlik zamon talablariga mos, har tomonlama dolzarb bo'lib, tabiki, har ikki tomon manfaatlariga xizmat qiladi.

Yana bir muhim soha – aviasozlik. Har ikki respublikaning iqtisodiy hamkorligida 2008–2012-yillarda aviasozlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan. Dunyoda sanoatning bu turini o'zlashtirgan mamlakatlar sanoqli. Shuning uchun ham O'zbekiston va Rossiyaning aviasozlik sohasidagi hamkorligi har jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, ilg'or texnologiyalar va tajriba bilan o'rtoqlashish, birgalikda aviasozlik sanoati mahsulotlari savdosi hajmini oshirish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda Rus madaniyat markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkentdagi «Roszarubejsentr» vakolatxonasi ishlab turibdi. G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I. Gupkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining filiallari ochildi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2010-yilda Rossiya Federatsiyasiga qilgan davlat tashrifi chog'ida O'zbekiston Rossiya davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar sohalar bo'yicha hamkorlikning istiqbolli dasturlari imzolandi.

Rossiya fan va madaniyat markazi tashabbusi bilan 2011-yil 6-yanvarida Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi «Bo'ston» sanatoriyasi bazasida qishki rus tili lagerining ochilish marosimi bo'ldi. Bunda «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro nodavlat fondi, Rossiyaning O'zbekistondagi elchixonasi, Rossiya hamkorlik vakolatxonasi tashkilotchilik qildilar. Toshkent shahri hamda Toshkent, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari maktablaridan kam ta'minlangan oilalar va uy internatlaridan 225 o'quvchi sog'liklarini yaxshiladilar, tibbiy ko'rikdan o'tdilar, yuqori malakali tibbiy yordam oldilar, rus tili bo'yicha o'z bilimlarini oshirdilar. O'quvchilar rus tili va qiziqishlari bo'yicha to'garaklar va sport seksiyalarida mashg'ulot o'tadilar.

Dmitriy Medvedevning O'zbekistonga tashrifi vaqtida olib borilgan muzokaralar yakunida O'zbekiston va Rossiya Prezidentlarining Qo'shma bayonoti qabul qilindi. Mamlakatimiz o'rtasida diplomatik vakolatxonalarni joylashtirish va ularga ko'rsatish shartlari to'g'risidagi hukumatlararo bitim, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2009-yilga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'zaro tashriflar, uchrashuvlar ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda katta rol o'ynadi. O'zbekiston Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'nodagi teng huquqlilik, o'zaro ishonch va manfaatdorlik asosida kengayib bormoqda. Buning uchun barcha imkoniyatlar yo'lga qo'yilmoqda.

**3. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari.** O'zbekiston tashqi siyosatning ta'sirli yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

**Markaziy Osiyo  
Hamkorlik (MOH)  
tashkiloti**

O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda Markaziy Osiyo Hamkorlik (MOH) tashkiloti muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tashkilot 1994-yil iyul oyi boshida O'zbekiston,

Qozog'iston, Qirg'iziston prezidentlarining Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi asosida tashkil topgan Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) zaminida vujudga kelgan. 2001-yil 28-dekabr kuni Toshkentda MOIH davlat boshliqlarining

navbatdagi kengashi bo'lib o'tgan. Mazkur kengashda MOIH tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilinadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov taklifiga ko'ra Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati negizida Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotini tuzishga kelishib olinadi. 2002-yil 28-fevral Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tadi. Muzokaralarning yakuni bo'yicha prezidentlar Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani imzolaydilar. Shu tariqa MOH tashkiloti huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan. Tashkilotning raisi etib Islom Karimov saylangan. Bu tashkilot endi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bilan birga siyosiy-ijtimoiy, madaniy, texnikaviy va boshqa aloqa turlarini kengaytirish masalalari bilan shug'ullanadigan bo'ldi. Uning ishlash tartibi quyidagilardan iborat. Har bir a'zo mamlakatdan bevosita davlat rahbariga hisobot berib turadigan bittadan muvofiqlashtiruvchi vakil tayinlanadi. To'rtta vakil MOH tashkiloti faoliyati samaradorligini oshirish, a'zo tomonlarning integratsiya jarayonlarini faollashtirish borasidagi manfaatlarini yaqinlashtirish, qabul qilingan hujjatlarning ijrosini nazorat qilish va umumiy vaziyatni tashkil etish bilan shug'ullanadi. MOH tashkilotining tashkil etilishi, uning a'zolari bo'lgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni yangi pog'onaga ko'tarmoqda.

**O'zbekistonning  
Qozog'iston bilan  
hamkorligi**

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik bilan birga ular o'rtasida ikki tomonlama aloqalar ham yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992-

yil 24-iyunda Turkiston shahrida O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.Karimov tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida mustahkamlanib bormoqda.

Qozog'iston Prezidenti N.Nazarbayev 1994-yil 10-12-yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarning erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlash to'g'risida shartnomani imzoladilar. 1998-yil 31-oktabrda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolangan.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining Toshkentda 2000-yil 20-21-aprel kunlari bo'lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olish-



ga bag'ishlangan uchrashuvi bo'ldi. Muzokaralar yakunida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.A.Nazarboyevning qo'shma bayonoti» imzolandi. Ikki mamlakat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan bu hujjat ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga egadir. «Davlat rahbarlari, – deyiladi qo'shma bayonotda, – O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi chegara ikki davlat qardosh xalqlarini birlashtiruvchi tinchlik, do'stlik va yaxshi qo'shniçilik chegarasi bo'lib qolishda yakdildirlar».

2001-yil 16–17-noyabr kunlari O'zbekiston Prezident Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston–Qozog'iston davlat chegarasi to'g'risida Shartnomani imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi O'zbekistonning Qozog'iston bilan hamkorligi chegaraning 96% belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimatasiya qilishga kelishildi. 10 oy davomida bu borada tegishli ishlar amalga oshirildi. 2002-yil 9-sentabrda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursultan Nazarboyevning taklifiga binoan Islom Karimov Ostona shahriga tashrif buyurdi. «O'zbekiston–Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim» imzolandi. Ikki mamlakat o'rtasidagi chegaraga oid dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o'z yechimini topdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2002-yilning birinchi yarmida 124 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2002-yilda O'zbekistonda 38 ta o'zbek-qozoq qo'shma korxonasi, Qozog'istonda 92 ta o'zbek-qozoq qo'shma korxonasi faoliyat yuritda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining strategik yo'lini rivojlantirishda Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil sentabrda Qozog'iston Respublikasiga qilgan davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu mustaqillik yillarida ikki davlat rahbarlarining o'n yettinchi uchrashuvi edi. Faqat 2006 yilning o'zida ikki liderlarning uch marta uchrashuvi bo'lib o'tdi. Prezident Islom Karimov 2012-yil 11-yanvarida Prezident N.Nazarboyevning innaugarasiyasi tantanasida ishtirok etish uchun Ostona keldi, 19–20 martda esa Qozog'iston rahbari davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi.

**O'zbekistonning  
Qirg'iziston bilan  
hamkorligi**

rivojlantirilmogda. Bu shartnoma Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning

O'zbekistonning Qirg'iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma asosida yo'lga qo'yildi va

O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992-yil 29 sentabrda I. Karimov va A. Akayev tomonidan imzolangan edi.

Prezident Islom Karimovning 1993-yil avgustida Qirg'izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O'sh shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994–2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida iqtisodiyot, savdo, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash haqida bitimlar imzolangan. 1994-yil 16-yanvarda O'zbekiston Prezidenti I. Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o'zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, budjet, soliq, narx, bojxona va valuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994-yil uchun savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash haqida bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida ikki mamlakat o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. 2000-yilda O'zbekistonda 22 ta o'zbek-qirg'iz qo'shma O'zbekiston va Qirg'iziston aloqalari 409 korxonasi, Qirg'izistonda 62 ta qirg'iz -o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

Qardosh Qirg'izistonda yovuz kuchlar bir necha bor urush olovini yoqishga uringan nihoyatda tang va fojiali holatda ham O'zbekiston qo'shni qirg'izistonliklarga yordam qo'lini cho'zdi. 2010-yilning iyunida O'sh va Jalolobod viloyatlarida yashovchi qirg'iz va o'zbek millatiga mansub fuqarolar o'rtasida to'qnashuvlar ro'y berdi. 10-iyundan 11-iyungacha o'tar kechasi Xo'jaobod tumanidagi "Do'stlik" chegara postining orqa tomonida qirg'izistonlik o'zbek millatiga mansub ming nafarga yaqin qochoqlar to'planishdi. Ular asosan, xotin-qizlar va bolalardan iborat edilar. O'zbekiston Ruspublikasi Prezidenti Islom Karimovning topshirig'iga asosan hukumat tomonidan ko'rilgan tezkor chora tadbirlar tufayli chegara hududlarida shartli yo'lakchalar ochilib, ushbu qochoqlar O'zbekiston hududiga qabul qilina boshlandi. Xo'jaobod, Jalolquduq, Qo'rg'ontepa tumanlarida chodir shaharchalar tashkil qilinib, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi. Toza ichimlik suvi, issiq ovqat, dori-darmonlar, gigiyenik vositalar bilan ta'minlandi. Qirg'iziston voqealarida jarohatlangan va yarador bo'lgan og'ir bemorlar viloyat shoshilinch tez tibbiy yordam markazi va boshqa shifoxonalarga yotqizildilar. 11-

iyundan 13-iyunga qadar qirg'izistondan 75 ming nafar qochoq qabul qilinib olindi. Ularning 95 foizini ayollar va bolalar tashkil etdi. Andijon viloyati faollari tibbiyot, huquq-tartibot idoralari, ta'lim muassasalari xodimlari, qolaversa oddiy fuqarolar kechani kecha, kunduzni kunduz demay ularga sitqidildan xizmat ko'rsatishdi. Chegara qishloqlarida istiqomat qiluvchi oddiy fuqarolarimiz o'zlari yashab turgan uylarni qochoqlarga bo'shatib berishdi. Aksariyat xonadonlarda 10 nafardan 20 nafargacha bo'lgan qochoqlar istiqomat qilishdi. Topganini ular bilan baham ko'rishdi. Respublika tez tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon filiali shifokorlari o'z vazifalarini kecha-yu kunduz sitqidildan bajarib, jasorat namunalarini ko'rsatishdi. Chegara tumanlaridagi vaziyat qochoqlar lagerlarida yaratilgan shart-sharoitlar Andijon viloyati televideniyasi orqali har kuni muntazam yoritib borildi. Bu yerga kelib qochoqlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishgan BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi koordinatori Anita Niradi, BMTning «UNISEF» xalqaro bolalar jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Jan Mishel Delmat, Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o'rinbosari Fransuel Blansi, boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar vakillari, jurnalistlar davlatimizning insonparvarlik siyosatiga bag'rikeng o'zbek xalqining jasoratiga yuksak baho berdilar.

O'sh viloyati gubernatori Sorunbek Jiyanbekov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Buxoro viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Qirg'izistonda ro'y bergan voqealarga bildirgan fikr-mulohazalari qo'shni Respublika aholisi tomonidan qizg'in kutib olinganligini bildirib bu bag'rikenglik uchun davlatimiz rahbariga chuqur va samimiy minnatdorchilik izhor etdi.

Qirg'iziston Respublikasi vaqtli hukumatining maxsus vakili Aygul Risqulova O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasida asrlar davomida mustahkamlanib kelgan an'analar, do'stlik rishtalarini hech kim, hech qachon buza olmasligini qat'yan ta'kidlab o'tganligini chuqur hurmat bilan tilga oldi. Bu o'lmas qadriyatlar va millatlararo totuvlikni Qirg'iziston hukumati ham yurakdan his etib, ularni saqlab qolish uchun bor kuch va imkoniyatini ishga solishini bildirib o'tdi hamda O'sh va Jalolobod viloyatlarida sodir etilgan noxush voqealarning oldi olinmaganligi uchun Qirg'iziston Respublikasi vaqtli hukumati nomidan uzr so'radi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Is'hoqov A. Andijon tarixidan lavhalar. Toshkent, «Sharq», 2013. 567–569-bet.

**O'zbekistonning  
Tojikiston bilan  
hamkorligi**

Tojikistonda 1992–1996-yillarda davom etgan birodar-kushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi, uning qo'shni mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta'sir etdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. O'zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog'liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari o'zining yangi, mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o'tdi.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997-yilda 50 mln AQSH dollaridan oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan 50 foiz ko'pdir. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda. 2000-yilda O'zbekistonda 15 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston jamiyatning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida kutilmagan o'zgarishlar yuz berayotgan juda qiyin davrni, ya'ni o'itsh davrini o'z boshidan kechirmoqda. Bu esa jamiyatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor islohotlarini jadallashtirish, tadrijiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashni talab etmoqda. Bular esa davlat farovonligini asosini tashkil etadi.

O'zbekiston O'rta Osiyodagi eng katta davlatdir. Uning territoriyasi 447000 kvadrat kilometrni tashkil etadi, aholisi esa 30 million kishini tashkil etadi. O'tmishda bu mamlakat Yevropadan Uzoq Sharq sari cho'zilgan qadimiy ipak yo'lida joylashgani sababli savdo uchun juda qulay imkoniyatga ega edi.

Ma'lumki, qudrati 3,6 ming MVt ga va balandligi 350 metrga yaqin to'g'onda Rog'un GESi qurilish joyi seysmik jihatdan xavfli hudud bo'lib, yerosti silkinishlari 8–10 ballni tashkil etilishi kuzatilgan. Bordi-yu yer qimirlaydigan bo'lsa bu ulkan obyektida qanday fojialar ro'y berishini tasavvur qilish qiyin emas, shahar va qishloqlar suv ostida qolishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekiladigan joylar ishdan chiqishi, ko'plab odamlarning halok bo'lishi mumkin. Bu muammoning faqat bir tomoni bo'lsa, ekologik muvozanat va xavfsizlik buzilishi hamda Markaziy Osiyo aholisini fojiali ahvolga solib qo'yishi kabi boshqa sabablar ham bordir.

Diniy terrorizm va ekstremizm markazlari orqali qo'llab-quvvatlanilayotgan o'rta asr xalifaligini hamda dogmatik yo'nalishdagi mafkurani tiklash g'oyalari O'rta Osiyoda tinchlik va barqarorlikka katta xavf solmoqda. O'zbekiston rahbariyati qo'shni Tojikiston bilan o'zaro munosabatlarda ana shu mintaqaviy muammolarni shu mintaqa xalqlari manfaatlaridan kelib chiqib, O'rta Osiyoda mustahkam tinchlik va o'zaro totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab ish ko'rish uchun harakat qilmoqda.

**O'zbekistonning  
Turkmaniston bilan  
hamkorligi**

1991-yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma ikki davlat

o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1996-yil 16-yanvar kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjo'y shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida esa sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash, havo yo'li, bojxona ishlarida hamkorlik va o'zaro yordam, uzoq muddatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, daromad va mulkdan ikki yoqlama soliq olmaslik, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, sayyohlik va boshqa sohalarida hamkorlik qilish to'g'risidagi 20 dan ziyod bitimlar imzolandi.

**4. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari.**

O'zbekiston Respublikasi birinchi navbatda Yaqin va O'rta Sharq hamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga kirishdi. Negaki, O'zbekistonning ruhi, dini, urf-odatlari va an'analari Osiyodagi mamlakatlarga yaqindir.

**O'zbekistonning  
Yaqin va O'rta Sharq  
mamlakatlari bilan  
hamkorligi**

1991-yil 16–19-dekabr kunlari I. Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat – Turkiyada bo'ldi. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zol, Bosh vazir Sulaymon

Demirel va boshqa rahbarlar, ishilarmonlar bilan amaliy uchrashuvlar, suhbatlar bo'lib o'tdi. Safar chog'ida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumburiyati o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida



shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida Protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televideniye va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda ancha kengaydi. 1992-yil 28-aprel kuni O'zbekistonda Turkiya elchixonasi, Turkiyada O'zbekiston elchixonasi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. Hamkorlikning yanada chuqurlashtirishda Turkiya davlati rahbarlari – Turg'ut O'zol, Sulaymon Demirel, Tansu Chiller, Mesut Yilmazar Ahmet Sezerlarning O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolangan hujjatlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik gazlama va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qo'shma korxonalar qurish, kadrlar tayyorlash, turizmni rivojlantirish va boshqa sohalarda amaliy natijalar bermoqda. O'zbekistonda Turkiya sarmoyadorlari ishtirokida 200 dan ortiqroq qo'shma korxonalar barpo etildi. 1996-yil iyun oyida O'zbekiston avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi – «O'zavtosanoat» Turkiyaning «KochXolding» konserni bilan Samarqand shahrida «SamKochavto» o'zbek-turk qo'shma korxonasini barpo etish to'g'risida shartnoma tuzdilar. Tez orada bu qo'shma korxonada buniyod etildi va sig'imi o'rtacha avtobuslar hamda 8 tonnagacha yuk ko'taradigan yuk avtomobillar yig'ish yo'lga qo'yildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1992-yilda 75 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda 275 mln AQSH dollariga ko'paydi.

1992-yil 27–28-iyun kunlari Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos soldi. Safar kunlarida «O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma, iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, turizm sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlikni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil 13–14-avgust kunlari Pokistonga rasmiy tashrifi va unda imzolangan hujjatlar yanada yangi pog'onaga ko'tardi. Ikki davlat o'rtasida suv resurslari, elektrlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya sohasida hamkorlik qilish to'g'risida, pochta va telekommunikatsiya sohasida, davlat banklari va milliy banklar

o'rtasida vakolatxonalar ayirboshlash to'g'risida, investitsiyalar va sarmoyalarni himoya qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Benazir Bxutto 1995-yil may va noyabr oylarida O'zbekistonga ikki marta tashrif buyurdi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va Markaziy Osiyo xavfsizligi, Afg'onistonda birodarkushlik urushini to'xtatish masalalari bo'yicha fikr almashildi. Iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, fan, texnika, sayyohlikni rivojlantirish haqida bitimlar imzolandi.

O'zbekistonda Pokiston sarmoyalari ishtirokida 120 qo'shma korxonalar tuzilgan. Tabani, Merkurii, Metro, Laksan Taraka kabi 19 ta yirik firma va kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. 1994-yilda O'zbekiston va Pokiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 4,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Pokistonga charm xomashyosi, pilla, shoyi matolar, shisha, billur, yengil sanoat uchun mashina va uskunalar eksport qilmoqda. Pokistondan esa xalq iste'moli mollari, xususan, tayyor kiyimlar, poyafzal, charm buyumlar, kakao va shakar keltirilmoqda.

1992-yil 24-25-noyabr kunlari respublikamiz Prezidenti I. Karimovning Eron Islom Jumhuriyatiga rasmiy davlat tashrifi O'zbekiston va Eron o'rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Safar chog'ida «O'zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Jumhuriyati o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida» Deklaratsiya, havo transporti sohasidagi hamjihatlik to'g'risida memorandum, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi hamjihatlik to'g'risida memorandum, pochta, telefon va telegraf sohasidagi hamjihatlik to'g'risida memorandum, davlat Markaziy banklari o'rtasida bitim imzolandi. 1993-yil 18-oktabrda Eron Prezidenti Ali Akbar Hoshimiy Rafsanjoniyning O'zbekistonga rasmiy tashrifi bilan kelishi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yanada kengayishiga ko'maklashdi.

Safar chog'ida tranzit aloqalarni tartibga solish to'g'risida hamda xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar transport sohasida keng rivojlandi. 1996-yilda O'zbekiston Eron hududi orqali 34 ming tonna yuk tashigan bo'lsa, 2001-yili bu ko'rsatkich 487 ming tonnani tashkil etdi. 2001-yili O'zbekiston hududi orqali Eronning 750 ming tonna tranzit yuki olib o'tildi. O'zbekiston yuklari asosan Eronning Bander Abbas va Chobahor portlari orqali janubiy-sharqiy Osiyo mintaqasiga chiqarilmoqda. 2002-yil boshlarigacha Eron tadbirkorlari sarmoyalari ishtirokida mamlakatimizda 50 ga yaqin O'zbekiston-Eron qo'shma korxonasi barpo etildi va ular asosan ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda.

2002-yil 26-aprel kuni Eron Prezidenti Sayid Muhammad Hotamiyning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi paytida O'zbekiston va Eron o'rtasida imzolangan ikki tomonlama soliqqa tortilishga yo'l qo'ymaslik, daromad va sarmoya soliqlariga taalluqli ma'lumotlarni almashish, transport vositalari haydovchilari uchun viza masalalarini yengillashtirish, O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlar palatasi bilan Eronning savdo, sanoat va tog'-kon sanoati palatasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida hujjatlar ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini yanada boyitdi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Saudiya Arabistoni, Misrda bo'ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari imzolandi. Saudiya Arabistoni, Misr davlat va hukumat vakillarining O'zbekistonga rasmiy safari paytida imzolangan hujjatlar esa davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonlik yoshlar Kohira universitetida, «Al-Azhor» va «Ayn Shams» universitetlarida, Misrliklar Toshkent texnika va agrar universitetlarida tahsil ko'rmoqdalar. Toshkentda Misr Respublikasining fan va ta'lim markazi faol ishlab turibdi. 1992-yilda O'zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) ga a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekistonning yirik mamlakat – Hindiston bilan aloqalari kengayib bormoqda. 1993-yil 23–25-may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida «O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma, foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik to'g'risida, havo yo'llari to'g'risida va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 1993-yil 17–19-avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. 1995-yil 25-avgust kuni Toshkent shahrida Hindistonning «TATA Projekte LTD» firmasi tomonidan qurib bitkazilgan 600 o'rinli salomatlik zali, majlislar xonasi, servis xizmati, yerosti garaji, sauna, barlari, katta restoranlari bo'lgan zamonaviy mehmonxonaning ochilishi fikrimizning dalilidir.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini Islom Karimovning 2000-yil 1–3-may kunlari Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Safar paytida O'zbekiston Prezidenti Hindiston Prezidenti va Bosh vaziri bilan muzokaralar olib borib, uning yakunida 10 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik to'g'risida Qo'shma bayonot, jinoyat – qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega. Shuningdek iqtisodiy, madaniy, ta'lim, axborot, bojxona sohalari bo'yicha hamkorlik qilish bo'yicha hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan. O'zbekistonda 2000-yilda Hindiston bilan hamkorlikda tashkil etilgan 30 ga yaqin qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

#### **O'zbekiston va Xitoy aloqalari**

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan. Bu mamlakatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi bilan davlatlararo aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki paytlardayoq O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1992-yil 2–3-yanvar kunlari XXR tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzin O'zbekiston va Xitoy aloqalari Toshkentda bo'ldi, shu kunlari ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi, elchixonalar ochishga qaror qilindi.

1992-yil 12–14-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning XXR ga davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Safar chog'ida hamkorlikning turli sohalari bo'yicha 20 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida, qishloq xo'jaligida hamkorlik to'g'risida, sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida bitimlar bor edi.

1994-yil 18–20-aprel kunlari XXR davlat Kengashining raisi Li Penning O'zbekistonga davlat tashrifi paytida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Xitoy tomoni O'zbekistonda tayyorlanayotgan IL-76 TD va IL-114 samolyotlarini xarid qiladigan bo'ldi. 1994-yil 24–25-oktabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Xitoyga ikkinchi marta safar qildi va muhim ahamiyatga molik bo'lgan hujjat – «O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq

Respublikasi o'rtasida o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida bayonoma» imzolandi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida konsullik shartnomasi imzolandi.

Islom Karimovning 1999-yil 8–10-noyabr kunlari XXR ga uchinchi marta safari chog'ida siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, telekommunikatsiya sohalarida hujjatlar imzolandi. Ikki tomonlama aloqalar yanada kengaydi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 78 ta O'zbekiston–Xitoy qo'shma korxonasi ikki mamlakat o'rtasida hamkorlikning rivojlanib borayotganining dalilidir.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintao davlat tashrifi bilan 2004-yil 14-iyun kuni O'zbekistonga keldi. Ikki davlat boshliqlari uchrashuvida O'zbekiston–Xitoy munosabatlariga doir masalalar muhokama qilindi. 2004-yil yanvar–aprel oylarida o'zaro savdo hajmi 134 mln AQSH dollariga yetganligi, umumiy qiymati 100 mln AQSH dollariga teng ikki tomonlama loyihalar amalga oshirilayotganligi qayd etildi. Ikki mamlakat to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, kimyo, kommunikatsiya sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Muzokaralar yakunida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari, do'stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risida Qo'shma deklaratsiya imzolandi. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda hamkorlik qilishga, texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikka oid, Toshkentda Konfusiy nomidagi institutni tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitimlar jami 10 ta hujjat imzolandi.

Xitoy rahbari ta'kidlaganidek, o'zaro ishonch va hurmat, ikki tomonlama manfaatdorlikka tayangan O'zbekiston–Xitoy munosabatlari xalqlarimizning umumiy mulkidir.

Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Tzingpinning 2013-yil 8–10-sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasiga buyurgan davlat tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim voqea bo'ldi. Martabali mehmonning ta'kidlashicha, tashrif «Ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash uchun puxta zaminni yaratdi, uni sifat jihatdan yangi darajaga ko'taradi hamda mintaqada tinchlik, barfarorlik va taraqqiyotni ta'minlanishiga o'z hissasini qo'shadi». Hozirda O'zbekistonda Xitoy kapitali ishtirokida 445 ta korxonalar, ushbu davlatning 71 ta kompaniyasi vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2002-yildan boshlab Xitoy investitsiyasi va kreditlari ishtirokida umumiy qiymati 6,75 milliard dollar bo'lgan 83 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bu tarixiy tashrif yakunlari bo'yicha investitsiya sohasida umumiy qiymati 15 milliard



dollardan ortiq 31 ta loyihani amalga oshirish, shu jumladan qiymati 7,7 milliard dollar bo'lgan XXR moliya resurslarini taqdim yetishga oid hujjatlar imzolanganini alohida ta'kidlash lozim.

Matbuot anjumanida Xitoy rahbari O'zbekiston Prezidenti bilan uchrashuvlardan olgan o'z taassurotlari haqida gapirar ekan, shunday ta'kidladi: «O'z yurtida mustaqil davlatni barpo etish borasida ulkan tajribaga ega, mamlakati gullab-yashnashi yo'lida misli ko'rilmagan ishlarni amalga oshirayotgan katta donishmand va buyuk yo'lbo'shchi bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'ldim. O'zbekiston Prezidenti – mavjud voqelikdan kelib chiqadigan va uzoq kelajakni oldindan ko'ra oladigan, jahondagi barcha muhim muammolarni, bu SHXT doirasida bo'ladimi, mintaqaviy hamkorlik yoki butun dunyodagi o'zgarishlar bo'ladimi – hamma masalalarni donishmandlarcha va chuqur tahlil eta oladigan, **global strategik fikrlash qobiliyatiga ega inson. O'zbekiston Prezidenti nufusi milliarddan ortiq Xitoy xalqining haqli ravishda katta do'stidir. Islom Karimovdan ko'plab haqqoniy va teran ma'noli fikrlarni** eshitdim va ularning barchasi men uchun juda foydali va ibratli bo'ldi!».

#### **O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligi**

1992-yil mart oyida O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatiladi. 1992-yil 19-iyunda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Janubiy Koreya Respublikasiga davlat tashrifi bilan bordi. Bu safar ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo, madaniy-texnikaviy aloqalarga asos soldi. «O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida» Deklaratsiya imzolandi. Savdo-iqtisodiy ayirboshlash haqida, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga mablag' sarflaydigan Janubiy Koreya ishbilarmonlariga beriladigan kafolatlar haqida bitimlar tuzildi. Madaniyat, maorif, ommaviy axborot, sayohat, sport sohalarida bahamjihat hamkorlik qilishning uzoq muddatga mo'ljallangan rejalari belgilab olindi. Janubiy Koreyadagi DEU Korporatsiyasi rahbariyati bilan Asakada avtomobil zavodi qurishga kelishildi.

1992–1996-yillarda «O'zDEUavto» O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodini loyihalashtirish, qurish ishlari amalga oshirildi. Zavod 1996-yil 25-mart kuni avtomobillar ishlab chiqarishni boshlab yubordi. O'zbekiston bilan Koreyaning «Kobul Tekstayl» kompaniyasi o'rtasidagi hamkorlik yildan yilga chuqurlashib bormoqda. Mazkur kompaniya O'zbekistonga 250 mln. AQSH dollari

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2013-yil 18-sentabr.

hajmida sarmoya kiritdi va o'zlashtirildi. «Kobul Tekstayl» ishtirokida Toshkent, To'ytepa va boshqa shaharlarda qo'shma korxonalar barpo etildi va xaridorgir, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonning Koreya Respublikasi bilan hamkorligi kengayib bormoqda. 1999-yilga qadar O'zbekistonga Koreyadan 1,2 mlrd AQSH dollari hajmida sarmoya kirib keldi va o'zlashtirildi. O'zbekistonda 70 dan ortiq Koreya hamkorligida barpo etilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1997-yildayoq 1 mlrd AQSH dollaridan oshdi.

#### **O'zbekiston va Yaponiya hamkorligi**

O'zbekiston Sharqning eng rivojlangan mamlakati – Yaponiya bilan ham hamkorlik qilmoqda. Yaponiya 1991-yildayoq O'zbekiston mustaqilligini tan oldi, 1992-yilda o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1994-yil 16–19-may kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Safar paytida «O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida munosabatlarning asosiy O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligi O'zbekiston va Yaponiya aloqalari prinsiplari haqida» Qo'shma Bayonot, tashqi ishlar bo'yicha munosabatlar haqida hujjat imzolandi. O'zbekiston delegatsiyasi mashhur Panasonic konsernida bo'ldi va uning rahbariyati bilan O'zbekistonda filial ochishga kelishildi. Respublikamiz shaharlarida Panasonic mahsulotlarini sotish yo'lga qo'yildi. Yaponiya O'zbekistonga 100 mln. AQSH dollari hajmida beg'araz yordam berdi. O'zbekistonda Yaponiyaning dunyoga mashhur «Misui», «Misubisi», «Sumitoto», «Tomen», «Marubeni», «Nishe Ivai» korporatsiyalarining doimiy vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular bilan O'zbekiston tashqi iqtisodiy vazirligi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolangan. Yaponiya hukumati, o'nlab firma va kompaniyalar Ko'kdumaloq, Sho'rtan neft-gaz konini o'zlashtirishda, Buxoroda neftni qayta ishlash zavodini qurishda, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta'mirlashda o'z sarmoyalari bilan qatnashdi.

O'zbekiston Yaponiya bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor berayotganligi sababli 1999-yil aprel, 2001-yil may oylarida Yaponiyaning «Keydzay Doyukay» korporativ rahbarlar uyushmasining Prezidenti Koichi Minaguchi boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. «Keydzay Doyukay» uyushmasi tashabbusi bilan Yaponiya O'zbekistonga imtiyozli kreditlar ajratmoqda.

Yaponiya hukumatning «Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi doirasida O'zbekistonda telekommunikatsiya, transport infratuzilmasi va ta'lim sohalaridagi

loyihalar ijrosi uchun 560 mln. AQSH dollari miqdorida imtiyozli davlat krediti berildi. Yaponiya xalqaro hamkorlik banki esa yoqilg'i-energetika va to'qimachilik sohalari uchun O'zbekistonga 720 mln AQSH dollari miqdorida kredit berdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2002-yil 28–31-iyul kunlari Yaponiya hukumatning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Yaponiya bosh vaziri Dzunitiro Koidzumi va imperator Akixito bilan samimiy uchrashuvlar, suhbatlar bo'lib o'tdi. Tashrif natijasida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida:

- do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'rtasida Qo'shma Bayonot;
- iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash to'rtasida Qo'shma Bayonot;
- ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari hamkorligi, O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining «Misubisi», «Misui», «Marubeni», «Nishe Ivai» korporatsiyalari bilan hamkorligi, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat banki bilan «Bank of Tokyo-Mytsubisi» o'rtasida imtiyozli kredit borasidagi va boshqa jami 14 ta hujjat imzolandi.

Safar natijasida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik yangi, strategik bosqichga ko'tarildi.

1995–2002-yillarda Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan kreditlari miqdori 1,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi yildan yilga oshib bormoqda. O'zbekistonda 10 dan ortiq O'zbekiston–Yaponiya qo'shma korxonalari barpo etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

#### **O'zbekiston va Tinch okean havzasi hamkorligi**

O'zbekistonning Tinch okean havzasi mamlakatlari – Malayziya va Indoneziya bilan davlatlararo aloqalari o'rnatildi. Bu borada O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining 1992-yil iyun oyidagi Malayziya va Indoneziyaga safari muhim ahamiyatga egadir. Safar kunlarida O'zbekiston va Malayziya o'rtasida iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'rtasida bitimlar imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston va Indoneziya o'rtasida diplomatak aloqalar o'rnatish bo'yicha qo'shma axborot, ikki tomonlama munosabatlar bo'yicha qo'shma bayonot, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'rtasida bitim imzolandi.

1995-yil 8–10-aprel kunlari Indoneziya Respublikasi Prezidenti Suxarto rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Prezidenti I.Karimov va Indoneziya Prezidenti Suxarto O'zbekiston Respublikasi bilan Indoneziya Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tamoyillari

to'g'risida qo'shma bayonnoma imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasidagi sayyohlik sohasidagi hamkorlik haqidagi memorandum hamda ikki mamlakat poytaxtlari oralig'ida samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi. O'zbekistonning Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi Vyetnam Sotsialistik Respublikasi, Kambodja, Tailand, Avstraliya va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik aloqalari yo'lga qo'yildi, iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlanib bormoqda.

### **5. O'zbekistonning AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi.**

#### **O'zbekiston va AQSH hamkorligi**

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Amerika Qo'shma Shtatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992-yil 15–16-fevral kunlari AQSH davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yil 16-mart kuni Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning elchixonasi ochildi.

1993-yil 14-sentabrda AQSH davlat departamentining maxsus topshiriqlar bo'yicha elchisi Strob Talbot O'zbekistonda bo'ldi va O'zbekiston Prezidenti bilan hamkorlik qilish masalalarida suhbatlashdi.

1995-yil 6-aprelda AQSH mudofaa vaziri Uilyam Persi O'zbekistonga keldi, O'zbekistonning NATO «Tinchlik yo'lida hamokrlk» dasturida ishtiroki muhokama qilindi. AQSH armiyasi o'quv-mashq markazida tinchlikni ta'minlash maqsadida o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston qurolli kuchlari vzvodi ishtirok etdi. O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida, ikki yoqlama soliq olmaslik to'g'risida shartnomalar tuzilgan. Toshkent – Nyu-York o'rtasida bevosita havo yo'li ochildi.

O'zbekistonda 1996-yil boshlarigacha Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta o'zbek–amerika qo'shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQSHning Nyumont Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi «Zarafshon – Nyumont» qo'shma korxonasi bor. Bu korxonada 2002-yilgacha 83 tonna oltin tayyorlandi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 1996-yil 23–28-iyun kunlarida AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. I.Karimov AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi

munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga daxldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, havfsizlik masalalari muhokama etildi. Bill Klinton AQSH ma'muriyati Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanini, O'zbekiston bilan qalin munosabatlar o'rnatishni istayotganini, O'zbekistonning tezroq dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi yo'lida yordam berajagini ta'kidladi. I. Karimov bilan B. Klinton uchrashuvi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarga siyosiy O'zbekiston va AQSH aloqalari zamin hozirladi. 1996-yil 25-iyun kuni O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi.

O'zbekiston Prezidenti boshliq davlat delegatsiyasining AQSHda bo'lishi chet el sarmoyasi uchun respublikada yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risidagi axborot taqchilligini bartaraf etdi. Safar chog'ida imzolangan hujjatlar Amerika biznesi va sarmoyalarining O'zbekistonga erkin kirib kelishi uchun yanada keng yo'l ochdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash, o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish yo'lidan bormoqda. O'zbekistonda AQSHning 28 ta kompaniya, firma va banki o'z vakolatxonalarini ochgan. Bular qo'shma korxonalar barpo etish, savdo-sotiqni kengaytirish ishiga ko'maklashmoqda.

2001-yilda O'zbekistonda AQSH bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar soni 70 tadan ortdi. AQSH sarmoyasi ishtirokida respublikamizda barpo etilgan 305 ta qo'shma korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, gaz-kimyoye, neft, oltin qazib olish, transport, kommunikatsiya va ta'lim sohalarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. «Zarafshon – Nyumont», «O'z – Teksako», «O'z – keysmash», «O'z – keystraktor», «O'z – Eksayd», «BiEy Ay»ning Xo'jaobod gaz ombori qurilishi, «ABB Lummus Global» bilan hamkorlikdagi Sho'rton gaz-kimyoye majmuasi shular jumlasidandir. O'zbekistonning AQSH bilan savdo aylanmasi 300 mln AQSH dollaridan oshdi.

2001-yil 11-sentabr kuni xalqaro terroristlar AQSHda sodir etgan fojiali voqealar paytida O'zbekiston birinchilardan bo'lib AQSH hukumatining Xalqaro terrorizmga qarshi aksilterror kaolitsiya tuzish haqidagi taklifi tarafdori bo'lib chiqdi. O'zbekiston AQSH bilan birgalikda xalqaro aksilterror kaolitsiyada faol qatnashdi. O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda. 1991-yildan 2001-yil sentabrgacha tomonlar orasida davlat ahamiyati darajasida 28 ta tashrif qayd etilgan bo'lsa, 2001 sentabrdan 2002-yil aprelegacha esa 20 taga yaqin ana shunday tashriflar amalga oshirildi.

2002-yil 11–14-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi Prezident Jorj Bush taklifiga binoan rasmiy davlat tashrifi bilan



AQSHda bo'ldi. AQSH Prezidenti J.Bush va martabali hukumat vakillari Islom Karimovni Oq uyda obro'-e'tiborli mehmon sifatida kutib oldi. Tomonlar xalqaro ahvol, Markaziy Osiyodagi jarayonlar, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, harbiy va harbiy-texnikaviy, iqtisodiy hamkorlik masalalarda fikr almashdilar. Tashrif yakunida «O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida o'zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida deklarasiya», ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo'jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

AQSH ni sinovli damlarda qo'llab-quvvatlagani uchun Prezidentimiz Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan «Xalqaro miqyosdagi buyuk davlat arbobi» mukofoti bilan taqdirlandi. Bu mukofot Amerika xalqining O'zbekiston xalqiga hurmat-e'tiborining timsolidir. Shunday qilib, O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik tobora o'sib bordi va mustahkamlandi. Bugungi kunda O'zbekiston va AQSH strategik hamkor va sherik mamlakatlardir.

**O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi** O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1996-yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim», uning 1999-yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar aloqalari yildan yilga rivojlanib, chuqurlashib bormoqda. Respublikamizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiya qilindi. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491 ta korxonalar ishlayapti, ulardan 111 tasi yuz foizlik Yevropa kapitaliga ega. 1995–2002-yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd AQSH dollarlik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. 2002-yilda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 1 mlrd. 65,8 mln AQSH dollarini, 2003-yil yanvar-oktabr oylari yakunlari bo'yicha esa 910,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining a'zosi, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan Germaniya bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib

bormoqda. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Germaniyaga 1993-yil 28-aprel kuni boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga egadir. I.Karimov GFR Federal prezidenti Rixard fon Vayzenker va Federal kansler Gelmut Kol bilan samimiy, o'zaro tenglik asosida, ishonch va qat'iyat bilan suhbatlashdi. Ikki davlat o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida, sarmoyalar qo'yishni amalga oshirish va o'zaro himoya qilishga ko'maklashish to'g'risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi bitimlar imzolandi. «Doyche bank», «Mercedes-Bens» va «Simens» kompaniyalarining rahbarlari bilan uchrashuvlar bo'ldi, ular bilan hamkorlik qilish haqida kelishib olindi. Safar natijalariga ko'ra O'zbek–Germaniya hamkorligi masalalari bo'yicha hukumatlararo komissiya tuzildi. Toshkentda ikki – tomonlama savdo-iqtisodiy palata tashkil etildi, GFR ning elchixonasi ochildi. 1994-yil 1-sentabrda GFR poytaxti Bonnda O'zbekiston Respublikasining Yevropada birinchi elchixonasi ochildi. Hozirgi paytda elchixona Germaniyaning yangi poytaxti Berlin shahrida faoliyat yuritmoqda. «Toshkent–Frankfurt» havo yo'li ochildi, O'zbekistonda «Doyche bank»ning bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda.

Germaniyaning «Geydelber» firmasi O'zbekistonda nashriyot-matbaa sohasida hamkorlik qilayotgan yirik kompaniyadir. «Geydelber» firmasi asbob-uskunalari bilan Yangiyo'l kitob fabrikasi, Toshkent va Nukus poligrafiya kombinatlari, Samarqanddagi «Tong» nashriyoti qayta jihozlandi. O'zbekistondagi «Rastr» va «Groteks» nashriyotlari «Geydelber» firmasi texnologiyasi asosida ishlamoqda. Natijada maktablar uchun darslik, o'quv qo'llanmalari va boshqa turdagi nashriyot mahsulotlari ishlab chiqarish ancha yaxshilandi. 2001-yilda O'zbekiston – Germaniya – Rossiya hamkorligidagi «Namangan qog'oz» qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning 2001-yil 2–5-aprel kunlari Germaniya Federativ Respublikasiga, Germaniya Federal kansleri Gerxard Shrederning 2002-yil 9–10-may kunlari O'zbekistonga qilgan rasmiy safarlari O'zbekiston – Germaniya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.

Ikki mamlakat tadbirkorlari va rasmiy doirlari o'rtasida aloqalar kengayib bormoqda. 1997-yilda O'zbekistonda 55 ta Germaniya kompaniyasining vakolatxonalarini faoliyat yuritgan bo'lsa, 2001-yilda bu ko'rsatkich 80 taga yetdi. Ularning eng yiriklari «Xobas TAPO», «Xiva Karpet» va boshqalardir. 2003-yilda germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, farmasevtika sanoati, transport va boshqa sohalarda tashkil etilgan 138 ta korxonaga faoliyat ko'rsatdi, ulardan 40 tasi yuz foizlik Germaniya kapitaliga ega. O'zbekistonga kiritilayotgan Germaniya sarmoyalari hajmi 2001-yildayoq 1 mlrd AQSH dollaridan oshdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2001-yilda 283,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Germaniya Federativ Respublikasi O'zbekistonning Yevropadagi eng yirik iqtisodiy hamkoridir.

O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 1993-yil 28–30 oktabr kunlari O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Prezident I. Karimov Fransiya Prezidenti F. Mitteran, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali muzokaralar yuritdi. F. Mitteran qabul marosimida nutq so'zlab: «Hozirgi siyosiy vaziyatda Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallab turgan mustaqil O'zbekiston Sharq bilan G'apb o'rtasida ishonchli ko'prik bo'lishi mumkin. Ko'p asrlik tarix, teran an'analarga ega bo'lgan, insoniyatning faxriga aylangan allomalarni yetkazib bergan O'zbekiston doimo fransuzlarning diqqatini tortib kelgan. Bu tashrifdan keyin shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatingiz biz uchun yanada yaqin bo'lib qoldi», deb ta'kidlagandi. Bu Vatanimiz to'g'risida, uning shon-shuhratini ulug'lovchi xolisona, oliyjanoblik bilan berilgan bahodir. Safar natijasida Parijda «O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma», madaniyat, ilmiy-texnikaviy va maorif sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim imzolandi.

Mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi respublikamizda demokratiyaning yanada rivojlanishi, shuningdek, O'zbekistonning Yevropa va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiya'dagi yirik «Kredit Kommersial de Frans» banki o'rtasida muddaolar haqida Bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyahasini pul bilan ta'minlash ko'zda tutildi. Taniqli «Elf-akiten» neft-kimyos kompaniyasi, «Texnip» firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurishga kelishildi. Fransiya va O'zbekiston o'rtasida savdo-sotiq hisob-kitoblarini ta'minlab turgan «Kredi kommersila de Frans» banki zavod qurilishini ham mablag' bilan ta'minladi. O'zbekiston bu bankka mablag' qo'ydi, u hamkorlik uchun kafolat bo'lib turibdi.

1994-yil 25–27-aprel kunlari Fransiya Prezidenti F. Mitteranning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari

o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar, shuningdek havo transporti sohasida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiyalar imzolandi. O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar kengayib bormoqda. Qishlok xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarda hamkorlik qilinmoqda. O'zbekiston xalqaro ishlarda katta tajriba va nufuzga ega bo'lgan Buyuk Britaniya bilan ham hamkorlik qilmoqda.

1993-yil 22–25-noyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha Yelizaveta II, Bosh vazir J. Meyjor bilan samimiy, ochiq o'zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo'lib o'tdi.

Safar samarali bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya qirolligi o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar to'g'risida shartnoma, sarmoyadorni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim, havo yo'llarini ochish to'g'risida bitim, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida memorandum imzolandi. «Toshkent – London» havo yo'lida samolyot qatnovining yo'lga qo'yilishi aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1996-yilning boshlarida O'zbekistonda Britaniya Kengashi bo'limining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytarish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi.

O'zbekistonning Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Italiya, Ispaniya, Gresiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatildi va kengayib bormoqda. Shveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning Yevropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat – Shveysariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida aloqalarning yo'lga qo'yilishi mamlakatimizning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligini yangi bosqichga ko'tardi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan O'zbekiston o'rtasida sheriklik va hamkorlik bitimi imzolandi. Bitim tufayli O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan 15 davlat bilan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, investitsiya, moliya, bojxona, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, telekommunikatsiya, transport va boshqa sohalarda sheriklik va hamkorlik munosabatlari o'rnatdi. O'zbekiston Oliy Majlisi bilan Yevroparlament

o'rtasida ham aloqalar o'rnatildi. Bu aloqalar O'zbekiston parlamenti bilan Yevro-parlament o'rtasida 1998-yilda tuzilgan hamkorlik qo'mitasi darajasida kengayib bormoqda. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida imzolangan sheriklar va hamkorlik to'g'risidagi bitim bunga aloqador davlatlar parlamentlari tomonidan ratifikatsiya qilindi.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlardan respublikaga ilg'or texnologiyalar, sarmoyalar kirib kelishi, ko'plab qo'shma korxonalarining qurilishi oqilona tashqi siyosatning natijasidir.

2003-yilda respublikamizda xorijiy sarmoya ishtirokida barpo etilgan 2087 ta qo'shma korxonada jahondagi 80 mamlakatdan kelgan sheriklari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatdi. Ular 386,7 mlrd so'm hajmida iste'mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqardi, aholiga xizmat ko'rsatdi. Jahondagi 80 dan ortiq xorijiy bank bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonga kiritilgan chet el investitsiyalari 14 mlrd AQSH dollaridan oshdi. Bir-yilda taxminan 1 mlrd AQSH dollari o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston jahondagi 140 mamlakat bilan savdo-sotiq qilmoqda. Har yilgi tovar ayirboshlash hajmi 6–8 mlrd AQSH dollarini tashkil etmoqda. Ilg'or mamlakatlar kadrlar tayyorlashda, bank sohasida va boshqaruvda, axborot tarmoqlarini yo'lga qo'yishda, yetakchi birjalar bilan aloqalar o'rnatishda, qonunchilik tajribasini o'rganishda respublikamizga ko'maklashmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.



## GLOSSARIY

**Abbaz** – Xiva xonligidagi pul birligi. XIX asr 50-yillarida bir abbaz bir so'mlik rus qog'oz puliga teng bo'lgan.

**Abjad** – arab alifbosi tartibidagi harflardan tuzilgan bo'lib, ularning har biri ma'lum raqamni eslab qolishni osonlashtirgan shartli 8 ta so'zdan (abjad, xavvaz, xutti, kaslaman, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag') iborat bo'lgan; qadimgi vaqtlarda sonlarni ko'paytirishni osonlashtirgan usul; Sharq tarixi va arab grafikasi tarqagan Sharq mamlakatlari klassik adabiyotida sodir bo'lgan biror muhim hodisaning sanasini harflar vositasi bilan ifodalash usuli. Masalan, abjad usulida alif – 1 ni, bo – 2 ni, jim – 3, dol – 4 ni va h.k. bildirgan.

**Avliyo** – valiy so'zining ko'pligi, xudoga yaqin odam; vasiylar, homiylar, ruhoniylar.

**Avliyoota-1)** Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan shahar. Hozirda Qozog'iston Respublikasining shahri. 2) Tarozi shahrining 1938-yilgacha bo'lgan nomi.

**Avom-1)** omma, barcha kishilar, oddiy xalq degan ma'noni bildiradi; 2) ba'zan o'qimagan, bilimsiz nodon kishi ma'nosida ham ishlatilgan (masalan, avom odam).

**Avorizot** – harbiy yurishlar paytida favqulodda xarajatlar uchun aholidan to'planadigan soliq.

**Avsat** – o'rta-1) madrasa talabalarining o'rta guruhi. 2) XIX–XX asr boshlarida Xiva xonligida 5–10 tanob yeri bo'lgan o'rtahol dehqonlar.

**Agrar** – yerga oid; yerga egalik qilishga, yerdan foydalanishga taalluqli.

**Adno** – eng past, quyi-1) XIX–XX asr boshlarida Xiva xonligida 5 tanobgacha yeri bo'lgan quyi tabaqadagi dehqonlar; 2) Madrasa talabalarining boshlang'ich o'quv guruhi.

**Adoviy** – porox; dori.

**Adra** – Xiva xonligida sug'orilmaydigan yerlar.

**Ayoqchi** – XI–XIV asrlarda biror mansabdor shaxs tomonidan uyushtirilgan tantana, ziyofat yoki qabul chog'ida mehmonlarga sharob va may quyuvchi, kosagul, soqiy.

**Ajam** – arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon va Eron ham «Mulki ajam» deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olimlar «ajamiy» deb atalgan. Keyinchalik ajam nomi faqat eronliklarga nisbatan qo'llanilgan, Eronni esa Ajam yoxud Ajamiston deb ataganlar.

**Azarhurra** – otashparastlar topinadigan muqaddas olov.

**Azata** – erkin shaxs; ozod ma'nosida.

**Ayl** – o'rta asrlarda O'rta Osiyo davlatlari harbiy qo'shinidagi o'n kishilik harbiy bo'linma.

**Ayg'oqchi** – o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida asosan harbiy atama sifatida qo'llanilgan bo'lib, qo'shinning ma'lumot olib keluvchi darakchilari hamda qo'shinning darakchi bo'limlari ma'nosida keng qo'llanilgan. Shuningdek, ushbu atamaning yolg'on gap yoyuvchi, ig'vo, tuhmat qilib kun ko'ruvchi shaxs ma'nosida ham qo'llanilgani ma'lum.

**Akkor** – qoranda; qishloqning ziroatkor aholisi.

**Amid ul-mulk** – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.

**Amir** – farmon beruvchi, boshliq, hokim, qo'shin boshlig'i, sarkarda, hukmdor.

**Amirlik** – musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqarilgan mamlakat yoki viloyat.

**Amir al-Mo'minin** – mo'minlar amiri – ilk islom davridagi xalifalarning unvoni. Mazkur unvon ilk bor ikkinchi xalifa Umarga berilgan, keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan atalgan.

**Amir ul-umaro** – amirlar amiri, bosh amir.

**Amiri lashkar** – temuriylar, shayboniylar hamda Turkiston xonliklarida keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvon, bosh qo'mondon.

**Amlok** – yer-mulk – o'рта asrlarda davlat ixtiyoridagi yer-suv va umuman, turli-tuman boylik; XVI–XIX asrlarda Buxoro va Qo'qon xonliklarida yer egaligining bir turi. Amlok turkumidagi yer-suv shahzodalar, amirlar, lashkarboshilar va boshqalarga davlat oldidagi xizmatlari uchun in'om qilingan (davlat xazinasiga soliq to'lash sharti bilan). Yirik yer egalariga va dehqonlarga ijaraga berish yo'li bilan foydalanilgan.

**Amul** – Chorjo'y shahrining o'рта asrlardagi nomi.

**Anbiyo** – payg'ambarlar degan ma'noni anglatadi.

**Anishizm** – ruh va jonga ishonish, sig'inish.

**Antik** – qadimgi.

**Anqo** – Sharq mamlakatlarida zikr qilinishicha, Qo'hi Qof tog'ida yashagan afsonaviy qushning nomi.

**Araz** – qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi vazir.

**Arbob** – Buxoro amirligida qishloq yoki shaharlarda mahalla boshlig'i, oqsoqol.

**Ark** – ichki qal'a; sitadel – antik va o'рта asr shaharlari ichida, uning baland joyida qurilgan va mustahkam devor bilan o'ralgan kichik qal'a; O'рта Osiyo ko'hna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal'a – bosh o'rda.

**Arxeolog** – arxeologiya mutaxassisi, arxeolog olim.

**Arxeologiya** – qadimdan qolgan, qadimiy yodgorliklar haqidagi, qadimgi zamonlarni o'rganuvchi fan.

**Arxiv** – davlat yoki ayrim shaxslarga tegishli muhim qadimiy hujjatlarni saqlaydigan maxsus tashkilot.

**Atrok** – turklar.

**Axriman** – zardushtiylik dinining zulmat, o'lim va qabihlik tangrisi.

**Axuramazda** – zardushtiylik oliy tangrisi, xudosi.

**A'lo hazrat** – hazrati oliylari, janobi oliy.

**Badaviy** – arab ko'chmanchilari.

**Band** – toshlardan bino qilingan suv omborining to'g'oni, suv ombori, to'g'on.

**Barzikor** – qo'shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.

**Barot** – maktub, podshoh yoki xon guvohtonmasi – podshoh, sulton, xon tomonidan soliq yoki jarimadan ozod etish; yerga vaqtincha yoki to'la egalik qilish huquqini beruvchi yorliq.

**Begar** – jamoat ishlariga safarbar etish, hashar.

**Biy** – urug' va qabila oqsoqoli.

**Boj** – savdogarlardan olinadigan o'lpon, soliq, tovon.

**Borgoh** – makon, dargoh, dunyoga keladigan va unga qaytadigan azaliy muqaddas maskan (joy).

**Botmon** – og'irlik o'lchovi (XII–XV asrlarda 20 kg ga teng bo'lgan).

**Burong'or** – qo'shinning o'ng qanoti – flangasi.

**Burg'u** – karnay.

**But** – but, sanam, yakkaxudolik dini kelib chiqquncha urug'chilik va qabilachilik davrida keng

tarqalgan majusiylik, butparastlik dini.

**Buxorudot** – VII asrning 80-yillaridan VIII asrning birinchi choragigacha Buxoroda hukmronlik qilgan sulola.

**Bo'dun** – chorvador aholi, qora bo'dun – qora xalq.

**Vazir** – devonxona boshlig'i, ministr.

**Valiahd** – toj-u taxt vorisi, o'rinbosar.

**Valiy** – avliyo, aziz, ega, sohib.

**Varvar** – yunonlar o'zlaridan boshqa barcha xalqlarga nisbatan «varvar» so'zini ishlatganlar.

**Vassallik** – o'rta asrlarda bir feodalning o'zidan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kuchliroq ikkinchi feodalga qaramligi. Vassallik asosida yer-suv munosabatlari yotadi. O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida, shuningdek, O'rta Osiyoda vassallik G'arbiy Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan tartibda bo'lgan.

**Vaqf** – turg'un, qo'zg'almas, xayr – ehson, nazr – niyoz – musulmon mamlakatlarida davlat va ayrim shaxslar tarafidan biror narsani (er-suv, do'kon, hammom, karvonsaroy va boshqalar) yoki yer-suv va boshqa mulkdan keladigan daromadning bir qismini xayrli maqsad bilan masjid, madrasa yoki mozorga nazr-niyoz qilish; diniy muassasalar, masjid, madrasa, honaqa va mozorlarga ajratilgan yer-suv va mol-mulk. Vaqfdan keladigan daromadlar o'sha diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga berilgan.

**Vaqfkor** – vaqfni ishlovchi – vaqf qilingan yerda ishlovchi kishi.

**Vaqfnoma** – vaqf guvoohnomasi – davlat yoki mulkdor shaxslar tomonidan yer-suv yoki daromad keltiradigan biror bir mulkning xayrli maqsad bilan masjid, madrasa, xonaqoh, mozorlarga ajratilganligi to'g'risida va odatda qozi tomonidan tasdiqlanadigan rasmiy hujjat. Vaqfnomada mulkning vaqfga o'tkazilish sababi, mulk egasining nomi, vaqf qilingan mulkning mutavallisi (boshqaruvchisi), vaqf mulkidan foydalanish tartibi, guvohlar aniq ko'rsatilgan. Vaqfnoma qozi tasdig'idan keyin qonuniy kuchga kirgan.

**Vahiy** – ilohiy xabar.

**Volost** – qadimgi Rossiyada bir hokimga, xususan, knyazga qarashli bo'lgan hudud; o'rta asrlarda (1930-yilga qadar) bir necha qishloqni o'zida birlashtirgan kichik ma'muriy birlik. Volost tizimi O'rta Osiyoda ham o'lka Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin (XIX asrning 60-yillarida) joriy etilgan. Volost tizimi 1926-yilda bekor qilingan.

**Gaz** – bir tirsakka teng uzunlik o'lchovi bo'lib, Eronda uni ko'proq zar, zir'a va arsh deb ham ataganlar. O'rta asrlarda bir gaz 62 sm ga teng bo'lgan. Amalda gaz o'rta bo'yli odamning engagidan bir qo'lining uchigacha bo'lgan uzunlikdir.

**Gerb** – meros, vorislik – davlat, shahar, tabaqa va biror sinfning bayroq, pul va muhrida tasvir etilgan maxsus belgisi. G'arbiy Yevropada XI–XII asrdan joriy etilgan. Gerb barcha mamlakatlarning davlat ramzlaridan biri sanaladi.

**Go'rxon** – qoraxitoylar sulolasi oliy hukmdorlarining faxriy unvoni.

**Davlatxona** – podsho xonasi – podshoning qabulxonasi, o'rta asrlarda mahalliy hukmdor dargohi.

**Darbon** – saroy darvozasi posboni. Buxoro xonligida Amir saroyi yoki qarorgohi eshigi yonida oybolta, nayza, so'ngra esa miltiq yoki to'pponcha bilan qurollangan qo'riqchi.

**Darvish** – kambag'al, so'fiy, qalandar, faqir.

**Darra** – charm va qayishdan to'qilgan yo'g'on va og'ir zarb beruvchi qurol.

**Darxon** – XII–XIII asrlarda mo'g'ul qabilalari orasida qo'llanilgan unvon. Darxonlar har qanday soliq va majburiyatlardan ozod qilinganlar, ulug' xon huzurida bo'lish huquqidan ham foydalanganlar.

**Dargoh** – Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Buxoro xonligida markaziy davlat boshqaruvi muassasasi; oliy davlat idorasi. Dargoh tepasida oliy hukmdor – xon turgan.

**Darg'acha** – mo'g'ullarda chorva xo'jaligini idora qiluvchi boshliq.

**Dahma** – maqbara, yer osti va yer usti sag'anasi, qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik.

**Devon** – 1) Musulmon Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyo davlatlarida oliy davlat amaldorlarining majlisi; 2) Oliy davlat kengashi; 3) Vazirlar Mahkamasi.

**Devonbegi** – vazirlar mahkamasining bosh ma'muri.

**Devoni avqof** – masjid, madrasalarning vaqf mulklari bilan shug'ullanuvchi devon.

**Devoni amid al-mulk** – Somoniylar davlatida davlat hujjatlari va elchilik aloqalari devoni.

**Devoni vazir** – Somoniylar davlatida vazirlar devoni.

**Dehqon** – «qishloq oqsoqoli» – yer egasi.

**Dinor** – oltin, tanga (bir misqol – 4,8 gr ga teng bo'lgan).

**Diplomatiya** – *grekcha* – «diploma» (diploma) so'zidan olingan bo'lib, qadimgi Gretsiyada «ikkiga buklangan hujjat» so'zidan olingan va ushbu hujjatni manzilga yetkazuvchi shaxs «diplomat» deb atalgan. Tashqi aloqalarda davlatning faoliyatini anglatishda «**diplomatiya**» (frans. «diplomatie») termini rasmiy tarzda G'arbiy Yevropada, aniqrog'i, XVIII asrning oxiri Fransiyada vujudga keldi. Zamonaviy diplomatiyaning asoslari ham G'arbiy Yevropada joriy etiladi. Diplomatiya atamasiga oid turli ta'riflar mavjud bo'lib, ular asosida diplomatiyani – muzokaralar olib borish san'atidir, deb ta'riflash mumkin.

Diplomatiya unda ishtirok etayotganlar soniga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1. Ikki tomonlama diplomatiya xalqaro munosabatlarning mustaqil subyektlari (davlat – davlat; davlat – xalqaro tashkilot) o'rtasidagi diplomatik aloqalarni bildiradi. 2. Ko'p tomonlama diplomatiya xalqaro munosabatlarning bir nechta subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi. Ko'p tomonlama diplomatiyada muzokaralar odatda global mintaqaviy ahamiyatga molik muammolarni yechishga qaratilgan bo'ladi.

**Dovul** – katta nog'ora.

**Dorug'a** – harbiy ma'mur.

**Dudang** – hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.

**Yonichar** – turklarning piyoda askari.

**Yom-jom** – savdo yo'llaridagi qo'noq.

**Yorliq, yorlig'** (*o'zbekcha*) – buyruq, farmoyish, rasmiy hujjat – o'rta asrlarda amirlar, ruhoniylar yoki savdogarlarga biror imtiyoz berilganligi (masalan, soliqlarning ba'zilaridan yoki umuman ozod qilingani, chet davlatlarga borib savdo-sotiq qilishi mumkinligi) haqida markaziy hukumat tomonidan beriladigan rasmiy hujjat.

**Yorg'i** yoki **yorg'u** – sud majlisi; hukm; jazolash; o'ch olish ma'nolarida qo'llanilgan. Shuningdek, Buxoro amirligining sharqiy beklklarida og'ir soliq va xirojlarni to'lashdan bosh tortgan dehqonlardan undirilgan jarima ham yorg'u deb atalgan. Buxoro amri Nasrulloxon joriy etgan vaqf yerlarni musodara qilish.

**Yoso** – qonun-qoida – Chingizxon tomonidan joriy etilgan va davlatni idora qilish tartib-qoidalarini o'z ichiga olgan qonun. Bu qonun-qoidalar qanday bajarilayotganligini nazorat qilib turuvchi mansabdor yosovul deb atalgan.

**Jadidchilik** – «jadid» – «yangi» – yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi.

**Jaloyir** – turkiy qabilalaridan biri.

**Jamoa** – kishilar birlashmalari shakllaridan biri, asosan iqtisodiy

jamoa tuzumi davriga xosdir.

**Jarib** – 958 kv m yer maydoni.

**Jarchi** – hukmdorlarning xalqqa qarata chiqargan farmonini, ayrim shaxslarni taqdirlash yoki jazolash haqidagi amrini, urush e'lon qilish yoki tugagani haqidagi xabarni va shu kabi xabarlarini bozor maydoni yoki jamoa to'plangan boshqa yerda baland ovoz bilan e'lon qiladigan shaxs.

**Jayhun** – Amudaryoning nomlaridan biri.

**Jahongir** – jahonni oluvchi, jahonni bo'ysundiruvchi.

**Jez** – bronza – mis, qo'rg'oshin va rux qo'tishmasi.

**Jeta** – qaroqchi, qoloq.

**Jiyba, jeva** – qadimgi temir yoki po'latdan yasalgan harbiy kiyim.

**Jilovdor** – xonni yoki boshqa oliy martabali kishini otga mindirib va tushirib qo'yuvchi xizmatkor.

**Jome masjidi** – jamoat namozi o'qiladigan katta masjid.

**Joriya** – cho'ri. Sotib olingan xizmatkorlikka yollangan va urishlarda asir tushgan xotin-qizlar O'rta Osiyoda joriya deb atalgan. Ular asosan xizmatkor, cho'ri qiz bo'lishgan.

**Juvong'or** – qo'shinning so'l qanoti.

**Juz'ya** – islom dini qoidasiga ko'ra g'ayridinlardan olinadigan soliq.

**Jo'chi ulusi** – Chingizxon saltanatining 1224-yildagi bo'linishida uning katta o'g'li Jo'chixonga tekkan ulus.

**Zakot** – tozalash, 1. Musulmon mamlakatlarda aholi umumiy boyligining 1/40 miqdorida har yili olinadigan diniy soliq. 2. Musulmonlarda «Tozalovchi» diniy soliq bo'lib, bu haqda «Qur'on»da oyat bor.

**Zand** – «Avesto»ning pahlaviy tilidagi tafsiri.

**Zarbxona** – chaqa va tangalar so'qiladigan ustaxona.

**Zardushtiylik** – O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy dini, uning nomi shu dinga asos solgan payg'ambar Zardusht yoki Zardo'st nomi bilan bog'liq (yunoncha Zoroastr).

**Zindiqlik** – xudosizlik, dinga ishonmaslik.

**Zindon** – yerto'la, yer osti qamoqxonasi – og'ir jinoyatchilar saqlanadigan maxsus joy bo'lib, Sharq va G'arb mamlakatlarida mavjud bo'lgan. Zindon asosan, arkda, oliy hukmdor istiqomat qilgan xonalardan birining ostida joylashgan.

**Zobit** – idora etuvchi, boshqaruvchi; qo'shin boshlig'i.

**Zulqarnayn** – Aleksandr (Aleksandr Makedonskiy)ning laqabi, ikki shoxli ma'nosida.

**Ibn** – Sharq xalqlarida erkaklar ismlari tarkibida keluvchi so'z. XX asr boshlarigacha O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham keng qo'llanilgan. O'g'li degan ma'noni ifodalaydi. Masalan, Olim ibn Zoir. Zoir o'g'li Olim.

**Ilekxon** – qoraxoniylar sulolasiga mansub bo'lgan kichik hukmdorning unvoni.

**Ilmi aruz** – she'riyat.

**Imom** – oldinda turuvchi – 1. Diniy oliy rahbar, hukmdor (xalifa, Yaman viloyatining boshqaruvchisi, turklarda sulton, forslarda Hazrati Alining avlodi), 2. Shialarning oliy boshlig'i. 3. To'rt mazhabdan (hanafiyalar, xanbaliylar, molikiylar va shofe'iyalar) biriga asos soluvchi; 4. Hamma musulmonlar yoki ular bir guruhining boshlig'i, ruhoni; 5. Namozda jamoatning oldida turib, namozni boshqaruvchi.

**Rasul** – elchi, payg'ambar.

**Registon** – o'rta asrlarda shaharning markaziy maydoni.



- Riyozot** – matematika.
- Sadoq** – o'qdon.
- Sadr** – diniy va dunyoviy hokimiyat hukmdori.
- Sa'id**–1. Muhammad payg'ambar avlodlarining faxriy unvoni. 2. Ba'zi musulmon mamlakatlarida hukmdor unvoni.
- Saltanat** – hokimiyat, sultonlik, podsholik, hukmronlik, imperiya.
- Sarbador** – boshini dorga tikuvchi, dor ostiga boruvchi.
- Sarboz** – oddiy jangchi.
- Sardor** – boshliq, yetakchi, yo'l boshchi, rahbar.
- Sipoh** – askar, qo'shin.
- Sohibqiron** – jahon egasi, jahongir.
- Suvoriy** – otliq askar.
- Sulton** – podshoh, hukmdor.
- Sultonlik** – tepasida sulton turgan davlat, sulton hokimiyati.
- Sunniylar** – sunniy mazhabidagilar, sunnatga amal qiluvchi musulmonlar.
- Suyurg'ol** – oliy tabaqa zodagonlarga in'om qilingan yer-mulk.
- Tavorih** – tarixlar.
- Talant** – ahamoniylar davrida soliq miqdori, bir talant 34 kg teng.
- Tamg'a** – savdo boji, savdogarlardan olinadigan soliq.
- Tanob** – yer o'lchovi, 2–2,5 ming kv m hajmdagi yer maydoni.
- Tarxon** – ozod etilgan. 1. O'rta asrlardagi feodalning unvoni. 2. Soliqlar to'lashdan ozod etilgan yer va mulklar. 3. O'zbek-turk urug'laridan birining nomi.
- Taxt** – muayyan balandlikda o'rnatilgan serhasham, ziynatli tayanma kursi, podsho (monarx) o'tiradigan joy, podsholik, saltanat.
- Taxt vorisi** – valiahd, saltanat vorisi, toj-u taxt merosxo'ri, voris shahzoda, bo'lajak hukmdor.
- Toj** – toj-taxt, saltanat, mustabid hokimiyat belgisi.
- Totem** – urug' yoki qabila ibtidosi, urug' asoschisi, ajdod, urug' jamoalari topinadigan hayvon, o'simlik yoki jism.
- Totemizm** – totemlarga sig'inish. ibtidoiy diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri.
- Tuman**–1. O'n minglik harbiy qism. 2. Uyezd, rayon. 3. O'n ming. 4. Eron tilla puli.
- Tuman og'asi** – o'n minglik askariy qism amiri, qo'mondon.
- Tug'ro** – davlat nishonasi, gerb.
- Ulamo** – olimlar, musulmon davlatlarida qozilar, musulmon ruhoniylarining yuqori tabaqasi.
- Ulus** – el, harbiy-ma'muriy o'lka.
- Umaro** – amirlar.
- Ummat** – bir tilda so'zlashuvchi kishilar, bir payg'ambarga tobe insonlar.
- Usturlob** – astronomiya asbobi, astrolobiya.
- Ushur** – hosildan 10 foiz hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.
- Farmondo** – boshqaruvchi.
- Fulus** – mayda mis chaqa.
- Fiqh** – diniy huquq ilmi.
- Xabargir** – xabarchi, kuzatuvchi, ayg'oqchi.
- Xalifa** – o'rinbosar, xulaf o – xalifalar.
- Xalifalik** – xalifa hokimiyati.

**Xandasa** – geometriya.

**Xandaq** – mudofaa inshooti.

**Xatib** – din peshvosi.

**Xattot** – kitob va risolalar ko'chiruvchi kotib.

**Xiroj** – soliqning bir turi; hosilning 20–25 foizi hisobidan olinadigan qishloq xo'jalik solig'i.

**Xoja** – ega, boshliq, uy egasi, oila boshlig'i.

**Xonaqoh** – masjid ibodatxonasi, g'aribxona, musofirxona.

**Xutba** – juma kunlari va hayitlarda o'qiladigan namoz (unga davlat boshlig'ining nomi qo'shib o'qilgan).

**Xo'ja, xoja, xo'jayno** – yer-suv xo'jasi, xo'jayin.

**Charxpalak** – suv ko'tartish inshooti.

**Cherik** – qo'shin, askar.

**Chiqir** – tuya yoki ho'kiz qo'shib aylantiriladigan suv ko'targich inshoot.

**Chokar** – harbiy drujina, qurollangan guruh, ko'ngillilar to'dasi.

**Chorakor** – o'zgarar yerida ishlab, hosilning 25 foizini o'ziga olib ishlaydigan yollanma qo'shchi, ziroatkor.

**Cho'r** – lashkarning sharqiy qanot amiri.

**Shayx** – islom dinida oliy ruhoniylar vakili, diniy aqidalarni biluvchi, va'z-nasihat qiluvchi, ba'zan oliy, diniy o'quv yurti talabasi.

**Shayxul-islom** – din va islom ilmi peshvosi, islom dini oqsoqoli, diniy arbob.

**Shariat** – Qur'oni karimda bayon qilingan islom dinining huquqiy va urf-odat qoidalari.

**Shahriston** – ichki shahar.

**Shialar** – shia mazhabidagilar, shiaga amal qiluvchi musulmonlar.

**Shoh** – podsho, monarxlik unvoni.

**Eloqxon** – elning oq xoni; yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi.

**Elchi** – bu so'z o'g'uzlar davlati faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, miloddan avvalgi davrdayoq O'g'uzxon mamlakati va Xitoy o'rtasida do'stlik hamda qardoshlik to'g'risida bitim imzolangan. Ushbu bitimni imzolash uchun Xitoyga yuborilgan rasmiy shaxs elchi, deb nomlangan. G'arb manbalarida «elchi» o'rnida ko'pincha «ambassador», ruschada «Posol» (poslat – «yubormoq» so'zidan) so'zi qo'llaniladi. Tarixda ilk bor elchilarni tayinlash qadimgi Gretsiyada kuzatiladi.

**Elchixonona** – suveren davlatning boshqa suveren davlat hukumati qoshidagi diplomatik vakolatxonasi, shu vakolatxona joylashgan bino. Bu vakolatxonani elchi boshqaradi. U o'z davlatining rasmiy vakili hisoblanib, diplomatik unvonlardan biriga ega bo'ladi.

**Era** – alohida raqam, boshlang'ich raqam. – 1) Yulian kalendari asosida kelib chiqqan yil hisobining boshlangan payti. Masalan, Diokletian erasi eramizning 284-yil 29-avgustidan, Dionisiy erasi eramizning 754-yilidan, ya'ni Rim shahriga asos solingan yildan, musulmonlarning yil hisobi eramizning 622-yilning 16-iyulidan, ya'ni Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga ko'chgan kunidan boshlangan. Bu yil hisobi hijriy era deb ham ataladi. Yangi era, ya'ni hozirgi era xristian dini asoschisi Iso payg'ambarning tug'ilgan kunidan boshlanadi; 2) oldingi davrlardan tubdan farq qiladigan davr, masalan, kosmik era; 3) geologiyada – geoxronologik shkalaning eng yirik bo'linmasi; «Era» termini ikkinchi – Xalqaro geologik kongress (1881) tomonidan kiritilgan.

**Etnik guruh** – muayyan bir xalq (qabila, qabila ittifoqi, elatning) ning parchalanib alohida qismlarga bo'linib ketishi natijasida vujudga keladigan guruh.

**Etnogenez** – xalq va elatning kelib chiqishi.

**Yabg'u** yoki **jabg'u** – el-yurt hokimi.

**Yalavoch** – xabar yetkazuvchi.

**Yasovul** – soqchi.

**Yasoq** – soliq, jarima, to'lov.

**O'rdugoh** – qo'shin lageri, to'xtaydigan qo'noq; podsho qarorgohi.

**O'floq va suvloq** – yaylovlardan olinadigan soliq.

**Qavm** – bir urug' vakillari.

**Qaysar** – podshoh; Rim va Yunon podsholarining qadimiy laqabi.

**Qalandar** – dunyodan ko'ngli sovib o'zini chekkaga olgan kishi, tarki dunyo qilgan odam, uzlatga ketgan kishi; elma-el tentirab yuruvchi darvesh.

**Qal'a, qasr** – saroy, qo'rg'on.

**Qasida** – she'riy madh, maqto'v yoki marsiya; oda; epitafiya.

**Qiron** – ikki sayyoraning bir burchagiga yaqin kelishi.

**Qozi** – ijrochi, amalga oshiruvchi, hukm qiluvchi.

**Qoziyul quvvat** – bosh qozi, oliy sudya.

**Qoraxon** – buyuk xoqon.

**Qul** – xo'jayinining, quldorning xususiy mulki bo'lib qolgan kishisi.

**Quldor** – qulga egalik qiluvchi ekspluatator.

**Qurultoy** – turkiy va mo'g'ul xalqlarida umumiy yig'ilish, kengash **Qur'on** – islom dinining muqaddas kitobi.

**Qo'rg'on** – atrofi baland devor bilan o'ralgan darvozali turar joy.

**G'azavot** – harbiy yurish, bosqin, hujum. Islom dinini yoyish maqsadida va g'ayridinlar, kofirlarga qarshi qurol kuchi bilan amalga oshiriladigan «muqaddas» urush.

**G'oziy** – 1. Musulmonlarning g'ayridin, kofirlarga qarshi olib borgan urushlari. 2. G'ayridinlarga qarshi kurashga rahbarlik bilan yoki alohida mahorat bilan urushgan jangchiga beriladigan faxriy unvon.

**G'ulomlar** – qarollar, qullar, yosh xizmatkorlar.

**G'usl** – cho'milish.

**Hazrati oliylari** – podshohlar va hukmdorlarni ulug'lash maqsadida ularning nomiga qo'shib aytiladigan so'z.

**Hazara** – ming kishilik qo'min.

**Hijrat** – 622-yilda Payg'ambar Muhammad alayhivassalom va musulmonlarning Makkadan Madinaga ko'chib borishlari. Hijriy yilining boshlanishi.

**Hojib** – harbiy boshliq.

**Hojibul** – hujob; qo'mondon.

**Hajar ul-asvod** – Makkada hojilar tavof qiladigan katta qora tosh.

**Hokim** – 1. Viloyat hokimi. 2. Hukmdorning viloyatdagi noibi. 3. Shahar, uyezd hokimi.

**Horun** – posbon, kuzatuvchi, Muso payg'ambar akasining ismi.

**Xoqon** yoki **qoon** – hukmdor, podsho.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-mavzu:</b> O'zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati .....	10
<b>2-mavzu:</b> O'rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri .....	20
<b>3-mavzu:</b> O'zbek xalqining etnik shakllanishi .....	43
<b>4-mavzu:</b> O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari .....	57
<b>5-mavzu:</b> Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi, rivojlanishi, tarmoqlari va ahamiyati .....	80
<b>6-mavzu:</b> Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo xalqlari .....	90
<b>7-mavzu:</b> O'rta Osiyo xalqlari hayotida IX–XII asrlarda yuz bergan uyg'onish (renessans) davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi .....	118
<b>8-mavzu:</b> O'rta Osiyo mo'g'ullar istilosi va hukmronligi davrida .....	164
<b>9-mavzu:</b> Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV–XV asrlar) .....	179
<b>10-mavzu:</b> Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari .....	252
<b>11-mavzu:</b> Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olinishi. Imperiya istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik .....	333
<b>12-mavzu:</b> Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat .....	396
<b>13-mavzu:</b> Sovet tuzumining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati va uning salbiy oqibatlari .....	442
<b>14-mavzu:</b> Sovetlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy qaramligi va uning oqibatlari .....	460
<b>15-mavzu:</b> O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati .....	490
<b>16-mavzu:</b> O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi .....	510
<b>17-mavzu:</b> Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti .....	544
<b>18-mavzu:</b> O'zbekistonning ma'naviy, madaniy taraqqiyoti .....	573
<b>19-mavzu:</b> O'zbekiston va jahon hajamiyati .....	603



R. SHAMSUTDINOV, H. MO'MINOV

## O'ZBEKISTON TARIXI

*(o'quv qo'llanma)*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2013

Muharrirlar *Rustam Boyto'ra, Rasuljon Nafasov*  
*Rassom Tolip Qanoatov*  
Texnik muharrir *Bezkod Karimov*  
Sahifalovchi *Lidiya Soy*  
Musahhihlar: *Ma'mura Ziyamuhamedova,*  
*Sharofat Xurramova*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.

Bosishga 20.11.2013 ruxsat etildi. Bichimi 70x90  $\frac{1}{16}$ .  
«Timec New Roman» garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 49,0.  
Nashriyot-hisob tabog'i 44,0. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 3230.

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.  
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.





ISBN 978-9943-26-109-9



9 789943 261099